



Zahiriddin
Muhammad Bobur

Boburnoma




YANGI ASR AVLODI
TOSHKENT

UO'K: 82.0(575) (092)
94 (575) (092)

KBK: 84(50'1)

B - 79

Bobur, Zahiriddin Muhammad

Zahiriddin Muhammad Bobur / Boburnoma: . - T.:
«Yangi asr avlodi», 2015. - 704 b.

ISBN 978-9943-27-497-6

«Boburnoma» - o'zbek mumtoz adabiyotidagi bebaho asarlar qatoridan munosib o'rin egallab turgan asar sifatida e'tirof etiladi. Unda O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, jug'rofiyasiga oid qimmatli ma'lumotlar o'rin egallagan. Asarning o'sha davr o'zbek adabiy tilining yorqin namunasi sifatidagi qadri, qimmatli hamon o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

UO'K: 82.0(575) (092)

94 (575) (092)

KBK: 84(50'1)

Nashrga tayyorlovchi:

Porso SHAMSIYEV

ISBN 978-9943-27-497-6

© Zahiriddin Muhammad Bobur. «Boburnoma»,
«Yulduzcha» nashriyoti, 1989.

© Zahiriddin Muhammad Bobur. «Boburnoma»,
«Yangi asr avlodi» nashriyoti, 2015.

NASHR HAQIDA

O'zbek mumtoz adabiyotining XV asr oxiri, XVI asr boshlarida yashab ijod etgan atoqli namoyandalardan Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining qarama-qarshilikli, murakkab va qisqa hayotida (1483–1530) anchagina asarlar yaratgan bo'lsa-da, ularning hammasi bizgacha yetib kelgan emas.

Boburning hozirgacha ilm xazinasiga kelib qo'shilgan asarlari – uncha to'liq bo'lmagan bir devoni, islom dini asoslarini bayon etuvchi «Mubayyin» nomli she'riy risolasi, «Volidiya» atalgan tasavvufga oid bir kitobchanning nazm bilan tarjimasi, Bobur ixtiro etgan va «Xatti Boburiy» nomi bilan mashhur bo'lgan alifbo jadvali hamda qo'lingizdagi «Boburnoma» asaridan iboratdir.

Boburdan qolgan ijodiy merosning eng muhim va eng yirigi O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, geografiyasi, etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va o'sha davr o'zbek mumtoz adabiyoti va adabiy tilining yorqin namunasi bo'lgan «Boburnoma» asaridir. Bu asar mazmunining rang-barangligi, juda katta va qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olganligi, xil va uslubining go'zalligi bilan XVIII, ayniqsa, XIX asr sharqshunos olimlarining diqqatini o'ziga tortgan va uning turli qo'lyozma nusxa-

lari izlana boshlagan va g'arb tillariga tarjima qilishga kirishilgan edi.

Asarning asli nomi «Boburiya» bo'lsa-da, uni «Voqeanoma», «Tuzuki Boburiy», «Voqeoti Boburiy» deb atadilar, keyinchalik asar «Boburnoma» degan nom bilan mashhur bo'lib ketdi¹.

Bu asarning mavjud to'liq matni 1857-yilda turkolog N.I. Ilmipskiy tomonidan Qozonda tipografiya yo'li bilan o'zining to'rt betlik nashr uslublarini ko'rsatgan ruscha so'zboshisi bilan bosilgan. Asarni nashrga tayyorlash va dunyoga chiqarishda rus olimi N.I. Ilminskiyning zo'r faoliyat ko'rsatganini alohida qayd etish kerak.

Bu nashrdan keyin 1905-yilda ingliz sharqshunoslaridan biri A. Beverij xonim «Boburnoma»ning Haydarobodda topilgan bir qo'lyozmasining faksimilesini (qo'lyozmaning ayni o'zini) sinkografiya yo'li bilan nashr etdi. Bu nusxaning qachon va kim tomonidan ko'chirilgani noma'lum. Bu ham to'liq matn bo'lsa-da, qozon bosmasiga nisbatan ba'zi tushib qolgan joylari va ayrim nuqsonlari bordir. Lekin umuman olganda har ikkala nusxa ham ayrim-ayrim nuqsonlardan xoli emasdir.

London nusxasining afzalligi shundaki, bunda A. Beverij nusxaning ayni o'zini berib juda yaxshi ish qilgan, shu bilan birga asar oxirida mukammal kishi ismlari, geografiya va qabila, urug' nomlari ko'rsatkichi berilgan va ingliz tilida o'n betlik so'zboshisi ham bor. Lekin ko'rsat-

¹ Qaralsin: «Boburnoma» I qism, So'z boshi. – T., 1948, 5-8-betlar (Bunda «Boburnoma» qo'lyozmalari, nashri va turli tillarga tarjimalari va boshqalari haqida ma'lumot berilgan).

kichlarni transliteratsiyasiz (bir alifbo harflarini boshqa alifbo harflari bilan yozish) arab yozuvi bilan berilishi nomlarni to'g'ri o'qish masalasi-ni qiyinlashtiradi.

Mana shu ikki mavjud nusxaga asoslanib, 1948–1949-yillarda «Boburnoma»ning ikki qism-dan iborat to'liq matni bosib tarqatilgan edi¹. Bu nashr yangi o'zbek alifbosida, kishi va geografik nomlar ko'rsatkichi, to'liq lug'at, ba'zi bir qisqa izoh va tarjimalar ilovasi bilan bosilgan edi.

Shundan keyin «Boburnoma»ning to'liq matni 1960-yili qayta nashrga tayyorlandi va nashr etildi.

Ilgarigi nashri kabi bu nashrga ham yuqori-da zikr etilgan London va Qozon bosma nus-xalari asos qilib olindi. Shu ikkala nusxaga qay-tadan taqqoslanib, ikkisiga ham tanqidiy qaral-di. Birisini birisi to'ldirish yo'li bilan tuzilgan mazkur matnni anchagina mukammallashgan desa bo'ladi. Nusxalarda ma'no jihatidan farq qiladigan so'zlar kelganda bundaylarning farq va variantlari bet ostida ko'rsatila borilgan. Shu jihatdan bu nashrning bet osti izohlari av-valgiga nisbatan anchagina ko'paygan edi.

Bu nashrni tayyorlash davomida ayrim so'z va atamalar transkripsiyasini aniqlash mas-alalarida «Boburnoma»ning Anqara (Turkiya)da turkchaga qilingan tarjimasi² va filologiya fan-lari nomzodi M.Salyening ruschaga qilgan to'liq tarjimasini³ ham ko'zdan kechira borilgan va shular bilan moslashtirishga urinilgan edi.

¹ Zahiriddin Muhammad Bobur: «Boburnoma», I–II qism, T., 1948–1949 nashrga tayyorlovchilar: N.Shamsiyev, S.Mirzayev.

² Zahiriddin Muhammad Babur, Vekayi, Babur, in hati-rati, Gilt I–II Ankara.

³ Baburname, zapiski Babura. Tashkent, 1958.

Kitob oxiriga ilova qilingan ko'rsatkichlar qayta tuzilgan va tarjimalar ham yangidan qarab chiqilgan. Asarning ilgarigi bosmasida ba'zi bir tushirib qoldirilgan joylari bu bosmada kiritilib, matn mukammallashtirilgan edi.

«Boburnoma»ning biz tomondan tayyorlangan hozirgi nashrida ham, ilgarigi nashrlaridagi kabi, yuqoridagi asosiy va yordamchi manbalarga taqqoslab, bosmada yuz bergan va o'z tomonimizdan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish va tuzatishga urinildi. Tarjima va izohlar ham qaytadan qarab chiqildi, izohlar birmuncha to'ldirildi.

Ammo ilgari ham aytganimizdek, qilingan shu ishlarga qaramasdan, hali ham ishda birmuncha nuqsonlar mavjudligi aniq. Jumladan, ayrim so'zlar, ayniqsa, Afg'oniston va Hindistonga taalluqli bo'lgan jug'rofiy nomlar, kishi ismlari, o'simlik, hayvonot va boshqa xil atamalar transkripsiyasini batamom to'g'ri va aniq deb bo'lmaydi. Ish jarayonida masalaning eng qiyin tomoni ham shu bo'ldi. Bulardan boshqa yana birmuncha matn bilan bog'liq kamchiliklar bo'lishi mumkin. «Boburnoma»ning puxta tayyorlangan tanqidiy matni maydonga chiqmaguncha va «Boburnoma»da qo'llangan O'rta Osiyo, Afg'oniston hamda Hindistonga oid barcha tarixiy nomlarning aniq transkripsiyasi ishlanmaguncha bu asarning nashrlarida noaniqlik va nuqsonlar yuz berishi tabiiydir...

Porso SHAMSIYEV

SAKKIZ YUZ TO‘QSON TO‘QQIZINCHI YIL VOQEALARI¹

Tengri taoloning inoyati bilan va hazrati on Sarvari koinotning shifoati bilan va chahoryori bosafolarning himmati bilan seshanba kuni ramazon oyining beshida tarix sakkiz yuz to‘qson to‘qquzda Farg‘ona viloyatida o‘n ikki yoshta podshoh bo‘ldum.

Farg‘ona viloyati beshinchi iqlimdir. Ma‘muraning kanorasida voqe bo‘lubtur. Sharqi Koshg‘ar, g‘arbi Samarqand, janubi Badaxshonning sarhadi tog‘lar, shimolida agarchi burun shahrlar bor ekandur, misli: Olmoliq va Olmotu va Yangi kim, kutublarda Tarozkent bitirlar, mo‘g‘ul va o‘zbek jihatdin bu tarixda buzulubtur, aslo ma‘mura qolmabdur. Muxtasar viloyattur, oshliq va mevasi farovon. Girdo-girdi tog‘voqe bo‘lubtur. G‘arbiy tarafidakim, Samarqand va Xo‘jand bo‘lg‘ay, tog‘ yo‘qtur. Ushbu jonibtin o‘zga hech jonibtin qish yog‘iy kela olmas. Sayhun daryosikim, Xo‘jand suyig‘a² mashhurdur, sharq va shimoliy tarafidin kelib, bu viloyatning ichi birla o‘tub, g‘arb sori oqar, Xo‘jandning shimoli Fanokatning janu-

¹ Asarda hamma sarlavhalardagi tarixlar arabcha berilgan. Sarlavhalarning tarjimalari sahifa ostida ko‘rsatib boriladi. Mundarijada esa shu tarjimalar berildi. Qavs orasidagi raqamlar hozirgi yil hisobidir. Asarning boshlanishida sarlavha yo‘q, uni biz shartli ravishda qo‘ydik, bu hozirgi yil hisobida 1493-yilga to‘g‘ri keladi.

² Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasida saqlanmoqda bo‘lgan «Boburnoma» London bosmasining birinchi varag‘i yo‘q. 1 b varaq matnini q. b. dan oldik.

bi tarafidinkim, holo Shohruxiyag'a mashhur-dur, o'tub yana shimolg'a mayl qilib, Turkiston sori borur. Turkistondin xeyli quyiroq bu daryo tamom qumg'a singar¹, hech daryog'a qotilmas.

Yetti pora qasabasi bor; beshi Sayhun suyining janub tarafida, ikki shimoli jonibida. Janubiy tarafidagi qasabalar bir Andijondurkim, va-satta voqe bo'lubtur, Farg'ona viloyatining poy-taxtidur. Oshlig'i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo'lur. Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas. Andijonning noshpotisidan yaxshiroq noshpoti bo'lmas. Mo-varounnahrda Samarqand va Kesh qo'rg'onidin so'ngra mundin ulug'roq qo'rg'on yo'qtur. Uch darvozasi bor. Arki janub tarafida voqe bo'lub-tur. To'qquz tarnov suv kirar. Bu ajabturkim, bir yerdin ham chiqmas. Qal'aning girdo-girdi xandaqning tosh yoni sangrezalik shohroh tushubtur. Qal'aning girdo-girdi tamom mahal-lottur. Bu mahalla bila qad'ag'a fosila ushbu xandaq² yoqasidog'i shohruhtur. Ovi qushi dog'i ko'p³ bo'lur, qirg'ovuli behad semiz bo'lur. An-doq rivoyat qildilarkim, bir qirg'ovulni uskunasi-ni to'rt kishi yeb tugata olmaydur. Eli turkdur. Shahr va bozorisida turki bilmas kishi yo'qtur. Elining lafzi qalam bila rosttur.

Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning mu-sannafoti bovujudkim Hiriya nash'u namo topibtur, bu til biladur.

¹ Bu davrning boshqa manbalarida ham Sirdaryoning qumda yo'qolishi haqida ma'lumotlar uchraydi.

² Q. b. – xandaqtur va.

³ L. b. – «ko'p» so'zi yo'q.

Elining orasida husn xeyli bordur. Yusuf Xojakim¹ musiqida mashhurdur. Andijoniydur. Havosining ufunati bor. Kuzlar el bezgak ko'p bo'lar.

Yana bir O'sh qasabasidir. Andijonning sharqi janubiy tarafidur, sharqqa moyil, Andijondin to'rt yig'och yo'ldur. Havosi xo'b va oqar suyi farovondur. Bahori bisyor yaxshi bo'lar. O'shning fazilatida xeyli ahodis vorid bo'lubtur. Qo'rg'onning sharqi janubiy bir mavzun tog' tushubtur, Baroko'hg'a mavsum. Bu tog'ning qullasida Sulton Mahmudxon bir hujra solibtur, ul hujradin quyiroq ushbu tog'ning tumshug'ida tarix to'qquz yuz ikkida men bir ayvonlik hujra soldim. Agarchi ul hujra mundin murtafe'dur, vale bu hujra bisyor yaxshiroq voqe bo'lubtur: tamom shahr va mahallot oyog' ostidadur. Andijon rudi O'shning mahallotining ichi bila o'tub, Andijong'a borur. Bu rudning har ikki jonibi bog'ot tushubtur, tamom bog'lari rudqa mushriftur, binafshasi bisyor latif bo'lar. Oqar suvlari bor, bahori bisyor yaxshi bo'lar, qalin lola va gullar ochilur. Baroko'h tog'i domanasida shahr bila tog'ning orasida bir masjid tushubtur, masjidi Javzo otliq, tog' tarafidin bir ulug' shahjo'y oqar. Ushbu masjidning tashqari sahni nishebroq, sebargalik, pursoya, safoliq maydon voqe bo'lubtur. Har musofir va rahguzar kelsa, anda istirohat qilur. O'sh avboshining zarofati budurkim, har kim anda uyqulasa, ul shahjo'ydin suv quyarlar.

¹ L. b. - Xoja Yusuf.

Umarshayx mirzoning oxir zamonlarida qizil bila oq mavjliq tosh ushbu tog'da paydo bo'ldi: pichoq dastasi va takband va ba'zi nimalar qilurlar, xeyli yaxshi toshdur. Farg'ona viloyatida safo va havoda O'sh chog'liq qasaba yo'qtur.

Yana bir Marg'inondur, Andijonning g'arbi dadur, Andijondin yetti yig'och yo'ldur. Yaxshi qasaba voqe bo'lubtur, pur ne'mat; anori va o'ru-gi asru ko'p-xo'b bo'lur. Bir jins anor bo'lur, «dona kalon» derlar, chuchukligida zardolu mayxushlig'idin andak choshni bor. Samnon anorlarig'a tarjeh qilsa bo'lur. Yana bir jins o'ruk bo'lurkim, donasini olib, ichiga mag'z solib quruturlar, «subhoni» derlar, bisyor lazizdur. Ovi qushi yaxshidur, oq kiyik yovuqta bo'lur. Eli sopttur va mushtzan va purshar-u sho'r eldur. Jangaraliq rasmi Movarounnahrda shoye'dur, Samarqand va Buxoroda nomdor jangaralar aksar Marg'inoniydur. Sohibi «Hidoya» Marg'inonning Rushdon otliq kentidindur.

Yana bir Isfaradur, ko'hpoyada voqe bo'lubtur. Oqar suvlari, safoliq bog'chalari bor. Marg'inonning g'arbi janubidadur. Marg'inon bila Isfara orasi to'qquz yig'och yo'ldur. Musmir daraxtisi bisyordur, vale bog'chalarida aksar bodom daraxtidur. Eli tamom sort va ko'hiydur. Isfaraning bir shar'isida janub sori pushtalarning orasida bir parcha tosh tushubdur, «Sangi oyina» derlar, uzunlig'i taxminan o'n qari bo'lg'ay, balandlig'i ba'zi yeri kishi bo'yi, pastlig'i, ba'zi yeri kishining belicha bo'lg'ay, oyinadek har nima mun'akis bo'lur.

Isfara viloyati to'rt bo'luk ko'hpoyadur: bir Isfara, yana bir Vorux, yana bir So'x, yana bir Hushyor. Muhammad Shayboniyxon Sulton Mahmudxon bila Olachaxong'a shikast berib, Toshkand va Shohruxiyani olg'on mahalda, ushbu So'x bila Hushyor ko'hpoyalarig'a kelib, bir yilga yovuq tanqislik bila o'tkarib, Kobul azimati qildim.

Yana bir Xo'janddur, Andijondin g'arb sorig'a yigirma besh yig'och yo'ldur. Xo'janddin Samarqand ham yigirma besh yig'och yo'ldur, qadim shaharlardindur. Shayx Muslihiddin¹ va Xoja Kamol Xo'jandtindurlar.

Mevasi farovon va bisyor yaxshi bo'lur. Anori yaxshilikda mashhurdur. Nechukkim, «sebi Samarqand» derlar va «anori Xo'jand» derlar. Vale bu tarixda Marg'inon anori ko'p ortuqdur.

Qo'rg'oni baland yerda voqe bo'lubtur. Sayhun suyi shimol jonibidin oqar. Qo'rg'ondin daryo bir o'q otim bo'lg'ay. Qo'rg'on bila daryoning shimol tarafida bir tog' tushubtur. Munug'il² otliq, derlarkim, bu tog'da firuza koni va ba'zi konlar topilur. Bu tog'da bisyor yilon bor.

Xo'jandning ovlog'i va qushlog'i bisyor yaxshidur. Oq kiyik, bug'-u maral, qirg'ovul va tovushqoni ko'p bo'lur. Havosi bisyor mutaaffindur, kuzlar bezgak ko'p bo'lur. Andoq rivoyat qildilarkim, chupchuq bezgak bo'lg'ondur. Derlarkim, havosining taffuni shimoldag'l tog' jihatidindur.

¹ L. b. – Shayx Maslahat.

² Q. b. – Mutug'il

Muning tavobidin Kandibodomdur. Agar-chi qasaba emas, yaxshig'ina qasabachadur. Bodomi yaxshi bo'lar. Bu jihatdin bu ismg'a mavsumdur. Hurmuz va Hindustong'a tamom muning bodomi borur. Xo'janddin besholti yig'och sharq tarafidadur. Xo'jand bila Kandibodom orasida bir dasht tushubtur, Hodarveshg'a mavsumdur. Hamisha bu dashtta yel borur. Marg'inong'akim, sharqidur, hamisha mundin yel borur¹. Xo'jandg'akim g'arbidur, doim mundin yel kelur: tund yellari bor. Derlarkim, bir necha darvesh bu bodiyada tund yelga yo'luqub, bir-birini topolmay, «Ho, darvesh», «Ho, darvesh», dey-dey halok bo'lubturlar, andin beri bu bodiyani Hodarvesh derlar.

Sayhun suyining shimoli tarafidagi qasabalar: bir Axsidur. Kitoblarda Axsikat bitirlar. Nechukkim, Asiriddin shoirni Asiriddin Axsikatiy derlar. Farg'onada, Andijondin so'ngra mundin ulug'roq qasaba yo'qtur. Andijondin g'arb sori to'qquz yig'och yo'ldur. Umarshayx mirzo muni poytaxt qilib edi, Sayxun daryosi qo'rg'onining ostidin oqar. Qo'rg'oni baland jar ustida voqe bo'lubtur. Xandaqining o'rniga amiyq jarlardur. Umarshayx mirzokim, muni poytaxt qildi, bir-ikki martaba tashqarroqdin yana jarlar soldi. Farg'onada muncha berk qo'rg'on yo'qtur. Mahalloti qo'rg'ondin bir shar'iy yiroqroq tushubtur. «Deh kujov-u daraxton kujo»² masalini g'olibu Aкси uchun aytibturlar. Qovuni yaxshi bo'lar. Bir nav' qovundurkim, «Mir

¹ *L. b.* – bordur.

² «Qishloq qayda-yu, daraxtlar qayda».

Temuriy» derlar, andoq qovun maʼlum emaskim olamda boʻlgʻay. Buxoro qovuni mashhurdir. Samarqandni olgʻon mahalda Axsidin, Buxorodind qovun kelturub bir majlisda kesturdum, Aкси qovunining hech nisbati yoʻq erdi.

Ovi qushi bisyor yaxshi boʻlur. Sayhun daryosining Aкси tarafi dashttur. Oq kiyigi bisyor boʻlur. Andijon tarafi jangaldur. Bugʻ-u maral, qirgʻovul va tovushqoni koʻp topilur, asr-u semiz boʻlur.

Yana bir Kosondur. Axsining shimolida tushubtur. Kichikroq qasabadur. Nechukkim Andijon suyi Oʻshdin kelur, Aкси suyi Kosondin kelur. Yaxshi havoliq yerdur. Safoliq bogʻchalari bor. Vale safoliq bogʻchalari tamom soy yoqasida voqe boʻlgʻon uchun, «poʻstini pesh berra»¹ debturlar. Safo va havoda Oʻsh bila Koson elining taassubi bor.

Fargʻona viloyatining girdo-girdi togʻlarida yaxshi yayloqlari bor. Tobulgʻu yigʻochi bu togʻlarda bor, oʻzga hech yerda boʻlmas. Tobulgʻu bir yigʻochedur, poʻsti qizil, aso qilurlar, qamchi dastasi ham qilurlar, qushlargʻa qafas qilurlar, tarosh qilib tirgaz qilurlar, xeyli yaxshi yigʻochdur. Tabarrukluk bila yiroq yerlarga eltarlar.

Baʼzi kitoblarda bitibturlarkim, «yabruhus-sanam»² bu togʻlardadur, vale bu mudatta hech eshitilmadi. Bir giyoh eshitidikim, Yettikentning togʻlarida boʻlur, ul el «ayiq oʻti» derlar,

¹ Maqtab aytilgan soʻz: «Oldiga qorakoʻl teri tutilgan poʻstin» demak.

² *Yabruhus-sanam* – mehrigiyoh.

mehrgiyoh xosiyatliq, g'olibo mehrgiyohdur, ul el bu ot bila ayturlar. Bu tog'larda firuza koni va temur koni bo'lur. Farg'ona viloyatining ho-sili bila, agar adl qilsalar, uch-to'rt ming kishi saxlasa bo'lur.

Chun Umarshayx mirzo baland himmatliq va ulug' doiyaliq podshoh erdi. Hamisha mulkgirlik dag'dag'asi bor erdi, necha navbat Samarqand ustiga cherik tortti, ba'zi mahal shikast topti, ba'zi mahal bemurod yondi. Necha navbat qoyin otasi Yunusxonnikim, Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyxon naslidindur, Chig'atoyxonning yurtida mo'g'ul ulusining xoni ul fursatta ul erdikim, mening ulug' otam bo'lg'ay, istid'o qilib kelturdi. Har qatla kelturganda viloyatlar berur erdi. Chun Umarshayx mirzoning muddaosidek bo'lmas erdi, gohi Umarshayx mirzoning badmaoshlig'idin, gohi mo'g'ul ulusining muxolafatidin viloyatga turolmay yana Mo'g'ulistong'a chiqar erdi.

Oxir navbat kelaturgandakim, ul fursatga Toshkand viloyati Umarshayx mirzo tasarrufida edikim, kitoblarda Shosh bitirlar, ba'zi Choch bitirlarkim, «kamoni chochiy» andin iborattur, berdi. O'shal fursattin tarix to'qquz yuz sekkizgacha Toshkand va Shohruxiya viloyati Chig'atoy xonlarining tasarrufida edi. Bu fursatga mo'g'ul ulusining xon va sultonlig'i Yunusxonning ulug' o'g'li – mening tog'oyim Sul-ton Mahmudxonda edi, Umarshayx mirzoning og'asi Samarqand podshohi Sul-ton Ahmad mirzo va mo'g'ul ulusining xoni Sul-ton Mahmudxon chun Umarshayx mirzoning bad-

maoshlig'idin mutazarrir edilar, bir-birlari bila ittifoq qilib, Sulton Ahmad mirzo Sulton Mahmudxonni kuyov qilib, mazkur bo'lg'on tarixda Xo'jand suyining janub jonibidin Sulton Ahmad mirzo va shimol tarafidin Sulton Mahmudxon Umarshayx mirzoning ustig'a cherik torttilar.

Bu asnoda g'arib voqea dast berdi, mazkur bo'lub edikim, Axsi qo'rg'oni baland, jar ustida voqe bo'lubtur, imoratlar jar yoqasida erdi. Ushbu tarixda dushanba kuni ramazon oyining to'rtida Umarshayx mirzo jandin kabutar va kabutarxona bila uchub, shunqor bo'ldi. O'ttuz to'qquz yoshar erdi.

Valodat va nasabi: sekkiz yuz oltmishda Samarqandda edi. Sulton Abusaid mirzoning to'rtunchi o'g'li edi. Sulton Ahmad mirzo, Sulton Muhammad mirzo Sulton Mahmud mirzodan kichik edi. Sulton Abusaid mirzo Sulton Muhammad mirzoning o'g'li edi. Sulton Muhammad mirzo Mironshoh mirzoning o'g'li edi. Mironshoh mirzo Temurbekning uchunchi o'g'li edi. Umarshayx mirzo bila Jahongir mirzodan kichik. Shohruh mirzodan ulug' edi.

Sulton Abusaid mirzo avval Kobulni Umarshayx mirzog'a berib, Bobon Kobuliyini bek atka qilib, ruxsat berib edi. Mirzolarni sunnat qilur to'yi jihatdin Darayi Gazdin yondurub, Samarqand eltti. To'ydin so'ngra ul munosabat bilakim, Temurbek ulug' Umarshayx mirzog'a Farg'ona viloyatini bergandur. Andijon viloyatini berib, Xudoyberdi Tug'chi Temurtoshni bek atka qilib yibordi.

Shakl va shamoyili: past boʻyluq, tegirma¹ soqolliq, qoʻba yuzluk, tanbal kishi edi. Toʻnni bisyor tor kiyar edi, andogʻkim, bogʻ bogʻlaturda qornini ichiga tortib bogʻlatur edi, bogʻ bogʻlagʻondin soʻng oʻzini qoʻya bersa, bisyor boʻlur edikim, bogʻlari uzulur edi. Kiymoqta va yemoqta betakalluf edi. Dastorni dastorpech chirmar edi. Ul zamonda dastorlar tamom chorpech edi, bechin chirmab, aloqa qoʻyar edilar. Yozlar gʻayri devonda aksar moʻgʻuliy boʻrk kiyar edi.

Axloq va atvori: hanaviy mazhabliq, pokiza eʼtiqodliq kishi edi, besh vaqt namozni tark qilmas edi, umriy qazolarini tamom qilib edi, aksar tilovat qilur edi. Hazrat Xoja Ubaydullogʻa irodati bor erdi, suhbatlarigʻa bisyor musharraf boʻlub edi. Hazrat Xoja ham farzand deb erdilar.

Ravon savodi bor edi. «Xamsatayn» va masnaviy kitoblarni va tarixlarni oʻqub edi. Aksar «Shohnoma» oʻqur edi. Tabʼi nazmi bor edi, vale sheʼrgʻa parvo qilmas edi.

Adolati bu martabada ediki, Xitoy korvoni keladurganda, Andijonning sharqiy tarafidagʻi togʻlarning tubida ming oʻyluk korvonni andogʻ qor bostikim, ikki kishi qutuldi. Xabar topib muhassillar yiborib, korvonning jamiʼ jihatini zabt qildi. Har chandikim vorisi hozir yoʻq erdi, bovujudi ehtiyoj saxlab, bir-ikki yildin soʻngra Samarqand va Xurosondin vorislarini tilab kelturub, mollarini solim topshurdi.

Bisyor saxovati bor erdi. Xulqi dagʻi saxovatcha bor erdi, xushxulq va harrof va fasih va

¹ Q. b. - bulma (۷۷)

shirin zabon kishi erdi, shujo' va mardona kishi edi.

Ikki martaba o'zi jami' yigitlardin o'zub qilich tegurdi: bir martaba Axsi eshigida, yana bir martaba Shohruxiya eshigida. O'qni o'rta chog'liq otar edi, bisyor zarb mushti bor edi, aning mushtidin yigit yiqilmog'on yo'qtur, Mulkgirlik dag'dag'asi jihatidin xeyli yarashlar urushqa va do'stluqlar, dushmanliqqa mubaddal bo'lor edi.

Burunlar ko'p ichar edi, so'ngralar haftada bir-ikki qatla suhbat tutar edi, xushsuhbat kishi edi. Taqrib bila xo'b abyot o'qur edi. So'ngralar ma'jun ko'proq ixtiyor qilur edi. Ma'juniylikda kalla xushk bo'lor edi, yetim shior edi, la'bi dag'i¹ bisyor edi, hamisha nard o'ynar edi, gohi qimor ham qoshur edi.

Masof va urushlari yaxshi edi. Uch masof urush qilib edi. Avval Yunusxon bila Andijonning shimol tarafida Sayhun daryosining yoqasida Takasekretku² degan yerda, bu jihatdin ul mavzu' bu ismg'a mavsumdurkim, tog' domanasi jihatidin bu daryo andoq tor oqarkim, riyoat qilurlarkim, ul yerdin taka sekrigandur, mag'lub bo'lub ilikka tushti. Yana Yunusxon yaxshilik qilib viloyatig'a ruxsat berdi. Bu yerda urush bo'lg'on uchun Takasekretku urushi ul viloyatga tarix bo'lubtur.

Yana Turkistonda Ars suyi yoqasida, Samarqand navohisini chopib, boradurg'on o'zbek bila Ars suyini muz bila kechib, yaxshi bosib,

asir va molni ayrib, tamom egalariga yondura berib, hech nima tama' qilmadi.

Yana bir Sulton Ahmad mirzo bila Shohruxiya va O'ratepa orasida Xavos degan kentta urushib mag'lub bo'ldi.

Viloyati: ota Farg'ona viloyatini berib edi. Necha mahal Toshkand va Sayrom ham mirzoning tasarrufida edikim, og'asi Sulton Ahmad mirzo berib edi. Shohruxiyani firib bila olib, necha mahal mutasarrif bo'lur edi. Oxir chog'larida Toshkand va Shohruxiya iliktin chiqib edi. Farg'ona, Xo'jand va O'ratepakim, asl bularning otlari kitoblarda Ushrushnadir va Ushrush ham bitirlar, qoldilar. Xo'jandni ba'zi doxili Farg'ona emas derlar. Sulton Ahmad mirzokim, Toshkandga mo'g'ul ustiga cherik tortib, Chir suyinikim, Toshkandtin ikki she'riy yo'l bo'lg'ay, bu suvning yoqasidakim shikast topti. O'ratepada Hofizbek do'ldoy edi, Umarshayx mirzoga berdi¹. Andin beri Ushrushna Umarshayx mirzo tasarrufida edi.

Avlodi: uch o'g'ul, besh qiz mirzodin qolib edi. Bori o'g'lonlaridindin uluq men -- Zahiriddin Muhammad Bobur edim; mening onam Qutluq Nigorxonim edi. Yana bir o'g'ul Jahongir mirzo edi, mendin ikki yosh kichik edi, aning onasi mo'g'ulning tuman beklaridindin edi, Fotima Sulton otliq. Yana bir o'g'ul Nosir mirzo edi, onasi

¹ L. b. -- Farg'ona viloyati edi va Xo'jand va O'ratepakim, asl oti Asrushnadir va Asrush ham derlar, Xo'jandni ba'zi doxili Farg'ona tutmaslar. Sulton Ahmad mirzokim, Toshkandga mo'g'ul ustiga borib, Chir suyi yoqasidakim shikast topdi. O'ratepada Hofizbek do'ldoy edi, mirzog'a berdi.

andijonliq edi, g'unchachi edi, Umid otliq. Mendin to'rt yosh kichik edi.

Bori qizlaridin ulug' Xonzodabegim edi, mening bila bir tuqqon erdi, mendin besh yosh ulug' erdi. Men Samarqandni ikkinchi navbat olg'onda, bovujudkim, Shayboniyxondek kishi birla Saripulda chiqib urushub, onchakim imkoni bor edi, sa'y va ehtimoldin taqsir qilmaduk, nechukkim mahallida mazkur bo'lg'usidur, shikast topib kelib, besh oy qal'adorlik qildim, qal'adorlik zabti va istehkomi va sardorlikda taqsir bo'lmadi¹. Atrof va javonibdagi podshohlar va beklardin hech nav' madad va muovanat bo'lmadi, ma'yus bo'lub solib chiqtim.

Ul fatarotta Xonzodabegim Muhammad Shayboniyxonga tushub edi, bir o'g'ul bo'lub erdi. Xurramshoh otliq, maqbul o'g'lon edi. Balx viloyatini anga berib edi, otasi o'lgandin bir-ikki yil so'ngra tengri rahmatig'a bordi. Shoh Ismoil o'zbekni Marvda bosqonda Xonzodabegim Marvda edi. Mening jihatimdin yaxshi ko'rub, andin uzattilar, Qunduzda kelib menga qotildilar. Muforaqat imtidodi o'n yil bo'lub edi. Men va Muhammadiy ko'kaltosh ikov kelduk, begim va begimning yovug'idag'ilar tanimadilar. Bovujudkim, otimni aytim ham, muddatin so'ngra tanidilar.

Yana bir qiz Mehrbonubegim erdi. Nosir mirzo bila bir tuqq'on erdi, mendin ikki yosh ulug' erdi.

Yana bir qiz Shahrbonubegim erdi, bu dag'i Nosir mirzo bila bir tuqq'on erdi, mendin sekkiz yosh kichik edi.

¹ L. b. – bovujudkim Saripulda shikast bo'lib edi, kelib besh oy qal'adorlik qildim.

Yana bir qiz Yodgor Sul-tonbegim edi, onasi Og'a sul-ton otliq g'unchachi edi¹. Yana bir qiz Ruqiya Sul-tonbegim edi, onasi Maxdum Sul-tonbegim edi. Qorako'z-begim derlar edi, ikkasi mirzoning favtidin so'ng bo'ldilar. Yodgor Sul-tonbegimni mening ulug' onam Esan Davlatbegim saxlab edi. Andijon va Axsini Shay-boniyxon olg'onda Yodgor Sul-tonbegim Hamza Sul-tonning Abdullatif Sul-ton otliq o'g'lig'a tushub edi. Men Hamza Sul-ton boshliq sul-tonlarni Xatlon viloyatida bosib, Hisorni olg'onda menga qotildi. O'shul fatarotta Ruqiya Sul-tonbegim Jonibek Sultong'a tushub edi, bir-ikki o'g'li bo'ldi, turmadi. Bu fursatlarda xabar keldikim, tengri rahmatig'a boribtur.

Havotun va sarori: Qutlug' Nigorxonim edi, Yunusxonning ikkinchi qizi, Sul-ton Mahmudxon, Sul-ton Ahmadxonning egachisi edi.

Yunusxon Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyxonning naslidindur. Yunusxon ibn Vaysxon ibn Sherali O'g'lon ibn Muhammadxon ibn Xizr Xojaxon ibn To'g'luq Temurxon ibn Esan Bug'axon ibn Do'vaxon ibn Baroqxon ibn Yesun Tuva ibn Mutugon² ibn Chig'atoyxon ibn Chingizxon.

Chun muncha taqrib bo'ldi, xonlarning ahvolini dag'i ijmol bila zikr qilaling. Yunusxon va Esan Bug'axon Vaysxonning o'g'lonlari edi. Yunusxon o'g'lonlari Ofoqxon va Jonboboxon edi³. Yunusxonning onasi Turkistonliq qipchoq beklaridin Temurbek rioyat qilg'on shayx Nuriddinbekning qizi yo nabirasi bo'fur.

¹ L. b. – bu ibora yo'q.

² L. b. – Mo'vatugon (موواتوغون)

³ L. b. – bu jumla yo'q.

Vaysxonning voqeasida mo'g'ul ulusi ikki fariq bo'lar. Bir pora Yunusxon sari va ko'prog'i Esan Bug'axon sari bo'lar. Burunroq Yunusxonning egachisini Ulug'bek mirzo Abdulaziz mirzog'a olib edi. Ul munosabat bila Erzan borin tuman beklaridin Mirak turkmankim, Charos tuman beklaridin edi, xonni uch-to'rt ming uyluk mo'g'ul ulusi bila Ulug'bek mirzog'a kelturdilarkim, ko'mak olib yana mo'g'ul ulusini olg'aylar, mirzo muruvvat qilmadi, ba'zisini asir qildi, ba'zilarini birin-sirin viloyatqa pereshon qildi. Erzan buzug'lug'i mo'g'ul ulusida bir tarix bo'lubtur.

Xonni Iroq sari o'tkazib yibordilar. Borib bir yildin ortuqroq Tabrizda bo'ldi. Ul mahalda Tabriz podshohi Jahonshoh Boroniy Qoraqo'yluq edi. Andin Sheroz keldi. Sherozda Shohruh mirzoning ikkinchi o'g'li Ibrohim Sulton mirzo edi. Besh-olti oydin so'ng Ibrohim mirzo o'lub, o'g'li Abdullo mirzo aning yerida o'turdi. Abdullo mirzog'a xon navkar edi, mulozamat qilur edi. O'n yetti, o'n sekkiz yil xon Sherozda va ul viloyatlarda bo'ldi.

Ulug'bek mirzoning va o'g'ullarining g'avg'osida Esan Bug'axon fursat topib kelib, Farg'ona viloyatini Kandibodomg'acha chopib, kelib Andijonni olib, elini tamom asir qildi.

Sulton Abusaid mirzo taxt olg'onda cherik tortib borib, Yangidin nari Isparada¹, Mo'g'ulistonada Esan Bug'axonni yaxshi bosti. Muning fitnasining daf'ig'a Sulton Abusaid mirzo Yunusxonni bu munosabat bilakim, Abdulaziz mirzo olg'on egachisi xonimni olib edi, Iroq va

¹ Q. b. – Yangidin beri Ashparada.

Xurosondin tilab to'ylar qilib, do'stlar bo'lub, mo'g'ul ulusida xon qilib yiborganda, Sag'richi tuman beklari tamom ul fursatga Esan Bug'axondin yamonlab Mo'g'ulistong'a kelib edilar, bularning orasig'a keldi. Ul fursatga Sag'richi beklarning ulug'i Sher Hojibek erdi, aning qizi Esan Davlatbegimni oldi. Mo'g'ul to'rasi bila xonni va Esan Davlatbegimni bir oq kiyiz ustiga o'lturg'uzub xon ko'tardilar.

Xonning bu Esan Davlatbegimdin uch qizi bo'ldi. Boridin ulug' Mehr Nigorxonim edikim, Sulton Abusaid mirzo ulug' o'g'li Sulton Ahmad mirzog'a qo'lub edi. Mirzodin hech o'g'ul va qiz bo'lmadi. So'ngra fatarotta Shayboniyxong'a tushib edi. Men Kobulg'a kelganda, Shohbegim bila Samarqandtin Xurosong'a kelib, Xurosondin Kobulg'a keldilar, Shayboniyxon Qandahorda Nosir mirzoni qabag'onda, men Lamg'on azimati qildim. Xon mirzo va Shohbegim va Mehr Nigorbegim Badaxshong'a bordilar. Mirzoxonni¹ Muborakshoh qal'ayi Zafarg'a tilaganda Abo-bakr² Koshg'ariyning chopqunig'a yo'luqub, Shohbegim va Mehr Nigorxonim va jami' elning ahli va ayoli asirliqqa tushub, ul zolim badkirdorning habsida dunyoyi foniyni vido' qildilar.

Ikkinchi qizi mening validam – Qutluq Nigorxonim edi. Aksar qazoqliklarda va fatarotlarda mening bilan bir edilar. Kobulni olg'ondin besh-olti oy so'ngra tarix to'qquz yuz o'n birda tengri rahmatig'a bordilar.

¹ Q. b. – Xon Mirzoni.

² Q. b. – Bobakr.

Uchunchi qiz Xo'b Nigorxonim edi, Muhammad Husayn Ko'ragon dug'latqa berib edilar, bir qizi, bir o'g'li bo'lub edi. Qizni Ubaydxon olib edi. Men Buxoro va Samarqandni olg'onda chiqmay qolib edi. Sulton Saidxondin amakisi Sayid Muhammad mirzo Samarqandg'a manga elchilikka kelganda anga qo'shulub bordi. Sulton Saidxon oldi. O'g'ul Haydar mirzo edi. Otasini o'zbek o'lturganidin so'ng kelib, mening mulozimatimda uch-to'rt yil turub, so'ngra ijozat tilab Koshg'arg'a, xon qoshig'a bordi.

*Boz gardad ba asli xud hama chiz,
Zari softi-yu nuqra-u arziz¹.*

Bu tarixda deydurlarkim, toyib bo'lub yaxshi tariqa paydo qilibtur. Xat va tasvir va o'q va paykon va zehgir har nimaga iligi chaspondur. Tab'i nazmi ham bordur. Manga arzadoshti kelib edi, inshosi ham yamon emas.

Xonning yana bir xotuni Shohbegim edi, agarchi o'zga xotunlari ham bor edi, vale o'g'lonlar va qizlarning onalari bu ikki erdi.

Shohbegim Badaxshon shohi Shoh Sulton Muhammadning qizi edi. Bu Badaxshon shohlari nasablarini Iskandari Faylaqusqa yetar derlar. Bu shohning yana bir qizikim, Shohbegimning egachisi bo'lg'ay, Sulton Abdusaid mirzo olib edi. Andin Abobakr mirzo bo'lub edi.

Xonning bu Shohbegimdin ikki o'g'ul va ikki qiz bo'lub edi. Bu uchdin ulug' mazkur bo'lg'on uch qizdin kichik Sulton Mahmudxon edikim;

¹ Hamma narsa: xoh sof oltin, xoh kumush va xoh qo'rg'oshin bo'lsin, baribir o'z asliga qaytadi.

Samarqandda ul navohida ba'zi Xonikaxon¹ derlar. Sulton Mahmudxonin kichik Sulton Ahmadxon edikim, Olachaxong'a mashhurdir. Olachaning vajhi tasmiyasi muni derlarkim, qalmoq va mo'g'ul tili bila o'turguchini «olachi» derlar. Qalmoqni necha qatla bosib, qalin kishisin qirg'on uchun Olacha dey-dey kasrati iste'mol bila Olacha bo'lubtur.

Bu tarixda xonlarning zikri muqarraran taqrib bila kelgusidir. Vaqoye va holatlari anda mazkur bo'lg'usidir.

O'zgalardin kichik bir qizdin ulug' Sulton Nigorxonim edikim, Sulton Mahmud mirzog'a chiqarib edilar. Mirzodin bir o'g'li bo'lub edi. Sulton Vays otluq, zikri bu tarixda kelgusidir, Sulton Mahmud mirzo o'lgandin so'ng o'g'lini olib, hech kimga xabar qilmay, Toshkandga og'alarig'a borib edi. Bir necha yildin so'ng Adik Sultong'akim, Chingizxonning ulug' o'g'li Jo'ji nasli qazoq sultonlaridindur, berdilar. Xonlarni Shayboniyxon bosib Toshkand va Shohruxiyani olg'onda o'n ikki mo'g'ul navkari bila qochib Adik Sultong'a bordi. Adik Sultondin ikki qizi bo'ldi, birini Shayboniyxon sultonlarig'a, yana birini Sulton Saidxonning o'g'li Rashid Sultong'a berdi.

Adik Sultondin so'ng qazoq ulusining xoni Qosimxon oldi. Derlarkim, qazoq xon va sultonlarining orasida hech kim ul ulusni Qosimxoncha zabt qilg'on emastur. Cherikini uch yuz mingga yovuq chenarlar edi. Qosimxon o'lgandin so'ng xonim Koshg'arg'a Sulton Saidxon qoshig'a keldi.

¹ Q. b. – Jonikaxon.

Boridin kichik Davlat Sultonxonim edi. Toshkand buzug'lig'ida Shayboniyxonning o'g'li Temur sultong'a tushub erdi, aning bir qizi bo'lub edi. Samarqandtin mening bilan bila chiqib edilar. Uch-to'rt yil Badaxshon viloyatida bo'ldilar. Andin so'ngra Koshg'arg'a Sulton Saidxon qoshig'a bordilar.

Umarshayx mirzoning haramlaridin yana bir Xoja Husaynbekning qizi Ulus og'a edi, andin bir qiz bo'lur edi, kichiklikda o'ldi. Bir yil, bir yarim yildin so'ng haramdin chiqardilar.

Yana bir Fotima Sulton og'a edi. Mo'g'ul tuman beklaridin edi. Mirzo boridin burun bu Fotima Sulton og'ani olib edi. Yana bir Qorako'zbekim erdi, so'ngralar olib edi, xeyli suyukluk edi. Mirzoning xushomadig'a nasabini Sulton Abusaid mirzoning og'asi Minuchuhr mirzog'a yetkurib edi.

G'uma va g'unchachi xeyli bor edi. Bir Umid og'acha edi, mirzodin burun o'lub edi. Mirzoning oxir mahallarida bir Tun¹ Sulton edi, mo'g'uldin edi. Yana biri Og'a Sulton edi.

Umarosi: Xudoyberdi Temurtosh erdi. Hiri hokimi Oqbug'abekning og'asining nasildindur. Sulton Abusaid mirzo Jo'gi mirzoni Shohruxiyada qabag'onda, Farg'ona viloyatini Umarshayx mirzog'a berib, eshikni bu Xudoyberdi Temurtoshga boshlatib yiborib erdi. U mahalda bu Xudoyberdi Temurtosh yigirma besh yoshda erdi, agarchi yoshda kichik erdi, tuzuki va zabt-u rabi bisyor yaxshi edi. Bir-ikki yildin so'ngra Ibrohim Bekchik O'sh navohisini

¹ Q. b. - Tursun.

chopqonda, Xudoyberdi Temurtosh keyinicha borib, urushub, bosilib, shahid bo'ldi. Ul fursatta Sulton Ahmad mirzo O'ratepaning Oqqa-chg'ay¹ degan yaylog'ida edikim, Samarqandtin o'n sakkiz yig'och sharq jonibidur, Sulton Abu-said mirzo Bobo Xokiyda erdikim, Hiriyydin o'n ikki² yig'och sharq soridur, bu xabarni Abdulvahhob shig'ovuldin arzadosht qilib, mirzog'a chopturdilar, bu yuz yigirma olti yig'och yo'lni to'rt kunda chopar.

Yana bir Hofiz Muhammadbek do'ldoy erdi, Sulton Malik Koshg'ariyning o'g'li Ahmad Hojibekning inisi erdi. Xudoyberdibek o'lgandin so'ngra muni eshik ixtiyori qilib yiborib erdilar, Sulton Abusaid mirzoning voqeasidin so'ngra Andijon beklari aning bila yaxshi chiqishmog'on jihatidin Samarqandg'a Sulton Ahmad mirzo mulozamatig'a bordi. Sulton Ahmad mirzog'a Chir shikasti bo'lg'onda O'ratepada erdi. Umarshayx mirzo Samarqand azimati bila O'ratepa ustiga kelganda O'ratepani mirzo mulozimlarig'a topshurub, mirzo mulozamatida bo'ldi. Umarshayx mirzo ham Andijon hukumatini anga berdi. So'ngralar Sulton Mahmudxon qoshig'a borib edi. Mirzo Xonni topshurub Dizakni anga berib edilar. Men Kobulni olg'ondin burunroq Makka azimati qilib, Hind yo'li bila mutavajjih bo'ldi. Yo'lda tengri rahmatig'a boribtur. Faqir va kamsuxan va behay-siyat kishi erdi.

¹ Q. b. – Oqqapchig'ay.

² Q. b. – yuz o'n ikki.

Yana bir Xoja Husaynbek erdi, odmi va faqir kishi erdi. Ul zamon dasturi bila ichkularda qo'shuqlarni yaxshi aytur ekandur.

Yana bir Shayx Mazidbek edi, manga avval bek atka ani qilib edilar. Zabti va tuzuki xeyli yaxshi edi. Bobur mirzog'a xizmat qilg'ondur. Umarshayx mirzo qoshida andin ulug'roq bek yo'q edi. Fosiq kishi erdi, chuhra saxlar edi.

Yana bir Ali Mazidbek qavchin edi, ikki qatla yog'iy bo'ldi: bir martaba Axsida, yana bir martaba Toshkandta. Munofiq va fosiq va haramnamak va yaramas kishi erdi.

Yana bir Hasan Ya'qubbek edi. Kichik ko'ngulluk, yaxshi tab'liq, chust va chaspon kishi erdi. Bu bayt aningdur:

*Boz oy, ey humoyki, beto'tiyi xatat
Nazdik shud ki zog' barad ustuxoni man¹.*

Mardona kishi edi. O'qni yaxshi otar edi. Chavgonni yaxshi o'ynar edi. Xok pallani yaxshi socharar erdi. Umarshayx mirzo voqeasidin so'ng mening eshigimda sohib ixtiyor ul edi. Ichi tor va kam havsala va fitna, qisqaroq kishi edi.

Yana bir Qosimbek qavchin edi. Qadimiy Andijon qo'shun beklaridin edi. Hasan Ya'qubbekdin so'ng mening eshigimda sohib ixtiyor ul edi. Oxir umrig'acha ixtiyor va e'tibori orti, o'ksumadi. Mardona kishi edi. Bir martaba Koson navohisini chopqon o'zbekning keyinicha

¹ Qaytib kel, ey baxt qushi, sening to'tiday xatlaringsiz mening suyaklarimni qarg'alar olib ketayozdi.

borib yaxshi bosti. Umarshayx mirzo qoshida qilich chopib edi. Yassi Kechit urushida ham yaxshi chopqullashti. Qazoqliklarda Masiho¹ ko'histonidin Sulton Mahmudxon qoshig'a bormoq azimati qilg'onda Qosimbek ayrilib Xisravshoh qoshig'a bordi. Tarix to'qquz yuz o'ndakim, Xisravshohni olib Kobulda Muqimni qabadim. Qosimbek ul fursatta keldi, yana burnog'idek-o'q rioyat va shafqat qildim. Turkman hazorasini darayi Xushda chopqonda Qosimbek bovujudi qarilik yigitlardin yaxshiroq yurugan jihatidin, Bangish viloyatini juldu berdim. So'ngra Kobulg'a kelganda Humoyung'a bek atka qildim. Zamini Dovarni olg'on fursatlarda tengri rahmatig'a bordi. Musulmon va mutadayyin va muttaqiy kishi erdi va shubhalik taomdin parhiz qilur edi. Royi va tadbiri bisyor yaxshi edi. Xeyli mutoyaba qilur edi. Bovujudikim ummiy edi, xushtab'ona zarofatlar qilur edi.

Yana bir Boboquli Bobo Alibek edi. Shayx Ali Bahodirning naslidin edi. Shayx Mazidbek o'lganidin so'ng ani manga bek atka qildilar. Sulton Ahmad mirzo Andijonga cherik tortqonda Sulton Ahmad mirzog'a kirib O'ratepani berdi. Sulton Mahmud mirzodin so'ng Samarqandtin qochib keladurganda O'ratepadin Sulton Ali mirzo chiqib urushub, bosib o'lturdi. Zabti va yarog'i yaxshi edi. Navkarni yaxshi saxlar edi. Benamoz edi, ro'za tutmas edi. Zolim va kofirvash kishi edi.

¹ L.b. da مسيحا Q.b. da مسيحا yozilgan, lekin Mascho bo'lishi kerak.

Yana bir Ali Do'st tag'oyi edi, sag'richi tu-man beklaridin edi. Mening onamning onasi Esan Davlatbegimga uruq bo'lar edi, Umarshayx mirzo zamonidin men ko'proq rioyat qilib edim. Iligidin ish kelur dedilar. Bu necha yilkim, mening qoshimda edi, hech andoq ishi zohir bo'lmadikim, desa bo'lg'ay. Sulton Abusaid mirzog'a xizmat qilg'on davrida yadachiliq da'vosini qilur edi. Qushchi edi. Yaramas axloq va atvorliq kishi erdi. Baxil va fitna va zumuxt va munofiq va xudpisand va qattiq so'zluk va sovuq yuzluk kishi edi.

Yana bir Vays Log'ariy edi. Samarqandliq to'qchi elidin edi. Umarshayx mirzo qoshida so'ngralar xeyli muqarrab bo'lub erdi. Mening bilan qazoqliqlarda bor edi. Ra'y va tadbiri xeyli yaxshi edi. Bir nima mufattin edi.

Yana bir Mir G'iyos tag'oyi edi. Ali Do'stning inisi edi. Mo'g'ul mirzodalari orasida Sulton Abusaid mirzo eshigida mundin ilgarroq kishi yo'q erdi. Sulton Abusaid mirzoning chorsu muhri munda edi. Umarshayx mirzoning oxirzamonlarida ko'p muqarrab bo'lub edi. Vays Log'ariy bila musohib edi. Kosonnikim, Sulton Mahmudxong'a berdilar, andin so'ng oxir umrig'acha xon xizmatida-o'q edi. Xon ham xeyli rioyat qilib edi. Kulagach va hazzol kishi edi. Fisqda bebok kishi edi.

Yana bir Ali Darvesh edi. Xurosonliq edi. Sulton Abusaid mirzo qoshida Xuroson chuhrasi chargasida xizmat qilur edi. Xuroson va Samarqand Sulton Abusaid mirzoning taxti tasarrufig'a kirganda bu ikki poytaxtning ishga yarar

yigitlarini xossa tobin qilib, Xuroson chuhra tobini va Samarqand chuhra tobini der ekandur. Mening qoshimda Samarqand eshigida yaxshilar bordi. Mardona kishi edi. Nasx ta'liq xatini tavre bitir edi. Xushomad aytur erdi. Tab'ig'a hissati g'olib edi.

Yana bir Qanbar Ali mo'g'ul edi, axtachidin edi. Otasi viloyatqa kirib necha mahal salloxliq qilg'on uchun Qanbar Ali sallox der edilar. Yunusxon qoshida oftobachilik qildi, so'ngra beg bo'lub edi. Mening qoshimda xeyli ulug'riyat topib edi. Ishga yetguncha ehtimomi yaxshi edi. Ishga yetilgan mahalda qoltog'aylig'i bor edi. Purgay va parishongo'y edi. Muqarrardur, har kimki ko'p aytur, parishon aytur. Havsalasi kam edi. Tiyra mag'z kishi edi.

Umarshayx mirzog'a bu voqea dast berganda men Andijonda chahorbog'da edim. Seshanba kuni ramazon oyining beshida bu xabar Andijong'a keldi. Iztirob bila otlanib, qoshimdagi navkar va savdar bila qo'rg'on azimati qildim. Mirzo darvozasig'a yetgan mahalda Shirim tag'oyi jilavimni olib, Namozgoh sori tebradi. Xayolig'a bu kechib turkim, Sulton Ahmad mirzo ulug' podshohdur, qalin cherik bila kelssa, beklar meni va viloyatni topshurg'ularidur. Meni O'zgand va Olatog' domanasi sori olib borg'ay. Agar viloyatni bersalar men bori ilikka tushmay tag'oyilarim Olachaxong'ayo Sulton Mahmudxong'a borg'aymen.

Xoja Mavlonoyi qozikim, Sulton Ahmad qozining o'g'li va Shayx Burhoniddin Qilichning naslidur, ona tarafidin Sulton Ilik Moziyg'a ye-

tar, aning xonavodalari ul viloyatga marje va shayxulislom yo'sunluq bo'la kelgandur, zikrlari munda muqarrar kelgusidur, qo'rg'on ichidagi beklar bu xabarni topib, Xoja Muhammad Darziynikim, Umarshayx mirzoning boyrusi va bir qizining atkasi edi, yiborib ul dag'dag'alarni bularning xotiridin raf' qilib, Namozgohga yovuq yetgan mahalda meni olib yondi. Kelib arkka tushdum. Xoja Mavlonoyi qozi va beklar mening qoshimda kelib, so'z va kengashni bir yerga qo'yub, qo'rg'onning burj va borusining zabt va rabtig'a mashg'ul bo'ldilar. Hasan Ya'qub va Qosim qavchin va yana ba'zi beklarkim Marg'ilon va ul taraflarda ilg'or quyub edilar, bir-ikki kundan so'ng kelib mulozamat qilib, borcha yakdil va yakjihat jid va ehtimom bila qal'adorliqqa mashg'ul bo'ldilar.

Sulton Ahmad mirzo O'ratepa va Xo'jand va Marg'ilonni olib kelib, Andijonning to'rt yig'ochida Qubog'a¹ tushti. Bu fursatta Darvesh Gov otliq Andijonning arbobidin nomunosib so'z aytqon uchun yasoqqa yetti. Bu siyosattin tamom el bosildilar.

Xoja qozini va Uzun Hasan Xoja Husaynni elchilikka bu mazmun bila yiborildikim, bu viloyatta mulozimlardin bir kishini xud qo'yulg'usidur. Men ham mulozim va ham farzand, agar bu xizmatni manga uhda qilsalar yaxshiroq va osonroq faysal topqusidur.

Sulton Ahmad mirzokim, kamsuxun va faqir va odmi kishi edi. Har so'z-un va ish-kuch beklarsiz qaror topmas edi, beklar bu so'zlar-

¹ *Qubo.* – hozirgi Quva.

ga multafit bo'lmay, durusht javoblar aytib, ilgari ko'chtilar. Tengri taolokim, o'z qudrati komilasi bila har ishimni har mahalda andoqkim boyad-u shoyad beminnati maxluq rost kelturubdur, munda ham necha ishni bois qildikim, alar bu kelmakdin o'sondilar, balki bu tavajjuh din pushaymon bo'lub, bemurod yondilar.

Bir bukim, Quboning botqoqlik qora suyi bor, ko'prigidin o'zga yerdin kechib bo'lmas, qalin cherik kelib ko'prukda tiqilib, qalin ot va teva bu qora suvga yiqilib zoye' bo'ldi. Uch-to'rt yil mundin burunroq Chir suyining guzarida ulug' shikast topib edilar, bu voqea andin yod berib, cherik eliga vahmi g'olib bo'ldi.

Yana bir bukim, ul fursatga andoq ot o'lati bo'ldikim, tavila-tavila otlar yiqilib o'la kirishti.

Yana bir bukim, bizning sipohi va raiyatni andoq yakdil va yakjihat toptilarkim, to jon va tanlarida ramak va tavon bordur jon tortmoqdin qo'ymag'aylar.

Bu jihatlar din zarurat bo'lub, Andijonning bir yig'ochidin Darvesh Muhammad tarxonni yibordilar, ichkaridan Hasan Ya'qub Namozgoh navohisida chiqib ko'rushub, sulhguna qilib yondilar.

Xo'jand suyining shimol jonibidinkim, Sulton Mahmudxon mutavajjih edi, kelib Axsini qobodi, Jahongir mirzo anda edi, beklardin Ali Darveshbek, Mirzoquli ko'kaltosh, Muhammad Boqirbek, Shayx Abdullo eshikog'a Axsida edilar. Vays Log'ariy, Mir G'iyos tag'oyi ham anda edi. Beklardin tavahqum qilib Kosong'akim,

Vays Log'ariyning viloyati edi, bordilar. Nosir mirzog'a Vays Log'ariy bek atka edi. Bu jihatdin Nosir mirzo Kosonda bo'lur edi. Xon Aкси navohisig'a yetganda bu beklar xong'a kirib Kosonni berdilar. Mir G'iyos xon mulozamatida turub, Vays Log'ariy Nosir mirzoni Sulton Ahmad mirzog'a olib bordi. Muhammad Mazid tarxong'a topshurdilar.

Xon Aкси yovug'ig'a kelib necha qatla urush soldi, hech ish qila olmadi. Axsidag'i beklar va yigitlar yaxshi jonlar torttilar. Bu asnoda Sulton Mahmudxong'a oriza bo'ldi, urush solib ham o'sonib edi, o'z viloyatig'a murojaat qildi.

Abobakr dug'lat Koshg'ariykim, hech kimga bosh indurmay, necha yil edikim, Koshg'ar va Xo'tan hokimi edi, ul dag'i viloyat dag'-dag'asi bila O'zgand yovug'ig'a kelib, qo'rg'on solib, viloyatg'a buzug'luq qila kirishti. Xoja qozi va jami' beklar ta'yin¹ bo'ldikim, borib Koshg'ariyni daf qilg'aylar, yovuq yetgan mahalda Koshg'ariy ko'rdikim, bu favjning harifi emastur, Xoja qozini orag'a solib, yuz makr va hiyla bila xalos bo'ldi.

Mundog' ulug' vaqoye ro'y berganda Umarshayx mirzodin qolgan beklar va yigitlar yaxshi qatlanib mardona jonlar torttilar. Axsidin mirzoning onasi Sultonbegim va Jahongir mirzo va ahli haram va beklar Andijong'a keldilar. Azo rasmini bajo kelturub, osh va taom fuqaro va masoking'a tortildi. Bu muhimmotin forig' bo'lg'ondin so'ng, cherik va viloyotning tartib va nasqi va zabt va rabtig'a ishtig'ol ko'rsatildi. Andijon hukumati va eshik ixtiyori Hasan Ya'qubg'a muqarrar bo'ldi. O'sh Qosim

¹ Q. b. – beklarga yaqin bo'ldikim.

qavching'a qaror topti. Axsi va Marg'inon Uzun Hasang'a va Ali Do'st tag'oyig'a ta'yin bo'ldi. Umarshayx mirzoning o'zga beklari va yigitlariga har qaysig'a faroxo'r hollari viloyat va yer va mucha va charga va vajhi istiqomat muqarrar va muayyan bo'ldi.

Chun Sulton Ahmad mirzo murojaat qildi, ikki-uch manzildin so'ng mijozi e'tidol nahajidin munharif bo'lub, muhriq isitma tori bo'ldi. O'ratepa navohisi Oqsuvga yetganda shavvol oyining avositida tarix sekkiz yuz to'qson to'qquzda qirq to'rt yoshida olami foniyydan vido' qildi.

Valodat va nasabi: valodati sekkiz yuz ellek beshda, Sulton Abusaid mirzo taxt olg'on yili cdi. Sulton Abusaid mirzoning bori o'g'lonlaridin ulug'i bu edi. Onasi O'rda Bug'a tarxonning qizi Darvesh Muhammad tarxonning egachisi edi. Mirzoning e'tiborliq xotuni edi.

Shakl va shamoyili: baland bo'yluq, qunqor soqolliq, qizil yuzluk, tanbal kishi erdi. Soqoli engakida erdi. Ikki yangoqida soqoli yo'q edi. Bisyor xushmuhovara kishi erdi. Dastorni ul zamon dasturi bila chahorpech chirmab, aloqasini ilgarrak qoshining ustiga qo'yar edi.

Axloq va atvori: hanafiy mazxabliq, pokiza e'tiqod kishi erdi, besh vaqt namozini betark o'tar edi. Shurb mahallarida ham namozi tark bo'lmas edi. Hazrati Xoja Ubaydullog'a iroda-ti bor edi. Hazrati Xoja murabbiy va muqavviy edilar. Bisyor muaddab bor edi¹. Alalxusus Xoja suhbatida, derlarkim, hargiz Xoja majlisida tizi bir-biri tiziga yovutkagan emastur. Bir

¹ L. b. - bu jumla yo'q.

navbat hazrati Xoja suhbatida bar xilofi odat oyog'ini yovutkab o'turubtur. Mirzo qo'pqon-din so'ng hazrati Xoja buyurubturlarkim, mirzo o'turg'on yerni boqqaylar: bir so'ngak bor ekandur.

Hech nimarsa o'qug'on emas edi, omi edi. Bovujudkim shahrda ulg'ayib edi, turk va sod-da edi. Tab'din bahrasi yo'q edi. Odil kishi edi. Hazrati Xojaning ham ayog'lari aroda edi. Aksar muhimmot shar' tariyqi bila faysal topar edi. Ahd va qavlig'a rost va durust edi. Hargiz andin xilofe zohir bo'lmadi.

Shijoati bor edi. Agarchi hech andoq bo'lmadikim, o'zining iligi ishga yetmish bo'lg'ay, vale derlarkim, ba'zi ma'raalarda andin asari shijoat zohir bo'lur ekandur. O'qni bisyor yaxshi otar erdi. Ilbosunga o'qi va tirgazi aksar tegar edi. Qabaqni maydonning ul boshi, bu boshidin kirib aksar urar erdi. Oxirlar tanbal bo'lg'onlarida qirg'ovul va budanani biyozi bila otib kam yozar erdi. Qushchi kishi erdi, qush g'alaba solur edi, yaxshi solur edi. Ulug'bek mirzodin so'ng oncha qushchi podshoh yo'q edi.

Asru ko'p hayosi bor erdi. Derlarkim, xilvatlarda mahram va ichkilaridin ham oyog'ini yopar ekandur. Gohikim ichkulukka tushar erdi, yigirma-o'ttiz kun payo-pay ichar erdi. Gohikim, chog'irdin chiqar erdi, yana yigirma-o'ttiz kun ichmas edi. Bir o'turg'on bila majlisda gohi bir kecha-kunduz o'turur edi, yaxshi ichar edi. Chog'ir ichmas kunlari basitni guzaro yeyar erdi. Tabiatig'a imsok g'olib edi, kamsuxan va odmi kishi erdi, ixtiyori beklari ilgida edi.

Masoflari: To'rt masof urushti. Avval Shayx jamol arg'unning inisi Ne'mat arg'un bila, Zomin navohisida Oqar tuzida g'olib bo'ldi. Yana bir marta Umarshayx mirzo birla Xavosta ham g'olib bo'ldi. Yana bir martaba Toshkand navohisida Chir suyining yoqasida sulton Mahmudxon bila, agarchi masof yo'q edi, mo'g'ulning chopqunchisi birin-ikin cherikning keynidan kelib partalg'a ilik qo'yg'on bila, muncha qalin cherik urush yo'q, talosh yo'q, biri-birig'a boqmay buzuldilar. Ko'prak cherik eli Chir suyida g'arq bo'ldilar. Yana bir martaba Haydar ko'kaltosh bila Yor yayloqning navohisida g'olib bo'ldi.

Viloyoti: Samarqand va Buxoro erdikim, otasi berib edi. Shayx Jamolni Abdulquddus o'lturgandin so'ng Toshkand va Shohruxiya va Sayromni olib edi, necha mahal tasarrufida edi. So'ngra Toshkand bila Sayromni inisi Umarshayx mirzoga berib edi. Xo'jand va O'ratepa ham necha mahal Sulton Ahmad mirzoda edi.

Avlodi: Ikki o'g'li bo'lub edi, kichikligida qolmadi. Besh qizi bor edi, to'rti Qutuqbegimdin edi. Boridin ulug' Robia Sultonbegim edi, Qorako'z begim derlar edi. Sulton Mahmudxong'a o'zi hayotida chiqarib edi. Xondin bir o'g'li bo'lub edi, Boboxon otliq, xeyli maqbulg'ina o'g'lon edi. O'zbeklar xonni Xo'jandta shahid qilg'onda, ani va andoq necha norasidani zoye qildilar. Sulton Mahmudxonning voqeasidan so'ng Jonibek Sulton oldi.

Ikkinchi qizi Soliha Sultonbegim edi, Oqbegim derlar edi. Sulton Ahmad mirzodindin so'ngra

Sulton Mahmud mirzo to'ylar qilib, ulug' o'g'li Sulton Mas'ud mirzog'a oldi. So'ngra Shohbegim, Mehr Nigorxonim bila Koshg'arg'a tushti. Uchunchi qiz Oyisha Sultonbegim edi. Besh yoshinda Samarqandg'a kelganda manga qo'lub edilar. So'ngra qazoqliklarda Xo'jandqa keldi, anda olib edim. Samarqandni ikkinchi navbat olg'onda birgina qizi bo'lub edi, necha kundan so'ng tengri rahmatig'a bordi. Toshkand buzug'lug'udin burunroq egachisining angizi bila mendin chiqti.

To'rtunchi qizi Sultonbegim edi, Sulton Ali mirzo olib edi, andin so'ng Temur Sulton olib edi, andin so'ngra Mahdi Sulton olib edi.

Boridin kichik qizi Ma'suma Sultonbegim edi. Onasi arg'undin, Sulton Arg'unning birodarzodasi, Habiba Sultonbegim edi. Men Xurosong'a borg'onda ko'rub, xushlab, tilab, Qobulg'a kelturub oldim. Bir qiz bo'ldi. O'shal fursatta-o'q «zocha» zahmati bila tengri rahmatig'a bordi, qizig'a onasining otini-o'q qo'yuldi.

Xavotin va sarori : avvali, Sulton Abusaid mirzo qo'lg'on Mehr Nigorxonim edi. Yunusxonning ulug' qizi, mening onamning tuqqon egachisi edi. Yana bir tarxonlardin edi, Tarxonbegim derlar edi. Yana bir Qutuqbegim edi. Ushbu Tarxonbegimning ko'kaltoshi edi, Sulton Ahmad mirzo oshiqliqlar bila olib edi, asru ko'p suyuklik edi va ko'p musallit edi. Chog'lr ichar edi. Aning tirikligida Sulton Ahmad mirzo o'zga haramg'a bormas edi. Oxir o'lturdi va badnomlig'idin xalos bo'ldi. Yana bir Xonzodabegim edi, Tirmiz xonzodalaridin edi. Men Samarqandg'a

bash yoshimda Sulton Ahmad mirzo qoshig'a kelgan fursatda olib edi. Hanuz yuz yopug'i bor edi. Turkona rasm bila manga buyurdilar, men yuzini ochtim. Yana bir Ahmad Xojibekning qiz nabirasi edi, Latifbegim otliq, Mirzodin so'ng Hamza Sulton olib edi, Hamza Sultondin uch o'g'li bo'lub edi. Men Hamza Sulton va Temur Sulton boshliq sultonlarni bosib, Hisorni olg'onda, bu sultonzodalar va yana necha sultonzodalar tushub edi, borini ozod qildim. Yana bir Habiba Sultonbegim edi. Sulton Arg'unning birodarzodasi edi.

Umarosi: Jonibek do'ldoy edi, Sulton Malik Koshg'ariyning inisi edi. Sulton Abusaid mirzo Samarqand hukumatini va Sulton Ahmad mirzo o'z eshigining ixtiyorini munga berib edi, muni eshik oqo qilib edi. G'arib axloq va atvorliq kishi ekandur. Andin g'arib nimalar xeyli rivoyat qilurlar. Ul jumladin biri budurkim. Samarqand hokimi ekan fursatlar o'zbekdin elchi kelur, o'zbek ulusida bu elchi zo'rg'a mashhur ekandur. O'zbek zo'r kishini bo'ka der emish. Jonibek derkim: Bo'kamusen? Bo'ka bo'lsang, kel kurashaling.

Bu elchi har necha muzoyaqa qilur, qo'ymas, kurashurlar. Jonibek yiqar. Mardona kishi erdi.

Yana bir Ahmad Hojibek edi. Sulton Malik Koshg'ariyning o'g'li edi. Hiri hukumatini Sulton Abusaid mirzo necha mahal munga berib edi. Obog'asi Jonibek o'lgandin so'ng aning muchasini berib, Samarqandg'a yibordi. Xushtab' va mardona kishi edi. «Vafoiy» taxallus qilur edi. Sohibi devon erdi, she'ri yamon emas edi, bu bayt aningdurkim:

*Mastam, ey muhtasib, imro'z zi man
dast bidor,
Ihtisobam bikun on ro'z ki yobi hushyor¹.*

Mir Alisher Navoiy Hiriyydin Samarqandg'a kelgan fursatlar Ahmad Hojibek bila bo'lar edi. Sulton Husayn mirzo podshoh bo'lg'ondin so'ngra Hiriyyga keldi. Asru ulug' rioyat topdi. Ahmad Hojibek yaxshi to'pchoqlar saxlab, yaxshi minar edi. Bu to'pchoqlar aksar xonazodi edi. Agarchi mardona kishi edi. Ish-kuchini navkar-savdari sar-u somon qilur edi. Boysung'ur mirzo Sulton Ali Mirzo bila Buxoroda urushub mag'lub bo'lg'onda ilikka tushti. Darvesh Muhammad tarxonning qonining tuhmati bila bezzatona o'lturdilar.

Yana bir Darvesh Muhammad tarxon edi. O'rda Bo'g'a tarxonning o'g'li, Sulton Ahmad mirzo, Sulton Mahmud mirzoning tuqq'on, tag'oyisi edi. Mirzo qoshida borcha beklardin ulug'roq va mo'tabarroq bu edi. Musulmon va odmi va darveshvasht kishi edi. Hamisha «mushaf kitobat qilur edi»². Shatranjni bisyor o'ynar edi, yaxshi o'ynar edi. Qush ilmini xo'b bilur edi, qushni xo'b solur edi. Oxir Boysung'ur mirzo bila Sulton Ali mirzoning g'avg'osida ulug'luq zamonida badnomliq bila o'ldi.

Yana bir Abdulali tarxon edi. Darvesh Muhammad tarxong'a yovuq uruq bo'lar edi. Singlisi ham munda edi, Boqi tarxonning onasi

¹ Ey muhtasib, mastman, bugun mendan qo'lingni tort, qachonki hushyor topsang, o'sha kuni tekshir.

² Q. b. – musxaf va kitob mutolaa qilur edi.

bo'lg'ay. Agarchi Darvesh Muhammad tarxon to'ra va mucha bila mundin ulug' edi, vale bu fir'avn ani ko'zga ilmas edi. Buxoro hukumati necha yil munda edi, navkari uch mingga yetib edi, navkarni yaxshi shafqat bila saxlar edi. Baxshish va pursish va devon va dastgoh va shilon va majlisi podshohona edi. Zobit va zolim va fosiq va mudamme' kishi edi. Shayboniyxon garchi navkari emas edi, vale necha mahal muning bila bo'lur edi. Kichik kirim sultonlar xud aksar navkari bo'lub edilar, Shayboniyxonning muncha taraqqiy topmog'ig'a va muncha qadim xonavodalar buzulmog'ig'a Abdulali tarxon sabab bo'ldi.

Yana bir Sayid Yusuf o'g'loqchi edi. Ulug' otasi mo'g'uldin kelgan ekandur. Otasini Ulug'bek mirzo rioyat qilib edi. Ra'y va tadbiri xeyli yaxshi edi. Mardonalig'i ham bor edi. Qo'buzni yaxshi cholur edi.

Men avval Kobulg'a kelganda mening qoshimda edi, ulug' rioyat qilib edim, filvoqe rioyat arzandasi ham bor edi. Avvalg'i yil Hinduston azimati bila cherik otlong'onda Sayid Yusufbekni Kobulda qo'yub edim. O'shul fursatta tengri rahmatig'a bordi.

Yana bir Darveshbek edi. Temurbek rioyat qilg'on Egu Temurbekning naslidin edi. Hazrati Xojag'a irodati bor edi. Musiqiy ilmidin boxabar edi, soz ham cholur edi. Tab'i nazmi bor edi. Sulton Ahmad mirzo Chir suyi yoqasida shikast topqanda Chir suyig'a bordi.

Yana bir Muhammad Mazid tarxon edi, Darvesh Muhammad tarxonning tuqqon inisi

edi. Necha yil Turkiston hokimi edi. Shayboniyxon Turkistonni mundin oldi. Ra'y va tadbiri yaxshi edi. Bebok va fosiq edi. Samarqandni ikkinchi navbat va uchunchi navbat olg'onda mening qoshimg'a kelib edi. Men dag'i yaxshi rioyat qilib edim. Ko'li Malik urushida o'ldi.

Yana bir Boqi tarxon edi. Abdulali tarxonning o'g'li va Sul-ton Ahmad mirzoning amakizodasi edi. Otasidin so'ngra Buxoroni munga berib edilar. Sul-tonali mirzo zamonida ko'p ulg'ayib edi, navkari besh-olti mingga yetib edi. Sul-tonali mirzog'a xeyli mute' va munqod emas edi. Shayboniyxon bila qal'ayi Dabusida urushub bosturdi. O'shul bosqon bila Shayboniyxon borib Buxoroni oldi. Qushqa ko'p mayli bor edi. Derlarkim, yetti yuz qushi bor ekandur. Andoq axloq va atvori yo'q edikim, desa bo'lg'ay. Mirzodalikta va davlatda ulg'ayib edi. Otasi Shayboniyxong'a yaxshiliklar qilg'on jihatidan Shayboniyxon qoshig'a bordi. Ul nohaqshunosi bemuruvvat ul yaxshiliklarning muqobalasida hech nav' rioyat va shafqat qilmadi. Xorliq va zorliq bila Axi viloyatida olamdin bordi.

Yana bir Sul-ton Husayn arg'un edi. Necha mahal Qorako'l hukumati anda uchun, Sul-ton Husayn Qoraqo'liyig'a mashhur edi. Ra'y va tadbiri xeyli yaxshi edi. Mening qoshimda ham xeyli bo'lur edi.

Yana bir Quli Muhammad Bug'do¹ edi, qavchin edi. Mardonalig'i ham bor ekandur.

Yana bir Abulkarim ashrit edi, uyg'ur edi. Sul-ton Ahmad mirzo qoshida eshikog'a edi. Saxiy va mardona kishi edi.

¹ Q. b. – Qul Muhammad Bag'dodiy.

Sulton Ahmad mirzo voqeasidin so'ng beklar ittifoq qilib tog'yo'li bila Sulton Mahmud mirzog'a kishi chopturub tiladilar. Sulton Abusaid mirzoning og'asi Minuchebr mirzoning o'g'li Malik Muhammad mirzo saltanat dag'dag'asi bila bir necha lavand va avboshni o'ziga qo'shub o'rdudin ayrildi. Samarqandg'a kelib hech ish ham qila olmadi. O'zining va yana birnecha begunoh podshohzodalarning o'lmakiga sabab bo'ldi.

Sulton Mahmud mirzog'a bu xabar yetgach-o'q betavaqquf Samarqandg'a kelib, bezahmat va bemashaqqat taxtqa o'lturdi. Sulton Mahmud mirzoning necha ishlaridin vazi' va sharif va sipohi va raiyat mutanaffir va gurizon bo'ldilar.

Avval bukim, mazkur bo'lg'on Malik Muhammad mirzonikim, obog'asining o'g'li va o'zining kuyovi edi, yana to'rt mirzoni Ko'k saroyg'a chiqarib edi, ikkisini qo'yub, Malik Muhammad mirzoni va yana bir mirzoni shahid qildi. Bularning ba'zisi g'a xud podshohlik ham tegmas edi. Bu dag'dag'alari ham aslo yo'q edi. Agarchi Malik Muhammad mirzoda andak gunohe bor edi, yana birning hech gunohi yo'q edi.

Yana bir bukim agarchi zabt va tuzuki xeyli yaxshi edi, devon shior erdi. Siyoq ilmini bilur edi, vale tab'i zulm va fisqqa moyil edi. Samarqandg'a kirgach, o'zgacha tartib va nasaq va xarj va tahmil bunyod qila boshladi.

Hazrati Xoja Ubaydulloning mutaalliqlarig'akim, burun xarj va tahmillarda ko'p faqir va miskin alarning himoyati bila zulm va taaddidin xalos bo'lurlar edi, ne joy ulkim, alarg'a mundoq takliflar bo'lg'ay, ko'p taaddi va ta-

shaddud qila boshladi. Balki bu taaddi va ta-shaddud Xojaning avlodig'a dag'i siroyat qildi.

Yana bir bukim, o'zikim nechuk zolim va fosiq edi, bek va bekcha va navkar va savdari tamom zolim va fosiq edilarkim, Hisor eli, alal-xusus, Xisravshohg'a taalluq el hamisha shurb va zinog'a mashg'ul edilar. Bu martabadakim, Xisravshohning navkarlaridin birov bir kishining xotunini tortib eltar, bu xotunning eri Xisravshohg'a kelib dodxohlik qilur, javob berurkim, necha yil sening bila edi, necha kun aning bila bo'lsun.

Yana bir bukim, shahri va bozori, balki turk va sipohining amrad o'g'lonlari chuhra qilur qo'rqunchidin uydin chiqmas edilar.

Samarqand ahlikim, yigirma-yigirma besh yil Sulton Ahmad mirzoning zamonida rafohiyat va farog'at bila o'tkarib edilar, aksar muomala hazrati Xoja jihatidin adl va shar' tariyqi bila edi. Bu nav' zulm va fisqdin bajon-u dil ozurda va ranjida bo'ldilar. Vaze' va sharif, faqir va miskin narin va duoyi badig'a og'iz ochib, qo'l ko'tardilar.

*Hazar kun zi dardi darunhoyi resh,
Ki reshi darun oqibat sar ko'nad,
Baham bar mazan to tavoni dile,
Ki ohe jahone baham barzaad¹.*

Lojaram zulm va fisqning shomatidan Samarqandta besh-olti oy besh² hukumat qilmadi.

¹ Ichki yaralar dardidan hazar qill! Chunki ichki yara axir yuzaga chiqadi. Qo'ldan kelganicha hech bir dilga ozor berma! Dildan chiqqan bir oh bir jahonni barbod qiladi.

² Besh – ortiq.

VAQOYEYI SANAYI TIS'A MIA¹

Manga Sulton Mahmud mirzodini Abdullquddusbek otliq elchi keldi. Ulug' o'g'li Sulton Mas'ud mirzog'a og'asi Sulton Ahmad mirzoning Oqbegim otliq ikkinchi qizini to'y va oyin bila olg'on. Sochiqni kelturdi: oltundin va kumushdin bodomlar va pistalar qilib edilar.

Bu kelgan elchining Hasan Ya'qubqa uruqlug'i bor ekandur. Hasan Ya'qubni va'dalar bila mirzog'a boqturg'ali kelgan ekandur. Narm javob aytib, balki ul sari bo'lg'ondek qilib elchiga ruxsat berdi. Besh-olti oydin so'ng Hasan Ya'qubning mijoz munharif bo'lib, mening yovug'imdag'i kishi-qaro bila yamon maosh qila kirishti. Ishni munga yetkurdikim, manga ruxsat berib, Jahongir mirzoni podshoh qilg'ay. Hasan Ya'qubning ixtiloti soyir umaro va sipohi bila dag'i yaxshi emas edi. Aning bu fikridin bori el voqif bo'lub edilar. Xoja qozi va Qosim qavchin va Ali Do'st tag'oyi va Uzun Hasan va yana ba'zi davlatxohlar mening ulug' onam Esan Davlatbegimning qoshida yig'ilib so'zni bu yerga qo'yдилarkim, Hasan Ya'qubni ma'zul qilib, fitnasig'a taskin berilgay. Xotunlar orasida ra'y va tadbirida mening ulug' onam Esan Davlatbegimcha kam bo'lg'ay edi, bisyor oqila va mudabbira edi. Ko'proq ish-kuch alarning mashvarati bila bo'lur edi.

Hasan Ya'qub arkta edi. Mening onam va ulug' onam – Esan Davlatbegim tosh qo'rg'onda chaqarda² edilar.

¹ To'qqiz yuzinchi (1494–1495) yil voqealari.

² Q. b. – chiqarda.

Bu azimat bila otlanib arkka mutavajjih bo'ldum. Hasan Ya'qub qushqa otlong'on ekan-dur. Xabar topib o'shandin-o'q Samarqand sari mutavajjih bo'ldi. Aning bila bor kishi, bor beklarni tutturuldi. Tutulg'on beklar Muhammad Boqirbek edi, Sulton Mahmud do'ldoy Sulton Muhammad do'ldoyning otasi edi. Yana ba'zilar ham bor edi. Ba'zisi'g'a Samarqand sari ruxsat berildi. Eshik ixtiyori va Andijon hukumati Qosim qavching'a qaror topti.

Hasan Ya'qubkim, Samarqand azimati bila Kandibodomg'acha borib edi, necha kundan so'ng fosid andisha bila Axsi azimati qilib, Xo'qon o'rchin navosig'a keldi. Xabar topib ba'zi beklar bila yigitlarni aning ustiga yiborildi. Ilg'or beklari o'zlaridin ilgarrak bir pora yigitlarni qorovul yibordilar. Hasan Ya'qub xabar topib, kecha bila bu qorovul ayirg'on yigitlarning ustiga yurub, o'y munguzi qobsob³ shiba qo'yarlar. Qorong'u kechada o'z elining o'qi-o'q Hasan Ya'qubning qochorig'a tegib, qochoridin burunroq o'z amalig'a giriftor bo'ldi.

*Chu bad kardi, mabosh emin zi ofot,
Ki vojib shud tabiatro mukofot⁴.*

Ushbu yil shubhalik taomdin parxiz qila boshladim. Pichoq va qoshiq va dastur-xong'acha ehtiyot qilur edim. Tahajjud ham kamroq tark bo'lur edi.

³ L. b. – qobob قباب

⁴ Yomonlik qilganingdan keyin ofatlardan emin bo'lma, chunki tabiatning beradigan jazosi aniqdir.

Rabiuloxir oyida Sulton Mahmud mirzog'a qaviy oriza yuzlanib, olti kunda olamdin kechti. Qirq uch yoshar edi.

Valodat va nasabi: sekkiz yuz ellik yettida edi. Abusaid mirzoning uchunchi o'g'li edi. Sulton Ahmad mirzo bila bir tuqqon edi.

Shakl va shamoyili: past bo'yluq, suyuq¹ soqolliq, tanbal, sinchisizroq² kishi edi.

Axloq va atvori: yaxshi edi. Namozni tark qilmas edi. Tuzuki va zabti bisyor yaxshi edi. Siyoq ilmini xo'b bilur edi. Viloyotdin bir diram va bir dinor aning bevuqufi xarj bo'lmas edi. Navkarining ulufasi aslo munkasir bo'lmas edi. Majlis va baxshish va shilon va devoni bisyor yaxshi edi. Barchasi qoida va tuzuki bila edi. Bir nav' tartib va nasaqikim qo'yub edi, sipohi va raiyat aslo andin tajovuz qila olmas edi. Burun qushqa xeyli qotror ekandur. So'ngralar bahlum ovni qalin ovlar edi.

Zulm va fisqqa ko'p mashg'ul edi. Muttasil chog'ir ichar edi. Chuhra qalin saxlar edi. Qalamravida chiroyliq amrad o'g'lon bo'lsa, har nav' bila kelturub chuhra qilur edi. Beklarning o'g'lonlarini, balki ko'kaltoshlarini chuhra qilib edi, balki o'zining ko'kaltoshidin tuqqong'a dog'i bu xizmatni buyurub erdi. Bu shum fe'l aning zamonida andoq shoye edikim, chuhrasiz kishi aslo yo'q edi. Chuhra saxlamoqlig'ni hunar bilurlar erdi. Chuhra saxlamaslig'ni ayb qilurlar edi. Zulm va fisqaning shomatidin o'g'lonlari tamom juvonmarg bo'ldilar.

¹ Q. b. – burma ^{بۇرما}

² Q. b. – suxansizroq.

Tab'i nazmi bor edi, devon tartib qilib edi, vale she'ri bisyor sust va bemaza edi. Andoq she'r aytqondin aytmog'on yaxshiroqdur.

Bad e'tiqod kishi edi. Hazrati Xoja Ubaydullog'a, istixfof qilur edi. Yuraksiz kishi edi. Hayosi kamroq edi. Bir necha masxara va bebok tegrasida bor edi. Devon boshida va xaloyiq qoshida zisht va shane' harakatlar qilurlar edi. Badkalom edi. So'zini filhol anglab bo'lmas edi.

Masoflari: ikki qatla masof urushti. Har ikki qatla Sulton Husayn mirzo bila, bir martaba Astarobodta mag'lub bo'ldi. Yana bir qatla Andixud navohisida Chakman degan yerda ham mag'lub bo'ldi. Ikki qatla Badaxshonning janub jonibi Kofiristong'a borib g'azot qildi. Bu jihatdin faromining to'g'rosida Sulton Mahmud g'oziy bitirlar edi.

Viloyoti: Sulton Abusaid mirzo Astarobodni berib edi, Iroq voqeasida Xurosong'a keldi. Ul fursat Qanbar Alibek Hisor hokimi Sulton Abusaid mirzoning hukmi bila Hinduston cherikini cheriklab, Iroqqa mirzoning so'ngicha boradur edi, Xurosong'a yetib edi, Sulton Mahmud mirzog'a mulhaq bo'ldi, Sulton Husayn mirzoning ovozasi eshitgach, Xuroson eli hujum qilib, Sulton Mahmud mirzoni Xurosondin chiqordilar. Samarqandg'a Sulton Ahmad mirzoning qoshig'a keldi. Necha oydin so'ng Ahmad Mush-toq boshlig' Sayid Badr va Xisravshoh va yana ba'zi yigitlar Sulton Mahmud mirzoni olib qochib, Hisorg'a Qanbar Alibek qoshig'a keldilar. Andin beri Qahqa bila Ko'htan tog'ining janub

tarafidagi viloyot, misli: Tirmiz va Chag'oniyon va Hisor va Xatlon va Qunduz va Badaxshon Hindukush tog'ig'acha Sulton Mahmud mirzoning tasarrufida edi. Og'asi Sulton Ahmad mirzo o'lgandin so'ng aning viloyoti dag'i muning tasarrufida bo'ldi.

Avlodi: besh o'g'ul, o'n bir qiz edi. Bori o'g'lonlaridin ulug' Sulton Mas'ud mirzo edi. Onasi Mir Buzurg Tirmiziyning qizi edi.

Yana bir o'g'ul Boysung'ur mirzo edi. Onasi Pashabegim edi.

Yana bir o'g'ul Sulton Ali mirzo edi. Onasi Zuhrabegim og'a edi, o'zbek edi, g'uma edi.

Yana bir o'g'ul Sulton Husayn mirzo edi. Onasi Xonzodabegim, Mir Buzurgning nabirasi edi, Mirzo hayotida o'n uch yoshida tengri rahmatig'a bordi.

Yana bir o'g'ul Sulton Vays mirzo edi. Onasi Yunusxonning qizi, mening onamning singili Sulton Nigorxonim edi. Bu to'rt mirzoning holoti bu tarixda yil vaqoyeyida mazkur bo'lg'usidir.

Uch qiz Boysung'ur mirzo bila bir tuqqon edi. Ulug'rog'ini Sulton Mahmud mirzo obag'asi Minuchebr mirzoning o'g'li Malik Muhammad mirzog'a chiqarib edi.

Yana besh qiz Mir Buzurgning nabirasi Xonzodabegimdin edi. Ulug'ini Sulton Mahmud mirzodin so'ngra Abobakr Koshg'ariyga berdilar. Ikkinchi qiz, Bikabegim edi, Sulton Husayn mirzo Hisorni muhosara qilg'onda Haydar mirzo otliq o'g'lig'akim, Sulton Abusaid mirzoning qizi Poyanda Sultonbegimdin tuqqondur, olib

yarashib, Hisorning ustidin qo'pti. Uchunchi qiz Oqbegim edi. To'rtunchi qizi Oybegim edi¹. Sulton Husayn mirzo Qunduz ustiga kelganda Umarshayx mirzo o'g'li Jahongir mirzoni Andijon cheriki bila ko'mak yiborganda Jahongir mirzog'a nomzad bo'lub edi. Tarix to'qquz yuz o'nda Amu daryosi yoqasida Boqi Chag'oniyoniy manga kelib mulozamat qildi. Bu begimlar onalari bilan Tirmizta edilar. Bular ham Boqi Chag'oniyoniyning kuchi bila kelib qo'shuldilar. Kohmardqa kelganda Jahongir mirzo oldi. Birgina qizi bo'ldi. Bu tarixda ulug'onasi Xonzodabegim bila Badaxshon viloyatidadur. Beshinchi qiz Zaynab Sultonbegim edi. Kobulni olg'onda onam Qutluq Nigorxonimning sa'yi bila oldim, xeyli sozvorliq bo'lmadi. Ikki-uch yildin so'ng obila zahmati bila olamdin bordi. Yana bir qiz Maxduma Sultonbegim edi. Sulton Ali mirzoning bir tuqqon egachisidur. Holo Badaxshon viloyatidadur. Va yana ikki qiz g'unchachidin bo'lub edi. Birining oti Rajab Sulton, yana birining oti Muhib Sultondur.

Xavotin va sarori: ulug' xotuni Mir Buzurg Tirmiziyning qizi Xonzodabegim edi. Mirzo bisyor sevar edi. Sulton Mas'ud mirzoning onasi edi. Ul o'lganda mirzo bisyor qattiq ta'ziyat tutqondur. Andin so'ng Mir Buzurgning nabirasi bu Xonzodabegimning birodarzodasini oldi. Ani ham Xonzodabegim derlar edi. Besh qiz va bir o'g'ulning onasi edi.

¹ L. b. da yo'q.

Yana bir Pashabegim edi. Qoraqo'yluq Bahorlu aymog'i turkman beklaridin Ali Shukrbekning¹ qizi edi. Jahonshoh mirxo Boroniy va Iroqni bu Jahonshoh avlodidin Oqqo'yluq Uzun Hasan olg'onda Ali Shukrbekning o'g'lonlari to'rt-besh ming uylik qoraqo'yluq turkmanlar bila Sulton Abusaid mirzo mulozamatig'a kelib edilar. Sulton Abusaid mirzo shikast topqonda bu viloyatlarg'a tushtilar. Sulton Mahmud mirzo Samarqanddin Hisor kelganda Sulton Mahmud mirzo mulozamatig'a keldilar. Bu Pashabegimni mirzo ul mahalda olib edi. Bir o'g'ul, uch qizning onasi edi. Yana bir Sulton Nigorxonim edi. Nasabi xonlar vaqoyeyida mashruh mazkur bo'lubtur.

G'uma va g'unchachisi xeyli bor edi. Mu'tabar g'umasi Zuhrabegi og'a edi. O'zbekdin edi. Sulton Abusaid mirzoning tirikligida yigitligida olib edi². Bir o'g'ul, bir qizning onasi edi va g'unchachi xeyli bor edi. Ikkisidin ikki qiz bo'lur edikim, mazkur bo'ldi.

Umarosi: Xisravshoh edi. Turkistonliq qipchoqdindur. Kichikligida tarxon beklariga yovuq xizmat qilur edi. Balki andin so'ng Mazidbek arg'ung'a navkar bo'ldi. Filjumla rioyat qilib edi. Iroq buzug'lug'ida Sulton Mahmud mirzog'a qo'shulub, yo'lda kelurda shoyista xizmatlar qilg'on uchun Sulton Mahmud mirzo rioyat qilib edi. So'ngralar asru ko'p ulg'ayib edi. Sulton Mahmud mirzoning zamonida-o'q navkari besh-olti mingga yetib edi. Amu daryosidin Hindukush tog'ig'acha viloyot

¹ Q. b. - Alisherbekning.

² L. b. da yo'q.

g'ayri Badaxshon, tamom munga taalluq edi. Darbast yer edi. Shiloni va saxovati yaxshi edi. Bovujudi turkluk mahkam paydokunanda edi. Nechukkim paydo qilur edi, yaxshi ham xarj qilur edi.

Sulton Mahmud mirzodin so'ng o'g'lonlarining zamonida xud asru ko'p ulg'oyib edi. Navkari yigirma mingga yovushub edi. Agarchi namoz qilur edi va taomda parhiz qilur edi, vale tiyra, va fosiq edi, gavdan va befahm va bevafo va haromnamak kishi edi. Besh kun o'tar dunyo uchun bir o'zi o'sturg'on valine'matzodasini ko'r qildi. Yana birini o'lturdi. Tengri qoshida osiy va xalq oldida mardud bo'lubdur. Domani qiyomatgacha la'nat va nafrin sazovori bo'ldi. Bu o'tar dunyo uchun mundoq yamon ishlar qildi. Mundoq bisyor ma'mur viloyat va muncha qalin yaroqliq navkar bila bir mokiyon bila ham tutushmadi. Bu tarixda zikri kelgusidur.

Yana bir Muhammad Elchi bo'g'a edi. Qavchin edi. Balx eshigida hazora¹ urushida Sulton Abusaid mirzo oldida da'vo bila musht tegurubdur. Mardona kishi edi. Mirzog'a doim mulozamat qilur edi. Mirzo ra'yi bila amal qilur edi. Sulton Husayn mirzo Qunduzni qobog'on-da Xisravshohning taassubig'a oz kishi bila yaroqsiz behisob shabixun keldi. Ish ham kdla olmadi. Andoq qalin cherikka ne ish qila olg'ay edi. So'nggicha qovg'unchi bordi, o'zin daryog'a soldi, g'arq bo'ldi.

Yana bir Ayyub edi. Sulton Abusaid mirzo qoshida Xuroson chuhrasi chargasida xizmat

¹ L. b. – Hazoraspiy.

qilur edi. Mardona kishi edi. Boysung'ur mirzoning bek atkasi edi. Yemak va kiymagi sirfa bila edi. Hazzol va harrof edi. Sulton Mahmud mirzo behayo, deb xitob qilur ekandur.

Yana bir Vali edi. Xisravshohning tuqqan inisi edi. Navkarini yaxshi saxlar edi. Sulton Mas'ud mirzoning ko'ziga mil tortmog'ig'a va Boysung'ur mirzoning o'turmakiga bois ul edi. Jami' elni g'iybat qilur edi. Badzabon va fahsh-go'y va xudpisand va tiyra mag'z mardak edi. O'zidin o'zga hech kishini hech ishta pisand tutmas edi. Qunduz viloyatidin kelganda va Dushiy navohisida Xisravshohni navkar, savdaridin ayrib ruxsat bergan fursatta ul dog'i o'zbekning qo'rqunchidin Andarob va Serobqa¹ kelib edi. Ul navohidag'i aymoqlarni bosib talab, bizni deb Kobulg'a keldilar. Vali Muhammad Shayboniyxon qoshig'a bordi. Samarqand shahrida bo'yniga urdurdi.

Yana bir Shayx Abdullo barlos edi. Shoh Sulton Muhammadning bir qizi munda edikim, Abobakr mirzo bila Sulton Mahmudxonning xolasi bo'lg'ay. To'nni siriq va tor kiyar edi. Odmi va asil kishi edi.

Yana bir Mahmud barlos edi. Navandokliq barloslardindur, Sulton Abusaid mirzo qoshida ham bek edi. Sulton Abusaid mirzoga Iroq viloyati musaxxar bo'lg'onda Kirmonni Mahmud barlog'a berib edi. Abobakr mirzog'a Mazidbek arg'un va qoraqo'y² turkman beklari qo'shulub, Sulton Mahmud mirzoning

¹ Q. b. - Sarob (سراب)

² Q. b. - va qorachuy qoraqo'yliq.

ustiga Hisorda kelganda Sulton Mahmud mirzo og'osig'a Samarqandg'a bordi. Mahmud barlos Hisorni bermay, yaxshi saxladi. Shoir edi, devon tartib qilib edi.

Sulton Mahmud mirzoning favtidin so'ngra Xisravshoh bu voqeani eldin yashurub xazinag'a dastandozliq qildi. Mundoq xabar nechuk yashurun qolur¹, filhol bori shahr eliga bu xabar yoyildi. Samarqand ahlig'a ul kun bir ulug' iyd edi. Sipohi va raiyat Xisravshohning ustiga hujum qilmoq maqomida bo'ldilar. Ahmad Hojirxon beklari g'avg'oni bosib, Xisravshohni chiqarib Hisor uzattilar. Sulton Mahmud mirzo hayotida ulug' o'g'li Sulton Mas'ud mirzog'a Hisorni berib, Boysung'ur mirzog'a Buxoroni berib, o'g'lonlarig'a ruxsat berib edi. Bu voqeada hech qaysi hozir emas edi. Xisravshohni chiqorg'ondin so'ng Samarqand va Hisor beklari ittifoq bila Buxorog'a Boysung'ur mirzog'a kishi yiborib va kelturub, Samarqand taxtig'a o'lturg'uzdilar. Boysung'ur mirzo podshoh bo'lg'onda o'n sekkiz yashar edi.

O'shal fursatta Sulton Mahmudxon Sulton Junayd barlosning va Samarqandning ba'zi akobirining so'zi bila Samarqand doiyasi bila cherik tortib, Kanboy navohisig'a keldi. Samarqanddin ham Boysung'ur mirzo qalin va ko'chum va yarog'liq cherik bilan chiqib, Kanboy navohisida masof urushtilar. Haydar ko'kaltoshkim mug'ul cherikning rukni a'zami edi, irovul edi, tamom ottin tushub, shiba

¹ Q. b. – yashuruqluq bo'lar.

qo'ymoqqa mashg'ul bo'ldi. Qalin otliq¹ taas-subluq Samarqand va Hisor yigitlari ot solg'on bila Haydarbek boshliq tushganlar tamom ot oyog'ining ostig'a-o'q qoldilar. Muni oldurg'on bila urusha ham olmadilar, bosturdilar. Qalin mo'g'ul kishisi qirildi. Boysung'ur mirzo o'z oli-da ham qalin kishining bo'ynini urdurubdur².

Andoqkim, o'lukning kasratidin uch yerda xirgohni buyutkabdurlar.

Bu fursatta Ibrohim sorukim, minglig' elidin edi, otamning³ olida kichikdin xizmatlar qilib, beklik martabasig'a yetib edi, bir jarima jihati-din so'ngralar mardud edi. Isfara qo'rg'onig'a kirib Boysung'ur mirzoning otig'a xutba o'qub, muxolafat maqomida bo'ldi.

Sha'bon oyi Ibrohim soruning fitnasining daf'ig'a azimat qilib cherik o'tlanildi. Ush-bu oyning oyog'ida Isfarani qabab tushtuk. Ul kuni yigitlar sho'xluq qilib, yetgan bila-o'q qo'rg'onining toshida yangi tom qo'porib, so-ladurg'on qo'rg'onni oldilar. Sayid Qosim eshik oqa bu kun borchadin yaxshiroq yurub, o'zub qilich tegurdi. Sulton Ahmad Tanbal ham qilich tegurdi. Muhammad Do'st tag'oyi ham qilich tegurdi, vale bahodur ulushini Sayid Qo-sim oldi. Bahodurluq ulushi mo'g'ulda qadimiy rasmdur. Har to'y va osh bo'lg'onda⁴ har kim-

¹ Q. b. – yaroqliq.

² Q. b. – bo'ynig'a urur edi.

³ L. b. da (^h) shaklida yozilishi xatodir.

⁴ Eldan o'zib chiqqan kishiga bahodirlik unvoni to'y va osh bo'lganda beriladi, deyishini urush, ma'arakada beriladi deb tushunish kerak.

ki eldin o'zub qilich tegurdon bo'lsa, ul ulushni ul olur. Shohruxiyada borib tag'oyim Sulton Mahmudxonni ko'rukona bahodurluq ylushini Sayid Qosim oldi. Avvalgi kun urushda Xudoyberdi atkamga taxsh o'qi tegib o'ldi. Chun yaroqsiz¹ urush solilib edi, ba'zi yigit-yalang zoye' bo'lib, xeyli kishi yaraliq bo'ldi. Ibrohim soruning qoshida taxshandoz bor edi, bisyor yaxshi otar edi. Oncha taxshandoz ko'rulmaydur erdi. Aksar elni ul yaralig' qildi. Qo'rg'on fathidin so'ng mening qoshimda bo'lur erdi². Muhosara

¹ Yaroqsiz – butunlay qurolsiz emas, balki o'q, qilich o'tmaydigan maxsus kiyim (jiba)siz demakdir.

² «Andoqkim o'lukning kasratidin uch yerda hirgohni buytkabdurlar» degan jumladan boshlab to shu yergacha bo'lgan qismi Qozon bosmasida forsha berilgan. Biz quyida shuning tarjimasini beramizkim, har ikkala matn orasida oz bo'lsa-da, farq bordir. Forscha matnning tushib qolgan joylari ham bor. Shunday joylarga nuqtalar qo'yilgan, tarjimada ham bu hol saqlandi.

«O'luklarning ko'pligidan chodirni to'rt yerga ko'chirdilar. Shu kunlarda Ibrohim soru otamning xizmatida bo'lib, amirlik martabasiga yetgan edi. Bu kunlarda bir gunohi sababli quvg'in bo'lib, Isfara qal'asiga kirdi va Boysung'ur mirzo nomiga xutba o'qib, dushmanlikni boshladi. Sha'bon oyida uning fitnasini qaytarish uchun lashkar otlandi va oxir shu Isfaraga jo'nadi. O'sha kuni yoshlar sho'xlik qilib, qal'aga yetish bilan tashqaridagi yangi solinayotgan qal'ani oldilar. Shu kun hammadan ortiqroq... Tanbal ham Muhammad Do'st tag'oyi kabi qilich... Mo'g'ul ulusida qadimdan rasm bo'lib kelgandirki (ma'arakada) xalq orasida yolg'iz chiqib dushmanga qilich tortsa, bahodirlik ulushini beradilar. Shu jihatdan bahodirlik ulusi unga berilgan. Avvalgi kuni atkam Xudoyberdiga o'q tegib o'ldi. So'ng qurolsiz (jibasiz) urush boshlangan edi. Ba'zi yigitlar talaf bo'lib, ko'pisi yarador bo'ldi. Ibrohim soru huzurida bir mergan bor edi, u ko'p kishilarni yarador qildi. Qal'a fathidan so'ng u mergan mening oldimda turar edi».

mumtad bo'ldi. Buyurildikim, ikki-uch yerda serko'blar yasab, naqblar solg'aylar. Qal'agirliq asbobig'a bajid mashg'ul bo'lg'aylar. Muhosara imtidodi qirq kunga tortti.

Oxir Ibrohim soru ojiz bo'lub, Xoja Mavlonoyi qozining tavassuti bila qulluqni ixtiyor qilib, shavvol oyida qilich, sog'dog'ini¹ bo'ynig'a osib kelib, mulozamat qilib, qo'rg'onni topshurdi.

Xo'jand ham muddati madid edikim, Umarshayx mirzo devonig'a taalluq edi, bu fataratga ul sarkorda futur bo'lg'on uchun Sulton Ahmad mirzog'a boqib erdi. Chun muncha taqrib bo'ldi, aning ustig'a ham borildi. Xo'jand ichida Amir Mo'g'ulning otasi Abdulvahhob shig'ovul erdi, men yetgach-o'q qo'rg'onni bemuzoyaqa topshurdi.

Bu fursatda Sulton Mahmudxon Shohruxiyag'a kelib edi. Mundin burunroq Sulton Ahmad mirzo Andijon navohisig'a kelganda xon ham kelib, Axsini qabab edi. Nechukkim, mazkur bo'ldi, xotirg'a yettikim, ora muncha yovuq bo'lg'onda xon chun ota og'adurlar, borib mulozamat qilsam o'tgan kuduratlar raf bo'lsa, iroqda-yovuqta eshitur, ko'rarga yaxshi bo'lg'ay deb kelib, Shohruxiyadin tashqari Haydarbek solg'on bog'da xong'a mulozamat qildim. Xon bog'ning o'rtasida solg'on ulug' chordara uyda o'lturub edilar. Uydin kirgach uch yukundum. Xon ham ta'zim qilib qo'ptilar. Ko'rushub, yonib yukungandin so'ng yonlarig'a tilab, qalin shafqat va mehribonliklar ko'rsattilar.

¹ Q. b. – sadog'ini.

Bir-ikki kundin so'ng Kandirlik doboni bila Axxi va Andijon sari azimat qildim. Axxig'a yetib otamning mazorini tavof qildim. Axxidin namozi jum'a vaqtida chiqib, Bandi Solor yo'li bila namozi shom bila namozi xuftan orasida Andijong'a keldim¹. Bu yo'lkim, Bandi Solor yo'li bo'lg'ay, to'qqiz yig'och yo'ldur. Andijon viloyatining sahnoshinlaridin bir Chakrak elidur, qalin eldur. Besh-olti ming uyluk el bordur. Farg'ona bila Koshg'ar orasidag'i tog'larda bo'lurlar. Otlari ko'p va qo'ylari qalindur. Ul tog'larda uy o'rnig'a qo'tos saxlarlar. Qo'toslari ham bisyor bo'lur. Chun tog'lari berk va sarhadta voqe bo'lubtur, mol bermakta royij emasturlar. Cherikni Qosimbekka boshlatib Chakrakka yiborildikim, Chakrakdin mol olib, cherikka nima tegurgay. Qosimbek borib, yigirma mingga yovuq qo'y va ming, ming besh yuz ot olib, cherik eligo ulashti.

Cherik Chakrakdin yong'ondin so'ng O'ratepaning ustigakim, muddatlar Umarshayx mirzo tasarrufida edi, mirzo o'lar yili ilikdin chiqib edi, bu fursatta Boysung'ur mirzo jonibidin inisi Sulton Ali mirzo anda edi, azimat qilildi. Sulton Ali mirzo xabar topib, o'zi Falg'ar va Masiho ko'histonlarig'a chiqib, atkasi Shayx Zunnunni O'ratepada qo'yub edi, Xo'janddin o'tub ora yo'lg'a yetganda Xalifani Shayx Zunning'a risolat tariyqi bila yiborildi. Ul behush mardak javobi shofiy bermay, Xalifani tutturub o'lumga buyurdi. Chun xost yo'q ekandur. Xalifa xalos bo'lub, yuz tuman mashaqqat va azoblar bila ikki-uch kundin so'ng yayoq va yalang'och keldi.

¹ Q. b. – kirdim.

O'ratepaning navohisig'a kelduk. Chun qish yovuq bo'lub edi, el oshliq-to'lukini tamom ko'tarib edilar, bu jihatlardan necha kundan so'ng Andijon sari murojaat qilildi. Biz yong'on-din so'ng xon kishisi O'ratepa ustiga yurudi. O'ratepa kishisi tura olmay solib chiqdi. Xon O'ratepani Muhammad Husayn Ko'ragonga berdi. O'shul tarixdin to'qqiz yuz sekkizgacha O'ratepa Muhammad Husayn Ko'ragonda edi.

VAQOYEYI SANAYI IHDO VA TIS'A MIA¹

Sulton Husayn mirzo Xurosondin Hisor ustiga cherik tortib, qish Tirmiz to'g'risi keldi. Sulton Mas'ud mirzo ham cherik yig'ib, Tirmizg'a muqobalada kelib o'lturdi. Xisravshoh o'zi Qunduzni mahkam qilib, inisi Valini cherikka yibordi. Qishning aksarini suv yoqasida o'tkardilar, o'ta olmadilar. Sulton Husayn mirzo kordon va sohib tajriba podshoh edi. Qunduz sari suv yuqqori boqa ko'chti. O'rtadagi cherikni g'ofil qilib Abdullatif baxshi boshliq besholti yuz o'bdon kishini Kilif guzariga yibordi. Ul cherik voqif bo'lg'uncha Abdullatif baxshi ta'yin bo'lg'on el bila Kilif guzaridin o'tub suv yoqasini mazbut qildi. Bu xabar Sulton Mas'ud mirzog'a kelgach, Vali Xisravshohkim bu kechgan kishining² ustiga bormoqni harchand sa'y qildi, Sulton Mas'ud mirzo bedillig'idin yo Boqi Chag'oniyoniyningkim, Valining ziddi edi, sa'yidin bu kechgan kishining ustiga bormodi. Buzulg'on yo'sunluq Hisor sari yondilar.

Sulton Husayn mirzo suv kechib, Badiuzamon mirzoni va Ibrohim Husayn mirzo va Muhammad Valibek va Zunnun arg'unni Xisravshoh ustiga ilg'or yibordi. Muzaffar mirzo va Muhammad Burundug barlosni Xatlon ustiga yibordi³. O'zi Hisor ustiga keldi. Yovuq yetkan-da xabardor bo'ldilar.

¹ To'qqiz yuz birinchi (1495–1496) yil voqealari.

² Q. b. – kelgach betavaqquf Xisravshoh va Vali bu kechgan kishilarning.

³ Q. b. – Muhammad Burundug barlos va Zunnun arg'unni Xisravshoh ustiga ilg'or yibordi. Muzaffar mirzoni Xatlon ustiga yibordi.

Sulton Mas'ud mirzo Hisorda turmoqning maslahatini topmay Kamrud rudi yuqori Sira tog¹ yo'li bila inisi Boysung'ur mirzo qoshig'a, Samarqandg'a bordi. Vali ham Xatlon sari tortti. Hisor qo'rg'onini Boqi Chag'oniyoniy va Mahmud barlos va Sulton Ahmad Quchbekning otasi berkittilar.

Hamza Sulton va Mahdi Sulton necha yil edikim, Shayboniyxondin ayrilib kelib, Sulton Mahmud mirzo mulozamatida edilar. Jami' o'zbeklari bila Muhammad² dug'lat Sulton Husayn dug'lat va jami' Hisor viloyati o'turushluq mo'g'ullar bila bu buzug'luqta Qorategin sari torttilar. Sulton Husayn mirzo bu xabarlarini topib, Abulmuhsin mirzoni va ba'zi yigitlarni Kamrud darasi yuqori, Sulton Mas'ud mirzo keyiniga yibordi. Tangiga kirgan mahalda keyinidin yetarlar, oncha ish qila olmaslar. Mirzobek farangiboz anda qilich tegurur.

Ibrohim tarxon va Ya'qub Ayyub va yana ba'zi cherikni Hamza Sultonning va mo'g'ullarning ustiga Qorateginga yibordi. Qorateginda keyinidin yetib urushtilar. Sulton Husayn mirzoning ilg'orini bosib, bu beklarning aksarini tushurub yana qo'ya berdilar.

O'shul chiqqon bila Hamza Sulton va Mahdi Sulton va Hamza Sultonning o'g'li Mamoq Sulton va Muhammad dug'latkim, so'ngralar Muhammad Hisoriyga mashhur bo'lub edi, Sulton Husayn dug'lat va bu sultonlarg'a taalluq o'zbeklar Hisor viloyati o'turushluq Sulton

¹ Q. b. – Sarv tog'.

² Q. b. – Mahmud.

Mahmud mirzo navkari mo'g'ullar bizni deb, ramazon oyi Andijong'a keldilar.

Ul fursatlar Temuriya salotini dasturi bila to'shak ustida o'lturur edim. Hamza Sulton bila Mahdi Sulton va Mamoq Sultonkim keldilar, bu salotining ta'zimig'a qo'pub, to'shakdin tushub, bu sultonlar bila ko'rushtum. Sultonlarni o'ng qo'lda bog'ishda o'lturg'uzdum. Muhammad Hisoriy boshliq borcha mo'g'ullar keldilar. Borcha mulozamatni ixtiyor qildilar.

Sulton Husayn mirzo kelib Hisor qo'rg'onini qabab tushti. Naqb solmoq va qo'rg'on olmoq va tosh urmoq va qozon qurmoqning ish-kuchida kecha va kunduz orom va qarori yo'q edi. To'rt-besh yerda naqb soldi. Shahr sari darvozada solg'on naqb xeyli ilgari kelib edi. Qo'rg'on eli dag'i naqb solib, bu naqbn toptilar. Qo'rg'on eli yuqoridin bularg'a dud qildilar. Alar to'shukni berkitgan bila tutun yuqqori qo'rg'on eliga-o'q yonib, qo'rg'on eli o'lum ichi bo'lub, qochib chiqtilar. Oxir ko'za-ko'za suv keturub quyub, tashqi elni naqbdin qochurdilar. Yana bir navbat bir pora ildam yigitlar chiqib, naqb ustidagi yigitlarni qochurdilar. Yana mirzo tushgan shimol tarafidin qozon qurub, qalin tosh urub, bir burjni kovok qilib edilar. Namozni xuftan burj ucti. Ba'zi yigitlar tezlik qilib urushg'a ruxsat tiladilar. Kechadur deb, mirzo ruxsat bermadi. Tong otquncha xud qo'rg'on eli burjni tamom qo'parib edilar. Tonglasi urush ham solmadilar. Bu ikki oy, ikki yarim oyda g'ayraz siyosat va naqb solmoq, sarkub qo'pormoq va tosh otmoqdin o'zga yaxshi urush solmadi.

Badiuzzamon mirzo va ul jamoatnikim, Xisravshoh ustiga yiborib edi, Qunduzdin uchto'rt yig'och quyiroq tushganda Xisravshoh bo'lg'on kishisi bila yasatib, Qunduzdin chiqib ora qo'nub, Badiuzzamon mirzo va cherikning ustiga bosib keldi. Bular muncha mirzolar va muncha sardor beklar bovujudkim, kishilari ikki Xisravshohning kishisicha bo'lmasa, bir yarimchada xud ne so'z, hazm rioyat qilib, handaqdin chiqmadilar. Xisravshohning yaxshi-yu yamon, ulug'-u kichik navkari to'rt-besh ming bo'lg'ay edi.

Xisravshoh bu o'tar dunyoyi bebaqo uchun va ketar navkari bevafo uchun muncha yamonliq va badnomliqni ixtiyor qilib va muncha zulm va bedod qilmoqni o'ziga shior qilib, muncha ulug' viloyatlar olib, muncha qalin navkar va savdar saxlamoq tarhini solib, balki so'ngralar navkar va chokari yigirma-o'ttuz mingga tortib viloyot va parkanoti o'z podshohi va mirzolaridin ortib, umrida qilg'on ishi ushbu bo'ldi. Ushmuncha bila Xisravshoh va tavobeyining oti sardorliqqa chiqib, mardona bo'ldilar.

Xandakdin chiqmag'onlar qo'rqqoqliqqa otiqib, bedillik bila afsona bo'ldilar. Badiuzzamon mirzo andin ko'chib, necha ko'ch bila Toliqqonning Olg'u tog'iga¹ kelib tushti. Xisravshoh Qunduz qo'rg'onida edi. Inisi Valini bir pora o'bdon yigitlar bilan Ishkamish va Fulul va ul tog' domanalarig'a yiborib edikim, yana tashqaridin xaduk va tashvish bergay, yana Muhib Ali qo'rchi bir pora o'bdon yigitlarni olib kelib,

¹ Q. b. - Ulug' bog'ig'a.

Xatlon suyining yoqasida bularning kishisiga uchrab bosib, bir pora kishi tushurub, bir necha bosh kesib bordi. So'nggi navbat muning taassubig'a Seydim Ali darbon va inisi Qulibek va Bahlul Ayyub bir pora o'bdon yigitlar bila kelib, Anbar ko'h domanasida Xoja Changol navohisida Xuroson cheriki ko'chgan mahalda ilik olishurlar, qalin kishi yetib Seydim Ali va Qulboboni va yana bir pora o'bdon yigitlarni tamom tushurdilar.

Bu xabar Sulton Husayn mirzog'a yetishti. Dag'i Hisorning bahor yog'inlari jihatidin ham cherik xoli az tashvish emas erdi, yarash tarhin orag'a solib ichkardin Mahmud barlos keldi. Tashqaridin Xoja Pir bakovul va ulug' og'alar va nekim bo'lg'on sozanda va xonanda kelib, Sulton Mahmud mirzoning Xonzodabegimdin bo'lg'on ulug' qizini Haydar mirzog'akim, Poyanda Sultonbegimdin bo'lub edi. Sulton Abusaid mirzoning qiz nabirasi edi, olib, Hisor ustidin qo'pub, Qunduz sari yuzlandilar, Qunduzg'a kelib ham bir pora siyosat qilib, muhosara maqomida bo'ldi. Oxir Badiuzzamon mirzo orag'a tushub, yarashib, ichkari, tashqari tushgan yigitlarni alishib yondilar. Xisravshohning muncha ulg'aymog'ig'a, muncha haddi yetmas ishlarni qilmog'ig'a Sulton Husayn mirzoning ikki qatla kelib, ola olmay yonmog'i sabab bo'ldi. Sulton Husayn mirzo Balxg'a yetganda Movarounnahr viloyati maslahati uchun Balxni Badiuzzamon mirzog'a berib, aning viloyatinikim, Astrobod bo'lg'ay, Muzaffar Husayn mirzog'a berdi. Har ikkalasini Balhqa va Ast-

robodqa bir majlista yukundurdi. Bu jihatdin Badiuzzamon mirzo tar bo'ldi. Muncha yil yog'iyliqlar va fitnalarning sababi ul edi.

Ushbu ramazon oyi Samarqandda tarxoniy-larning fitnasi edi. Sharhi budurkim, Boysung'ur mirzo ul miqdorkim, Hisor beklari va sipohilari bila ixtilot va omizish qilur edi. Samarqand bek va sipohiy-lari bila oncha qilmas edi. Shayx Abdullo barlos ulug' ixtiyor bek edi. O'g'lonlari andoq muqarrab va ichki edilarkim, oshiqliq bila ma'shuqluqqa nisbat qilurlar edi. Tarxon beklari va ba'zi Samarqand beklari bu jihat-lardin tar bo'ldilar.

Darvesh Muhammad tarxon Buxorodin kelib, Sulton Ali mirzoni Qarshidin kelturub podshoh ko'tarib, Bog'i Navg'a keldilar. Boysung'ur mirzo Bog'i Navda edi. Boysung'ur mirzoni tutqun yo'sunluq qilib, navkar, savdaridin ayirib, arkka kelturdilar. Ikkala mirzoni bir yerda o'lturg'uzdilar. Kech namozi digar Boysung'ur mirzoni Ko'k saroyg'a chiqorur xayoli qildilar. Boysung'ur mirzo tahorat qilmoq bahonasi bila Bo'ston saroyining sharqi-shimol tarafidag'i imoratlardin bir uyga kirdi. Eshikta tarxoniy-lar turub edilar. Mirzo bila Muhammad Quli qavchin Hasan sharbatchi bila kirdilar. Alqazo¹, mirzo tahoratga kirgan uyning orqa tarafida hisht bila tig'a qo'porg'on eshigi bor ekan-durkim, havlidin tashqari chiqar ekandur. Filhol bu tig'ani yiqib chiqib, arkning G'otfar tarafidag'i fasildin biridin ob mo'ri bila chiqib, dutahiy fasilidin tashlab, Xoja Kafshirga, Xojago

¹ Q. b. – alqissa.

Xojaning uyiga bordilar. Obxonaning eshigida turg'onlar bir zamondin so'ng mulohaza qilurlar, ko'rarlarkim, mirzo qochibtur.

Tonglasi tarxoniylar yig'ilib, Xojago Xojaning eshigiga borurlar. Xoja, yo'qtur, deb bermas. Bular ham zo'r bila olmaslar. Xojalarning janobi andin oliy edikim, zo'r qila olg'aylar edi. Bir-ikki kundin so'ng Xoja Abulmakorim va Ahmad Hojibek va yana ba'zi bek va bekot va sipohlar va jami' shahr eli hujumi om qilib, Xojaning uyidin mirzoni kelturub, Sulton Ali mirzoni va tarxoniylarni arkta qabadilar. Arkni bir kun ham saxlay olmadilar.

Muhammad Mazid tarxon Chorraha darvozasi bila chiqib, Buxoro bordi. Sulton Ali mirzo bila Darvesh Muhammad tarxon ilikka tushti.

Boysung'ur mirzo Ahmad Hojibekning uyida edikim, Darvesh Muhammad tarxonni kelturdilar. Bir-ikki so'z so'rdi. Yaxshi javob bera olmadi. Andoq ish qilmaydur edikim, javob bera olg'ay. Mirzo o'lunga buyurdi. Darvesh Muhammad tarxon betoqatliqtin sutung'a yopushti, sutung'a yopushqon bila qo'yg'aylarmi? Siyosatqa yetkurdilar. Sulton Ali mirzoni buyurdikim, Ko'k saroyg'a chiqarib ko'zlariga mil tortqaylar.

Temurbek solg'on oliy imoratlardin biri Ko'k saroydurkim, Samarqandning arkida voqe bo'lubtur. Ajab xosiyatliq imorattur. Temurbek avlodidin har kim bosh ko'tarib taxtqa o'ltursa ham munda o'lturur. Har kim taxt doiyasi bila bosh qo'ysa ham munda qo'yar, hattokim, kinoyati bo'lur edikim, falon podshohzodani Ko'k saroyg'a chiqordilar, ya'ni o'lturdilar.

Sulton Ali mirzoni Ko'k saroyg'a chiqarib ko'zlariga mil torttilar, jarrohning ixtiyori bila yo bexost milidin Sulton Ali mirzoning ko'zlariga osibe yetmadi. Filhol izhor qilmadi. Xoja Yahyoning uyiga bordi. Ikki-uch kundan so'ng qochib, Buxorog'a tarxonlarg'a bordi. Hazrati Xoja Ubaydulloning avlodining orasida bu sababdin taassub tushti. Ulug'i ulug'ig'a murabbiy bo'ldi, kichigi kichikiga muqavviy.

Bir necha kundan so'ng Xoja Yahyo ham Buxorog'a bordi. Boysung'ur mirzo cherik tortib Buxorog'a, Sulton Ali mirzoning ustiga bordi. Buxorog'a yovuq yetgan bila Sulton Ali mirzo va tarxon beklari yasab chiqtilar. Oz-ag'loq urush bo'ldi. Fath Sulton Ali mirzo sari bo'lub, Boysung'ur mirzo shikast topti. Ahmad Hojibek va yana bir pora o'bdon yigitlar ilikka tushti, aksarini o'lturdilar. Ahmad Hojibekni Darvesh Muhammad tarxonning qonining tuhmati bila¹ bezzatona o'lturdilar.

Sulton Ali mirzo Boysung'ur mirzoning keynicha-o'q Samarqandg'a yurudi. Bu xabar shavvol oyi Andijonda bizga keldi. Biz ham Samarqand doiyasi bila o'shul shavvol oyi-o'q² cherik otlanduq. Hisor va Qunduzdin Sulton Husayn mirzo yonib edi. Sulton Mas'ud mirzoning va Xisravshohning xotiri jam' bo'lub edi. Sulton Mas'ud mirzo ham Samarqand dag'dag'asi bila Shahrsabz ustiga keldi. Xisravshoh inisi Valini mirzog'a qopti³. Uch-to'rt oy bu uch tarafidin

¹ Q. b. - «bila»dan keyin «qul va dodaki chiqib» iborasi bor. L. b. da bu o'chirilgan.

² Q. b. - shavvol oyining to'rtida-o'q.

³ Q. b. - Vali mirzog'a qaytti.

Samarqandni muhosara qilduk. Xoja Yahyo Sulton Ali mirzo qoshidin kelib ittifoq va yakjihatliq soʻzini oragʻa soldi. Soʻzni koʻrushmakka qoʻyub, Samarqanddin ikki-uch sharʻiy quyi-roq Sugʻd tarafidin men cherikim bila bordim. Ul tarafdin Sulton Ali mirzo cheriki bila keldi. Naridin toʻrt-besh kishi bila Sulton Ali mirzo, beridin toʻrt-besh kishi bila men Koʻhak suyining oraligʻigʻa kechib, ot ustida-oʻq koʻrushub, soʻrushub, alar ul taraf bordilar, men bu taraf keldim.

Mullo Binoiyi va Muhammad Solihni anda Xoja xizmatida koʻrdum. Muhammad Solihni oʻshul bir qatla-oʻq koʻrdum. Mullo Binoiy xud soʻngralar xeyli mening xizmatimda boʻldi.

Sulton Ali mirzo bila koʻrushgondin soʻng chun qish yovuq kelib edi. Samarqand elining ham xeyli tanqisligʻi yoʻq edi. Men Andijongʻa, Sulton Ali mirzo Buxorogʻa murojaat qilduk.

Sulton Masʻud mirzo Shayx Abdullo barlosning qiziga bisyor moyil edi. Ani olib, mulkgirlik dagʻdagʻasini qoʻyub, Hisorgʻa yondi. Balki bu kelmaktin gʻaraz ushbu ekandur.

Sheroz va Kanboy navohisidin Mahdi Sulton qochib Samarqand bordi. Hamza Sulton Zomindin ijizat bila Samarqand bordi.

VAQOYEYI SANAYI ISNO VA TIS'A MIA¹

Ushbu qishliqta Boysung'ur mirzoning ishi filjumla taraqqiyda edi. Abdulkarim ashritkim, Sulton Ali mirzo jonibidi Ko'fin va ul navohig'a kelib edi. Samarqanddin Mahdi Sulton Boysung'ur mirzoning ilg'orini boshlab kelib, bularning ustiga yurudilar. Abdulkarim ashrit bila Mahdi Sulton-o'q ro'baro' bo'ldi. Abdulkarimning otini Mahdi Sulton cherkasii qilich bila sanchqoch-o'q oti yiqildi. O'zi qo'par holatda Mahdi Sulton iligini bandidin tushura chopti. Ani olib ul ilg'orini yaxshi bostilar. Bu sultonlar Samarqand ishini va mirzolarining eshigini muzabzab, ko'rub, ayrilib yozig'a Shayboniyxon qoshig'a bordilar. Ushmuncha bila Samarqand kishisi umoqlanib, Sulton Ali mirzoning o'trusig'a cherik tortib chiqtilar. Boysung'ur mirzo Saripul keldi. Sulton Ali mirzo Xojayi Kordzan keldi. Ushbu fursatda Xoja Munir O'shiyning angizi bila Xoj Abulmakorim va Andijon beklaridin Vays Log'ariy va Muhammad Boqir va yana Qosim do'ldoy va Boysung'ur mirzoning bir por ichkilaridin Buxoro ustiga ilg'adilar. Yovuq yeta Buxorodag'ilar xabardor bo'ldilar, bularning ishi yurumay yondilar.

Sulton Ali mirzo bila ko'rushganda andoq muqarrar bo'lub edikim, yoz alar Buxorodin, men Andijondin kelib, Samarqandni muhosara qilg'oybiz. O'shul miqdod bila ramazon oyi Andijondin o'tlanib, Yoryayloq navohisig'a yetganda, mirzolarining ro'baro' o'lturgan xabarini topib,

¹ To'qquz yuz ikkinchi (1496-1497) yil voqealari.

Toʻlun Xoja moʻgʻulni ikki-uch yuz qazoq yigitlar bila ilgʻor ayirduk. Bular yovuq yetgan mahalda Boysungʻur mirzo bizning xabarimizni topib, buzulgʻon yoʻsunluq yonar. Bu yigitlar oʻshal kecha koʻndalangdin kirib, qalin kishini oʻqlab olib, qalin oʻlja kelturdilar.

Biz bir-ikki kundan soʻng Sheroz qoʻrgʻonigʻa yettuk. Sheroz Qosim doʻldoyda edi. Dorugʻasi Sherozni saqlay olmay, qoʻrgʻonni berdi. Sheroz Qoʻrgʻoni Ibrohim sorugʻa uhda boʻldi. Tonglasi iydi fitr namozini anda qilib, Samarqand ustiga mutavajjih boʻlub, Obyor¹ qoʻrugʻigʻa tushtuk. Ushbu kun Qosim doʻldoy, Vays Lohariy, Hasan nabira, Sulton Muhammad Sayfal, Sulton Muhammad Vays² uch-toʻrt yuz kishi bila kelib, mulozamat qildilar. Soʻzlari bu edikkim, Boysungʻur mirzo koʻchub, yongʻoch, biz ayrilib podshoh qullugʻigʻa kelduk. Oxir maʼlum boʻldikim, bular daʼvo bila Boysungʻur mirzodin ayrilib, Sherozni saxlagʻali kelgan ekandurlar. Sheroz ishi mundoq boʻlgʻoch, bechora boʻlub kelibturlar.

Qorabuloq tushganda baʼzi kirgan kend-kesakka boshsizliq qilgʻon moʻgʻullarni tutub kelturdilar. Qosimbek siyosat uchun ikki-uchini pora-pora qildurdi. Toʻrt-besh yildin soʻngra qazoqliqlarda Masihodin xon qoshigʻa mutavajjih boʻlgʻonda, Qosimbek ushbu jihatdin bizdin ayrilib Hisorgʻa bordi. Qorabuloqdin koʻchub, suv kechib, Yom toʻgʻrisida tushtuk. Ushbu kun baʼzi ichki beklar Xiyobon boshida

¹ Q. b. – Iypor.

² Q. b. – Sulton Muhammad Darvesh.

Boysung'ur mirzoning kishisi bila ilik olishtilar. Sulton Ahmad Tanbalning bo'g'zig'a nayzalab yiqtilar, vale tushmadi. Xojagi Mullo Sadrkim, Xoja Kalonning ulug' og'asi edi, yo'g'on bo'ynig'a o'q tegdi. O'shal zamon tengri rahmatig'a bordi. Xeyli yaxshi yigit edi. Otam ham rioyat qilib, muhrdor qilib edi. Tolibi ilmlig'i bor edi, lug'atni xeyli bilur edi, inshosi ham yaxshi edi. Qushchilig'ni va yadachilig'ni ham bilur edi.

Yom navohisida ekanda shahrdin qalin el bozori va g'ayri bozori chiqib, o'rdu bozorda bo'lub, sud va savdo qilurlar edi. Bir namozi digar g'avg'oyi omi bo'lub, bu musulmonlar tamom talong'a bordilar. Cherik zabti bu martabada edikim. farmon bo'ldikim, jami' elning jihotini hech kim saxlamay tamom yondura bergaylar. Tonglasi bir pahra bo'lmaydur edikim, ip uchi, igna sinug'icha nima cherik iligida qolmadi, borchasini egalariga yondura berdilar.

Andin ko'chub Samarqandning sharq tarafi Xon yurtig'a tushuldi, Samarqanddin uch kuruh bo'lg'ay. Qirq-ellik kun bu yurtta o'turuldi. Bu yurtta ekanda necha navbat tashqaridin-ichkaridin ko'ngulluk yigitlar Xiyobonda yaxshilar chopqulashtilar. Bir martaba Xiyobonda Ibrohim begchik chopqulashti, yuziga choptilar. Mundin so'ng Ibrohim chopuq derlar edi. Yana bir navbat ham, Xiyobonda Puli Mag'okta Abulqosim ko'hbur piyozi¹ tuguri. Yana bir qatla ham Xiyobonda Tarnov navohisida chopqulash bo'ldi. Mirzoshoh qavchin piyozi tegurdi. Mirzoshoh qavchinni andoq chopti-

¹ L. b. - sozi.



larkim, bo'ynining yarmig'a yovuq chopilib edi, g'oyatash shahragi kesilmaydur edi.

Xon yurtida ekanda qo'rg'ondag'ilar frib bila kishi yiborib, dedilarkim, kecha bila G'ori Oshiqon tarafig'a kelingkim, qo'rg'onni berur-biz. Bu xayol bila kecha o'tlanib Puli Mag'okka keldim. Bir pora o'bdon yigitlarni va piyodalarni miqd yeriga yiborildi. Ichkaridin bizning piyodalardin to'rt-besh piyodani chiqarib edilarkim, voqif bo'ldilar. Xeyli jald piyodalar edilar. Birisining oti Hoji edi. Manga kichiktin xizmat qilib edi. Yana birini Mahmud kunduri sangak derlar edi. Borchasini o'lturdilar.

Bu yurtta ekanda Samarqanddin shahriy va bozoriy ul miqdor chiqib edikim, o'rdu shahri bo'lub edi. Harne shahrlarda tilasalar, o'rdu-da topilur edi. Bu muddatta bir Samarqanddin o'zga tamom qo'rg'onlar va tog' va tuz kirib edi. Shovdor¹ tog'ining domanasida Urgut² otliq qo'rg'onni bir jamoat berkittilar. Zarurat bo'lub bu yurttin ko'chub Urgut ustiga borildi. Toqat keltura olmay Xoja qozini orag'a solib kirdilar. Biz dog'i gunohlarini afv qilduk. Yana Samarqand muhosarasig'a yonduk.

Ushbu yil Sulton Husayn mirzo bila Badiuzamon mirzo orasidag'i niqorlar urushg'a tortti. Tafsili budurkim, o'tgan yil Balxni va Astrabodni Badiuzzamon mirzog'a va Muzaffar mirzog'a berib, yukundurub edilarkim, nechuk mazkur bo'ldi, o'shul muddatdin bu muddatqacha g'alaba elchilar bordilar va keldilar.

¹ L. b. - Shohdor.

² Q. b. - da  L. b. da  shaklida M. Salye tarjimasida Urgut yozilgan, biz shuni oldik.

Oxir Alisherbek ham elchilikka keldi. Har-chand sa'y qildilar, Astrobodni inisiga bermakka rizo bo'lmadi. Dedikim, mening o'g'lum Muhammad Mo'min mirzoni xatna qilg'onda mirzo anga bog'ishlabtur.

Bir kun Alisherbek bila mirzoning orasida bir suhbate o'ttikim, mirzoning tez fahmlig'ig'a va Alisherbekning riqqati qalbig'a doldur. Alisherbek sirriy¹ so'zlarni mirzog'a go'shaki g'alaba² aytti. Dag'i dedikim: – Bu so'zlarni unutung. – Mirzo filhol ayttikim: – Qaysi so'zlarni? – Alisherbek bisyor mutaassir bo'lub ko'p³ yig'ladi.

Oxir otaliq, o'g'ulluk orasida bu guftu-go'ylar anga munjar bo'ldikim, otasi otasining ustiga va o'g'li o'g'lining ustiga⁴ Balx va Astrobodga cherik torttilar. Garzavonning oyog'ida Yakchirog' o'langiga quyidin Sulton Husayn mirzo, yuqqoridin Badiuzzamon mirzo keldilar. Chahorshanba kuni ramazon oyining g'urrasida Abulmuhsin mirzo Sulton Husayn mirzoning bir necha beklari va bir pora ilg'ori bila ilgarrak keldi. Andoq urush ham bo'lmadi, bosildi. Qalin o'bdon yigitlari ilikka tushti. Sulton Husayn mirzo barchasining bo'ynig'a urdurdi. Yolg'uz munda emas edi, qachon bir o'g'likim, yog'ilg'i yurudi, bosti. Ilikka tushgan navkarlarining tamom bo'ynig'a urdurdi. Ne qilsun, haq aning tarafi ekandur.

Bu mirzolar andoq ifrot bila fisq va ayshg'a mashg'ul edilarkim, otasidek kordiyda va kor-

¹ Q. b. – bori.

² Q. b. – qilib.

³ Q. b. – «ko'p» so'zi yo'q.

⁴ Q. b. – otasi o'g'lining ustiga.

don podshoh tushchilik yo'l kelib, ramazondek mutabarrak va aziz oyg'a kechalik fursat qolib, otasidin iymanmay, tengridin qo'rqmay, hanuz ishi chog'ir, ichmak edi nashot bila, majlis oroliq edi inbisot bila. Muqarrardurkim, mundoq bo'lg'on kishi andoq shikast topqay va bu nav' o'tgan elga har kim dast topqay.

Necha yilkim, Astrobod hukumati Badiuzzamon mirzoda edi, havoli va havoshisi va yigit-yalangi bisyor purzavq va purzeb bo'lub edi. Oltun va kumush olot va adavoti bisyor bo'lub edi. Va qumoshpo'sh yigiti va to'puchoq oti beshumor bo'lub edi. Borchasini munda boy berdi. Qocharda, tog' yo'lig'a uchrab, inish va uchma yerga yo'luqub, o'zi tashvish bila bu uchmadin tushti. Ko'p eli bu uchmada zoye bo'ldi.

Sulton Husayn mirzo o'g'lini bosqondin so'ng Balhqa keldi. Badiuzzamon mirzo, Balxta Shayx Ali tag'oyini qo'yub edi. Chora qila olmay, kirib Balxni topshurdi. Sulton Husayn mirzo Balxni Ibrohim Husayn mirzog'a berib, Muhammad Valibek va Shoh Xusayn chuhrani aning bila qo'ydi. O'zi Xurosong'a murojaat qildi.

Badiuzzamon mirzo shikastin so'ng talanib, oldurub, yigit yalangi va yayoq-yolingi bila Qunduzg'a, Xisravshohg'a tortti. Xisravshoh ham yaxshi xizmatlar qildi. Ot va tevad in va xayma va xirgohdin, balki jami' sipohiliq yarog'idin mirzog'a va mirzo bila bo'lg'onlarig'a ul miqdor xizmat va odamigarlik qildikim, ko'rganlar dedilarkim, burungi yarog' bila bu yarog'ning orasida tafovut magar tilla olot va nuqra olot bo'lg'ay edi.

Sulton Mas'ud mirzo bila Xisravshohning orasida aning beetidollig'laridin va muning ulg'aymoqlaridin niqorlar va kuduratlar bo'lub edi. Valini va Boqini Badiuzzamon mirzog'a qo'shub, Sulton Mas'ud mirzoning ustiga Hisorg'a yibordi. Qo'rg'ong'a yaqin ham kela olmadilar. Atrof va navohida bir-ikki qatla ul tarafdin, bu tarafdin qilich olishtilar. Bir navbat Hisorning shimol tarafi Qushxonada Muhib Ali qo'rchi eldin ayrilib kelib, yaxshi chopti. Otin yiqilib olur mahalda yana ul tarafdin zo'rlab xalos qildilar.

Bir necha kundan so'ngra gurg oshtirok qilib yondilar.

Bir necha kundan so'ng Badiuzzamon mirzo tog' yo'li bila Qandahor va Zamini Dovarg'a va Zunnun arg'un va o'g'li Shoh Shujo' arg'ung'a o'zini tortti, Zunnun arg'un bovujudi xissat va baxillik yaxshi xizmatlar qildi. Bir peshkash qilg'onda qirq ming qo'y peshkash qildi.

Bu g'arib voqeottindurkim, o'shul chahorshanba kunikim, Sulton Husayn mirzo Badiuzzamon mirzoni bosar. O'shul kuni Astrobodta Muzaffar mirzo Muhammad Mo'min mirzoni bosar. Yana bu ajabroqqim, Chahorshanba otliq kishi Muhammad Mo'min mirzoni tushurub kelturur.

VAQOYEYI SANAYI SALOS VA TIS'A MIA¹

Bog'i Maydonning orqasi Qo'lba o'langiga tushuldi. Samarqand eli sipohi va shahri Puli Muhammad Chab navohisig'a qalin chiqtilar. Chun bizning el tayyor emas edilar, yigitlar mustaid bo'lg'uncha, Sultonquli va Boboqulini tushurub, qo'rg'ong'a eltilar. Bir necha kundin so'ng ko'chub, Ko'hakning orqasi Qo'lbaning boshig'a tushuldi. Sayid Yusufbekni ushbu kun Samarqanddin chiqordilar. Ushbu yurtta kelib mulozamat qildi.

Samarqanddag'ilar ul yurttin ko'chib, bu yurtqa kelganimizni yondi tasavvur qilib, ko'maki sipohiy va shahriy Mirzo ko'prugigacha, Shayxzoda darvozasidin Muhammad Chab ko'prugigacha chiqtilar. Buyurdukkim, bo'lg'on yigitlar yaroqlanib otlandilar. Ikki tarafdin Puli Mirzodin va Puli Muhammad Chabdin zo'r kelturdilar. Tengri rost kelturdi, yog'iy bosildi. O'bdon-o'bdon beklarni va yaxshi-yaxshi yigitlarni tushurub kelturdilar. Ul jumladin, bir Muhammad Miskin Hofiz do'ldoy edi. Shahodat barmog'ini tushura chopib, olib kelturdilar, Yana Muhammad Qosim nabirani inisi Hasan nabira tushurub kelturdi².

Mundoq sipohi va el tonig'udek yigitlardin xeyli bor edi. Yana shahr yatimlaridin Devonayi jomabofni va Kal Qoshuqni kelturdilarkim, jang-sangda va yatimlikda xira va saromad edi-

¹ To'qqiz yuz uchinchi (1497–1498) yil voqealari.

² Q. b. – Yana Muhammad Qosim nabira inisi Hasan nabirasi tushurub kelturdilar.

lar. G'ori Oshiqonda o'lgan piyodalarning qasosig'a buyuruldikim, azoblar bila o'turdilar. Samarqand eliga bu qulliy shikast edi. Mundin so'ngra qo'rg'ondin chiqmoqlari bartaraf bo'ldi. Ish anga yettikim, bizning el xandaq yoqasig'acha borib, qul va dodak keltururlar edi.

Oftob mezonig'a tahvil qildi, sovuq tushti. Bori kengashga kirar beklarni tilab, kengashib so'z munga qaror toptikim, shahr kishisi muncha ojiz bo'lubtur. Tengri inoyati bila bu kun ham bo'lsa olurbiz, tongla ham bo'lsa olurbiz. Tashqari sovuqta tashvish tortquncha shahrning yovug'idin qo'pub, bir qo'rg'onda qishloq solmoq kerak. Ketari ham bo'lsa ul mahalda betaraddudroq ketar bo'ur. Qishloqqa Xoja Diydor qo'rg'onini maslahat ko'rub, ko'chub Xoja Diydorning olidag'i o'langga tushuldi. Qo'rg'ong'a kirib, uy va kapa yerlarini ta'yin qilib, ustakor va muhassil qo'yub yurtqa kelduk. Necha kun qishloqi uylar tayyor bo'lg'uncha o'langda o'turuldi.

Bu muddatda Boysung'ur mirzo Turkistong'a Shayboniyxong'a, mutavotir kishilar yiborib, Shayboniyxonni ko'mak tilabdur. Qishloq uylari tayyor bo'lub qo'rg'ong'a kirduk. Shayboniyxon Turkistondin ilg'ab o'shul sahari bizning yurtimiz ustiga kelib turdi. Bizning cherikimiz yaqin emas edi. Qishloq maslahatig'a ba'zi Raboti Xojag'a, ba'zi Kobulg'a, ba'zi Sherozg'a borib edilar. Bovujud hozir cherik kishisi bila yasab chiqildi. Shayboniyxon turush bermay, Samarqand sari o'zini tortti. Samarqand navohisig'a bordi. Chun Boysung'ur mirzoning muddaosidek bo'lmadi, yaxshi ixtilot qilmadi.

Necha kundin so'ng hech ish qila olmay ma'yus Turkistonga murojaat qildi.

Boysung'ur mirzo yetti oy qabal tortti. Bir umidvorlig'i mundin edi, mundin ham noumid bo'ldi. Ikki-uch yuz och urug'i bila Qunduzg'a Xisravshohg'a o'zini tortti. Tirmiz navohisidin Amuni kechaturg'on mahalda Sayid Husayn Akbarkim, Sulton Mas'ud mirzoning ham urug'i, ham mu'tabar kishisi edi. Tirmiz hokimi edi, xabar topib, Boysung'ur mirzoning ustiga keldi. Mirzo suvdin o'tub edi. Mirim tarxon anda suvg'a bordi, keyin qolg'on kishi-qaro partol-martolni oldi. Boysung'ur mirzoning Tohir Muhammad otliq chuhrasi dag'i ilikka tushti. Boysung'ur mirzoni Xisravshoh dag'i yaxshi ko'rdi.

Boysung'ur mirzo chiqqach bizga xabar keldi. Xoja Diydordin otlanib, Samarqandg'a mutavajjih bo'lduk. Yo'lda akobir va beklar va yigitlar mutaoqib istiqbolg'a keldilar. Rabiulavval oyining avoxirida kelib arkta Bo'stonsarog'a tushtum. Tengri taolo inoyati bila Samarqand shahri va viloyati muyassar va musaxxar bo'ldi.

Rub'i maskunda Samarqandcha latif shahr kamroqdur. Beshinchi iqlimdindur. Tuli ∞ (99) ramzi nujumiy 9ⁱ (56) daraja va daqiqadur, arzi - ρ (40) daraja va daqiqadur¹. Shahri Samarqanddur, viloyatini Movarounnahr derlar. Hech yog'iy qahr va g'alaba bila munga dast topmag'on uchun baldayi mahfuza derlar. Samarqand hazrati amirulmu'minin Usmon zamonida musulmon bo'lg'ondur. Sahobadin Qusam ibn Abbos anda borg'ondur.

¹ Qavs orasidagi raqamlarni biz qo'ydik (P.Sh.).

Qabri Ohanin darvozasining toshidadur. Holo mazori Shohg'a mashhurdur. Samarqandni Iskandar bino qilg'ondur. Mo'g'ul va turk ulusi Semirkand¹ derlar. Temurbek poytaxt qilib edi. Temurbekdin burun Temurbekdek ulug' podshoh Samarqandni poytaxt qilg'on emas-tur, Qo'rg'onini faslning ustidin buyurdumkim, qadam urdilar. O'n ming olti yuz qadam chiqti.

Eli tamom sunniy va pok mazhab va mutasharri' va mutadayyin eldur. Hazrati risolat zamonidin beri ul miqdor aimmayi islomkim, Movarounnahr din paydo bo'lubtur, hech viloyattin ma'lum emaskim, muncha paydo bo'lmush bo'lg'ay. Shayx Abumansurkim aimmayi kalomdindur. Samarqandning Motrid otliq mahallasidindur. Aimmayi kalom ikki firqadur, birni motridiya derlar, birni ash'ariya derlar. Motridiya Shayx Abumansurg'a mansubdur. Yana sohibi «Sahihi Buxoriy» Xoja Ismoil Xartang ham Movarounnahr dindur. Yana sohibi «Hidoya»kim, Imom Abu Hanifa mazhabida «Hidoyaye»din mu'tabarroq kitobi fiqh kam bo'lg'oy, Farg'onaning Marg'inon otliq viloyatidindur, ul ham doxili Movarounnahr dur.

Ma'muraning kanorasida voqe bo'lubtur. Sharqi Farg'ona va Koshg'ar, g'arbi Buxoro va Xorazm, shimoli Toshkand va Shohruxiyakim Shosh va Banokat bitirlar, janubi Balx va Tirmiz, Ko'hak suyi shimolidin oqar, Samarqanddin ikki kuruh bo'lg'ay. Bu suv bila Samarqand orasida bir pushta tushubtur, Ko'hak derlar. Bu rud muning tubidin oqar uchun Ko'hak

¹ L. b. - Semizqand. (سبزکند)

suyi derlar. Bu suvdin bir ulug' rud ayiribtur-lar, balki daryochadur, Darg'am suyi derlar. Samarqandning janubidin oqar, Samarqand-din bir shar'iy bo'lg'oy. Samarqandning bag'ot va mahalloti va yana necha tumonoti bu suv bila ma'murdur. Buxoro va Qora ko'lgachakim, o'ttuz-qirq, yig'och, yo'lg'a yovuqlashur, Ko'hak suyi bila ma'mur va mazru'dur. Mundoq ulug' daryo aslo ziroattin va imorattin ortmas, balki yozlar uch-to'rt oy Buxorog'a suv yetmas. Uzu-mi va qovuni va olmasi va anori, balki jami' me-vasi xo'b bo'lur. Vale ikki meva Samarqanddin mashhurdu: sebi Samarqand va sohibiyi Sa-marqand. Qishi mahkam sovuqtur, qori agar-chi Kobul qoricha tushmas. Yozlar yaxshi ha-vosi bor, agarchi Kobulcha yo'qtur.

Temurbekning va Ulug'bek mirzoning imo-roti va bag'oti Samarqand mahallotida ko'ptur. Samarqand arkida Temurbek bir uluk ko'shk solibtur, to'rt oshyonliq, Ko'k saroyg'a mav-sum va mashhur va bisyor oliy imorattur. Yana Ohanin darvozasig'a yovuq qal'aning ichida bir masjid jum'a solibtur, sangin, aksar Hindus-tondin eltgan sangtaroshlar anda ish qilibtur-lar. Masjidning peshtoqi kitobasida bu oyatni «Va iz yarfa-u Ibrohimal-qavoida (ilo ohirih)» andoq ulug' xat bila bitibturlarkim, bir kuruh yovuq yerdin o'qusa bo'lur. Bu ham bisyor oliy imorattur. Samarqandning sharqida ikki bog' solibtur, birikim yiroqroqtur, Bog'i Bo'ldudur, yovuqrog'i Bog'i Dilkushodur. Andin Feru-za darvozasig'acha xiyobon qilib, ikki tarafida terak yig'ochlari ekturubtur. Dilkushoda ham

ulug' ko'shk soldurubtur, ul ko'shkta Temurbekning Hinduston urushini tasvir qilibturlar. Yana Pushtayi Ko'hakning domanasida Konigilning qora suyining ustidakim, bu suvni Obirahmat derlar, bir bog' solibtur. Naqshi jahong'a mavsum. Men ko'rgan mahalda bu bog' buzulub erdi, oti besh qolmaydur edi. Yana Samarqandning janubida Bog'i Chanordur, qal'ag'a yovuqtur. Yana Samarqandning quyi yonida Bog'i Shamol va Bog'i Bihishttur. Temurbekning nabirasi Jahongir mirzoning o'g'li Muhammad Sulton mirzo Samarqandning tosh qo'rg'onida – Chaqarda bir madrasa solibtur. Temurbekning qabri va avlodidin har kimki Samarqandta podshohliq qilibtur alarning qabri ul madrasadatur.

Ulug'bek mirzoning imoratlaridin Samarqand qal'asining ichida madrasa va xonaqohdur. Xonaqohning gunbazi bisyor ulug' gunbazdur, olamda oncha ulug' gunbaz yo'q deb nishon berurlar. Yana ushbu madrasa va xonaqohga yovuq bir yaxshi hammom solibtur, Mirzo hammomig'a mashhurdur, har nav' toshlardin farshlar qilibtur. Xuroson va Samarqandta oncha hammom ma'lum emaskim, bo'lg'ay. Yana bu madrasaning janubida bir masjid solibtur, masjidi Muqatta' derlar. Bu jihattin Muqatta' derlarkim, qit'a-qita yig'ochlarni tarosh qilib, islmiy va xitoy naqshlar solibturlar, tamom devorlari va saqfi ushbu yo'sunluqtur. Bu masjidning qiblasida bila madrasa qiblasining orasida bisyor tafovuttur. G'olibo bu masjid qiblasining samti munajjim tariyqi bila amal qilibturlar.

Yana bir oliy imorati Pushtayi Ko'hak domanasida rasaddurkim, zich bitmakning olatidur. Uch oshyonliqdur. Ulug'bek mirzo bu rasad bila Zichi Ko'ragoniyni bitibturkim, olamda holo bu zich musta'maldur. O'zga zich bila kam amal qilurlar. Mundin burun Zichi Elxoniy musta'mal edikim, Xoja Nasir Tusiy Halokuxon zamonida Marog'ada rasad bog'latibtur. Halokuxondurkim, Elxon ham derlar. G'olibo olamda yetti-sekkiz rasad besh bog'lamaydurlar. Ul jumladin bir, Ma'mun xalifa rasad bog'labturkim, Zichi Ma'muniyni andin bitibturlar. Bir Batlimus ham rasad bog'labtur. Yana bir Hindustonda roja Bikramojit hindu zamonida O'jin va Dahordakim, Molva mulkidur, holo Mandug'a mashhurdur. Yana bir rasad qilibturlar, holo hindularning musta'mal Hindustonda ul zichdur. Bu rasadni bog'lag'oni ming besh yuz sekson to'rt yildur. Bu ul zichlarg'a boqa noqisroqtur.

Yana pushtayi Ko'hakning domanasida g'arb sari bog'e solibtur, Bog'i Maydong'a mavsum. Bu bog'ning o'rtasida bir oliy imorat qilibtur. Chilsutun derlar, du oshyona, sutunlari tamom toshdin. Bu imoratning to'rt burchida to'rt manordek burjlar qo'poribturlarkim, yuqqorig'a chiqar yo'llar bu to'rt burjdindur. O'zga tamom yerlarda toshdin sutunlardur. Ba'zini morpech xiyora qilibturlap. Yuqqorig'i oshyonining to'rt tarafi ayvondur, sutunlari toshdin. O'rtasi chordara uydur. Imorat kursisini tamom toshdin farsh qilibturlar. Bu imorattin pushtayi Ko'hak sari domanada yana bir bog'cha solib-

tur, anda bir ulug' ayvon imorat qilibtur, ayvonning ichida bir ulug' tosh taxt qo'yubtur, tuli taxminan o'n to'rt-o'n besh qari bo'lg'oy, arzi yetti-sekkiz qari, umqi bir qari. Mundoq ulug' toshni xeyli yiroq yo'ldin kelturubturlar. O'rtasida darz bo'lubtur. Derlarkim, ushbu yerda keltirgandin so'ng bu darz bo'lg'ondur. Ushbu bog'chada yana bir chordara solibtur, izorasi tamom chiniy. Chiniyxona derlar. Xitoydin kishi yiborib kelturubtur.

Samarqandning qal'asining ichida yana bir qadimiy imorattur, masjidi Laqlaqa derlar. Ul gunbazning o'rtasida yerga tepsalar tamom gunbazdin laq-laq un kelur, g'arib amerdur, hech kim inuning sirrini bilmas.

Sulton Ahmad mirzoning zamonida ham bek va bekot qalin bog' va bog'cha soldilar. Ul jumladin, Darvesh Muhammad tarxonning chorbog'icha safoliq va havoliq va maddi nazarliq chorbog' kam bo'lg'ay. Bog'i Maydondin quyiroq, balandining ustida Kulba o'langiga mushrif bir chorbog' solibtur, tamom bu o'lang oyog' ostidadur. Chorbog'da ham martaba-martaba yerlarni siyoq bila tuzatib, yaxshi narvonlar va sarv va safedorlar tikibturlar, xeyli saromad manziledur. Aybi budurkim, ulug' suyi yo'qtur.

Samarqand shahri ajab orosta shahredur, bu shaharda bir xususiyati borkim, o'zga kam shaharda andoq bo'lg'ay. Har hirfagarning bir boshqa bozori bor, bir-birlariga maxlut emas-tur, tavr rasmedur. Xo'b nonvolliqlari va oshpazliqlari bordur. Olamda yaxshi kog'az Samarqanddin chiqar, Juvozi kog'azlar suyi tamom Ko-

nigildin keladur. Konigil Siyohob yoqasidadur-kim, bu qora suvni Obirahmat ham derlar.

Samarqandning yana bir matoyi qirmizi mahmaldurkim, atrof va javonibqa eltarlar.

Girdo-girdida yaxshi o'langlari bor. Bir mashhur o'lang Konigil o'langidur. Samarqand shahridin sharq tarafidadur, bir nima shimolg'a moyil, bir shar'iy bo'lg'oy. Qora suv-kim, Obirahmat ham derlar. Konigilning o'rtasidin oqar, yetti-sekkiz tegirmon suyi bo'lg'oy. Bu suvning atrofi tamom obgirdur. Ba'zi derlarkim, bu o'langning asli oti Koni obgir ekan-dur, vale tarixlarda tamom Konigil bitirlar¹, keyle yaxshi o'langdur. Samarqandning salotini hamisha bu o'langni qo'ruq qilurlar. Har yil bu o'langga chiqib bir oy, ikki oy o'tururlar. Bu o'langdin yuqqorroq sharqi janub sari yana bir o'lang voqe bo'lubtur: Xon yurtig'a mavsum. Samarqandning sharqidur. Samarqandtin bir yig'och bo'lg'ay. Bu qora suv aning orasi bila o'tub, Konigil borur. Xon yurtida bu qora suv andoq yuqqoridin evrulub kelibturkim, ichida bir o'rdi tushguncha yer bo'lg'ay. Chiqar yeri xeyli tor voqe bo'lubtur. Bu yerning sirfasini ko'zlab, Samarqand muhosarasida necha mahal munda o'turulub edi. Yana bir o'lang Bo'dana qo'rug'idur. Dilkusho bog'i bila Samarqand orasida voqe bo'lubtur. Yana bir Ko'li mag'ok o'langidur, Samarqandtin ikki sha'rig'a yovushqay, g'arb saridur, bir nima shimolg'a moyil. Bu ham tavr o'langedur. Bir yonida

¹ L. b. – bu jumla: «xeyli yaxshi o'langni qo'ruq qilurlar. Bir yil» – tarzida yozilib, so'zlar tushib qolgan va buzilgan.

bir ulug' ko'l voqe bo'lubtur, bu jihattin ko'li Mag'ok o'langi derlar. Samarqand muhosarasi-da men xon yurtida o'lturg'onda bu o'langda Sulton Ali mirzo o'lturub edi. Yana bir Qulba o'langidur, bu muxtasarroq o'langdur. Shimoli Qulba kenti va Ko'hak daryosi, janubi Bog'fi Maydon va Darvesh Muhammad tarxonning chorbog'fi, sharqi Pushtayi Ko'hak.

Yaxshi viloyoti va tumonoti bor. Ulug' viloyatikim, Samarqand qarinasidur, Buxorodur¹. Samarqandning g'arbiy tarafi yigirma besh yig'och yo'ldur. Buxoroning ham necha tumonoti bor. Tavr shahre voqe bo'lubtur. Mevasi ko'p bo'lur va xo'b bo'lur, qovuni bisyor yaxshi bo'lur. Movarounnahrda Buxoro qovunicha ko'p va xub qovun bo'lmas. Agarchi Farg'ona viloyatidin Axsining bir nav' qovunidikim, «mir temuriy» derlar, muning qovunidin chuchukroq va nozukurroq bo'lur, vale Buxoroda har jins qovundin ko'p bo'lur va yaxshi bo'lur. Yana «oluyi buxoriy» mashhurdur. Buxoro olusidek hech yerda bo'lmas, terisini so'yub qurutub tabarrukluk bila viloyattin viloyatqa eltarlar. Talyin uchun bisyor yaxshi tadovidur. Parvori² tovug'fi va qozi bisyor bo'lur, Movarounnahrda Buxoro chog'irlaridin tundroq chog'ir bo'lmas. Men Samarqandta avval ichganda Buxoro chog'irlarini ichar edim.

Yana Kesh viloyatidur. Samarqandning janubidadur, to'qqiz yig'och yo'ldur. Samarqand bila Kesh orasida bir tog' tushubtur. Itmak doboni derlar, sangtaroshliq qilur toshlarni tamom bu

¹ Q. b. – qaryasi Buxorodur.

² Q. b. – parvozi.

tog'din eltarlar. Bahorlar sahrosi va shahri va bomi va tomi xo'b sabz bo'fur uchun Shahrsabz ham derlar. Temurbekning zodu budi Keshdin uchun, shahr va poytaxt qilurig'a ko'p sa'y va ehtimomlar qildi, oliy imoratlar Keshta bino qildi. O'ziga devon o'lturur uchun bir ulug' pesh-toq va yana o'ng yonida va so'l yonida tavochi¹ beklari bila devon beklari o'lturub devon so'rar uchun, ikki kichikrak peshtoq qilibtur. Yana savrun eli o'lturur uchun bu devonxonaning har zil'ida kichik-kichik toqchalar qilibtur, muncha oliy toq olamda kam nishon berurlar. Derlarkim, Kisro toqidin bu biyikraktur. Yana Keshda Madrasa va maqbara qilibtur. Jahongir mirzo na yana ba'zi avlodining maqobiri andadur. Chun Keshning qobiliyati shahr bo'lmoqqa Samarqandcha emas edi, oxir poytaxt uchun Temurbek Samarqandni-o'q ixtiyor qildi.

Yana Qarshi viloyatidurkim, Nasaf va Naxshab ham derlar, Qarshi mo'g'ulcha ottur, go'rxonani mo'g'ul tili bila qarshi derlar. G'olibu bu ot Chingizxon tasallutidin so'ng bo'lg'ondur. Kam obroq yerdur, bahori xub bo'fur, ekini va qovuni yaxshi bo'fur. Samarqandtin janub saridur, bir nima g'arbqa moyil, o'n sekkiz yig'och yo'ldur. Bag'riqaro yo'sunliq qushqina bo'furkim, qilquyruq derlar. Qarshi viloyatida behad va benihoyat bo'fur uchun ul navohida murg'aki qarshi derlar.

Yana Huzor viloyatidur. Yana Karmina viloyatidur. Samarqand bila Buxoro orasidatur. Yana Qorako'l viloyatidur. Borchadin

¹ L. b. - navohi.

poyon obroqdur. Buxorodin yetti yig'och g'arb shimoliydir. Yaxshi tumonoti bor¹. Ul jumladin, Sug'd tumani va Sug'dg'a payvast tumanlardur. Boshi Yor yayloq, oyog'i Buxoro, bir yig'och yo'l yo'qturkim, kent va ma'mura bo'lmag'ay. Andoq mashhururkim, Temurbek degandurkim: mening bir bog'im borkim, tuli o'ttuz yig'ochtur. Bu tumonotni degandur.

Yana Shovdor tumanidir. Shahr va mahalotqa payvastur. Xeyli yaxshi tumandur. Bir tarafi Samarqand bila Shahrsabz orasidag'i tog' voqe bo'lubtur, kentlari aksar bu tog'ning domanasida tushubtur. Yana bir tarafi Ko'hak daryosidir, xushhavo va pursafo, suyi farovon, ne'mati arzon, xeyli yaxshi tuman tushubtur. Misr va Shom ko'rgan ravandalar muncha chog'liq yer nishon bermaydurlar. Agarchi yana tumanlari ham bor, bu mazkur bo'lg'onlarcha emas. Ushmuncha bila iktifo qilildi.

Temurbek Samarqandning hukumatini Jahongir mirzog'a berib edi. Jahongir mirzoning favtidin so'ng, ulug' o'g'li Muhammad Sultoni Jahongirga berdi. Shohruh mirzo jami' Mo-varounnahr viloyatini ulug' o'g'li Ulug'bek mirzoga berib edi. Ulug'bek mirzodin o'g'li Abdulatif mirzo oldi. Bu besh kunluk o'tar dunyo uchun andoq donishmand va qari otasini shahid qildi: Ulug'bek mirzoning favtining tarixi tavre voqe bo'lubtur. Nazm:

*Ulug'bek bahri ulum-u xirad,
Ki dunyo-vu dinro azo' bud pusht,*

¹ Q. b. – bu yerda: «va Samarqandni ham yaxshi tumonoti bor» jumlasini qo'shilgan.

*Zi Abbos shahdi shahodat chashid,
Shudash harfi tarix Abbos kusht¹.*

Agarchi o'zi ham besh-olti oy besh saltanat
qilmadi, bu bayt mashhurdurkim:

*Padarkush podshohero nashoyad,
Agar shoyad ba shash mohash napoyad².*

Aning tarixi ham tavre voqe bo'lubtur.

*Abdullatif xisravi Jamshid far ki bud
Dar silki bandagonash Faridun-u Zarduxusht,
Bobo Husayn kusht shabi jum'aash ba tir,
Tarixash in navis ki Bobo Husayn kusht³.*

Abdullatif mirzodin so'ngra Shohruh mirzoning nabirasi Ibrohim Sulton mirzoning o'g'li Abdullo mirzokim, Ulug'bek mirzoning kuyovi edi, taxtqa o'turdi. Bir yarim yil, ikki yilga yovuqg'a podshohliq qildi. Andin so'ngra Sul-

¹ Ilm va aql dengizi bo'lgan Ulug'bek dunyo va dinning tayanchi edi. Abbos qo'lidin shahidlik bolini tatidi. «Abbos kusht» harflari o'lim tarixi bo'ldi.

عاش گشت (Abbos o'ldirdi) harflarini «Abjad hisobi» bilan raqamga aylantirilsa, 853-hijriy (1449–1450) yil chiqadi.

² Otasini o'ldirgan (padarkush) podsho bo'lolmaydi, agar bo'lsa ham olti oyga yetmaydi.

L. b. – «bashash mahosh» o'rnida «bajuz shash mah».

³ Abdullatif Jamshidday shukuhli podsho edi, Faridun bilan. Zardusht qullari qatori edi. Uni Bobo Husayn juma kechasi o'q bilan o'ldirdi, o'lim tarixini «Bobo Husayn kusht» deb yozgin.

بهاصين گشت «Bobo Husayn o'ldirdi» harflarini «Abjad hisobi» bilan raqamga aylantirilsa, 854-hijriy (1450–1451) yil chiqadi.

ton Abusaid mirzo oldi, o'z hayotida ulug' o'g'li Sulton Ahmad mirzog'a berib edi. Sulton Abusayd mirzodini so'ng Sulton Ahmad mirzo podshohliq qildi¹. Sulton Ahmad mirzoning favtidin so'ng Sulton Mahmud mirzo Samarqand taxtig'a o'lturdi. Sulton Mahmud mirzodini so'ng Boysung'ur mirzoni podshoh qildilar. Tarxonning g'avg'osida Boysung'ur mirzoni tutub, inisi Sulton Ali mirzoni bir-ikki kun ulturg'uzdilar. Yana Boysung'ur mirzo-o'q oldi. Nechukkim, bu tarixida mazkur bo'ldi. Boysung'ur mirzodini men oldim, mundin so'nggi vaqoyeda o'zga kayfiyatlar ma'lum bo'lg'usidir.

Samarqand taxtig'a o'lturg'och, Samarqand beklarini burungudek o'q rioyat va inoyat qildim. Bizing bila bo'lg'on beklarni ham faroxo'ri hollarig'a yarasha tarbiyat va shafqat qildim. Sulton Ahmad Tanbalning borasig'a rioyat ko'prak voqe bo'ldi. Ichki beklar chargasida edi, ulug' beklar chargasida rioyat qildim. Samarqandnikim, yetti oy muhosara qilib tashvishlar bila olduk, avval kelganda cherik eliga o'lja-mo'ljadek nima tushub edi. Bir Samarqanddin o'zga jam'i viloyatlar manga kirib edi, yo Sulton Ali mirzog'a bu kirgan viloyatlarini chopib bo'lmas edi. Muncha tolon va toroj tortg'on viloyatlardin nima olmoq xud nechuk muyassar bo'lg'ay.

Cherik elining o'lchasi tugandi. Samarqandni olg'onda Samarqand andoq xarob edikim, madad va tuxm va taqovig'a ehtiyoj bor

¹ Q. b. – da bu jumla yo'q.

edi. Chi joyi ulkim, kishi andin nima ola olg'ay. Bu jihatlardin cherik eli ko'p tanqisliq torttilar. Biz ham elga nima yetkura olmaduk. Uylarini ham sog'indilar. Birar-ikkirar qochmoqg'a yuz qo'ydilar. Avval kishikim qochti Xonquli Bayonquli edi, yana Ibrohim Bekchik edi. Mo'g'ullar tamom qochtilar. So'ngra Sulton Ahmad Tanbal ham qochti. Bu fitnaning taskini uchun Xoja qozini yibordukkim. Uzun Hasan Xojag'a o'zini xeyli muxlis va mu'taqid tutar edi. Uzun Hasanning ittifoqi bila qochqonlarning ba'zisi-ga sazo bergaylar, ba'zisini bizning qoshimizg'a yiborgaylar.

Bu fitnalarni angiz qilg'uchi, mundin qochib borg'onlarni yamonliqqa tez qilg'uchi xud Uzun Hasan haromnamak ekandur. Borchasi Sulton Ahmad Tanbal borg'on bila zohir va oshkora yamonliq maqomida bo'ldilar. Samarqandni olmoq doiyasi bila necha yilkim bajid cherik tortar eduk, Sulton Mahmudxondin agarchi mu'taddun bih madad va ko'mak bo'lmas edi, vale Samarqand fathidin so'ng Andijonni tama' qilur edi. Bu fursattakim aksar cherik eli va mo'g'ullar tamom qochib Andijon, Axsig'a bordilar. Uzun Hasan va Tanbal ul viloyatlarni Jahongir mirzog'a tama' qildilar. Necha jihatdin mumkin emas edikim, alarg'a berilgay. Biri ulkim, agarchi xong'a bu viloyatlarni va'da qililmaydur edi, vale xon tilab edi. Xon tilab turub, Jahongir mirzog'a berilsa, xon bila tamom yakro' bo'lmoq kerak edi. Yana bir bukim mundoq mahaldakim, el qochib ul viloyatqa bordi, tahakkum tariyqi bila tama' qiladur, agar burunroq bu so'z orada bo'lsa edi, filjumla vajhi bor

erdi, alarning tahakkumini kim tortar bo'lg'ay? Mo'g'ul va Andijon cheriki va ba'zi beklardin, ichkilardin ham Andijong'a borib edilar.

Mening bila Samarqandta bek va yigit, yaxshi va yamon mingga yovuqcha kishi qolib edi. Alarning istid'osidek chun muyassar bo'lmadi, qochib borg'on tavahhumluq ellarni tamom tilab o'zlariga qo'shtilar. Tavahhumluq ellar xud mundoq voqeani o'z qo'rqunchidin tengridin tilar edilar. Axsidin Andijon ustiga cherik tortib yamonliq va yog'ilyiqni sarih va oshkora qildilar.

To'lun Xoja otliq Borinning mardona va saromad va qazoq yigitlaridin edi. Otam Umarshayx mirzo rioyat qilib edi va hanuz rioyat qilmoqta edi. Men xud tarbiyat qilib, bek qilib edim. Ajab mardona va qazoq yigit edi. Rioyat arzandasi edi. Mo'g'ullar ichida rioyat qilg'on e'timodliq kishimiz To'lun xoja uchun Samarqanddin mo'g'ul ulusi qocha kirishganda To'lun Xojaning yiborilib edikim, elga nasihat qilib tavahhumni xotirlaridin chiqarg'oy, to el qo'rqunchtin sar babod bermag'aylar. Elni xud bu mufattinlar bila haromnamaklar andoq qilib edilarkim, va'da va vaid va nasihat va tahdid hech foyda qilmas edi. To'lun Xojaning kuchi ikki suv orasida edikim, bu ikki suv orasini Rabotak O'rchini derlar, Uzun Hasan bila Sulton Ahmad Tanbal bir pora ilg'or To'lun Xojaning ustiga yibordilar. Borib g'ofillikta olib kelturub o'lturdilar. Uzun Hasan va Tanbal Jahongirni olib kelib, Andijonni muhosara qildilar.

Cherik otlanurda Andijonda Ali Do'st tag'oyini va Axsida Uzun Hasanni qo'yulub edi. So'ngra Xoja qozi ham kelib edi. Samarqanddin borg'on

cherik elidin ham xeyli yigitlar bor edi. Xoja qozi ul qal'adorliqta mening davlatxohlig'im uchun o'n sekkiz ming qo'yni qo'rg'ondag'i yigitlarga va bizning bila bo'lg'on yigitlarning ko'chlarig'a ulashti. Muhosara muddatida mening volidalarimdin va Xoja qozidin muttasil, bu mazmun bila xatlar kelur edikim, bizlarni mundoq¹ muhosara qilibturlar. Agar kelib faryodimizg'a yetmasangiz ish vubol bo'lg'usidur. Samarqand Andijon kuchi bila olilib edi. Agar Andijon ilikta bo'lsa, yana tengri rost keltursa, Samarqandni iliklasa bo'lur. Mutaoqib bu mazmun bila xatlar keldi.

Ul fursatta bir martaba behuzur bo'lub, yaxshi bo'lub edim. Naqohat ayyomini o'bdon rioyat qila olmadim, uzuldim. Bu navbat yamon behuzur bo'ldum. Andoqkim, to'rt kungacha tilim tutuldi, og'zing'a paxta bila suv tomizurlar erdi. Mening bila qolg'on bek va begot va yigit-yalang mening tirilmagimdin ma'yus bo'lub, har kim o'z fikrida bo'ldilar. Ushmun-doq mahalda Uzun Hasanning navkarinikim, elchilikka kelib, parishon so'zlar kelturub edi, beklar ra'yda g'alat qilib, meni ko'rsatib ruxsat berdilar. To'rt-besh kundan so'ng ul holdin bir nima yaxshiroq bo'ldum. Vale tilimda kalolat qoldi. Necha kundun so'ng o'z holimg'a keldim.

Chun onalarimdinkim, onam va onamning onasi Esan Davlat begim bo'lg'ay, yana ustod va pirimdinkim, Xoja Mavlonoyi qozi bo'lg'ay, bu nav' xatlar kelib, mundoq ehtimom bila tilag'aylar, ne ko'ngul bila kishi turg'ay.

¹ Q. b. - mening volidalarim va Xoja Qozi va ul jamoatning arza doshti keldikim, bu jamoati haromnamak kelib bizni.

Rajab oyi, shanba kuni Andijon azimati bila Samarqanddin chiqtuk. Bu navbat Samarqand shahrida yuz kun podshohliq qildim. Yana shanba edikim, Xo'jandg'a yettim. O'shul kuni Andijondin bir kishi bu xabarni kelturdikim, yetti kun mundin burun o'shul shanbakim, biz Samarqanddin chiqibturbiz, o'shul shanba Ali Do'st tag'oyi Andijon qal'asini muxoliflarga beribtur. Tafsili budurkim, Uzun Hasanning navkarinikim, mening behuzurlug'umda mingga ko'rsatib ijozat berdilar, muxoliflar Andijon qo'rg'onini qabag'onda borib debturkim, podshohning tili tutulub, edi, og'zig'a paxta bila suv tomizadurlar edi. Ushbu ta'rif qilg'on yo'sunluq borib, Ali Do'stning qoshida ont ichib aytibdur. Xakan darvozasida Ali Do'st edi. Bu so'zdin bepoy bo'lub, muxoliflarni tilab ahd va shart qilib, qal'ani berdi. Zaxiradin va urushur kishidin qo'rg'onda hech kamlik yo'q edi. G'oyatash ul munofiqi namakharom mardakning nomardlig'i edi. Bu mazkur bo'lg'on so'zlarni o'ziga bahonayi rost qildi. Andijonni olg'ondin so'ng mening Xo'jand kelganimni eshitib, Xoja Mavlonoyi qozini ark darvozasida bezzatona osib shahid qildilar.

Xoja Mavlonoyi qozining oti Abdullodur. Bu ot bila mashhur bo'lub edi. Ota tarafidin nasabi Shayx Burhoniddin Qilichqa muntahi bo'lur. Ona tarafidin Sulton Ilik Moziyg'a yetar. Farg'ona viloyatida bu tabaqa muqaddo va shayxulislom va qozi bo'la kelgandurlar. Xoja qozi hazrati Xoja Ubaydulloning muridi

edi. Alardin tarbiyat topib edi. Xoja qozining valilig'ida mening hech shakkim yo'qtur. Qaysi ish valoyatqa mundin yaxshiroq dalildurkim, alarg'a qasd qilg'onlardin oz fursatta osor va alo-mat qolmadi. Xoja qozi ajib kishi edi. Qo'rqmoq anda aslo yo'q erdi. Oncha daler kishi ko'ril-gan emas. Bu sifat ham valoyat dalilidur. Soyir el har necha bahodir bo'lsa, andak dag'dag'asi va tavahhumi bo'lur. Xojada aslo dag'dag'a va tavahhum yo'q edi. Xojaning voqeasidin so'ng Xojag'a mansub ellar misli navkar va chokar va aymoq va ahshomni tamom tutturub talattilar.

Andijong'a bo'la Samarqandni ilikdin ber-duk. Andijon ham ilikdin chiqmish edi. Bizga «g'ofil az injo ronda va az onjo monda»¹ degan-dek bo'ldi. Bisyor shoq va dushvor keldi. Ne uchunkim, to podshoh bo'lub edim, bu nav' navkardin va viloyattin ayril maydur edim, to o'zumni bilib edim, bu yo'sunluq ranj va ma-shaqqatni bilmaydur edim.

Xo'jandqa kelgach, ba'zi munofiq sheva el-lar Xalifaning mening eshigimda ko'ra olmadi-lar. Muhammad Husayn mirzoni va ba'zilarni barin qildilar. Xalifag'a Toshkand sari ruxsat berildi. Qosimbekni Toshkandga xon qoshig'a yiborib, Andijon ustiga yurmakni istid'o qilildi. Xon ham cherik tortib, Ohangaron julgasi bila kelib, Kandirlik dobonining tubiga tushgan-da men ham Xo'janddin borib, xon dodamni ko'rdim. Kandirlik dobonini oshib Axxi tarafig'a tushuldi.

¹ «G'ofil bu yerdan quvilgan, u yerdan ajralgan» (aro yo'lda sarson bo'lib qolishdan kinoya).

Ul tarafdin muxoliflar ham bo'lg'on cheriklarini yig'ib, Axxi keldilar. Bu fursatta Pop qo'rg'onini meni deb berkittilar. Xonning bir nima hayal yurushidin muxoliflar Pop qo'rg'onini zo'rlab oldilar. Xonning agarchi o'zga axloq va atvori xo'b erdi, vale sipohiliq bila sardorliqdin bisyor bebahra edi. Ish bu yerga yetgandakim, agar yana bir ko'ch yurulsa edi, ko'pragi bu edikim, urushsiz – o'q viloyat muyassar bo'lg'ay edi. Ushmundoq mahalda muxoliflarning firibomiz so'zlarini quloqqa olib isloh hikoyatini orag'a solib, Xo'ja Abulmakorim bila Tanbal og'asi Bek Telbanikim, ul mahalda xonning eshikog'asi edi, elchilikka yibordilar. Ul jam' o'zlarining xaloslig'i uchun bir necha chin va yolg'on so'zlar aytib xong'a yo oradag'ilarg'a pora va rishva qabul qildilar. Xon ushmuncha bila murojaat qildi.

Beklar va ichkilar va yigitlarkim, mening bila qolib edilar, aksarining ko'chlari Andijonda edi. Chun Andijon olmoqtin ma'yus bo'ldilar, bek va begotdin va yigit-yalangdin yetti-sakkiz yuz kishi tamom mendin ayrildilar. Ayrilg'onlardin: beklardin Ali Darvishbek, Ali Mazid qavchin, Muhammad Boqirbek, Shayx Abdullo eshikog'a, Mirim Log'ariy. Mening bila qolg'onlar g'urbat bila mehnatni ixtiyor qilg'onlar, yaxshi-yamon, taxminan, ikki yuzdin ko'prak, uch yuzdin ozroq bo'lg'ay edi. Beklardin Qosim qavchin bek, Vays Log'ariy bek, Ibrohim soruyi Minglig' bek, Shirim tag'oyi, Seydiy Qarobek: ichkilardin Mirshoh qavchin, Sayid Qosim eshikog'a jalo-

yir. Qosim Ajab¹ Muhammad Do'st, Ali Do'st tag'oyi, Muhammad Ali Mubashshir², Xudoyberdi Tug'chi Mo'g'ul, Yorak tag'oyi, Sul-tonqo'li Boboquli, Pir Vays, Shayx Vays, Yor Ali Bilol, Qosim miroxo'r, Haydar rikobdor. Manga bisyor dushvor keldi, beixtiyor g'alaba yig'ladim.

Andin Xo'jandqa keldim. Mening onamni va ulug' onamni va ba'zi mening bila qolg'onlarning ko'chlari bila Xo'jandqa mening qoshing'a yibordilar. Ul ramazonni Xo'jandta o'tkarildi. Sulton Mahmudxong'a kishi yiborib, ko'mak tilab, Samarqand ustiga o'tlanildi. O'g'li Sulton Muhammad Xonikani³ va Ahmadbekni to'rt-besh ming cherik bila Samarqand ustiga tayin qilib, xon ham o'tlanib O'ratenagacha keldilar. Anda xonni ko'rub, Samarqand ustiga Yor yayloq yo'li bila mutavajjih bo'ldum. Sulton Muhammad Sulton va Ahmadbek o'zga mul bila ilgarrak Yor yayloq kelibtur. Men Bo'rka yayloqi bila Sangzorg'akim, Yor yayloqning dorug'anishini ul qo'rg'ondur, keldim. Sulton Muhammad Sulton va Ahmadbek Shayboniyxonning kelib, Sheroz va ul navohiyini chopqon xabarini topib, yoniburlar. Zarurat bo'ldi, men ham yonib Xo'jandqa keldim.

Chun saltanat dag'dag'asi va mulkgirlik doiyasi bor, bir qatla, ikki qatla ish yurumagan bila boqib o'lturub bo'lmas. Andijong'a uyrushmak xayoli bila ko'mak tilay, Toshkandga xon qoshig'a bordim. Shoh begimni va urug'qa-

¹ Q. b. – Sayd Qosim, eshikoqalardin Qosim jaloyir Ajab.

² Q. b. – munshi.

³ Q. b. – Chonikani چونيکەلى

yoshni ham yetti-sekkiz yil bor edi, ko'rmaydur edim, bu bahona bila alarning ham ko'ruildi. Necha kundin so'ng Sayid Muhammad mirzo do'g'latni va Ayyub Bekchik va Jon Hasan Borinni yetti-sekkiz yuzcha cherik bila ko'mak tayin qildilar. Bu ko'makni olib kelib, Xo'jandta tavaqquf qilmay, o'ta chiqib, ilg'ab Kandibodomni so'l qo'lda qo'yub kelib, kecha bila shotu qo'yub Nasux qo'rg'oninikim, Xo'jandtin o'n yig'och yo'ldur, Kandibodomdin uch yig'och, o'g'urlab olduk.

Qovun pishig'i edi. Nasuxda bir nav' qovun bo'lurkim, «ismoil shayxiy» derlar, terisi sariq, kemuxtluq, osuda qovun bo'lur, tuxmi almacha, go'shti to'rt ilik, ajab laziz qovundir. Oncha qovun ul navohida bo'lmas.

Tonglasi mo'g'ul beklari arzg'a yetkurdilarkim, kishimiz oz, bu bir qo'rg'onni olg'on bila ne ish ochilg'ay? Filvoqe andoq edi. Anda turarning yo qo'rg'onni berkiturning maslahatini topmay, yonib Xo'jandg'a kelduk.

Ushbu yil Xisravshoh Boysung'ur mirzo bila cherik tortib, Chag'oniyon kelib, makr va firib bila oldi, Sulgon Mas'ud mirzog'a¹ elchi yibordikim, keling Samarqand ustiga yuruling, Samarqand muyassar bo'lsa, bir mirzo Samarqandta o'lturg'ay, yana bir mirzo Hisorda.

Sulton Mas'ud mirzoning bek va ichkisi va yigit-yalanggi ozurda bo'lub edilar. Bu jihatinkim, Shayx Abdullo barlos Boysung'ur mirzo qoshidin Sulton Mas'ud mirzo qoshig'akim bordi, chun mirzog'a qoyin ota edi, asru ulug'

¹ Q. b. – makr va firib bilan Sulton Mas'ud mirzog'a.

rioyat topti. Bovujudkim, Hisor viloyati muhaqqar va muxtasar viloyatdur, ulufasini ming tuman fulus qilib, Xatlon viloyatini dardast berdi. Xatlon viloyatida Sulton Mas'ud mirzoning xeyli beklarining va ichkilarining tani bor erdi. Borchani mutasarrif bo'ldi. O'zi va o'g'lonlari kulliy va juz'iy eshik ixtiyorini oldilar. Ozurda bo'lg'onlar qochib-qochib Boysung'ur mirzog'a kela boshladilar.

Firibomiz so'zlar bila Sulton Mas'ud mirzoni g'ofil qilib, Chag'oniyondin ilg'ob, naqora vaqtida Hisor qo'rg'onini qabay oldilar. Sulton Mas'ud mirzo qo'rg'ondin tashqari mahallotta otasi solg'on Davlatsaro otliq imoratta erdi, qo'rg'ong'a kira olmay qochib, Shayx Abdullo barlos bila¹ Xatlon sari tortti. Orada Shayx Abdullo barlosdin ayrilib, Uboj² guzari bila o'tib, Sulton Husayn mirzoga bordi. Hisor viloyati muyassar bo'lg'och, Boysung'ur mirzoni Hisorda o'lturg'uzub, Xatlonni Valig'a berdi. Necha kundan so'ng Balxni qabamoq doiyasi bila otlandi. O'zidin ilgarroq Nazar bahodir otliq ulug' navkarini uch-to'rt ming kishi bila Balx navohisig'a yibordi, uch-to'rt kundan so'ng Boysung'ur mirzoni olib kelib, Balxni muhosara qildi.

Balxta Ibrohim Husayn mirzo edi. Yana Sulton Husaynning beklaridin ham xeyli bor edi. Inisi Valig'a qalin cherik qo'shub, Shaburg'onni qabamoqqa va ul navohini talon va toroj qilmoqqa yibordi. Vali borib Shaburg'onni yovuqdin ham qabay olmadi. Bo'lg'on cherikni Zardak

¹ Q. b. - barlosqa.

² L. b. - Uyoj.

cho'lidagi el va ulusni chopqoli yibordi. Borib Zardak cho'lini chopib, yuz mingdin ortuqroq qo'y va uch mingga yovuq teva olib keldilar. Vali andin so'ng Sonchorik viloyatini chopib, talab, tog'da ba'zi berkilgan ellarni olib kelib, Balxta og'asig'a mulhaq bo'ldi.

Xisravshoq Balxni muhosara qilg'on fursatda bir kun mazkur bo'lg'an Nazar bahodir otliq navkarini Balxning ariqlarini yiqqoli yibordi. Ichkaridin Tengriberdi somonchikim, Sulton Husayn mirzoning rioyat qilg'on begi edi, yetmish-sekson yigit bila chiqib kelib, Nazar bahodir bila ro'baro' bo'lub, yiqitib, boshini kesib olib, qal'aga kirdi. Bisyor mardona borib, namoyon ish qildi.

Ham ushbu yil Sulton Husayn mirzo Zun-nun arg'unning va o'g'li Shoh Shujo'ningkim, Badiuzzamon mirzog'a navkar bo'lub, qiz berib, fitna va fasod maqomida edilar, dafig'a cherik tortib kelib, Bustqa tushti. Cherikiga hech tarafdin oshlig' kelmadi, ochliqtin batang kela yovushub edilarkim, Bust dorug'asi Bustning qo'rg'onini berdi. Bustning zaxirasining madadi bila Xurosong'a murojaat qildi. Sulton Husayn mirzodek ulug' podshoh muncha asbob va tamtaroq bila necha navbat Qunduz va Hisor va Qandahor ustiga cheriklar tortib ola olmay yong'on uchun, o'g'lonlari va beklari muncha daler bo'lub, yog'iyliqlar va fitnalar qildilar. Yozig'a Sulton Husayn mirzo o'g'li Muhammad Husayn mirzoning dafi zararig'akim, Astrobodqa musallit bo'lub, yamnoliq maqomida edi, Muhammad Valibek boshliq beklar-

ni qalin cherik bila ilg'or yiborib, o'zi Nishin o'langidao'lturub edikim. Badiuzzamon mirzo va Zunnunning o'g'li Shohbek g'ofilliqta cherik tortib, mirzoning ustiga keldilar. Ittifoqoti hasanadin Sulton Mas'ud mirzo kim. Hisorni oldurub, Sulton Husayn mirzog'a keladur edi, ushbu kun yetishti. Astrobodqa borg'on cherik ham kelib, ushbu kun mirzog'a mulhaq bo'ldi. Ro'baro' bo'lg'och-o'q urusha ham olmadi. Badiuzzamon mirzo bila Shohbek qochti.

Sulton Husayn mirzo Sulton Mas'ud mirzoni yaxshi ko'rub, kuyovlukka yukundurub, inoyat va shafqat maqomida bo'lub edikim, Xisravshohning inisi Boqi Chag'oniyoniykim, mundin burunroq kelib Sulton Husayn mirzo mulozamatida bo'lur edi, angize bila Xurosonda turmay, bir bahona bila chiqib, Sulton Husayn mirzodin beruxcat Xisravshohg'a bordi. Xisravshoh Hisordin Boysung'ur mirzoni tilab kelturdi. Ushbu fursatta Ulug'bek mirzoning o'g'li Mironshoh mirzo otasi bila yog'iqib, hazorag'a kirib, hazorada ham bee'tiqodliqlar qilib, hazorada tura olmay, ul ham Xisravshoh qoshig'a kelib edi.

Ba'zi ko'tahandishlar xud barin edilarkim, uchala podshohzodani o'lturub, Xisravshoh otig'a xutba o'qutg'aylar. Ul shiqni maslahat ko'rmay, Sulton Mas'ud Mirzonikim, kichikligidin beri saxlab ulg'aytib edi, bek atkasi edi, bu besh kunluk dunyo maslahati jihatidinkim, ne anga vafo qildi va ne hech kimga vafo qilg'usidur, tutub, bu ko'rnamak mardak ko'zlariga nishtar solib, ko'r qildi.

Bir necha ko'kaltosh, emaldosh va boyrisi Sulton Mas'ud mirzoni olib, Samarqandg'a Sulton Ali mirzo qoshig'a kelturur xayoli bila Keshqa keldilar. Ul jamoat ham qasd maqomida bo'ldilar. Keshdin qochib, Chorjo' guzari bila o'tub, Sulton Husayn mirzo qoshig'a bordi. Har kimkim mundog' shane' harakatga iqdom qilg'ay va ul kishigakim bu nav' ishga ehtimom qilg'ay, yuz ming la'natdur qiyomatqachakim, har kim Xisravshohning bu af'olini eshit-sa, la'nat qilsun. Bu af'olini eshitib la'nat qilmog'on ham sazovori la'nat bo'lsun. Bu shane' harakattin so'ng Boysung'ur mirzoni podshoh qilib, Hisorg'a ruxsat berdi. Mironshoh mirzog'a Said Komilni ko'mak qo'shub, Bomiyon sari yibordi.

VAQOYEYI SANAYI ARBAA VA TIS'A MIA¹

Samarqand va Andijong'a muqarraran yuru-shub, hech ish ochilmay, yana yonib Xo'jandg'a kelduk. Xo'jand muxtasar yeredur. Yuz-ikki yuz navkarlik kishining avqoti tashvish bila o'tar. Doyaliq kishi nechuk boqib o'turg'ay. Muhammad Husayn Ko'ragon dug'latkim, O'ratepada edi, Samarqandg'a evrushmak doiyasi bila anga kishilar yiborib, so'zlashib, Yor yayloq kentlaridin Pashog'arnikim, Hazrat Xojaning mulk kentlaridindur, bu fatarotta anga taalluq bo'lub edi, tiladukkim, bu kish oriyati bergay, to anda o'turub Samarqand viloyatig'a ilikdin kelgancha evrushgaybiz. Muhammad Husayn mirzo ham rozi bo'ldi.

Xo'jandtin otlanib Pashog'arg'a mutavajjih bo'ldum. Zoming'a yetgan fursatta isittim. Bovujudi isitma Zomindin otlanib ilg'or qilib, tog' yo'li bila o'tub, Raboti Xojaning ustiga keldimkim, g'ofilliqta shotu qo'yub chiqib, Raboti Xoja qo'rg'oninikim, Shovdor tumani-ning dorug'anishini uldur, olilg'ay. Subh vaqti yetildi. Eli xabardor bo'ldilar. Yana yonib, hech yerda tavaqquf qilmay, Pashog'arg'a kelildi. Bovujudi isitma o'n uch-o'n to'rt yig'och yo'lni suubat va mashaqqat bila qat' qildim. Necha kundan so'ng Ibrohim soruni va Vays Log'ariy-ni va Shirim tag'oyini ichki beklar va yigitlar bila ilg'or tayin qildukkim, borib Yor yayloq qo'rg'onlarini so'z bila yo zo'r bila iliklagaylar.

¹ To'qqiz yuz to'rtinchi (1498-1499) yil voqealari.

Ul fursatta Yor-yayloq Sayid Yusufbekda edi. Men Samarqanddin chiqqonda qolib edi, Sulton Ali mirzo ham rioyat qilib edi. Sayid Yusufbek ini, o'g'lini Yor-yayloq qo'rg'onlarning zabt va rabtig'a yiborib edi. Ahmad Yusufkim bu tarixda Siyolkut hukumati andadur, ul qo'rg'onlarda edi. Bizning beklar va yigitlar ham borib tamom qish ba'zi qo'rg'onni sulh bila ilikladilar, ba'zini urushub zo'r bila oldilar, ba'zini ayyorliq va inchkaliq bila o'g'urlab mutasarrif bo'ldilar. Ul viloyatlarda mo'g'ul va o'zbek jihatidin hech kent yo'qturkim, aning qo'rg'oni bo'lmag'ay. Ushbu fursatlarda bizning jihatimizdin Sayid Yusufbek va ini, o'g'lidin badgumon bo'lub, Xurosong'a ruxsat berdilar. Bu qish bu nav' talosh va tortish bila o'tti. Yoz bo'la sulh uchun Xoja Yahyoni yibordilar, o'zlari ham cherik angizi bila Sheroz va Kobud navohisig'a keldilar. Bizning bo'lg'on sipohiyimiz ikki yuzdin ko'proq va uch yuzdin ozroq bo'lg'oy edi, har tarafda kuchluk g'animlar Andijong'a evrushub, tole hech madad qilmadi. Samarqandg'a ilik qo'yub hech ish ochilmadi. Zarurattin sulh guna qilib, Pashog'ardin murojaat qilildi.

Xo'jand bir muhaqqar yerdur. Bir bekning avqoti anda tashvish bila o'tar. Bir yarim yilg'a yovuq¹ ahl va ayol bila anda eduk. Ul musulmonlar ham bu muddatta imkoni boricha xarj tortmoqda va xizmat qilmoqta taqsir qilmadilar. Yana ne yuz bila Xo'jandg'a borilg'ay, Xo'jandqa borib ham kishi ne qilg'ay?

¹ Q. b. – bir yarim yil, ikki yilga yovuq.

*Bormoqqa ne maskan muyassar,
Turmoqqa ne davlat muqarrar¹.*

Oxir ushbu taraddud va tafriqa bila O'ratepaning janub tarafidag'i yayloqlarg'a borduk. Necha kun ul navohida o'z ishimizga hayron, borur turarimizni bilmay, sargardon o'tkarildi. Bir kun ushbu yerda ekanda Xoja Abulmakorimkim, bizningdek jaloyi vatan bo'lub sargardon edi, meni ko'ra keldi. Borur-turar yerimizdin va qilur-qilmas ishimizdin isti'lom va istifisor qilib, mutaassir bo'lub, bizing holimizg'a riqqat qilib, fotiha o'qub bordi. Manga ham bisyor ta'sir qildi, riqqat qildim. Ushbu kun kech namozi digar daraning ayog'idin bir otliq kishi paydo bo'ldi, bu xud Ali do'st tag'oyining navkari ekandur. Yo'lchuq² otliq. Bu mazmun bila yiboribturkim, agarchi mendin azim gunohlar sodir bo'ldi, vale umidim borkim, inoyat qilib gunohimni bag'ishlab, beriga mutavajjih bo'lsalar, Marg'inonni topshurub bir nav' qulluq va xizmatgorliq qilg'aymen, gunohim arib hijobim raf' bo'lg'ay.

Mundoq mutahayyirliq va sargardonliqta bu xabar kelgan bila hech andisha va tavaqquf qilmay, o'shal zamon o'qkim, oftob o'tturur chog' edi. Marg'inong'a ilg'or tariyqa bila mutavajjih bo'ldum. Bu yer bila Marg'inon orasi taxminan yigirma to'rt-yigirma besh yig'och bo'lg'ay edi, ul kecha tong otquncha va ul kuni namozi peshingacha hech yerda tavaqquf qilmay yuruldi.

¹ L. b. - Bormoqqa ne maskane, turmoqqa ne ma'mane.

² Q. b. - to'pchuq.

Namozi peshin Xo'jandning Tangob o'tliq kentiga tushuldi. Ot sovutub, otg'a bo'g'uz berib, tun yarimi naqora vaqtida Tangobdin o'tlanildi. Ul kecha tong otquncha va ul kuni oftob botquncha va yana kechasi tongdin burunroq Marg'inonning bir yig'ochig'a yetganda Vaysbek va ba'zilar taraddud qilib arzg'a yetkurdilarkim, Ali Do'st ne nav' yamonliq qilg'on kishidur, orada bir navbat, ikki navbat kishi bormay va kelmay, guftugo' va ahdu shart bo'lmay, ne e'timod bila boradurbiz? Filvoqe taraddudlarining vajhi bor erdi. Bir zamon turub kengash qilduk, oxir munga qaror toptikim, bu taraddudlarning agarchi vajhi bor, vale mundin burunroq kerak erdi. Uch kecha va kunduz tinmay, tavaqquf qilmay, yigirma to'rt-yigirma besh yig'och yo'lni kelduk, ne otta majol qolibtur va ne kishida. Bu yerdin ne nav' yonilg'ay, yonib ham qaysarig'a chiqilg'ay? Chun muncha kelibturbiz bormoq kerak. Hech nima tengrining xostidin o'zga bo'lmas.

So'zni munga qo'yub tavakkul qilib tebraduk. Sunnat vaqti edikim, Marg'inon qo'rg'onining eshigiga keldim. Ali Do'st tag'oyi darvozaning orqasida turub, darvozani ochmay, ahd iltimos qildi. Ahd va shart qilg'ondin so'ng darvozani ochib, darvoza orasida mulozamat qildi. Ali Do'stni ko'rgandin so'ng, qo'rg'on ichida bir munosib hovlida tushudi. Mening birla bo'lg'on kishi ulug'-kichik ikki yuz qirq kishi edi. Uzun Hasan va Sulton Ahmad Tanbal viloyat eliga bisyor zulmlar o'tkarib, yamon maosh qilib edilar. Viloyat eli tamom meni tilar edi-

lar. Marg'inonga kirgandin ikki-uch kun so'ng Qosimbekka Pashog'ariydin va yangi navkar bo'lg'onlardin va Ali Do'stbekning navkarlaridindin yuzdin ko'prak kishi qo'shib, Andijonning janub tarafidagi tog' ellariga misli Ashporiyon va To'ruqshoron va Chakrak va ul navohilarga yiborildikim, istimolat bila yo zo'r bila bu ellarni kelturgay. Ibrohim soruni va Vays Log'ariyni va Seydiy Qaroni Aysi tarafiga yuzga yovuq kishi bila yiborildikim, Xo'jand suyini kechib, ul yuzdagi¹ qo'rg'onlar bila tog' ellarini har tavr qilib bizga boqturg'aylar.

Bir necha kundin so'ng Uzun Hasan va Sulton Ahmad Tanbal Jahongir mirzoni olib, nekim bo'lg'on sipohiy va mo'g'ulni yig'ib, Andijon va Axsining cherikka chiqor kishisini cherikka chiqarib, Marg'inonni qabamoq doiyasi bila Marg'inonning bir shar'isida sharq sari Sapon otliq kentga kelib tushtilar. Bir-ikki kundin so'ng yasab, yarog'lanib Marg'inonning mahallotiga keldilar. Bovujudikim, Qosimbek va Ibrohim soru va Vays Log'ariy boshliqlarini ikki tarafga ilg'or yiborilib edi, mening bila bir necha ma'dudi qolib edi, bo'lg'on yigitlar yasanib chiqtilar, Mahallotin ilgari kelgani qo'ymadilar. Ul kuni Xalil chuhrayi dastorpech yaxshi yurub, iligi ishga yetti, kelib hech ish qila olmadilar. Yana ikkilay qo'rg'on yovug'iga kelmadilar. Qosimbekkim, Andijonning janubiy tog'lariga borib edi. Ashporiyon va To'ruqshoron va Chakrak va ul navohidagi tog' va tuzdagi raiyat va aymoq tamom kirdilar. Sipohidin ham

¹ Q. b. - tuzdagi.

biror-ikrar bizga qochib kela boshladilar. Ibrohim soru va Vays Log'ariy boshliqlarg'akim, Axxi tarafig'a suvdin o'tub borib edilar. Pop qo'rg'oni va yana bir-ikki qo'rg'on kirdi.

Uzun Hasan va Tanbal zolim va fosiq va ko-firvash ellar edi, raiyat va viloyat ellari bular-din bisyor og'rib edilar. Axxi ulug'laridin Hasan dekcha jamoati bila va yana Axxining bir pora lavand va avboshni barin qilib, qarotayoq qilib, Axxining tosh qo'rg'onidag'ilarni zarbi rost arkka tiqib, Ibrohim soru va Vays Log'ariy va Seydiy Qaro boshlig'larni tilab, Axxining tosh qo'rg'onig'a kiyurdilar. Sulton Mahmudxon¹, Banda Ali va Haydar ko'kaltoshni va Hoji G'ozimang'itnikim, o'shul fursatta Shayboniyxondin qochib xon qoshig'a kelib edi, yana barin tuman beklari bila bizga ko'mak tayin qilib edi, ushbu mahalda keldilar. Bu xabar Uzun Hasang'a yettib, bepoy bo'lub, rioyat qilg'on navkarlarini va o'bdon yigitlarini Axxining arkiga ko'mak tayin qilib yibordi. Sahar vaqti daryo yoqasig'a yettilar.

Bizning cherik va mo'g'ul cheriki xabar topib, bir pora kishini ot yalang'ochlanturub, suvdin kechurdilar, ko'mak kelganlar oldarab² kema-ni yuqqori tortmay kechgan yeridin – o'q qo'ya berdilar. Qo'rg'ong'a o'ta olmay quyi tushtilar. Bizning cherik va mo'g'ul cheriki tush-tushdin ot yalangochlab kira boshladilar. Kemadagi-lar hech urusha olmadilar. Qorlug'och baxshi Mo'g'ulbek o'g'lonlaridin birni tilab iligini tutub chopqulab o'tturdi. Ne foydakim, ish andin

¹ Q. b. – Sulton Muhammadxon.

² L. b. – Yaladarab.

o'tub edi. Aksar kemadagilarning o'lumga bor-mog'ig'a bu harakat sabab bo'ldi, bir zamonda daryodag'ilarni ariq olib, borini kirdilar.

Uzun Hasanning mu'tabar kishilaridin Qorlug'och baxshi edi. Xalil devona edi, Qozi G'ulom edi. Bulardin bir Qozi G'ulom qulluq bahonasi bila xalos bo'ldi. Yana mu'tabar yigitlaridin Sayid Alikim, xolo mening qoshimda mu'tabardur. Yana Haydarquli yana Qulika Koshg'ariy yetmish-seksan o'bdon yigittin ushbu besh-olti ma'dudi besh xalos bo'lmadi. Bu xabarlarini eshitib, Marg'inon navohisida o'l-tura olmay Andijon sarig'a buzulg'on yo'sunluq etib ko'chtilar. Andijonda Nosirbekni quyub edilarkim, Uzun Hasanning yeznasi edi. Agar soniysi bo'lmasa, solisi xud ne so'z edikim, bor edi. Sohib tajriba kishi edi, mardonalig'i ham bor edi. Bu kayfiyatlarni bilib, alarning bebunyodlig'ini ma'lum qilib, Andijon qo'rg'onini berkitib, manga kishi yibordi. Bular Andijong'a yetganda qo'rg'on berkiganni ma'lum qilib, so'zlari bir-biriga qovusholmay buzulub, Uzun Hasan ko'chiga Axi sari tortti.

Sulton Ahmad Tanbal o'z viloyatig'a – O'shg'a bordi. Jahongir mirzoni bir necha ichkilari va yigitlari Uzun Hasandin olib¹ qochib, Tanbalg'akim, hanuz O'shg'a yetmaydur edi, borib qo'shuldilar. Andijonning berkigan xabari manga keldi, hech tavaqquf qilmay, Marg'inondin oftob chiqa otlanib, tush qaytib edikim, Andijong'a keldim. Nosirbekni va o'g'lonlarinikim, Do'stbek va Mirimbek bo'lg'ay, ko'rub,

¹ Q. b. – ayirib.

so'rub inoyat va shafqatdin umidvor va sarafroz qildim.

Ota viloyatikim, ikki yilga yovuqlashib edikim, ilikdin chiqib edi, tengri inoyati bila zilqa'da oyida sana 904 da yana muyassar va musaxxar bo'ldi. Sulton Ahmad Tanbalkim, Jahongir mirzo bila qatilib, O'sh sari tortib edi, O'shqa kirgach, O'shda ham qiziloyoq, qarotayoq qilib zarbi rost ura-ura O'shdin qovlab, qo'rg'onni bizning uchun saxlab, bizga kishi yibordilar. Jahongir va Tanbal bir necha ma'dudi bila sarosimavor borib O'zgardga kirdilar.

Uzun Hasankim, Andijong'a kira olmay, Axsi tarafig'a borib edi, xabar keldikim, borib Axsining arikiga kirmish. Chun sardor va sarfitna bu edi, bu xabar kelgach, Andijonda to'rt-besh kundin ortuq tavaqquf qilmay, Axsi azimati qilduk. Axsig'a yetgach chora qila olmay, ahd va amon tilab, qo'rg'onini topshurdi. Bir necha kun Axsida turub, Axsi va Koson va ul yurtning ish-kuchini zabt va saranjom qilib, ilg'or kelgan mo'g'ul beklariga ruxsat berib, Uzun Hasanni ko'ch va mutaalliplari bila olib Andijong'a kelildi. Axsida Qosim Ajabnikim, ichki chargasida edi, ollimda beklik martabasig'a yetib edi, ori-yati qo'yuldi. Chun ahd qililib edi, jon va molig'a zarar va nuqson tegurmay Qorategin yo'li bila Hisor sari ijizat berildi. Bir necha ma'dudi bila Hisorg'a bordi. O'zga tamom navkarlari ayrilib qoldilar.

Bu fatarotlarda bizga taalluq elni va Xoja qozi va mutaalliplarini tutqon va talag'on bo'lar edilar, ba'zi beklar bila ittifoq qilib, so'zni munga

qo'ydukkim muncha jo'g'ulluq va buzuqchilik qilg'on va muncha bizga taalluq mo'min va musulmonni tutqon va talag'on bu jamoat edilar. O'zlarining beklariga ne vafo qildilarkim, bizga vafo qilg'aylar, bularni tuttursak, ne ayb bo'lg'ay? Bataxisis bizing ko'zimizning o'trusida bizning otimizni mlnib, bizing to'numizni ki-yib, bizing qo'yumizni yeb yurugaylar, munga xud kim tahammul qilg'ay? Agar tarahhum qilib tutturulmasa, yo talatilmasa, bizing bila qazoqliklarda va mehnatlarda bo'lg'on jamoatning hozir tanig'on mollarig'a bori farmon bo'lsakim, iliklariga kirsas, ushmuncha bila qutulsalar, minnatlar tutsalar kerak. Filvoqe ma'qul ko'rundi. Farmon bo'ldikim, bizing bila bo'lg'onlar tanig'on nimalarini olsunlar, agar-chi ma'qul va muvajjah edi, bir nima shitob bo'lmish.

Jahongir mirzodek muzi¹ yonimizda o'lturub, elni mundoq hurkutmoqning hech ma'nisi yo'q edi. Mulkgirlikda va mamlakatdorlikda agar-chi ba'zi ishlar zohirda ma'qul va muvajjah ko'runur, vale har ishning zimnida yuz ming mulohaza vojib va lozimdur. Ushbu bir bemulohaza hukm qilg'onimizdin ne miqdor sho'r va fitnalar qo'пти. Axir Andijondin ikkinchi navbat chiqg'onimizg'a sabab ushbu betaammul xukm qilg'onimiz bo'ldi. Bu jihattin mo'g'ullar o'zlariga dag'dag'a va tavahhum yo'l berib, Rabotak o'rchinidinkim, Ikki suv arosi ham derlar, O'zgand tarafig'a ko'chub Tanbalg'a kishi yibordilar. Mening onam qoshida ming besh

¹ Q. b. – Jahongirdek g'anime.

yuz, ikki mingga yovuq mo'g'ul ulusidin bor edi. Yana Hisordin Hamza Sulton va Mahdi Sulton va Muhammad dug'lat alar bila ushmuncha chog'liq mo'g'ul kelib edi. Hamisha yamonliq va buzuqchiliq mo'g'ul ulusidin bo'la kelgandur. Ushbu tarixqacha besh navbat mening bila yog'iqtilar. Andoq emaskim, mening bila be-munosabatliq jihatidin yog'iqmish bo'lg'aylar. Mundoq harakotlarni o'z xonlarig'a muqarrar qildilar. Bu xabarni Sultonquli chinoqqim, otasi Xudoyberdi bo'qoqni mo'g'ullar orasida rioyat qilib edim, otasi burunroq o'lub edi, o'zi mo'g'ullar bila bo'lur edi, kelturdi. Yaxshi bordi, o'z el va ulusidin ayrilib, bu xabarni yetkurdi. Agarchi munda yaxshi bordi, vale so'ngra andoq qabohatlar qildikim, yuz muningdek xizmat qilsa yopqay. Nechukkim mazkur bo'lg'usidur. So'nggi qabohatlari ham mo'g'ulluqning natijasidin edi.

Bizga xabar kelgach, beklarni yig'ib mashvarat qilildi, beklar arzg'a yetkurdilarkim, bu juzviy ishdur, podshoh otlonmoqi ne ehtiyoj? Qosimbek jami' beklarni va cherikni boshlab borsun. So'z munga qaror topti. Sahl tuttillar, bu ra'y g'alat ekandur. Bukuni Qosimbek beklarini va cherikni boshlab chiqti. Oralag'uncha¹ Tanbal xud kelib mo'g'ullarg'a qo'shulg'on ekandur.

Tonglasi erta bila Ilamish² daryosining Yassi kechit otliq guzarini o'tgach – o'q ro'baro' bo'lurlar, yaxshi chopqulashurlar. Qosimbek o'zi

¹ Q. b. – Alar borg'uncha.

² Tarjimalarda «Aylamish» yozilgan.

Sulton Muhammad arg'un bila ro'baro' bo'lub, ikki-uch navbat chopqulab bosh chiqorg'ali qo'ymas. G'alaba yigitlar, chopqulashurlar, oxir shikast toparlar, Qosimbek, Ali Do'st tag'oyi, Ibrohim soru, Vays Log'ariy, Seydiy Qaro yana uch-to'rt bek va ichkidin chiqtilar. O'zga aksar beklar va ichkilar ilikka tushtilar. Ilikka tushgan beklar va ichkilardin Ali Darveshbek, Mirim Log'ariy To'qabek, Tag'oyibek, Muhammad Do'st, Ali Do'st, Mirshoh qavchin, Mirim Devon bu urushta ikki yigit tavri chopqulashurlar. Bizning soridin Ibrohim soruning inilaridin Samad otliq, alar soridin Hisoriy mo'g'ullardin Shahsuvor otliq ro'baro' bo'lurlar. Shahsuvor andoq choparkim, dubulg'adin o'tub, Samadning¹ boshig'a qilich xeyli o'lturur.

Bovujudi bu zaxm Samad² andoq choparkim, Shaqsuvorning boshidin kafi dastcha parcha so'nggakni qilich olib ketar. Shahsuvorning dubulg'asi yo'q ekandur. Shahsuvorning boshini o'ydilar, yaxshi bo'ldi. Samadning³ boshini o'yar kishi yo'q edi. Uch-to'rt kundan keyin o'shul zaxm bila – o'q bordi. Qazoqliqlardin va falokatlardin xalos bo'lub, yangla viloyat olg'on mahalda ajab bevaqt shikast edi.

Qanbar Ali mo'g'ulkim, bir rukni a'zam ul edi, Andijonni olg'on chog'da viloyatig'a borib edi, yo'q edi. Ushmuncha bila Tanbal Jahongirni olib kelib, Andijonning bir shar'isi Pushtayi Ayshning olidag'i o'langga tushti. Bir-ikki qat-

¹ Q. b. – Hamidning.

² Q. b. – Hamid.

³ Q. b. – Hamidbek.

la Childuxtaron bila yasab, Pushtayi Ayshning domanasig'a keldi. Bizing yigitlar mahallot va bog'ottin tashqari-o'q yasab chiqtilar, ilgari kela olmadi, domanadin o'q nari yondi. Ushbu navohig'a kelganda tushgan beklardin Mirim Log'ariyni va To'qani o'lturdi. Bir oyg'a yovuq bu tegrada o'lturub, hech ish qila olmadi. O'sh sarig'a boqa yondi. O'shni Ibrohim sorug'a berilib edi, aning kishisi anda edi, O'shni berkittilar.

Viloyotning otliq va yayoq cheriklariga qadag'an bila tavochilar va muhassillar yiborildi. Qanbar Alig'a va yana harne viloyatlarga borg'on cheriklarga ehtimom bila tavochilar chopturubtur va ketmon va boltu va nekim bo'lg'on cherik masolih va asbobig'a ehtimomliq muhassillar tayin qilildi. Viloyattin cherikka kelur otliq va yayoqni surub, ul taraf, bu taraf ish-kuchga borg'on navkar va sipohiyini yig'ishturub, tengriga tavakkul qilib, muharram oyining o'n sekkizida Hofizbekning chorbog'ig'a safar qildim. Bir-ikki kun chorbog'da turub, qolg'on asbob va olotni tayyor va mukammal qilib, O'sh sori muxoliflarning ustiga burong'or va juvong'or va g'ul va hirovul va otliq-yayoqni yasab, yasol bila-o'q mutavajjih bo'lduk. O'shqa yaqin yetgan mahalda xabar topildikim, muxoliflar O'sh navohisida tura olmay, Raboti sarhang o'rchini sarig'akim O'shning shimolidur tortmish, ul oxshom Lotkand kentta tushuldi.

Tonglasi yasab O'shdin o'tganda xabar keldikim, muxoliflar Andijon sari bormish, biz ham O'zgand ustiga mutavajjuh bo'lduk. O'zumizdin ilgarrak O'zgand navohisini chopqali chopqunchi oyirduk. Muxoliflarkim, Andijong'a borurlar, kecha bila xandaqqa kirib fasilg'a shotu chog'da qo'rg'ondag'ilar tuyarlar. Hech ish qilolmay yondilar. Bizing chopkunchi ham borib O'zgand navohisidikim chopar, oncha nima iliklariga tushmay yonib keldilar.

¹ To'qqiz yuz beshinchi (1499–1500) yil voqealari.

O'sh qo'rg'onlaridin Mozu¹ qo'rg'onidakim, ul orada rustliq bila mashhur qo'rg'ondur. Tanbal inisi Xalilni ikki yuz-ikki yuz ellik kishi bila qo'yub, ul qo'rg'onni berkitib edi, yonib kelib Mozu qo'rg'onig'a urush solib zo'r kelturduk. Mozu qo'rg'oni xeyli rust qo'rg'ondur, shimol sarikim, soydur, xeyli baland voqe bo'lubtur. Agar soydin o'q otsalar shoyadkim, fasilg'a yetgay Obduzdi ushbu tarafda voqe bo'lubtur. Qo'rg'ondin quyig'a boqq ko'chadek ikki tarafdin fasil qo'porib kelturub suvg'a yetkurubtur. Pushta taraflari xandaqtur. Soyg'a yovuq uchun soy toshlaridin uluq-uluq qozondek toshlar qo'rg'ong'a chiqarib edilar. Ul miqdor ulug' toshlarkim, Mozu qo'rg'onida ottilar, ush-muncha qo'rg'on urushi bo'lub hech qo'rg'ondin mundoq toshlar otmadilar. Abdulquddus ko'hbur Kattabekning og'asi fasil tubig'a chiqib edi, fasildin andoq tosh urdilarkim, hech yeri yerga tegmay durust muallaq oshib: o'shandoq baland yerdin qo'rg'onning xokrezining tubigacha yumalana-yumalana keldi, vale hech bo'shmadi. Ushul zamon – o'q otlanib yurudi. Dutahi obduzdda Yor Ali Bilolning boshig'a bir zarb tosh urdilar, boshini uchurdilar. Qalin kishi tosh bila zoye' bo'ldi. Sabohikim, urush solildi, choshtgohdin burunroq obduzd olildi. Axshomg'acha urush edi. Obduzdkim olildi, bo'ldura olmay tonglasig'a amon tilab chiqtilar. Tanbalning inisi Xalil boshliq yetmish-sekson-yuz kishini band qilib Andijong'a yiborildikim, ehtiyot bila saxlag'aylar. Bizing ham

¹ Q. b. – Modu (سۈبۈ)

beklarimiz va ichkilarimiz va o'bdon kishilarimiz alarning bandig'a tushub edi. Bu ish tavsire voqe bo'ldi.

Mozuni olib kelib O'shning kentlaridin O'nju To'ba degan kentta tushuldi. Ul tarafdin Tanbal Andijondin yonib Raboti Sarhang o'rchini kentlaridin Obi Xon degan yerga tushti. Bu ikki cherkning orasi bir yig'och yo'l bo'lg'ay edi. Bu fursatta Qanbar Ali behuzurluq jihatidin O'shqa bordi. Bir oy – qirq kungacha o'turuldi, urush bo'lmadi. Vale har kunda bizning oshliqchi va alarning oshliqchisi otqulashurlar edi. Bu muddatta kechalar o'rdi girdini mahkam ehtiyot qililur edi. Xandaq qozilur edi. Xandaq bo'lmag'on yerda shox tutulur edi. Bo'lg'on sipohi tamom yarog'lanib, xandaq yoqasig'a chiqarlar edi. Bovujudi muncha ehtiyot har uch-to'rt kunda kecha bila cherikda bir g'avgo va suron chiqar edi. Bir kun oshliqchining ilayiga Sayidibek tag'oyi borib edi, g'aninning kishisi zo'rroq kelib, bayakbor urush asnosida Sayidibekni oldilar.

Ushbu yil, Xisravshoh Balx ustig'a cherik borur xayoli bila Boysung'ur mirzoni tilab, Qunduzg'a kelturub, Balx ustiga otlandi. Uyoqcha yetgan chog'da Xisravshoh badbaxt kofiri ne'mat saltanat dag'dag'asi bilakim, saltanat andog' nokas, behunarlariga ne nav' yetgay! Ne nasl, ne nasab, ne hunar, ne asab, ne tadbir, ne shujoat, ne insof, ne adolat! Boysung'ur mirzoni beklari bila tutub, Boysung'ur mirzog'a kerish solib, muharram oyining o'ni edikim, mundoq xushtab' va purfazilat va hasab va nasab bila

orošta podshohzodani shahid qildi. Beklari va ichkilaridin ham bir nechani o'lturdi.

Valodat va nasabi: valodati sekkiz yuz sekson ikkida, Hisor viloyatida edi. Sulton Mahmud mirzoning ikkinchi o'g'lidir, Sulton Mas'ud mirzodin kichik, Sulton Ali mirzo va Sulton Husayn va Sulton Vays mirzokim, Xonmirzo bila mashhurdur, ulug', onasi Pashshabegim edi

Shakl va shamoyili: ulug' ko'zluk, qo'ba yuzluk, o'rta bo'yluq, turkman chehralik, malohatliq yigit edi.

Axloq va atvori: adolatpesha va odmi va xushtab' va fazilatliq podshohzoda edi. Ustodi Sayid Mahmud shiiy ekandur. Bu jihattin Boysung'ur mirzo ham mat'un edi. So'ngra dedilarkim, Samarqandta ul yamon aqidadin yonib, pok e'tiqod bo'lubtur. Xeyli chog'irg'a xirsi bor edi. Chog'ir ichmas mahalda namoz o'tar edi. Saxovati va baxshishi e'tiqod bila edi. Nasxta'liq xatini xeyli xo'b bitir edi. Naqqoshlikda ham iligi yamon emas edi. She'rni ham tavre aytur edi. «Odiliy» taxallus qilur edi. She'ri devon tartib qilg'uncha bo'lmaydur edi. Bu matla' aningdurkim:

*Soyavor az notavon-u jo-bajo meo'ftam,
Gar nagiram ro'yi devore zi po meo'ftam¹.*

Samarqandta Boysung'ur mirzoning g'azalari oncha shoye'durkim, kam uy bo'lg'ay edikim, mirzoning ash'ori ul uyda bo'lmag'ay edi.

¹ Kuchsizlikdin soyaday u yer-bu yerga tushaman, agar devorni ushlamasam yiqilaman.

Masoflari: ikki masof urushti. Bir qatla Sulton Mahmud xon bila. Avval taxtg'a o'lturg'onida Sulton Mahmudxon Sulton Junayd barlos va ba'zining ig'vo va angizi jihatidin Samarqand olmoq doiyasi bila cherik tortib, Oqko'taldin o'tub, Raboti Sug'd va Kanboy navohisig'a keldi. Boysung'ur mirzo Samarqanddin chiqti. Kanboyda urushub, yaxshi bosti. Uch-to'rt ming mo'g'ulning bo'ynig'a urdurdi. Haydar ko'kaltoshkim, xonning hall va aqdi edi, bu urushda o'ldi.

Yana bir martaba Buxoroda Sulton Ali mirzo bila urushub mag'lub bo'ldi.

Viloyoti: otasi Sulton Mahmud mirzo Buxoroni berib edi. Otasidin so'ng otasining beklari yig'lib, ittifoq bila Samarqandta podshoh qildilar. Buxoro ham necha mahalga'acha muning devonig'a doxil edi. Tarxonlar yog'iylig'idin so'ng aning tasarrufidin chiqti. Men Samarqandni olg'onda Xisravshohqa tortar bordi. Xisravshoh Hisorni olib berdi.

Andin hech avlod qolmadi. Xisravshohqa kelgan mahalda obog'asi Sulton Xalil mirzoning qizini oldi. O'zga xotun va g'umasi yo'q edi. Andoq istiqbol bila saltanat qilmadikim, bir kishini o'z elidin ulg'aytib mu'tabar bek qilmish bo'lg'ay. Beklari ota-obog'asining – o'q beklari edi.

Boysung'ur mirzoning voqeasidin so'ng Sulton Ahmad qorovul Quchbekning otasi, og'a-inisi va ko'ch va mutaalliqdari bila Qorategin viloyatidin chiqib, bizni deb keldi. Qanbar Alikim, O'shda behuzur edi, behuzurluqdin qo'pub, ul ham keldi. Mundoq mahalda g'ayb

ko'magi Sulton Ahmad qorovul jamoati bila kelib, qotil'onni shugun tutub, sabohi-o'q g'anim ustiga yasab yuruduk. Obi Xonda turush bermay, yurtidin ko'chti. Ba'zi chodir va gilem va partoldek nimalari cherik eliga tushdi. Kelib aning yurtik tushtuk. Ushbu oxshomi Tanbal Jahongirni olib, o'ng yonimizdin evrulub, Xo'bon degan kentgakim, Andijon sari yonimizda bizdin uch yig'och bo'lg'ay edi, kelib kirdi. Ertasiga biz ham burong'or juvong'or, g'ul, hirovulni tartib qilib, kejim kiyib, yarog'lanib, yasol yasab, to'ra ko'targan yayoqlarni olimizg'a solib, g'anim ustiga yuruduk. Bizning burong'or Ali Do'st tag'oyi edi. tavobeyi bila. Juvong'or Ibrohim soru va Vays Log'ariy, Seydiy Qaro, Muhammad Ali Mubashshir, Xoja Kalonbekning og'asi Kichikbek, yana ba'zi ichkilar: Sulton Ahmad qorovulni va Kuchbekni og'a-inilari bila juvong'org'a bitildi, Qosimbek g'ulda mening qoshimda edi. Irovul Qanbar Ali va yana ba'zi ichkilar edi.

Xo'bonning sharqi-janub tarafidin Saqo otliq kentdakim, Xo'bondin bir shar'iy bo'lg'ay, yetishib edukkim, g'anim kishisi Xo'bon kentidin yasab chiqti. Biz ham ildamroq – o'q yuruduk: hazm va ehtiyotni mar'i tutub, to'ra va siyoqkim, tartib qililib edi, muqobala bo'lur mahalda keyin – o'q qoldilar. Tengri inoyati bila alarg'a hech ehtiyoj bo'lmadi. Yetgan bila burunroq bizning juvong'or kishisi aning burong'ori bila ilik olish-ti. Xoja Kalonning og'asi Kichikbek anda yaxshi chopqullashti. Muhammad Ali Mubashshir ham. Kichikbektin so'ngra chopqullashti. Ush-

muncha bila toʻb keltura, olmay, yogʻiy qoch-ti. Burongʻor bila irovulga pesho-pesh urush yetmadi. Qalin yigitlarni kelturdilar. Boʻyunla-rigʻa buyurdikim, urdilar. Bizning beklar Qo-simbek va Ali Doʻstbek koʻpragi Ali Doʻst hazm va sardorligʻini rioyat qilib, qovgʻunchini yiroq yiborgali maslahat koʻrmadilar. Bu jihattin qa-lin kishisi ilikka tushmadi.

Xoʻbon kentiga – oʻq tushtuk. Mening avval masof urushi urushqonim ushbu edi. Tengri taolo oʻz fazl va karami bila fatx va zafar roʻzi qildi. Shugun tuttuk.

Tonglasigʻa-oʻq otamning onasi mening ulugʻ onam Shoh Sul-ton begim Andijondin keldi. Bu xayol bilakim, Jahongir agar ilikka tushgan boʻlsa, darxost qilgʻay. Chun qish yovuqlashib edi, yozida oshliq-toʻluk qolmaydur edi, Oʻzgand ustiga borurni maslahat koʻrmay, Andijongʻa murojaat qilindi. Necha kundan soʻng ken-gashib, soʻzni munga qaror berildikim, Andi-jonda qishlamoqdin gʻanim kishisiga hech zarar va osibi yetmas, balki oʻgʻurluq va qazoqliq bila kuchlanmagining ehtimoli bordur. Bir yerda qishlamoq kerakkim, cherik eli oshliqsizlikdan ojiz boʻlmagʻay va gʻanim kishisiga ham qabal yoʻsunluq ojizligʻi boʻlgʻay. Bu maslahat uchun Rabotak oʻrchinidakim, bu Rabotak oʻrchinini Ikki suv orasi ham derlar, Armiyon va Noʻshob navohisida qishlamoq xayoli bila Andijondin koʻchub, mazkur boʻlgon kentlarning navo-hisigʻa kelib qishloq solduk.

Bu navohi yaxshi ovloq yerlar boʻlur. Ila-mish¹ daryosining yaqinidagi qalin changallar-

¹ Q. b. – Iramish. (آراميش)

da bug'u, maral va tunkuz ko'p bo'lar. Ushoq-ushoq changallarida qirg'ovul va tovushqon qalin bo'lar. Pushtasida tulkusi bisyor bo'lar, dar-kamin bo'lar¹, tulkusi o'zga yerning tulkusiga boqa yuguruk bo'lar. Bu qishloqda ekanda har ikki-uch kunda ovg'a otlanur edim. Ulug' changallarni o'rtab, bug'u-maral ovlar eduk. Ushoq changallariga charga solib, qirg'ovulg'a qush solib kezlar eduk. Qirg'ovullari behad semiz bo'lar. To ul qishloqta eduk, qirg'ovul eti farovon edi. Ushbu qishloqta ekanda Xudoyberdi tug'chikim, rioyat qilib bek qilib edim, ikki-uch qatla tushub, Tanbalning qazog'ini bosib, boshlar kesib kelturdi. Andijon va O'sh navohisidin ham qazoq yigitlar ayyorliq bila tinmay borib. ilqilarin surub, kishilarni o'lturub² bisyor ojiz qildilar. Agar ul qishni o'shul qishloqta o'tkarsilsa edi, ko'proq ehtimoli bu edikim, yozg'acha urushsiz-o'q buzulg'aylar edi. Ushmundoq g'animni zabun va ojiz qilg'on mahalda Qanbar Ali viloyatig'a bormoqqa ijozat tiladi. Har necha bu hisoblarni xotir nishon qilib, man' qilildi, ko'prak jahl qildi. Ajab yengil va betaammul mardak edi. Zarurat bo'ldi, viloyatig'a ijozat berildi. Burun viloyati Xo'jand edi. Bu navbat Andijonni olg'onda Isfara va Kandibodomni ham anga berildi. Bizning beklar orasida qalin viloyatliq va ko'p navkarlik Qanbar Ali edi. Hech kimning navkari va viloyati oncha emas edi. Qirq-ellik kun ul qishloqta eduk. Qanbar Alining taqribi bila ba'zi cherik eliga ham ruxsat berildi.

¹ Q. b. – rangin.

² L. b. – bu ibora yo'q.

O'zumiz ham Andijong'a kelduk. Bu mud-dattakim qishloqta va Andijonda eduk, Tanbalning kishisi tinmay xon qoshig'a, Toshkandga borur edi va kelur edi. Ahmadbekkim, xonning o'g'li Sulton Muhammadning bek atkasi va xonning ulug' rioyat qilg'on begi edi, Tanbalning tuqqan obog'asi edi, Bek Telbakim, xonning eshikog'asi edi, Tanbalning tuqqon og'asi edi, bora-kela xonni barin qildilarkim, Tanbalg'a ko'mak yiborg'ay, ko'makdin burunroq Bek Telbakim, to tug'ub edi, Mo'g'ulistonda edi, mo'g'ul orasida ulg'ayib edi, viloyatqa kirmaydur edi, viloyat podshohlarig'a xizmat qilmaydur edi, xonlarg'a-o'q xizmat qilib edi, ko'ch va ahlu ayolini Toshkandta qo'yub, o'zi kelib inisi Tanbalg'a qo'shuldi.

Bu fursatta ajab hodisa dast berdi. Qosim Ajabnikim, Axsida oriyati qo'yulub edi, oz-og'loq qazoq keyinicha chiqib, qavlab Bichrota¹ bila Xo'jand suyidin o'tarda Tanbalning qalin kishisiga uchrab, ilikka tushti. Tanbal chun cherikimizning tarqog'on xabarini topti va og'asi Bek Telba xon bila so'zlashib kelib edi, ko'mak kelmakka mutaayyin mutayaqqin edi. O'zgandtin otlanib, Ikki suv orasig'a keldi. Ushbu asnoda Kosondin tahqiq xabar keldikim, xon Tanbalning ko'magiga o'g'li Sulton Muhammad Xonikanikim, Sultonimg'a mashhur edi, Ahmadbek bila tayin qilib, besh-olti ming cherik qo'shubtur. Archakent yo'li bila oshib kelib, Kosonni qabadilar. Biz dag'i yiroqdag'i kishimizg'a boqmay, hozir kishimiz bila betavaqquf qishning zarb sovug'ida tengriga tavakkul qilib, Andijon-

¹ Q. b. – Bixrota.

din Bandi Solor yo'li bila Sul-tonim bila Ahmad-bekning ustiga o'tlanduk. Kechasi hech yerda turmay, tun qotib sabohi Axsiga tushtuk. Ul oxshom mahkam qattiq sovuq edi. Andoqkim, ba'zining ilik-oyog'in sovuq oldi. Ko'p kishining quloqlari olmadek-olmadek qabarchug'lanib edi. Axsida tavaqquf qilmay, Qosim Ajabning o'runig'a Yorak tag'oyini ham oriyati qo'yub, Kosoy ustiga o'ttuk, Kosong'a bir shar'i qolg'on-da xabar keldikim, Ahmadbek xabar topib, Sul-tonim bila buzulg'on yo'sunluq ildam yondi.

Tanbal bizning o'tlang'onimizni bilib, og'asig'a ko'mak ilg'ab keladur ekandur. Kun ikki namoz orasi bo'lg'ay edikim, Tanbalning qarosi Navkand soridin paydo bo'ldi. Og'asining mundoq yengil kelganidin va bizning mundoq ildam yetkanimizdin dong va mutahayyir bo'lub tura qoldi. Biz dedukkim, xudoy muni mundoq kelturdi, otining bo'yni qotib kelibtur, yurub ilik qo'shg'ondin keyin tengri rost keltirsa birisi chiqmas, Vays Log'ariy va yana ba'zilar dedilarkim, kun kech bo'lubtur, bu kun bo'lmasa tongla qayong'a borg'usidur. Saboh har qanda bo'lsa, uchraturbiz, deb filhol ilik qo'shmoqni saloh ko'rmaydilar. Ushmundoq qopuda kelgan g'anim hech nav' mutazarir bo'lmay ajrashti. Masal borkim, «Qopudag'ini qopmasa, qarig'uncha qayg'urur».

Bayt:

*Korhoro ba vaqt boyad just,
Kori be vaqt sust boshad, sust.¹*

¹ Ishlar o'z vaqtida bajarilishi kerak: vaqtida bajarilmagan ish sust bo'ladi, sust.

Tonglag'acha fursatni g'animat tutub, kechasiga hech yerda tushmay borib, Arxiyon qo'rg'onig'a kirdilar. Ertasiga g'aninning ustiga yurub, topmay, so'ngicha kelib, Arxiyon qo'rg'onini yovuq qabamoqning salohin topmay, bir shar'isida G'aznayi Namangonga tushuldi. O'ttuz-qirq kun biz bu yurtta eduk. Tanbal Arxiyon qo'rg'onida edi. Oz-oz kishi beridin borib, naridin kelib, ora yo'lda, otqulashib yonar edi. Bir kecha shabixun keldilar. O'rduning tashqarisidin bir pora o'q qo'yub yondilar. O'rdu girdini xandaq qilib, shox tutub, ehtiyotlar qililib edi, hech ish qila olmadilar. Ushbu yurtta ekanda Qanbar Ali ikki-uch qatla yamonlab viloyatig'a bormoqchi bo'ldi. Bir qatla xud o'tlanib tebrab edi, ba'zi beklarni yiborib tashvishlar bila yondurduk.

Bu asnoda Sayid Yusuf Majamiy¹ Sulton Ahmad Tanbalg'a kishi yiborib, anga boqti. Andijon ko'hpoyalaridin Uyg'ur Majam² derlar, ikki ko'hpoyadur. Sayid Yusuf Majam³ aning ulug'i edi, so'ngralar eshikda tanimoni⁴ bo'lub edi. Ishi ulug'luqtin o'tub edi. Beklik dag'dag'a va da'vosi bor edi. Agarchi hech kim bek qilmaydur edi, ajab munofiq va beposhna mardak edi. Men ushbu navbat Andijonni olg'ondin ushbu tarihqacha shoyadkim, ikki-uch qatla manga kirib Tanbalg'a yog'iqli ekin. Yana ikki-uch qatla Tanbalg'a kirib manga yog'iqli ekin. Oxir yog'iy bo'lg'oni ushbu edi. Aning bila el va ulus

¹ Q. b. – Manjamiy yoki Munajjimiyy (منجمي)

² Q. b. – Uyg'u Manjam yoki munajjim (ويغو منجم)

³ Q. b. – Munajjim yoki Manjam.

⁴ Q. b. – tanimol.

va aymoq xeyli bor edi. Tanbalg'a qo'shulmasun, deb oralay otlanduk. Ora qo'nub, Peshxoron navohisig'a keldik, Peshxoron¹ qo'rg'onig'a Tanbalning kishisi kelib kirgan ekandur. Bizning ilg'or beklari Ali Darveshbek va Kuchbek og'a-inisi bila Peshxoron eshigiga borib yaxshilar cholqulashtilar. Quchbek og'a-inisi bila yaxshilar bordilar. Ilklari aksari ishga tegdi.

Peshxoronning bir shar'isida bir balandi ustida tushtuk. Tanbal Jahongirni olib Peshxoron qo'rg'onini orqay tushti. Uch-to'rt kundan so'ng bizing muxolif beklarkim, Ali Do'st va Qanbar Ali Sallox tavobe' va lavohiqi bila bo'lg'aylar, yarash so'zini orag'a sola kirishtilar. Mening va mening davlatxohlarimning bu yarashdin aslo ilm va xabarlari yo'q edi va bizlar bu suratka aslo rizo bermas erduk. Chun ikki ulug'bek bu ikki mardak edi, agar bularning so'ziga quloq solmay sulh bo'lmasa, o'zga ehtimollari ham bor edi. Zarurat bo'ldi, bu yo'sunluq sulh bo'ldikim, Xo'jand suvining Axsi tarafi viloyatlar Jahongir mirzog'a taalluq bo'lg'ay, Andijon tarafi viloyatlar manga taalluq bo'lg'ay. O'zgandi ham ko'chlarini chiqorg'ondin so'ng bizing devonga qo'yg'aylar. Viloyatlar qaror topg'ondin so'ng men va Jahongir mirzo ittifoq qilib, Samarqand ustiga yurgaybiz. Samarqand taxti muyassar va musaxxar bo'lg'och, Andijonni Jahongir mirzog'a berilg'ay. So'zni munga qaror berildi.

Jahongir mirzo va Tanbal tonglasig'a kelib, rajab oyining avoxirida mulozamat qildilar. Ushbu muqarrar bo'lg'on yo'sunluq ahd va shartlar

¹ Q. b. – Bishxoron.

bo'ldi. Jahongir mirzog'a Axsi sari ruxsat berib o'zum Andijong'a murojaat qildim, Andijong'a kelgach, Tanbalning inisi Xalil va jam'ikim, bandta edilar, banddin chiqarib, xil'atlar kiydurub ruxsat berildi. Alar dagi banddag'i beklarni va ichkilarnikim, Tag'oyi bek va Muhammad Do'st va Mirshoh qavchin va Sayidiybek va Qosim Ajab va Mir Vays va Mirim devon boshlig'lar bo'lg'ay, bandtin chikarib yibordilar.

Andijong'a kelgandin so'ng Ali Do'stning atvori tamom o'zgacha bo'ldi. Mening bila qazoqliqlarda va mehnatlarda bo'lg'on kishilar bila yamon maosh qila kirishti. Avval Xalifag'a ruxsat berdi. Andin so'ng Ibrohim Soruni va Vays Log'ariyni begunoh va bejihat tutturub, talatib viloyatlaridin ayirib ruxsat berdi. Qosimbek bila chirmashib yurar edi. Zohirda muni sanad qildikim, Xalifa va Ibrohim Xoja qozining havodorlaridur. Mendin intiqom olg'urlaridur. O'g'li Muhammad Do'st xud podshohona bunyodlar qo'ydi. Suhbat va shilon va devon va dastgoh borchani salotin dasturi bila boshlaydi. Bu otaliq o'g'ulluq Tanbalg'a orqalanib, mundoq harakatlar bunyod qildilar.

Menda ham oncha ixtiyor va iqtidor qolmadikim, bu nav' noma'qul harakatlardin bularni man' qila olg'aymen. Ne jihatdinkim, Tanbaldek dushman muning orqa va himoyati, har ne ko'ngullari tilar edi, andoq qilurlar edi. Ajab nozuk mahalli edi. Hech nima deb bo'lmas edi. Bu otaliq, o'g'ulluqtin ul muddatda g'alaba xorliqlar tortildi.

Sulton Ahmad mirzoning Oysha Sultonbegim otliq qizirikim, ota obog'a tirik ekan-da manga qalinliq qilib edilar, Xo'jandta kelib edi, sha'bon oyida oldim. Avval olg'onda agar-chi mehrim yamon emas edi, vale avvali kadx-udolik edi, hayo va hijob jihatidin har o'n, o'n besh, yigirma kunda bir navbat borur edim. So'ngralar xud ul mehr ham qolmadi, vale hijob hanuz ko'prak bo'ldi, bir oyda va qirq kunda onam xonim muhassilliqlar bila sura-sura, tashvishlar bila yiborur edi...

Ushbu yil Sulton Ali mirzo bila Muhammad Mazid tarxonning orasida muxolafat tushti. Sababi bu edikim, tarxoniyalar asru ko'p e'tibor va ixtiyor bo'lub edilar. Buxoroni darbast¹ Boqi olib edi. Buxoro sarkoridin donge kishig'a bermas edi. Muhammad Mazid tarxon ham Samarqandta sohib ixtiyor tamom viloyatni o'g'lonlarig'a va tavobe va lavohiqig'a olib edi. Shahrudin har nima rotibakim, tayin qilib edilar, andin o'zga bir fulus hech mamardin² Sulton Ali mirzog'a tegmas edi. Sulton Ali mirzo ulug' yigit bo'lub edi. Bularning mundoq maoshig'a necha tahammul qilsun? Bir necha ichkilari bila Muhammad Mazid tarxonning qasdi maqomida bo'ldi. Muhammad Mazid tarxon tuyub, navkar-savdari, tavobe va lavohiqi bila yana aning bila bor kishi bori beklar bila, misli: Sulton Husayn arg'un, Pir Ahmad arg'un³ Xoja Husayn, Uzun Hasanning inisi Qaro barlos,

¹ Q. b. - dardast.

² Q. b. - hech nimadin.

³ L. b. da «arg'un» so'zi yo'q.

Solih Muhammad, yana ba'zi beklar va yigitlar bila shahrdin chiqdi.

Ul fursatlarda xon mirzog'a xon Muhammad Husayn do'g'latni va Ahmadbekni va yana qalin mo'g'ul beklarini qo'shub Samarqand ustiga tayin qilib edi. Hofizbek do'ldoy va o'g'li Tohirbek xud xon mirzoning bek atkasi edilar. Hasan nabira va Hindubek va ba'zi yigitlar Hofizbek va Tohirbek munosabati jihatidin Sul-ton Ali mirzodin qochib, Mirzo xon qoshig'a borib edilar. Muhammad Mazid tarxon kishilar yiborib, Xon mirzoni va mo'g'ul cherikini tilab, Shovdor navohisida kelib, Mirzo xonni ko'rub, mo'g'ul beklari bila muloqot qildi.

Mo'g'ul beklarining Muhammad Mazid beklar bila yaxshig'ina ixtiloti chiqmadi. Balki Muhammad Mazid tarxonni tutar xayol ham qilg'ondurlar. Bu beklar anglab mo'g'ul cherikidin bir bahona bila ayrildilar. Bular ayrilg'och mo'g'ul cheriki ham tura olmadi, yonib Yor yayloq tushganda, Sul-ton Ali mirzo oz kishi bilan Samarqanddin ilg'ob Xon mirzo bila mo'g'ul cheriki ustiga yetar, urusha ham olmaslar, buzulub qocharlar. Oxir chog'da Sul-ton Ali mirzoning bir yaxshig'ina ishi bu bo'ldikim, Muhammad Mazid tarxon va alar bu mirzolardin ma'yus bo'lub, mo'g'ul Abdulvahhobnikim, mundin burnaroq ham mening qoshimda bor edi, Andijon qabalida ham Xoja qozi bila yaxshi yakjihatliqlar qilib, jonlar tortib edi, man-ga yiborib meni tilabdurlar. Biz xud xarobi bu muomala eduk.

Ushbu maslahat uchun sulh qilib, Samarqand ustiga yurumakka jozim eduk. Filhol Mir Mo'g'ulni Axsig'a Jahongir mirzo qoshig'a buljor bila yiborib, Samarqand ustiga otlanmoq bo'lduk. Zulqa'da oyida Samarqand ustiga cherik otlanib, ora ikki qo'nub, Qubog'a kelib tushtuk. Namozig digar xabar keldikim, Sulton Ahmad Tanbalning inisi Xalil kelib O'sh qo'rg'onini o'g'urlab olibdur. Tafsili budurkim¹, sulh bo'lg'onda Tanbalning inisi Xalil boshliq bandilarni qo'yulub edi. Nechukkim mazkur bo'ldi. Tanbal Xalilni O'zgandagi ko'ch va uruqini chiqormoq uchun yiborib edi, ko'ch chiqormoq bahonasi bila borib, O'zgandga kirib, bu kun chiqay, tongla chiqay deb xiyal qilib, chiqmaydur edi. Biz cherik otlang'onda fursat topib, O'sh xoli qolg'onda kecha bila kelib, O'sh qo'rg'onini o'g'urlab olibtur.

Bu xabar bizga kelgach, turmoqning va yana bular bila chirmashmoqning maslahatini necha jihattin topmay, Samarqand sari-o'q mutavajjih bo'lduq. Bir bukim, bizning sipohiy otog'liq tamom cherik yarog'ini qilmoq uchun uyluk uyiga har sarig'a tarqab edi. Sulhqa e'timod qilib, bularning bu makr va g'adridin bexabar va g'ofil eduk. Yana bir bukim, Ali Do'st va Qanbar Alidek ulug' beklarimizdin necha navbat harakatlar zohir bo'ldikim, alarg'a e'timod qolmadi, nechukkim, mazkur bo'ldi. Yana bir bukim, Muhammad Mazid tarxon boshlig' jami' Samarqand beklari meni tilay Mir Mo'g'ulni yiborib edilar. Samarqanddek poytaxt turg'un-

¹ L. b. – olib, to'rt fasili budurkim (?).

cha, ne kiroyi ul qilg'aykim, Andijondek yer uchun kishi avqot zoye' qilg'ay.

Qubodin Marg'inong'a kelildi. Quchbekning otasi Sulton Ahmadbekka Marg'inonni berilib edi. Aloyiq va avoyiq jihatidin mening bila er-gasha olmay Marg'inonda qoldi. O'g'li Quchbek bir-ikki og'a-inisi bila mening bila bordilar.

Ispara yo'lig'a mutavajjih bo'lduk. Isparaning tavobiyi Mahan¹ o'tliq kentga kelib tushtuk. It-tifoqoti hasanadin Qosim yana bek jamoati bila, Ali Do'st jamoati bila Sayid Qosim yana bir pora qalin yigitlar bila ushbu axshom Mahanda ekanda buljor qilg'ondek borcha kelib qotildilar. Andin o'tlanib dashti Xasbon² bila yurub, Cho'pon ko'prugidin o'tub, O'ratepa keldim. Qanbar Ali o'z viloyati Xo'jandtin Tanbalg'a e'timod qilib cherik maslahatini so'zlasha Axsig'a kelur. Bu voqea bo'lg'och, Tanbal ani band qilib olib viloyatlarining ustiga yurur. Ul bir turki masal bordurkim, «Inonmag'il do'stungg'a, somon tiqar po'stungg'a». Yo'lda keladurgonda yayoq qochib yuz tashvishlar bila O'ratepaga keldi. O'ratepada ekanda xabar keldikim, Shayboniyxon qal'ayi Dabusida Boqi tarxonni bosib, Buxoro ustiga boribtur, O'ratepadin Bo'rka yayloqi yo'li bila Sangzorg'a kelduk. Sangzor dorug'asi qo'rg'onni berdi. Qanbar Ali chun tutturub, oldurub kelib edi, ani Sangzorda qo'yub o'ttuk. Kelib Xon yurtig'a tushganda Muhammad Mazid tarxon boshliq Samarqand beklari kelib mulozamat qildilar. Samarqand

¹ Q. b. - Muhsin (مُحْسِن)

² Q. b. - Hason (حَسَان)

tasxirining kayfiyatini bular bila mashvarat qilildi. Dedilarkim, Xoja Yahyo ham podshohning hohonidur. Agar Xoja barin bo'lsa, Samarqand bejang-u jidol osonliq bila muyassar bo'lur. Bu jihattin necha navbat Xoja Yahyog'a kishilar yiborib so'zlashildi. Xoja Yahyo bizni Samarqandg'a kiyurmakni jazm aytib yibormadi, vale ma'yus bo'lg'udek so'z ham aytmadi. Xon yurtidin ko'chub, Darg'am yoqasig'a kelduk. Darg'am yoqasidin Xoja Yahyog'a Xoja Muhammad Ali kitobdorni yiborildi. Xabar kelturdikim, kelsunlar, shahrni berurbiz. Darg'amin kechga yovuq otlanib, shahrg'a mutavajjih bo'lduk.

Sulton Mahmud do'ldoy Sulton Muhammad do'ldoyning otasi yurtin-o'q qochib borib, bu ittifoqdin alarni xabardor qilibtur, chun xabar toptilar, avval qilg'on xayol muyassar bo'lmasdi, yonib Darg'am yoqasig'a tushtuk. Ibrohim soruyi minglig'kim, mening bir yaxshi rioyat qilg'on begim edi, Ali Do'st tutturub qovlatib edi, men Yor yayloqqa kelgan fursatda Sayid Yusufbekning ulug' o'g'li Muhammad Yusuf bila kelib mulozamat qildi. Bizning boyiri beklarimiz va ichkilarimizkim, Ali Do'stning ziddi edilar, bularning ba'zisini qovlab, ba'zisini talab, ba'zisini tutturub edi, biror-biror yig'ilib keldilar.

Ali Do'st zaif bo'lur edi. Ne uchunkim, Tanbalni orqalanib manga va mening davlatxohlarimg'a jafu va azoblar qilur edi. Mening ham tab'im bu mardak bila yamon edi, ham infindin va ham tavahhumdin tura olmadi, ruxsat tiladi. Men dag'i minnat tuttum, ruxsat berdim. Ali

Do'st va Muhammad Do'st¹ o'shul ruxsat olg'on bila Tanbal qoshig'a bordilar. Tanbalg'a muqarab bo'lub, g'alaba yog'iyliqlar va yamonliqlar bu otaliq, o'g'ulluqtin zuhrga keldi. Bir-ikki yildin so'ng Ali Do'stning iligiga qort chiqib o'ldi. Muhammad Do'st o'zbekka kirib edi. Filjumla yamon emas edi. Andin ham ko'rnamaklik qilib, qochib, Andijonning ko'h poyalarig'a borib, yog'iyliqlar va fitnalar angiz qildi. Oxir o'zbek iligiga tushti. Ko'zlarini ko'r qildilar: «Ko'zlarini tuz tutti»ning bu ma'nisi bor emish.

Bularg'a ruxsat bergandin so'ng G'uri barlosni bir necha yigitlar bila xabar uchun Buxoro sari yiborilib edi. Xabar keldikim, Shayboniyxon Buxoroni olib, Samarqand ustiga mutavajjih bo'ldi. Ul navohida bo'lmoqni maslahat ko'rmay, Kesh sari azimat qilduk. Bu Samarqand beklarning aksar ko'chlari ham Keshda edi. Keshga kelgandin bir-ikki haftadin so'ng xabar keldikim, Sulton Ali mirzo Samarqandni Shayboniyxong'a berdi. Tafsili budurkim. Sulton Ali mirzoning onasi Zuhrabegi og'a bilmasligidin va beaqlig'idin maxfiy Shayboniyxong'a kishi yiborur, bu mazmun bilakim, Shayboniyxon ani olur bo'lsa, o'g'li Shayboniyxong'a Samarqandni bergay. Otasining viloyatini olg'ondin so'ng Sulton Ali mirzog'a bergay.

Bu ra'ydin Abu-Yusuf arg'unning xabari bor ekandur, balki by ra'yni ko'rsatguchi o'shul g'addor ekandur.

¹ Q. b. – bu nom yo'q.

VAQOYEI SANAYI SITTA VA TIS'A MIA¹

Shayboniyxon ushbu xotunning va'dasi bila kelib, Bog'i Maydong'a tushti. Tush vaqtida Sulton Ali mirzo bek, begotig'a, yigit-yalangiga, hech kinga xabar qilmay, hech kim bila ke-ngashmay, bir necha yovug'idag'i kichik-kirim bila Chorraha darvozasidin Bog'i Maydong'a Shayboniyxon qoshig'a bordi. Shayboniyxon xeyli yaxshi ham ko'rmadi. Ko'rushgandin so'ng quyi yonda o'lturg'uzdi. Xoja Yahyo mirzoning chiqqonini xabar topib, iztirobda bo'ldi, hech chora topa olmay, Xoja ham chiqti, Shayboniyxon qo'pmay-o'q ko'rushti. Bir pora shikoyatomuz so'zlar aytti. Xoja Yahyo qo'pqonda Shayboniyxon ta'zim qilib ko'pti. Jon Ali Xoja Ali boyning o'g'li raboti Xojada edi. Mirzosining chiqg'on xabarini eshitib, ul ham Shayboniyxon qoshig'a keldi. Bu bedavlat xotun chun noqisi aql edi, erga tegar havosi bila o'g'lining xonumonin barbod berdi. Shayboniyxon bir zarra parvo ham qilmadi, balki g'uma-g'unchachicha ham ko'zga ilmadi.

Sulton Ali mirzo ham o'z ishiga hayron va chiqqonidin behad pushaymon edi. Ba'zi yovuqlari kayfiyatni anglab, mirzoni olib qochmoq xayol qildilar. Sulton Ali mirzo rozi bo'lmadi, chun ajal yetib edi, qutulmadi. Temur Sulton bila tushar edi, to'rt-besh kundan so'ng Qo'lba o'langida o'lturdilar. Bu besh kunluk o'lar jon uchun yamon ot bila bordi. Xotun so'ziga kirib, o'zini neknomlar chargasidin chiqardi.

¹ To'qqiz yuz oltinchi (1500–1501) yil voqealari.

Mundoq kishining vaqoyeni mundin ortuq bitib bo'lmas. Bu yo'sunluq shane' harakotni mundin optuq eshitib bo'lmas.

Sulton Ali mirzoni o'lturg'andin so'ng Jon Alini ham mirzoni qoshig'a yibordi.

Xoja Yahyodin chun Shayboniyxon mutavahhim edi, ikki o'g'li Xoja Muhammad Zikriyo va Xoja Boqi bila Xuroson sari ruxsat berdi. Keyin bir necha o'zbek borib, hazrati Xojani iki yigit o'g'li bila Xoja Kordzan¹ navohisida shahid qildilar. Shayboniyxonning so'zi bu ekandurkim. Xojaning ishi mendin emas edi, Qanbar biy va Ko'pak biy qildilar. Bu andin yamonroq masal borkim: «Uzrash batar az gunoh»². Mundoq ishlarni beklar o'z boshi bila xonidin va podshohidin bevuquf qila boshlasa, bas xonlig'ig'a va podshohlig'ig'a ne e'tibor?

Samarqandni o'zbek olg'och, Keshdin Hisor sari mutavajjih bo'lduk. Muhammad Mazid tarxon boshliq Samarqand beklari ko'ch va ahlu ayollari bila bizning bila tebradilar. Chag'oniyonning Chiltu³ o'langiga tushganda, Muhammad Mazid tarxon boshliq Samarqand beklari ayrilib borib, Xisravshohqa navkar bo'ldilar.

Biz shahar va viloyattin mahrum, borur turarimiz noma'lum. Bovujudikim, Xisravshoh ne miqdor bizning xonvodag'a hayflar o'tkarib edi, chora topolmay, zarurattin aning viloyatining ichi bila-o'q o'ttuk. Bir xayol qililib edikim, Qorategin va Alay bila o'tub, kichik xon

¹ Q. b. va L. b. – Koruzan. (109)

² «Uzri gunohidin yomonroq».

³ Q. b. – Hiltu. (110)

dodamg'akim, Olachaxon bo'lg'ay borilg'ay, ul muyassar bo'lmadi. Kamrud bila yuqqori yurub, Sira toq¹ dobonidin oshmoq bo'lduk. Navandok navohisig'a yetganda, Xisravshohning navkari bir to'qquz ot va bir to'qquz parcha kelturdi. Kamrud og'zig'a tushganda, Sherali cho'hra qochib Xisravshoh qoshig'a bordi. Tonglasig'a Qo'chbek ayrilib Hisor bordi. Kamrud darasig'a² kirib yuqqori boqa yuruduk. Tangi va uchma yo'llarda tund va tez ko'tallarda qalin ot va teva qoldi. Uch-to'rt ora ko'nub, Sira toq ko'talig'a yettuk, ko'tal va ne nav' ko'tal, hargiz mundoq baland va tang qo'tal ko'ruigan emas, hech vaqt mundoq tangi va uchma yo'llar bila yurulgan emas. Ko'p tashvish va suubat bila muxotara tangi va uchmalardin o'tub, yuz ranj va mashaqqat bila muhliq baland va tang qo'tallardin oshib, Fon navohisig'a kelduk. Fon tog'larining orasida bir ulug' ko'l tushubdur, muhiti taxminan bir shar'iy bo'lg'oy, tavr ko'ledur, g'arobatin xoli emas.

Xabar topildikim, Ibrohim tarxon Sheroz qo'rg'onini berkitib o'lturubtur. Yor yayloq qo'rg'onlarida ham Qanbar Ali va Abulqosim ko'hburkim, Xoja Diydorda edi, o'zbek Samarqandni olg'onda Xoja Diydorda tura, olmay, Yor yayloqqa kelib quyig'i qo'rg'onlarda edi, berkitib o'lturubturlar. Fonni o'ng qo'lda qo'yub Kash-tud³ sari yuruduk. Fon maliki karam va saxovat va xizmatkorliq va insoniyat bila mash-

¹ Q. b. – Sarv tog'.

² Q. b. daryosig'a.

³ Q. b. – Kishtut.

hur va ma'rif edi, Sul-ton Mas'ud mirzo, Sul-ton Husayn mirzo. Hisor ustiga kelganda, inisi Boysung'ur mirzog'a Samarqandg'a bu yo'l bila borib edi. Fon maliki yetmish-sekson ot peshkash qildi. O'zga xizmatkorliqlarni ushbu yusunluq qildi. Manga bir furudroq ot yiborib, o'zi ham kelmadi. Bizga yetganda saxovat bila mashhur bo'lg'on el xasis bo'lur, muruvvat bila mazkur bo'lg'on elning muruvvati unutul-ar. Xisravshoh kim, saxovat va karam bila ma'rif va mashhur edi. Badiuz zamon mirzog'a ne nav' xizmatkorliqlar qilg'oni mazkur bo'ldi.

Yana Boqi tarxong'a va o'zga beklarga asru ko'p insoniyat va baxshishlar ko'rsatti. Ikki navbat aning viloyatidin uburumiz voqe bo'ldi. Bizning abnoyi jinsimiz demayki, adno navkarimizga qilg'on insoniyatni bizga qilmadi, balki navkarimizcha bizni ko'zga ilmadi.

Bayt:

*Kim ko'rubtur, ey ko'ngul, ahli jahondin
yaxshiliq?*

*Kimki ondin yaxshi yo'q, ko'z tutma ondin
yaxshiliq.*

Fondina o'tgach Kashdud qo'rg'onida o'zbek kishisi bor xayol qilib, Kashdud ustiga ilg'aduk. Kashdud qo'rg'oni xud buzuq ekandur. Bu muddatta anda kishi o'lturg'on emas ekan-dur. Andin o'tub Ko'hak suyining yoqasig'a kelib tushtuk, Yorining to'g'risidin Ko'hak su-yidin ko'pruk bilan kechtuk. Qosimbek boshlig' beklarni yiborildikim, Raboti Xoja qo'rg'onini

o'g'urlab olg'aylar. Biz Yoridin o'tub Shunqor-xona tog'idin oshib, Yor yayloqqa kelduk. Raboti Xojag'a borg'on beklar shotu qo'yar mahalda tuyubturlar, yondurubturlar, ola olmay yonib keldilar.

Qanbar Ali Sangzorda edi, kelib ko'rdi. Abulqosim ko'xbur va Ibrohim tarxon o'bdon kishilarini mulozamatqa yiborib, qulluq va ixlos izhorini qildilar. Yor yayloq kentlaridin Asfidak qo'rg'onig'a kelduk.

Ul fursatta Shayboniyxon Xoja Diydor navohisida o'lturub edi. Uch-to'rt ming o'zbaki bor edi. Yana yerlik sipohiydin ham muncha chog'liq kishi yig'ilib edi. Samarqand dorug'alig'ini Jonvafo mirzog'a berib edi. Besh-olti yuz kishi bila Samarqand qo'rg'onining ichida edi. Hamza Sulton bila Mahdi sulton tavobe va lavohiqi bila Samarqandning yovug'ida Budana qo'rug'ida o'lturub edi.

Bizning kishimiz yaxshi va yamon ikki yuz kirq kishi edi. Bori beklar va yigit-yalang bila so'zlashib, so'zni munga qo'ydukkim, Shayboniyxon Samarqandni yaqinda olib, hanuz el anga va ul elga ko'ngul to'xtatmaydurlar, ushbu fursatta bir ish qila olsak xud qilg'aybiz. Agar Samarqand qo'rg'onini shotu qo'yub o'g'urluq bila olsak, Samarqand eli xud bizningdur. Ne chorasi bor? Agar bizga madad qilmasalar, o'zbek uchun xud urushmag'ularidur. Samarqandni iliklagandin so'ng har ne tengrining xosti bo'lsa ul bo'lg'usidur.

Bu qaror bila namozi peshindin so'ng Yor yaylokdin o'tlanib, kecha tun qotib, yarim ke-

cha Xon yurtig'a yettuk. Ul oxshom el xabar-dor bo'lubtur deb qo'rg'onning yovug'ig'a kel-may. Xon yurtidin-o'q yonildi. Tong otib edi-kim, Raboti Xojadin quyiroq Ko'hak suyini ke-chib yana Yor yayloq kelduk. Bir kun Asfidak qo'rg'onida jami' ichkilar misli Do'st Nosir, Nuyon ko'kaltosh¹, Honquli Karimdod, Shayx Darvesh, Xisrav ko'kaltosh, Mirim Nosir bori hozir edilar, mening qoshimda o'lturub edilar. Har tarafdin so'z o'tar edi. Dedimkim: «Keling, aytingkim, tengri rost keltursa, Samarqandni qachon olg'aybiz?» – Ba'zi dedilarkim: «Yozg'a olg'aybiz», Ul mahal kech kuz edi. Ba'zi «bir oy-qirq kun», ba'zi «yigirma kun» dedilar. Nuyon ko'kaltosh dedikim: «O'n to'rt kunda olurbiz», Tengri rost kelturdi, rost o'n to'rt kunda-o'q Sa-marqandni olduk.

O'shul fursatta ajab tush ko'rdum. Tush ko'rarmankim, hazrati Xoja Ubaydullo kelmish-lar, men istiqbollarig'a chiqmishmen, Xoja ke-lib o'lturdilar. Xojaning olig'a g'olibo betakalluf-roq dastorxon solmishlar. Bu jihattin hazrat xotirig'a nima kelmish. Mullo Bobo mening sari boqib ishorat qiladur. Men ham imo bilan de-dimkim, mendin emastur. Dasturxon solg'uchi taqsir qilibtur. Xoja fahm qilib, bu uzr masmu' tushti. Qo'ptilar. Uzata chiqtim. Ushbu uyning dolonida o'ng qo'lumdin yo so'l qo'lumdin tutub andoq ko'tardilarkim, bir oyog'im yerdin qo'pti. Turkiy dedilarkim: «Shayx maslahat berdi». O'shul necha kunda-o'q Samarqandni oldim.

¹ Q. b. – «Qosim ko'kaltosh» bor.

Bir-ikki kundin so'ng Asfidak qo'rg'onidin Vasmand qo'rg'onig'a kelildi. Bovujudikim, bir qatla Samarqand navohisig'a borib, tuydurub kelib eduk, yana tengriga tavakkul qilib, o'shul xayol bila Vasmandtin namozi peshindin so'ng Samarqand ustiga ilg'aduk. Xoja Abulmakorim ham hamroh edi. Yarim kecha xiyovonning Puli Mag'okig'a yetib, yetmish-sekson o'bdon yigitlarni ilgari ayirdukkim, G'ori Oshiqon to'g'risidin shotu qo'yub chiqib kelib, Firuza¹ darvozasidag'ilarning ustiga yurub, darvozani iliklab bizga kishi yiborg'aylar.

Bu yigitlar borib G'ori Oshiqon to'g'risidin shotu qo'yub chiqibturlar. Hech kim tuymaydur. Andin Firuza darvozasig'a kelib Fozil tarxonkim ul, bek tarxonlardin emas, Turkistoniy savdogar tarxonlardin bo'lur. Shayboniyxong'a Turkistonda xizmat qilib, rioyat topib edi, ustiga yururlar. Fozil tarxonni bir necha navkari bila chopqulab o'tturub, darvozaning qulfini boltu bila chopib, darvozani ochtilar.

Ushbu fursatta men yetgan bila-o'q Firuza darvozasidin kirdim. Abulqosim ko'xbur o'zi kelmaydur edi. Inisi Ahmad Qosimni o'ttuz-qirqcha navkari bila yiborib edi. Ibrohim tarxonning kishisi xud yo'q edi. Shahrg'a kirib xonaqoqda o'lturg'onda Ahmad tarxon otliq inisi bir necha navkari bila keldi. Shahr eli hanuz uyquda erdilar. Do'kondorlar do'konlaridin boqib tanib duo qilurlar edi. Andak fursattin so'ng shahr eli xabardor bo'ldilar. Bizning elga va shahr eliga g'arib bashoshat va nash'a edi. Telba itlardek

¹ L. b. - hamma joyda «Piruza» shaklida.

o'zbeklarni ko'cha soillarda tosh va tayoq bila o'lturdilar. Taxminan to'rt-besh yuz o'zbekni ushbu dastur bila o'lturdilar erkin:

Shahr dorug'asi Jonvafo Xoja Yahyoning uy-larida edi, qochib chiqib Shayboqxon qoshig'a bordi. Darvozadin kirib madrasa va xonaqoh sari-o'q yurudum. Kelib xonaqohning toqining ustida o'lturdum. Tong otquncha tush-tush-din suron edi va g'avg'o edi. Ba'zi xabardor bo'lg'on arbob va do'kondorlar kelib, nash'a va bashoshatlar bila ko'rub, mohazari kelturub duolar qildilar.

Tong otqondin so'ng xabar keldikim, Ohanin darvozasida ikki darvozaning orasini o'zbeklar berkitib urushadurlar. Filhol otlanib Ohanin darvozasig'a mutavajjih bo'ldum. Mening bila o'n-o'n besh-yigirma kishi bo'lg'ay edi, el qallosh, yangi shahr ilikka tushubtur. Har kim kunjkovliqqa bir go'shada mashg'ul. Men yetguncha Ohanin darvozasidin o'zbeklarni shahr eli urub¹ chiqaribturlar. Shayboqxon bu xabarni topib, iztirob bila oftob chiqqanda yuz-yuz ellik kishi bila Ohanin darvozasig'a yetib keldi. G'arib qopuda kelib edi. Vale mening bila kishi ko'p oz edi, nechukkim, mazkur bo'ldi. Shayboqxon ko'rdikim, hech ish qila olmas, turmadi, bot-o'q yondi.

Andin yonib kelib, arkta Bo'stonsarog'a tush-tim. Akobir va ashrof va shahr ulug'lari meni kelib ko'rub, muborakbodlig'lar qildilar. Yuz qirq yilg'a yovuq Samarqand poytaxti bizning xonavodada edi. Qandagi yot yog'iy, o'zbek ke-

¹ L. b. - bu so'zlar yo'q.

lib mutasarrif boʻlub edi. Ilikdin ketgan mulkni yana tengri berdi. Gʻorat va toroj topgan viloyat tasarrufumizgʻa kirdi.

Sulton Husayn mirzo ham Hiriyni ushbu yoʻsunluq gʻofilliqta olibtur. Vale ish bilur kishi olida ravshan va insofliq el, qoshida mu-bayyandurkim, bu ish bila ul ish orasida koʻp farq bordur. Avval bukim, Sulton Husayn mirzo koʻp ishlar koʻrgan, bisyor tajribalar kechur-gan ulugʻ yoshliq podshoh edi. Ikkinchi bukim, gʻanimi Yodgor Muhammad Nosir mirzo edi, oʻn yetti-oʻn sekkiz yoshliq betajriba oʻgʻlon edi. Uchunchi bukim, gʻanimning ichidin kayfiyot va holotin bilgan kishi Mir Ali mirohur mirzogʻa kishilar yiborib, gʻofilliqta gʻanim ustiga keltur-di. Toʻrtunchi bukim, gʻanimi qoʻrgʻonda emas edi. Bogʻi Zogʻonda edi. Sulton Husayn mirzo olgʻon mahalda Yodgor Muhammad mirzo va tavobeyi andoq ichkulukka tushgan ekandur-larkim, ul kecha Yodgor Muhammad mirzoning eshigida uch kishi ekandur, alar ham mast. Beshinchi bukim, ul martaba gʻofilliqta-oʻq kel-di va oldi.

Men Samarqand olgʻonda, oʻn toʻqquz yosh-ta edim. Ne koʻp ish koʻrub edim, ne tajriba boʻlub edi. Ikkinchi bukim, mening gʻanimim Shayboqxondek purtajriba va koʻp ish koʻrgan va ulugʻ yoshliq kishi edi. Uchinchi bukim, bizga Samarqanda hech kishi kelmaydur edi. Agarchi shahr eli manga koʻngulluk edi, vale Shayboqxonning qoʻrqunchidin hech kishi bu xayolim qila olmas edi. Toʻrtunchi bukim, mening gʻanimim qoʻrgʻonda edi, ham qoʻrgʻon-

ni olildi, ham gʻanimni qochurildi. Beshinchi bukim, bir martaba Samarqand qasdigʻa kelib, gʻanimgʻa tuydurub, ikkinchi martaba kelganda tengri rost kelturdi, Samarqand fath boʻldi.

Bu degonlardin gʻaraz elga sangi kam urmoq emas, bayoni voqeyi bu edikim, mazkur boʻldi. Bu bitilganlardin maqsud oʻzini ortturmoq emas, rosti bu edikim, mastur boʻldi. Bu fathda shuaro tarixlar aytib edilar. Ul jumladin bir bayt xotirda qolibtur.

Bayt:

*Boz gufto xirad ki tarixash
Fathi Bobur bahodur ast, bidon.¹*

Samarqand fathidin soʻng Shovdor va Sugʻd va tumonot yovugʻi qoʻrgʻonlar birar-birar manga rujuʻ qila boshladilar. Baʻzi qoʻrgʻonlardin oʻzbek dorugʻalari tavahhum qilib, solib chiqtilar va baʻzi qoʻrgʻonlar oʻzbek kishisini qovlab bizga kirdilar. Baʻzi dorugʻalarni tutub qoʻrgʻonlarni berkittilar. Ushbu fursatta Shayboqxonning va oʻzbeklarining koʻch va uruqlari Turkistondin keldilar. Shayboqxon Xoja Diydor va Aliobod navohisida edi. Qoʻrgʻonlarning mundoq kirganlarini va elning bu navʻ rujuyini koʻrub, oʻlturgʻon yeridin Buxoro sari koʻchti. Tengri inoyati bila Sugʻd va Miyonkol qoʻrgʻonlari uch-toʻrt oyda aksar bizga rujuʻ qildilar. Boqi tarxon ham fursat topib kelib, Qarshi qoʻrgʻonigʻa kirdi. Xuzor va Qarshi ham oʻzbek

¹ Aql yana aytdiki, bilgil: uning tarixi «fathi Bobur bahodur» boʻlur. 905 (1499).

tasarrufidin chiqti. Qorako'lni ham Marvdin Abulmuhsin mirzoning kishisi kelib oldi. Ishimiz bisyor taraqqiy ustida bo'ldi.

Mening volidalarim va ko'ch va uruqlarim men Andijondin chiqq'andin so'ngra yuz tashvish va mashaqqatlar bila O'ratepa kelib edilar, kishi yiborib Samarqandg'a kelturduk. O'shul necha kunda Sulton Ahmad mirzoning qizi Oyisha Sulton begimdinkim, avval mening aqdi nikohimg'a kirgan bu edi, bir qiz bo'ldi. Faxrunnisog'a mavsum bo'ldi. Mening to'ng'uch¹ farzandim bu edi, ul tarixda men o'n to'qquz yoshta edim. O'shul bir oy qirq kunda-o'q tengri rahmatig'a bordi.

Samarqand fathidin so'ng karrot va marrot atrof va javonibdag'i havonin va salotin va umaro va sarhadnishinlarg'a istimdod va istionat uchun mutavotir va mutaoqib elchilar va tavochilar bordilar va keldilar. Ba'zi bovujudi tajribalar sahl inkorlik qildilar. Ba'zidinkim, nisbat bu tabakaga beadabliklar va noxushduklar voqe bo'lub edi, o'z tavahhumlaridin tag'oful qildilar. Ba'zilarkim, ko'mak yibordilar, mu'tadunbih ko'mak emas edi. Nechukkim, har qaysi o'z yerida mazkur bo'lg'usidur.

Bu ikkinchi navbat Samarqandni olg'onda, Alisherbek tirik edi. Bir navbat manga kitobati ham kelib edi. Men ham bir kitobat yiborib edim, orqasida turki bayt aytib, bitib yiborib edim. Javob kelguncha tafriqa va g'avg'o bo'ldi.

Shayboqxon Samarqandni olg'onda, Mullo Binoiyni mulozim qilib edi. Shayboqxon bila

¹ Q. b. - to'ng'ux. L. b. - tun (?).

edi. Samarqand fathidin necha kundin so'ngra Samarqandg'a keldi. Qosimbek andin badgumon bo'lub, Shahrsabz sari ruxsat berdi. Necha kundin so'ng chun fazilatliq kishi edi, gunohe sodir bo'lmaydur edi, Samarqandg'a kelturduk. Doim qasida va g'azal o'tkarur edi. Navoda bir amal mening oting'a bog'lab o'tkardi. O'shul asnoda bir ruboiy aytib o'tkardi:

Ruboiy:

*Ne g'alla maro k-azo' tavonam no'shid,
Ne muhmali g'alla to tavonam po'shid.
Onro ki na xo'rdanastu ne po'shidan,
Dar ilm-u hunar kujo tavonad ko'shid.¹*

Ul fursatlarda birar, ikkirar bayt aytur edim. Vale g'azal tugatmaydur edim. Birgina turki ruboiy aytib yibordim.

Ruboiy:

*Ishlar bori ko'ngulungdag'idek bo'lg'usidur,
In'om-u vazifa bori buyrulg'usidur,
Ul g'alla-u muhmalki deb erding, berdim,
Muhmalg'a bo'y-u g'alladin uy to'lg'usidur.*

Mullo Binoiy bu ruboiyning so'nggi misrasining qofiyasini radif qilib, o'zga qofiya bila bir ruboiy aytib o'tkardi:

*Mirzomki shohi bahr-u bar bo'lg'usidur,
Olamda hunar birla sar bo'lg'usidur.*

¹ Na yegulik g'allam bor va na kiyinishga asragan kiyim bor. Yeydigani, kiyadigani bo'lmagan kishi ilm va hunarga qanday urina olsin.

*Bir muhmal uchun muncha inoyat bo'ldi,
Musta'mal' agar desam, nelar bo'lg'usidur?*

Ul fursatta Xoja Abulbaraka Firoqiy Shahr-sabzdin Samarqandg'a kelib edi. Dedikim, o'shul radif va qofiyada aytmoq kerak edi. Bu ruboiyni Xoja Abulbaraka aytdi:

Ruboiy:

*Bu javrki qildi davr so'rulg'usidur,
Sultoni karam bu uzrni qo'lg'usidur.
To'kulgan agarchi to'lmas, ey soqiy,
To'kulgonimiz bu davrda to'lg'usidur.*

Bu qishliqta ishimiz bisyor taraqqiyda edi. Shayboqxonning ishi tanazzulda edi. Bu asnoda bir-ikki ish yaramasroq bo'ldi. Marvdin kelib Qorako'lni olg'onlar to'xtata² olmadilar. Qorako'l yana o'zbaklar tasarrufig'a kirdi. Qal'ayi Dabusida Ibrohim tarxonning Ahmad tarxon otliq inisi edi. Shayboqxon kelib qabadi. Biz cherik yig'ib iste'dod tayyor qilg'uncha, zo'rlab oldi. Elni tamom qatli om qildi.

Men Samarqandni olg'onda sapog'liq ikki yuz qirq kishim bor edi. Besh-olti oyning orasida tengri taoloning inoyati bila oncha bo'ldikim, Shayboqxondek kishi bila Saripulda masof urushtuk. Nechukkim, mazkur bo'lg'usidur.

Atrof va javonibdag'ildardin: xondin Ayyub Bekchik va Qashqa Mahmud va borinlar to'rt-besh yuz kishi ko'makka kelib edi. Jahongir

¹ L. b. – ma'qul.

² Q. b. – to'xtay.

mirzodin Tanbalning inisi Xalil yuz-ikki yuz kishi bila ko'makka kelib edi. Sulton Husayn mirzodek sohib tajribalik podshohdinkim, Shayboqxonning af'ol va atvorini mirzodin yaxshiroq kishi bilmas edi, hech kishi ko'makka kelmadi. Badiuzzamon mirzodin ham kishi kelmadi. Hisravshoh xud o'zining tavahhumidin kishi yibormadi. Chun bemiqdor yamonliqlar andin nisbat bu xonavodag'a voqe bo'lub edi, nechukkim, mazkur bo'ldi, bizdin qo'rqunchi ko'prak edi.

Shavvol oyida Shayboqxon bila urushmoq doiyasi bila safar qilib, Bog'i Navg'a chiqtim. Besh-olti kun Bog'i Navda cherik yig'ilmoq va iste'dod tayyor bo'lmoq maslahati uchun o'lturuldi. Bog'i Navdin o'tlanib ko'ch-barko'ch mutavajjih bo'lduk. Saripuldin o'tub tushtuk, o'rdu girdini tamom shoh, xandaq bila ehtimom va ehtiyot qilib mazbut qilduk. Shayboqxon naridin kelib, Xoja Kordzan navoqisig'a tush-ti. Ora taxminan bir yig'och bo'lg'ay edi. To'rt-besh kun bu yurtga o'lturuldi. Bizning kishimiz va yog'iy kishisi kunda naridin kelib, beridin borib, otqulashib urushurlar edi. Bir kun g'anim kishisi ko'prak keldi. Xeyli urush bo'ldi. Hech tarafdin ortuqsiliq bo'lmadi. Bizning bir tug'luq kishi yengilrak yonib xandaqqa kirib-tur. Ba'zi Seydiy Qarobekning tug'i edi, dedilar. Seydiy Qaro agarchi so'ziga o'z edi, qilichig'a zabunroq¹ edi.

Ushbu avqotta bir kecha Shayboqxon shabixun keldi. Cherik girdini shox² va xandaq bila

¹ L. b. – xulyo (لؤلؤ)

² Q. b. – shoxband.

mustahkam va mazbut qilini edi, kelib hech ish qila olmadi. Xandaqning toshidin suron solib, bir pora o'q qo'yub yondilar. Urush ishiga men sa'y va ehtimom qildim. Qanbar Ali ham soiy edi. Boqi tarxon ming-ikki ming yarog'liq kishi bila Keshga tushubtur, ikki kunda bizga qo'shulur. Sayid Muhammad mirzo do'g'lat ham xon dodam qoshidin ko'mak kelib, ming-ming besh yuz kishi bila Diyul tushubtur, ora to'rt yig'och yo'ldur. Sabohig'a bizga qo'shulur. Ushmundoq mahalda ta'jil qilduk, urushtuk.

*Ba tundi sabuk dast burrad ba teg',
Ba dandon gazad pushti dasti dareg'.¹*

Mening ehtimomimning jihati bu edikim, urush kuni sekkiz yulduz oraliqta edi, agar ul kundin o'tsa o'n uch-o'n to'rt kungacha sekkiz yulduz g'anim orqasi sari bo'lur edi. Ul mulohazalar hech ekandur. Betaqrib ta'jil qilibturbiz. Sabohi urush doiyasi bila jibalanib, otlarg'a kejjim solib, burong'or, juvong'or, g'ul, irovul yasol yasab mutavajjih bo'lduk. Burong'or Ibrohim copy, Ibrohim joniy, Abulqosim ko'hbur yana ba'zi beklar edi. Juvong'or Muhammad Mazid, Ibrohim tarxon yana Samarqand beklaridin Sulton Husayn arg'un, Qaro barlos, Pir Ahmad, Xoja Husayn edi. G'olda Qosimbek va yana ba'zi yovuq ichkilar edi. Irovul Qanbar Ali sallox, Barda Ali, Xoja Ali, Mirshoh qavchin, Sayid Qosim eshikog'a, Xoldor, Banda Alining

¹ Yengiltak achchig'langanda tig' bilan qo'lin kesar, so'ngra afsus qo'li orqasin tish bilan chaynar.

inisi Qo'ch Haydar Qosimbekning o'g'li: bo'lg'on o'bdon yigitlarni va ichkilarni tamom irovulg'a bitilib edi.

Bizkim yasob chiqtuk, g'anim ham o'trudin yasob paydo bo'ldi Burong'or Mahmud Sulton, Jonibek Sulton, Temur sulton, juvong'or Hamza sulton, Mahdi sulton, yana ba'zi sultonlar edi. Yasollar yovuq yetgach, g'animning burong'orining uchi bizning orqamiz sari buruldi. Men ham yuzumni alar sari qildim. Bizning irovulkim, nekim bo'lg'ay, ish ko'rgan, qilich chopqon yigitlarni tamom irovulg'a bitilib edi, o'ng qo'l sari qoldi. Olimizda hech kishi qolmadi. Bovujudkim, ilgari kelgan kishilarni urub, yondurub, g'ulg'a tiqduk. Anga yettikim, Shayboqxonning ba'zi qari ulug'lari Shayboqxong'a debturlarkim, yurumak kerak, turmokdin ish o'tti. O'zi to'xtab turubtur.

G'animning burong'ori bizning juvong'orimizni bosib orqag'a evruldi, irovul ham o'ng qo'l sari qolib, olimiz yalang bo'ldi. Keyindin va ilgaridin g'anim kishisi zo'rlab o'q qo'ya kirishti.

Mo'g'ul cherikikim, ko'makka kelib edi, urushqa xud toqatlari yo'q edi. Urushmoqni qo'yub bizning elni-o'q talab, ottin tushura kirishtilar. Bir bu emas, hamisha badbaxt mo'g'ulning odati ushmundoqtur. Bossa ham o'lja olur, bostur-sa ham o'z elini talab tushurub o'lja olur.

Olimizdag'ilarni necha navbat zo'rlab kelganda urub yondurduk. Ilgarimiz ham zo'rladi, keyin evrulgan kishi ham kelib bizning tug'qa o'q qo'ya kirishtilar. Ilgaridin, keyindin zo'rladilar. Bizning elni tebrattilar.

O'zbekning urushta bir uluq hunari ushbu to'lg'amadur, hech urushi to'lg'amasiz bo'lmas. Yana bir budurkim, ilgari va keyin bek va navkar tamom o'q qo'yub jilovluq keladurlar, yong'onda ham parishon yonmay jilovluq¹ yonadurlar.

Mening bila o'n-o'n ikki kishi qolib edi. Ko'hak daryosi yaqin edi. Burong'orning uchi daryog'a to'qunub edi. Daryo sari-o'q, torttuk. Ko'hak daryosining kirgan mahalli edi, daryog'a yetgan bila jibaliq, kechimlik-o'q suvg'a kirduk. Yari-midin ko'prak yayab-o'q kelildi. Andin so'ngra uzdurma² edi. Bir tirgaz otimi yer jibaliq, ke-jimlik ot uzdurub o'ttuk. Suvdin o'tgach ke-jim-ni kesib tashladuk. Suvdin shimol sarig'akim o'tuldi, yog'iydin ajrashtuk. Vale yakka-yarim-ni talab tushurguchi, yalangochlag'uchi tamom bu shum mo'g'ul edi. Ibrohim tarxonni va yana xeyli o'bdon-o'bdon yigitlarni mo'g'ul talab ot-tin tushurub zoye' qildilar. Ko'hak daryosi-ning timol tarafi bila Qulba navohisidin Ko'hak daryosini kechtuk.

Ikki namoz orasi bor edikim, Shayxzoda darvozasidin kirib arkka keldim. Ulug'ulug' beklar va yaxshi-yaxshi yigitlar, qalin kishi bu urushta talaf bo'ldi. Ibrohim tarxon va Ibrohim soru va Ibrohim joniy, bu g'aribturkim, bir urushta uch Ibrohim otliq ulug' beklar talaf bo'ldi. Yana Abulqosim ko'hbur, yana Haydar Qosimbekning ulug' o'g'li Xudoyberdi tug'chi va Xudoyberdi barlos va Sulton Ahmad Tan-

¹ Q. b. – Parishon yamon jilovsiz. (?)

² Uzdurma (suzdurma) – ya'ni suzib o'tiladigan chuqur yer.

balning inisi Xalilkim, burunroq necha qatla mazkur bo'lib edi, bu urushta talaf bo'ldilar. Yana ba'zilar har sarig'a qochtilar. Ul jumladin Muhammad Mazid tarxon Xisravshohg'a Hisor va Qunduz sari bordi. Yana Qanbar Ali sallox mo'g'ulkim, ulug' rioyat qilg'on begimiz ul edi, muncha rioyat topib edi, mundoq mahalda hamjihatliq qilmay, kelib Samarqandtin ko'chini olib, bu ham Xisravshohg'a bordi. Yana ba'zi ichkilar va yigitlar, misli Karimodod, Xudoydod turkman va Jonika ko'kaltosh va Mullo Boboyi Pashog'ariy O'ratepa sari chiqtilar. Ul fursatta Mullo Bobo navkar emas edi, mehmon yo'sunluq yurur edi. Yana ba'zilar, misli Shirim tag'oyi jamoati bila bovujudkim, bizning bila Samarqandg'a kirdi, mashvarat qilib o'luktirikni Samarqand qo'rg'onining ichida ko'rub, qo'rg'onni berkitmak bo'lduk. Mening onam egachisi, singli qo'rg'onda turub, bo'lg'on ko'ch va uruq va kishi-qarosini O'ratepaga chiqorib yiborib, o'zi bir necha kishi-qarosi bila jarida qo'rg'onda turdi. Bir bu emas, doim mundoq qattiq ishlar tushganda mundoq yupqaliq va nohamjihatliqlar andin sodir bo'lg'ondur.

Tonglasig'a Xoja Abulmakorim va Qosimbek va jami' beklar va ichkilar va so'z tegar yigitlarni charlab mashvarat qilib, so'zni qo'rg'onni berkitmakka va o'luk-tirikni qo'rg'on ichida ko'rmakka qo'yduk. Men va Qosimbek va yovug'umdagi ichkilar va yigitlar bila ko'mak bo'lduk. Bu maslahat uchun shahrning o'rtasida Ulug'bek mirzoning madrasasining tomining ustida oq uy tikib o'lturdum. O'zga beklarga va

yigitlarga darvozalarda va girdo-gird qal'aning fasilida buljorlar uloshildi.

Ikki-uch kundin so'ng Shayboqxon kelib qo'rg'ondin yiroqroq tushti. Samarqandning mahalla-mahalla, ko'y-ko'y avbosh va yatimlari favj-favj yig'ilib, yatimona salavotlar chekib, madrasa eshigiga kelib, urushg'a chiqarlar edi. Shayboqxon urushqakim otlatur edi, qo'rg'onning yovug'ig'a ham kela olmas edi. Necha kun bu vatira bila o'tti. O'q va qilich zaxm zarbini va masof va maydon qitol va harbini ko'rmagan avbosh va aytom bu muomaladin daler bo'lub yiroq-yiroq chiqa kirishtilar. Ish ko'rgan yigitlar mundoq besirfa chiqishlaridin man' qilsalar, ta'n qila kirishtilar.

Bir kun Shayboqxon Ohanin darvozasi sari urush kelturdi. Yatimlar chun daler bo'lub erdilar, doimg'idek daler va yiroq chiqtilar. Bularning orqasig'a ba'zi yigitlarni otliq chiqorildi. Ushturgardan tarafida ko'kaltoshlar va yovuq ichkilar chiqib erdilar, misli Shirim, Nuyon ko'kaltosh, Qulnazar tag'oyi va Mazid va ba'zilar, andin bir-ikki-uch o'zbek bularg'a ot soldi. Qulnazar bila qilich olishtilar. Bo'lg'on o'zbeklar yayoqlab zo'r kelturdilar. Shahr yatimlarini tebrattilar. Ohanin darvozasig'a tiqtilar. Qo'chbek va Mirshoh qavchin Xoja Xizr masjidining yonida tushub qoldilar. Yayoqlarni tebratgan bila ilgarigi otliqlari Xoja Xizrning masjidig'a yig'ilib keldilar. Qo'chbek chiqib, ushbu ilgari kelgan o'zbeklar bila yaxshi chopqullashib namoyon ish qildi. Bori el boqib turub edi, quyig'i qochqonlar xud qochmoqlari bila-o'q

bo'lub edilar. O'q otardin va urushqa turardin ish o'tub edi. Men darvozaning ustidin novak otadur edim. Yana ba'zi yovug'umdag'ilar o'q otadur edilar. Yuqqorig'i o'qning zarbidin Xoja Xizr masjididin ilgari o'ta olmadilar. O'shanning-o'q yondilar. Muhosara ovonida qo'rg'on fasilining ustida har kecha yurur eduk. Gohi men, gohi Qosimbek, gohi yana beklardin va ichkilardin evrulurlar edi. Firuza darvozasidin Shayxzoda darvozasig'acha fasil ustidin ot bila yurusa bo'lur edi. O'zga yerlarda yayoq yurulur edi. Ba'zilarkim, yayoq yurub evrulurlar edi, bir evrulguncha tong otar edi.

Bir kun Shayboqxon Ohanin darvozasi bila Shayxzoda darvozasi orasida urush kelturdi, menkim ko'mak edim, urush munda bo'lg'och munda keldim. Gozuriston darvozasi bila So'zangaron darvozasi tarafidin parvo qilmaduk. Ul kuni Shayxzoda darvozasining ustidin o'q uchida bir bo'z otliqning otini novak o'qi bila yaxshi ottim. O'q bila-o'q bordi. Bu oraliqta oncha zo'r kelturdilarkim. Ushturgardan navohisida fasilning tubigacha keldilar. Biz munda xarbu zarbqa mashg'ul, ul tarafdin tamom g'ofil: yigirma besh-yigirma olti kishi shotu tayyor qilg'on ekandurlarkim, har shotuning kengligi onchakim uch kishi, ikki kishi yondasha chiqa olg'ay. Yetti-sekkiz yuz o'bdon yigitlarni bu shotular bila Gozuriston darvozasi bila So'zangaron darvozasining oralig'i to'g'risi pustura¹ qo'yub, o'zi ul tarafdin urush solg'on ekandur. Eli tamom bu taraf urushqa mashg'ul

¹ *L. b.* – bo'sag'a.

bo'lub, buljor xoli bo'lg'on mahalda pusqon yerdin chiqib, ildam kelib, bu shotularni ikki darvozaning oralig'i Muhammad Mazid tarxonning havlisining to'g'risidin bir yo'li o'q fasilg'a qo'yarlar.

Ko'chbekning¹ Muhammadquli qavchinning yana bir bo'lak yigitlarning buljori bu yer edi. Bu yigitlar Muhammad Mazid tarxonning havlisida bo'lurlar edi. So'zangaron darvozasi Qaro barlosning buljori edi. Gozuriston darvozasi Shirim tag'oyining va og'a-inisining va Qutluq Xoja ko'kaltoshning buljori edi.

Qo'chbek, Muhammadquli qavchin, Shoh So'fi, yana bir yigit yaxshilar borib mardonaliglar qildilar. Fasil ustiga yog'iy kishisi ba'zi chiqib edilar, ba'zi chiqmoqta edilar. Bu mazkur bo'lg'on to'rt kishi yugurib yetib chopqulasha zarbi rost ura yurub, tushurub qochurdilar. Boridin Qo'chbek yaxshiroq bordi. Qo'chbekning birpisandida va namoyon ishi bu edi. Bu muhosarada ikki qatla xo'blar iligi ishga tegdi. Qaro barlos ham So'zangaron darvozasi buljorida yolg'uz qolib edi, ul ham yaxshi to'xtadi. Qutluq Xoja ko'kaltosh va Qulnazar mirzo ham buljorlarida Gozuriston darvozasida edilar. Alar ham oz kishi bila yaxshi to'xtab, ko'ndalangdin yaxshilar otquladilar. Yana bir navbat Qosimbek yigitlarni boshlab So'zangaron darvozasidin chiqib o'zbaklarni Xoja Kafshirgacha qavlab, bir necha kishi tushurub bosh kesib keldi. Oshliq emdi pishgan chog' edi, hech kim yangi oshliq kiyurmaydur edi.

¹ L. b. – bu joylari tushgan.

Muhosara ayyomi mumtad bo'ldi. Elga bisyor tanqisliq bo'ldi. Anga yettikim, faqir va miskin it etini, eshak etini yiya kirishtilar. Otqa bo'g'uz kam yoft bo'ldi. Daraxtlarning bargini otqa berurlar edi. Anda tajriba bo'ldikim, bori yafroqlardind tut yafrog'i va qaro yig'och yafrog'i otqa sozvorroq emish. Ba'zi quruq yig'ochlarni randa qilib, taroshasini suvg'a ibitib otg'a berurlar edi. Uch-to'rt oyg'acha Shayboqxon qo'rg'onning yovug'ig'a kelmay, iroqroqdin qo'rg'onni evrulub ko'chib yurur edi.

Bir oxshom el g'ofil yarim kechag'a yovuq Firuza darvozasi tarafida kelib, naqora cholib suron soldilar. Men madrasada edim, Bisyor taraddud va dag'dag'a bo'ldi. Mundin so'ng har kecha kelib, naqora cholib suron solib, g'avg'o qilur edilar.

Har necha atrof va javonibqa elchilar va kishilar yiborildi, hech kimdin ko'mak va madade yetishmadi. Ul mahaldakim, zo'r va quvvatimiz bor edi, hech nav' shikast va nuqsone bo'lmaydur edi. Ko'mak va madad qilmadilar va mundoq mahalda xud ne hisob bilan madad qilg'aylar. Bularning umidi bila qabalda qal'adorliq qilmoq betaqrib ekandur.

Burung'ilar debturlarkim, qo'rg'on berkitmaklikka bosh kerak, ikki qo'l kerak, ikki but kerak: bosh sardor bo'yag'ay. Ikki qo'l ikki tarafdin kelur ko'mak va madad bo'lg'ay, Ikki but qo'rg'onning suyi bila zaxirasi bo'lg'ay. Biz bu atrof javonibdagi'lardind ko'mak va madad ko'z tutarbiz, bular xud har qaysi bir o'zga xayolda.

Sulton Husayn mirzodek mardona va sohib tajriba podshoh bizga madad qilmay va ko'maklar berib, elchi yibormay, Shayboqxon¹ga Kamoliddin Husayn Gozurgohiy²ni muhosara ovonida elchilikka yibordi.

Tanbal Andijondin Pisket¹ navohisig'a keldi. Xonni ham Ahmadbek va jami' Tanbalning muqobalasig'a chiqordilar. Lak-lakon va Turak² chorbog'i navohisida ro'baro' bo'ldilar. Urush, turush bo'lmay, ajrashtilar, Sulton Mahmudxon urush kishisi emas edi. Sipohiylikdan bisyor oriy edi. Tanbal bila o'tru bo'lg'on chog'xondin bedilona aqvol va af'ol zohir bo'lur. Ahmadbek turk kishi edi, vale mardona va davlatxon edi, G'arib durusht aytur, derkim, bu Tanbal ne miqdor kishidurkim, muncha dag'dag'a va taraddud tortarsiz. Agar ko'zungiz qo'rqsa, ko'zingizni bog'lab yurub ro'baro' bo'laling.

¹ Q. b. – Beshkent (بشکنت)

² Q. b. – To'lak (تولاک)

VAQOYEYI SANAYI SAB' VA TIS'A MIA¹

Muhosara imtidodi uzoqqa tortti. Zaxira va uzoq hech tarafdin kelmadi. Ko'mak va madad hech jonibdin yetishmadi. Sipohi va raiyat navmid bo'lib, birar, ikkirar qo'rg'ondin tashlab gocha kirishtilar. Shayboqxon qo'rg'on elining ojizlig'ini anglab, kelib G'ori Oshiqon navohisida tushti. Men ham Shayboqxonning ro'baro'yig'a Ko'yi Poyonda Malik Muhammad mirzoning uy-lariga keldim. Ushbu kunlarda Uzun Hasan Xoja Husaynkim, Jahongir mirzoning yog'iyilig'ig'a va Samarqanddin chiqmog'imizg'a ul bois bo'lub edi, nechukkim burun mazkur bo'ldi², o'n-o'n besh navkari bila kelib qo'rg'ong'a kirdi. Bu kirishi xeshli mardona kirish edi. Sipohi va shahriyg'a usrat va tanqis ko'prak bo'ldi. Yovuq kishilar va mu'tabar kishilar fasildin tashlab gocha kirishti. Bek otog'liqdin bir Vays Shayx, Vays Log'ariy bayri edilar, qochib tushtilar. Atof va javonibtin bilkul ma'yus bo'lduq. Hech tarafdin umidvorliq, qolmadi. Ozuq va zaxira kam edi. Bo'lg'oni ham tugandi. Hech tarafdin ozuq va zahira kelmadi.

Bu mahalda Shayboqxon sulh so'zini ora-g'a soldi. Agar bir tarafdin umidvorlig' bo'lsa, yo zaxira bo'lsa, sulh so'ziga kim quloq solur erdi. Zarurat bo'ldi, sulhguna qilib, kechadin ikki nakr bo'la yovushub edikim, Shayhzo-

¹ To'qqiz yuz yettinchi (1501–1502) yil voqealari.

² Q. b. – Jahongir mirzo yog'iyilig'ida ul bois bo'lub, bizni Samarqanddin chiqorib erdi va yana nechog'liq fitna va fasod andin zohir bo'lub erdiki, mundin burun mazkur bo'lubtur holo.

da darvozasidin chiqildi. Volidam xonimni olib chiqtim. Yana ikki xotun kishi chiqti: biri Bechka xalifa edi, yana biri Minglik ko'kaltosh edi. Mening egachim Xonzoda begim ushbu chiqqonda Shayboqxonning iligiga tushti. Sug'dning ulug' shox-jo'ylarig'a qorong'u kechada urunub yo'l it-urub yuz tashvish bila tong otqonda Xoja Diydordin o'tub, sunnat vaqtida Qarbug¹ pushtasig'a yormoshtuk. Qorbug' pushtasining shimolidin Xudak kentining² oyog'i bila Ilon O'tini tuslab tebraduk. Yo'lda borurda Qanbar Ali va Qosimbek bila ot tortishtuk. Mening otim o'tti aning otining qolg'onini boqar xayol qilib qayrildim. Tang bo'shab ekan-dur, egar evruldi.³ Boshim bila yerga yiqildim, agarchi ushul zamon qo'pub otlandim, vale aqlim oxshomg'acha qarorig'a kelmadi. Bu olamda o'tgan vaqoye tush va xayoldek ko'zumga va ko'nglumga ko'runur va kechar edi.

Kech namozi digar Ilon O'tida tushub, ot o'lturub etini shishlab, kabob qilib, otni lahza tindurub otlanduk. Tongdin burunroq Xaliliya kentiga⁴ kelib tushtuk. Haliliyadin Dizak⁵ kelildi, ul fursatta Dizakta Hofiz Muhammadbek do'ldoyning o'g'li Tohir do'ldoy edi. Semiz etlar va mayda etmaklar arzon, chuchuk qovunlar va yaxshi uzumlar farovon. Andoq usrattin

¹ Q. b. – Qorpuq.

² Q. b. – Xubkant (L. b. da (خوبکانت) yozilgan, xato bo'lsa kerak).

³ Q. b. – orqamga qaytib boqtimki, ularning oti nachog'liq keyin qolib ekin, qiyshayib boqarimda otimning oyli uzulub, egari o'rguldi.

⁴ Q. b. – Ulug' Xalil.

⁵ Q. b. – Dizaq.

mundoq arzonliq va andoq baliyattin mundoq amonliqqa kelduk.

*Vahmu¹ usrattin amone toptuq,
Yangi jon, toza jahone toptuq.*

O'lum dag'dag'asi xotirdin raf' bo'lib, ochliq shiddati eldin daf' bo'ldi. Umrumuzda muncha farog'at qilmaydur eduk. Muddatulumr amonlig' va arzonlig' qadrini muncha bilmaydur eduk. Ishrat usrattin so'ng, farog'at mashaqqattin keyin lazzatliqroq va yaxshiroq ko'runur. To'rt-besh navbat ushmundoq shiddattin rohatqa va mashaqqattin farog'atqa muntaqil bo'lubtur. Avvalgi navbat bu edi. Mundoq dushman balosidin va ochliq ibtilosidin xalos bo'lub, amonlig' rohatig'a va arzonlig' farog'atig'a yetushtuk. Uch-to'rt kun Dizakta istirohat qilduk. Andin so'ng O'ratepa sari azimat qilduk. Pashog'ar bir nima yo'ldin qaqasroqtur, chun muddati anda bo'lub edim, o'tub borurda, borib ani sayr qildim.

Pashog'arning qo'rg'onida otun kim, muddati madid mening onam xonimg'a mulozamat qilur edi, bu navbat uloqsizliqtin Samarqandta qolib edi, uchray tushti, ko'rushtum, so'rдум. Samarqanddin bu yerga yayoq kelibtur. Mening onam xonimning singli Xo'b Nigorxonim olami foniyni vido' qilg'an ekandur. O'ratepada xonimg'a va menga eshitturdilar. Mening otamning onasi ham Andijonda vafot qilg'on ekandur, ani ham munda eshitturdilar.

¹ Q. b. - Furud.

Xonim xon bobom shunqor bo'lg'oli onalari, inilari, singillarim, Shohbegim va Sulton Mahmudxon va Nigorxonim va Davlat Sultonxonim bo'lg'aylar, ko'rmaydurlar edi. Muforaqat imtidodi o'n uch-o'n to'rt yilga tortib edi, tuqqonlarni ko'rgali Toshkandg'a mutavajjih bo'ldilar.

Men Muhammad Husayn mirzo bila so'zlashib, O'ratepaning kentlaridin Daxkat¹ degan yerda qishlamoq bo'ldum. Borib uruqni Daxkatda qo'yub, bir necha kundan so'ng Shohbegimni va xon dodamni va urug'-qayashni ko'rgali men ham Toshkand azimati qildim. Borib Shohbegim va xon dodamg'a mulozamat qilib, bir necha kun anda bo'ldum. Mening onamning tuqqon egachisi Mehr Nigorxonim ham Samarqanddin keldilar. Mening onam xonim behuzur bo'ldilar, xeyli yamon behuzurluq edi. Mahkam muxotara o'tkardilar.

Hazrati Xojago Xoja Samarqanddin chiqib kelib, Farkatta o'turub edilar. Farqatqa borib Xojani ko'rdum. Umidvor edimki, xon dodam rioyat va inoyat maqomida bo'lub, viloyat va pargana bergaylar. O'ratepani va'da qildilar. Muhammad Husayn mirzo bermadi. Bilmon o'zluqidin bermadimu yo yuqqoridin ishorat bo'ldimu?

Necha kundan keyin Daxkat O'ratepaning ko'hpoya kentlaridindur, ulug' tog'ning tubida tushubtur, bu tog'din o'tgach Mascho² bo'lor. Eli agarchi sort va dehnishindur, vale atrokdek gala va ramaliq ellardur. Daxkatning qo'yini qirq

¹ Q. b. – Dehkat دهکات

² Q. b. – Masixoy viloyati.

ming chenarlar edi. Bu kentta raoyoning uylariga tushtuk. Men bir kalontarining uyiga tushtum, qari kishi edi, oltmish-etmishda¹ bor edi, vale onasi hanuz bor edi. Xeyli umr topqon xotun edi, yuz o'n bir yoshda edi. Temurbek Hindustong'a kirganda bu xotunning uruq-qayashidin biri ul cherikka borib ekandur. Ul xotirida bor edi, hikoyat qilur edi. Bir Daxkatda ushbu xotunning o'zidin tuqqon va nabira va qiz nabira va nabirayi nabira to'qson olti kishi hozir edi. O'lganlari bila ikki yuz hisob qilurlar edi. Nabirasining nabirasi bir yigit yigirma besh-yigirma olti yoshlar, qop-qora saqolliq yigit edi.

Daxkatda ekanda Daxkatning gird va navohisidagi tog'larni hamisha yayoq yurub, sayr qilur edim. Aksar yalang oyoq yurur edim. Yalang oyoq ko'p yurgandin oyoqlarim andoq bo'lub edikim, tog' va tosh tafovut² qilmas edi. Ushul sayr asnosida bir kun namozi digar bila namozi shom orasida bir inichka nomushaxxas yo'l bila bir o'y tushub boradur edi. Men dedimkim, bu yo'l qayong'a borur ekin? O'yg'a ko'z soling, o'yni iturmang, to yo'lning qay sari chiqari ma'lum bo'lg'ay. Xoja Asadullo zarofate qildi, dedimkim³: «Gov gum shavad, chikor kunem?»⁴

¹ Q. b. – yetmish-sekson.

² Q. b. – ta'sir.

³ Q. b. – bir ingichka yo'l bila bir kishi bir o'quz olib boradur edi. Men so'rdumki, bu yo'l qayda borur? Ayttikim, o'quzg'a qoralang, dev turmang, to qayda borg'ay. Bu so'zni eshitib, Xoja Asadullo zarofat qildi, dedikim, agar o'quz itsa, na qilurbiz?

⁴ Agar ho'kiz yo'qolsa, nima qilamiz? Yoki govgum bo'lsa, ya'ni qorong'u tushib qolsa nima qilamiz? Bu yerda «govgum»ning ikkala ma'nosiga ham ishorat qilib lutf qilingan.

Ushbu qish sipohilardin ba'zisi bizning bila qazoqliqlarda yuruy olmay. Andijong'a bormoqqa ruxsat tiladilar. Qosimbek mubolag'alar bila arzg'a yetkurdikim, chun bu kishi boradur. Jahongir mirzog'a maxsusona o'z kiyganingizni yiboring. Bir os bo'rkumni¹ yibordim. Qosimbek yana mubolag'a qildikim, Tanbalg'a ham bir nima yiborsangiz ne bo'lg'ay? Agarchi rozi emas edim. Qosimbekning mubolag'asi jihatidan Nuyon ko'kaltoshning bir o'guq yassi qilichinikim Samarqandta o'zi uchun yasatib edi, Tanbalg'a yiborildi. Mening boshimg'a tekkan qilich ushbu qilich – o'q edi, nechukkim kelur yilning vaqosida mazkur bo'lg'usidur.

Necha kundin so'ng mening ulug'onam Esan Davlatbegimkim, men Samarqanddin chiqqonda qolib edilar. Samarqandta qolg'on ko'churug' va och va oruq bila keldilar. Ushbu qish o'rtasida Shayboniyxon² Xo'jand so'yini muz bila kechib, Shohruxiya va Piskent³ navohisini chopti. Xabar kelgach kishimizning' ozlig'ig'a boqmay, chopa otlanduq. Xo'jandning quyig'i kentlari Hashtiyak to'g'risi bila mutavajjih bo'lduk. Mahkam zarb sovuq edi. Bu navohida Hodarvesh yeli o'ksumas, hamisha tund qo'par. Ul martabada sovuq edikim, ushul ikki-uch kunda ikki-uch kishi bu orada sovuqning shiddatidin o'lub edi. Manga g'uslg'a ehtiyoj edi. Bir ariq suyidakim yoqalari qalin muz to'ngub edi, o'rtasi suvning tezligi jihatidin yax bog'lamay-

¹ Q. b. – bir kiygan taqiyamni.

² L. b. – Shohbiqxon.

³ L. b. – Piskent (–) Q. b. da Beshkent (بشکنت، بيش گنت) Tarjimalarda Bishkent.

dur edi, bu suvg'a kirib g'usl qildim. O'n olti qatla suvg'a cho'mdum. Suvning sovuqlig'i xeyli ta'sir qildi.

Tonglasi Ho'jand suyini Xoslar to'g'risidin muz ustidin o'ttuk. Suvdin o'tub tunqatib, Piskentga kelduk.

Shayboqxon xud Shohruxiya navohisini – o'q chopib yong'ondur. Ul fursatta Piskent Mulla Haydarning o'g'li Abdulmannonda edi. Abdulmannondin kichikrak Mo'min otliq bir yaramas va parishon o'g'li men Samarqandda ekanda mening qoshimg'a kelib edi, filjumla rioyat qilib edim. Bilmon Nuyon ko'kaltosh Samarqandda aning bila netavr yamon maosh qilur, bu...¹ kiy-na saxlab ekandur. O'zbek chopg'unchisining yonilg'on xabari kelgach, xon qoshig'a ketti.

Piskenttin ko'chub Ohangaron kentlarida uch-to'rt kun tavaqquf qilduk. Samarqanddag'i oshnolik bila mulla Haydarning o'g'li Mo'min Nuyon ko'kaltoshni va Ahmad Qosimni, yana ba'zilarni og'izlag'oni² chorlar, monkim Piskenttin ko'chtum, bu jam' Piskentta qoldilar. Bu jamoatqa bir jar yoqasida suhbat berur. Biz kelib Ohangaron kentlaridin Som-siyarak³ degan kentga tushtuk. Tonglasi xabar keldikim, Nuyon ko'kaltosh jardin mastliqta yiqilib o'libtur. Haqnazarnikim, Nuyonning tuqqan tag'oyisi edi, yana bir jam'

¹ L. b. – Nuqtalar o'rnida uyat so'kish so'z ishlatilgan. Q. b. «muxlik» deyilgan.

² L. b. – og'irlag'oni (to'g'risi og'izlag'oni bo'lishi kerak). Q. b. taom yegali.

³ Q. b. – Som-sarak (hamma yerda).

bila yiborildi, borib Nuyonning yiqilgan yeridin topib, ehtiyot qilib, Nuyonni Piskentga tufroqqa topshurub keldilar. Bular suhbat tutqon yerdin bir o'q otimi bir baland jarning ostida Nuyonning o'lugini topibdurlar. Ba'zig'a gumon bo'ldikim, Samarqanddag'i kiynani saxlab, Mo'min Nuyong'a qasd qildi, tahqiqini kishi bilmadi. Manga g'arib ta'sir qildi, kam kishining favtig'a muncha mutaassir bo'lub edim. Bir hafta-o'n kungacha hamisha yig'lardim. Favtining tarixi «favt shud Nuyon¹» topildi.

Necha kundin so'ng yonib Daxkatga keldim. Yoz bo'la Shayboqxonning O'ratepa ustiga kelur nabari bo'ldi. Daxkat tua yer uchun Obburdan daboni bila Mascho² ko'histonig'a oshuk. Maschoning quyig'i kenti Obburdandur. Bu Obburdandin quyiroq bir chashma tushubtur, bu chashma boshida mazoredur. Ushbu chashmadin yuqqori Mascho doxilidur. Quyi Palg'arg'a taalluqdur. Ushbu chashma boshida, chashma yoqasidag'i toshida qazib, bu uch baytni sabt ettim:

*Shunidam ki Jamshedi farrux sirisht
Bu sarchashmas bar sange navisht:*

*«Barin chashma chun mo base dam zadand,
Biraftand to chashm barham zadand.*

¹ «Favt shud Nuyon» (vafot qildi Nuyon) *فوت شد نويون* «Abjad hisobi»da – hijriyda 907-yil.

² Q. b. – hamma yerda Masixoy.

*Giriftem olam ba mardi-yu zo'r,
Va lekin naburdem bo xud ba gur¹.*

Ul ko'histonda bu rasmdurkim, toshqa qazib abyot va nimalar bitirlar. Ushbu Maschoda ekanda Mullo Hijriy shoir Hisor tarafidin kelib mulozamat qildi. Bu matla'ni ushul ayyomda aytib edim:

*Takalluf har necha surat tutulsa ondin
ortuqsen,
Seni jon derlar, ammo betakalluf jondin
ortuqsen.*

Shayboqxon O'ratepaning gird va navohisig'a kelib, bir pora buzuqchiliq qilib yondi. Shayboqxon O'ratepaning ustida ekanda kishimizning ozlig'ig'a va yaroqsizlig'ig'a boqmay, Maschoda uruqni qo'yub, Obburdan dobonidan oshib, Daxkat navohisig'a keldukkim, kecha erta yovuq sig'inib, qopug'a kelgan ishni taqsir qilmag'aybiz. Shayboqxon bot o'q yondi.

Yana dobon oshib Maschog'a kelduk. Xotirg'a kechtikim, mundog' tog'din tog'qa aloxon va alomon, viloyatimiz yo'q, yerimiz yo'q, turmaq betaqribdur, xon qoshig'a Toshkandga-o'q boraling. Qosimbek bu yurumoqqa rizo bo'lmedi. Qorabuloqda uch-to'rt mo'g'ulni zabt va siyosat uchun o'lturub edi, nechukkim mazkur

¹ Eshittimki, qutluq tabiatli Jamshid bir bulog' boshida tosh ustiga shunday deb yozgan ekan: bu bulog' tepasida bizlar singari ko'p kishilar kelib o'lturdilar, ketdilar va yo'q bo'ldilar. Olamni mardlik va zo'rlik bilan oldik, lekin o'zimiz bilan go'rga eltmadik.

bo'ldi. G'olibo ushul jihatidin bormoqqa taraddud qildi. Har necha mubolag'a qilduk, bo'lma-di. Og'a-ini va tavobe' va lavohiqi bila Hisorg'a tortti.

Biz Obburdan ko'tali bila oshib, xon qoshig'a, Toshkandga mutavajjih bo'lduk. Ushbu ay-yomda Tanbal cherik tortib Ohangaron julgasi-ga keldi. Cherik ustida Muhammad do'g'lat-kim, Muhammad Hisoriyg'a mashhur edi, yana inisi Sulton Husayn do'g'lat, Qanbar Ali salloh muttafiq bo'lub Tanbalg'a qasd qilurlar. Bu muhimni Tanbalg'a sezirgach, tura olmadilar, xon qoshig'a qochib keldilar.

Bizga qurbon iydi Shohruxiyada bo'ldi. Be-tavaqquf o'tub, xon qoshig'a, Toshkandga bor-dim. Bu ruboiyni aytib edim, ma'mul qofiyasi-da taraddudim bor edi, ul mahalda she'r mus-talaqotig'a muncha tatabbu' qilmaydur edim, xon xushtab' kishi edi, she'r aytur edi, agarchi sar-u somonliq g'azali kamroq edi, bu ruboiy-ni xong'a o'tkarib, taraddudimni arz qildim. Ko'ngul ting'udek shofiy javob topmadim. G'olibo she'r mustalahotig'a kamroq tatabbu' qilg'ondurlar. Ruboiy budur:

*Yod etmas emish kishini mehnatta kishi,
Shod etmas emish ko'ngulni g'urbatta kishi.
Ko'nglum bu g'aribliqta shod o'lmadi hech,
G'urbatta sevunmas emish, albatta, kishi.*

So'ngra ma'lum bo'ldikim, turki lafzida ma-hal iqtizosi bila to va dol yana g'ayn va kof va kof bir-birlari bila mubaddal bo'lurlar emish.

Bir necha kundin so'ng Tanbal O'ratepaning ustiga keldi. Bu xabar kelgach xon Toshkandindin cherik otlandi. Piskent bila Somsiyrakning orasida burong'or va juvong'orni yasol yasab edim, ko'rdilar. Mo'g'ul dasturi bila tug¹ bog'ladilar. Xon ottin tushti. To'qquz tug'ni xonning olida turg'uzub, bir mo'g'ul bir o'ying o'rta iligiga² bir uzun oqbo'zni bog'lab, iligiga tutubdur. Yana uch parcha uzun bo'zni uch tug'ning tutasidin quyiroq bog'lab, tug'ning yig'ochining ostidin olib kelturub, bir bo'zning uchini xon bosib turdi. Yana bir tuqqa bog'lag'on bo'zning uchini men bosib turdum. Yana bir bo'zning uchini Sulton Muhammad Xonika. Ul mo'g'ul bo'z bog'lag'on o'ying o'rta iligini iligiga olib, mo'g'ulcha nimalar deb tuqqa boqib ishorat qiladur, xon va tamom turg'onlar tug' sorig'a qimizlar sochadurlar. Nafirlarni va naqoralarni bir yo'li chaladurlar. Bo'lg'on yasolda turg'on cherik eli bir yo'li suron soladurlar. Uch navbat ushmundoq qiladurlar. Andin so'ng otlanib, suron solib ushmuncha cherik davrin chopadurlar. Mo'g'ul orasida Chingizxonning tuzuki xolog'acha Chingizxon yasab qo'ygandek-o'qtur.

Burong'or burong'orda, juvong'ar juvong'arda, g'ul g'ulda, har kim ota-otasidin qolg'an yerida-o'q turar, burong'or bila juvong'arda har kimning e'tibori ko'praktur, uch sariroq turarlar. Burong'orda charosi bila bekichik urug'ining hamisha uchqa chiqmoq talash-

¹ Q. b. – damdama.

² Q. b. – bir o'kuzni ilik so'ngagiga.

lari bor. Ul-fursatta charosning tuman begisi Qashqa Mahmud edi, xeyli mardona yigit edi. Bekichik tumaniningkim, tumanga-o'q mashhurdur, tuman begisi Ayyub Ya'qub edi, uchqa chiqmoq uchun urushtilar. Bir-birlariga qilichlar sug'urushtilar. Oxir g'olibu mundoq qaror toptikim, chargada birisi yuqqori turg'ay yasolda yana biri uchqa chiqqay. Tonglasig'a Som-siyrak¹ navohisini charga solib ovladilar. Kelib Turok² chorbog'ig'a tushuldi. Ul g'azalekim, tugattim, ushbu kun ushbu yurtta tugattim. Ul tugangan g'azal budur:

*Jonimdin o'zga yori vafodor, topmadim,
Ko'nglumdin o'zga mahrami asror topmadim.*

Bu g'azal yetti³ bayt turur. Mundin so'ng har g'azalkim tutandi, ushul tartib bila-o'q bitildi.

Mundin ko'ch-bako'ch Xo'jand daryosining yoqasig'a keldilar. Bir kun sayr tariyqi bila suvdin o'tub, osh pishurub, yigitlarni va chuhralarni sho'xluqqa solduk. Ushbu kun mening takbandimning oltun qullobini o'g'urladilar. Tonglasig'a-o'q Xonquli Bayonquli bila Sulton Muhammad Vays qochib Tanbalg'a bordilar. Barchag'a gumon bo'ldikim, bu harakat bulardin sodir bo'lubtur, agarchi tahqiq bo'lmadi. Ahmad Qosim ko'hbur ham ijozat tilab, O'ratepaga bordi. Ul ham ushbu borg'on bila kelmadi, Tanbalg'a bordi.

¹ Q. b. – Som-Sorak.

² Q. b. – Burk (شورک)

³ L. b. – olti.

VAQOYEYI SANAYI SAMON VA TIS'A MIA¹

Xonning bu yurushi befoydaroq yurush edi, qo'rg'on olmoq va yog'iy bosmoq yo'q: bordilar, keldilar. Bu muddattakim, Toshkandta edim, xeyli qalloshliq va xorlik tortildi: viloyat yo'q, viloyat umidvorlig'i yo'q, navkar aksar tarqadi: ma'dudikim, qolib edi, qalloshliqtin mening bila yuruy olmas edilar. Xon dodamning eshigiga borsam, gohi bir kishi bila, gohi ikki kishi bila borur edim, vale yaxshilig'i bu edikim, yot emas edilar, tuqqon edilar. Xon dodamg'a ko'runush qilib, Shohbegim qoshig'a kelur edim. O'z uyimdek bosh yalang, oyoq yalang kirar edim. Oxir mundoq sargardonliqtin va bu nav' bexonumonliqtin jong'a yettim. Dedimkim, mundoq dushvorliq bila tirilguncha, bosh olib itsam yaxshi. Bu nav xorliq va zorliq bila el bilguncha, oyog'im yetgancha ketsam yaxshi. Xitoyg'a bormoqni jazm qilib, bosh olib ketmakka azm qildim. Kichiklikdin beri Xitoy sarig'a havasim bor edi. Vale saltanat va aloyiq jihati-din muyassar bo'lmas edi. Saltanat xud bordi. Onam onalarig'a, inilarig'a qo'shildilar. Mavone raf bo'ldi, ul dag'dag'alar daf bo'ldi. Xoja Abulmakorimning tavassuti bila bu so'zni orag'a soldimkim, Shayboqxondek g'anim paydo bo'lubtur, muning zarari turkka va mo'g'ulg'a musovidur. Muning fikrini hololiqtakim, ulusni yaxshi bosmaydur va ko'p ulg'aymaydur, qilm-oqlik vojibdur. Nechukkim debturlar:

¹ To'qqiz yuz sakkizinchi (1502-1503) yil voqealari.

*Imro'z bikush chu metavon kusht,
 Otash chu baland shud jahon so'xt,
 Magzor ki zih kunad kamonro,
 Dushman chu ba tir metavon do'xt.¹*

Kichik xon dodam ham yigirma to'rt-yigirma besh yildurkim, muloqot qilmaydurlar, men ham ularni ko'rgan emasman. Bo'la olg'aymukim, men borsam, ham kichik xon dodamni ko'rsam, ham muloqot qilmoqqa vosita va soyi' bo'lsam. G'arazim bu edikim, bu bahona bila bu oradin chiqsam, Mo'g'uliston va To'rfong'a borg'onda xud hech mone va dag'dag'a qolmas, o'z jilovim o'zumning iligimda o'lur. Bu xayolimdin hech kishi sohibi vuquf emas edi, kishini sohibi vuquf ham qilib bo'lmas edi. Ne jihattinkim, onamg'a xud mumkin emas edikim, mundoq so'zlarni aytsa bo'lg'ay. Yana bir necha ulug'-kichik gird va go'shamda bo'lurlar edi. O'zga umidvorliqlar bila manga irashib sargardonliq tortib yururlar, alarga ham mundoq so'zlarni aytmoqning hech lutfi yo'q edi. Xoja Abulmakorim Shohbegimga va xon dodamga bu so'zni aytqoch, alardin rizo ne fahm bo'lur. Yana xotirlarig'a kecharkim, rioyat topmog'ondin magar ruxsat tilaydurman. Bu jihattin nomus qilib ruxsatta andak taammul qildilar.

Ushbu fursatta kichik dodamdin bir kishi keldikim, tahqiq kichik xon keladur. Bu xayol ham bo'lmadi. Yana bir kishi kelib, kichik

¹ Kuching yetar ekan, olovni shu on o'chir. Agar alanga olsa, jahonni kuydiradi. Dushmanni o'q bilan urishga qodir ekansan, uning kamon kerishiga qo'yma.

xonning yaqin yechganining xabarini aytqoch, Shohbegim va kichik xon dodamning singillari Sulton Nigorxonim va Davlat Sultonxonim va men va Sulton Muhammad Xonika va Mirzoxon, borcha kichik xon dodamg'a o'tru chiqtuk. Toshkand bila Sayromning orasida Yag'o¹ degan kent va yana bir necha kentginalar bor. Ibrohim ota va Ishoq otaning qabri andadur, bu kentlargacha borildi, Kichik xon dodamning bu zamon kelurini tahqiq bilmay holidin sur'at bila o'tlanib edim. Bayakbor xon uchray-o'q tushtilar. Ilgari yurudum, men tushganda-o'q kichik xon dodam voqif bo'ldi, xeyli iztirobta bo'ldi. G'olibo andoq xayoli bor ekandurkim, bir yerda tushub o'tturub, mening bila ta'zim bila ko'rushgaylar. Yovuq yetishib tushtum, mahal ul taqozo qilmadi, yukungucha fursat ham bo'lmadi, bukulub borib ko'rushtum. Iz-tirob va infiolda bo'lub, filhol Sulton Saidxon bila Boboxon Sultonni buyurdilarkim, tushub mening bila yukunub ko'rushgaylar. Xonning o'g'lonlaridin ushbu ikki sulton-o'q kelib edi, o'n uch-o'n to'rt yoshda bo'lg'oylar edi. Bu sultonlar bila ko'rushub o'tlanib, Shohbegim qoshig'a kelduk. O'tturub, o'tgan-kechgan kayfiyat va holottin yarim kechagacha o'tturub aytishtilar. Tonglasi kichik xon dodam manga mo'g'ulcha rasmliq bosh-oyoq va qo'rini va egarlik xossa otini inoyat qildi. Maftulluq mo'g'uli bo'rk va sonchma tikkan xitoyi atlas to'n va xitoyi qo'r, burung'i rasmliq toshi chinoti bila xitoyini so'l sari, yana uch-to'rt nima xotun kishining yo-

¹ Q. b. – Yag'mon.

qosig'a osar anbardon va xaritasidek nimalar osibturlar, o'ng sarida ham ushmundoq uch-to'rt nima osibturlar. Ul yerdin Toshkand sori mutavajjih bo'ldilar.

Ulug' xon dodam ham Toshkanddin uch-to'rt yig'och yo'l o'tru chiqib, keldi. Bir yerda shomiyonalar tikib, ulug' xon o'turdi. Kichik xon ro'baro'din keladur edi. Yovuq yetgach xonning so'l qo'li bila keyindin evrulub kelib, xonning olida tushub keldi. Ko'rushur yerga yetishib, to'qquz qatla yukunub kelib ko'rushti. Ulug' xon ham kichik yaqin yetgach, qo'pub ko'rush-tilar, g'alaba quchushub turdilar. Yong'onda ham kichik xon to'qquz qatla yukundi. Tortiq tortqonda ham qalin yukundi. Andin song kelib o'turdilar. Kichik xonning kishilari tamom mo'g'ulcha yasanib edilar: mo'g'ulcha bo'rk-lar, xitoyi atlas va sonchma tikkan to'nlar va mo'g'ulcha yashil sag'riliq soqdoqlar va egarlar va mo'g'uliy otlar va tavri g'ayri muqarrar zeb bila keldi.

Kichik xon ozroq kishi bila kelib edi: mingdin ko'proq, ikki mingdin ozroq bo'lg'ay edi. Kichik xon dodam g'arib atvorliq kishi edi, qilichig'a mahkam erklik va mardona kishi edi. Bu aslihadin qilichqa ko'prak mu'taqid edi. Der edikim, shashpar va piyoziy va kistan va tabarzin va boltukim bor, tegsa bir yeri korgardur, qilich agar tegsa, boshdin-oyog'i korgardur, kesar. Qilichini hargiz o'zidin ayirmas edi: yo belida edi yo iligida. Yoqa yerda ulg'ong'on uchun bir nima rustoyiroq, durushtgo'yroq edi. Ushbu mo'g'ulcha zeb bilakim, mazkur bo'ldi, kichik

xon dodam bila keldim. Xoja Abulmakorim ulug' xon dodam bila edi, meni tonimaydur, so'rubturkim, bular qaysi sultondur? Aytqondin so'ng tanibtur.

Toshkandga kelib bot-o'q Sulton Ahmad Tanbalning ustiga Andijong'a cherik torttilar. Kandirlik dobonining yo'li bila mutavajjih bo'ldilar. Ohangaron julgasi eta kichik xonni va meni ilgarrak ayirdilar. Dobondin oshib Zirqon va Karnon navohisida bir kun dim ko'rdilar, cheriklarini o'ttiz ming chenadilar.¹

Ilgaridin xabar kela boshladikim, Tanbal ham cherikini yig'ib Axsig'a kelibtur. Xonlar mashvarat qilib, ra'ylari munga qaror toptikim, manga bir pora cherik qo'shqaylar, Xo'jand suyini o'tub, O'sh va O'zgand sori borib, orqasig'a evrulgaymen. So'zni munga quyub, Ayyub bekchikni tumani bila. Jon Hasan norinni norinlari bila, Muhammad Hisoriy do'g'latni, Sulton Husayn do'g'latni, Sulton Ahmad mirzo do'g'latni o'zlarini, do'g'lat tumani, bularda emas edi. Qanbar Alini va Sorig'bosh mirzo itarchini cherik dorug'asi qilib manga qo'shtilar. Karnondin, xonlardin ayrilib, Sakon navohisidin Xo'jand suyinn sol bila kechib, Ho'qon o'rchini bila o'tub, Quboni bosturub, Olayluq o'rchini bila O'sh ustiga ilg'aduk.² Sahar vaqti O'sh qo'rg'onig'a g'ofilliqta yetishtuk. O'sh

¹ Q. b. – Abon ko'talidan o'tub Zirmon va Kirmon ko'tali ikki xon yana qo'shulushtilar. O'shal manzilda cherikni son ko'rdilar. O'ttuz ming kishi taxmin qildilar.

² Q. b. – Kirmonda xondin ayrilib, Mangan navohisida Xo'jand daryosini sol bila o'tub, raboti Cho'bon yo'li birla Kabol bosib o'tub, Olmaliq yo'li bila O'sh ustiga kelduk.

eli chora qila olmadilar. O'shni topshurdilar. Bittab' viloyat eli bizni ko'p tilar erdilar. Tanbalning qo'rqunchidin va bizning yiroqlig'imizdin choralarin topa olmaslar edi. O'shqa kelib kiringach, Andijonning sharq va janubidagi tog' va tuz el va uluslari tamom kirdilar. O'z gandningkim burun Farg'onaning poytaxti ul ekondur, yaxshi qo'rg'oni bor, sarhadta voqe bo'lubtur. Eli bizning qullug'imizni qabul qilib, kishi yiborib, manga kirdilar. Necha kundan so'ng Marg'inon eli ham dorug'asini urub qavlab, manga kirdilar. Xo'jand suyining Andijon tarafidagi qo'rg'onlardan bir Andijondin o'zga tamom kirdilar.

Bu ayyomda bovujudkim mundaq sho'r va fitna qoyim bo'ldi. Tanbal hanuz o'ziga kelturmay, Axsi bila Karnon oralig'ida otliq-yayov cheriki bila xonlar bila ro'baro' bo'lub, o'zini shox va xandaq bila berkitib o'lturub edi. Bir necha navbat ul tarafdin oz-og'loq urushmurush bo'lur, vale hech jonibtin, g'olibiyat va mag'lubiyat mushaxxas va ma'lum bo'lmas, chun Andijon tarafidagi el va ulus va qo'rg'on va viloyat aksar manga kirdilar. Andijonning eli ham bittab' meni tilar edilar, vale choralarin topa olmaslar edi, xotirg'a yettikim, bir kecha Andijonning yovug'ig'a borib, kishi kiyurub, xoja va arboblari bila so'zlashsak, ehtimoli borkim, bizni bir tarafdin kiyurgaylar. Bu xayol bila O'shdin o'tlanib, yarim kecha Andijonning bir kuruhida Childuxtaron ro'baro'yig'a kelduk. Qanbar Alibek va yana ba'zi beklarni ilgarrak yiborildikim, inchkalik bila qo'rg'ong'a

kishi kiyurub, xoja va arbob bila so'zlashgaylar. Biz yiborg'on beklarning intizorida ot ustida-o'q turub edik, ba'zi urgudamoqta, ba'zi xobolud, kechening uch pahri bo'lg'oy edi, bayakbor tablboz uni va suron chiqti. Yog'iyning ko'pi-ni, ozoni bilmay, g'ofil va uyquluq el bir yo'li-o'q, bir-biriga boqmay duvurlab qocha berdilar. Men elni tiyguncha fursat ham bo'lmadi. Yog'iy sori-o'q yurudum. Mirshoh qavchin, Bobo Sherzod va Do'st Nosir mening bila-o'q tebradilar. Biz to'rt kishidin o'zga jami' el qochmoqqa-o'q yuz qo'ydilar. Ozroqcha yonib edimkim, bu doring'onlar o'q qo'yub, suron solib, yetishib keldilar. Bir qashqa otliq kishi manga yaqin sig'inib keldi. Otini o'qladim, yumalanib bordi. Bir nima bosilg'ondek bo'ldilar.

Mening bila bo'lg'on uch kishi dedilarkim, qorong'u kecha yog'iyning ko'pi-ozu ma'lum va mushaxxas emas. Bo'lg'on cherik eli tamom kettilar, biz to'rt kishidin ne miqdor mutazarrir bo'lg'aylar, borib bu duramagan elga yetib, urushmoq kerak. Qatrab elga yetib, urub, qamchilab, har chand qilib, el tiyilmadi. Yana bu to'rt kishi bila yonib, o'q qo'yduk, ozroqcha to'xtadilar. Chun bir-ikki navbat ko'rdilar, biz uch - to'rt kishi, besh emasbiz. Yana elni qo'lg'a tushurmakka mashg'ul bo'ldilar. Ushbu dastur bila uch-to'rt qatla borib elni tiydim. El tiyilmog'och, yana ushbu uch kishi bila yonib o'q qo'yub, g'animni yondurdum. Ikki-uch kuruhgacha elni Xarobuk va Pashomunning¹ ro'baro'yidagi pushtag'acha quvlay

¹ Q. b. - Jarobuk va Shibomun.

keldilar. Pushtag'a yetganda Muhammad Ali mubashshir uchradi. Men dedimkim, bu oz kishidur, turub ot solaling. Turub ot solduk, irisha turub qoldilar. Parishon bo'lg'on el ul tarafdin-bu tarafdin yig'ilib keldilar. Ba'zi o'bdon-o'bdon yigitlar ushbu doritqon bila rost O'shqa boriburlar.

Bu kayfiyat mundoq ekandurkim, Ayyub bekchikning tumanidin bir necha mo'g'ul O'shdin bizdin ayrilib qazoqliqqa Andijonning girdig'a kelgan ekandurlar. Bizning cherikning g'avg'osini eshitib, inchalik bila ilgarrak kelib, o'ron adashurlar. Bu o'ron ikki nav' bo'lur: bir ulkim, har qavmning o'roni bor, nechukkim, ba'zi qavmning o'roni «durdona»dur va ba'zining «tuqqay», ba'zining «lulu»; yana bir tamom cherikka ish mahalida ikki lafzni o'ron qo'yar-larkim, ish vaqtida uchrashqonda, biri bir lafzni aytqonda yana biri ul ma'hud lafzni aytqay, to bu tariyq bila el yog'iydin ayrilgay va o'z kishini yotdin farq qilgay. Ul yurushta ma'hud o'ron alfazi «Toshkand» bila «Sayram» edi. Toshkand desa Sayram deyilgay, Sayram desa Toshkand. Bu orada – to'rda Xoja Muhammad Ali ilgarrak ekandur. Mo'g'ullar: Toshkand, Toshkand deb kelurlar. Xoja Muhammad Ali sart kishi iz-tirobta bo'lur, muqobalada ul ham, Toshkand Toshkand der. Mo'g'ullar yog'iy kishisi xayol qilib suron solib, tablboz cholib o'q qo'yarlar. Ushbu tariyqi g'alat g'avg'o bila turmab parishon bo'lduk.

Ul qilg'on xayol bo'lmadi. Yana yonib O'shqa kelduk. Besh-olti kundin so'ng tog' va tuz va

qo'rg'on manga ruju' qilg'onidin Tanbal va tavo-biyi bedil va bepoy bo'lub, cherigi va eli uchar-to'rtar tog'ga va tuzga qocha kirishtilar. Ba'zi aning ichindin kelganlar dedilarkim, Tanbalning ishi buzulmoqg'a yetibdur. Ushbu uch-to'rt kunda tahqiq buzulub yong'usidur. Bu xabarlar kelgach, Andijon ustiga otlanduk.

Andijon qo'rg'onida Tanbalning kichik inisi Sulton Muhammad Kalpuk¹ edi, Tutluq² yo'li bila kelib, Andijonning janub tarafiga Xokong'a namozi peshinda chopqun qo'yuldi. O'zum ham chopqunchining keyinicha yurub, pushtayi Ayshning Xokon tarafidagi domanasiga keldim. Qorovuldin xabar keldikim, Sulton Muhammad Kalpuk bo'lg'on kishisi bila mahalla va bog'ottin toshqari pushtayi Ayshning domanasiga chiqibtur. Chopqunchi hanuz yig'ilmaydur edi. Chopqunchining yig'iluriga boqmay betavaqquf yog'iy sari tez-o'q tebradim. Kalpukning kishisi besh yuzdin ko'proq bo'lg'ay edi. Agarchi bizning kishimiz andin ko'prak edi, vale cherik eli chopqung'a tarqab edi. Ro'baro' bo'lg'on mahalda o'shancha-o'q bo'lg'ay eduk. Yasol va tartibni mulohaza qilmay, jilavrez-o'q g'anim sari mutavaj jih bo'lduk. Yovuq yetgach, to'xtay olmadi. Bir-ikki qilich olishguncha ham bo'lmadi, qocha berdi. Kishisini Xokon darvozasining yovug'ig'acha tushara bordilar. Yog'iyini bosib mahallaning yoqasi Xoja Kattaga yetganda namozi shom bo'lub edi, tez-o'q darvozag'a yetar xayolim bor edi.

¹ Q. b. - Gulbek

² Q. b. - Tuluq.

Ulug'-kari, tajribaliq beklar – Nosirbek Do'st-bekning otasi, Qanbar Alibek arzg'a tegurdilarkim, kech bo'lubtur, qorong'uda qo'rg'ong'a yaqin sig'inib bormoq behisobdur, keyinrak tortib tushaling, tongla ne choralari bordur, qo'rg'onni berurlar. Bu tajribaliq beklarning so'ziga kirib, mahallotning yoqasidin-o'q yonduq. Agar qo'rg'on eshigiga borsoq ekandur, beshak-u shubha qo'rg'on ilikka kirar ekandur. Namozni xuftan edi, kelib Xokon arig'idin o'tib, Raboti Ro'zak kentining yonig'a tushuldi.

Bovujudkim Tanbalning buzulub, yonib Andijong'a kelur xabari bor edi, betajribaliqdin g'affate bo'ldi. Xokon arig'idek berk arig'ning yoqasi berkilib tushmay, arig'din o'tub kelib Raboti Ro'zaq kentining yonig'a tubtuz yerga tushuldi. Qorovul yo'q, jangdovul yo'q, g'ofil yotilib edi. Tong boshida el chuchuk uyquda edikim, Qanbar Alibek qatrab qichqirib ayttikim, yog'iy yetti, qo'pung. Ushmuncha deb, lahzayi tavaqquf qilmay o'ta chiqti, yonmadi. Men hamisha, omonliqda ham, to'n, o'quvvoq chig'ormay-o'q takiya qilur edim. Qo'pqoch-o'q qilich, soqdog'ni bog'lab filhol otlandim. Tug'chi tug' bog'lag'ucha fursat bo'lmadi, tug'ni iligiga olib-o'q otlandi. Yog'iy keladurgan sori-o'q mutavajjih bo'lduk. Ul otlang'onda o'n-o'n besh kishi hamroh edi. Bir o'q otimi kelib edukkim, yog'iyning chopqunchisig'a yettuk. Bu holat mening bila o'ncha kishi bo'lg'ay edi. Ildam yurub yetib, o'q qo'yub, ilgarigi kishisini olg'on bila tebraduk. Yana bir o'q otimi qavlab borib edukkim, g'ulig'a yettuk.

Sulton Ahmad Tanbal yuzcha chog'liq kishi bila to'xtab turubdur. Tanbal o'zi yana bir kishi bila yasolidin eshiklik, tuvurluk, ilgarrak ur-ur deb turubdur, vale eli aksar yonlarini berib, qochay-qochmay degandek etib turubdurlar.

Ushbu zamonda mening bila uch kishi qolib edi: bir Do'st Nosir, yana Mirzo Ali ko'kaltosh, yana Karimdod Xudoydod turkman, bir o'qim shastimda edi, Tanbalning duvulg'asig'a o'q ottim, yana sog'doqqa ilik elittim, xon dodam bir sarsabz go'shagir berib edi, ul chiqdi, toshlag'ali hayfim keldi, yana sog'doqqa solg'ucha ikki o'q otquncha fursat bo'ldi ekin. Yana bir o'qni havlilab ilgarrak yurudum. Bu uch kishi ham keyinrak qoldi. O'trumdag'i ikki kishidin birikim Tanbal ekandur, ul ham ilgarrak yurudi, orada bir shohroh edi, men bu saridin, ul ul saridin yo'lg'a kirib, yo'lda ro'baro' bo'lduk, andoqkim, mening o'ng qo'lum yog'iy sari, Tanbalning o'ng qo'li bizning sari bo'ldi. Tanbalning bir kechimdin o'zga borcha yarog'i bor edi. Mening sog'doq, qilichdin o'zga hech yarog'im yo'q edi. Iligimdag'i o'q bila qolqonini g'arbi-chisig'a ko'klay ottim.

Ushbu holatta o'ng butumg'a sheba o'qi bila o'tkara ottilar. Boshimda duvulg'a bo'rki edi, Tanbal boshimg'a chopti, boshim qilich zarbidin karaxt bo'ldi. Bovujudkim duvulg'a bo'rkining bir tori kesilmadi, boshimg'a xeyli yara bo'ldi. Qilichni boldog'lamaydur edim, qinida edi, qilich sug'urg'ucha fursat bo'lmadi. Qalin dushman ichida yakka va yolg'uz qoldim. Turar mahal emas edi, jilavni yondurdum,

yana bir qilich ham o'qlaring'a tushubtur. Yetti-sekkiz qadam yonib edimkim, yayog' uch kishi manga qotildi. Mendin so'ngra Tanbal Do'st Nosirg'a ham qilich solg'ondur: bir nishona otimi keyinimizcha keldilar.

Xokon arig'i ulug' shohjo'ydur va chuqur oqar, har yeridin kechib bo'lmas, tengri rost kelturdi, bu arig'ning bir guzarig'a to'pto'g'ri-o'q kelduk. Arig'din kechgach, Do'st Nosirning oti zaifroq edi, yiqildi, turub oni otlanturub Xarobuk bila Farog'inaning oralig'idag'i pushta bila O'sh sori burduk. Pushtag'a chiqqon mahalda Mazid tag'oyi kelib qotildi. Aning ham o'ng oyog'ig'a tizidin quyiroyq o'q tegibdur. Agarchi o'ta chiqmaydur edi, vale O'shqa bisyor tashvishi bila keldi. Mening o'bdon kishilarimni tushurdilar: Nosirbek, Muhammad Ali mubashshir, Xoja Muhammad Ali, Xisrav ko'kaltosh, Nu'mon cho'hra munda tushtilar. Yana ham yigit-yalangdin xeyli kishi tushti.

Xonlar Tanbalning so'ngicha-o'q kelib Andijonning navohisig'a tushtilar. Ulug' xon qo'ruqning yonida mening ulug' onam – Esan Davlatbegimning bog'ig'akim, Qo'sh tegirmonga mavsumdur, tushti. Kichik xon Bobo Tavakkul langarining yovug'ig'a tushti. Ikki kundan so'ng O'shdin keldim. Ulug' xonni Qo'shtegirmonda ko'rdum. Xonning ko'rgan zamon-o'q manga kirgan yerlarni kichik xong'a berdilar. Manga mundoquzr ayttilarkim, Shayboqxondek g'anim Samarqanddek shahrni olib, ulg'ayib boradur, ushbu maslahat uchun kichik xonni ne yerdin kelturubturlar, munda yeri yo'q,

ul viloyatlari yiroq. Xo'jand daryosining janubi Andijon boshliq viloyatlarni kichik xong'a bermak kerakkim, anda yurtlang'ay. Xo'jand daryosining shimoli Axsi boshliq viloyatlarni manga va'da qildilar. Dedilarkim, munda to'xtog'ondin so'ng, yurub Samarqand viloyatini olib manga bergaylar. Andin so'ng Farg'ona tamom kichik xong'a bo'lg'ay. G'olibo manga bu so'zlar firib ekandur. Muyassar bo'lg'ondin so'ng vuquyi ma'lum emas edi. Chora yo'q edi, xohi-noxohi rozi bo'ldum.

Ulug' xonning qoshidin otlanib, kichik xonni ko'ra boradurg'onda Qanbar Alibekkim sallohqa mashhur edi, manga yondoshib kelib, aytikim, ko'rdingizmu, filhol bo'lg'on viloyatlarni oldilar, sizga bulardin ish ochilmas, holokim O'sh va Marg'non va O'zgand va kirgan viloyat va el va ulus iligingizdadur, filhol borib, O'shqa kirib, qo'rg'onlarni berkitib Sulton Ahmad Tanbalg'a kishi yiborib, yarashib, mo'g'ulni urub chiqorib, viloyatlarni og'a-ini hissa qilishing. Men dedimkim, ravo bo'lmag'oy, xonlar tuqqonlarim, bularg'a navkarlik qilg'onim, Tanbalg'a podshohliq qilg'ondin ortiqroqdur. Ko'rdikim, so'zi ta'sir qilmadi, aytqonidin pushaymon bo'lub yondi.

Men borib kichik xon dodamni ko'rdu. Buri ko'rushganda bexabar yetib bordim, kichik xon tushguncha fursat bo'lmadi. Beta'zimroq ko'rushub edi. Bu navbat yovuqroq keldim, ersa chodirning tanobining uchig'a yugurub chiqti. Oyog'imda o'q yarasi jihatidin aso tutub tashvish bila yurur edim. Yetib ko'rushub, «inim bahodur emishsiz», deb iligimdin qo'ldab,

chodirg'a kelturdi. Kichikrak chodir tikibturlar. Yoqa yerda ulg'ayg'on uchun chodir va o'tturur yeri betakallufona va qazoqona edi. Qovun va uzum va rikobxona ashyosi tamom o'zi o'tturur chodirda, o'q edi.

Kichik xonning qoshidin qo'pub o'zimning o'rdumg'a keldim. Yaramni boqqali Atika¹ baxshi otliq mo'g'ul jarrohini yiboribturlar. Mo'g'ul eli jarrohni ham baxshi der. Jarrohliqda bisyor hoziq edi. Kishining mag'zi chiqsa, dor-u berur edi ildizdin, har turluk yara bo'lsa edi, osoy muolaja qilur edi. Ba'zi jarohatqa marhamdek dor-u qo'yar edi, ba'zig'a yegali dor-u berur edi. Mening butunning yarasig'a buchqoq yoqmoqni buyurdi, fatila ko'ymadi. Ildizdek niman ham bir qatla yedurdi. O'zi der edikim, birovning inchka poychasi sinib, bir tutamcha yeri reza-reza bo'lub edi, etini yorib, oyoq so'ngaklarini tamom olib, so'ngak o'rnig'a doruni un qilib soldim. Ul dor-u so'ngak o'rnig'a so'ngakdek-o'q butti. Mundoq ajib va g'arib nima xeyli dedikim, viloyat jarrohlari andoq mudovodin ojizdurlar.

Uch-to'rt kundan keyin Qanbar Ali aytqon so'zlaridin mutavahhim bo'lub, qochib Andijong'a kirdi. Bir necha kundan so'ng xonlar ittifoq qilib, Ayyub bekchikni tuman bila Jon Hasan Norinni Norin tumani bila Sarig'bosh mirzoni cherik begi qilib, ming-ikki mingcha kishi manga qo'shub, Axxi tarafig'a yibordilar.

¹ Q. b. – Abika.

Axsida Tanbalning inisi Boyazid edi. Kosonda Shahboz qorluq edi. Ul fursatta Shahboz kelib, Navkandning qo'rg'onining olida o'turub edi. Xo'jand daryosidin Bichrotaning olidin kechib, Navkandga Shahbozning ustiga ilg'aduk. Tongdin burunroq Navkandga yovuq yetilgan mahalda beklar arzg'a yetkurdilarkim, bu kishi xud jazm tuyubtur. Yasolni buzmay yoruqta-o'q yetib borsak munosibdur. Ohistaroq yurildi. Shahboz xud g'ofil ekanur. Biz Navkand yaqinig'a yetgan mahalda tuyub, toshqaridin qochib kiribtur. Ushbu yo'sunluq bisyor voqe bo'lubtur: g'animni tuyubtur, deb sahl inkorliq qilibtur, ish mahali favt bo'lubtur, tajriba ush-mundoq nimalardur. G'arazkim, ish qopug'a kelgan mahalda jid va ehtimomni taqsir qilma-moq kerak. So'ngra pushaymonliq befoydudur.

Tong otqonda qo'rg'on girdida oz-og'loq urush bo'ldi. Bajid urush solmaduk. Navkanddin tog'sari Bishxoron¹ tarafig'a chop kun maslahatig'a borildi. Shahboz qorluq fursatni g'animat tutub, Navkandni tashlab qochib, Kosong'a bordi. Biz yonib kelib Navkandta o'turduk.

Bu ayyomda atrof va javonibni necha qatla cherik borib choptilar. Bir navbat Axsining kentlarini choptilar. Yana bir qatla borib Kosonni choptilar. Shahboz bila Uzun Hasanning Mirim otliq saxlag'on o'g'li urushg'a chiqtilar. Urushtilar, bosildilar, anda o'ldi.

Axsining berk qo'rg'onlaridan biri Pop qo'rg'onidur. Popliklar Pop qo'rg'onini berkitib

¹ Q. b. – Sixoyron سياران

bizga kishi yiborib turlar. Sayid Qosimni¹ bir necha yigitlar bila yiborildi. Axsining yuqqorig'i kentlarining to'g'risidin daryoni o'tub borib, Pop qo'rg'onig'a kirdilar.

Bir necha kundan keyin g'arib amre voqe bo'ldi. Ul mahal Ibrohim Chopuq tag'oyi, Ahmad Qosim ko'hbur, Qosim Xatika arg'un, Shayx Boyazid bila Axsida edilar. Bu mazkur bo'lg'onlarga ikki yuzcha o'bdon yigitlarni qo'shub g'ofilliqtta bir necha Pop qo'rg'onining ustiga yiborur. Sayid Qosim ehtiyot qilmay g'ofil yotqon ekandur. Qo'rg'ong'a yetib, shotu qo'yub chiqib, darvozani olib, puli ravom solilib, yetmish-seksancha o'bdon yaroqliq yigitlar kirganda Sayid Qosimga xabar bo'ldur. Uyquluq, ko'nglakchan qo'pub, besh-olti kishi bila otqulab, ura-ura bularni chiqarur. Bir necha bosh kesib yibordi. Agarchi mundoq g'afiat bila yotmoqlig'i ko'p besardorona edi, vale oz kishi bila mundoq yoriliq o'bdon qalin yigitlarni zarbirost urub chiqarmog'i xeyli mardona edi.

Bu muddatta xonlar Andijon qo'rg'onining muhosarasig'a mashg'ul edilar. Qo'rg'on eli qo'rg'onning yaqinig'a kelgali qo'ymaslar edi. Yigitlar otliq chiqib, toshqari otqulashurlar edi. Axsidin Shayx Boyazid davlatxohlik izhor qilib, kishi yibora boshladi. Bizni bajid tiladi. Bu tilamoqtin g'arazi bu edikim, har hiyla bila meni xonlardin ayirg'ay. Men xonlardin ayrilg'on din so'ng xonlar tura olmaslar edi. Bu tilamog'i og'asi Tanbalning ittifoqi bila ekandur. Xonlardin ayrilib, bular bila ittifoq qilmog'liq

¹ Q. b. – Sayd Qosim va Qo'hburni va Xushika arg'unni.

bizning qoshimizda mahol edi. Muning tilari-ni xonlarga imo qilduk. Xonlar debturlarkim, borsun, har tavr qilib Shayx Boyazidni tutsun. Bu makr-u firib bizning da'bmiz va tariyqimiz emas edi. Alalxususkim, orada ahd bo'lg'ay, bu nav' badahdliq xud nechuk bo'lg'ay.

Xotirga bu kechtikim, har tavr qilib o'zuzmuzni Axsig'a solsak, yo Shayx Boyazid Tanbaldin qat' qilib, bizning sari bo'lg'ay, yo bir naqshi uyrulgaykim, munosibi davlat bo'lg'ay.

Biz ham kishi yiborduk, ahd va shart qilib, bizni Axsig'a tiladi, borduk. O'tru chiqib, inim Nosir Mirzoni ham kelturub, bizni Axsi qo'rg'onig'a olib bordi. Tosh qo'rg'onida otamning imoratlarida manga yurt va maqom ta'yin qilibtur. Borib anda tushtum.

Tanbal Shayboqxoniga og'asi Bek Telbani yiborib, itoat izhori qilib, tilab edi. Bu fursatta Shayboqxonning nishonlari keldi: yuruymen, deb bitibdur.

Bu xabar xonlarga yetgach, bepoy bo'lub, o'lturolmay, Andijon ustidin qo'ptilar. Kichik xonning adl va musulmonliq bila shuhrati bor edi. O'sh va Marg'inon bu kirgan qo'rg'onlarda qo'yg'on mo'g'ullari elning chashmdoshtining xilofi, zulm va bad maoshliq qila boshladilar. Xonlar Andijondin qo'pqoch, O'sh va Marg'inon eli hujum qilib, qo'rg'ondagi mo'g'ullarni tutub, talab, urub, qavlab chiqordilar. Xonlar Xo'jand daryosini kechmay, Marg'inon va Kandibodom bila yonib, Xo'janddin daryoni kechtilar. Tanbal xonlarning keyinicha Marg'inonga keldi.

Biz bu holatta mutaraddid eduk turmoqqa, bularg'a xeyli e'timod yo'q edi. Bejihat solib chiqmoq xush yoqmaydur edi.

Bir sabohi Marg'inondin Jahongir mirzo Tanbaldin ayrilib qochib keldi. Men hammomda edimkim, mirzo keldi, ko'rushtum. Ushbu zamon Shayx Boyazid ham iztirob bila keldi, oldorabtur. Mirzo va Ibrohimbek alar dedilarkim, Shayx Boyazidni tutmoq kerak, arkni iliklamak kerak. Filvoqe ishning hisobi bu edi. Men dedimkim, ahd qilibtur. Biz nechuk naqzi ahd qilg'aybiz. Shayx Boyazid arkka bordi. Ko'prukka kishi qo'ymoq, kerak edi, ko'prukka ham kishi qo'ymaduk. Betajribalikdin mundoq o'sallar bo'ldi.

Tong boshida Tanbal yetti: uch ming yarog'liq kishi bila kelib ko'prukdin o'tub arkka kirdi. Mening aslda kishim ozroq edi. Axsig'a kirgach, yana ba'zini qo'rg'onlarga va ba'zini dorug'aliq va tahsilg'a har taraf-har taraf yiborilib edi. Mening bila Axsida yuzdin ko'prak kishi bo'lg'ay edi. Bo'lg'on kishi bila otlanib ko'chako'chaning boshida yigitlarni ta'yin qilmoqqa va urush yarog'ida edukkim, Shayx Boyazid va Qanbar Ali va Muhammad Do'st Tanbal qoshidin isloh uchun qotrob keldilar. Urushqa ta'yin bo'lg'onlarni yerlik-yeriga turg'uzub, mashvarat qilmoqqa otanning go'rxonasig'a¹ kelib tushub, Jahongir mirzoni ham tiladim. Muhammad Do'st yondi. Shayx Boyazid bila Qanbar Alibek keldilar. Maqbaraning janub ayvonida o'lturub

¹ Q. b. - qo'rxona.

mashvarat qilmoqda edukkim, Jahongir mirzo Ibrohim chopuq bila so'zni bularni tutmaqqa qo'yg'on ekondurlar. Jahongir mirzo mening qulog'img'a ayttikim, bularni tutmoq kerak. Men dedinkim, iztirob qilmang, holo ish tutmoqdin o'tti, ko'raling, shoyadkim isloh bila ish bir nimaga o'xshag'ay. Ne uchunkim, alar asru qalin, biz ko'p oz, o'zga bu qaviylik bila alar arkta va bu zaiflik bila biz tosh qo'rg'onda.

Shayx Boyazid va Qanbar Ali ham bu ke-ngashta hozir edilar. Jahongir mirzo Ibrohim-bek sori yondoshib, bu ishdin man' qila ishorat qildi. Bilmon, aks fahmladimu, yoxud tag'oful qilib bu harakatni qildim-u, filhol Shayx Boyazidni tutti. To'rg'on yigitlap tush-tushidin yopishib, bu ikki kishini tirt-pirt qildilar. Ish sulh va islohdin o'tti. Bu ikki kishini topshurub, urushqa otlanduq. Shahrning bir tarafini Jahongir mirzoning uhdasig'a qilildi. Mirzoning kishisi oz edi. Bir pora o'z kishimdin ham mirzog'a ko'mak ta'yin qildim. Avval anda yetib, bir yerda urushqa elni ta'yin qilib yana bir tarafqa keldim. Shahrning o'rtasida tuzrak yer bor edi. Anda bir pora yigitlarni qo'yub borilib edi. Bu jamoatni qalin otliq-yayoq kelib, ul yerdin ko'tarib ko'chaga tiqibturlar.

Ushbu holatta men yetib bordim. Yetgach-o'q ot yugurttum. Turush bermay durkurab qocha berdilar. Ko'chadin qochurub tuzga chiqorib, qilich tegurur mahalda otimning oyog'ig'a o'qladilar. Otim bukilib, yog'iyning o'rtasig'a meni yerga urdi. Chust qo'pub bir o'q ottim.

Sohibqadam Komilning¹ bir zabung'ina oti bor edi, tushub manga tortti, mindim. Munda kishi ta'yin qilib yana bir ko'cha boshig'a mutavajjih bo'ldum. Sulton Muhammad Vays otiming zabunlig'ini ko'rub tushub, otini manga tortti, ul otg'a mindim.

Ushbu fursatta Qanbar Alibek Qosimbekning o'g'li yaraliq Jahongir mirzo qoshidin keldi. Ayttikim, muddate bo'ldikim, Jahongir mirzoni zo'rlab tebrattilar, Jahongir mirzo chiqib ketti. Biz mutahayyir bo'lduk.

Ushbu fursatta Sayid Qosimkim, Pop qo'rg'onida edi, yetib keldi. Ajab bemahal kelish edi. Mundoq mahalda andoq berk qo'rg'on ilikta bo'lsa edi, tavre edi. Men Ibrohimbekka dedimkim, ne qilmoq kerak. Ozroq yarasi bor edi. Andinmu edi, yo oldorag'onidinmu edi, obodon javob bera olmadi.

Bir xayol qildimkim, ko'prukdin o'tub, ko'prukni buzub, Andijon sari mutavajjih bo'lg'aybiz. Bobo Sherzod anda xeyli yaxshi bordi. Dedikim, darvozadin-o'q zo'rlab chiqarbiz. Bobo Sherzodning so'zi bila darvoza sari-o'q mutavajjih bo'lduk.² Xoja Mir Miron ham ul holda mardona so'zlar aytti. Ko'cha orasida keladurgonda Sayid Qosim, Do'st Nosir Boqi Hez bila chopqulashurlar.

Men va Ibrohimbek va Mirzoquli ko'kaltosh ilgarrak eduk. Darvozag'a ro'baro' bo'lg'och-o'q ko'rdumkim, Shayx Boyazid ko'ylak usti-

¹ Q. b. – Komil so'zi yo'q (matnda Kobulmi, Komilmi, Kohilmi ekani aniqlanmadi).

² Q. b. – bu iboralar yo'q.

da farajiy kiyib, uch-to'rt otliq bila darvozadin kirib keladur. Shastimdag'i o'qni to'ldurub ottim. Bo'yidin yozdim, xeyli yaxshi ottim. Iztirob bila darvozadin kirgach, o'ng qo'l sari borur. Ko'cha bila qocha berdi. Biz ham, aning keyinicha o'q yuruduk. Mirzaquli ko'kaltosh bir yayoqqa piyoziy tegurdi. Yana bir yayoq Mirzaquli o'tgach, Ibrohimbekka o'q to'ldurdi. Ibrohimbek: he, he, deb o'ta bergach, eshiklik, tuvurluq yerdin mening qo'ltug'umg'a o'q otti, qalmoqi jibaning ikki qad yofrog'ini kesibtur. Qocha berdi. Orqasig'a ottim.

Ushbu holatta bir yayoq fasil ustidin qochib boradur. Bo'rkini fasilning kungurasiga ko'klay ottim. Bo'rki kunguraga qadog'liq-o'q qoldi. Dastori ilgiga chuyulub bordi. Yana bir otliq mening yonimdin Shayx Boyazid qochqon ko'cha sari qochib boradur, qilich bila cho'qqusig'a sonchtim. Ottin egilib edikim, ko'cha tomig'a tayandi, yiqilmadi, tashvish bila qochib qutuldi. Darvozag'a bo'lg'on otliq-yayoqni qavlab, darvozani olduk. Ish tadbirdin o'tub edi. Nechukkim, ikki-uch ming yaroqliq kishi arkta, bir yuz-ikki yuz kishi tosh qo'rg'onda. Yana Jahongir mirzoni bir sut pishimi burunroq qavlab chiqaribtur. Kishimizning yarimi aning bila chiqibtur. Bovujudi bu hol betajribaliqtin darvozada turub, Jahongir mirzog'a kishi yiborildikim, yovuq bo'lsa kelsun, yana zo'rlaling. Ish andin o'tub edi.

Ibrohimbekning oti zaif edumu yo yaraliqmu edi, manga dedikim, otim xarobtur. Muhammad Ali Mubashshirning Sulaymon ot-

liq navkari bor edi, ushbu holatta hech kishi taklif qilmay tushti. Otini Ibrohimbekka berdi, xeyli mardona ish qildi. O'shul darvozada turg'onda Kichik Alikim, Ko'li Gil shiqdoridur; mardonaliq izxori qildi.¹ Ul mahalda Sulton Muhammad Vays navkari edi. O'shda ikki bor ham yaxshi bordi. Mirzog'a borg'on kishi kelguncha darvozada darang qilduk. Borg'on kishi kelib dedikim, muddatidurkim, Jahongir mirzo chiqib ketibtur. Turardin o'tti, biz ham tebraduk. Muncha hamkim turuldi, behisob edi. Yigirma-o'ttuzcha kishi bizing bila qolib edi.

Biz tebratgach, qalin o'pchinliq kishi yetib-o'q keldi. Biz puli ravondin o'tub edukkim, puli ravonning shahr tarafig'a yog'iy kishisi yetti, Qosimbekning o'g'li Hamzaning onasining otasi Banda Alibek Ibrohimbekka qichqirib aytadurkim, doyim taassub va lofing bor erdi, tur, qilich olishaling. Ibrohimbek mening yonimda edi. Dedikim, kel ne monedur. Behush kishi mundoq shikast mahalida taassub qiladur, bemahal taassubdur. Darang va tavaqquf chog'i emas erdi, ildam-o'q yuruduk. Yog'iy kishisi bizing so'ngimizcha jilovrez kishimizni tushura keladur. Axsining bir shar'isida Gunbazi Chaman degan yer bor. Gunbazi Chamandin o'ta Ibrohimbek meni charlaydur. Keyin boqsam Shayx Boyazidning bir cho'hrasi Ibrohimbekka tegurubtur. Jilovimni yondurdum. Xonquli Bayonquli mening yonimda edi. Bemahal yonmoqdur, dedi. Jilovimni olib tebradi. Sangga yetguncha aksar kishimizni tushurdilar.

¹ Q. b. – Kichik Ali va Vaysbek xo'b mardona ishlar qildilar.

Sang Axsidin ikki shar'iydur. Sangdin o'tgach, keynimizda yog'iy kishisi ko'runmay, Sang suyi yuqqori-o'q yururduk. Ushbu holatda sekkiz kishi qolib eduk: «Do'st Nosir, Qanbar Ali Qosimbek, Xonquli Bayonquli, Mirzoquli ko'kaltosh, Shohim Nosir, Abdulquddus Seydiy Qaro, Xoja Husayniy¹ sekkizinchi men edim. Bu suv yuqqori tavr yo'lg'ini uchradi. Qo'lning ichi kishi mamarridin yiroq xilvat yo'l, qo'l yuqqori-o'q yurub, suvni o'ng qo'lg'a qo'yub, yana bir quruq qo'lg'a kirduk. Erta namozi digar bor edikim, qo'ldin tuzga chiqildi. Tuzda yiroqdin bir qaro ko'rundi. Elni panohda turg'uzub, o'zum yayoq bir pushtag'a chiqib qarovulluq qiladur edimkim, qalin otliq orqamizdin bir pushtaning ustiga qotrob chiqtilar, ko'p va ozini, tahqiq qilg'uncha bo'lmadi, o'tlanib yuruy berdik.

Qovg'unchi yigirma-yigirma besh kishi ekan-dur, biz sekkiz kishi eduk, nechukkim, mazkur bo'ldi. Agar ul vahlada muncha kishi ekanini tahqiq bilsak edi, yaxshi urushur eduk. Xayolg'a kechtikim, qovg'uncha bularning keynida payvast bo'lg'usidur, bu jihatdin yuruy berdik. Qochg'on yog'iy ko'p bo'lsa ham oz qovg'unchi bila chehra bo'la olmas. Nechukkim, debturlar: «Safi mag'lubro ho'ye basandast».²

Xonquli dedikim, mundoq bila bo'lmas, bor-chamizni olur. Ikki yaxshi otni bu oradin olib, siz va Mirzoquli ko'kaltosh ot qo'shlab, ildam yurung, shoyad chiqa olg'aysiz. Yomon aytmay-

¹ Q. b. – Xoja Husayniy, L. b. – Xoja Xasiy.

² «Yengilgan safga bir «hoy» kifoyadir». Q. b. – o'zbekcha: «Mag'lub harifqa ho'y basdur», – deyilgan.

dur edi. Chun urush ishi bo'lmadi, bu bo'lsa imkoni xalosliq bor erdi. Filhol birovni yog'iy orasida tushurub qo'ymoqliq xush yoqmadi. Oxir xud biror-biror tamom qoldilar.

Bu mingan otim bir nima sustroq edi, Xonquli tushub otini berdi, ot ustidin-o'q sachrab mindim. Xonquli mening otimg'a mindi. Ushbu holatta Shohim Nosir bila Abdulquddus Seydiy Qaronikim, keyin qolib edilar, tushurdilar. Xonquli ham qoldi, mahalli himoyat va madad emas edi. Otning o'ziga-o'q yeldurub boriladur edi, oti bormag'on qoladur edi. Do'st bekning oti ham bo'ldurdi, qoldi. Bu mingan otim ham sustliq qila boshladi. Qanbar Ali tushub otini berdi, mindim. Qanbar Ali ham otimg'a mindi va qoldi. Xoja Husayniy oqsoq kishi edi,¹ pushtalar sari o'zini tortti, men qoldim va Mirzoquli ko'kaltosh otning qo'sh oyoq olurg'a maqduri qolmaydur edi. Qatrab-o'q boradur erduk. Mirzoqulining oti ham sustliq qila boshladi. Men dedimkim, seni tashlab qayon boray, yur, o'luk-tirik bila-o'q bo'lali. Necha navbat Mirzoqulig'a boqa yurudum. Oxir Mirzo quli dedimkim, mening otim bo'ldurubtur, bora olmassiz, manga boqa oldurmang, yurung, shoyad chiqa olg'aysiz. Manga g'arib holati bo'ldi. Mirzoquli ham qoldi. Men yolg'uz qoldim. Yog'iydin ikki kishi paydo bo'ldi: birining oti Bobo Sayromiy, yana biri Banda Ali. Manga yovuqroq keldilar. Otim bo'ldurub edi va tog' ham bir kuruhga yovuq bor edi, bir sang to'da uchradi. Bir xayol qildimkim, ot horibtur va tog' ham yiroqroq,

¹ L. b. – Xoja Xasiy barlik kishi edi.

qayon boray. Sog'dog'imda ham yigirmacha o'q bor edi, tushay, bu sang to'dada o'qum boricha otqulashay, yana xotirg'a yettikim, shoyad tog'qa yetisha olg'aymen. Tog'qa yetgandin so'ngra bir pora o'qni belimga sonchib, tog'qa yormoshoy, zarbi poyimg'a xeyli e'timodim bor edi. Bu xayol bila yuruy berdim. Otimning ildam qotror majoli qolmaydur edi. Bular ham o'q yetar yerga yettilar. Men ham o'qumni ayab otmadim. Bular ham ehtiroz qilib yovuqroq kelmadilar. O'shul dastur bila irashib keladurlar edi. Oftob o'ltura tog'qa yovuq yettim.

Bardast aytilar: «Mundoq etib qayon borasiz? Jahongir mirzoni tutub kelturdilar. Nosir mirzo xud alarning ilgida edi».

Manga bu so'zlaridin xeyli dag'dag'a bo'ldi. Bu jihatdinkim, borchamiz aning iligida bo'lsak, xatar ehtimoli ko'ptur. Javob bermadim, tog'sari yurudum. Yana xeyli yo'l borilib edikim, yana so'z ayta kirishtilar. Bu navbat avvalg'idin muloyimroq hikoyat qildilar. Ottin tushub so'z ayta kirishtilar. Bularning so'ziga quloq solmay yuruy berdim. Dara yuqqori-o'q boradurmen. Namozni xuftang'acha bordim. Oxir bir uycha toshqa yettim, toshdin evruldum. Sekirtmalar bo'ldi, ot bora olmadi.

Alar ham tushtilar, hurmat va ta'zim bila hanuz muloyimroq ayta kirishtilar. Dedilarkim: – Mundoq etib qarong'u kecha yo'l yo'q, qayong'a borasiz? Ontlar ichadurlarkim, sizni Sulton Ahmad bek podshoh ko'tarur.

Men dedimkim: – Mening ko'nglum to'xtamaydur, anda bormoq xud mumkin emas. Agar

sizlarning xizmat qilur xayolingiz bor dur, xud mundoq xizmat qopusi yillarda topilmas. Meni bir yo'lg'a boshlangkim, xonlar qoshig'a bora. Sizlarga ko'ngullaringiz tilagandin ortuqroq rioyat va shafqat qilay. Yo'q, agar muni qilmasangiz kelgan yo'lungiz bila yoning. Mening olim – otig'im. Bu ham bir yaxshi xizmatdur.

Dedilarkim: – Koshki kelmasak edi, chun kelduk, sizni mundoq solib, ne tavr yonoling. Chun bormaysiz, har qayon borsangiz, xizmat-ta bo'lg'umizdur.

Men dedim: – Bas, sidqi qavlungizg'a ahd qiling.

Mushafdin mug'allaz ontlar ichtilar. Manga filhol itmiynone bo'ldi.

Dedimkim: – Ushbu daraning yaqinida keng qo'l yo'lini nishon berib edilar, o'shul yo'lg'a boshlang. Agarchi ahd qildilar, vale itmiynoni tamom bo'lmaydur edi, alarni ilgari yurutub, keyinlaricha yurudum.

Bir-ikki kuruh yo'l borilib edi, bir soy suyig'a yettuk. Dedimkim: – Keng qo'l yo'li ushbu bo'lmag'ay. Bular istib'od qildilar. Dedilarkim: – Ul yo'l keyli ilgaridur. Keng qo'l yo'li xud ushul ekandur. Bular g'adr maqomida bo'lub, yoshuruturlar. Yarim kechagacha borib, yana bir suvg'a yettuk. Bular bu zamon aytilarkim, g'ofil bo'lubturbiz. Keng qo'l yo'li keyin qolmish.

Dedikim: – Bas na qilmoq kerak?

Dedilarkim: – Ollimizda G'avo yo'li yaqindur. Ul yo'l bila Farkatqa osharlar. Ul yo'lg'a boshladilar.

Kechaning uch posig'acha yo'l kelduk. Kar-non soyig'akim G'avodin chiqib kelur, yettuk.

Bobo Sayromiy dedikim: – Siz munda turung, men borib, G'avo yo'lini ehtiyot qilib kelay. Muddatidin so'ngra keldi.

Dedikim: – Bo'rka boshliq bir necha kishi yo'lg'a kelibtur. Mundin o'tub bo'lmas.

Bu so'zni eshitib, mutahayyir bo'ldum. Viloyat orasi, tong yovuq va maqsad yiroq.

Men dedimkim: – Bir yerga boshlangkim, kunduz anda buqub, kecha bo'lg'och ot-mot il-iklab, Xo'jand suyini kechib, ul yuz bila Xo'jand sari boroling.

Dedilarkim: – Munda bir pushta bordur, anda buqsa bo'lur.

Qaron¹ dorug'asi Banda Ali edi. Dedi-kim: Otimizg'a va o'zumizg'a bo'g'uzdin gu-zar yo'qtur. Men Karnong'a boray, har nima muyassar bo'lsa kelturay.

Ul yerdin yonib Karnong'a yuzlanduk. Kar-nonning bir kuruhida turduk. Banda Ali bor-di, muddati madid qoldi. Subh uzlab keladur, bu hech kelmaydur. Xeyli iztirob bo'ldi. Tong otib edikim, Banda Ali qotrob keldi. Ot bo'g'uzi kelturmadi. Uch non kelturdi. Har birimiz bir nonni qo'yung'a solib, iztirob bila yonib, yuqor pushtaning ustiga chiqib bir qo'lda² otlarni bog'lab, har qaysimiz har tarafg'a bir balandiy-ga chiqib, qarovulluq qilib o'lturdik.

Tushga yovushub edikkim, Ahmad qushchi³ to'rt otliq bila G'avodin Axsi sarig'a borudur. Bir xayol qildimkim, Ahmad qo'shchini chor-

¹ Q. b. – Kirmon كيرمان

² Q. b. – suv qozg'on jarlarda.

³ Q. b. – qavchin.

lab, va'da va istimolat berib, otlarni olalingkim, otlarimiz bir kecha-kunduz harb-u zarbda edi, bo'g'uz ham topmaydur edi, xarob bo'lub edi. Yana ko'ngul to'xtamay bularg'a inona olmaduk. Qoshimdag'ilar bila so'zni munga qo'yduk-kim, bular bu oxshom Karnonda bo'lg'ularidur. Kecha inchkalik bila kirib, otlarni chiqoralingkim, o'zimizni bir yerga yetkura olg'aybiz.

Kun tush bor edikim, ko'z yetar yerda bir otning ustida bir nima iltirab ko'runadur. Hech bilmadukkim, ne nimadur? Bu xud Muhammad Boqirbek ekandur. Axsida bizning bila edi. Axsidin chiqqonda harkim bir taraf tushub edi. Muhammad Boqirbek bu sori tushub, yoshunub yuruydur ekandur.

Banda Ali bila Bobo Sayromiy ayttilarkim: – Otlar ikki kundurkim, bo'g'uz topmadi, julga tushub, otlarni o'tga qo'yoling.

Ul yerdin otlanib julgaga tushub, otlarni o'tg'a qo'yduk. Namozig'ar edikim, bir otliq kishi biz buqqon pushtag'a chiqib boradur, tonidim: G'avoning ulug'i – Qodirberdi. Bularg'a dedim: – Qodirberdini chorlang. Chorladilar. Keldi. Ko'rub, so'rub, inoyat, shafqat so'zlar aytib, va'dalar qilib, istimolatlar berib yibordimkim, arg'amchi va o'rg'oq va boltu va suv kechmak asbobi va ot bo'g'uzi va yegulik va agar muyassar bo'lsa, ot ham kelturgay. Namozig'ar xuftang'a miod qildukkim, ushbu yerda-o'q kelgay.

Kech namozig'ar shom edikim, bir otliq Karnon tarafidin G'avo sari o'tub boradur. Kimsen? – deb so'rduk. Javob berdi. Bu xud Muhammad Boqirbek ekandur. Boyo kun tushta ko'rgan

yerdin yana bir yerga yoshung'ali boradur ekandir. Andoq unini tag'yir berdikim, bovujudkim, yillar mening bila edi, aslo toniy olmadim. Agar ani tonib, o'zimizga qo'shsak xo'b edi. Muning o'tganidin xeyli dag'dag'a bo'ldi.

Qodirberdi G'avoiyg'a qilg'on miodqa tura olmaduk. Banda Ali dedikim: – Karnonning mahallotida xilvat bog'chalar borkim, anda hech kishi gumon eltmas, anda borib, Qodirberdiga kishi yiboraling, anda kelsun. Bu xayol bila otlanib, Karnonning mahallotig'a keldim, qish edi, xeyli sovuq edi. Bir eski kaval po'stin topib kelturdi, kiydim. Bir ayog' yumdon oshi kelturdi, ichtim. Ajab huzur qildim. Banda Alig'a dedikim: – Qodirberdig'a kishi yibordingmi?

Dedikim: «Yibordim». Bu besaadat rustoiy mardaklar xud bu kishini ittifoq bila Axsig'a, Tanbal qoshig'a yibormishlar. Bir tom uyga kirib, o't yoqib, bir zamon ko'zum uyqug'a bordi. Bu mardaklar purkorliq qilib, yana manga aytadurkim: – Qodirberdidin xabar olmag'uncha xud bu yerdin tebrab bo'lmas, bu yer mahallotni orasidur, yoqada xoli bog'lar bor, onda borsak, hech kim gumon eltmas.

Yarim kechada otlanib yoqa bog'qa bordim. Bobo Sayromiy tom ustidin ul sari, bu sari qarolaydur edi. Kun tushga yovuq tomdin tushub, mening qoshimg'a kelib aytadurkim: Yusuf dorug'a keladur.

Manga g'arib dag'dag'a bo'ldi. Dedikim: – Anglag'ilkim, meni bilib kelamudur.

Chiqib so'zlashib keldi. Dedikim, Yusuf dorug'a aytadur: – Aysi darvozasida bir yayoq

uchradi, dedikim, podshoh Karnonda falon yerdadur. Men kishiga bildurmay, bu yayoqni Vali xizonachi bilakim, urushta manga tushub edi, bir yerda saxlab, o'zum sizga chopa keldim. Beklarning bu ishtin xabari yo'qtur.

Dedikim: – Sening xotiringg'a ne yetadur?

Ayttikim: – Borcha navkarlaringizdur, ne choralari bor, bormoq kerak. Sizni podshoh ko'taradurlar.

Dedikim: – Muncha g'avg'o va urush bo'lub, ne e'timod bila boray. Ushbu mukolamada edukkim. Yusuf ikki tizi bila olimda bukulub ayttiki: – Ne yashuray. Sulton Ahmadbekning xabari yo'qtur. Shayx Boyazidbek sizning xabaringizni topib meni yibordi.

Muni degach, manga g'arib holate bo'ldi. Olamda jon vahmidin yamonroq nima bo'lmas emish. Men dedikim: – Rostlig'ini ayt! Agar ish o'zgacharak bo'lg'udektur, xud vuzu qilay. Yusuf ontlar ichti, vale aning ontig'a kim inonadur. O'zumda betoqatlig'e fahm qildim. Qo'ptum, bog' go'shasig'a bordim. O'zum bila andisha qildim. Dedikim, kishi agar yuz, agar ming yashasa oxir o'lmak kerak.

*Agar sad sol moni var yake ro'z,
Biboyad raft azin kohi dilafro'z.¹*

O'zumni o'lumga qaror berdim. O'shal bog'da bir suv oqib keladur edi, vuzu qildim, ikki rak'at namoz o'qudum, boshimni munojotqa qo'yub,

¹ Agar yuz yil va agar birgina kun yashasang ham, ko'ngil ochuvchi bu qasrdan ketish kerak bo'fur.

tilak tiladur edimkim ko'zum uyqug'a borib-tur. Ko'radurmenkim, Xoja Ya'qub Xoja Yahyoning o'g'li hazrati Xoja Ubaydulloning nabiralari ro'baro'yimga ablaq ot minib ko'p jamoati ablaqsuvor bilan keldilar. Dedilarkim: – G'am yemangiz. Xoja Ahror meni sizga yibordilar. Dedilarkim, biz alarg'a istionat tegurub, podshohliq masnadig'a o'lturg'uzubbiz. Har yerda mushkil ish tushsa, bizni nazarig'a kelturub yod etsun, biz anda hozir bo'lurbiz. Holo ushbu soat fath va nusrat sizning soridur. Bosh ko'taring, uyg'oning.

O'shal holda hushhol bo'lub uyg'ondimkim, Yusuf dorug'a va hamroqlari bir-biriga maslahat qiladurlarkim, bahona qilib hayal qiladur, tutub bog'lamoq kerak.

Bu so'zni men eshitib dedimkim: – Sizlar bu yo'sunluq so'zlarsiz, ammo ko'rayinkim, qaysingiz mening qoshimg'a kela olursiz?

Ushbu so'zning ustida edikim, bog'ning devoridin tashqari qalin otliqning kelur ovozi keldi. Yusuf dorug'a dedikim: – Biz agar sizni olib Tanbal qoshig'a borsak edi, bizing ishimiz ilgari borur edi. Holo yana ko'p kishi yiborib-tur, sizni tutg'ali.

Ul yaqin qildikim, bu ovoz Tanbalning yiborgan kishilarining otini tovushi bo'lg'ay. Bu so'zni eshitgach, manga iztirob ko'prog' bo'lub, qilur ishinni bilmadim.

O'shal hinda bu otliqlar bog'ning eshigini toparg'a fursat qilmay, devornikim, eski bo'lg'on yeridin raxna qilib kirdilar. Ko'rsamkim, Qutluq Muhammad barlos va Boboyi Parg'ariykim,

mening jon tortqon navkarlarim o'n-o'n besh, yigirma kishi bo'lg'ay, yetib keldilar. Bular yovuq kelib, ottin o'zlarini tashlab, yirog'din yukunub, ta'zim qilib, mening oyog'img'a yiqildilar. O'shal holda manga andoq holat bo'ldikim, go'yo manga yangi boshtin Xudoy jon berdi. Men dedimkim: – Ul Yusuf dorug'ani va bu turg'on muzdur mardaklarni tutub bog'lang. O'shal mardaklar qocha berib edikim, bir yerda birovni tutub bog'lab kelturdilar.

Men dedimkim: – sizlar qaydin kelasiz, nechuk xabar topdingiz?

Qutluq Muhammad barlos dedikim: – Axxidin qochib chiqq'anda sizdin ayrila tushganda Andijon keldimkim, xonlar ham Andijon kelib turlar. Men tut ko'rdumkim, Xoja Ubaydullo dedilarkim, Bobur podshoh Karnon degan kenttadur, borib ani olib kelingkim, podshohlik masnadi anga taalluq bo'lubtur. Men bu tushni ko'rub, xushhol bo'lub, ulug' xon, kichik xong'a arz qildim, xonlarg'a dedimkim: – Mening besh-olti ini-o'g'lum bor, yana bir necha yigit qo'shungiz. Karnon tarafidin borib xabar olayin. Xonlar dedilarkim: – Bizning xotirimizga ham yetadurkim, o'shal yo'lg'a borg'on bo'lg'oy.

O'n kishi tayin qildilar, dedilarkim: – O'shal sari borib, xo'b tahqiq qilib, xabar oling, bori-kim, zohiron xabar topqaysiz. O'shul so'zda edukkim. Boboyi Parg'ariy dedikim, men ham borib istarmen. Ul ham ikki yigit inisi bilan ittifoq qilib otlanduk. Bukun uch kundurkim yo'l kelabiz. Alhamdulillah sizni toptuk, dedilar. Aytilarkim: – Yurung, otlaning, bu

bog'lang'anlarni ham olib boraling; munda turmoq yaxshi emastur. Tanbal sizni munda kelgan xabaringizni topibtur. Har tavr qilib borib, xonlarga qo'shulaling.

O'shal zamon o'tlanib, Andijon tarafig'a yuruy berduk. Ikki kun bo'lub erdikim, hech taom yemaydur edim. Namozni peshin bo'lub edikim, bir ko'yni topib kelib, bir yerda tushub, o'lturub, kabob qildilar. O'shal kabobdan tuyg'uncha yedim. Andin so'ngra o'tlanib besh kunluk yo'lni ikki kecha va kunduz ilg'or qilib kelib, Andijong'a kirib, ulug' xon dodam va kichik xon dodamni ko'runush qildim va o'tkan kunlarni tamom bayon qildim. Xonlar bilan to'rt oy birga bo'lindi.

Har yerda borg'on-ko'rgan navkarlarim yig'ildilar. Uch yuzdin ko'prak kishi bor edi. Xotiring'a keldikim, tokay bu Farg'ona viloyatida sargardon bo'lub turmoq kerak, bir tarafig'a talab qiloyin deb.

VAQOYEYI SANAYI TIS'A VA TIS'A MIA¹

Muharram oyida Farg'ona viloyatidin Xuroson azimati bila Ilok yaylog'igakim, Hisor viloyatining yayloqlardindur, kelib tushtum. Ushbu yurtta yigirma uch yoshning ibtidosida yuzumga ustara qo'ydim. Ulug'-kichik meni umidvorlik bila irashib yuruydurganlar ikki yuzdin ko'prak, uch yuzdin ozroq bo'lg'ay edi. Aksar yayoq va iliklarida tayoq va oyoqlarida choruq va eginlarida chopon erdi. Usrat bu martabada edikim, bizning orada ikki chodir edi. Mening chodirim validamg'a tiqilur edi. Manga har yurtta olacho'q yasar edilar, olacho'qda o'turur edim.

Agarchi Xuroson azimati qililib idi, vale ushbu hol bila bu viloyattin va Xisravshohning navkarlaridin umidvorliq bor edi. Har necha kunda bir kishi kelib, viloyattin va el va ulusdin so'zlar taqrir qilur edikim, mujibi umidvorliq bo'lur edi. Bu fursatta Mullo Boboyi Pashog'ariynikim, Xisravshohqa elchilikka yiborilib edi, keldi. Xisravshohdin ko'ngulga yoqqudek so'z kelturmadi, vale el va ulusdin so'zlar kelturdi.

Iloktin uch-to'rt ko'ch bila Hisor navohisig'a Xoja Imod degan yerga kelib tushuldi. Bu yurtta Muhib Ali qo'rchi Xisravshohdin elchilikka keldi. Xisravshohkim, karam va saxovat bila mashhur edi, ikki navbat mururimiz aning viloyatidin voqe bo'ldi, adno kishilarga qilg'on

¹ To'qqiz yuz to'qqizinchi (1503–1504) yil voqealari. (Sarlavha Q. b. dan olindi, L. b. da sarlavhaning o'rni ochiq qolgan. Tarjimalarda «To'qqiz yuz o'n...» deyilgan).

insoniyatni bizga qilmadi. Chun el va viloyat-tin umidvorliq bor edi, biror manzilda darang boʻlur edi. Shirim tagʻoyikim, ul fursatta andin ulugʻroq kishimiz yoʻq edi, Xuroson borurgʻa tob kelturmay, yonar xayoli bor edi. Saripul-din shikast topib kelganda dagʻi koʻch-urugʻini yiborib, oʻzi jarida qalʻadorliqda turub edi, nomardroq kishi edi. Necha navbat mundoq harakatlar qilur edi.

Qabodyongʻa yetganda Xisravshohning ini-si Boqi Chagʻoniyoniykim, Chagʻoniyon va Shahrisafo va Tirmiz anda edi, Xatib Qarshiy-ni yiborib davlatxohliq izhori qilib, bizga qoʻshul-moq boʻldi. Amu suyini Uyoch¹ guzaridin oʻtgan-da kelib mulozamat qildi. Boqining istidosidin Tirmiz toʻgʻrisigʻa kelib koʻchlarini Amudin be-boqi kechurub, oʻzumizga qoʻshub, Kohmard va Bomiyon sarigʻakim, ul fursatta bu yerlar oʻgʻli Ahmad Qosimgʻakim, Xisravshohning hohar-zodasidur, taalluq edi, mutavajjih boʻlduqkim, Kohmardning Ajar otliq dara qoʻrgʻonida uy-el-ni berkitib, yana bir maslahat roʻy bersa, anga koʻra amal qilgʻaybiz.

Aybakka yetganda, Yor Ali Bilolkim, bu-runroq mening qoshimda edi, yaxshi qilichlar chopib edi, bu fataratlarda mendin ayrilib edi. Xisravshoh qoshida boʻlur edi, bir necha yigit-lar bila qochib keldi. Xisravshohning moʻgʻul-laridin davlatxohona soʻzlar arz qildi.

Darayi Zindongʻa yetganda Qanbar Alibek-kim, Qanbar Ali sallox ham derlar, qochib

¹ L. b. – Uyon.

keldi. Uch-to'rt ko'ch bila Kohmard kelib Ajar qo'rg'onida uy elni qo'yduk.

Ajarda ekanda Sulton Mahmud mirzoning Xonzoda begimdin bo'lgan qizirikim, burun Jahongir mirzog'a mirzolar tirigida ko'lub edilar. Jahongir mirzog'a nikoh bo'ldi. Ushbu asnoda Boqibek manga karrot va marrot aytur edikim: «Bir viloyatqa ikki podshoh va bir cherikka ikki mirsipoh mujibi tafriqa va vayronliq va sababi fitna va parishonliqdur. Nechukkim, debturlar:

*Dah darvesh dar gilime bixusband,
Du podshoh dar iqlime nagunjand,
Nim none gar xurad mardi Xudoy,
Bazli darveshon kunad nimi digar,
Mulki iqlime bigarad podshoh
Hamchunon dar bandi iqlimi digar¹.*

Umid andoqturkim, ushbu kun tongla Xisravshohning jami navkar va savdari kelib, podshoh qullug'ini qabul qilg'aylar. Anda bisyor mufattin ellar bor, misli Ayyubbekning o'g'lonlari va yana ham ba'zilar borkim, bizning mirzolarining orasida hamisha yamonliq va fitnag'a bois va muharrik edilar. Holo ushbu fursatta Jahongir mirzog'a Xuroson sari xayr va xo'bluq bila ruxsat berilsakim, tonglaliqta mujibi nadoomat va pushaymonliq bo'lmag'ay».

¹ O'n darvesh bir gilamda yotadi, ammo ikki podshoh bir iqlimga sig'maydi. Mardi Xudo bir nonning yarmini yesa, qolgan yarmini darveshlarga beradi: podshoh esa bir iqlim mulkini olsa, yana boshqa iqlimni ham olish fikriga tushadi.

Chun mening sha'nimda bu emas edikim, og'a-ini va uruq-qayoshtin har necha izoyliq¹ voqe bo'lsa, mendin mutanaffir bo'lg'aylar. Agarchi Jahongir mirzo bila bizning oramizda burun mulk va navkar jihatidin kuduratlar va niqorlar xeyli bo'lub edi, vale bu navbat ul viloyattin mening bila hamroh bo'lub kelib edi. Tuqg'onliq va xizmatgorliq maqomida edi. Bu zamon ham andin hech nima zohir bo'lmaydur edikim, sababi kudurat bo'lg'ay. Har necha takror bila arz qildi, men qabul qilmadim. Oxir Boqibek aytqondek, o'shul mufattinlarkim, Yusuf Ayyub va Baxlul Ayyub bo'lg'ay, mening qotimdin Jahongir mirzog'a qochib borib, shar va fitna maqomida bo'lub, Jahongir mirzoni mendin ayirib, Xuroson eltilar.

Ushbu fursatlar Sulton Husayn mirzodind Badiuzzamon mirzoga va manga va Xisravshohg'a va Zunung'a bir mazmun bila uzun-uzoq nishonlar keldi, ul nishonlar, bu tarihqacha mendadur. Mazmuni bu erdikim: «Sulton Ahmad mirzo va Sulton Mahmud mirzo va Ulug'bek mirzo ul og'a-inilar ittifoq qilib yuruganda men Murg'ob yoqasini berkittim. Mirzolar yovuq yetib hech ish qila olmay yondilar. Holo ham agar o'zbek mutavajjiq bo'lsa, men Murg'ob yoqasini berkitay. Badiuzzamon mirzo Balx va Shaburg'on va Andxud qo'rg'onlarig'a mazbut, kishilarini qo'yub, o'zi Gurzvon va Darayi Zangda ul ko'histonni berkitsun».

Mening bu navohiga kelgan xabarim borib edi. Manga ham yetib edikim: «Sem Kohmard va Ajarda ul ko'hpoyani berkitib, Xisravshoh

¹ L. b. – beadolik (سدادالبق)

Hisor va Qunduz qo'rg'onlarida e'timodiy kishilarini qo'yub, o'zi va inisi Vali Badaxshon va Xatlon tog'larini berkitsunlar. O'zbek ish qila olmay yong'usidur».

Sulton Husayn mirzoning bu xatlari mujibi noumidlik bo'ldi. Ne uchunkim, Temurbekning yurtida bu tarixda andin uluqroq podshoh ham yosh va ham viloyat va ham cherik bila yo'q edi. Andoq ko'z tutulur edikim, payo-pay elchilar va talochilar jald va qadog'a bila kelib, mundoq hukmlar kelturgay edikim: «Tirmiz va Kilif va Karki guzarlarida kema muncha yasang, ko'pruk asbobi bu miqdor tayyor qiling, yuqqori To'qqiz o'lum guzarlarni yaxshi ehtiyot qiling», to bu necha yil o'zbek tafriqasidin dilshikasta bo'lg'an ellarning ko'ngli qaviy bo'lub, umidvor bo'lg'aylar edi.

Sulton Husayn mirzodek Temurbek o'ring'a o'lturg'on ulug' podshoh g'animning ustiga yurumakni demay, yer berkitmakni desa, el va ulusqa ne umidvorliq qolg'ay? Bizning bila kelgan nekim bo'lg'an och uruq, uy-elni va Boqi Chog'oniyoniyni va o'g'li Muhammad Qosimning bo'lg'on sipohilarining va aymoqlarining ko'ch va mollarini tamom Ajarda qo'yub, cherikni olib chiqtuk. Xisravshohning mo'g'ullaridin mutavotir kishi kela boshladikim: – Toliqondin podshohning davlatxohlig'ini tilab, bo'lgan mo'g'ul ulusi ko'chub Ishkamish va Fulul sari torttuk. Podshoh jahd qilib botroq yeta kelsunlarkim, Xisravshohning aksar kishisi buzulub, podshoh qullug'ig'a kelgusidir.

Bu mahalda Shayboqxonning Andijonni olib, Hisor va Qunduz ustiga cherik otlang'on xabari keldi. Bu xabarin eshitib, Xisravshoh Kunduzda to'xtay olmay, bo'lg'an kishisini ko'churub, Kobul azimati qildi. Xisravshoh Qunduzdin ko'chub chiqqoch-o'q Qunduzni Mullo Muhammad Turkistoniy otliq O'bdon e'timodliq boyiri kishisi Shayboqxon uchun berkitti.

Biz Samtu¹ yo'li bila Qizil suv sari ingan mahalda uch-to'rt ming uylukkim, Xisravshohg'a taalluq va Hisor, Qunduzda bo'lur mo'g'ul ulusi ko'chlari bila kelib qo'shuldilar.

Qanbar Ali mo'g'ulkim, zikri muqarrar ke-libtur, parishongo'y kishi edi, aning atvori Boqibekka yoqmadi. Boqibekning xotiri jihatidin ruxsat berildi. O'g'li Abdushukur andin beri Jahongir mirzo mulozamatida bo'ldi.

Xisravshoh mo'g'ul ulusining bizga qo'shulg'onini eshitib, xeyli bepoy bo'lub, chorasini topmay, kuyovi Ya'qub Ayyubni elchilikka yiborib, qulluq va davlatxohliq izhor qilib, istid'o qilib turkim, agar ahd qilsalar, quluqqa kelgumdur. Chun Boqi Chag'oniyoniy ixtiyor edi, har nechakim, o'zini davlatxoh tutar edi, og'asining tarafini ham qo'ymas erdi. Ul barin bo'ldi. Bu yo'sunluq ahd bo'ldikim, aning joni amonda bo'lg'ay. Molig'a ham ne miqdorkim, o'zi ixtiyor qilsa, muzoyaqa bo'lmag'ay.

Ya'qubga ijozat bergandin so'ng Qizil suv quyi ko'chub, Andarob suyining qotilishig'a yovuq tushuldi. Tonglasi rabiulavval oyining avositida jarida Andarob suyini o'tub, Dushi

¹ «Shamtu» – deb ham o'qilgan.

navohisida bir ulug' chinor tubida o'lturdum. Ul tarafdin Xisravshoh hashamat va tajammuli bila qalin kishi bila keldi. Qoida va dastur bila yiroqtin tushub keldi. Ko'rushurda uch qatla yukunub, yong'onda ham uch qatla; so'rg'on-da va tortuq tortqonda biror yukundi. Jahongir mirzog'a va xon mirzog'a dag'i ushbu dastur bila yukundi. Qari tanbal mardak necha yillar o'z murodicha yurub, saltanattin tek bir xutba o'z otig'a o'qumaydur edi. Yigirma besh, yigirma olti qatla payo-pay yakundi va bordi va keldi. Toliqib tamom yiqila yozdi. Necha yil qilg'on bekligi va saltanati tamom burunidin chiqti. Ko'rushub tortiq tortgandin so'ngra buyurdumkim, o'lturdi. Bir gari, ilki gari o'turub, ul tarafdin-bu tarafdin so'z va hikoyat aytildi. Bovujudi nomardliq va namakharomliq kovok va bemazago'y ham bor ekandur.

Mundoq mahaldakim, e'tibor va e'timod navkarlari ko'zining olida xayl-xayl kelib manganavkar bo'ladurlar, o'zining ishi bu yerga yetibdurkim, podshohliq qilib yuruydurgan mardak mundoq xor va zor va xohi no xohi kelib ne tavrilar bila ko'rushti.

Ikki g'arib harfe andin sodir bo'ldi. Biri bukim, navkarlari ayrilg'on jihatdin anga ko'ngul beriladur erdi. Muqobalada mundoq dedikim, navkarlar to'rt qatla ushmundoq mendin ayrilibtur, yana kelibtur. Yana bir bukim, inisi Valini so'rdumkim, ul qachon kelgusidur? Amu daryosidin qaysi guzar bila o'tgusidur? Dedi-kim, agar guzar topilsa, xud bot kelgusidur, vale guzarlar suv ulg'aygach tag'ayyur topar.

Ul masal borkim, «On guzarro ob burd». ¹ Aning davlatining va navkarining intiqolida bu harfni aning tiliga tengri soldi. Bir-ikki garidin so'ng men o'tlanib o'rdug'a keldim: ul dag'i tushgan yeriga bordi. Ushbu kundin ulug'-kichik, yaxshi-yamon va bek va bek navkarlari xayl-xayl ko'ch va mollari bila andin ayrilib, bizga kela boshladilar. Tonglasi namozi peshin, namozi digargacha hech kishi aning qoshida qolmadi...

Ajab qodiredur, bir kishikim, yigirma-o'ttuz ming navkarning egasi edi, Qahlug'dingim² Darbandi Ohanin ham derlar, Hindukush tog'igacha Sulton Mahmud mirzog'a taalluq viloyot tamom aning taxti tasarrufida erdi. Hukumat bil-istiqlol qilur edi.³ Bir muhassili Hasan barlos otliq qari mardak Iloktin Uyojg'acha durushtluqlar bila muhassilliq qilib, bizni ko'churub tushurar edi. Xisravshohni bir yarim kunda urush yo'q, talosh yo'q bizningdek qallosh va mug'luq ikki yuz-ikki yuz ellik kishining qoshida andoq xor-u zor va zabun va ojiz qildikim, ne navkarig'a ixtiyori qoldi, ne molig'a, ne joniga.

Xisravshohni ko'rub yong'on oxshomi Mirzo xon mening qoshimg'a kelib, og'alarining qonini da'vo qildi. Bizning orada ba'zilar ham barin edilar. Filvoqe shar' va urf bila ham munosib andoq edikim, mundoq kishilar sazosisig'a yetgay.

Chun ahd bo'lub edi, Xisravshohni iroda qilib, farmon bo'ldikim, elta olg'oncha nimasini

¹ «Ul kechuvlarni suv olib ketdi».

² Q. b. – Qag'lug'adinkim.

³ Q. b. – bu ibora yo'q.

eltgay. Uch-to'rt qator xachir va tevada bo'lg'on javohir va oltun va kumush va nafis nimalarini yuklab eltti. Shirim tag'oyini qo'shub uzattukkim, Xisravshohni G'uri va Dahona yo'li bila Xuroson sari yiborib, o'zi Kohmard borib ko'ch-ni so'ngimizcha Kobul kelturgay.

Ul yurttin, Kobul azimati bila ko'chub, Xoja Zayd kelib tushtuk, ushbu kuni o'zbekning chopqunchisini Hamza biy mangg'it boshlab kelib, Dushi navohisini chopti. Sayid Qosim eshik og'ani va Ahmad Qosim ko'hburni ba'zi yigitlar bila yiborildi. Borib chonkunchini yaxshi bosib, bir necha bosh kesib kelturdilar. Ushbu yurtta Xisravshohning jebaxonasi-dag'i jebalarni ulashildi. Yetti-sekkiz yuzcha javshan va ko'ha bo'lg'ay edi. Xisravshohdin qolg'on nimalardin bir bu edi. Yana chiniylari dag'i xeyli tushti. O'zga ko'zga ko'ringudek nima yo'q edi.

Xoja Zaydtin to'rt-besh ko'ch bila G'urband kelduk. Ushtur shahrg'a tushganda xabar top-tukkim. Sherak arg'un-kim, Muqim arg'unning ixtiyor begi edi, bizdin bexabar cheriklab kelib, Boron¹ yoqasida o'turubturkim. Panjhir² yo'li bila o'tgan kishini Abdurazzoq mirzog'akim, ul mahalda Kobuldin qochib borib, tarkaloniy afg'on orasida Lamg'on navohisida edi, borg'oli ko'ymag'ay. Bu xabar topg'ach, ikki namoz orasida andin ko'chub, kecha tun qotib subh vaqtida Hubyon³ ko'tali bila oshtuk.

¹ Q. b. - Obi Bori.

² Q. b. - Pansher.

³ Q. b. - Xupiyon.

Suhaylni hargiz koʻrgan emas edim. Koʻtalgʻa chiqgʻoch-oʻq janub tarafi past yorugʻ yulduz koʻrundi, dedimkim, Suhayl boʻlmagʻay. Dedi-larkim, Suhayldur. Boqi Chagʻoniyoniy bu baytni oʻqudikim:

*Tu Suhayli to kujo tobi-yu kujo tole shavi,
Chashmi tu bar har ki meafxad nishoni
davlat ast.¹*

Oftob bir nayza boʻyi chiqib edikim. San-jid dara oyogʻida kelib tushuldi. Bizning il-gari borgʻon qorovul yigitlari va baʼzi yigitlar Qorabogʻning oyogʻi Egriyor navohisida She-rakka yetgan bila-oʻq ilik qoʻsharlar, oz-ogʻloq urush qondek qilur. Bot-oʻq ilgʻor bila tebrarlar. Sherakni va yana yetmish-sekson-yuz oʻbdon yigitlarni tushurub kelturdilar. Sherak²ning qonini bagʻishlab mulozim qilildi.

Xisravshohkim, Qunduzdin el-kuniga boq-may, Kobul azimati bila chiqar, anga taalluq el va ulus besh-olti boʻlak boʻlurlar. Badax-shondagʻilar bir boʻlak: Seydim Ali darbonkim, Rusto³ hazorasida edi, Panjhir bila oshib ush-bu yurtga bizga mulazamat qildi: yana bir boʻlak: Yusuf Ayyub va Bahlul Ayyub edi, alar dagʻl bu yurtga mulozamatqa keldilar. Yana bir boʻlak: Bahlul Ayyub inisi Vali Xatlondin: yana bir boʻlak: Yilonchiq va Nakdariy va Qoqshol va

¹ Sen Suhayl yulduzisen, qayergacha toblanib, qayerdan chiqsang va koʻzing kimga tushsa, davlat nishonasi boʻlur.

² Nusxalarda Sherak degan nom turli shakllarda yozilgan.

³ Q. b. – Rustox.

Qunduz viloyatida o'lturushluq aymoqlar: bu har ikki bo'lak Andarob va Sarob kelib, Panjhir oshar xayolda edilar.

Aymoqlar ilgarroq Sarobta edilarkim, keyindin Vali keldi. Aymoq yo'lini to'sub, urushub bostilar. O'zi qochib o'zbekka ketdi. Shayboqxon Samarqandning chorsuyida bo'ynig'a urdurdi. Bo'lg'on navkar-savdari talanib oldurub, aymoqlari bila ushbu yurtta qulluqqa keldilar. Sayid Yusufbek o'g'loqchi ham aymoqlar bila keldi.

Bu yurttin ko'chub, Qorabog' yonidag'i Oqsaroy o'langiga tushuldi. Xisravshohning el kuni zulm va besarliqqa o'rgangan el, elga zulm qila boshladilar. Oxir Seydim Ali darbonning bir o'bdon navkari birovning bir ko'za yog'ini tortib olg'an uchun eshikka kelturub tayoqlattim, tayoq ostida-o'q joni chiqdi. El bu siyosattin tamom bosildilar.

Ushbu yurtta ekanda, Kobulning ustiga filhol borurni-bormasni kengashildi. Sayid Yusufbek va ba'zining ra'yi barin edikim, qish yovuqtur, filhol Lamg'on borilg'ay. Andin yana na maslahat ro'y bersa, anga yarasha amal qililg'oy. Boqi Chag'aniyoniy va ba'zi Kobul ustiga bormoqqa so'zni qo'yub, andin ko'chub kelib Abo¹ qo'ruqig'a tushuldi. Ushbu yurtta mening validam xonim va Kohmardta qolg'on uruq sa'b muxotara o'tkarib, kelib qo'shuldilar.

Tafsili budurkim, Shirim tag'oyini Xisravshohqa qo'shub yiborilib edikim, Xisravshohni Xuroson uzatib o'zi borib uruqni kelturgay. Dahonag'a yetganda Shirim beix-

¹ Q. b. – Ayo.

tiyor bo'lar. Xisravshoh Shirim bila-o'q Kohmard borur. Xoharzodasi Ahmad Qosim Kohmardta edi. Xisravshoh Ahmad Qosimni barin qilib, uruqqa yamonliq maqomida bo'lurlar, Boqi Chag'oniyoniyning qalin mo'g'ul navkarlari uruq bila Kohmardta edilar. Maxfiy Shirim bila so'zni bir yerga qo'yub, Hisravshoh va Ahmad Qosimni tutmoq bo'lurlar Xisravshoh bila Ahmad Qosim Ajar darasining yonedagi yo'l bila qochib, Xuroson borurlar. Mo'g'ullarning bu yakjihatlig'idin g'araz o'zlarini alardin ayirmog'liq ekandur.

Uruq bila bo'lg'on el Xisravshohning dag'dag'asidin xalos bo'lub, Ajardin chiqib, Kohmardqa yetgan mahalda Isiqonchi¹ eli yog'iqib yo'lini to'sarlar. Aksar uruqni Boqibekka taalluq el va ulusini alar taladilar. Qul Boyazidning o'g'li – Tezak kichik edi, anda yasir tushti. Uchto'rt yildin so'ngra Kobulda keldi. Uruq talatib, oldurub, biz o'tgan Qipchoq yo'li bila oshib, Abo qo'rug'ida kelib bizga qo'shuldilar.

Andin ko'chgan bila orada bir qo'nub, Cholok o'langig'a tushuldi. Cholok o'langida kengashib, so'zni muhosara qilmoqqa qo'yub, ko'chub, men o'zum nekim bo'lg'on g'ul kishisi bila Haydar Taqining bog'i bila Qul Boyazid bakavulning go'rxonasining oralig'ida tushtum. Jahongir mirzo burong'or odami bila bizning ulug' chahorbog' tushti. Nosir mirzo juvong'or eli bila Qutluq qadamning go'rxonasining orqasidagi o'langga tushti. Doim kishimiz borib Muqim

¹ Q. b. – Siqonchi.

bila so'zlashurlar zdi. Gohi uzr kelturub, gohi yumshoq so'z aytur edi. Muning uchun edikim, biz Sherakni olg'ach-o'q otasig'a og'asig'a kishi chopturg'ondur. Ota-og'asidin umidvorlig'i bor jihatdin darang qilur edi.

Bir kun farmon bo'ldikim, g'ul, burong'or, juvong'or tamom jeba kiyib, otlarig'a kejim solib, yovuqroq borib ham yaroq ko'rulgay, ham ichkarigi elga siyosati bo'lg'ay. Jahongir mirzo burong'or to'g'risidin Ko'cha bog' bila ilgarrak keldilar. G'ulning olli chun suv edi, men g'ul kishisi bila Qutluq qadamning go'rxonasi tarafidin kelib, pushtadin ilgarigi tepa ustiga chiqtim. Irovul kishisi Qutluq qadamning ko'prugining ustiga tiqilib bordilar. Ul mahal ko'pruk yo'q edi. Yigitlar sho'xluq qilib, Charmgaron darvozasig'acha choptilar. Oz-og'loq chiqg'on kishisi urushqa turmay qochqon bila qo'rg'ong'a kirdilar.

Arkning xokrezi balandida qalin Kobul eli tafarojqa chiqib edilar. Qochqon bila qalin girdlashib indilar. Ko'pruk bila darvoza orasidag'i balandliq pushtaning ustida yo'l o'rtasida qalin chuqurchoqlar qazib, xaspo'sh qilib edilar. Sultonquli chinoq va ba'zi yigitlar chopqonda tiqilib yiqilib edilar. Burong'or tarafidin bir-ikki yigit. Ko'cha-bog' ora chiqqonlar bila bir-ikki qilich solishib olishurlar. Chun urushqa farmon yo'q edi, ushmuncha bila yondilar.

Qo'rg'on eli bisyor oldaradilar. Muqimbeklar-ni orag'a solib qulluqqa kelib, Kobulni topshirmoq bo'ldi. Boqi Chag'oniyoniyning tavasuti bila kelib mulozamat qildi. Biz dag'i inoyat va shafqat maqomida bo'lub, dag'dag'a va ta-

vahhumni aning xotiridin raf' qilduk. Muqar-rar bo'ldikim, tonglasi bo'lg'an navkar va sav-dar va mol va jihoti bila chiqib, qo'rg'onni top-shirg'ay. Xisravshohqa taalluq ellar besarliq va dast andozliqqa o'rgangan ellar edi. Muqimning ko'chini chiqarmaslar. Jahongir mirzoni va No-sir mirzoni va ulug' beklarni va ichkilarni ta-yin qildukkim, Muqimni va Muqimg'a taalluq el-kunni mol va jihotlari bila Kobuldin chiqar-g'aylar. Muqimg'a yurt Tebani¹ tayin qilduk.

Sabohi mirzolar va beklar darvozalarg'a borib, xaloyiqning hujum va g'avg'osini ko'p ko'rub, manga kishi yibordilarkim, siz kelma-guncha bu elni kishi man' qilib bo'lmas. Oxir o'zum otlandim. To'rt-besh kishini o'qlab, bir-ikki kishini pora-pora qildurdum. G'avg'o bosildi. Muqim mutaallaqlari bila solim va sa-lomat yoorib, Tebaga tushti.

Rabiulavval oyining avoxirida tengri taolo fazl va karami bila Kobul va G'azni mulk va viloya-tini bejang-u jidol muyassar va musaxxar qildi.

Kobul viloyati to'rtunchi iqlimdindur. Ma'mu-raning o'rtasida tushubtur. Sharqi Lamg'o-not va Purshovar² va Hashang'ar va ba'zi Hind viloyatidur. G'arbi ko'histonlardurkim, Karnud³ va G'o'r ul ko'histondadur. Bu tarixda hazora va nakdariy qavmning ma'man va maskani bu tog'lardur.

Shimoli Qunduz va Andarob viloyatidur. Hindukush tog'i vositadur.

¹ Q. b. – Tapa.

² Q. b. – Pushovar (پشاور)

³ L. b. – Kazev (کزو)

Janubi Farmul va Nag'ar va Bannu va Afg'onistondur.

Muxtasar viloyatdur. Tuloniy voqe bo'lub-tur. Tuli mashriqdin mag'ribqa boqadur. Atrof va javonibi tamom tog'dur. Qal'asi tog'qa payvastdur. Qal'aning g'arb-janub tarafi kichikrak parcha tog' tushubtur. Ul tog'ning qullasida Shohi Kobul imorat qilgani uchun bu tog'ni Shohi Kobul derlar. Bu tog'ning ibtidosi Devrin tangisidindur. Dehi Ya'qub tangisida tunganur, girdo-girdi ikki shar'iy bo'lg'ay. Bu tog'ning domanasi tamom bog'ottur. Mening ammim Ulug'bek mirzo zamonida Vays atka mirzoning atkasi bu tog'ning domanasida bir ariq chiqaribtur. Domanadagi bog'ot tamom bu ariq bila ma'murdur. Poyoni ob Gulkina otliq mahal-ladur, xilvat go'shadur, G'alaba lavandliqlar anda qililib edi. Gohi mutoyaba yo'sunluq Xoja Qofizning bu baytini tag'iyr bila o'qilur edikim:

*Ey xush on vaqte ki be povu sar ayyome
chand
Sokini Gulkina budem ba badnomiye chand.¹*

Qal'aning janubida Shohi Kobulning shar-qida bir ulug' ko'l tushubtur. Girdo-girdi bir sha'riy yovushur. Shohi Kobul tog'idin Kobul sari boqa uch kichikrak chashma chiqar, ikkisi Gulkina navohisidadur. Bir chashma boshida Xoja Shamu² otliq mazordur: yana birida Xoja

¹ Qanday yaxshi vaqtlar ediki, necha kunlar bosh oyoqsiz bir qancha yomon otliqlar bilan birga Gulkinada turar edik.

² Q. b. – Xoja Shams. L. b. – varaq chetiga forscha: «Asl Xoja Shamsiddin Jonboz meguftaand ba sababe ixtisor avom Xoja Shamu meguftaand», – deb yozib qo'yilgan.

Xizrning qadamgohidur. Bu ikki yer Kobul elining gashtgohidur. Yana bir chashma Xoja Abdusamad to'g'risidadur. Xoja Ro'shnoyi derlar.

Shohi Kobul tog'idin bir tumshuq ayrilib ke-libtur, O'qobayn derlar. Uqobayndin boshqa yana parchag'ina tog' tushubtur. Kobul qal'asi-ning arki bu tog'ning ustidadur. Ulug' qo'rg'on arkning shimolidudur. Bu ark g'arib murtafe' va yaxshi havoliq yer voqe' bo'libtur. Bu ulug' ko'l va uch o'langgakim, Siyahsang va Sunan qo'rg'on va Cholok bo'lg'ay, mushriftur. Borcha oyoq ostidadur. O'langlar sabzaliq mahalida bisyor yaxshi ko'runur. Yozlar Kobulda shimoliy yeli kam esadur. Paravon yeli derlar. Arkta shimol sari darichaliq uylar asru xushhavodur.

Mullo Muhammad Tolib Muammoyi Kobul arkining ta'rifida bir baytni Badiuzzamon mirzo otig'a bog'lab o'qur edi. Bayt budurkim:

*Bixo'r dar arki Kobul may, bigardon kosa
paydarpay,
Ki ham ko'xastu ham daryo-u ham shahrastu
ham sahro.¹*

Hindustoniy g'ayri Hindustonni Xuroson der. Nechukkim, arab g'ayri Arabni Ajam der. Hinduston bila Xuroson orasida xushki yo'ldin ikki bandardur. Bir Kobul yana bir Qandahor. Koshg'ar va Farg'ona va Turkiston va Samarqand va Buxoro va Balx va Hisor va Badax-

¹ Kobul arkida may ich, kosani ketma-ket aylantirki, bu yer ham tog', ham daryo, ham shahr, ham sahrodir.

shondin korvon Kobulg'a kelurlar, Xuroson-din korvon Qandahorg'a kelur. Hinduston bila Xurosong'a vosita bu viloyattur. Bisiyor yaxshi savdoxonadur. Savdogarlar Xitoyg'a yo Rung'a borsalar, ushmuncha-o'q savdo qilg'aylar. Har yil yetti-sekkiz-o'n ming ot Kobulg'a kelur. Quyi Hindustondin o'n-o'n besh-yigirma ming o'yluq korvon Kobulga kelur. Hindustondin¹ oq raxt va qand² va shakar va aqoqir keltururlar. Ko'p savdogar bo'lg'aykim, dah si, dah chilg'a³ rozi bulmag'ay.

Xuroson va Iroq va Rum va Chin matoyi Kobulda topilur. Hindustonning xud bandaridur.

Garmser va sardseri yovuqtur. Kobuldin bir kunda andoq yerga borsa bo'lurkim, hargiz qor yog'mas. Ikki soati nujumiyda andoq yerga borsa bo'lurkim, hargiz qori o'ksumas, magar ahyonan andoq yoz kelgaykim, qor qolmag'ay. Garmseriy va sardseriy mevalar Kobul tavrbe-yida ko'ptur va yovuqtur. Kobul va kentlarida sardseriy mevalardin uzum va anor va o'ruk va olma va bihi va amrud va shaftolu va olu va sanjid va bodom va yang'oq qo'ptur. Men olu-bolu niholi keturub ekturubmen, yaxshi olu-bolular bo'ldi va hanuz taraqqiyda edi.

Garmseriy mevalar misli norunj va turunj va amluk va nayshakar Lamg'onottin keltururlar. Nayshakarni kelturub ekturub edim.

¹ Q. b. – «Hinduston» so'zidan keyin تاغی بردە so'zi bor. L. b. – To'rt harfli boshqa so'z bor, o'qilmadi.

² Q. b. – «va nabot».

³ Dah si, dah chil – o'nga o'ttiz, o'nga qirq uchdan bir, to'rttdan bir ma'nosida.

Chilg'o'zani Nijrovdin¹ keltururlar. Kobul atrofidagi Ko'histondin asal bisyor kelur. Shahd-xonalari bordur. Bir G'azni tarafidagi Ko'histondin asal kelmas, Kobulning rivochi xo'bo'fur, bihi bila olusi ham yaxshidur. Bodringi dag'i yaxshi bo'fur.

Bir nav' uzum bo'fur, obi angur derlar, xeyli yaxshi uzumdir. Mast chog'irlari bo'fur. Xoja Xovand Said Domani ko'hiyning chog'iri tundluq bila mashhurdur. Agarchi holo taqlid birla andin ta'rif qiladurlarki: «Lazzati may mast donad, hushyoronro chi haz»².

Ekini yaxshi bo'lmas³. Agar Xuroson tuxumi bo'lsa, fil jumla yamon bo'lmas. Bisyor latif havosi bor. Kobul havosidek havoliq yer olamda ma'lum emaskim, bo'lg'ay. Yozlarda kechalari po'stinsiz yotib bo'lmas. Qishlar agarchi qori aksar ulug' tushar, vale mufrit sovug'i yo'qtur. Samarqand va Tabriz ham xushhavoliqqa mashxurdur, vale mufrit sovuqlari bordur.

Atrofida to'rt xo'bo' o'lang voqe bo'lubtur. Sharq-shimoliy tarafi So'nak qo'rg'on o'langidur. Kobuldin ikki kuruh bo'lg'ay, yaxshi o'langdur. O'ti otqa sozvordur, chibini kam bo'fur.

G'arbi-shimoli Cholok o'langidur, Kobuldin bir kuruhdur, keng o'langdur, yozlar chibini otqa tashvish berur.

¹ Q. b. – Buxorodin.

² «May lazzatini mast bulur, xushyorlarga bundan nima bahra bor?».

³ Q. b. – Shu ibora bor: «Ziroyati joruyi pajdi(?)dur. Qovuni ham yaxshi bo'lmas».

G'abri Devrin o'langidur. Agarchi munda ikki o'lang, bir Tepaning o'langidur. Yana bir Qo'sh Nodir o'langidur. Bu hisob bila besh o'lang bo'lg'ay, har ikki o'lang Kobuldin biror shar'iy bo'lg'ay, muhtasar o'langlardur. Vale o'ti otqa bisyor sozvordur, chibini bo'lmas. Kobul o'langlarida bu o'langlarcha o'lang yo'qtur.

Sharqi Siyahsang o'langidur. Charmgaron¹ darvozasi bila bu o'lang orasida vosita Qutluq qadamning go'rxonasidur. Yozlar chibini ko'p bo'lur uchun, bu o'langni kam qo'rurlar. Bu o'langa payvast Kamariy o'langi ham bor. Bu e'tibor bila Kobul gardida olti o'lang bo'lg'ay, vale to'rt o'lang mashhurdur.

Kobul viloyati berk viloyattur, yot yog'i bu viloyatqa kirmagi mushkuldur. Balx va Qunduz va Badaxshon bila Kobul orasida Hindukush tog'i tushubtur. Bu tog'din yetti yo'l oshar, uch yo'l Panjhirdadur². Yuqoriroq Javak ko'talidur, andin quyiroq Tul, andin quyiroq Bozorak. Bu uch ko'taldin yaxshirog'i Tuldur. Vale yo'li bir nima uzunroqdur. G'olibo bu jihattin Tul derlar. To'g'rirag'i Bozorakdur. Tul va Bozorak Sarobqa tushar. Bozorak ko'talini Sarob eli Porandiy otliq kentiga inar uchun Porandiy ko'tali derlar, Yana bir Parvon yo'lidur, ulug' ko'tal bila Parvon orasida yana yetti ko'tal bor uchun Haftbacha derlar. Andarob tarafidin ikki yo'l kelib, ulug' ko'talda qotilib, Haftbacha bila Parvong'a kelur. Bisyor pur mashaqqat yo'ldur. Uch yo'l

¹ L. b. – Charmgarlar.

² Q. b. – Panjsher.

G'o'rbandtadur. Parvon yo'lig'a yovuqroq yo'l Yangi yo'l ko'talidur. Valiyon va Hinjong'a inar. Yana bir yo'l Qipchoq ko'talidur. Andarob suyi bila Qizil suvning qotilishig'a inar. Bu yo'l dag'i yaxshidur.

Yana bir yo'l Shibartu ko'talidur.¹ Yozlar suv ulg'aysa, Shibartu ko'talidin oshib, Bomiyon va Sayg'on² bila yururlar. Qishlar Obdara bila yurushurlar. Qishlar to'rt-besh oy jami' yo'llar bog'lanur, bir Shibartu yo'lidin o'zga. Bu ko'talidin oshib, Obdara bila yururlar, Yozlar suvlar kirganda ham bu yo'llarning qishqi hukmi bor. Ne uchunkim, Takob³ yo'llari suv ulug' bo'lg'on-din, o'tub bo'lmas. Takob bila yurumay, tog' bila yurur xayol qilsalar, ubur mutaazzirdur. Kuzlar uch-to'rt oykim, qor kamdur va suvlar kichik bo'lg'onda, bu yo'llarning uburi mahal-lidur. Tog'lardin va tangilardin quttout-tariyq kofir kam emastur. Xuroson tarafidin kelur yo'l Qandahor bila kelur. Bu yo'l tup-tuz yo'ldur. Bu yo'lda ko'tal yo'qtur.

Hinduston tarafidin to'rt yo'l chiqar, bir yo'l Lamg'onot bila. Bu yo'lda Xaybar tog'larida oz-roqcha ko'tal bor. Yana bir yo'l Bangash bila, yana bir yo'l Nag'ar bila, yana bir yo'l Far-mul bila. Bu yo'llarda ham ozroqcha ko'tallar bor. Sind suyining uch guzaridin o'tub, bu yo'llar bila kelurlar. Nilob guzaridin o'tganlar Lamg'onot bila kelurlar. Qishlar Kobul suyi bila Sind suyining qotilishidin yuqqorroq Sind

¹ Q. b. - «Yana bir yo'l Panjsher ko'talidur» iborasi bor.

² Q. b. - Sayqon.

³ Q. b. - Obdara.

suyini¹ va Kobul suyini guzar bila o'tarlar. Men aksar Hinduston cheriklarigakim keldim, guzarlar bila o'ttim. Bu navbatkim, kelib, Sul-ton Ibrohimni bosib olib, Hindustonni fath qildim. Nilob guzaridin kema bila o'ttim. Ushmundin o'zga Sind suyidin hech yerdin kemasiz o'tsa bo'lmas, Dinkut guzari bila o'tganlar Bangash bila kelurlar. Chupora guzari bila o'tganlar agar Farmul bila kelsalar, G'azni kelurlar va agar Dasht bila borsalar, Qandahor borurlar.

Muxtalif aqvom Kobul viloyatida bordur. Julgasida va tuzlarida atrok va aymoq va a'robdur. Shahrida va ba'zi kentlarida sortlardur. Yana ba'zi kentlarida va viloyotida pashoyi va paroji va tojik va baraki va afg'ondur. G'azni tog'larida hazora va nakdaridur. Bularning orasida ba'zi mo'g'uliy til bila hikoyat qilurlar. Sharqi shimoliy tarafidagi tog'lar kofiristondur, misli, Katur va Gabrak va janubi Afg'onistondur.

O'n bir-o'n ikki lafz bila Kobul viloyatida tal-lafuz qilurlar: arabiy, forsiy, turkiy, mo'g'uliy, hindiy, afg'oniy, pashoyi, parojiy, gabriy, barakiy, lamg'oniy. Muncha muxtalif aqvom va mug'oyir alfoz ma'lum emaskim, hech viloyatta bo'lg'ay.

Viloyoti o'n to'rt tumandur. Samarqand va Buxoro va yana bu navohida viloyatchalarni-kim, bir ulug' viloyat tahtida bo'lg'ay, tuman derlar. Va Andijon va Koshg'ar va ul orada o'rchin va Hindustonda pargana derlar. Agar-

¹ Q. b. – «Va Savod suyini» bor.

chi Bajur¹ va Savod Parshovar² va Hashang'ar burun Kobul tavobeyidin ekandur. Bu tarixda afg'on qavmi jihatidin ba'zi buzulub, ba'zisi afg'ong'a kiribtur. Viloyatlig'i qolmabtur.

Sharqi Lamg'onottur. Bu viloyat besh tuman va ikki bo'luktur. Lamg'on tumanlaridining ulug'rog'i Ningnahor, ba'zi tarixlarda Nagahor bitibturlar. Dorug'anishin yeri Odinapurdur. Kobuldin sharq sari o'n uch yig'och yo'ldur. Ningnahor bila Kobul orasi asru qattiq yamon yo'ldur. Uch-to'rt yerda kichikrak-kichikrak ko'tallari, ikki-uch yerda tangilari bor. Xirilji³ va jami' kuttout-tariyq afg'onlardur, bu yo'lni urarlar erdi. Bu orada ma'mura yo'q erdi. Qo'ruqsoyning oyog'i Qoratuni men ma'mura qildurdum. Bu jihattin yo'l amin bo'ldi.

Garmser bila sardser orasida fosila Bodom Chashma ko'talidur. Bu ko'talning Kobul tarafida qor yog'ar. Qo'ruq soy va Lamg'onot tarafida qor yog'mas. Bu ko'taldin ingach, kishi o'zga olame mulohaza qilur: yig'ochlar o'zgacha, o'tlar o'zgacha, jonivorlar o'zgacha, elining rohu rasmi o'zgacha.

Ningnahor to'qqiz rudtur. Sholisi va bug'doyi yaxshi bo'lur va norunji va turunji va anori bisyor bo'lur, yaxshi bo'lur.

Odinapur qo'rg'onining olida, janubiy tarafida, bir balandida tarixi to'qqiz yuz o'n to'rtta bir chahorbog' soldim, Bog'i Vafog'a mavsum, rudqa mushrif, rud qo'rg'on bila bog'ning

¹ Q. b. – Bijovur.

² Q. b. – Pashovar.

³ Q. b. – Karxji.

orasidadur, norunji va turunji va anori bisyor bo'lor. Pahorxonni bosib, Lohur va Dibolpurni fath qilg'an yili qila kelturub, ekturub edim, sabz bo'lub edi. Andin burung'i yili nayshakar dag'i ekib edilar, yaxshi nayshakarlar bo'lub edi. Badaxshon va Buxorog'a ul nayshakarlardan yiborilib erdi. Yeri murtafi', oqar suyi mutasil, havosi qishlar mutadil, bog'ning o'rtasida bir kichikrak pushta voqe bo'lubtur, bir tegirmon suyi bu bog'ning o'rtasidin va bog'ning nchidagi nushtaning ustidin hamisha joriydir. Bog' o'rtasidag'i chorchaman bu pushtaning ustida voqe bo'lubtur. Bog'ning g'arbi janubiy tarafida dahi dardah havzedur, atrofi tamom norunj daraxtlaridur, anor daraxtlari ham bor. Bu havzning girdo-girdi tamom sebargazordur. Bu bog'ning ayn yeri ushbudur. Norunjlar sarg'arg'on mahalda bisyor yaxshi ko'runur, xeyli yaxshi bog' voqe bo'lubtur.

Ko'hi Safid Ningnahorning janubida voqe bo'libtur, Bangash bila Ningnahorg'a vosita ushbu tog'dur. Otliqqa yo'l yo'qtur. To'qquz rud ushbu tog'din chiqar, bu tog'din qor hargiz o'ksumas. Bu jihattin g'olibo Ko'hi Safid derlar, Quyi julgada hargiz qor tushmas. Fosila tushchilik yo'ldur. Bu tog' domanasida yaxshi havoliq yerlar bor. Suvlari sovuq, yaxga anda hech ehtiyoj bo'lmas.

Odinapur qo'rg'onining janub tarafi Surx rudtur. Qo'rg'on balandida voqe bo'lubtur. Rud tarafi qirq-ellik qari yakandoz tog'dur. Shimolida bir parcha tog' tushubtur, xeyli berk qo'rg'ondur. Bu tog' Ningnahor bila Lamg'otnotning orasidadur. Har qachon Kobulda

qor yog'sa, bu tog'ning qullasig'a qor tushar. Lamg'on eli Kobulda qor yoqg'onini mundin bilurlar. Bu Lamg'onotqa Kobuldin kelur yo'l agar Qo'ruqsoy bila kelsalar, bir yo'l Diri¹ ko'talidin oshib borib, Bulondin Boron suyidin o'tub Lamg'onot sori borur. Yana bir yo'l Qo'ruqsoy quyi Qoratudin² o'tub³ Lamg'on borur. Agar Nijrov bila kelsalar, Badrovdin o'tub, Qarangriqdin⁴ o'tub, Bodich ko'talig'a borur.

Agarchi Lamg'onning bez tumanidin bir tumani Ningnahordur, vale Lamg'onotni ul uch tumanga itloq qilurlar. Ul uch tumandin biri Alishang tumanidur, shimolida Hindukush tog'ig'a payvasta qorliq ulug' berk tog'lardur. Bu tog' tamom kofiristondur. Alishangg'a yovug'roq kofiriston Mildur. Alishang rudi Mildin chiqar. Hazrati Nuh payg'ambarning otasi Mehtar Lomning qabri Alishang tumanidadur. Ba'zi tarixta Mehtar Lomni Lamak Lamkon debturlar. Ul elni heyli mulohaza qililibturkim, ba'zi mahal «kof» o'runig'a «g'ayn» talaffuz qilurlar, bu jihattin g'olibo bu jihattin Lamg'on debturlar.

Yana bir tumani Alingordur. Alingorg'a yovuqroq kofiriston Kavardur, Alingor rudi Kavardin chiqar. Bu ikki rud Alishang bila Alingordin o'tub, bir-biriga qotilib, yana bir tumandinkim Mandrovardur, quyiroq Boron suyiga qotilur.

¹ Q. b. – Dibri.

² Q. b. – Qurobuq.

³ Q. b. – «O'tub»dan keyin «Ulug' Nurdin Boron suyini kechib. Bodij ko'talidin o'tub» iborasi bor.

⁴ Q. b. – Qaronoykiriq.

Ul ikki bo'lukdin bir Darayi Nurdur, g'ayri muqarrar yere voqe bo'lubtur. Daraning peshgohida qo'rg'oni bir tumshuqning ustida tushubturkim, ikki tarafidin rudtur. Sholipoyasi bisyordur, yo'lsiz yurub bo'lmas. Norunj va turunj va garmseriy mevalari bordur. Ozroqcha xurmo yig'ochi ham bordur. Qo'rg'onning ikki tarafidagi rud yoqalari xamom daraxttur, ko'pragi emluk yig'ochidur. Bu mevani ba'zi turklar qora yemish derlar. Darayi Nurda bisyor bo'lur, o'zga yerda bu mevani ko'ruvmadi. Uzumi ham bo'lur, uzumi tamom daraxt ustidadur. Lamg'onotda Darayi Nur chog'iri mashhurdur, ikki nav' chog'ir bo'lur: arra toshi va suhon toshi derlar. Arra toshi zardchadur, suhon toshi xushrang qip-qizil bo'lur, vale arra toshi kayfiyatliqroqtur. Agarchi ikkalasining kayfiyati shuhraticha yo'qtur.

Yuqqori bir daralarida maymun bo'lur, mundin quyi Hinduston sari ham maymun bo'lur, mundin yuqqari bo'lmas. Bu el burun tunguz saxlar edilar, bizning zamonda bar-taraf qildilar.

Yana bir tuman Kunar va Nurgildur. Bu tuman Lamg'onottin boshqaroq voqe bo'lubtur. Kofiristonning ichida viloyat sarhadidir. Agarchi ulug'lug'i Lamg'on tumanlaricha bordur, vale bu jihattin moli kamdur, ozroq berurlar. Chag'onsaroy suyi sharq-shimoliy tarafidin kofiristonning ichi bila kelib, bu viloyatning orasi bila o'tub, Koma bo'lukida Boron suyig'a qo'shulub, sharqqa boqa oqar. Nurgil bu suv-

ning g'arb tarafidur. Kunar sharq tarafi. Mir Sayid Ali Hamadoniy rahmatulloh sayohat qilib kelib, Kunardin bir shar'i yuqorroq naql qilib-turlar. Muridlari mundin Xatlong'a eltibturlar. Naql qilg'on yerlari holo mazore bo'lubtur. Tarix sanayi 925 dakim, Chag'onsaroynikim, kelib oldim, tavof qilib edim. Norunj va turunj va gurunji bisyor bo'fur. Tund chog'irlar ham ko-firistondin keltururlar.

Bu el ajab nima rivoyat qildilar, mahol ko'runadur, vale bu xabar tavoturg'a yetishti, bu tumanning quyi oyog'ikim, Lamata kandi¹ derlarkim, andin quyi Darayi Nur va Atarg'a taalluqdir. Ushbu Lamata kandidin yuqqori tamom bu Ko'histondakim, Kunar va Nurgil va Bajur va Savod va ul navohi bo'lg'ay bu shoye'durkim, har xotunkim o'lsa, ani bir katqa solib, to'rt tarafidin to'rt kishi ko'tarurlar, agar yamon ish qilmog'on bo'lsa, bu ko'targanlarni bexost mutaharrak qilur, bu martabakim, takalluf qilib, o'zlarini saxlasalar, o'luk kattin tushar, agar yamon ish qilg'on bo'lsa, harakat qilmas. Muni yolg'uz bu eldin eshitilmadi. Bajur va Savod va jami' bu Ko'histon eli muttafiqul-kalima bu harfni rivoyat qildilar. Haydar Ali Bajuriykim, Bajurning sultoni edi, ul viloyatni xeyli yaxshi zabt qilib edi, onasi o'lganda yig'lamas, aza tutmas, qora chirmamas. Derkim, boring, onamni katqa soling, agar mutaqqarrik bo'lmasa, kuydurgumdur. Katqa solurlar, ma'hud harakat ul o'lukdin sodir bo'fur. Muni eshitgach, qora chirmab aza tutar.

¹ Q. b. – Mulata kandi ملته كندی

Yana bir bo'luk Chag'onsaroydur, bir kentur, muhaqqar yeredur, kofiristonning og'zidadur. Eli kofirlar bila omixta uchun agarchi musulmondur, vale kuffor rusumini bajoy keltururlar. Ulur rudkim, Chag'onsaroy suyig'a mashhurdir, Chag'onsaroyning sharq-shimolidin va Bajurning orqasidin kelur. G'arb tarafida Pichotlik kofiristondin yana bir kichikrak rud kelib, bu suvg'a qotilur. Chag'onsaroyning zardcha tund chog'irlari bo'lur. Darayi Nur chog'irig'a hech nisbati yo'qtur, o'zining uzumi va bog'i bo'lmas. Suv yuqqorig'i kofiristondin va Pich kofiristonidin keltururlar. Men Chag'onsaroyni olg'onda Pich kofirlari bu elga ko'mak kelib edi. Chog'ir anda andoq shoye'durkim, har kofirning bo'ynida bir xik chog'ir edi, suv o'runig'a chog'ir ichib yururlar edi.

Koma agarchi boshqa yer emas. Ningnahor tavobeyidindur, vale muni ham bo'luk derlar.

Yana Nijrov tumanidur. Kobulning sharqi-shimolida Ko'hustonda voqe bo'lubtur. Orqasida tog'lar tamom kofiristondur. Tavre go'shadur. Uzum va mevasi bisyor, chog'iri ham g'alaba bo'lur. Vale jo'shida qilurlar. Qishlar tovuqni bisyor parvori qilurlar. Eli sharobxo'r va benamoz va novahm va kofirvash eldur. Tog'larida noju¹ va chilg'o'za va bulut va hanjak yig'ochlari bisyor bo'lur, noju va chilg'o'za va balut daraxti mundin quyi bo'lur. Nijrovdin yuqqori aslo bo'lmas. Hinduston daraxtlaridindur. Bu Ko'histon elining chirog'lari tamom chilg'o'za yig'ochidindur, sham'dek yonar, xeyli g'arobati bordur.

¹ L. b. - نوج Q. b. نوح

Nijrov tog'larida ro'bayi parron bo'lur. Ro'bayi parron bir jonivoredur, mushukdin ulug'roq, ikki qo'li bila ikki butining orasida pardadur, shapparaning qanotidek doim keltururlar edi. Derlarkim, yig'ochdin-yig'ochg'a nishebga boqa bir gaz otimi uchar. Men xud uchqonini ko'rma-dim. Yig'ochqa qo'yduk, chust yormashib chiq-ti, andin quvladilar, qanotini yoyib, uchqan-dek etib, beozor tushti. Bu tog'larda lucha¹ qushi ham bo'lur, bu qushni buqalamun der-lar, boshidin quyrug'ig'acha besh-olti muxtalif rangi bor, kabutarining bo'ynidek barroqtur, ulug'lig'i kabki daricha bo'lg'ay, g'olibo Hin-duston kabki darisidur. Ul el ajab nima rivoyat qildilar: qish bo'lg'och tog' domanlarig'a tushar, agar uchursalarqim, uzum bog'idin o'tsa, yana aslo ucha olmas, tutarlar. Yana bir sichqon Nijrovda bo'lur emish, mushi mushkin derlar. Mushk idi andin kelur emiz. Ani men ko'rmay-durmen.

Yana Panjhir tumanidur. Yo'l ustida voqe bo'lubtur. Kofiriston anga bisyor yovuqtur, quttout-tariyq kufforning mururi Panjhirdin-dur. Kufforg'a yovuq uchun mundin ham ke-sim² olurlar. Men bu navbat kelib Hindustonni fath qilg'onda kofirlar kelib, Panjhirdin qalin kishi o'tturub, ko'p xarobliqlar qilibturular.

Yana bir G'urband tumanidur. Ul viloyatlar-da ko'tallarni band derlar. G'o'r³ sari bu ko'tal bila borurlar, roli bo ul jihatdin G'urband deb-

¹ Biz «lucha» shaklida yozdik. L. b. لوحه. Q. b. لوحه

² Q. b. – kim.

³ Q. b. – G'o'ri.

turlar. Sardaralarini hazoralar shugʻl qilibtur, bir necha kentturkim, kamhosilroq yerdur. Derlarkim, Gʻurband togʻlarida kumush qoni va lojuvard koni boʻlur.

Yana koʻh domana kentlaridur, boshi Mita-kacha va Parvon va oyogʻi Durnoma, oʻn ikki-oʻn uch kenttur, mevalik kentlardur, chogʻirlari boridin tandroqdur. Bu kentlar tamom togʻ etagida voqe boʻlgʻon uchun, agarchi mollarini ado qilurlar, vale xarjda royij emasturlar. Bu kentlardin quyi domanada togʻ bila Boron suyining oraligʻida ikki parcha hamvor dasht voqe boʻlubtur. Birini Kurrayi Toziyon derlar, yana birini Dashti Shayx. Yozlar jikin tola oʻti bisyor yarshi boʻlur. Atrok va aymoq yoz munda kelurlar. Bu domanada rango-ranga har nav' lola boʻlur. Bir qatla sanattim, oʻttuz ikki-oʻttuz uch nav' gʻayri muqarrar lola chiqti. Bir nav' lola boʻlurkiy, andin andak qizil gul idi kelur, lolayi gulboʻy der eduk. Dashti Shayxta bir parcha yerda boʻlur, oʻzga yerda boʻlmas. Yana ushbu domanada Parvondin quyiyoq sadbarg lola boʻlur, ul ham bir porcha yerda Gʻurband tangisining chiqishida boʻlur.

Bu ikki dashtning orasida bir kichikrak togʻ tushubtur, bu togʻda bir parcha qum tushubtur, togʻ boshidin tubigacha Xoja Rigiravon derlar. Yozlar derlarkim, naqora va duhul uni bu qumdin kelur.

Yana Kobul tavobeyi kentlardur, Kobulning gʻarbi-janubida ulugʻ qorliq togʻ tushubtur, qori qorgʻa yetar, kam yil boʻlgʻaykim, qorgʻa yetmagʻay. Kobulda yaxdonlar yaxi tugansa, bu

tog'din qor kelturub yaxob qilib icharlar. Kobuldin uch shar'i bo'lg'ay.

Yana Bomiyon tog'ldur. Bu tog' berk tog' voqe bo'lubtur. Harmand va Sind va Dug'oba, Qunduz va Balxob suyi bu tog'din chiqar. Derlarkim, bir kunda har to'rt daryo suyidin ichsa bo'lur.

Bu kentlar aksar bu tog'ning domanasida voqe bo'lubtur. Bog'da uzumi qalin bo'lur. Har jins mevasi ham bisyor bo'lur. Bu Kentlar orasida Istalif va Istarg'ichcha kent yo'qtur. Ulug'bek mirzo bu kentlarni Xuroson va Samarqand der ekandur. Lamg'on ham bu kentlarning vatirasidur. Agarchi uzumi va mevasi ul kentlarcha bo'lmas, vale havosining hech nisbati yo'qtur. Qorliq tog' Lamg'on¹ tog'ldur.

Istalifcha kent ma'lum emaskim xeyli yerlarda bo'lg'ay. Ulug' rud kentning ichidin oqar. Rudning har ikki tarafi bog'ottur, sabzaliq, safoliqqina bog'chalari bordur, suyi sovuqtur, yaxobqa ehtiyoj bo'lmas, aksar softur. Bu kentta Bog'i Kalon otliq Ulug'bek mirzoning bir mag'sub bog'i bor edi. Men egalarig'a baho berib oldim. Bog'din tashqari ulug' chinorlar bor, chinorlarining tubi sabzaliq safoliq manziledur. Bog'ning o'rtasidin bir tegirmon suyi hamisha joriydur. Bu ariq yoqasida chinorlar va daraxtlardur, burun bu ariq egri-bukri va besiyoc edi. Men buyurdimkim, bu ariqni raja va siyoq bila qildilar. Bisyor yaxshi yer bo'ldi.

Bu kentlardin quyiroq dashtdin bir kuruh-bir yarim kuruh yuqqori boqa domanada tog'ning²

¹ Q. b. – Pamg'on. L. b. – Lamg'on.

² Q. b. – bog'ning (?).

tubida chashma voqe bo'lubtur. Xoja Seyoron derlar. Bu chashmada va bu chashmaning atrofida uch nav' daraxtlardur. Chashmaning o'rtasida qalin chinor daraxtlaridur, latif soyasi bordur. Chashmaning ikki tarafida tog' tubidagi pushtalarda qalin balut daraxtidur. Ushbu ikki parcha balutistondin o'zga Kobulning g'arbiy tog'ida balut daraxti aslo bo'lmas. Chashmaning olidakim, dasht tarafi bo'lg'ay, qalin arg'uvonzor voqe bo'lubtur. Bu viloyatta ushbu arg'uvonzordin o'zga arg'uvonzor aslo yo'qtur. Derlarkim, bu uch jins daraxt uch azizning karomatidur. Seyorong'a vajhi tasmiya muni derlar. Bu chashmaning atrofini men sangkorliq qildurdum. Chashmani gach va soruja¹ bila dahi dardah qildurdum. Bu chashmaning chor hadi siyoqliq, go'niyalig taxti bo'ldi, tamom arg'uvonzorg'a mushrif, arg'uvon guli ochilg'on mahalda muncha yer ma'lum emaskim, olamda bo'lg'ay. Sariq arg'uvoni ham bisyor bo'lor. Sariq arg'uvon bila qizil arg'uvon domanada darham ochilur. Bu chashmaning g'arbi-janubiy tarafida bir daradin hamisha yarim tegirmon suyi joriydur. Bu suvni men ariq qazdurub, dashti Seyoronning g'arbi-janub tarafidagi pushtaning ustiga kelturttum. Pushtaning ustida ulug' gird sufa soldurdum. Sufaning girdida tamom tol daraxtlari eqildi. Xeyli yaxshi manzil bo'ldi. Bu sufadin yuqqoriroq pushtaning yonida uzum bog'i soldurdum. Bu ariqning tarixi «jo'yi xush»² topildi.

¹ L. b. - soruh.

² Jo'yi xush - جوی خوش - Raqam bilan 925.

Yana, Lahugar tumanidur. Ulug'kenti Charxdur. Hazrati Mullo Ya'qub bu Charxdindur. Mullozodayi Mullo Usmon xam Charxiydur. Sijovand xam Lahugar kentlaridindur. Xoja Ahmad va Xoja Yunus bu Sijovanddindurlar. Charxning bog'oti qalindur. Lahugarning o'zga kentlarida bog' bo'lmas. Avg'onshol eldur. Kobulda bu lafz shoyedur. G'olibo avg'on¹ shior-durkim, Avg'onshol derlar.

Yana bir G'azni viloyatidur. Ba'zi tuman ham derlar. Sabuktigin birla Sulton Mahmudning va avlodining poytaxti G'azni ekandur. Ba'zi G'aznin ham bitibdurlar. Sulton Shihobiddin G'uriyning ham poytaxti bu ekandur. Bu Sulton Shihobiddinni Tabaqoti Nosiriyda va ba'zi Hind tarixida Muizziddin bitib turlar.

Uchinchi iqlimdindur. Zobul ham derlar, Zobuliston bu viloyattin iborattur. Ba'zi Qandohorni ham Zobuliston doxili tutubturlar. Kobuldin g'arbqa boqa o'n to'rt yig'och yo'ldur. Bu yo'lni borlar tong boshida G'aznidin tebrab, ikki namoz orasi va namozi digar Kobulg'a borilibtur. Odinapurkim, o'n uch yig'och yo'ldur, yo'lining yamonlig'idin hargiz bir kunda kelilgan emas. Muhaqqar viloyattur. Rudi to'rt-besh tegirmon suyi bo'lg'ay. G'azning shahri yana to'rt-besh kenti ushbu suv bila ma'murdur. Yana uch-to'rt kenti koriz bila ma'murdur. Kobul uzumidin G'azni uzumi yaxshiroq bo'lar. Qovuni ham Kobul qovunidin ortuqroqtur. Olmasi ham yaxshi bo'lar. Hindustong'a eltarlar. Ekini bisyor purmashakqattur. Har miqdor

¹ Q. b. - afg'on.

yerkim, ekarlar, yuziga tamom yangi tufroq har yili kiyururlar. Vale Kobul ekinidin muning ekinining hosili ortug'roqdur. Ro'yan ekarlar. Tamom Hindustong'a borur. Bu elning yaxshi mahsuli ro'yandur.

Sahro nishini hazora va afg'ondur. Kobulg'a boqa G'azni hamisha arzonliqtur. Eli hanafiy mazhabliq, pokiza e'tiqodliq musulmon eldur. Semohador eli xeyli bordur. Ahli va ayollari bisyor mahfuz va masturdur.

Mullo Abdurahmon G'aznining akobiridin edi. Donishmand kishi edi, hamisha dars aytur edi. Bisyor mutadayyin va muttaqiy va parhezgor kishi edi. Nosir Mirzo o'lgan yili olamdin naql qildi.

Sulton Mahmudning qabri G'aznining mahallotidadurkim, sulton qabri anda uchun Ravza derlar. G'aznining yaxshi uzumi Ravzadindur. Avlodi: Sulton Mas'ud bila Sulton Ibrohimning qabri ham G'aznidadir. Mutabarrak mazorat G'aznida bisyordur.

Kobul va G'aznini olg'on yilikum, Ko'hat va Bannu va Dasht va Afg'onistonni chopib, g'alaba qatl qilib, Duki bila o'tub, Obi istodaning yoni bila G'aznig'a keldim. Dedilarkim, G'aznining kentlarida bir mazor bordurkim, sala-vot aytg'och, qabr mutaharriq bo'lur. Borib mulohaza qilildi, qabrning tebrangani mahsus bo'ldi. So'ngra ma'lum bo'ldikim, mujovirlarning tazviri ekandur. Qabrning ustig'a bir jul'ya yasabturlar, har zamon jul'yag'a tegadurlar, jul'ya tebrangach, qabr tebrangandek mahsus bo'ladur. Nechukkim, kemaga kirmagan el ke-

maga kirgach sohil mutaharrik mahsus boʻlur. Buyurdumkim, mujovirlar jul'yadin yiroq turdilar, bir necha salovot ayttilar, qabrda harakate mahsus boʻlmadi. Buyurdumkim, jul'yani buzub, qabrning ustida gunbaz qildilar. Mujovirlarni bu harakattin tahdid bila man' qilildi.

Asru muhaqqar yerdur. Podshohlarkim, Hinduston va Xuroson alarning tahti zabtida ekandur, bovujudi Xurosonot nechuk mundoq muhaqqar yerni poytaxt qildilar ekin, hamisha taajjub qililur.

Sulton Mahmud zamonida uch-toʻrt band bor ekandur, bir band ushbu Gʻazni suyida, Gʻaznidin shimol sari uch yigʻoch suv yuqqori, sulton bir ulur banda solibtur, bu bandaning balandligʻi qirq-ellik qari boʻlgʻay, uzunligi taxminan uch yuz qari boʻlgʻay, suvni anda zaxira qilib, baqadri ehtiyoj ekinga suv ocharlar erkandur.

Alouddin Jahonsoʻz Gʻoʻriy bu viloyatqa musallit boʻlganda bu bandni buzubtur va sultonning avlodining bisyor maqobirini kuydurubtur. Gʻazni shahrini buzubtur va kuydurubtur, elni talabtur, oʻlturubtur, qatl va buzugʻliqdin diqaqayi nomarʻi qoʻymabtur. Andin beri bu band buzugʻdur. Hindustonni fath qilgʻon yil bu bandni yasamoq uchun Xoja Kalondin yarmoq yiborildi. Tengri inoyatidin umid borkim, bu band obodon boʻlgʻay.

Yana bir band Sixan¹dur. Gʻaznining sharqida, bu ham Gʻaznidin ikki-uch yigʻoch boʻlgʻay,

¹ Q. b. – Sihon.

bu ham muddatlardur xarobtur. Obodon qilur qobiliyati ham yo'qtur. Yana bir Sarideh bandidur. Bu band ma'murdur.

Kitoblarda bitibturlarkim, G'aznida bir chashma bordurkim, agar najosat va qozurotni bu chashmag'a solsalar, o'shul zamon to'lg'oq va to'fon va yog'in va chopg'un bo'lor. Yana bir tarixda ko'rubturkim, royi hind Sabuktiginni G'aznida muhosara qilg'onda Sabuktigin buyururkim, bu chashmag'a najosat bila qozurot solurlar. To'lg'oq va to'fon va yog'in va chopqun bo'lor. Bu hiyla bila ul g'animni daf qilur. Men G'aznida har necha tajassus qildim, bu chashmadin hech kim nishon bermadi.

Bu viloyatlarda G'azni va Xorazm sovuqluq bila mashhurdur, nechukkim, Iroqayn va Ozarbayjonda Sultoniya bila Tabrez sovuqluq bila shuhrati bor.

Yana bir Zurmat tumanidur. Kobulning janubidur. G'aznining sharqi janubi Kobuldin o'n ikki-o'n uch yig'och va G'aznidin yetti-sekkiz yig'och bo'lg'ay, sekkiz kenttur. Dorug'anishin yeri Gardizdur. Gardiz qo'rg'onining ichida aksar se tabaqa va chor tabaqa uylardur. Gardiz xoli az istehkome emastur. Nosir Mirzo bila yog'iqib mirzog'a xeyli tashvish berdi. Zurmat eli avg'onshol eldur. Ekin va ziroat qilurlar, daraxt va bog' va bog'ot bo'lmas. Bu tumanning janubida tog'dur. Barkiston tog'i derlar. Bu tog'ning domanasida murtafe' yerda chashma chiqibtur. Shayx Muhammad Musulmonning qabri bu yerdadur.

Yana bir Farmul tumanidur. Muhaqqar yeredur. Olmasi yamon bo'lmas. Multon va Hindus-

tong'a eltarlar. Hindustonda afg'on zamonida rioyat topkan Shayx Muhammad Musulmonning avlodi shayxzodalar Farmuldundurlar.

Yana bir Bangash tumanidir. Girdo-girdi tamom quttout-tariyq afg'oniydur, misli Xugiyoniy va Xirilcha va To'riy¹ va Landar bu yoqada tushubtur. Bu jihatlardan xotirxoh mol bermaslar. Manga ham ulug' ishlar orag'a tush-ti, misli Kandahor va Balx va Badaxshon va Hinduston fathi, bu sabablardan Bangashning zabtig'a fursat bo'lmadi. Tengri rost kelturub fursat topqach, Bangashning quttout-tariyqi bila zabtig'a mutaayindurmen.

Kobul bo'lukotidin bir bo'luk Alasoy bo'lukidir. Nijrovdin ikki-uch shar'i bo'lg'ay, sharq sari Nijrov tarafidin tup-tuz kelur. Ko'ra degan yerga yetgach-o'q Alasoy sari kichikrak ko'tal inar. Bu taraf garmser bila sardser orasida fosila Ko'ra ko'talidir. Ushbu Ko'ra ko'talida erta yozlar qushlarning guzaridir. Nijrov tavobeyidin Pichg'on² eli bu ko'talda qalin qush tutarlar. Ko'talning chiqishida har yerda toshdin panohlar yasabturlar, qush tutar kishilar bu panohlarda o'turub, to'rning bir uchini besh-olti qari yirokroq berkiturlar, turning bir tarafini yerda toshqa bostururlar. Yana bir tarafida turning yarmig'acha uch-to'rt qari yig'och bog'larlar. Yig'ochning bir uchi panohda o'turg'on kishining iligidadir. Yasag'on panohning tushuklaridin muntazirdir. Qushlar yovuq

¹ Q. b. – Buriy.

² Q. b. – Jiyg'on.

kelgach-o'q to'rni ko'tarurlar. Qushlar o'zi-o'q to'rg'a kirar. Bu tadbir bila g'alaba qush tutarlar. Andoq mubolag'a qilurlarkim, gohi andoq qalin qush tutarlarkim¹ bo'g'uzlarig'a fursat bo'lmas. Ul viloyatta Alasoy anori mashhurdir. Agarchi a'lo anor emas, vale ul viloyatta² Alasoy anoridin yaxshiroq anor bo'lmas. Muning anorlarini tamom Hindustong'a eltarlar. Uzumi ham yamon bo'lmas. Nijrov chog'irlaridin Alasoy chog'irlari tundroq va xushrangroqtur.

Yana bir Badrov bo'lukidir. Alasoyning yonidadir. Munda meva bo'lmas, korandasi kofirdur, oshliq olurlar. Nechukkim, Xuroson va Samarqantda atrok va aymoq sahnishindur. Bu viloyatning saxronishini hazora va afg'on-dur. Hazoralardin kulliyrog'i Sulton Mas'udiy hazoradur, afg'onlardin kulliyrog'i Mahmand³ afg'oniydur.

Kobulning jam'ini viloyat va tamg'o va sahnishini bila sekkiz lak shohruhiy jam' qildilar.

Kobul viloyatining sharq tarafidag'i tog'lari ikki turlukdur: g'arb tarafidag'i tog'lari ikki turlukdir. Andarob va Xost va Badaxshonot tog'lari tamom archaliq, qalin chashmaliq, yumshoq pushtaliq tog'lardo'r. O'ti tog'ining va pushtasinini va julgasining birdek bo'lur va xo'b bo'lur, aksar butaka o'ti bo'lur, otg'a bisyor sozvor o'ttur. Andijon viloyatida bu o'tni butka o'ti derlar, vajhi tasmiyasi ma'lum emas erdi,

¹ *L. b.* – bu joylar tushgan.

² *L. b.* – bu joyi tushgan.

³ *Q. b.* – Mehmand.

bu viloyatlarda ma'lum bo'ldi. Bu o't buta-butacha chiqar uchun butaka derlar emish.

Hisor va Xatlon va Samarqand va Farg'ona va Mo'g'ulistonning yayloqlari tamom ushbu vaz'ilik yayloqlardur. Agarchi Farg'ona bila Mo'g'ulistonning yayloqlarining bu yayloqlarg'a hech nisbati yo'qtur, vale bir yo'sunluq tog'lar va yayloqlardur.

Yana bir Nijrov va Lamg'onot va Bajur va Savod tog'lari qalin noju¹ va chilg'o'za va balut va zaytun va xanjaklik,² tog'lardur. O'ti bu tog'larning o'tidek emastur, qalin bo'lur va baland bo'lur, vale befoyda o'ttur. Ot bila qo'yg'a sozvor emastur. Agarchi ul tog'larcha baland emastur, ko'zga haqir ko'runur, vale g'arib berk tog'lardur, hamvor-hamvor pushtalar ko'runur, vale tamom pushtasi va tog'i yirik toshliq pushta va tog'dur, har yerdin ot bila yurub bo'lmas. Bu tog'larda Hinduston qushlari, Hinduston jonivorlari bisyordur, misli to'ti va shorak va tovus va lucha³ va maymun va nilagov va ko'tahpoy, balki bu mazkur bo'lg'on jonivorlardin dag'i o'zga-o'zga jins qushlar va jonivor bo'lurkim, Hindustonda dag'i andoq jonivorlarni eshitilmaydur.

G'arb tarafidag'i tog'lar Darayi Zindon va Darayi Sof va Garzavon va G'arjiston tog'lari, bir yo'sunluq tog'lardur. O'tlog'i aksar julgalarida bo'lur, ul tog'lardek tog'i va pushtasi yaqdash o't bo'lmas, andoq qalin yig'ochi va archasi ham yo'qtur, vale o'ti otqa va qo'yg'a sozvodur.

1 نازو

2 Q. b. - chanjakliq.

3 Q. b. - navha. نوحه L. b. نوحه

Bu togʻlarning usti tamom ot chopqudek hamvordur, ekinlari tamom anda boʻlur. Bu togʻlarning kiyigi qalin boʻlur. Takoblari berk¹ daralardur, aksar yerlari yakandozdur. Har yerdin tushub boʻlmas: bu ajabtur, jami' togʻlarning berk yerlari balandilar boʻlsa, bu togʻlarning bek yerlari pastilarda voqe boʻlubtur. Gʻoʻr va Gazyu² va Hazora togʻlari ham bu yoʻsunluq togʻlardur, oʻtlogʻi julgasida boʻlur. Togʻlarida yigʻochi ham kamdur. Archa yigʻochi xud yoʻqtur, oʻti otqa va qoʻygʻa sozvordur. Kiyigi qalin boʻlur. Mazkur bigʻon togʻlarning berk yerlari quyilarida boʻlur, bu togʻlar andoq emastur.

Yana Xoja Ismoil va Dasht, Duki va Afgʻoniston togʻlari bir yoʻsunluq togʻlardur. Past-past, oʻti oz, suyi tanqis, yigʻochsiz, badnamoy, yaramas togʻlardur. Togʻlari ellariga munosib tushubtur, nechukkim, «teng boʻlmaguncha, tush boʻlmas», debturlar. Olamda mundoq yaramas vazʻliq togʻlar kam boʻlgʻay.

Kobulning agarchi qish qori ulugʻ tushar, vale yaxshi oʻtunlari bordur va yovuqtur, bir kunda borib keltursa boʻlur. Oʻtunlari xanjak³ va balut va bodomcha va qarqanddur. Bulardin yaxshirogʻi xanjakdur yorugʻ kuyar, (tutunining yaxshi idi boʻlur, choʻgʻi ham gʻalaba turar), oʻli ham kuyar. Balut ham yaxshi oʻtundur, agarchi tiyraroq kuyar, vale tobliq kuyar, choʻgʻi qalin turar. Balut yigʻochida yana bir ajab xosiyatdur: sabzbarglik shoxlarigʻa oʻt qoʻysalar: gʻarib

¹ Q. b. – terang.

² Q. b. – Karbu رز

³ Q. b. – Chanjak.

sharfa bila kuyar. Oyog'idin boshig'acha sharfa bila bir zamonda kuyar. Bu yig'ochning kuymagi xeyli yaxshi tafarrujdur. Bodomcha borchadin ko'proq va shoyeroqtur, cho'g'i turmas. Qarqand past-past tikanlar bo'lur, o'li-qurug'i teng kuyar, tamom G'azni elining o'tuni budur.

Kobul viloyati tog' oralarida voqe bo'lubtur. Yo'runchqa pallaridek tog'lar tushubtur, oralari tuztur, jilg'alar voqe bo'lubtur: aksar kentlarida obodonliqlari bu oraliqdadir, kiyigi va ovi ozroqdur. Kuz va yoz fasllarida qizil kiyikkim, orqorg'alcha bo'lg'ay qishloqqa, yayloqg'a o'tarda muayyan tutqovullari bordur, qushliq va itlik yigitlar borib, tutqovulni saxlab, kiyik oldururlar. Xurd Kobul va Surxob tarafi quloni ham bo'lur. Oq kiyik xud aslo yo'qtur. G'aznining oq kiyigi va quloni bo'lur. G'aznining oq kiyigicha semiz kiyik kam yerda bo'lg'ay. Yozlar Kobul qushlog'i qalindur. Aksar qushining guzari Boron yoqasidur, ne uchunkim, sharqi tog'lardur. G'arb tarafi ham tog'lardur. Ushbu yerining to'g'risidinkim, Boron yoqasi bo'lg'ay, bir ulug' Hindukush ko'talidur va bas o'zga ko'tal yo'qdur. Bu jihattin tamom qushlar muning bila o'tarlar, agar yel bo'lsa yo Hindukush ko'tali ustida andak bulut bo'lsa, qushlar o'ta olmas. Tamom Boron tuziga tushar, bu mahal ul navohidagi ellar qalin qush olurlar.

Boron yoqasida qishning oxirlarida o'rdak qalin kelur, bisyor semiz bo'lur, andin so'ngra turna va qarqara, ulug' qushlar qalin va behad bo'lur. Boron yoqasida, turnag'a tanob otib,

tanob bila qalin tutarlar. Uqor va qarqara va qo'tonni ham tanob bila qalin tutarlar, bu nav' qush tutmoq g'ayri muqarrardur.

Tutmog'ining kayfiyati bu turlukdurkim, bir gaz otimi inchka tanob esharlar, bu tanobning bir uchida gazni berkiturlar, yana bir uchida shoxdin bildurga yasabturlar, bu bildurgani berkiturlar, yana bir bilakcha yog'ochtur, uzunlig'i bir qarish bo'lg'ay, gaz tarafidin bu tanobni bu yig'oqcha tugangucha chirmarlar, tanob tugangandin so'ng bildurgani berkiturlar, andin so'ng bilakcha yig'ochni tanob ichidin chiqarurlar, tanob chirmog'liq qovoq-o'q turur. Bildurgani ilikka solib, keladurgan qushning oli sari gazni otarlar. Qushning qanotig'a yo bo'ynig'a tusha chirmashib, qush yiqilur. Tamom Boron eli bu tariyq bila qalin qush tutarlar, vale qush tutmoqning xeyli mashaqqati bor. Yomg'urluq va qorong'u kechalari kerak, bu kechalarda bu qushlar sibo' va darrandalar jihatidin tong otquncha tinmaslar va muttasil ucharlar va past ucharlar, qorong'u kechalarda qushlarning yo'li oqar suvdur, qorong'uda oqarib ko'runur. Qo'rqunchdin suv yuqqori, suv quyi tong otquncha borurlar va kelurlar. Tanobni bu mahalda otarlar. Men bir qatla kecha tanob ottim, tanob uzuldi, qush ham topilmadi. Tonglasig'a qushni uzulgan tanob bila topib kelturdilar.

Bu tariyq bila Boron eli qalin uqor tutarlar. Soch o'tag'asi uqordin bo'lur. Iroqg'a va Xurosong'a Kobuldin bir matoekim borur, soch o'tag'asidur. Yana jami' sayyod qullardur, ikki

yuz-uch yuz uyluk bo'lg'aylar. Temurbek avlodidin birisi bu qullarni Mo'lton navohisidin ko'churub kelgandur. Ishlari, kuchlari qush tutmoqtur. Ko'llar yasab, qalin milvohlar tikib, ko'l o'rtasida to'r qo'yub, har jins qush tutarlar. Ne yolg'uz sayyod qush tutar. Boron o'turushluq ellar tanob otib, tuzoq qo'yub, har tadbir bila qalin qush va har anvo' qushlar tutarlar. Ushbu mavsumda Boron suyida balig'ning guzari bo'lur. To'r bila yana jax¹ bog'lab, qalin baliq tutarlar. Yana kuz mahallaridakim, qulon quyrug'i degan o't chiqib, kamolg'a yetib, gul qilib, dona bog'lar, bu qulon kuyrug'idin o'n-o'n ikki pushtvora yana ko'k shoboqdin yigirma-o'ttuz pushtvora suv boshig'a kelturub yanchib, suvg'a solurlar, solg'on zamon-o'q suvg'a kirib mast bo'lg'on baliqni tuta kirishurlar. Quyi-roq bir munosib yerda jax bog'larlar, jax bog'lamoq andoqdurkim, tol xunchalaridin barmoqcha-barmoqcha xunchalarni chig'dek to'qurlar, bu chig'ni suvning to'kukur yerida kovok qo'yub, atrofig'a tosh qalarlar. Andoqkim, suv bu chig'qa sharillab tushgay, tushgan bila quyi-o'q borg'ay, suv u quyi borur, balig' chig'ning ustida qolur, mast bo'lg'on baliqni yuqqoridin tuta-tuta kelurlar. Bu jaxta qalin tutarlar. Gulbahor suyida, Parvon suyida, Istalif suyida bu tariyqa bila tutarlar.

Yana qish Lamg'onotda g'arib tavr balig' tutarlar. Suv to'kukur yerlarda uy o'runicha-uy o'runicha yerni chuqurroq qilib, o'choq poyasidek toshlarni bu chuqurlarda qo'yub, ustiga

¹ Q. b. - xaj. ٢٤

tosh qalarlar. Bu yerga suv quyidin bir eshik qo'yarlar, toshni andoq qalarlarkim, ushbu bir eshikdin o'zga hech yerdin balig' kirib-chiqa olmas, bu qalag'on toshning ustidin suv oqar, mohixona amali qilurlar. Qishlar har qachon balig' kerak bo'lsa, bu chuqurlarning birini ochib, qirq-ellik balig'ni bir zamonda keltururlar. Bu tariyq ocharlarkim, ul chuqurni muayyan belgulik yerda qilurlar, ul chuqurning bir eshigidin boshqa tamom atrofig'a gurunch pilali qo'yub, ustiga tosh qo'yarlar. Eshigiga chig'dek nima to'qub, ikki boshini bir yerga qatib bog'larlar. Yana muning ichida yana bir nima chig'dak to'qub berkiturlar. Andoqkim, og'zi bu chig' bila barobar bo'lg'ay, uzunligi burungi chig'ning yarmicha bo'lg'ay, ichkarigi og'zini tor qilurlar, bu ichkarigi chig'ning ichkarigi og'zidinkim, kirar ulug' chig'ning ichiga kirar, ulug' chig'ning quyig'i og'zini andoq qilibturlarkim, balig' chiqa olmas, ichkarigi chig'ning quyig'i ichkarigi og'zini andoq qilibturlar, yuqqorig'i og'zidin balig'kim, kirar, ichkarigi otidin birar-birar o'tar. Bu ichkarigi og'zining yig'ochlarining uchini bir qilibturlar, bu og'zidin o'tub, ulug' chig'ning ichigakim, kirar-chiqar og'zini hud berkitibturlar, balig' chnqa olmas, yonsa bu kichik chig'ning ichkarigi og'zining tishlar¹ jihatidin o'ta olmas. Bu chig'ni ul qo'yg'on eshikkakim berkiturlar, mohixonaning ustuni ocharlar, girdo-girdi xud gurunch pilali bila mazbutdur, har ne ilikka kelsa, bu chuqurda tutarlar. Har balig'kim, qochsa eshik xud bir-

¹ *L. b.* – shishlar.

o'qtur, o'shul mazkur bo'lg'on chig'qa tushar, anda tutarlar. Bu nav' balig' tutmoq o'zga yerda ko'ruigan emas.

Kobul olg'ondin bir necha kun so'ng Muqim Qandahor sarig'a ruxsat tiladi, chun ahd va shart bila kelib edi, tamom kishi-qora va raxt va matoyi bila solim va salomat ota-og'asi sari ruxsat berildi. Muqim'ga ruxsat bergandin so'ng Kobul viloyatini mirzolar'ga va tamom mehmon beklarga-o'q taqsim qilildi. G'azni-ni tavobeyi va lavohiqi bila Jahongir mirzog'a berildi. Ningnahor tumanini va Mandrovir va Darayi Nur va Kunru, Nurgil va Jig'onsaroyini Nosir mirzog'a berildi. O'zum bila qazoqliqlarda bila bo'lub kelgan beklarga va yigitlarga ba'zisi-ga kent va yatuldek berildi. Viloyat xud hech berilmadi. Yolg'iz bu emas, har qachonkim, tengri taolo davlate berdi, mehmon va g'arib beklarni va yigitlarni boyrildin va Andijoniy-lardin ortuqroq va yaxshiroq ko'rdum. Bovujud ajab baloyedurkim, hamisha el meni g'aybat qilurlarkim, boyiridin va Andijoniydin o'zgani rioyat qilmas. Masal borkim: «Dushman ne demas, tushga ne kirmas». «Darvozayi shahrro tavon bast, natvon dahani muxolifon bast»¹ :

Chun Samarqand va Hisor va Qunduzdin qalin el va ulus Qobul viloyatig'a kelib edilar, maslahat andoq ko'rudikim, Kobul muhaqqar yerdur, sayfiydur, qalamiy emas. Borchha elga yormoq xud yetkurub bo'lmas, bu el va ulus-ning ko'chalariga biror nima oshlik berib che-

¹ «Shahar darvozasini yopib bo'ladi-yu, dushman og'zini yopib bo'lmaydi».

rik va chopqung'a o'tlanilg'ay, so'z munga qaror topib, Kobul va G'azni viloyat va tavobeyig'a, o'ttiz ming xarvor oshliq tahmil bo'ldi. Kobulning daromad va hosilini bilmay mundoq kulliy tahmil bo'lg'oni uchun viloyat xeyli xarob bo'ldi.

Ushbu mahallarda Bobiriy xatni ixtiro' qildim. Sulton Mas'udiy xazarasig'a qalin qo'y va ot solildi. Tahsildorlar yiborildi. Necha kundan so'ng tahsildorlarning xabar keldikim, hazoralar molni bermay sarkashlik maqomidadurlar, mundin burunroq ham necha navbat Gardiz va G'azni yo'llarini urub edilar, bu jihatlarning Sulton Mas'udiy hazorani chopa o'tlanildi. Maydon yo'li bila kelib, Nirx ko'talidin tunlab o'tub, farz vaqtida Chatu navohisida hazoralarni chopildi. Xotirxoh chopilmadi, andin so'ng Surox yo'li bila yonib, Jahongir mirzog'a G'aznig'a ruxsat berildi.

Kobulg'a tushganda Daryo xonning o'g'li Yor Husayn Bahra tarafidin qulluqqa keldi. Necha kundan so'ng cherik tarhini solib, yer-suv bilur kishilarni charlab, atrof va javonibni tahqiq qilildi. Ba'zi Dashtni dedilar, ba'zi Bangashni munosib ko'rdilar, ba'zi Hindustonni maslahat ko'rdilar. Kengash Hinduston yurushiga qaror topti.

Sha'bon oyida oftob dalv burjida edikim, Kobulning Hinduston azimati bila o'tlanildi. Bodom chashma Jigdalik yo'li bila ora olti qo'nub Odinapur kelildi. Garmser viloyatlarini va Hinduston navohisini hargiz ko'ru'lgan emas erdi. Ningnahorg'a yetgach, o'zga olame nazarg'a keldi: giyohlar o'zgacha va yig'ochlar o'zgacha va vuhush o'zgacha va tuyur o'zgacha, el va ulusining roh va rasmi o'zgacha: hayrate bo'ldi, filvoqe joyi hayrattur.

Nosir Mirzokim, ilgarrak viloyatiga kelib edi, Odinapurda kelib, mulozamat qildi. Ul yuzdin kelgan aymoq va oxshom qishloq maslahatig'a tamom ko'chub, Lamg'onot kelib edilar. Alarning cheriklarini va keyin qolg'an cheriklarni bir-ikki kun ul navohida turub, o'zumizga qo'shub kelib, Jo'yi Shohiydin o'tub, quyi Qo'shgunbazga tushuldi. Nosir mirzo navkar-savdariga viloyatidin biror nima yetkurub, ikki-uch kun keyinrakdin kelay deb Qo'shgunbazdin ruxsat tilab qoldi. Qo'shgunbazdin ko'chub Garm chashmag'a tushganda, Kokiyoniyning ulug'laridin Pixikim, korvoni bila ekandur, kelturdilar. Yo'l ayir maslahati jihatidin Pixini hamroh qilildi. Bir-ikki ko'ch bila Xaybardin o'tub Jomg'a¹ tushuldi.

Go'raktarining ta'rifin eshitilib edi, jo'gilarining va hindularning bir ma'badi bu emish, yiroq yerlardin kelib Ko'rakatrida soch va soqol qirqar ermishlar, Jomg'a tushgach, Bikromni sayr qila otlandim. Ulug' bir yig'ochni ko'rub, Bikromning navohisini sayr qildim. Boshchi Malik Busaid Kamariy edi. Har necha Go'raktarini so'rduk, aytmadi. Yonib o'rdug'a yovuq yetganda Xoja Muhammad Aming'a ayturkim, Ko'rakatri Bikromning qoshida edi. Tor g'or va muxotara yer uchun aytmadim. Xoja filhol xabosat qilib, aning deganin aytdi. Kun kech bo'lub edi va yo'l ham yiroq edi, bora olmaduk, bu yurtda Sind suyi kecharni va qay sari mutavajjih bo'lurni mashvarat qilildi.

Boqi Chag'oniyoniy arzg'a yetkurdikim, suv kechmay ushbu yerdin ora qo'nub Kuhat otluq

¹ Q. b. - Janrud.

yerga borsa bo'lar emishkim, qalin jam'iyatliq va molliq ellar emish. Bir necha Kobuliyni kelturdikim, o'zining so'ziga muvofiq so'zlar arzg'a yetkurdilar, bu yerlarni hargiz eshitilgan emas erdi. Ulug' ixtiyor kishi Kuhat sarini maslahat ko'rub, o'zining muddaosining isbotig'a necha tonuq ham o'tkardi esa, suv o'tmakni va Hinduston azimatini fasx qilib, Jomdin ko'chub, Bora suyini o'tub, Muhammad Pix dobonig'a yovuqroq kelib tushuldi. Ul mahalda Kokiyoniy afg'oni Parshovar¹ da edi. Cherik vahmidin bu tog' domanalarig'a tortib edilar. Kokiyoniyning ulug'laridin Xisrav Kokiyoniy bu yurtta kelib mulozamat qildi, ani ham Pixi bila yo'l ayir maslahati jihatidin hamroh qilildi.

Bu yurttin yarim kecha ko'chub, kun chiqa Muhammad Pixni o'tub, choshtgohda Kuhatni chopildi. Qalin gov² va govmish tushdi. Afg'onlardin dag'i qalin asir tushti, asirni tamom ayirib ozod qilildi. Uylarida oshliq xud benihoyat edi. Chopkunchi Sind daryosi yoqasig'acha chopib, ora qo'nub kelib, bizga qo'shuldilar. Boqi Chag'oniyoniy arzga yetkurgandek nima cherik eliga tushmadi. Boqibek bu sa'ydin sharmandaroq bo'ldi. Kuhatta ikki qo'nub, chopqunchini yig'ib, qay sari yurur maslahatini kengashildi. So'z munga qaror toptikim, Bangash va Bannu navohisidag'i afg'onlarni chopib, Nag'ar yo'li bila yo Farmul yo'li bila yonilg'ay.

Yor Husayn Daryoxonning o'g'likim, Kobulda kelib mulozamat qilib erdi, istid'o qildikim, Dilazok va Yusuf Zayi va Kokiyoniyg'a far-

¹ Q. b. - Pishtovar.

² Q. b. - o'y.

monlar bo'lsakim, mening so'zumdin chiqmasalar. Sind suyining ul yuzida podshoh qilichin chopsam. Muddaasidek farmonlar berib, Ko'hatdin ruxsat berildi. Ko'hattin ko'chub, yuqqori Bangash sari Hangu yo'li bilan mutavajjih bo'lduk. Ko'hat bila Hanguning orasida bir dara tushubtur, ikki tarafi tog' yo'l. Bu dara bila borur: ko'chub bu darag'a kirganda, Ko'hatning va ul navohining afg'onlari tamom yig'ilib, daraning ikki tarafidagi tog' ustiga chiqib, suron solib, g'avg'o qila boshladilar. Malik Busaid Kamaripkim jami' Afg'onistonni yaxshi bilur edi, bu yurushda boshchi ul edi. Arzg'a terurdikim, ilgarrak yo'lning rost tarafida parcha tog' tushubtur, agar bu afg'onlar bu tog'din ul tog'qa o'tsalar, boshqa tog'lar. Chirmab olsa bo'lur.

Tengri rost kelturub, bu afg'onlar erishib, kelib, ulush parcha tog'qa chiqtilar. Bir pora yigitlarni yiborildiki, filhol ikki tog'ning orasidagi gardanini olg'aylar. O'zga cherik eliga farmon bo'ldikim, ul yuzdin, bu yuzdin tushluq-tushidin yurub, bu afg'onlarni jazosig'a yetqurgaylar. Tushluq-tushidin yurugan bila urusha ham olmadilar. Bir zamonda yuz-yuz ellik afg'onni chopqullab olib, ba'zisini tirik, aksarining boshini kelturdilar. Afg'onlar urushmoqdin ojiz bo'lsalar, g'animlarining oldida o't tishlab kelur emish. Ya'ni men sening o'yungdurmen degan emish. Bu anda ko'rduk. Ojiz bo'lg'on afg'onlar o't tishlab keldilar. Tirik kelturganlarni ham bo'yunlarini uldurub, tushgan yurtta kalla minora qo'porildi.

Tonglasi andin ko'chub, Hangug'a tushuldi, bu navohidag'i afg'onlar bir parcha tog'ni singir qildilar. Singir lafzini Kobulg'a kelganda eshitildi. Bu el tog'ni berkitkanni singir derlar emish. Cherik eli yetgan bila-o'q afg'onlarning singirini ushatib, yuz-ikki yuz mutamarrid afg'onlarning boshlarini kesib kelturdilar. Munda ham kalla minora qo'porildi. Hangudin ko'chub, ora qo'nub, yuqqori Bangashning oyog'i Til degan yerga tushuldi. Munda ham cherik eli bu gird va navohidag'i afg'onlarni chopa borib edilar. Bir singirdan ba'zi chopqunchi yengilrak yonibtur, mundin ko'chub, yo'lsiz yurub, orada bir qo'nub, tonglasi bir tepadek inishdin inib uzun-uzoq tangidin o'tub, Bannug'a tushuldi. Cherik eli va teva va ot bu inishda va tangida asru ko'p emgandilar. Tushgan o'lja o'ylar xud aksari qoldi.

Omma yo'l o'ng qo'limizda bir-ikki kuruh ekanur, bu yo'l otliq yo'li emas ekanur. Qo'ychi va cho'pon gohi gala va ramani bu yo'l va tangi bila indurur uchun bu yo'lni, Go'spandliyor der emishlar. Yo'lni afg'on tili bila liyor derlar. Boshchi Malik Busaid Kamariy edi, aksar cherik eli yo'l chap tushganini Malik Busaidin ko'rdilar.

Bangash va Nag'ar tog'laridin o'tgach-o'q Bannu tup-tuz yerda voqe bo'lubtur. Shimoli Bangash va Nag'arning tog'laridur. Bangash rudi Bannug'a chiqar, Bannu bu suv bila ma'murdur. Janubi Cho'pora va Sind suyidur, sharqi Dinkut, g'arbi Dashtkim, Bozor va Tok ham derlar. Afg'on qaboyilidin Kuroniy, Kiviy,

Sur, Isoxayl, Niyoziy bu viloyatni egarlar. Bannug'a tushgach-o'q xabar topildikim, tuzdagi qaboyili, shimolidagi tog'larda singirlab tururlar, cherikni Jahongir mirzog'a boshlatib yiborildi. Kivining singiri ekandur, borib bir zamonda olib, qatli om qilib, qalin bosh kesib kelturdilar. Oq raxttin cherik eliga xeyli tushti, Bannuda ham kalla minora qo'porildi. Bu singir olg'andin so'ng Kivining ulug'laridan Shodixon otliq mulozamatqa o't tishlab keldi. Asirlarni bag'ishladuk.

Ko'hatni chopqanda mundoq muqarrar bo'lub edikim, Bangash va Bannu navohisidagi afg'onlarni chopib, Nag'ar yo'li bila yo Farmul yo'li bila yonilg'ay, Bannuni chopg'onidin so'ng yer-suvni bilur kishilar arzg'a yotkurdilarkim, Dasht yovuqtur, eli ham jam'iyatliq eldur, yo'li ham yaxshidur, Farmulg'a chiqar. So'zni Dashtni chopib, ul yo'l bila chiqarg'a qo'yub, tonglasi andin ko'chub, ushbu rudning yoqasida Isoxaylning kentiga tushuldi. Isoxayl xabar topib, Cho'pora tog'lariga o'zlarini tortib turlar. Isoxaylning kentidin ko'chub, Cho'pora tog'larining domanasiga tushuldi, chopqunchi tog'larga borib, Isoxaylning bir singirini ushatib, qo'y va gala va raxt kelturdilar. Ushbu oxshom Isoxayl afg'onlari shabixun kelturdilar.

Ul yurushda bisyor ehtiyot qililur edi, hech ish qila olmadilar. Mundoq ehtiyot qilulur edikim, burong'or, juvong'or, g'ul, irovul har qaysi bo'dalilik bo'dalida tushub, har qo'l o'z tushidin yarog'lanib yayoq o'rduning girdig'a chodirlardin bir o'q otimi yiroqroq chiqib, kecha o'shan-

da-o'q bo'lurlar erdi. Har kecha bu dastur bila tomon cherik elini chiqarilur edi. Ichqilardin uch-to'rti mash'al bila har oxshom navbat bilan evrulur edilar. Men ham biror navbat evrulur erdim. Chiqmag'on kishining burnini teshib, cherikdin evrutur erduk. Burong'or Jahongir mirzo, Boqi Chag'aniyon, Shirim tag'oyi, Sayid Husayn Akbar va yana ba'zi beklar edi. Juvong'or Mirzo xon Abdurrazzoq mirzo, Qosimbek va yana ba'zi beklar erdi. G'ulda ulug' beklardin kishi yo'q edi, tamom ichki beklar edi. Irovulda Sayid Qosim eshik og'a Bobo o'g'li, Alloquli Beran va yana ba'zi beklar edi. Cherikni olti bo'lak qililib edi. Har bo'lakka bir kecha-kuunduz chog'dovulluq navbati edi.

Ul domanidin ko'chub, g'arbqa boqa yurub, Dasht bila Bannuning orasida bir suvsiz ko'lda tushuldi. Cherik eli soyni qazib, o'zlari va gala qoralarg'a suv oldilar. Bu soydin bir qari-bir yarim qari qazsa, suv chiqar erdi. Ne yolg'uz bu soydin mundoq suv chiqar. Hindustonning jami' rudlarining bu xosiyati bor, bir yarim qari qazsa, albatta suv chiqar. Ajab qodiredur. Hindustondakim, daryolardin o'zga oqar suv bo'lmas, rudlari mundoq suvg'a yovuq voqe bo'lubtur. Ushbu qo'ruq rudtin sahar ko'chub, namozi diygar Dashtning kentlariga charida otliq cherik eli yetishti. Chopqunchi bir necha kentni chopib, gala va raxt va savdo otlari kelturdilar.

Bu oxshom tongg'acha, tonglasi tushgacha keyin qolg'on yukluk gala va teva, yayoqyalang kela qoldi. Bu kunkim, munda turuldi.

chopqunchi borib Dashtning kentlaridin qalin o'ý va qo'ý kelturdilar. Afg'onlarning savdogarlarini yo'luqturub, qalin ok raxt va aqoqir va qand va nabot, tupchoq otlar va savdo otlari kelturdilar. Xoja Xizr Nuhoniykim, afg'onlar orasida mashhur va mu'tabar savdogarlaridin edi. Hindu mo'g'ul tushurub, boshini kesib kelturdi. Shirim tag'oyi chopqunchining keyinicha borib edi, bir yayoq afg'on Shirim tag'oyi bila ro'baro' bo'lub, Shirim tag'oyining shahodat barmog'ini tushura chopti.

Tonglasig'a ko'chub Dashtning kentlarining orasida yovuqroq tushuldi, andin ko'chub, Go'mal suyi yoqasig'a tushuldi. Dashtdin g'arbiy tarafi ikki yo'l chiqar ermish, biri Sangso'rox yo'likim, Barkdin o'tub, Farmul kelur. Yana bir Go'mal rudini yoqalab Barkga yetmay bu ham Farmul kelur. Go'mal yo'lini ba'zi xushladilar. Dashtda ekanda ikki-uch kun payo-pay yomg'urlar yog'di. Go'mal rudi xila ulg'ayib edi. Andoqkim, tashvish bila guzar topib, o'ttuk. Yo'l bilur kishilar arz qildilarkim, Go'mal yo'li-da bu rudni necha qatla kechmak kerak. Agar suv mundoq ulug' bo'lsa mushkildur. Bu yo'lda ham taraddud bo'ldi, hanuz so'zni bir yerga qo'yulmaydur erdi.

Tonglasi tabli ko'ch choldurub ot ustida-o'q so'zlashib, qaysi yo'l bila yururni qaror berur xayolda edim. Iydi fitr edi. Men iyd g'uslig'a mashg'ul bo'ldum. Jahoigir mirzo va beklar so'zlashib turlar, ba'zilar deb turlarkim, Dashtning g'arbiy tog'iningkim, Ko'hi Mehtar Sulaymon derlar, ushbu tog' Dasht bila Dukining

orasida tushubtur, tumshug'idin ebrulsa, yo'l tuzdur. Agarchi bir-ikki ko'ch tafovut qilur, roylari munga qaror topib, tumshuq yo'lig'a bo'lubturlar. G'usldin forig' bo'lg'uncha che-rik eli tamom tumshuq yo'lig'a tuz olib, aksar Go'mal rudidin ham kechibturlar, chun ko'ru-
gan yo'llar emas edi, yo'lning yiroq-yovug'ini bilmay, arojif so'z bila bu yo'lg'a kirduk. Iyd namozini Go'mal rudining yoqasida o'taldi. Navro'z ul iydqa yovuq kelib edi. Tafovut bir-ikki kun edi, ul taqrib bila bu g'azalni aytib erdim:

Yangi oy yor yuzi birla ko'rub el shod

bayramlar,

Manga yuzi qoshingdin ayru bayram oyida

g'amlar.

Yuzi navro'zi vasli iydini Bobur g'animat tut,

Ki mundin yaxshi bo'lmas bo'lsa yuz navro'z

bayramlar.

Go'mal rudini o'tub, janub sari boqa tog' domanasi bila yuruduk. Bir-ikki kuruh borilib edikim, qoni tutulg'on bir necha afg'on tog' etagidagi pushtlarda paydo bo'ldilar. Jilavrez ul sari mutavajjih bo'lduk. Aksari qochtilar, ba'zisi jahl qilib, domanadag'i ushoq tog'larda va kamarlarda berkidilar. Bir afg'on bir parcha tog'ning ustida turub edi. G'olibo nari yoni uchma edi, ketar yeri ham yo'q edi. Sultonquli chanoq jibaliq chiqib chopqulob oldi. Mening qoshimda bir qilg'on ishi ushbu edi. Ushbu ishi sababi rioyati va tarraqqisi bo'ldi. Yana bir kamarda Qutluq qadam bir afg'on bila chopqu-

lashib, tutog'lashib, o'n-o'n ikki qari yerdin bila-o'q uchtilar, boshini kesib kelturdi. Yana bir tog'ning ustida Kepa bir afg'on bila dast-u giribon bo'lub tog' ustida tog'ning yarmisig'acha yumalanib keldilar, aning ham boshini kelturdi. Bu afg'onlarni dag'i asiri xeyli tushub edi, tamom ozod qilildi.

Dashtin ko'chub, Mehtar Sulaymon tog'ini domanalab, janub sari boqa yurub, uch orada qo'nub, Sind suyining yoqasidagi Multon tavobeyi kentlaridin Bila degan qasabachag'a yetishildi. Eli kemalarga kirib suv o'ttilar, ba'zi o'zlarini suvg'a solib o'ttilar. Ushbu kent to'g'risida bir orol bor edi. Keyin qolg'an ellar orolda ko'rundilar. Aksar cherik eli ot va yaroq bila o'zlarini solib o'ttilar, bir necha kishi suvg'a bordi. Mening navkarlarimdin bir Qul Ahmad oruq edi, bir Mehtar farrosh edi. Jahongir mirzo navkarlaridin bir Qaytmas turkman edi. Bu orolda ba'zi raxt va partoldek nimalar cherik eliga tushdi. Bu navohining eli kemalar bila tamom Sind suyining ul yuziga o'ttilar.

Ushbu orol to'g'risidin o'tganlar bir porasi suvning ulug'lug'ig'a e'timid qilib qilichlar iliklariga olib, shamshirbozlik qilib, tikka qila boshladilar. Orolg'a o'tganlardin Qul Boyazid bakavul yolg'uz yalang'och ot bila alarning muqobalasidin o'zini suvg'a soldi. Orolning ul yuzidagi suv ikki-uch hissa bo'lg'ay edi, bu yuzdagi suv bir hissa. Ot uzdurub ul yuzdagilarning muqobalasida bir o'q o'timi yerda poyobqa chiqti, suv o'tning qaptolida bo'lg'ay edi. Bir sut pishimig'a yovuq darang qildi. G'olibo hamlini tuzdi ekin,

keyindin hech kim ko'mak kelmadi va ko'mak kelur ehtimoli ham yo'q erdi. O'shandin bularning ustiga ildam yurudi. Bir-ikki o'q ottilar, bo'ldura olmadilar, qocha berdilar. Yolg'iz yaydoq ot bila ko'maksiz Sind suyidek daryodin uzdurub kechib, g'animlarni qochurub, yerlarini oldi. Mahkam mardona ish qildi. Yog'iyni qochurg'ondin so'ngra cherik eli o'tub, raxt va gala-qora o'lja kelturdilar. Agarchi mundin burun ham xizmatidin va mardonaliklaridinkim, necha navbat zohir bo'lub edi, rioyati va shafqati maqomida bo'lub, bovurchiliq martabasidin xossa bakavulluk martabasig'a yetkurub erdim. Bu ishidin xud aning borasida kulliy inoyat va tarbiyat maqomida bo'ldum va kulliy inoyat va tarbiyat ham qildim. Nechukkim, mazkur bo'lg'usidir. Voqe inoyat va tarbiyat arzandasi ham bor edi.

Yana ikki ko'ch Sind suyini yoqalab, suv quyig'a boqa ko'chuldi. Cherik eli chopqun chopa-chopa otlarini xarob qildilar. Moli ham arzandayi chopqun emas, tamom uydur. Dashtta xud qo'y va ba'zi yerda raxtdek nimalar ham cherik eliga tushar edi. Dashttin o'tgach, o'ydin o'zga nima yo'q edi. Sind suyi yoqasidagi ko'chlarda xud andoq bo'ldikim, bir qulluqchi uch yuz o'y-to'rt yuz o'y kelturur edi. Nechukkim, kelturur edilar, ko'plugidin har ko'chta yana o'shandoq qolur edi. Uch ko'ch Sind yoqasi bila-o'q kelduk. Uch ko'chtin so'ng Pir Konu mazori to'g'risidin Sind daryosidin ayrilib, Pir Konu mazorig'a kelib tushtuk. Cherik elidin ba'zi mazorning mujovirlariga

mazohim bo'lg'on uchun birini siyosat uchun pora-pora qildurdim. Bu mazor Hindustonda bisyor mu'tabar mazordur. Mehtar Sulaymon tog'ining payvasti tog'larining domanasida voqe bo'lubtur, bu mazorni kuchub ko'tal ustida tushuldi.

Andin ko'chub Dukki viloyatig'a taalluq rudg'a tushuldi. Ul yurttin ko'chganda Shoh-bek navkari Fozil ko'kaltoshningkim, Sivining dorug'asi edi, yigirmacha qorovullukg'a kelgan kishisini tutub kelturdilar. Ul mahalda chun kudurati yo'q edi, ot va yaroqlari bila-o'q qo'ya berduk. Ora ko'nub Dukking kentlaridin Chutoli degan kentning yovug'ig'a tushtuk. Sind suyidin narroq va Sind suyining yoqasida agarchi tinmay chopqun qilur edilar, vale ot bo'g'uzi va ko'k xavid bisyor edi. Ot qolmas edi. Sind daryosidankim, Pir Konu sari boqa chiqaydi, ko'k xavid xud yo'q edi. Ahyonan ikki-uch ko'chta oz-og'loq xavidzor topilur edi. Ot bo'g'uzi xud topilmas edi. Ushbu yurtlardin cherik elining otlari qola boshladi. Chutolidin o'tub tushgan yurtta uloqsizliqdin mening xirgohim ham qoldi.

Ushbu yurtta oxshomi andoq yomg'ur bo'ldikim, chodir ichida suv inchka poychadin edi, gilemlarni bir yerda yeg'ishturub, baland qilib ustida o'lturdum. Bu kecha ushmundoq usrat bila tong otti, yana ikki ko'chdin so'ng Jahongir mirzo kelib, qulog'img'a dedikim, xilvat so'zim bor. Xilvat qilildi. Arz qildikim, Boqi Chag'oni-yoniy manga kelib dedikim, podshohni yetti-sekkiz-o'n kishi bila ruxsat berib Sind suyini

o'tkarib sizni podshoh ko'taraling. Men aytgimkim, yana kimlar emish bu kengashda? Ayttikim, manga filhol Boqibek aytti, o'zgasini bilimadim. Men dedim: yana o'zgalarni dag'i tahqiq qiling. G'olibo Sayid Husayn Akbar va Sul-ton Ali chuhra yana ba'zi Xisravshohiy bek, bekot, yigit-yalang ham bor edi ekin. Filvoqe Jahongir mirzo munda asru ko'b bordi. Tuqg'onliqni bajo kelturdi.

Jahongir mirzoning bu ishi mening ul ishimning muqobalasida edikim, Kohmardda ul ham bu badbaxt mardaknint ig'vo va ifso-di bila edi. Ul yurttin ko'chub yana bir yurtqa tushganda, cherik elidin oti yarar kishini Jahongir mirzog'a boshlatib, ul navohida o'tturur afg'onlarni chopqali yiborildi. Ushbu yurtlarda cherik elining otlari ko'p qola boshladi. Kuni bo'lur edikim, ikki yuz ot, uch yuz ot qolur edi. O'bdon-o'bdon kishilar yayoqladilar. Shoh Mahmud o'g'loqchikim, mening o'bdon ichki-larimdin edi, otlari tamom qolib yayoq keldi. G'aznig'acha cherik elining otlarig'a bu hol edi, uch-to'rt ko'chtin so'ngra Jahongir mirzo bir pora afg'onlarni chopib, bir pora qo'y kelturdi.

Bir ikki-uch ko'chdin so'ng Obi Istodag'a yet-duk. G'arib ulug' suv nazarg'a keldi. Ul yuzdagi dashtlar xud aslo ko'runmaydur. Suv osmon bila payvast ko'runadur, ul yuzdagi tog'lar va pushtalar netavrkim, Serobning ul yuzidagi tog' va pushtalar muallaq ko'runur. Bu tog'lar va pushtalar ham yer bila ko'kning orasida muallaq ko'runadur. Munda yig'ilur suvlar Katta voz vodisining va Zurmat julgasining va G'azni ru-

dining Qorabog' o'langining bahor yomg'urlarining sellari va yozlar suv ulg'ayg'anda ziroatdin ortqon suvlari emish. Obi Istodg'a bir quruh yetganda ajab nima mulohaza qilduk. Har zamon bu suv bila osmonning orasida shafaqdek nima qip-qizil ko'runadur, yana bartaraf bo'ladur. Yovuq yetguncha bu hol edi, yovuq yetganda ma'lum bo'ldikim, tog'lon qoz ekandur. Ne yolg'uz bu qush, har qushdin behaddu hasr, bu suv yoqasida qalin qushning yumurtqasi. Suv qirog'idin bu kushlarning yumurtqalarini olg'ali kelgan ikki afg'on bizni ko'rgan bila o'zini suvg'a soldi. Bir necha kishi yarim kuruhqa yovuq borib kelturdilar.

G'arazkim, muncha yo'lkim bordilar, suv bir qoida bila otning qornida edi. Tuz yer uchun g'olibo suyi chuqur emastur. Katta voz dashtining Obi Istodg'a kelur rudining yoqasig'a kelib tushtuk. Bu rud quruq rudtur, munda hargiz suv oqmas, necha navbatkim, mundan o'tub-turbiz, hargiz bu rudda oqar suv ko'ruilmabtur. Bu navbat yoz yog'inlari jihatidin bu rudqa andoq suv kelibturkim, aslo guzar topolmaduk. Agarchi xeyli ariz emas, vale bisyor amiq edi. Tamom ot va tevani uzdurub kechildi. Ba'zi partoldek nimani arg'amchig'a bog'lab, ul yuzdin tortib oldilar. Bu suvdin o'tub Ko'hnanoniy bila Sarideh bandidin o'tub, G'aznig'a kelduk. Jahongir mirzo bir-ikki kun mehmondorlik qilib, oshlar tortib, peshkashlar qildi. Ul yil aksar suvlar uluq kirib erdi. Andoqkim, dehi Ya'qub suyidin guzar topilmas edi.

Men ko'lda yasatqan kemani kelturub Kamariy to'g'risida dehi Ya'qub suyig'a solib, el

kema bila o'tar erdilar. Bu jihattin Sijovand ko'talidin o'tub, yakruya kelib Kamaridin kema bila suvni kechib, zilhijja oyida Kobulg'a kelduk. Sayid Yusufbek bir necha kun bu-runroq qulunj zahmati bila tengri rahmatig'a boribtur. Nosir mirzo navkar-savdariga viloyatlaridin biror nima tegurub, ikki-uch kun keyinroqdin kelay, deb Qo'shgumbazdin ruxsat tilab qolib edi. Bizdin ayrilg'ach, Darayi Nur eli bir nima sarkashlik qilg'on jihatidin cherikini Darayi Nur ustiga yiborur. Darayi Nurning qo'rg'onining berkligi va yerlarining sholizor jihatidin bo'rtog'lig'i burun mazkur bo'lub edi, bu cherikning sardori Fazli cherikni ehtiyot qilmay mundoq, yakraha yo'l va bo'rtog' yerda parishon chonqung'a qo'yar. Darayi Nur kishisi chiqib parishon borg'on chopqunchini tebratgan bila o'zgalar ham tura olmaslar, qocharlar. Bir pora kishini o'lturub qalin ot va yaroq oldilar. Ul cherikdakim, Fazlidek kishi sardor bo'lg'ay, holi ushmundoq-o'q bo'lg'usidur. Bu jihatdinmu yo Nosir mirzoning ko'nglida egriligi bor edi, ul jihatdinmu bizning so'ngimizcha kelmay qoldi. Yana Ayyubning o'g'lonlari Yusuf va Bahlulkim, bularcha sharir, mufattin va mudamme va mutakabbir kishi bo'lmag'ay edi. Alingorni Yusufqa va Alishangni Bahlulg'a berilib edi, bular ham viloyatlardin biror nima olib, Nosir mirzo bila kelmoqchi edilar. Chun Nosir mirzo kelmadi, bular ham kelmadilar. Bu qish Nosir mirzoning hamkosa va hamsuhbati bular edilar. Bu qish bir qatla borib Tarkaloni

afg'onini choparlar, yoz bo'la tamom aytmogot va tashqi el va ulusning ko'ch va mollarikim, Ningnahor va Lamg'onot kelib edilar, ko'churub surub Boron yoqasig'a keldi.

Nosir Mirzo Boron va ul navohida ekan-da Badaxshoniylarning o'zbeklarni o'lturub o'zbek bila yakro'y bo'lg'on xabari keldi. Tafsili budurkim, Shayboniyxon Qunduzni Qanbarbiyga¹ berib, o'zi Xorazm bordi. Qanbar Badaxshon eliga istimolat berur jihatidin Muhammad Mahdumiyning Mahmud otliq o'g'lini Badashxong'a yibordi. Muborakshohkim, otalari Badaxshon shohlarining beklaridin ekandur, bosh ko'tarib Mahdumiyning o'g'lining yana necha o'zbekning boshini kesti. Qal'ayi Zafarkim, burun Shoftevarag'a² mashhur ekandur, qo'rg'on qilib berkitti. Qal'ayi Zafar otini ul ko'ydi. Yana Muhammad³ qo'rchikim, Xisravshohning bir qo'rchisi edi, ul vaqt Xamlangon aning ilikida edi. Rustoqda Shayboniyxonning sadrini bir necha o'zbek bila o'lturub Xamlangonni mustahkam qildi. Zubayr, Rog'iy ham otalari shohlarning beklaridin ekandur, Rog'da yog'iqti. Jahongir turkmankim, Vali Xisravshohning navkari edi, bu buzug'lug'da begidin ayrilib, bir necha qolg'on-qochg'on sipohi va aymoqni yig'ib, o'zini berkka tortti. Nosir mirzo bu xabarlarini topib, Badaxshon havasi bila bir necha beaql va ko'tah andeshning angiz va ig'vosidin jami' ul yuzdin kelgan tashqi

¹ Q. b. – Qambar Alibek.

² L. b. – Shof tanvar.

³ Q. b. – Mahmud.

ellarning ko'ch va mollarin ko'churub, surub Shibartu va Obi dara yo'li bila ul yuzga o'tti.

Xisravshoh Ahmad Qosim bila Ajardin qochib, Xuroson sarikim, bordilar, yo'lda Badiuzzamon mirzog'a va Zunnunbekka muloqiy bo'lib, borchalari borib Hiriyda Sulton Husayn mirzog'a mulozamat qildilar. Bularkim necha yillar mirzog'a yog'iyliqlar qilib, anvo' beadabliqlar bulardin zohir bo'lib edi, bulardin mirzoning ko'nglida ne dog'larkim yo'q edi, barchalari mening sababimdin mundoq xorliq va zorliqlar bila borib mirzoni ko'rdilar: Xisravshohni navkar-savdaridin ayirib mundoq zabun qilmasam edi. Kobulni Zunnunning o'g'li Muqimdin olmasam edi, borib mirzoni ko'rmaklari mumkin emas edi. Badiuzzamon mirzo xud bularning ilgida xamir edi, bularning so'zlaridin tajovuz qila olmas edi.

Sulton Husayn mirzo borig'a ehson maqomida bo'lub, yamonliqlarni yuzlariga kelturmay, in'omlar ham qildi. Xisravshoh necha mahaldin so'ng o'z viloyatlari sari ruxsat tiladikim, men borsam, ul viloyatlarni tamom olurman. Chun bu kelmagi yaroqsiz va behisob edi, ruxsatig'a hayal qildilar. Alar hayal qilg'an soyin bu ruxsatni takror qildi. Chun ibrom ko'p qildi, Muhammad Burundiq tavr javob berdi. Ayttikim, o'ttuz ming navkaring bila tamom viloyatlariningkim, iligingda edi, ne qildingkim, holo besh yuz kishing bila o'zbek tasarrufidag'i viloyatlarg'a ne qilg'aysen? Bir necha nasihatlar qilib, ma'qul so'zlar dedilar, chun ajal yetib edi, ta'sir qilmadi. Ibrom ko'prak qildi, oxir ojizat berdilar.

Uch-to'rt yuz kishisi bila rost Dahona hadig'a kirib keldi, o'shal fursatta Nosir mirzo ul yuzga o'tub edi, kelib Nosir mirzoni Dahona navohisida ko'rdi. Badaxshon sardorlari Nosir mirzoni yolg'uz tilar edilar. Xisravshohni tilamas edilar. Nosir mirzo har necha sa'y qildi. Xisravshoh ham anglab Ko'histon borurg'a rozi bo'lmadi. Xisravshoh xayoli bu edikim, mirzoni ta'biyadek¹ olib yurub, viloyatni iliklagay. Oxir suhbat chiqmay, Ishkamish navohisida yashashib, jibalar kiyishib, urushayozib, ayrilib, Nosir mirzo Badaxshon sari tortti. Xisravshoh bo'lak lang va lavandni yig'ib yaxshi-yamon mingcha kishisi bial Qunduzni qabamoq doiyasi bila kelib, bir-ikki yig'och Xoja Chortog'ga tushti. Muhammad Shayboniyxonkim, Andijonda Sulton Ahmad Tanbalni olib Hisor ustiga mutavajjih bo'lg'on bila urushsiz va taloshsiz viloyatlarni tashlab chiqtilar. Shayboniyxon Hisor keldi. Hisorda Shirim chuhra va bir pora o'bdon yigitlar edi, bovujudkim, beklari viloyatlarini tashlab kettilar, bular Xisor qo'rg'onini bermay, berkittilar.

Shayboniyxon Hisorning muhosarasini Hamza Sulton bila Mahdi Sultong'a uhda qilib, o'zi Qunduz kelib, inisi Mahmud Sultong'a Qunduz viloyatini berib, o'zi betavaqquf Xorazmg'a Chin so'fining ustiga mutavajjih bo'ldi. Hanuz Samarqandg'a yetmaydur edikim, inisi Mahmud Sulton Qunduzda o'ldi. Qunduzni Qanbarbiy Marviyg'a berdi. Xisravshoh kelgan mahal Qunduzda Qanbarbiy edi. Qanbarbiy mutaoqib

¹ Q. b. – Nosir mirzoni naqibadek.

Hamza Sultong'a va o'zga sultonlarg'a kishilar chopturub tiladi. Hamza sulton Amu yoqasida Saroyg'a kelib, cherigini o'g'lonlari va beklariga boshlatib, Qunduz yibordi. Bular yetkan bila-o'q chiqtilar. Urusha ham olmadi. Tanbal mardak gocha ham olmadi. O'shal zamon-o'q Hamza Sultonning kishilari tushurdilar. Hoxar zodasi Ahmad Qosimni, Shirim chuhrani, yana ba'zi o'bdon yigitlarni o'lturdilar. Qunduzg'a kelturub Xisravshohning bo'ynig'a urub, boshini Xorazmg'a, Shayboniyxon qoshig'a yibordilar.

Xisravshoh aytkandek, Xisravshoh Qunduz navohisida kelgan bila mening qoshimdagi navkar-savdarining turlari o'zgacharak bo'ldi. Alisar ko'chub, Xoja Rivoj va ul taraflar o'zlarini torttilar. Mening qoshimda ko'pragi aning navkar-savdari edi. Mo'g'ullar yaxshi bordilar. Yakjahatliq maqomida edilar. Bu xabar kelgan bila o'tqa suv urg'ondek bosila qoldilar.

VAQOYEYI SANAYI IHDO ASHARACHQA TIS'A MIA¹

Muharram oyida mening onam Qutluq Nigor xonimga hasba marazi oriz bo'ldi, fasd qildilar, noqis voqe bo'ldi. Bir xurosonliq tabib bor edi, Sayid tabib derlar edi. Xuroson dasturi bila hinduvona berdi, chun ajal yetib ekandur, olti kundin so'ng shanba kuni tengri rahmatig'a bordi. Ulug'bek mirzo tog' domanasida bog' imorat qilib edi. Bog'i Navruzliy otliq, Varasining ruxsati bila yakshanba kuni bu bog'ga kelturub, men va Qosim ko'kaltosh tufroqqa topshurduk. Bu azoda kichik xon dodam Olacha xonni va ulug' onam Esan Davlatbegimni manga eshitturdilar. Xonimning qirqi yovushub edikim, Xurosondin xonlarning validasi Shohbegim, mening xolam Sulton Ahmad mirzoning harami Mehr Nigorxonim, Muhammad Hasan ko'ragon do'g'lat keldilar. Azolar toza bo'lub, firoqlar o'ti beandoza bo'ldi. Azo rasmini bajo kelturgandin so'ng, osh va taom faqir va masoking'a tortilib, xatm va duolar borg'onlarning arvohig'a qilib, ko'ngullarini olib, qarolarini solib, bu muhimmottin forig' bo'lg'ondin so'ng, Boqi Chag'oniyoniyning sa'yi bila Qandahor ustiga cherik otlanduk. Safar qilib kelib, Qush Nodir o'langiga tushub edimkim, men isittim, ajab tavr behuzurluq edi. Meni har necha sa'y qilib uyg'otsalar, yana o'shal zamon ko'zum uyqug'a borur edi. To'rt-besh kundin so'ng filjumla yaxshiroq bo'ldum.

¹ To'qqiz yuz o'n birinchi (1505-1506) yil voqealari.

Bu asnoda andoq zilzila bo'ldikim, qo'rg'onning fasillari va bog'larning tomlari aksar yiqilib, shaharda va kentlarda ko'p uylar hamvor bo'lub, uy va tom ostig'a qolib, o'lgan bisyor bo'ldi. Pamg'on kentining uylari tamom yiqildi. Yetmish-sekson o'bdon kadxudolar tom ostig'a qolib o'ldilar. Pamg'on bila Bektut orasida bir parcha yerkim arzi birgina tosh otimi bo'lg'ay, uchub, bir o'q otimi quyi bordi. Uchqan yerning o'runidin chashmalar paydo bo'ldi. Istarg'ichtin Maydong'acha taxminan olti-yetti yig'och yo'l bo'lg'ay, yer andoq yorilib edikim, ba'zi tarafi belcha baland bo'lur edi, ba'zi tarafi belcha pasi, yorilg'an yerga ba'zi yerda kishi sig'ar edi. Zilzila bo'lg'on zamon jami' tog'larning boshidin gardlar qo'пти. Nurullo tanburchi qoshimda soz chaladur edi, yana bir soz ham bor edi, o'shal zamon har ikki sozini iligiga oldi, andoq beixtiyor bo'ldikim, Sozlar bir-birig'a urundilar. Jahongir mirzo tepada, Ulug'bek mirzo solg'on imoratlardan bir boloxonaning ayvonida edi, zilzila bo'lg'och, o'zini tashladi, osibe yetmadi. Jahongir mirzoning yovuqlaridin biri ushbu boloxonada ekandur, boloxona tomi ustiga yiqilibtur, tengri saxladi, hech yeriga ozore yetmadi. Tepadagi uylar aksar tup-tuz bo'ldi. O'shal kun o'ttiz uch qatla yer tebrandi. Bir oyg'acha har kecha-kunduzda ikki va uch qatla yer tebranur edi. Qo'rg'onning burj va borusini shikast-u rixtini beklarga va sipohilarga farmon bo'ldikim, isloh va marammat qilg'aylar. Yigirma kun-bir oyda jid va ihtimom bila qo'rg'onning sinuq-buzug'ini butkarib qo'parildi.

Burun Qandahor tarafi qilg'on azimat bezuzurluk va zilzila jihatidan, keyinroq qolib edi, behuzurluqni o'tkarib, qo'rg'onni butkarib, burung'i azimat musammam bo'ldi. Hanuz Qandahor tarafi bormoqni yo chopqun uchun tog' va tuzni axtarmoqni jazm qilmaydur eduk. Shanizning¹ oyog'ig'a tushganda Jahongir mirzoni va beklarni yig'ib kengashildi. So'z Qalotning ustiga bormoqqa qaror topti. Jahongir mirzo va Boqi Chag'oniyoniy bu yurushga ko'prak sa'y qildilar. Yorig'a² yetgan mahalda xabar toptukim, Sherali chuhra va Kichik Boqi devona va yana bir necha kishining qocharxayollari bor emish. Bularni tutturub, Sherali chuhradinkim, anvoyi fitnalar va yamonliqlar mening qoshimda ekanda va g'ayri mening qoshimda ekanda, ul viloyatta va bu viloyatta zohir va voqe bo'lub edi, yasoqg'a yetkuruldi. O'zgalarini ot va yarog'idin ayrib qo'yduk. Qalotqa yetganda beyaroq va beasbob yetgan bila-o'q har taraftin urush solduk, xeyli urush bo'ldi.

Xoja Kalonning og'asi Kichikbek xeyli mardona yigit edi, necha navbat mening olimda qilichlar chopib edi, nechukkim bu tarixta mazkur bo'lubtur. Qalotning g'arbi-janub tarafi burjiddin yopishib chiqa yovushqon mahalda ko'ziga nayza bila sanchtilar, bir-ikki kundan Qalotni olg'ondin so'ng ushbu yara bila bordi. Kichik Boqi devonakim Sherali bila qochadurg'anida tutturulub edi, munda ul qabohatining tadorukiga darvozada fasil tubiga kirganda, tosh

¹ L. b. – Sherning.

² Q. b. – Tozig'a.

zaxmi bila o'ldi. Yana bir-ikki kishi ham o'ldi. Namozni diygargacha ushbu dastur urushildi, yigitlar urushub, zo'rlab, sust bo'lg'on mahalda ichkarigilar amon tilab qo'rg'onni topshurdilar. Qalotni Zunnun arg'un Muqimg'a berib edi. Muqimning navkarlaridin Farrux arg'un va Qora Bulut Qalotta edilar. Sog'doq, qilichlarini bo'yinlariga osib keldilar, gunohlarini afv qilduk. Bu tabaqag'a muzohim bo'lmoq mening g'arazim emas edi, ne jihattinkim o'zbekdek g'anim yonimizda turub ekin, orada mundoqlar bo'lsa yiroqtin – yovuqtin eshitgan – ko'rganlar ne degaylar?

Bu yurush chun Jahongir mirzoning va Boqibekning sa'yi bila bo'lub edi. Qalotni saxlamoqni mirzog'a uhda qilduk, qabul qilmadi. Boqibek ham bu bobta yaxshi javob topa olmadi. Qalotni muncha urushib, zo'rlab olg'animiz befoyda bo'ldi. Qalotting janub sari boqa Savo sang va Olatog' va ul navohidagi afg'onlarni chopib Kobul kelduk. Kobul tushgan oxshomi men qo'rg'ong'a bordim. Chodir va tavila chorbog'da edi. Xirilji o'g'risi kelib, mening bir jibalar charda otimni va yana bir xossa xachirimni chorbog'din chiqarib eltti.

Boqi Chag'oniyoniy Amu yoqasida kelib, bizga qo'shulg'ali andin e'tiborroq va ixtiyorroq kishi yo'q edi, har so'z desa, har ish qilsa so'z aning so'zi edi, ish aning ishi edi. Agarchi andin xizmatikim, shoyista bo'lg'ay va insoniyatikim boyista bo'lg'ay, hargiz zuhurg'a kelmadi, balki anvoyi beadabliqlar va yamonliqlar andin voqe bo'ldi. Xasis va zamuxt va hasud va bad

an darun va notavonbin va kajxulq kishi edi, xissati bu martabada edikim, Tirmizni solib, ko'ch va moli bilakim bizga qo'shuldi, o'zining xossa qo'yi shoyadkim, o'ttuz-qirq ming bo'lg'ay edi, har yurtta qalin qo'ylar bizning olimizdin o'tar edi, bizning yigit-yalang ochliqtin azob tortar edilar, bir qo'y bermadi. Oxir Qohmartda borg'onda ellik qo'y berdi, bovujudkim meni podshoh ko'tarib edi, naqorasini o'zining eshigida choldurur edi. Hech kim bila sof emas edi, hech kimni ko'ra olmas edi. Kobulning hosilikim bor tamg'adindur, tamg'ani olib va Kobulning dorug'alig'i va Panchhir va Kadiy Hazora va Ko'shkak¹ va eshik ixtiyori tamom anda edi. Ushmuncha rioyat topib aslo rozi va shokir emas edi. Bovujudkim, ne nav' fosid xayollar qilib edi, nechukkim mazkur bo'ldi, aslo o'zumizga olmaduk, yuziga solmaduk, hamisha noz, qilib ruxsat tilar edi. Nozini tortib, uzrxohliqlar bila man' qilur eduk. Bir-ikki kun bosilib, yana ruxsat maqomida bo'lur edi. Nozi va ruxsati haddin oshti, biz ham aning axloq va af'olidin jong'a yettuk, ruxsat berduk. Ruxsat tilagandin so'ng pushaymon bo'ldi, iztiroblar qila kirishti, foyda qilmadi. Manga aytturub yiboribturkim, shart qilib edilarkim, to'qqiz gunoh mendin sodir bo'lmag'uncha so'rmag'aylar. Men Mullo Bobodin o'n bir gunohini birar-birar xotirnishon qilib aytib yibordim. Mulzam bo'ldi. Ko'ch va moli bila Hinduston tarfig'a ruxsat berildi. O'zining bir necha navkarlari Xaybardin o'tkarib keldilar.

¹ Q. b. - Qo'shlok.

Boqi Gogiyoniyning korvonig'a qotilib, Nilobni kechti. Ul mahalda Yor Husayn Daryoxon Kachakutta edi, Kuhattin olib borg'on farmonlarini sanad qilib, Dilazok bila Yusuf zayn bir pora afg'onlarni va yana bir pora jat gujurni o'ziga yor va navkar qilib, ish-kuchi el talamoq, yo'l urmoq edi. Boqining xabarini eshitib, yo'lini to'sub, Boqi bila borg'onlarni ariq oldi, Boqini o'lturub xotunini oldi. Agarchi biz Boqig'a hech yamonliq qilmay qo'ya berduk, vale o'z yamonlig'i olig'a kelib, o'z amalig'a giriftor bo'ldi. Bayt:

*Tu bad kunandan xudro baro'zgor supor
Ki ro'zgor turo chokarest kina guzor¹.*

Bu qish bir-ikki qatla qor yog'quncha chorbog'da-o'q o'lturub eduk, biz Kobul kelgali turkman hazorasi anvo' beadabliqlar va rahzanliqlar qilib edilar. Alarni chopmoq xayol qilib, shaharda Ulug'bek mirzoning Bo'stonsaroy otliq imoratig'a kirib, andin sha'bon oyida turkman hazorasini chopa otladuk. Darayi Xush og'zida Jinglakta chopqun qo'yduk. Oz-og'loq hazora chopildi. Darayi Xush yovug'ida bir sumjda bir pora hazora yashung'on ekandur. Shayx Darvish ko'kaltoshkim aksar qazoqliklarda mening bila edi, qo'rbegilik mansabi anda edi, yoyni kuchluk tortar edi, o'qni xo'b otar edi, bu sumjning og'zig'a g'ofil yovuq-o'q kirib borur, ichkaridin bir hazora emchagiga o'q o'qlar, o'shal kun-o'q o'ldi. Turkman hazorasining

¹ Sen o'zingga yomonlik qiluvchini turmush hukmiga havola qil. Turmush senga o'ch olib beruvchi xizmatkordir.

ko'pragi Darayi Xushta qishlog'on ekanur, alarning ustiga mutavajjih bo'lduk.

Darayi Xush tavr dara tushubtur, yarim kuruhga yovuq dara og'zida tangi tushubtur, yo'l tog'ning kamarida voqe bo'libtur, yo'din quyi ham ellik-oltmish qari yakandozdur. Yo'din yuqqori ham yo'l jirutmadur. Otliq birar-birar o'tar, bu tangidin o'tub, ul kun ikki namoz orasig'acha borib yelga yetmay bir yerda qo'nduk.

Hazoraning bir semiz lo'k tevasini topib kelturdilar, ani o'tturub go'shtidin bir pora kabob qilduq, bir porasini oftobda pishirub yeduk, oncha laziz teva eti hargiz yeyilgan emas edi, ba'zi qo'y etidin farq qila olmadilar. Andin erta ko'chub, hazoralarning qishlog'och yurtlari ustiga mutavajjih bo'lduk. Bir pahr bor edikim, ilgaridin kishi keldi, dedikim, bir tangida hazoralar suv guzarini shoxlar bila berkitib, elni to'sub¹ urushadurlar, muni eshitgach, tezo'q tebraduk. Bir pora yo'l borduk, hazoralar to'sub urushadurg'on yerga yettuk.

Ul qish qor bisyor ulug' tushub edi, yo'lsiz yurumakning ishkoli bor edi. Tagob suvlarining yoqalari tamom muz bog'lab edi. Bu suvdin yax va qor jihatidin yo'lsiz yerdin o'tub bo'lmas edi. Hazoralar bu suvning chiqar yerida qalin shox kesib solib edilar. O'zlari tagoblarda va yonlarda otliq va yayoq-o'q qo'yub urushadurlar edi.

Muhammad Ali Mubashshirbek mening yashgi rioyat qilg'on beklarimdin edi, xeyli mardona va qobili rioyat, yaxshi yigit edi, jibasi yo'q,

¹ Q. b. - tushub.

ilgarrak shox solg'on yo'lg'a mutavajjih bo'ldi, biqinig'a o'qladilar; o'shul zamon jon taslim qildi. Ildam kelilib edi. Aksarning jibasi yo'q edi. Bir-ikki o'q o'tub-o'tub tushti. Ahmad Yusuf-bek iztiroblar qilib, har zamon aytadurkim: – Yalangoch mundoq kirib borasiz, ikki-uch o'qni ko'rdumkim, boshingizdin o'tti.

Men dedimkim: – Siz mardona bo'lung, mening boshimdan mundoqlar xeyli o'tubtur. Ushmuncha edikim, o'ng qo'l tarafidin Qosimbek o'pchini¹ bila bu suvdin guzar topib kechib, ot solg'on bila hazoralar to'xtay olmay qocha berdilar. Ilik olishib turg'onlar tushura-tushura keyinicha tebradilar. Qosimbekka bu ish uchun Bangashni juldu berildi. Hotam qo'rbegi ham bu yurushta yamon emas edi. Bu jihattin Shayx Darvish ko'kaltoshning muchasi qo'rbe-gilikni Hotamg'a inoyat bo'ldi. Kepakquli Bobo ham bu yurushta yaxshi yurugan uchun bir kentni Kepakka inoyat qilduk. Sultonquli chinoq bularning so'ngicha edi. Qor ulug' jihati-di chig'irdin chiqib bo'lmas edi. Men ham bu yigitlar bila-o'q keldim.

Hazoralarning qishlog'larining yovug'ida qo'y va ilqilarig'a yetushtuk. Men o'zum to'rt-besh yuzcha qo'y, yigirma besh ot yig'dim. Sultonquli yana ikki-uch kishi yovuq edilar, chiy bo'lduk. Ikki navbat o'zum chopqun chopipturmen, bir budur, yana bir qatla ushbu turkman hazorasini Xurosondin keladurganda chopquncha borib qalin qo'y va ot kelturdilar. Hazoralarning ko'ch va o'g'lon-ushoqlari yayoqlab qor-

¹ Q. b. – to'pchigi.

liq pushtalarg'a chiqib turdilar. Bir nima ko-hillik qilduk, kun ham kech bo'lub edi, yonub hazoralarning uylariga-o'q tushuldi, bu qish qor xeyli ulug' tushub edi. Ushbu yerda yo'ldin tashqari qor rost otning qoptolida edi. Kecha chog'duvulluqqa, chiqg'onlar qor ulug' jihati-din tong otquncha ot ustida-o'q edilar. Tonglasi yonib, Darayi Xushning ichida hazoralarning qishlog'ida qo'nub, andin ko'chub, Jingalakka tushuldi. Yorak tag'oyi va ba'zilar keyinraktin kelib edi, alarg'a buyuruldikim, Shayx Darvish-ni o'qlag'on hazoralarni borib olingiz. Qoni tutulg'on badbaxtlar sumjta ekandur, bular borib tutun qo'yub yetmish-sekson hazorani oldilar, ko'praki qilichqa bordi.

Hazora yurushidin yonib, Nijrovdin mol olur maslahatig'a Boronning oyog'i Oy tug'di navohisig'a kelduk. Jahongir mirzo G'aznidin oy tug'di navohisida ekanda mulozamatqa keldi.

Bu asnoda ramazon oyining o'n uchida manga sa'b quyong tashvishi bo'ldi, andoqkim, qirq kungacha meni buyondin ul yong'a kishi evurur edi.

Nijrov daralaridin Pijg'on darasi alalxusus bu darada G'ayn kentining ulug'i Husayn G'ayniy og'a-inisi bila sarkashlik va novahmliq bila mashhur va ma'ruf edilar. Cherikin Jahongir mirzog'a boshlatib yiborildi. Qosimbek ham bordi. Cherik borib sarko'bga chiqib singirlag'on yerni zo'rlab olib, bir porasini siyosatqa yetkurdilar.

Quyong tashvishi jihatidin mihfadek nima yasab, Boron yoqasidin shahrg'acha meni

ko'tarib Bo'stonsarog'a kelturdilarkim, o'shul qish-o'q bir necha kun Bo'stonsaroda o'turdum, bu behuzurliq hanuz yaxshi bo'lmaydur edikim, o'ng yuzumga dobg'uli chiqti, nishtar soldilar, bu maraz uchun mushil ham ichtim. Sehhat topib, chorboqg'a chiqtim, Jahongir mirzo mulozamatqa keldi. Ayyub o'g'lonlari Yusuf va Bahlul mirzo qoshig'a borg'ali fitna va shar angizlik maqomida edilar, bu navbat Jahongir mirzoni burung'idek topilmadi. Necha kundin so'ng Tepadan ko'chub, jibalanib, ildam G'aznig'a bordi. Noni qo'rg'onini olib, bir necha kishisini o'turub, elini tamom taladi. Bo'lg'on kishi-korasini ko'churub, hazora orasi bila Bomyon tarafi yuzlandi.

Tengrig'a ravshandurkim, mendin va menga taalluq eldin hech ish va so'ze voqe bo'lmadikim, sababi muncha qudurat va niqor bo'lg'ay. So'ngra eshitdikim, bu so'zni ketmaging sababi qilmish. Jahongir mirzo G'aznidin keladurganda Qosimbek va beklar o'tru borib edilar. Mirzo budanaga qush solur, yetib qush oyog'in solur mahalda budana o'zini yerga urar, qichqirushurlarkim, oldimu, oldimu? Qosimbek derkim, g'animni mundoq zabun qilg'onda qachon qo'yar – olur. Bu so'z alarg'a baloye bo'lur. Bir ketmaklarining jihati bu edi, yana bir-ikki mundin xarobroq va sustroq bir so'zni ham sanad qildilar. Dag'i G'aznini ul hol qilib, hazora orasi bila o'zlarini aymoqqa torttilar. Ul fursatga aymoqlar Nosir mirzodin ayrilib edilar, vale o'zbakka kirmaydur edilar. Yoy va Astarob va ul navohining yayloqlarida edilar.

Ushbu mahallarda Sulton Husayni mirzo Muhammad Shayboniyxonning daf'ig'a azm-jazm qilib, tamom o'g'lonlarini tilatti, meni dag'i Sayid Sulton Ali xobbinning o'g'li Sayid Afzalni yiborib tilab edi. Xuroson jonibini azimat qilmoq bizga necha jihattin lozim bo'ldi. Bir bukim, Sulton Husayn mirzodek Temurbek o'runig'a o'lturg'on ulug' podshoh yig'noq qilib, atrof va javonibdin o'g'lonlarini va beklarini tilatib, Shayboniyxondek g'animning ustiga ozim bo'lg'onda el, oyoq bila borg'onda, biz bosh bila borg'aybiz, el tayoq bila borg'onda – biz tosh bila borg'aybiz.

Yana bukim Jahongir mirzo mundoq mukaddar va yamonlik bilakim bordi, yo quduratini raf' qilg'aybiz, yo mazarratini daf'.

Ushbu yil Shayboniyxon Chin so'fini¹ Xorazmda o'n oy muhosara qilib oldi, bu muhosarada qalin urushlar bo'ldi. Xorazm yigitlari bisyor mardonaliqlar qildilar, hech taqsir qilmadilar, andoq tiyrandozlik qildilarkim, borlar qalqondin, jibadin ba'zi mahalda ikki jibadin o'tkara-o'tkara otibturlar. O'n oy qabaldorliq torttilar, hech yerdin umidvorliq bo'lmadi. Ba'zi yigit-yalangi bedillik qilib, o'zbek bila so'zlashib, o'zbekni qo'rg'ong'a chiqordilar. Chin so'fi xabardor bo'lub, o'zi kelib qo'rg'ong'a chiqqanlarni urub tushurur mahalda shiba o'qi tegib, o'zining chuhrasi keyindin o'q bila urdi, o'ldi. Urushur kishi qolmadi, qo'rg'onni oldilar. Rahmat Chin so'fig'a: mar-

¹ Q. b. – Husayn so'fi.

donaliq bila jon tortmoqda daqiqayi nomar'i qo'ymadi. Shayboniyxon Xorazmni Ko'pak biyga berib, o'zi Samarqand keldi.

Bu yilning oxiri zilhijja oyida Sulton Husayn mirzo Shayboniyxonning ustiga cherik tortib, Bobo Ilohiyg'a yetganda tengri rahmatig'a bordi.

Valodat va nasabi: valodati sekkiz yuz qirq ikkida Hiriya Shohruh mirzo zamonida edi. Sulton Husayn mirzo binni Mansur binni Boyqaro binni Umar shayx binni Amir Temur. Mansur mirzo bila Boyqaro mirzo podshohliq qilg'on emas. Onasi Firuzabegim edi. Temurbekning nabirasi. Sulton Husayn mirzo Mironshoh mirzoning ham nabirasi bo'lur edi, Sulton Husayn mirzo karimut-tarafayn edi, asil podshoh edi. Bir tuqq'on ikki o'g'ul, ikki qiz edilar. Boyqaro mirzo, Sulton Husayn mirzo, Okobegim va yana Ahmadxon olg'on qiz Badakabegim. Boyqaro mirzo Sulton Husayn mirzodin ulug' edi va navkari edi, vale devon boshida hozir bo'lmas edi, g'ayri devonda bir to'shakta o'ltururlar edi. Inisi Balx viloyatini berib edi. Necha yil Balxda hukumat qildi. Uch o'g'li bor edi, Sulton Muhammad mirzo va Sulton Vays mirzo va Sulton Iskandar mirzo, Okobegim mirzoning egachisi edi, Mironshoh mirzoning nabirasi, Sulton Ahmad mirzo olib edi, bir o'g'li bor edi. Kichik mirzo otliq. Burunlari tag'oyisig'a mulozamat qilur edi, so'ngra sipohiyliqni tark qilib, mutolaag'a mashg'ul bo'ldi. Derlarkim, donishmand bo'lub ekandur. Tab'i nazmi ham bor ekandur. Bu ruboiy aningdur:

*Umre ba saloh mestudam xudro,
Dar shevayi zuhd menamudam xudro,
Chun ishq omad kadom zuhdu, chi saloh,
Alminnatu lillah ozmudam xudro¹.*

Mulloning ruboiysi bila tavorud bo'lubtur. Oxirlar haj tavofi ham qildi.

Badakabegim ham mirzoning egachisi edi. Qazoqliqlarida Ahmadxon Hoji Tarxoniyg'a berib edi, o'g'li bo'lub edi. Hiriya kelib xeyli muddat mirzo mulozamatida bo'ldilar.

Shakl va shamoyili: qiyiq ko'zluk, sher andom bo'yluq kishi edi. Belidin quyi inchka edi. Bovujudkim, ulug' yosh yashab, oq soqolliq bo'lub edi, xushrang, qizil, yashil abrishimini kiyar edi. Qora qo'zi burk kiyar edi yo qalpoq. Ahyonon iydlarda kichik sepech dastorni yap-yassi yamon chirmon chirmab, qarqara o'tag'asi sanchib, namozg'a borur edi.

Axloq va atvori: Avval taxt olg'onda xayoli bor ekandurkim, duvozdah imomni xutbada o'qutg'ay. Alisherbek va ba'zilar man' qilibturlar. So'ngralar xud jami' ish-kuchi sunnat va jamoat mazhabi bila muvofik edi. Mafosil zahmati jihatidin namoz qila olmas edi, ro'za ham tutmas edi. Harrof va xush xulq kishi edi. Xulki bir nima guzaroroq voqe bo'lub edi, so'zi ham xulqidek edi. Ba'zi muamalotta shar'ni bisyor rioyat qilur edi. Bir qatla bir o'g'li bir kishini

¹ Umr bo'yi o'zimni yaxshilik bilan maqtadim, o'zimni zohid va taqvodor qilib ko'rsatdim. Ishq kelgach, zohidlik qayda qoldi-yu, yaxshilik nima bo'ldi? Xudoga shukrki, o'zimni sinadim.

o'lturgan uchun qonliklarig'a topshurub, dorul-qazog'a yibordi.

Avval taxt olg'on mahalda olti-yetti yil toib edi. Andin so'ngra ichkuga tushti, qirq yilg'a yovuqkim. Xurosonda podshoh edi, hech kun yo'q edikim, namoz peshindin so'ng ichmagay, vale hargiz sabuhiy qilmas edi, o'g'lonlari va jami' sipohig'a va shahrig'a bu hol edi. Ifrot bilan aysh va fisq qilurlar edi.

Shujo' va mardona kishi edi. Borlar o'zi qilich tegurubtur, balki har ma'arakada borlar qilich tegurubtur. Temurbek naslidin hech kim ma'lum emaskim. Sul-ton Husayn mirzocha qilich chopmish bo'lg'ay. Tab'i nazmi bor edi. Devon ham tartib qilib edi. Turkiy aytur edi. Tahallusi «Husayniy» edi. Ba'zi baytlari yamon emastur, vale mirzoning devoni tamom bir vazn-dadur, bovujudkim, ham yosh va ham saltanat bila ulug' podshoh edi, kichiklardek qo'chqor saxlab, kabutar saxlab, kabutar o'ynar edi, tovuq ham urushqa solur edi.

Masof va urushlari: qazoqliqlarida bir marta-ba Gurgon suyini uzdurub kechib, bir pora o'zbekni yaxshi bosti. Yana bir qatla Sul-ton Abusaid mirzo Muhammad Ali baxshi boshliq uch ming kishini ilg'or yiborib edi, Sul-ton Husayn mirzo oltmish yigit bila kelib, tegib zarbi rost bosti. Sul-ton Husayn mirzoning bir yaxshi ishi va namoyon ishi budur.

Yana bir martaba Astrobodta Sul-ton Mah-mud mirzo bila urushub bosti. Yana bir marta-ba Astrobodta Sug'dliq Sa'd binni Husayn turk-manni urushub bosti. Yana taxt olg'ondin so'ng

Chinorronda Yodgor Muhammad mirzo bila urushib bosti. Yana Saripuli Murg'obdin ilg'ab kelib, Bog'i Zog'onda Yodgor Muhammad mirzo ichib yotib edi, oldi. O'shul olg'on bila Xurosonni to'xtatti.

Yana Andxud va Shaburg'on navohisida Chekmonda Sulton Mahmud mirzo bila urushib g'olib bo'ldi. Yana Abobakr mirzonikim, Iroqdin kelgan qoraqo'yluq turkmanlarg'a qo'shulub kelib, Ulug'bek mirzoni Takona va Xumorda bosib, Kobulni oldi. Iroq dag'dag'asi bila Kobulni tashlab, Xaybardin o'tub, Xushob bila Mo'ltan navohisidin o'tub, Sivi¹ chiqti, andin borib Kirmonni olib, to'xtata olmay. Xuroson viloyatig'a kirganda Sulton Husayn mirzo ilg'ab borib oldi.

Yana bir Pulchirog'da bir o'g'li Badiuzzamon mirzoni bosti. Yana Halvo chashmada ikki o'g'li Abulmuhsin mirzo va Kepak mirzoni bosti.

Yana bir martaba cherik tortib kelib, Qunduzni qarab ololmay yondi. Yana bir martaba ham Hisorni qabab ola olmay yondi. Yana bir martaba Zunnunning viloyatining ustiga keldi. Bust dorug'asi Bustni berdi, o'zga hech ish qilmadi, Bustni ham tashlab yondi. Sulton Husayn mirzodek mardona va ulug' podshoh bu ikki-uch yurushta podshohona azmini bajo kelturmay, hech ishni butkarmay yondi.

Yana Nishin o'langida o'g'li Badiuzzamon mirzokim, Zunnunning o'g'li Shohbek bila kelib edi, urushib, bosti. Munda ajab umuri ittifoqiy voqe bo'fur. Sulton Husayn mirzo bila cherik

¹ L. b. - Sibvi.

oz ekandur, aksar cherikni Astrobod navohisig'a yiborgan ekandur. O'shul urush kuni Astrobodqa borg'on cherik kelib qo'shulur. Bu saridin Sulton Mas'ud mirzokim, Hisorni Boysung'ur mirzog'a oldurub, Sulton Husayn mirzog'a keladur edi, ul ham ushbu kun kelur. Haydar mirzokim, Sabzavorda¹ Badiuzzamon mirzo o'trusida borib edi, ul ham ushbu kunda keldi.

(Mirzoning (Sulton Husaynning) o'n to'rt ming yakka yigiti bor ekandur va qirq ming yasoqliq yigitlari g'ul ekandur. Va yasoqliqqa taalluq ishlar xandaq to'ldirmoqku (?) qozmoq va yo'l yasamoq va o'tun, samon xossaga yetkurmoqdur. Va har biriga sakson jerib (yer) berurlar: mundin qirq tanobni mazru' qilib hosili xud bari o'zlari tasarruf qilurlar va yaxshilar alarning ulufasig'a hisob qilurlar va qolg'on qirq tanobdan ortuq eksalar mol berurlar²).

Viloyoti: Xuroson viloyati edi, sharqi Balx, g'arbi Bistom va Domg'on, shimoli Xorazm, janubi Qandahor va Siston, Chun Hiriye dek shahr ilgiga tushti, tun-u kun aysh-u ishrattin o'zga ishi yo'q edi, balki tavobe va lavohiqida aysh-u ishrat qilmas kishi yo'q edi. Jahongirliq va lashkarkashliq ranj va taabin tortmadi, lojaram borg'on sayi navkar va viloyati kam bo'ldi va ortmadi.

Avlodi: o'n to'rt o'g'ul, o'n bir qiz qolib edi. Bori o'g'lonlaridin ulug' Badiuzzamon mirzo edi. Onasi Sanjar mirzo Marviyning qizi edi. Yana

¹ L. b. – Sezor. Q. b. – Sebzor.

² Bu qavs ichiga olingan parcha har ikkala bosma nusxada yo'q. Buni sobiq ittifoq Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining № F-685 qo'lyozma nusxasidan olindi.

Shohg'arib mirzo edi, bukri edi. Agarchi hay'ati yamon edi, tab'i xo'b edi. Agarchi badani no-tavon edi, kalomi marg'ub edi. «G'aribiy» taxallus qilur edi, devon ham tartib qilib edi, turkiy va forsiy she'r aytur edi. Bu bayt aningdurkim:

Dar guzar didam pariroye shudam

devonaash

Chist nomi, o', kujo boshad nadonam

xonaash¹.

Necha mahal Hiriy hukumatini Sulton Husayn mirzo Shohg'arib mirzoga berib edi. Otasining zamonida-o'q: naql qildi. Andin o'g'ul, qiz qolmadi. Yana bir Muzaffar mirzo edi. Sulton Husayn mirzoning suyaklik o'g'li bu edi. Agarchi xeyli suyudek axloq va afoli ham yo'q edi, o'g'lonlari muni ko'p ortuq ko'rgani uchun aksar yog'iqtilar. Ikkalasining onasi Xadichabegim edikim, Sulton Abusaid mirzoning g'unchachisi edi. Mirzodin Oqbegim otliq bir qizi ham bor edi. Yana Abulmuhsin mirzo edi va Kepak mirzo edikim, oti Muhammad Muhsin edi. Bu ikkining onasi Latif Sulton og'acha edi. Yana bir Abutturob mirzo edi. Burunlar andin xeyli rushde rivoyat qilurlar edi. Otasining behuzurlig'i ortkonda o'zgacha xabar eshitib, inisi Muhammad Husayn mirzo bila qochib Iroqqa bordi. Irokda sipohilikni tark qilib, darveshliq ixtiyor qilibtur. Yana andin xabare topilmadi. Bir o'g'li bor edi. Suhrob mirzo otliq. Men Ham-

¹ Guzarda bir pari yuzni ko'rib, devona bo'ldim, uning ismi nima, uyi qayerda ekanini bilmadim.

za Sul-ton bila Mahdi Sul-ton boshlig' sul-tonlarni bosib, Hisorni olg'onda, mening qoshimda edi. Bir ko'zi ko'r edi. G'arib badhay'at edi. Axloqi ham hay'atidek edi. Bir bei'tidolliq qildi, tura olmadi, ketti. Astrobod navohisida bir bei'tidollig'idin Najm Soniy azob bila o'lturdi. Yaia bir Muhammad Husayn mirzo edi. Iroqta muni va Shoh Ismoilni bir yerda band qilg'on ekan-durlar. Ul vaqt anga murid bo'lub ekandur, so'ngra g'aliz rofizi-y bo'lub edi. Bovujudkim, ota-og'a-inisi bori sunniy, bu mundoq rofizi-y. Astrobodta o'shul gumrohliq va batolat bila o'ldi. Ani xeyli mardona va bahodir derlar edi. Hech andoq ishi zoxir bo'lmadikim, bitimakka loyiq bo'lg'ay. Tab'i nazmi bor ekandur. Bu bayt aningdurkim:

*Oludayi gardi zi payi sayd ki gashti,
G'arqi araqi dar dili garm ki guzashti¹.*

Yana bir Faridun Husayn mirzo edi. Yoyni kuchluk tortib, o'qni yaxshi otar edi. Kamon guruhasini derlarkim, qirq botman ekandur. O'zi xeyli mardona edi, vale feruzjang emas edi. Har yerdakim, urushti mag'lub bo'ldi. Roboti Dudarda Faridun Husayn mirzo va inisi Ibni Xusayn mirzo Temur Sul-ton va Ubayd Sul-ton Shayboqxonning ilg'ori bila urushtilar, mag'lub bo'ldilar. Anda Faridun Husayn mirzo xeyli yaxshilar boribtur. Domg'onda Faridun Husayn mirzo va Muhammad Zamon mirzo Shayboniy-

¹ Ov ketidan yurishing bilan changga botding, qizg'in yurakka ta'siring bilan terga botding.

xon ilgiga tushti, har ikkisini o'lturmadi, qo'ya berdi. So'ngra Shoh Muhammad devona Qalotni berkitganda anda borib edi, Qalotni o'zbek olg'onda ilikka tushti, o'lturdilar.

Bu uchalasi Mingli biy og'acha otliq mirzoning o'zbek g'unchachisidin bo'lub edilar.

Yana Haydar mirzo edi. Onasi Poyanda Sultonbegim edi. Sulton Abusaid mirzoning qizi edi. Otasi zamonida Mashhad va Balxta necha mahal hukumat qildi. Sulton Husayn mirzo Hisorni qabag'onda Sulton Mahmud mirzoning Xonzodabegimdin bo'lg'on qizini munga olib yarashib, Hisor ustidin qo'ptilar. Birgina qizi qolib edi, Shodbegim otliq. So'ngra Kobulg'a keldi. Odil Sultong'a berildi. Haydar mirzo otasi zamonida-o'q olamdin bordi.

Yana Muhammad Mas'um mirzo edi. Qandahorni anga berib edi. Bu munosabat bila Ulug'bek mirzoning bir qizini bu o'g'lig'a qildi. Hiriya kelturganda ulug' to'y qilib, yaxshi chortoq bog'ladi. Agarchi Qandahorni berib edi, vale oq qilsa qaro qilsa. Shohbeg arg'un qilur edi. Bu mirzoda ixtiyor va e'tibore yo'q edi. Bu jihattin Qandahorda turmay, Xuroson bordi. Otasining hayotida-o'q kechti.

Yana Farrux Husayn mirzo edi, ul xud ziyoda umre topmadi.¹ Inisi Ibrohim Husayn mirzodan burunroq bu dunyodan rihlat qildi.

Yana Ibrohim Husayn mirzo edi. Tab'i yamon emas ekandur. Hiriya chog'irini ifrot bila icha-icha-o'q otasi zamonida o'ldi.

¹ L. b. – bu iboralar tushgan.

Yana Ibni Husayn mirzo bila Muhammad Qosim mirzo edi. Zikrlari kelgusidur. Bu besh mirzoning onasi Popo¹ og'acha edi, g'unchachi edi.

Boridin ulug' qiz Sultonim begim edi. Yolg'iz tug'ub edi, onasi Cho'libegim otliq ozoq bekla-rining qizi bo'lur. Xeyli so'z bilur edi. So'zga mung-i yo'q edi. Og'asi Boyqaro mirzoning o'rtanchi o'g'li Sul-ton Vays mirzog'a chiqarib edi. Bir qiz, bir o'g'ul bo'lub edi. Qizini Shaybon sul-tonlari-din Yilibors Sul-tonning inisi Esanquli Sultong'a chiqarib edi, o'g'li Muhammad Sul-ton mirzo-durkim, bu tarixta Qanuj viloyatini anga berib-turmen. Sul-tonim begim Kobuldin ushbu tarix-ta nabirasini olib, Hindustong'a keladurganda Nilobta tengri hukmini butkarubtur. So'ngagini kishi qorasi olib yondilar, nabirasi keldi.

Yana Poyanda Sul-tonbegimdin tuqq'on to'rt qizi: borchadin ulug' Oqbegim edi. Bobur mir-zoning singli Bekabegimning nabirasi: Mu-hammad Qosim Arlotqa chiqarib edi. Birgina qiz bo'lub edi, Qaroko'zbekim otliq, Nosir mirzo olib edi. Ikkinchi qiz Kichikbegim edi. Sul-ton Mas'ud mirzo bisyor moyil edi, har necha sa'y qildi. Poyanda Sul-tonbegim qisqa mulohaza qilib bermadi. So'ngra Sayd otaning nasli mul-lo Xojag'a chiqarib edi. Uchunchi qizi Bekabe-gimni va to'rtinchi qizi Og'abegimni singli Robia Sul-ton begimning o'g'lonlari Bobur mirzo bila Sul-ton Murod mirzog'a berib edi.

Mingli biy og'achadin ikki qiz bo'lub edi, ulug'ning oti Bayram Sul-ton edi. Andxud sayidlaridin Sayid Abdullo mirzog'akim, Boy-

¹ L. b. – bobo.

qaro mirzoning qiz nabirasi bo'lg'ay, berib edilar. Bir o'g'li bor edi, Sayid Baraka otliq. Men Samarqandni olg'onda mulozamat qilur edi, so'ngra Urganch sori tushub, saltanat da'vosi qildi. Astrobodta qizilboshlar o'lturdilar.

Yana bir qizining oti Fotima Sulton edi, Temurbek naslidin, Yodgor mirzog'a berib edilar.

Popo og'achadin uch qiz bo'lub edi. Ulug'i Sulton Najod begim edi. Sulton Husayn mirzo og'asining kichik o'g'li Iskandar mirzog'a chiqarib edi. Ikkinchi qizi Begim Sulton edi. Sulton Mas'ud mirzog'a ko'zi ma'yub bo'lg'onidin so'ng berib edilar. Bir qiz, bir o'g'il bo'lub edi. Qizini Sulton Husayn mirzoning harami Opoqbegim sahlab edi. Hiriyydin Kobulg'a keldi. Sayid mirzo Opoqqa berildi. Begim Sulton, Sulton Mas'ud mirzoni o'zbek o'lturg'ondin so'ng, o'g'lini olib, Ka'ba sari bordi. Bu fursatta xabar keldikim, o'zi va o'g'li Makkada emish. O'g'li uluqqina bo'lg'on emish. Uchunchi qizi Sayid mirzo degan Andxud sayidlariga berib edilar. Ortuqsi Sayid mirzog'a mashhur edi.

Yana bir g'unchachidin bir qiz bo'lub edi. Oysha Sulton otliq, opasi Zubayda og'a edi, Hasanshayx Temurning nabirasi edi. Shaybon sultonlaridin Qosim Sultong'a berib edilar. Andin bir o'g'il bo'lub edi, Qosim Husayn Sulton otliq. Hindustonda mening mulozamatimg'a keldilar. Rono Sangoning g'azvida bor edi. Badovunni anga berildi. Qosim Sultondin so'ng Bo'ron Sulton otliq uruqlaridin oldi, andin bir o'g'li bor: Abdullo Sulton otliq, bu tarixta mening mulozamatimdadur. Bovujudkim, kichik yoshluqtup, xizmati yamon emas.

Xavotin va sarori: avval olg'on xotuni Beka Sultonbegim edi, Sanjar mirzo Marviyning qizi edi. Badiuzzamon mirzo mundin tug'ub edi. Ko'p kajxulq edi. Sulton Husayn mirzoni ko'p og'ritur edi. Kajxulqlig'idin mirzo batang keldi, oxir qo'ydi va xalos bo'ldi, ne qilsun haq mirzo jonibi edi.

*Zani bad dar saroyi mardi nako',
Ham dar in olam ast do'zaxi o'¹.*

Tengri hech musulmong'a bu baloni solmag'ay. Yomon xo'yluq, kajxulq xotun ilohiy olamda qolmag'ay.

Yana bir Cho'libegim edi. Ozoq beklarining qizi edi, Sultonim begim andin tug'ub edi.

Yana Shahribonu begim edi, Sulton Abusaid mirzoning qizi edi, taxt olg'ondin so'ng olib edi. Chekmon urushida Mirzoning jami' haramlari mihaffadin chiqib otqa minganda, bu inisining e'timodig'a mihaffadin chiqmas, otqa minmas. Muni Mirzog'a yetkururlar, bu jihattin Shahribonu begimni qo'ydi va singli Poyanda Sultonbegimni oldi. O'zbek Xurosonni olg'ondin so'ng, Poyanda Sultonbegim Iroqqa bordi. Iroqta g'aribliqta naql qildi.

Yana Xadichabegim edi, Sulton Abusaid mirzoning g'unchachisi edi, mirzodin bir qizi bor edi, Oqbegim otliq. Iroqta Sulton Abusaid mirzoning shikastidin so'ng Hiriya keldi. Hiriya da Sulton Husayn mirzo oldi va sevdi, g'un-

¹ Yaxshi kishining xonasidagi yomon xotin shu dunyoning o'zidayoq uning do'zaxidir.

chachiliq martabasidin begimlik martabasig'a taraqqiy qildi. So'ngralar xud asru ixtiyor bo'lub edi. Muhammad Mo'min mirzoni aning sa'yi bila o'lturdilar. Sulton Husayn mirzoning o'g'lonlari yog'iqtilar, ko'praki muning jihatidin edi. O'zini oqila tutar edi, vale beaql va purgo'y xotun edi, rofiziya ham ekandur. Shohg'arib mirzo bila Muzaffar Husayn mirzo mundin tug'ub edi.

Yana Opoqbegim edi, andin hech o'g'ul, qiz bo'lmadi. Popo og'achakim, muncha suyaklik edi, muning ko'kaltoshi edi, chun o'g'ul-qizi yo'q edi. Popo og'achaning o'g'lonlarini o'g'lidek saxlar edi, Mirzoning behuzurluqlarida bisyor yaxshi xizmat qilur edi, haramlaridin hech kim muncha xizmat qila olmas edi. Men Hindustong'a kelur yil Hiriydin keldi. Men ham ta'zim va ihtiromlarni ilikdin kelgancha qildim. Chandirini muhosara qilg'onda xabar keldi, Kobulda tengri hukmini butkarmush.

G'umalaridin bir Latif Sulton og'acha edi, chorshanbi hiylardindurkim, Abulmuhsin mirzo bila Kepak mirzo andin tug'ub edi.

Yana Mingli biy og'acha edi, o'zbek edi. Shahribonu begimning kishi-qorasidin bo'lur edi. Abuturob mirzo, Muhammad Husayn mirzo va Faridun Husayn mirzoning onasi edi. Yana ikki qiz ham bor edi.

Yana Popo og'acha edi. Opoqbegimning ko'kaltoshi bo'lur edi, Mirzo ko'rub, sevib oldi. Besh o'g'ul, to'rt qizning onasi edi, nechukkim, mazkur bo'ldi.

Yana bir Begi Sulton og'acha edi, andin o'g'ul, qiz bo'lmadi.

Yana kichik-kirim g'uma, g'unchachi bisyor edi. Xotunlardin va g'umalardin mu'tabar bular edikim, mazkur bo'ldi.

Sulton Husayn mirzodek ulug' podshoh Hiriydek islom shahrining podshohi: bu ajabturkim, bu o'n to'rt o'g'lidin uchi valadduzzino emas edi. Fisq va fujur o'zida, o'g'lonlarida va el-ulusida asru shoye edi. Ushbularning shomatidin edikim, mundoq xonvodadin yetti-sekkiz yilda bir Muhammad Zamon mirzodin o'zga osor va aloamat qolmadi.

Umarosi: bir Muhammad Burunduq barlos edi. Choku barlos nashidindur. Muhammad Burunduq ibn Ali ibn Burunduq ibn Jahonshoh ibn Choku barlos Bobur mirzo kishida bek edi. Andin so'ng Sulton Abusaid mirzo ham rioyat qilib, munga Jahongir barlos bila Kobulni berib, Ulug'bek mirzog'a atka qilib edi. Sulton Abusaid mirzodin so'ng Ulug'bek mirzo barloslarga qasd qilur maqomida bo'ldi. Bular tuyub, Mirzoni tutub, el va ulusini ko'churub, Qunduz sari ko'chtillar. Hindukushning ustidin Mirzoni odamiyona Kobul sari uzatib, o'zlari Xurosong'a Sulton Husayn mirzog'a bordilar. Mirzo ham yaxshi rioyatlarin qildi.

Muhammad Burunduq asru bilimlik kishi edi. Bisyor sardor kishi edi. Qushqa asru ko'p mayli bor erdi. Andoqkim, bir qushi o'lsa yo itsa o'g'lonlarining otini tutub aytur ekandurkim, bu qush o'lguncha yo itkuncha faloni o'lsa ne edi, yo falonining bo'yni sinsa ne edi?

Yana Muzaffar barlos edi. Mirzoning qazoqliqlarida bor edi. Bilmon, mirzog'a qaysi tavri xush yoqib asru ulug' rioyat qilib edi. E'tibori bu martabada edikim, Sulton Husayn mirzo qazoqliq'ida aning bila mundoq shart qilib edikim, har viloyatkim musaxxar bo'lsa, chahor dong mirzoning bo'lg'ay, du dong aning. Bu ajab shartedur, podshohliqta qachon rost kelgaykim, bir qarajo' kishini o'zi bila sharik qilg'ay. Ini-o'g'ul bila mundoq shart muyassar bo'lmas. Bek kishi bila xud nechuk muyassar bo'lur? Taxt olg'ondin so'ng bu sharttin pushaymon bo'ldi, vale sud qilmadi. Bu tiyramag'z mardak ham muncha rioyat topib marzog'a ziyoda surliqlar qilur edi. Mirzo royi bila amal qilmas edi. Oxir dedilarkim, masmum bo'ldi, vallohu a'lam bi haqiqatit-hol.

Yana Alisherbek Navoiy edi, begi emas edi, balki musohibi edi, kichikligida hammaktab ekandurlar. Xususiyat bisyor ekandur. Bilmon, ne jarima bila Sulton Abusaid mirzo Hiriydin ixroj qildi. Samarqandg'a bordi, necha yilkim, Samarqandta edi, Ahmad Hojibek murabbiy va muqavviysi edi. Alisherbekning mijoz nozuk bila mashhurdir. El nazokatini davlatining g'ururidin tasavvur qilur erdilar. Andoq emas ekandur, bu sifat anga jibilliy ekandur. Samarqandta ekanda ham ushmundoq nozuk mijoz ekandur.

Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bila to she'r aytubturlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas. Olti masnaviy kitob nazm qilibtur, beshi «Xamsa» javobida, yana bir

«Mangiqut-tayr» vaznida «Lisonut-tayr» otliq. To'rt g'azaliyot devoni tartib qilibtur: «G'aroyibus-sig'ar», «Navodirush-shabob», «Badoyiulvasat», «Favoidul-kibar» otliq. Yaxshi ruboiyoti ham bor. Yana ba'zi musannafoti borkim, bu mazkur bo'lg'onlarg'a boqa pastroq va sustroq voqe bo'lubtur. Ul jumladin, insholarini Mavlono Abdurahmon Jomiyg'a taqlid qilib jam' qilibtur. Hosila kalom, har kimga har ish uchun har hatkim bitibtur, yig'ishturubtur. Yana «Mizonul-avzon» otliq aruz bitibtur, bisyor madxuldir. Yigirma to'rt ruboiy vaznda to'rt vaznda g'alat qilibtur. Ba'zi bahurning avzonida ham yangilibtur, aruzg'a mutavajjih bo'lg'on kishiga ma'lum bo'lg'usidur. Forsiy devon ham tartib qilibtur Forsiy nazmda «Foniy» taxallus qilibtur, ba'zi abyoti yamon emastur, vale aksar sust va furudtur. Yana musiqida yaxshi nimalar bog'labtur. Yaxshi naqshlari va yaxshi peshravlari bordur.

Ahli fazl va ahli hunarg'a Alisherbekcha mu-rabbiy va muqavviy ma'lum ekaskim, hargiz paydo bo'lmish bo'lg'ay. Ustoz Qulmuhammad va Shayxi Noyi va Husayn Udiykim, sozda saromad edilar, bekning tarbiyat va taqviyati bila muncha taraqqiy va shuhrat qildilar. Ustoz Behzod va Shoh Muzaffar tasvirda bekning sa'y va ehtimomi bila mundoq mashhur va ma'ruf bo'ldilar. Muncha binoyi xayr kim, ul qildi, kam kishi mundoqqa muvaffaq bo'lmish bo'lg'ay.

O'g'ul va qiz va ahlu ayol yo'q, olamni tav-re fard va jariyda o'tkardi. Avoyil muhrdor edi, avosit bek bo'lub, necha mahal Astrobodta hu-

kumat qildi, avoxir sipohiliqni tark qildi. Mirzodin nima olmas, balki yilda Mirzog'a kulliy mablag'lar peshkash qilur edi. Sulton Husayn mirzo Astrobod cherikidin yong'onda istiqbolg'a keldi, mirzo bila ko'rushub qo'pqucha, bir holate bo'ldi, qo'polmadi, ko'tarib eltdilar. Tabiblar aslo taxshis qila olmadilar. Tonglasig'a-o'q tengri rahmatig'a bordi. Bir bayti hasbi hol voqe bo'lubtur:

*Bu dard ilaki o'larmen, maraz chu zohir emas:
Tabiblar bu balog'a ne chora qilg'oylar.*

Yana Ahmad Tabakkul barlos edi. Burunlar muddate Qandahor hukumati munda edi.

Yana Valibek edi, Hoji Sayfiddinbekning naslidindur, nikuzdur¹. Mirzoning ulug' begi edi. Sulton Husayn mirzo taxt olg'ondin so'ng xeyli umr topmadi, bot-o'q o'ldi. Musulmon va namozguzor va turk va sodiq kishi edi.

Yana Hasan Shayx Temur edi, buni Bobur mirzo rioyat qilib, beklilik martabasig'a yetkुरुb edi.

Yana Nuyonbek edi, otasi Tirmiz sayidlaridindur, ona tarafidin ham Sulton Abusaid mirzo, ham Sulton Husayn mirzog'a uruq bo'fur. Sulton Abusaid mirzo ham rivoyat qilib edi. Sulton Ahmad mirzo qoshida mu'tabar bek edi. Sulton Husayn mirzo qoshig'a ham bordi, yaxshi rioyat topti, Lavand va xushbosh va sharobxo'r va ayyoga kishi edi. Hasan Ya'qub aning xizmatida bo'lg'on uchun Hasan Nuyon

¹ Q. b. - navkardir.

ham derlar. Yana Jahongir barlos edi. Kobulda necha mahal Muhammad Burundug bila shariklik hukumate qilibturlar, so'ngra Sulton Husayn mirzo qoshig'a bordi. Yaxshi rioyatini qildi. Harakot va sakanoti zarofat va latofat bila edi. Xushmaosh kishi edi. Ov va qushning poh va ravishini yaxshi bilur uchun Sulton Husayn mirzo aksar bu ishlarni anga ruju' qilur edi. Badiuzzamon mirzoning musohibi edi. Mirzo musohibliq'in yod qilib ta'rif qilur edi.

Yana Mirzo Ahmad Ali Forsiy barlos edi. Agarchi she'r aytmas edi, xushtab' va she'rshunos va zarif va yatimcha kishi edi.

Yana Abdulxoliqbek edi, Firuzshoh bekkim, Shohruh mirzoning ulug' rioyat qilg'on begi edi. muning ulug' otasidur. Bu jihattin Abdulxoliq Firuzshoh derlar, bir necha mahal Xorazm munda edi.

Yana Ibrohim do'ldoy edi. Ish hisobini va mulkdorliq tariyqini yaxshi bilur edi. Muhammad Burundugning soniyi isnayni edi.

Yana Zunnun arg'un edi. Mardona kishi edi. Sulton Abusaid mirzo qoshida egaliklarida yaxshi qilichlar chopqondur. Andin so'ngra ham har yerda¹ iligi ishga yetibdur. Mardona-lig'ida so'z yo'q edi. Bir nima telbarak kishi edi. Bizning mirzolarning qoshidin Sulton Husayn mirzo qoshig'a bordi. G'o'rni va Nakdariyni berdi. Yetmish-sekson kishi bila ul navohida yaxshilar qilich chopti. Oz-oz kishi bila ul navohida yaxshilar qilich chopti. Oz-oz kishi bila qalin-qalin hazora va nakdariyni yaxshilar bosti.

¹ Q. b. – Hiriya.

Hazorani va nakdariyni oncha kishi zabt qilg'on emas. Necha mahaldan so'ng Zamini Dovarni ham berdilar.

O'g'li Shoh Shujo' arg'un ham otasi bilan kichiklarida yurub qilichlar chopti. Sul-ton Husayn mirzo otasining rag'mig'a rioyat qilib Qandahorni otasi bila shariklik berdi. So'ngra bu ota-o'g'ul ul o'g'ul bila ota orasida yog'iyliqlar solib, fitnalar qildilar¹. Oxir men Xisravshohni tutub navkar-savdaridin ayrib, Kobulni Zunning kichik o'g'li Muqimdin olg'on yili² Zunning, Xisravshoh mening jihatimdin bechora bo'lub borib, Sul-ton Husayn mirzoni ko'rdilar. Sul-ton Husayn mirzodin so'ngra (Zunning) ko'prak ulg'aydi. Hiriyning domani ko'hviloyatlarini misli O'ba va Chaxcharon munga berdilar.

Badiuzzamon mirzo va Muzaffar mirzokim, shariklik podshoh bo'ldilar. Badiuzzamon mirzo eshigida bu sohib ixtiyor edi va Muzaffar mirzo eshigida Muhammad Burundiq barlos sohib ixtiyor edi. Agarchi mardonalig'i bor edi, vale bir nima telbarak va gul kishi edi. Telba va go'l bo'lmasa, mundoq xushomadni qabul qilib, o'zini rasvo qilurmi?

Tafsili budurkim, Hiriya mundoqkim e'tibor va ixtiyor bo'ldi, bir necha shayx va mullo anga kelib derlarkim, Qutb bizning bila ixtilot qiladur, sanga «Hizabrullo» laqab bo'ldi, sen o'zbekni olg'ungdur. Bu xushomadni inonib, bo'ynig'a fo'ta solib, shukrlar qilibtur.

¹ Sul-ton Husayn bilan Badiuzzamon orasidagi dushmanlikni yozadi.

² *L. b.* - bu ibora tushgan.

Bodigʻis navohisida Shayboniyxonkim, mirzolarning ustiga kelib, birini birga qoʻshqali qoʻymay bosti. Zunnun yuz-yuz ellikcha kishi bila Qaro Rabotta Shayboniyxon roʻbarasida ushbu soʻzga chin boʻlub turdi. Qalin kishi yetgan bila olib-oʻq tebradilar. Zunnunni olib oʻlturdilar.

Pok mazhab kishi edi, namozini tark qilmas edi, ortuqsi namozlar ham xeyli oʻtar edi. Shatranjgʻa koʻp mashʻuf edi. El bir ilik ila oʻynasa, ul ikki ilik bila oʻynar edi. Har necha koʻngli tilar oʻynar edi. Imsok va xissat tabiatida gʻolib edi.

Yana Darvesh Alibek edi. Alisherbekning toʻqqʻan inisi edi. Necha mahal Balxning hukumati munda edi. Balxda yaxshi bekliklar qildi. Tiyra magʻz va behunarroq kishi edi. Sulton Husayn mirzo avval Qunduz va Hisor ustiga kelganda tiyra magʻzligʻidin tutturdilar. Balx hukumatidin maʻzul boʻldi. Tarix toʻqquz yuz oʻn oltida¹ men Qunduz kelganda, mening qoshimgʻa kelib edi, masx va mabhut edi. Beklik qobiliyatidin dur va ichkilik salohiyatidin mahjur. Gʻolibo Alisherbek vositasidin muncha rioyat topkandur.

Yana Moʻgʻulbek edi, necha mahal Hiriy hukumati anda edi. Soʻngra Astrobodni berdilar. Astrobodtin Iroqka Yaʻqubbek qoshigʻa qochib bordi. Yatimcha kishi erdi, hamisha qimor qilur edi.

Yana Sayid Badr edi. Bisyor zoʻr va asru shirin harakot kishi edi. Ajab sohib usul kishi edi. Gʻarib xoʻb raqs qilur edi. Gʻayri muqarrar raqs qilur edi. Gʻolibo ul raqs aning ixtiroyidir.

¹ Q. b. – toʻqqiz yuz olti.

Hamisha Mirzo mulozamatida bo'lar edi. Doim harifi sharob va hamsuhbati edi.

Yana Islim barlos edi. Turk kishi edi. Qushchilikni yaxshi bilur edi, ba'zi ishlarni tavr qilur edi. O'ttuz-qirq botmon yey kuch bila otib, taxtadin o'tkarur edi. Qaboq maydonida maydon boshidin chopib, yoyni tushurub qo'rub, otib qaboqni urar edi. Yana zihgirni bir qari-bir yarim qari rishtag'a bog'lab; rishtaning yana bir uchini bir yig'ochqa bog'lab, evrulur edi. Evrulur holatda o'qni otib, zihgirdin o'tkarur edi. Mundoq g'arib ishlari xeyli bor edi. Hamisha mulozamat qilur edi, har suhbatda bor edi.

Yana Sulton Junayd barlos edi. So'ngralar Sulton Ahmad mirzo qoshig'a kelib edi. Bu Sulton Junayd barlosningkim, bu tarixta Jo'napur hukumati shirkat bila anga taalluqtur, otasidur.

Yana Shayx Abusaidxon Darmiyon edi. Bilmon, bir urushta mirzog'a ot kelturubmudur yo mirzog'a qasd qilg'on g'animni daf' qilibmudur, ul jihattin bu laqab bila mulaqqab bo'lubtur.

Yana Bexbudbek edi. Burunlar chuhra chargasida xizmat qilur edi. Mirzoning qazoqliqlarida xizmati yoqib, Behbudbekka bu inoyatni qilib edikim, tamg'ada va sikkada aning oti edi.

Yana Shayximbek edi. «Suhayliy» taxallus qilur uchun Shayxim Suhayliy derlar edi. Bir tavr she'r aytur edi. Qo'rqqudik alfoz va maoniy darj qilur edi. Aning abyotidin bir budur:

*Shabi g'am gird-bodi oham az jo burd gardunro,
Furo' burd ajdahoyi sayli ashkam rub'i maskunro¹.*

¹ G'amli kechalarda ohimning quyuni osmonni o'rnidan qo'zg'atdi. Ko'z yoshimning ajdahosi yer yuzini yutib yubordi.

Mashhurdurkim, bir qatla bu baytni Mavlono Abdurrahmon Jomiy xizmatida o'qubtur. Mavlono aytibturkim: «Mirzo, she'r aytasiz yo odam qo'rqutasiz?» Devon tartib qilib edi. Masnaviyoti ham bor.

Yana Muhammad Valibek edi. Valibekningkim, mazkur bo'ldi, aning o'g'li edi. Oxirlar mirzo qoshida ulug' bek bo'lub edi. Bovu judkim, ulug' bek edi, hargiz xizmatini tark qilmas edi. Kecha va kunduz eshikta yastanib edi. Andoqkim, oshi va shiloni doim eshikta-o'q tortilur edi. Mundoq mulozamat qilur kishi, muqarrardurkim, andoq rioyat topg'ay.

Ajab baloyidur bu zamonda, birovkim bek atandi, keyinida besh-olti kal va ko'rni ko'rди, taklilar bila eshikka kelturmak kerak. Uı nav' mulozamat xud qandadur, o'zlarining badavlatlig'i ekin. Muhammad Valibekning oshi va shiloni yaxshi edi. Navkarni bir shiq va ranga saxlar edi. Faqir va misinga o'z iligi bila g'alaba xayr qilur edi. Fahshg'uy va badzabon kishi edi. Tarix to'qquz yuz o'n yettida men Samarqandni olg'onda, Muhammad Valibek va Darvesh Ali kitobdor mening qoshimda edilar. Ul vaqt aflij bo'lub edi. Ne so'zida maza bor edi, ne o'zida. Muncha rioyat qobili emas edi. G'olibo xizmat ani ul martabag'a yetkurgandur.

Yana Bobo Ali eshik og'a edi. Avval Alisherbek rioyat qilib edi, so'ngra mardonalig'idin Mirzo olib, eshik og'asi qilib,¹ beqliq martabasig'a yetkurub edi. Yunus Alikim, bu tarixta mening qoshimda bek va muqarrab va ichkidur, zikri muqarrar kelgusidur, muning o'g'lidur.

¹ *L. b.* – bu ibora tushgan.

Yana Badriddin edi, burun Sulton Abusaid mirzoning sadri Mirak Abdurahim qoshida edi. Keyli chust va chaspon ekandur. Derlarkim, yetti ottin sachrag'aydur. Bu va Bobo Ali mu-sohiblar edilar.

Yana Hasan Ali jaloyir edi, asli oti Husayn jaloyirdur, vale Hasan Alig'a mashhurdur. Ota-si Ali jaloyirni Bobur mirzo rioyat qilib, bek qilg'ondur, so'ngra Yodgor Muhammad mirzo Hiriyni olg'onda, Ali jaloyirdin ulug'roq kishisi yo'q edi. Hasan Ali jaloyir Sulton Husayi mirzo qoshida qushbegi edi, shoir edi. «Tufayliy» taxallus qilur edi, qasidani bisyor yaxshi aytur edi. O'z zamonida qasidada saromad edi. Ta-rix to'qquz yuz o'n yettidakim, Samarqandni oldim, mening qoshimg'a keldi. Besh-olti yil mening qoshimda bo'ldi. Mening oting'a ham yaxshi qasidalar aytdi. Bebok na mutlif kishi edi. Chuhra soxlar edi. Hamisha nard o'ynar edi, qimor qilur edi.

Yana Xoja Abdullo Marvoriy edi, burun sadr edi, so'ngra ichki va muqarrab bek bo'lub edi. Purfazoyil kishi edi, qonunni oncha kishi chal-maydur, qonunda girift qilmoq muning ixtiro-yidur. Xututni xo'b bitir, ta'liqni xo'broq bitir edi, inshoni xo'b qilur edi, xushsuhbat kishi edi, she'r aytur edi. «Bayoniy» taxallus qilur edi. She'ri o'zga xaysiyatg'a boqa ko'p furudtar edi, vale she'rni xo'b tanir edi. Fosiq va bebok edi, fisqning shomatidin obila marazig'a giriftor bo'fur, ilik-oyog'idin qolib, necha yil turluk-tur-luk azob va mashaqqatlar tortib, ushbu baliyya bila-o'q olamdin naql qildi.

Yana Muhammad Sayd Urus edi. Urus arg'unkim, Sulton Abusaid mirzo taxt olg'onda ulug' va ixtiyor bek ul edi, muning otasidir. Ul zamonda yaxshi otishliq yigitlar bor edi. Ul saromadlardin biri budur: yoyi qattiq, o'qi uzun, berk otishliq va yaxshi otishliq¹ ekandur. And-xud hukumati necha mahal anda edi.

Yana Mir Ali miroxo'r edi. Bu uldurkim, Sulton Husayn mirzog'a kishi yiborib, Yodgor Muhammad mirzoning g'ofillig'ida ustiga kelturdi.

Yana Sayid Hasan o'g'loqchi edi. Sayid o'g'loqchining o'g'li Sayid Yusufbekning inisi edi va mirzo Farrux otliq haysiyatliq va qobiliyatliq o'g'li bor edi. Tarix to'qquz yuz o'n yettida men Samarqandni olg'onda mening qoshimg'a kelib edi. She'rni agarchi kam aytib edi, vale tavre aytur edi. Usturlob va nujumni yaxshi bilur edi. Suhbati va ixtiloti ham yaxshi edi. Bir nima badsharob edi, G'ijduvon urushida o'ldi.

Yana Tengriberdi samonchi edi. Turk va mardona va qilichliq yigit edi². Balx eshigida Nazar Bahodir otliq Xisravshohning ulug' navkarini yaxshi chopkulab edi, nechukkim marzkur bo'ldi.

Yana bir necha turkman beklari edikim, mirzo qoshig'a kelib rioyat topib edilar. Burun kelgan bir Alihon³ Boyandur edi.

Yana Asadbek va Tahmtanbek edi, bular og'a-ini edilar. Tahmtanbekning qizini Badiuz-zamon mirzo olib edikim, Muhammad Zamon mirzo andindur.

¹ Q. b. – berk ishliq va yaxshi otishliq.

² L. b. – qilichlik bek edi.

³ Q. b. – Alijon.

Yana Ibrohim Chig'atoy edi.

Yana Amir Umarbek edi. So'ngralar Badiuz-zamon mirzo qoshida bo'lar edi. Mardona va turk va yaxshi kishi edi. Abulfath otliq bir o'g'li Iroqdin mening qoshimg'a keldi, bu tarixta ham bordur. Biser sust va bejur'at va bo'lumsizdur, aningdek otadin muningdek o'g'ul.

So'ngra kelganlardinkim, Shoh Ismoil Iroq va Ozarbayjonga mutasarrif bo'lg'onda andin Xuroson kelib edilar. Bir Abdulboqi mirzo edi. Temurbek naslidindur, Mironshohiydur, burundin bularning nasli ul viloyatlarg'a borib, saltanat doiyasini boshlaridan chiqarib, ul podshohlarga mulozamat qilib, rioyat topa kelgandurlar. Bu Abdulboqi mirzoning ammi (amakisi) Temur Usmon Ya'qubbek qoshida ulug' va mu'tabar bek ekandur. Bir navbat Xuroson ustiga qalin cherik qo'shub yibormak xayol ham qilg'ondur. Abdulboqi mirzo kelgach, Sul-ton Husayn mirzo ham yaxshi rioyatini qilib, kuyov qilib, Sul-tonim begimnikim, Muhammad Sul-ton mirzoning onasi edi, berdi.

Yana so'ngra kelganlardin Murodbek Boyanduriy edi.

Sudur: bir Mir Sarbarahna edi. Andijonning kentlaridindur. G'olibo mutasayyiddur, bisyor xushsuhbat va xushtab' va shirin kalom kishi edi. Xuroson fuzalosi va shuarosi qoshida aning daxli va so'zi mu'tabar va sanad edi. Amir Hamza qissasining muqobalasida umre zoye' qilib, uzun-uzoq yolg'on qissa bog'laptur: bu amr muxolifi tab' va aqldur.

Yana Kamoliddin Husayn Gozurgohiy edi, agarchi so'fi emas edi, mutasavvif edi. Alisheerbek qoshida mundoq mutasavviflar yig'ilib, vajd va samo' qilurlar ekandur. Aksaridin muning usuli yaxshiroq ekandur. G'olibo sababi rioyati usuli bo'lubtur. O'zga degudek haysiyati yo'q edi. Bir tasnifi bor: «Majlisul-ushshoq» otliq. Sulton Husayn mirzoning otig'a bog'lab bitibtur, bisyor sust va aksar yolg'on va bemaza beadabona harflar bitibtur. Andoqkim ba'zidin tavahhumi kufrdur. Nechuk kim xeyli anbiyoni va avliyoni majoziy oshiqliqqa mansub qilib, har qaysig'a ma'shuq va mahbube paydo qilibtur. Yana bu ajab go'lona amredurkim, debochada Sulton Husayn mirzo, o'zunning tahrir va tasnifimdur, deb bitibdur. Kitob orasida kelturilgan Kamoliddin Husaynning ash'or va g'azaliyotining boshida tamom «limuharririh» bitilibdur. Ushbu Kamoliddin Husaynning xushomadidin Zunnun arzun «Hizabrullo»g'a mulaqqab bo'ldi.

Vuzaro: bir Majdiddin Muhammad edi, Shohruh mirzoning yakqalama devoni. Xoja Pir Ahmad¹ Xoniyning o'g'li edi, burunlar Sulton Husayn mirzoning devonida xotirxoh tartib va nasaqe yo'q edi. Isrof va itlof bisyor bo'lor edi: ne raiyat ma'mur edi, ne sipohi shokir. Ul fursatta Majdiddin Muhammad parvonachi edi. Mirak derlar edi. Mirzog'a ozroq yormoq muhim bo'lub devoniylardin tilaganda, devoniylar, yo'qtur, hosil bo'lmas, deb javob berurlar. Maj-

¹ Q. b. – Xoja Ahmad.

diddin Muhammad hozir ekandur, tabassum qilur. Mirzo jihat so'rsa, xilvat qilib, ko'nglidagini arz qilib derkim, mirzo shart qilsalarkim, mening iligimni qaviy qilib, so'zumdin tajovuz qilmasalar, oz fursatta andoq qilaykim, viloyat ma'mur va raiyat shokir va xizona mavfur va sipohi vofir bo'lgay. Mirzo ham aning dilhohi ahd va shart qilib, tamom Xuroson mamolikida ani ixtiyor qilib, jami' muhimmotni aning uhdasig'a qildi.

Bu ham imkoni boricha sa'y va ehtimom qilib, oz fursatta sipohi va raiyatni rozi va shokir qildi. Xizonag'a ham vofir yormoqlar tushurdi, viloyatni ma'mur va obodon qildi. Vale Alisher-bek boshliq jami' beklar va ahli mansab bila ziddona maosh qildi, bu jihattin borcha aning bila yamon bo'ldilar. Sa'y va ig'vo qilib, Majdiddin Muhammadni tutturub, ma'zul qildilar. Aning o'rnig'a Nizomulmulk devon bo'ldi. Necha mahaldin so'ng Nizomulmulkni ham tutturub o'lturub, Xoja Afzalni Iroqtin kelturub devor qildilar. Men Kobul kelgan fursatda, Xoja Afzalni bek qilib edilar, devonda ham muhr bosar edi.

Yana Xoja Ato edi. Agarchi alardek sohib mansabi devon emas edi, vale jami' Xurosonotta Xoja Atoning bemashvarati hech muhim faysal topmas edi. Muttaqiy va namozguzor va mutadayyin kishi edi. Mashg'ullug'i ham bor ekandur.

Sulton Husayn mirzoning tavobi va lavohiqi bular edikim, mazkur bo'ldi.

Sulton Husayn mirzoning zamoni ajab zamone edi, ahli fazl va benazir eldin Xuroson, bataxis Hiri shahri mamlu edi. Har kishiningkim bir ishga mashg'ullug'i bor edi, himmati va g'arazi ul edikim, ul ishni kamolg'a tegurgay.

Bu jumladin bir Mavlono Abdurahmon Jomiy edikim, zohir va botin ulumida ul zamonda ul miqdor kishi yo'q edi. She'ri xud ma'lumdur. Mulloning janobi andin oliyroqdurkim, ta'rifqa ehtiyoji bo'lg'ay. G'oyatash xotirg'a kechtikim, bu muhaqqar ajzoda tayammun va tabarruk jihatidin alarning otlari mazkur va shammai sifatlaridin mastur bo'lg'ay.

Yana shayxulislom Sayfiddin Ahmad edi, Mavlono Sa'diddin Taftozoniyning naslidindur, andin beri Xuroson mamolikida shayxulislom bo'la kelgandurlar. Bisyor donishmand kishi edi. Arabiya ulumini va naqliya ulumini xo'b bilur edi. Bisyor mutaqqiy va mutaddayyin kishi edi, agarchi shofiy mazhab edi, har mazhabni rioyat qilur edi. Derlarkim, yetmish yilg'a yovuq jamoat namozini tark qilmaydur. Shoh Ismoil Hiriyni olg'onda shahid qildi. Alarning naslidin kishi qolmadi.

Yana Mavlono Shayx Husayn edi, agarchi Mullo Shayx Husaynning zuhur va taraqqiysi Sulton Abusaid mirzoning zamonida ekandur, chun Sulton Husayn mirzo zamonida ham bor ekandurlar, ul jihattin mazkur bo'ldi. Hikamiyot va aqliyot va kalom ilmini xo'b bilur edi. Oz alfozda ko'p so'z topib, diqqat bila guftu-go' qilmoq aning ixtiroudir. Sulton Abusaid mirzoning zamonida bisyor muqarrab va ixtiyor

edi. Jami' mamolik muhimmotida aning daxli bor edi. Ehtisob xud andin yaxshiroq kishi qilg'on emastur. Ushbu jihattinkim, Sul-ton Abusaid mirzo qoshida muqarrab ekandur, Sul-ton Husayn mirzoning zamonida mundoq benazir kishiga ixonatlarni tegurdilar.

Yana Mullozodayi Mullo Usmon edi. Kobul tumanlaridin Lahugar tumanining Charx otliq kentidindur. Ulug'bek mirzo zamonida o'n to'rt yoshida dare aytqon uchun, Mullo Modarzod derlar ekandurlar. Samarqanddin borib Ka'ba-ni tavof qilib, Hiriya'ga kelganda Sul-ton Husayn mirzo man' qilib saxladi. Bisyor donishmand kishi edi. Ul zamonda oncha donishmand kishi yo'q edi. Derlarkim, ijti-hod martabasig'a yetkandur, vale ijti-hod qilmaydur. Andin manquldur: der emish, kishi bir nimanikim eshitti, yana nechuk unatur. Qaviy hofizasi bor ekandur.

Yana Mir Murtoz edi, hikamiyot va ma'qulotni yaxshi bo'lgur edi, aning uchun bu laqab bila mulaqqab bo'lubturkim, bisyor ro'za tutar ekandur. Shatranj'ga ko'p shag'afi bor ekandur, bu martabadakim, agar ikki harif uchrasa, biri bila shatranj o'ynab, yana birining etagini tutub o'lturur ekandurkim ketmagay deb.

Yana Mullo Mas'ud Shervoniy edi. Yana Mullo Abdulg'afur Loriy edi. Mavlono Abdurrahmon Jomiyning ham muridi, ham shogirdi edi. Mulloning aksar musannafotini mullo qoshida o'tkarib edi. «Nafahot»qa sharq yo'sunluk bir nima bitibtur. Ulumi zohiriyag'a bisyor mustahzar edi. Bovujud ulumi zohiriy, ulumi botiniydin ham bahramand edi. Ajab betaayyun

va betakalluf kishi edi. Har kimni mullo desalar, aning olida juzv tortmoqtin ori yo'q edi. Har yerda darvishe nishon bersalar, aning qoshiga yetmaguncha qarori yo'q edi. Men Xuroson borg'onda Mullo Abdulg'afur mariz edi. Mulloning mazorini tavof kilganda Mullo Abdulg'afurning iyodatig'a borib edim, mulloning madrasasida edi. Necha kundin so'ng o'shul maraz bila-o'q naql qildi.

Yana Mir Jamoliddin muhaddis edi. Hadis ilmini Xurosonda oncha bilur kishi yo'q edi, xeyli muammardur. Bu tarixkacha tirik edi. Yana Mir Atouullo Mashhadiy edi. Arabiy ilmini yaxshi bilur edi. Qofiyada bir forsi risola bitibtur, tavre bitibdur, aybi budurkim, amsila uchun tamom o'zining abyotini kelturubtur. Yana har baytidin burun «chunonki, darin bayti banda»¹ lafzini lozim tutubtur. Qofiya risolasida ba'zi muorizlari muvajjah daxllar qilibturlar. Yana sanoyiyi she'rda «Badoyius-sanoyi» otliq risola bitibtur, xeyli yaxshi bitibtur. Mazhabida inhirofi bor ekandur.

Yana Qozi Ixtiyor edi, qoziliqni xo'b qildi. Fiqhda bir forsiy risola bitibtur, tavr risoladur. Yana bir mazmun bila iqtibos uchun oyoti kalomiyni jam' qilibtur. Murg'obta mirzolar bila muloqot qilganda, Qozi Ixtiyor va Muhammad Mir Yusuf bila kelib meni ko'rdilar. Boburiy xattidin so'z chiqdi, mufradotni tiladi, bitidim. O'shal Majlisda mufradotni o'qub qavoyidini bitib, nimalar bitidi.

Yana Mir Muhammad Yusuf edi. Shayxulislomning shogirdi edi. So'ngra Shayxulislom

¹ «Masalan, bandaning bu baytida».

o'zining yerida ani nasb qildi. Ba'zi majlisda Qozi Ixtiyor yuqqori o'lturur edi, ba'zi majlis-ta bu. So'ngralar sipohiliq bila sardorliq ishiga andoq maftun va mash'uf ediki, bu ikki ishdin o'zga aning alfozidin ne ilm ma'lum bo'ur edi va aning kalomidin ne fahm mafhum. Agarchi har ikkalasidin nasib va bahراسi yo'q edi, oqibat ushbu dag'-dag'alardin mol va joni va xonumoni barbod bordi. Shiiy ekandur.

Shuarodin: Bu jam'ning saromad va sardaf-tari Mavlono Abdurrahmon Jomiy edi. Yana Shayxim Suhayliy va Husayn Ali Tufayliy jaloyir edikim, otlari va sifatleri Sulton Husayn mirzoning beklari va ichkilari chargasida mazkur va mastur bo'ldi.

Yana Osafiy edi, vazirzoda uchun Osafiy taxallus qilibtur. She'ri rang va ma'nidin xoli emastur. Agarchi ishq va holdin bebahradur. O'zining da'vosi bu edikim, men hargiz hech g'azalimni yig'ishturmoq vodisida bo'lmadim. G'olibo takalluf bo'lg'ay. Bu g'azaliyotini inisi yo qarobati jam' qilibtur. G'azaldin o'zga nav' she'r kam aytibtur. Men Xuroson borg'onda mulozamat qilib edi.

Yana Binoiy edi, hiriyluktur, otasi ustod Muhammad Sabz banno uchun mundoq taxallus qilibtur. G'azalida rang va hol bordur, devon tartib qilibtur, masnaviylari ham bor. Bir masnaviysi bor, mevalar bobida, mutaqorib bahrida, bemuhassal nima debtur, bekore qilibtur. Yana bir muxtasar masnaviysi bor, xafif bahrida. Yana bir ulug'roq masnaviysi bor, ul ham xafif bahrida, bu masnaviyni

so'ng'alar tugatib edi. Burunlar musiqiydin bexabar ekandur, bu jihattin Alisherbek ta'n qilur ekandur. Bir yil mirzo Marvg'a qishlay borg'anda – Alisherbek ham borur. Binoiy Hiriya qolur. Ul qish musiqiy mashq qilur, yozgacha oncha bo'urkim, ishlar bog'lar. Yoz Mirzo Hiriya kelganda savt va naqsh o'tkarur. Alisherbek taajjub qilib tahsin qilur. Musiqiyda tavr ishlar bog'labtur, ul jumladin bir naqshi bor, nuhrangg'a mavsum. Bu to'qqiz rangning tunganishi va naqshning maylosi rosttadur.

Alisherbekka xeyli mutaarriz ekandur. Bu jihattin xeyli jafolar tortti. Oxir tura olmay Iroq va Ozarbayjong'a Ya'qubbek qoshig'a bordi. Ya'qubbek qoshida yamon emas edi. Harifi majlis bo'lub edi, Ya'qubbek o'lgandin so'ng ul viloyatlarda turmay, Hiriya keldi. Hanuz zarofat va taarruzi bor edi. Ul jumladin biri budurkim, bir kun shatranj majlisida Alisherbek oyog'ini uzatur. Binoiyning (orqasi) ga tegar. Alisherbek mutoyaba bila derki, «ajab baloyest dar Hiriya agar poy daroz mekuni ba (pushti) shoir merasad¹.» Binoiy derkim, «agar jam' mekuni ham ba (pushti) shoir merasad²». Oxir bu zarofatlardin yana Hiriya din Samarqand azimati qildi.

Alisherbekki qalin nimalar ixtiro' qilib edi va yaxshi nimalar ixtiro' qilib edi, har kishikim, har ishta bir nima paydo qildi, ul nima-

¹ «Ajab bir balodirki, Hirotda oyog'ingni uzatsang, shoirning orqasiga tegadi».

² «Yig'sang ham, shoirning orqasiga tegadi».

ning rivoj va ravnaqi uchun «Alisheriy» der edi. Ba'zi zarofat bila Alisherbekka isnod qilurlar edi. Nechukkim, Alisherbek quloq og'rig'ida yog'liq bog'lag'on uchun xotunlar ko'k yog'liqni qiyiq bog'lag'onni «nozi¹ Alisheriy» ot qo'ydilar. Bu jumladin Binoiy Hiriydin azimat qilur vaqt eshagi uchun polondo'zg'a g'ayri muqarrar polone buyurur, otini «Alisheriy» der, «poloni Alisheriy» mashhur bo'ldi.

Yana Sayfiy Buxoriy edi, filjumla mullolig'i bor edi. O'qug'on kitoblarining mafsalini elga ko'rsatib, mullolig'ini isbot qilur edi. Devon tartib qilibtur, yana bir devoni ham borki, jami' hifagarlar uchun aytibtur, masalni ko'p aytibtur. Masnaviysi yo'qtur. Nechukkim, bu qit'a anga doldur:

*Masnaviy garchi sunnati she'r ast,
Man g'azal farzi ayn medonam.
Panj bayteki dilpazir buvad,
Behtar az xamsatayn medonam².*

Bir forsiy aruzi bor. Bisyor kamsuxandur, bir hisob bila asru pursuxandur. Kamsuxan bu ma'ni bilakim, keraklik nimalarni bitimaydur. Pursuxan bu ma'ni bilakim, ravshan va zohir kalimalarni nuqta va e'robig'acha bitibtur. Chog'irni yamon ichar ekandur, badsharob ekandur. Mahkam zarb mushti bor ekandur.

¹ Q. b. – nori.

² Masnaviy she'rning sunnati bo'lsa ham, men g'azalni farzi ayn deb bilaman. Dilga yoqqan besh baytni ikki «Xamsa»dan yaxshiroq deb bilaman.

Yana Abdullo masnaviygo'yi edi, Jomdindur. Mulloning xoharzodasi bo'lgur, taxallusi «Hotifiy» edi. «Xamsa» muqobalasida masnaviyalar aytibtur. «Haft paykar» muqobalasida aytqon masnaviy-sig'a «Haft manzar» ot qo'yubtur. «Iskandarnoma» muqobalasida «Temurnoma» aytibtur. Bu masnaviyalardan «Layli va Majnun» mashhurroqtur. Agarchi latofati shuhraticha yo'qtur.

Yana Mir Husayn Muammoiy edi. G'olibo muammoni oncha hech kim aytg'on emas. Hamisha avqoti muammo fikrig'a masruf ekan-dur. Ajab faqir va nomurod va bebaxt kishi ekandur.

Yana Mullo Muhammad Badaxshiy edi. Ishkamishtindur. Ishkamish Badaxshon doxili emastur. Ajabturkim, «Badaxshiy» taxallus qilibtur. She'ri bu mazkur bo'lg'on shoirlarning she'richa yo'qtur. Muammoda risola bitibtur, muammosi ham xeyli yaxshi emas. Xushshabat kishi edi. Samarqandda manga mulozamat qilib edi.

Yana Yusuf Badiny edi, Farg'ona viloyatidindur. Qasidani yamon aytmas ekandur.

Yana Ohiy edi, g'azalni tavre aytur edi. So'ngralar Ibn Husayn mirzo qoshida bo'lgur edi. Sohibi devondur.

Yana Muhammad Solih edi, choshniliq g'azallari bor, agarchi hamvorlig'i choshnisi-cha yo'qtur, turkiy she'ri ham bor, yamon ayt-maydur. So'ngra Shayboniyxon qoshig'a kelib edi, filjumla rioyat qilib edi. Shayboniyxonning otig'a bir turkiy masnaviy bitibtur. «Ramali mu-saddasi maxbun» vaznidakim, «Subha» vazni

bo'lg'ay, bisyor sust va furudtur, ani o'qug'on kishi Muhammad Solihning she'ridin bee'tiqod bo'lur. Bir yaxshi bayti budur:

*Bo'ldi Tanbalg'a vatan Farg'ona,
Qildi Farg'onani tanbalxona.*

Andijon viloyatini Tanbalxona ham derlar, ul masnaviyda muncha bayt ma'lum emaskim, bo'lg'oy. Sharir va zolim tab' va berahm kishi edi.

Yana Shoh Husayn Komiy edi, muning she'rlari ham yamon emas, g'azalgo'ydur, g'olib bo devoni ham bordur.

Yana Hiloliy edi. Bu tarixda ham bordur. G'azallari hamvor va rangin va kam xadshadur. Devoni ham bordur. Bir masnaviysi bor, «xafif» bahrida «Shoh va Darvish»qa mavsum, agar-chi ba'zi baytlari tavre voqe bo'lubtur, vale bu masnaviyning mazmun na ustuxonbandlig'i bisyor kovok va xarobtur. Shuaroyi motaqaddam ishq va oshiqliq uchun masnaviylarkim aytubdurlar, oshiqliqni erga va ma'shuqluqni xotung'a nisbat qilibturlar. Hiloliy darvishni oshiq qilibtur, shohni ma'shuq. Abyotekim shohning afol va aqvolida debtur, hosilkim, shohni jalbiy va fohisha qilibtur. O'z masnaviy-sining maslahatig'a bir yigitni va yana shoh yigitini bisyor besuratturkim, jalablar va fohishalardek ta'rif qilg'ay. Bisyor qaviy hofizasi bor emish, o'ttuz-qirq ming bayt yodida bor emish. Derlarkim, «xamsatayn»ning aksar ab-yoti yodida bor. Aruz va qofiya va she'r ilmig'a xeyli mustahzadur.

Yana Ahliydur, omiydur. She'rlari yamon emas, devoni ham bordur.

Xushnavislardan agarchi xeyli kishi bor edi, vale borining saromadi nasx ta'liqda Sulton Ali Mashhadiy edi. Mirzo uchun, Alisherbek uchun qalin kitobatlar qildi. Har kunda o'ttuz bayt mirzo uchun va yigirma bayt Alisherbek uchun bitir edi.

Musavvirlardan Behzod edi, musavvirlik, ishini bisyor nozuk qildi. Vale saqolsiz elning chehrasini yamon ochadur. G'abg'abini ko'p ulug' tortadur. Soqolliq kishini yaxshi chehrali, kushoyliq qiladur.

Yana Shoh Muzaffar edi, tasvirni ko'p nozuk qilur edi. Tash'irni¹ xud guzaro nozuk qilur edi. Xeyli umr topmadi. Yana bir tasnifi bor, ul tasnifi tasavvuftadur, yamon emas, g'olibo agar so'z aning emas.² Taraqqiy mahalida-o'q olamdin bordi.

Ahli nag'madin qonunni Xoja Abdullo Marvoriycha kishi cholmas edi, nechukkim mazkur bo'ldi.

Yana Qul Muhammad Udiy edi, g'ijjakni ham xo'b cholur edi. G'ijjakka bu uch qil taqti. Ahli nag'madin va ahli sozdin hech kim muncha ko'p va xo'b peshrav bog'lag'on emastur. Peshvardin o'zga ishlarda muncha emastur.

Yana Shayxiy Noyi edi, udni va g'ijjakni ham xo'b cholur ekandur. O'n ikki-o'n uch yoshidin beri nayni xo'b cholur ekandur. Bir navbat Badiuzzamon mirzoning suhbatida bir ishni naydin xo'b chiqarur, Qul Muhammad g'ijjakta ul ishni chiqara olmas. Derkim, g'ijjak no-

¹ Q. b. – sha'rni.

² L. b. – bu ibora yo'q.

qis sozdir. Shayxiy filhol Qul Muhammadning iligidin g'ijjakni olib, ul ishni g'ijjakta xo'b va pokiza cholur. Shayxiydin yana bir nima rivo-yat qildilar: Nag'amotqa andoq mustahzar ekandurkim, har nag'makim, eshitsa, der ekandurkim, falonining falon pardasi munga ohangdur, vale xeyli ish bog'lamaydur. Bir-ikki naqsh andin derlar.

Yana Shohquliy g'ijjakiy edi. Iroqiydur. Xuro-song'a kelib soz mashq qilib, taraqqiy qildi. Xeyli naqsh va peshrav va ishlar bog'labtur.

Yana Husayn Udiy edi. Udni mazaliq cho-lib, mazaliq nimalar aytur edi. Udning torla-rini yakka¹ qilib bu cholibtur. Aybi bu ediki, bisyor noz bila cholur edi. Shayboniyxon bir navbat soz buyurur, takalluf qilib ham yamon cholur, ham o'z sozini kelturmay, yaramas soz kelturur. Shayboniyxon fahmlar. Buyururkim, suhbatda-o'q g'alaba gardanilar ururlar. Shay-boniyxonning olamda bir yaxshi ishi kim bor budur, filvoqe xo'b bordur. Ushmundoq nozuk mardaklarga mundin ko'prak sazo kerak.

Yana musanniflardan G'ulom Shodiy edi, Shodiy xonandaning o'g'li edi, agar soz cholur edi, vale bu sozandalar chargasida cholmas edi. Yaxshi savtlari va xo'b naqshlari bor. Ul zamonda oncha naqsh va savt bog'lar kishi yo'q edi. Oxir Shayboniyxon Qozon xoni Muham-mad Aminxong'a yibordi, yana xabari kelmadi.

Yana Mir Azu² edi, bu soz cholmas edi, musannif edi, agarchi oz ish bog'labtur, vale mazaliq ishlari bor.

¹ Q. b. - ikki.

² Q. b. - G'azu.

Binoiy ham musannif edi. Yaxshi savt va naqshlari bordur.

Yana benazir eldin bir Pahlavon Muhammad Busaid edi. Kushtigirliqta xud saromad edi, she'r ham aytur edi. Savt va naqshlar bog'lar edi: «Chorgoh»da bir yaxshi naqshi bor, xush-suhbat kishi edi. Kushtigirlik bila muncha hay-siyatni jam' qilmoq g'arobati bor.

Sulton Husayn mirzo olamdin naql qilg'on-da, mirzolarin Badiuzzamon mirzo va Muzaffar Husayn mirzo hozir edilar, chun suyuqluk o'g'ul Muzaffar Husayn mirzo edi va Muhammad Burunduq barlos sohibi ixtiyor bek edi, atkasi edi, onasi Xadichabegim edi, Mirzoning e'tiborliq xotuni edi. Mirzoning eli ham Muzaffar mirzoga'rujuyi xeyli bor edi. Bu jihatlardin Badiuzzamon mirzo taraddud qilib kelmas xayolda edi. Muzaffar mirzo va Muhammadbek o'zlari otlanib borib taraddudni mirzoning ko'nglidin raf qilib, Badiuzzamon mirzoni kelturdilar. Sulton Husayn mirzoni Hiriya'ga kelturub, podshohona rasm va oyin bila bardosht qilib, madrasasida dafn qildilar. Bu fursatta Zunnunbek ham hozir bo'ldi. Muhammad Burunduqbek va Zunnunbek va yana Sulton Husayn mirzodin qolg'on va bu mirzolar bila bo'lg'on beklar yig'ilib, itti-foq qilib, Badiuzzamon mirzo bila Muzaffar Husayn mirzoni Hiriya taxtida bashirkat podshoh qildilar. Badiuzzamon mirzo eshigida sohibi ixtiyor Zunnunbek, Muzaffar Husayn mirzo eshigida sohibi ixtiyor Muhammad Burundukbek, Badiuzzamon mirzo jonibidin shahr dorug'asi Shayx Ali tag'oyi, Muzaffar mirzo tarafidin Yu-

suf Ali ko'kaltosh. Bu g'arib amre edi, hargiz podshohliqta shirkat eshitilgan emas. Shayx Sa'diy so'zining mazmunining xilofi voqe bo'ldi: «Nechukkim, «Guliston»da kelturubtur:

«Dah darvesh dar gileme bixusband va du podshoh dar iqlime nangunjand».¹

¹ O'n darvish bir gilamga sig'ib yotarlar, ikki podshoh iqlimga sig'maydi.

VAQOYEV SANAYI ISNO ASHARA VA TIS'A MIA¹

Muharram oyi o'zbek dafi jihatidin Xuroson azimati qilildi. G'o'rband va Shibartu yo'li bila mutavajjih bo'lduk. Jahongir mirzo ul viloyatdin chun noxushluq bila chiqib edi, aymoqni o'ziga qo'shsa ba'zi sharif va mufattinlar yana ne angizlar qilur ekin deb, Ushtur shahridin, uruqdin ayrilib, uruqta Vali Xozinini va Davlat qadam qorovulni qo'yub, aymoqyayi botroq iliklaling, deb jarida tez tebraduk. O'lkun Zahhok qal'asig'a kelduk. Andin Gunbazak ko'tali bila oshib Soyqonni bosturub, Dandonshikan ko'tolidin o'tub, Kohmard o'langiga tushuldi.

Sayid Afzal xobbinga Sulton Muhammad do'ldoyini qo'shub Kobuldin mutavajjih bo'lg'oni-mizning kayfiyatini arzadosht qilib, Sulton Husayn mirzog'a yiborildi. Jahongir mirzo keyinrak qolg'on ekandur. Bomyon to'g'risig'a yetganda yigirma-o'ttuz kishi bila Bomyonning sarig'a keladur ekandur. Bomyong'a yovuq yetganda bizing keying qolg'on uruqning chodirlarini ko'rarlar. Bizni xayol qilib tez-o'q yonarlar. Urdularig'a yetgach, hech nimaga boqmay ko'charlar. Keyinlariga boqmay Yaka o'lang navohisig'a tortarlar.

Shayboniyxon Balxni muhosara qilib edi. Balxta Sulton Qulichoq edi. Shayboniyxon ikki-uch sultonni uch-to'rt ming kishi bila Badaxshonni chopqali yibordi. Ul fursat Muborakshoh va Zubayr yana Nosir mirzog'a kelib qo'shu-

¹ To'qqiz yuz o'n ikkinchi (1506–1507) yil voqealari.

lub edilar. Agarchi burunroq niqor va kuduratlari bor edi. Kishmning oyog'ida Shohidonda Kishm suyining sharqiy tarafida cheriklab o'turub edilarkim, bu o'zbeklar tong boshida shabxun kelib, Kishm suyini o'tub, Nosir mirzoning ustiga yurudi. Nosir mirzo filhol o'zini pushtag'a tortti, pushtadin elini yig'ushturub, nafir choldurub yurugan bila o'zbeklarni olg'on bila-o'q tebradi. Kishm suyi uluq edi, bu suvdin kechib kelib edilar. Qalin kishisi o'qqa, qilichqa borib, g'alaba kishisi ilikka tushti, suvda ham ko'p kishisi o'ldi.

Muborakshoh va Zubayr mirzodin yuqqorroq Kishm sari edilar. Alarning ustiga ayrilg'on o'zbeklar alarni pushtag'a qochurdi. Nosir mirzo yog'iyisini qochurg'onda muni xabar topib, bu jamoatning ustiga yurudi. Yuqqoridin Ko'histon beklari ham otliq-yayog'ini yig'ib yurugan bila turush bera olmadilar, qochtilar. Bu jamoattin ham qalin kishi ilikka tushub, ko'p kishi o'qqa, qilichqa va suvg'a bordi. Shoyadki, ming-ming besh yuz o'zbek o'ldi ekin. Nosir mirzoning bir yaxshi fathi bu edi, bu xabarni Kohmard julgasida ekanda Nosir mirzoning kishisi kelturdi.

Bu navohida ekanda bizning cherik borib, G'o'ri va Dahonadin oshliq kelturdilar. Bu navohida Sayid Afzal bila Sulton Muhammad do'ldoydinkim, Xurosong'a yiborilib edi, xatlar keldi. Sulton Husayn mirzoning favtining xabari edi. Bovujud bu xonavodaning nomusini qoralab Xuroson jonibig'a mutavajjih bo'lduk, agarchi bu tavajjuhda o'zga g'arazlar ham bor edi. Ajar darasining ichi bila o'tub To'p va Man-

dag'on bila Balxob bila inib, Ko'hi Sofqa chiqildi. O'zbekning Son va Chahoryak chopg'onini xabar topib, Qosimbekni cherik bila chopqunchining ustiga yiborduk. Borib uchratib, yaxshi bosib, qalin bosh kesib kelturdilar. Jahongir mirzog'a va aymoqlarg'a kishilar yiborduk, alardin xabar olg'uncha necha kun Ko'hi Sof yaylog'ida o'turduk.

Bu navohi kiyigi asru qalin bo'fur, bir marta-ba ovladuk. Bir-ikki kundan so'ng tamom aymoqlar kelib mulozamat qildilar. Aymoqlarg'a Jahongir mirzo bir necha qatla kishilar yibordi, bir navbat Imodiddin Mas'udni yibordi, bor-madilar, mening qoshimg'a keldilar. Oxir Mirzog'a zarurat bo'ldi. Ko'hi Sofdin darayi Boyg'a tushganda meni kelib ko'rди, chun bizga Xuroson dag'dag'asi edi, Mirzog'a boqmay, aymoqqa parvoy qilmay, Garzavon va Almor va Qaysor, Chechaktu bila yurub, Faxriddin o'lumidin o'tub, Bodig'is tavobeyidin Darayi Bom degan yerga kelduk.

Chun bir tafriqa olami edi, har kim dastandozliq qilib, viloyatdin va eldin nima olur edilar. Biz ham bir yoqadin ul navohidagi aymoq va atrakka tahmil qilib nima ola kirishtuk. Bu bir oy-ikki oyning ichida shoyadkim uch yuz tuman kepakiy olildi ekin. Bizdin bir necha kun burunroq o'zbekning chopqunchisini Xuroson ilg'ori va Zunnunbekning kishilari Pandda va Marvchoqda yaxshi bosib, qalin o'zbek o'turubturlar.

Badiuzzamon mirzo, Muzaffar mirzo, Burunduk Muhammad barlos, Zunnun arg'un

o'g'li Shohbek Shayboniyxonning ustigakim, Balxda Sulton Qulichoqni muhosara qilib erdi, yurumakni jazm qilib, jami' Sulton Husayn mirzoning o'g'lonlarig'a kishilar yiborib tilattilar. Dog'i bu azimat bila Hiriyydin chiqtilar. Bodg'isg'a yetganda Childuxtaronda Abulmuhsin mirzo Marvdin kelib qo'shuldi. Ibni Husayn mirzo ham andin so'ng To'n va Qoyindin keldi. Kepak mirzokim, Mashhatda edi, har necha kishilar yibordilar, noma'qul so'zlar aytib, nomardliq qilib kelmadi. Aning taassubi Muzaffar mirzo bila edi, ya'ni ul podshoh bo'lg'onda men nechuk aning qoshig'a barg'oymen, deb mundoq mahaldakim jami' og'o-ini bir yerda yig'ilib, ittifoq qilib, Shayboniyxondek g'anim ustiga azm jazm qilib yuruydurg'onda mundog' bemaza taassub qilib kelmadi. Aning bu kelmamagini holokim taassubqa haml qilur, barcha nomardlikka haml qilg'ularidur.

G'arazkim, bu dunyoda kishidin ushmundog'nimalar qolur, har kim aqldin bahravar bo'lsa, nega andog' harakatga iqdom qilg'aykim, andin so'ng yamon degaylar va har kishiga hushdin asar bo'lsa, nega andog' amrga ehtimom qilmag'aykim, qilg'ondin so'ng mustahsan degaylar. «Zikri nomero, hakimon umri soni guftaand».¹

Manga dog'i elchilar keldilar. So'ngra Muhammad Burunduq barlos ham keldi, men xud nega bormag'aymen. Yuz-ikki yuz yig'och yo'lni bu maslahat uchun tay qilibturmen. Men Muhammadbek bila-o'q mutavvajjih bo'ldum, ul

¹ «Shuhrat bilan yodlanishni, hakimlar, ikkinchi umr demishlar».

fursatta mirzolar Murg'obg'a kelib edilar. Dushanba kuni jumodiloxir oyining sekkizida mirzodar bila muloqot bo'ldi. Abulmuhsin mirzo yarim kuruh istiqbol qilib kelib edi, yetushduk. Men bu tarafdin otdin tushdum, Abulmuhsin mirzo ul taraftin otdin tushti, yurub ko'rushub otlanildi. Ilgarrak kela o'rduning yovug'ida Muzaffar mirzo va Ibni Husayn mirzo keldilar. Bular Abulmuhsin mirzodin yoshqa kichik edilar, kerakkim burunroq istiqbolg'a kelsalar edi, g'olibo bu ta'xir xumor jihatidin ekandur, ne takabburdin va bu taqdir aysh va ishrat sababidin ekandur, ne takaddurdin.

Muzaffar mirzo mubolag'a qildi, ot ustida ko'rushtuk, Ibni Husayn mirzo bila ham ushbu nav' ko'rushuldi. Kelib Badiuzzamon mirzoning eshigiga tushtuk. G'arib izdihom va jamiyat edi. Andog' g'uluv edikim, tiqilishda ba'zining uchto'rt qadam yo'l oyog'i yerga tegmas edi, ba'zikim ish-kuch uchun yonmoq xayol qilsa edi, to'rt-besh qadam keyinga boqa beixtiyor olib borurlar edi. Badiuzzamon mirzoning devonxonayigayettuk. Muqarrar andoq edikim, men uydin kiringach yukung'aymen. Badiuzzamon mirzo qo'pub araqqa kelgay, dog'i ko'rushulgay. Men uydin kiringach, bir yukundum, dog'i bedarang mutavajjih bo'ldum, Badiuzzamon mirzo ohistaroq qo'pub, sustroq yurudi.

Qosimbek chun davlatxoh edi va mening nomusim aning nomusi edi, belbog'indin bir tortti, voqif bo'ldum. Taanni bila yurub, muqarrar bo'lg'on yerda ko'rushuldi, bu ulug' oq uyda to'rt to'shak solib erdilar. Badiuzzamon mir-

zoning oq uylari albatta yon eshiklik bo'lar edi. Mirzo doim bu eshikning yonida o'turur edi, bir to'shakni bu eshikning yonida solib erdilar. Badiuzzamon mirzo va Muzaffar mirzo bu to'shakda o'turdilar, yana bir to'shak rost qo'lda solib erdilar. Abulmuhsin mirzo va men bu go'shakda o'turduk. Badiuzzamon mirzoning to'shakinin quyi chal yonda yana bir to'shak solib edilar. Qosim Sulton o'zbek Shayboniy sultonlaridinkim, mirzoning kuyovi bo'lar edi. Qosim Husayn Sultonning otasi bo'lg'ay, yana Ibni Husayn mirzo bu to'shakda o'turdilar. Manga solg'on to'shakdin quyi o'ng qo'lumda yana bir to'shak solib erdilar. Jahongir mirzo bila Abdurazzoq mirzo ul to'shakda o'turdilar, Muhammad Burunduqbek va Zunnunbek va Qosimbek o'ng, yonda Qosim Sulton bila Ibni Husayn mirzodan xeyli quyi o'ng o'turdilar.

Osh tortildi, bovujudkim, suhbat yo'q edi, osh tortaturg'on yerda shira qo'yub oltun va kumush surohilarni shira ustiga terdilar. Burunlar bizning ota-og'a Chingiz to'rasini g'arib rioyat qilur edi, majlisda va devonda, to'y va oshda, o'turmoqda va qo'pmoqda xilofi to'ra ish qilmaslar edi. Chingizxonning to'ra nassi qoti' emasturkim, albatta kishi aning bila amal qilg'ay. Har kimdin yaxshi qoida qolg'on bo'lsa aning bila amal qilmoq kerak, agar ota yamon ish qilg'on bo'lsa, yaxshi ish bila badal qilmoq kerak.

Oshdin so'ng o'tlanib, tushgan yerga keldim. Bizning o'rdi bila mirzolarning o'rdusining orasi bir shar'iy bo'lg'ay edi. Ikkinchi navbat kelganda Badiuzzamon mirzo burung'idek

ta'zim qilmadi. Muhammad Burunduqbekka va Zunnunbekka ayturdimkim, agarchi yoshim kichiktur, vale to'rum ulug'dur, ota taxtidakim, Samarqand bo'lg'ay, ikki navbat zarbi rost olib olturubdurmen. Bu xonavoda uchun yot-yog'i bilakim muncha jang va jadal qilibturmen, mening ta'zimimda ta'xir bevajhdur. Bu so'z mazkur bo'lg'och, chun ma'qul edi, mu'tarif bo'lub, ta'zimni xotirxoh qildilar.

Yana bir navbat Badiuzzamon mirzo qoshig'a borg'onda namozi peshindin so'ng chog'ir majlisi bo'ldi, men ul mahallar ichmas edim, tavr orosta majlise edi, xonlarda har nav' gazaklar yasab edilar: tovuq kabobi va qoz kabobi va har jins at'imadin torttilar. Badiuzzamon mirzoning majlisini xeyli ta'rif qilurlar edi, filvoqe beg'il-u g'ash oromida majlis edi. Murg'ob yoqasida ekanda ikki-uch qatla mirzoning chog'ir majlisida hozir bo'ldum. Ichmasimni chun bilurlar edi, taklif qilmadilar.

Muzaffar mirzoning majlisida ham bir navbat bordim. Xusayn¹ Ali Jaloyir va Mir Badr Muzaffar mirzo qoshida edilar. Ul majlisda bor edilar. Kayfiyat bo'lg'onda Mir Badr raqs qildi, xo'b raqs qildi. G'olibo ul nav' raqs Mir Badrning ixtiroyidir.

Mirzolar Hiriyydin chiqib, ittifoq qilib, yig'ilib Murg'obg'a kelguncha uch-to'rt oy bo'ldi.

Sulton Qulichoq tang kelib Balx qal'asini o'zbekka berdi. O'zbek Balxni olg'ondin so'ng bu jam'iyatning istimoyidin Samarqandg'a

¹ Q. b. - Hasan.

murojaat qildi. Bu mirzolar agarchi suhbat va suhbatoroliqda va ixtilot va omizishta tavre edilar, vale sipohilik rev va rangidin yiroq va mardonalik jadal va jangidin qiroq edilar.

Murg'obda o'lturg'on mahallarda xabar keldikim, Haqnazar chapani to'rt yuz-besh yuz kishi bila qelib Chechaktu navohisini chopti. Barcha mirzolar hozir bo'lub har necha qilib, bu chopqunchining ustiga ilg'or yibora olmadilar. Murg'ob bila Chechaktuning orasi o'n yig'och yo'ltur, bu ishni men tiladim. Nomus qilib manga ham ruxsat bermadilar. Chun Shayboniyxon yondi, yil ham kech bo'lub edi. Andoq qaror toptikim, bu qish mirzolar har qaysi bir munosib yerda qishlab, erta yoz jam'iyat qilib g'anim dafig'a mutavajjih bo'lg'aylar, manga ham Xuroson navohisida qishlamoq taklifi qildilar.

Chun Kobul va G'azni purshar va sho'r yerlar edi, turk va mo'g'uldin va aymoq oxshomdin va afg'on va hazoradin muhtalif el va ulus anda yig'ilib edilar. Yana Xuroson bila Kobul orasi yovuqroq yo'ldinkim tor yo'li bo'lg'ay, agar qor va yax nima mone bo'lmasa, bir oychiliq yo'l edi. Tuz bila qirq-ellik kunlik yo'l edi, viloyat ham hanuz yaxshi ko'ngul bosmaydur edi. Davlatxohlardin hech kim bizning anda qishlarimizni saloh ko'rmadilar. Mirzolar g'a uzr ayttuk. Qabul qilmadilar. Ko'prak taklif qildilar, har necha uzr deduk, taklifni bajidroq qildilar. Oxir Badiuzzamon mirzo va Abulmuhsin mirzo va Muzaffar mirzo o'tlanib, mening uyumga kelib, qish turmoq taklifini qildilar. Mirzolar yuziga yo'q deyolmaduk, mundoq podshohlar o'zlari

kelib, turmoq taklifini qildilar. Yana Hiriynikim rub'i maskunda andoq shahr yo'qtur va Sulton Husayn mirzoning zamonida mirzoning tasarrufidin va takallufidin Hiriyning zeb va ziy-nati birga o'n, balki yigirma taraqqiy qilib edi, ko'rmak orzusi xeyli bor edi. Bu jihatlardan turmoqni kabul qilduk.

Abulmuhsin mirzo viloyatig'a Marvg'a bordi. Ibni Husayn mirzo ham To'n va Qoying'a bordi. Badiuzzamon va Muzaffar mirzo Hiriya azimat qildilar, ikki-uch kundan keyinroqdin Childuxtaron va Toshrobot yo'li bila men ham Hiriya mutavajjih bo'ldum.

Barcha begimlar, Poyanda Sultonbegim, mening ammam Xadichabegim, Ofoqbegim, yana Sulton Abusaid mirzoning qizlari amma begimlar barcha Sulton Husayn mirzoning mad-rasasida yig'ildilar. Barcha begimlar mirzoning maqbarasida edilarkim, borib ko'rdim. Avval Poyanda Sultonbegi bila yukunub ko'rushtum, andin so'ng Ofoqbegim bila yukunmay ko'rush-tum, andin keyin Xadichabegim bila yukunub ko'rushtum. Bir zamon munda o'lturub hofiz-lar qur'on o'qug'ondin so'ng janubiy madrasa-dakim, Xadichabegimning uyini tikib edilar borduq. Xadichabegimning oshini torttilar. Osh tortilg'ondin keyin Poyanda Sultonbe-gimning uyiga bordim. Ul kecha anda bo'ldum. Avval manga Bog'i Navda yurt tayin qilib edi-lar. Tonglasi kelib Bog'i Navda tushtum. Bog'i Navda bir kecha bo'ldum, ani munosib ko'rmay Alisherbekning uylarini tayin qildilar. Hiriynin chiqquncha Alisherbekning uylarida edim.

Har ikki-uch kunda borib, Bog'i Jahonoroda Badiuzzamon mirzog'a ko'runush qilur edim. Necha kundin so'ng Muzaffar mirzo uyiga chorladi. Muzaffar mirzo Bog'i Safidda o'lturur edi. Xadichabegim ham anda edi. Jahongir mirzo mening bila bordi. Xadichabegim qoshida osh va taom tortilgandin keyin Muzaffar mirzo bizni Bobur mirzo solg'on Tarabxonada otliq imoratga olib bordi. Tarabxonada chog'ir majlisi bo'ldi. Tarabxonada bog'chaning o'rtasida voqe bo'lubtur, muxtasarroq imorattur, ikki oshyonaliq, vale shiring'ina imorattur, yuqqorig'i oshyonida takalluf ko'prak qilibturlar. To'rt kunjida to'rt hujradur. O'zga bu to'rt hujraning o'rtasi va mobaynlari tamom bir uy doxilidur, bir uydurkim, hujralarning mobayni to'rt shahnishin yo'sunluq bo'lubtur. Bu uyning har zil'i musavvardur, agarchi bu imoratni Bobur mirzo qilgandur, vale, bu tasvirlarni Sulton Abusaid mirzo buyurg'ondur, masof va urushlarini tasvir qilibturlar, shimoliy sarig'a shahnishinda ikki to'shak soldilar, bir-biriga ro'baro', to'shaklarning yonlari shimol sari edi, bir to'shakda Muzaffar mirzo va men o'lturduk, yana bir to'shakda Sulton Mas'ud mirzo va Jahongir mirzo o'lturdilar. Muzaffar mirzoning uyida chun mehmon eduk, meni Muzaffar mirzo o'zidin yuqqori oldi.

Ishrat paymonalarin to'ldurub, soqiylar yurub majlis ahlig'a tuta kirishtilar. Muravvaq chog'irlarni majlis ahli ham hayvon suyidek yuta kirishtilar, majlis qiziqti, chog'irlar boshqa chiqti, bu xayolda edilarkim, manga ichirgaylar,

meni ham bu doirag'a kiyurg'aylar, men agar-chi bu choqqacha nash'a bo'lguncha chog'ir irtikob qilmaydur edim, mastliq va sarxushluk kayfiyati va holatini kamoqaqquxu bilmaydur edim, vale chog'ir ichmoqqa maylim bor edi va bu vodiyni tay qilmoqqa ko'nglum tortar edi. Kichiklikta bemayl edim, chog'irning nash'a va kayfiyatini bilmas edim. Otam gohikim chog'ir taklifi qilsalar ham uzrlar aytib, irkitob qilmas edim. Otamdin so'ng Xoja qozining yumni qadamidin zohid va muttaqi edim. Shubqaliq taomdin ijtinob qilur edim. Ne joy ulkim, chog'ir irtikob qilg'ayman. So'ng'alar yigitlik havasidin va nafs taqozosidinkim, chog'irg'a mayl paydo bo'ldi, taklif qilur kishi yo'q erdi, balli chog'irg'a maylimni bilur kishi yo'q edi. Ko'nglum agarchi moyil edi, mundoq qilmog'on amrni o'zluk bila qilmoq mushkil edi. Xotirg'a kechtikim, chun muncha taklif qiladurlar, yana Hiriye dek orosta shahrig'a, kelib turbizkim jami' aysh-ishrat asbob va oloti mukammal va muhayyo va bori takalluf va tana'um ashyo va adavoti omoda va paydo, holo ichmasam qachon icharmen deb, ichmakka azm qildim va bu vodiyni tay, qilmoqni jazm qildim.

Vale xotirga kechtikim, Badiuzzamon mirzo og'adur, aning iligidin va aning uyida ichmay, inisining iligidin va inisining uyida ichsam, xotirig'a nima kelgay deb, bu taraddudimni ayttim. Bu uzrumni ma'qul deb, bu suhbatta chog'ir taklifi qilmadilar. Muqarrar andoq bo'ldikim, Badiuzzamon mirzo bila Muzaffar mirzo bir yerda bo'lg'onda ikkala mirzoning taklifi bila ichilgay.

Majlisda nag'ma ahlidin Hofiz Hoji edi, Jaloliddin Mahmud noyi edi, G'ulom Shodining inisi Shodi bacha edi. Chang cholur edi, Hofiz Hoji xo'b o'qur edi. Hiriyl eli past va nozuk va hamvor o'qurlar. Jahongir mirzoning bir xonandasi bor edi. Mirjon otliq, Samarqandiy edi. Baland va durusht va nohamvor o'qur edi. Jahongir mirzo kayfiyat mahalda buyurdikim o'qug'ay, g'arib, baland va durusht va bemaza o'qudi. Xuroson eli pur zarofat tirilur el. Muning bu o'qushidin birisi qulog'in tutamudur, yana bir chiroyin chitamudur, mirzo jihatidin hech kim man' qilaolmaydur. Namozil shomdin so'ng. Tarabxonadin Muzaffar mirzo solg'on yangi qishloqi uyga kelduk. Ushbu uyga kelganda oxir mastlig'larda Yusuf Ali ko'kaltosh qo'pub raqqosliq qildi. Sohii usul kishi edi, yaxshi raqs qildi. Bu uyga kelganda suxbat xeyli garm bo'ldi. Muzaffar mirzo bir qamar shamshir, bir qo'zi jubba, bir bo'z tupchoq manga berdi. Bu uyga kelganda Jonak turkiy aytti. Muzaffar mirzoning Katta Moh va Kichik Moh otliq qullari bor edi, mastliq mahallarda bir pora bemaza garmxo'luqlar qildilar. Kechgacha garm suxbat edi, majlis tarqaldi. Men bu oqshom ushbu uyda-o'q bo'ldum. Manga chog'ir taklifi qilur xabarini Qosimbek eshitib, Zunnunbekka kishi yiboribtur. Zunnunbek mirzolarg'a nasihat yo'sunluq qattiq-qattiq aytib, chog'ir taklifini tamom bartaraf qilibturlar.

Badiuzzamon mirzo Muzaffar mirzoning mehmondorlig'ini eshitib, Bog'i Jahonoroda Muqavviyxonada majlis tartib qilib, meni tiladi.

Bizning ba'zi ichkilarni va yigitlarni ham tiladilar, mening yovuqtag'ilarim mening jihatimdin icha olmaslar edi. Agar icharlari ham bo'lsa bir oy-qirq kunda eshik-elini bog'lab yuz dag'dag'a bila icharlar edi. Andoq kishilarni charladilar. Munda hamki keldilar, gohi meni g'ofil qilib, gohi iliklarini panoh qilib, yuz tashvishlar bila ichar edilar. Agarchi mendin suhbattag'i kishiga ruxsati om bo'lg'on yo'sunluq bo'lub edi, ne jihatinkim, bu suhbat ota-og'amizdek kishining suhbatlari edi, muallihlarni kelturdilar, bilmon sochlarining yo amaliy sochlarining oralarig'a kimsonni sochning uzunlig'i bila inichka-inichka kesib qo'yubturlar, tavre ko'runadur. Bu suhbatta mening olimg'a qoz kabobi qo'yidilar, chun qush buzmog'ini va to'rg'amog'ini qilg'on emas erdim, ilik eltmadim.

Badiuzzamon mirzo dedikim, nega mayl qilmassiz. Men dedim, to'rg'amoqtin ojizdurmen. Filhol Badiuzzamon mirzo mening olimdag'i qozni buzub, to'rg'ab olimda qo'yur. Mundoq ishlarda Badiuzzamon mirzo benazir kishi edi. Oxir suhbatta bir murassa' kamar, xanjar bir chorqab, bir tupchoq manga berdi.

Yigirma kunkim, Hiriya edim, har kunda ko'rmagan yerlarni o'tlanib sayr qilur edim. Ajzchimiz bu sayrlarda Yusuf Ali ko'kaltosh edi. Har qaysi sayrgohqa tushulsa edi, Yusuf Ali ko'kaltosh bir nav' osh tortar edi. Bu yigirma kunda mashhur sayrgohlardan bir Sulton Husayn mirzoning xonaqohidin o'zga yer ko'rumagan shoyad qolmadi ekin, Gozurgoh va Alisherbekning bog'chasi va juvozi kog'az va

Taxti ostona va Pulikoh va Kahdiston va Bog'i Nazargoh va Ne'matobod va Gozurgohning xiyoboni va Sulton Ahmad mirzoning hazirasi va Taxti Safar va Taxti Navoiy va Taxti Bargar va Taxti Hojibek va Shayxi Bahouddin Umar va Shayx Zayniddin va Mavlono Abdurahmon Jomiyning mazorot va maqobirini va namozgohi Muxtor va havzi Mohiyon va Soqi Salmon va Billuriykim, asli Abulvalid ekandur, Imom Fahr va Bog'i Xiyobon va mirzoning madoris va maqobirini va Gavharshodbegimning madrasa va maqbarasini va masjidi jomeni va Bog'i Zog'on va Bog'i Nav va Bog'i Zubayda va Sulton Abusaid mirzo solg'on darvozayi Iroqning toshida Oqsaroy va Po'ron va So'fayi Tirandozon va Charg'olong va Mirvohid va Pulimolon va Hoja Toq va Bog'i Safid va Tarabxona va Bog'i Jahonoro va Ko'shk va Muqavviyxona va Savsanixona va duvozdah burj va Jahonoroning shimol tarafidagi ulug' havz va to'rt tarafidagi to'rt imorat va qal'aning besh darvozasi: Darvozayi Malik va Darvozayi Iroq va Darvozayi Firuzobod va Darvozayi Xush va Darvozayi Qipchoq va Bozori Malik va Chorsuv va Shayxulislomning madrasasi va Maliklarning masjidi jomeyi va Bog'i shahr va Badiuzzamon mirzoning Jo'yi Injil yoqasidagi madrasasi va Alisherbekning o'fturur uylarikim, «Unsiya» derlar, maqbara va masjidi jomeyinikim, «Qudsiya» derlar, madrasasi va xonaqohinikim, «Xalosiya» va «Ixlosiya» derlar, hammom va dorush-shifosinikim «Safoiya» va «Shifoiya» derlar, borini andak fursat-ta sayr qildim.

Sulton Ahmad mirzoning kichik qizi Ma'suama Sultonbegimni onasi Habiba Sultonbegim bu fataratlardin burunroq Xuroson olib kelgon ekandur, bir kun men okamni ko'ra kelganda onasi bila kelib, meni ko'rdi. Ko'rgach-o'q mangaga xeyli mayl paydo bo'ldi. Maxfiy kishilar borib okam bila, yanga bila, Poyanda Sultonbegimni oka der edim, Habiba Sultonbegimni yanga der edim, so'zlashib andoq muqarrar qildikim, mening keyinimcha yanga qizini olib Kobulg'a kelgay.

Meni qishlang deb, Muhammad Burundubek va Zunnunbek bajid sa'y qiladurlar edi, vale qishloq yeri va qishlamoq asbobini yaxshi somon bermaydurlar edi. Qish bo'ldi va oradagi tog'larda qorlar yog'di. Kobul tarafidin hanuz dag'dag'a ko'prak bo'ldi. Bular ne qishloqliq yerni somoy beradur, ne somonliq yerda qishloq. Oxir zarurat bo'ldi, sarikh ayta olmaduk. Qishloq bahonasi bila Hiriydin sha'bon oyining yettisida chiqib, Bodgis navohisida har yurtta birar kun, ikkirar kun tavaqquf qila-qila ko'ch qilur eduk, to viloyatlarga tahsil va ish-kuch uchun borg'onlar kelib qo'shulg'aylar. Ul miqdor maks va darang bo'ldikim, Langari Mir G'lyosdin ikki-uch ko'ch o'tganda ramazon oyi ko'ruildi. Viloyatlarga ish-kuch uchun borg'on yigit-yalangdin ba'zisini kelib qotildi, ba'zisi yigirma kun, bir oydin so'ng Kobulda keldilar, ba'zisi qolib mirzolarga navkar bo'ldilar. Bu jumladayi bir Seydim Ali darbon edi, qolib Ba-diuzzamon mirzog'a navkar bo'ldi.

Xisravshoh navkarlaridin hech kimni oncha rioyat qilmaydur edim, Jahongir mirzo G'aznini tashlab chiqqanda, G'aznini Seydimga berilib edi. O'zining qayn inisi Do'st Angu shayxni G'azniga qo'yub, o'zi cherikka kelib edi. Filvoqe Xisravshoh navkarlarining orasida bu ikki kishidinkim, Seydim Ali darbon bila Muhib Ali qo'rchi bo'lg'ay, yaxshiroq kishi yo'q edi. Seydim yaxshi axloq va atvorliq kishi edi. Qilichg'a mardona kishi edi. Uyida bemajlis va besuhbat emas edi, xeyli saxovati bor edi, ajab kifoyaliq va somonliq kishi edi, zarofat va latofati rangin, ixtilot va hikoyati shirin, xushxulq va harrof va hazzol kishi edi. Aybi bu edikim, guzaro fosiq va mo'g'lim edi, mazhabida inhirofi bor ekandur. Bir nima munofiq shevaroq edi. Ba'zi nifoqini hazlg'a haml qilurlar edi, vale bechize emas ekandur. Badiuzzamon mirzo Hiriyni Shayboqqa oldurub Shohbekka kelganda, mirzo bila Shohbekning orasida nifoq omiz so'z aytqon uchun o'lturub, Xirmand suyig'a tashlatur. Muhib Alining hikoyati vaqoye zaylida kelgusidur.

Langari Mir G'iyosdin o'tib, G'arjistonning yaqa kentlarini bosturub Chaxcharong'a kelildi. Langardin o'tub, G'arjiston navohisida yetganda, payvasta qor edi. Borg'on soyi qor ulug'roq bo'fur edi. Chahcharon navohisida xud qor otning tizidin yuqoriroq edi. Chaxcharon Zunnunbekka taalluq edi. Mirakjon Irdi otliq navkari anda edi. Zunnunbekning oshliqlarini tamom baho berib olduk. Chaxcharondin ikki-uch ko'ch o'tgach, qor asru ulug' bo'ldi:

uzangudin yuqorroq edi, balki aksar yerda otning ayog'i yerga yetmas edi, yana qor doim yog'ar edi. Charoqdondin o'tgach ham qor ko'p ulug' bo'ldi, ham yo'l noma'lum bo'ldi. Langari Mir G'iyos navohisida Kobulg'a ne yo'l bila borurimizni kengashtuk. Men va aksar barin edukkim, qishdur, tog' yo'lida ko'p dag'dag'a va taraddudtur, Qandahor yo'li agarchi bir nima yiroqrokdur vale betaraddud va bedag'dag'a borilur. Qosimbek ul yo'lni yiroqdur, bu yo'l bila borurbiz, deb ko'p jahl qildi, bu yo'lg'a bo'lduk. Bir Sulton otliq peshoyi boshchi edi, qarilig'idinmu yo oldorag'onidinmu yo qorning ulug'lig'idinmu, yo'lni yo'qotti, boshlay olmadi.

Chunki Qosimbek sa'yi bila bu yo'lg'a bo'lub eduk, Qosimbek nomusqa tushub, o'zi va o'g'lonlari-o'q qor tepib yo'l topib, ilgari yururlar edi. Bir kun ham qor asru ulug' bo'ldi, ham yo'l nomushaxxas. Har necha sa'ylar qilduk borolmaduk. Chora topa olmay yonib, bir o'tunluq yerga tushub, yetmish-sekson o'bdon yigitlarni ta'yin qildukkim, izimiz bila yonib, qo'l quyi qishlog'on hazora-mazoradin topib, yo'l boshlag'ali kelturgaylar. Ul borg'onlar kelguncha uch-to'rt kun bu yurttin ko'chulmadi. Borg'onlar ham o'bdon yo'l boshlar kishi kelturmadi. Tavakkul qilib, Sulton Peshoyini ilgari solib, ushbu yo'lg'a-o'q kim topa olmay yonilib edi, bo'lduk. Ul necha kun bisyor tashvishlar va mashaqqatlar tortuldi, andoqkim, muddatul-umr muncha mashaqqat kamroq tortilib edi. Bu matla'ni o'shal fursatta aytili:

*Charxning men ko'rmagan javr-u jafosi
goldimu,
Xasta ko'nglum chekmagan dard-u balosi
goldimu?*

Bir haftag'a yovuq qor tepib, kunda bir shar'iy-bir yarim shar'iydin ortuq ko'chulmas edi. Qor tepar kishi men edim, o'n-o'n besh ichki bila va Qosimbek edi, ikki o'g'li Tengriberdi va Qanbar Ali bila yana ikki-uch navkari ham bor edi. Ushbu mazkur bo'lg'onlar yayoq yurub, qor tepar eduk, har kishi yetti-sekkiz-o'n qari ilgari yurub qor tepar edi. Har qadam qo'yg'onida beligacha, ko'ksigacha bota-bota qor tepar edi. Bir necha qadam borg'ondin so'ng ilgarigi kishining hamli kuyub turar edi, yana bir kishi ilgari o'tar edi, bu o'n-o'n besh-yigirma kishi yayoq qornikim tepar edi, oncha bo'lur edikim, bo'sh otni tortsa bo'lur edi. Bo'sh otni tortilur edi, uzangusig'acha, qoptolig'acha ko'p-ko'p, bota-bota bu bo'sh ot ham o'n-o'n besh qadamcha yo'l yurub toliqur edi. Bu otni yoqag'a tortib, yana bir bo'sh otni ilgari tortilur edi. Ushbu dastur bila biz o'n-o'n besh-yigirma kishi-o'q qor teptuk. Ushbu o'n-o'n besh-yigirma kishining otlari-o'q ilgari tortildi, o'zga tamom o'bdon-o'bdon yigitlar va bek otong'onlar otlaridin ham tushmay, tayyor tepilgan va bosilg'on yo'lg'a kirib, boshlarin quyi solib kelurlar edi. Mahal ul emas edikim, kishig'a taklif va zo're qililg'ay, har kimning himmat va jur'ati bo'lsa bundoq ishlarni o'zi tilab qilur.

Ushbu tariyq bila qor tepib, yoʻl qilib, Inju-kon yerdin uch-toʻrt kunda koʻtali Zarrinning tubiga havoli Qutiy degan havolgʻa kelduk. Ushbu kun gʻarib chopqun bila qor yogʻar edi. Andoqkim, borchagʻa oʻlum vahmi boʻldi. Ul el togʻdagʻi gʻor va kovoklarni havol derlar; bu havolgʻa yetganda chopqun behad tez boʻldi. Ushbu havol qoshida-oʻq tushuldi. Qor uluq, yoʻl yakraha, tepilgan-bosilgan yoʻl bila ham ot baheyla boradur. Kunlar gʻoyat qisqaliqqa ilgarigi kishi yorugʻ choqta havol oligʻa keldilar, namozi shom, namozi xuftangʻacha el kela qoldi. Andin soʻngra turgʻon yerda-oʻq tushdi. Koʻp el ot ustida-oʻq tong otturdi, havol torroq koʻrundi. Men havolning ogʻzida kurak olib, qor kurab, oʻzulgʻa bir takiya miqdori yer yasadim, qorni koʻkugacha qozdim, hanuz yerga yetmaydur edi. Bir nima yelga panoh boʻldi, oʻshanda-oʻq oʻlturdim. Har necha dedilarkim, havolgʻa boring, bormadim. Koʻngulga kechtikim, borcha el qorda va chopqunda, men is-siq uyda va istirohat bila munda borcha ulus tashvish bila mashaqqatta, men munda uyqu bila farogʻatda. Muruvvattin yiroq va hamjihatlidindin qiroq ishdur. Men ham har tashvish va mashaqqat boʻlsa koʻrayin, har nechuk el toqat qilib tursa turayin, bir forsi masal bor: «Marg bo yoron surast».¹ Oʻshandoq chopqunda qozgʻon, yasagʻon chuqurda oʻlturdum, namozi xuftangʻacha qor oncha chopqulab yogʻdikim, men

¹ «Doʻstlar bilan birgalikdagi oʻlim toʻyidir».

engashib o'lturub edim, orqamg'a va boshimg'a va quloqlarimning ustiga to'rt ellik qor bor edi.

O'shul kecha qulog'img'a sovuq ta'sir qildi. Namozni xuftanda g'orni yaxshi mulohaza qilg'onlar qichqirishtilarkim, havol asru keng havoldur, bu elga tamom yer bor, muniki eshitim, ustumdagi qor-borni silkib, havolg'a keldim, havol navohisidag'i yigitlarni ham tiladim: qirq-ellik kishiga farog'at bila yer paydo bo'ldi, ozuq va yaxni va qovurdoq va har nimakim hozir edi, har kimning kim bor edi, kelturdilar. Mundoq sovuq va qor va chopqunda ajab issiq va amin va farog'atliq yerga kelduk.

Tonglasig'a qor va chopqun turdi. Erta ko'chub, o'shul dastur bila qor tepib, yo'l yasab, dobon ustig'a chiqtuk. Yo'l xud qirlab yuqqori chiqar ekandur. Ko'tali Zarrin der emishlar. Biz yuqqori chiqmay dara quyi-o'q induq, dobondin tubiga yetguncha kun kech bo'ldi, dara og'zida-o'q qo'nduk. Ul aqshom ko'p qattiq sovuq edi, asru ko'p mashaqqat va suhbat bila ul aqshomni o'tkarduk. Ko'p kishining ilik-oyog'in sovuq eltti. Kepakning ayog'in, Suyunduk turkman iligin, yana Axiyning ayog'in o'shul kecha sovuq eltti.

Ertasiga dara quyig'a-o'q yuruduk, bovujud yo'l bu emas ekanini bilib, ko'rub, tavakkul qilib, dara quyi-o'q yuruldi, yamon uchma, sekirtma yerlardin tushuldi. Kecha namozni shom edikim, daraning og'zig'a chiqtuk.

Hech qari-uluq yod bilmaskim, bu ko'talning mundoq uluq qori bor erkonda kishi ubur etmish bo'lg'ay, balki bu faslda ma'lum emaskim,

bu ko'taldin ubur etmak kishining ko'ngliga yetmish bo'lg'ay. Agarchi ulug' qordin necha kun heyli tashvish ko'rduk, vale oxir ushbu ulug' qor sababidin o'zumizni manzilg'a yetkurduk. Nechunkim agar mundoq ulug' qor bo'lmasa, andoq berah uchma va sekretmadin kim o'ta olg'ay edi, balki agar ulug' qor bo'lmasa avvalgi uchmada-o'q elning ot va tevasi tamom qolg'ay edi.

*Har neku bade ki dar shumor ast,
To dar nigari salohi kor ast¹.*

Namozi xuftan bo'lub edikim, Yaka o'langga kelib tushtuk. Yaka o'lang eli biz kelib tushganda-o'q xabar toptilar. Issiq uylar, semiz qo'ylar, otqa o't va bo'rsu benihoyat, o't yoqmoqqa o'tun va tezakka ne had va ne g'oyat, andoq sovuq va qordin qutulub, mundoq keng va issiq uylar topmoq, andoq mashaqqat va balodin xalos bo'lub, mundoq qalin non va semiz qo'ylar topmoq huzuredurkim, mundoq mashaqqatlarni ko'rganlar bilur, farog'atedurkim, mundoq balolar kechurganlar (bilur). Xotirjam' va ko'ngul tinch bir kun Yaka o'langda tavaqquf qilduk. Yaka o'langdin ko'chub, ikki yig'och yo'l kelib tushuldi. Tonglasi ramazon iydi bo'ldi. Bomiyon bila yurub, Shibartu ko'talidin oshib, Jinglak yetmay tushuldi. Turkman hazorasi ko'chlari va mollari bila yo'limizning ustida o'q qishlag'on ekanur. Bizdan aslo xabarlar yo'q. Tinglasi ko'chub kelurda bularning og'il va ola-

¹ Har bir yuzaga kelgan yaxshi-yomonlikni tekshirib qarasang, turmush uchun xayriyatlidir.

chuqlarining orasig'a kela tushtuk. Ikki-uch bo'lak og'il tolon va torojg'a bordi, o'zgalari uy va ro'zg'orni solib, o'g'lon-ushog'in olib, tog'ga torttilar. Ilgaridin xabar keldikim, bir necha hazora cherik elini olini to'sub, o'qlashib kishini o'tgali qo'ymaydurlar. Bu xabar kelgach, ildam-o'q yurudum, yetib ko'rdum ersa, tangi ham emas, bir necha hazora bir tumshuqdin kelib o'q qo'yadurlar, pul tir yigilib turubtur o'bdon-o'bdon yigitlardek.

She'r:

*Qarosin yog'ining ko'rubturlar,
Dangu hayron boqib turubturlar.
Men yetib tez ul sari yurudum.
Yuru-yuru deb, ilgari yurudum.
G'arazim elni tez qilmoq edi,
Yog'iy bila sitez qilmoq edi.
Tez etib elni, torttim o'zni,
Hech kim ham eshitmadi so'zni,
Yo'q edi, jiba-u kejim yaroq,
Menda bor erdi ming o'q-u sadoq,
Turdum ersa tamom el turdi,
Yog'iy go'yo bularni o'lturdi.
Sen navkarkim, qilursen oning uchun,
Yarog'i bir mahalda joning uchun
Yo'qki navkar turub begi yurug'ay,
Navkar osuda-vu begi churugay.
Navkarekim, bu taurdur ne osiq,
Ne ishingga yarar ne oshqa qotiq,
Oxir ot soldim, ilgari yurudum.
Surubon tog'ga yuqqori yurudum,
Meni ko'rub yurudi el dog'i,*

Qoldi eldin keyinga qo'rqog'i.
Yetibon tez tog'ga tormoshtuq,
O'qiga boqmayin yurub oshtuk,
Gahi ottin tushub, gahi otliq,
Yurubon ilgariga jur'atliq,
Yog'iy ham tog'din o'q qo'yar edi,
Zo'r ko'rgach solib yuruberdi.
Tog'ga chiqtuk hazorani qovlab,
Qiy-r-u qo'lda kiyik kibi ovlab,
Dorig'onni kiyikdek otquladuk,
Talabon mol-u qo'yini bo'laduk,
Qiribon turkman hazorasini,
Ayladuk band kishi qorasini
Er atog'liqni dastigir ettuk,
Ahlu avlodini asir ettuk.

Hazora molidin men ham bir pora o'y yig'ish-turdum. Yerak tag'oyig'a topshurub, o'zum ilgari o'tub, qirlar bila, ko'llar bila yurub, hazoralarning ot va qo'ylarini surub, Temurbek langarig'a kelturub tushtuk. Turkman hazorasining o'n to'rt-o'n besh sarkashi va rahzan ulug'laridin ilikka tushub edi. Xayolimda bu edikim, tushgan yurtta turluk-turluk azob va uqubat bila o'lturgaylarkim, jami' rahzan va sarkashlarg'a ibrat bo'lg'ay. Yo'lda Qosimbekka yo'luqub, bemavqi' tarahhum qilib, xalos qilibtur.

Zamini sho'r-u sunbul bar nayorad,
Dar o' tuxmi amal zoye magardon.

*Nako'yi bo badon kardan chunonast,
Ki band kardan bajoyi nekmardon.¹*

Asirlarni ham tarahhum qilib, ozod qilildi. Ushbu turkman hazorasini chopqonda eshitildikim, Muhammad Husayn mirzo dug'lat yana Sulton Sanjar barlos va jami' Kobulda qolg'on mo'g'ullarni o'zlariga tortib, Mirzoxonni podshoh qilib, Kobulni qababturlar. El orasida bu xabarni solibturlarkim, Badiuzzamon va Muzaffar mirzo podshohni tutub, Hiriyning qal'ayi Ixtiyoriddinig'akim, holo Olaqo'rg'ong'a mashhurdur, chiqoribturlar. Kobul qo'rg'onida Mullo Boboyi Pashog'ariy xalifa va Muhib Ali qo'rchi va Ahmad Yusuf va Ahmad Qosim boshliqlar edi, bular yaxshi bordilar. Qo'rg'onni mazbut va mustahkam qilib asradilar.

Temurbek langaridin Muhammad Andijoniy otliq Qosimbekning navkari To'qboydin Kobuldog'i beklarga bu yerga kelganimizning kayfiyati bitib yiborduk. Andoq muqarrar bo'ldikim, G'urband tangasidin chiqib, alarning ustiga ilg'ag'umizdur. Nishona bu bo'lsunkim, Manor tog'idin o'tgach-o'q, ulug' o't yondurg'umizdur. Sizlar ham arkta eski ko'shkning ustidakim, holo xazinadur, ulug' o't yondurungiz, to bilgaybizkim, bizning kelganimizni bilibsizlar. Biz bu soridin yetgach, siz ichkaridin chiqib, iliginizdin kelurini taqsir qilmang. Bu so'zlarni butturub, Muhammad Andijoniyin yiborildi.

¹ Sho'r tuproq yerda sunbul bitmaydi, unday yerda umid urug'ini nobud qilma. Shunga o'xshash, yomonlarga yaxshilik qilish va yaxshilarga yomonlik qilish ham o'rnida bo'lmaydi.

Tonglasi Langardin otlanib, Ushtur shahr to'g'risig'a tushuldi, andin erta otlanib, tushqa yovuq G'urband tangisidin chiqib, ko'pruk boshida tushduk. Ot sug'orib, otni tindurub, namozi peshin ko'pruk boshidin otlanduk. Tutqovulg'acha qor yo'q edi. Tutqovuldin o'ta borg'on sari qor ulug'roq bo'ldi. Zamma yaxshi bila Manor orasida andoq sovuq edikim, mud-datul-umr oncha sovuq kam ko'rulub edi.

Ahmad yasovul bila Qora Ahmad yurtchini dag'i Kobuldag'i beklarga yiborildikim, o'shul miod bila kelduk, voqif va mardona bo'lung.

Manor tog'idin o'tub, domanada tushub, sovuqdin betoqat bo'lub, o'tlar yokdurub isinduk. Agarchi o't yondurur mahal emas edi, sovuq zarbidin betoqat bo'lub, o't yonduruldi. Tong ota yovushub edikim, Manor tog'ining domanasidin otlanduk. Manor bila Kobulning orasida qor otning tizida bor edi. Qotqon bo'lub edi, yo'ldin chiqqon kishi tashvish bila yurur edi. Bu oraliqni tamom chuburub kelduk, bu jihattin farz vaqtida Kobulg'a baheyla yettuk. Bibimohro'yg'a yetardin burunroq arktin ulug' o't chiqti, ma'lum bo'ldikim, xabardor bo'lmishlar. Sayid Qosimning ko'prug'iga yeta Shirim tag'oyi bila burung'or kishisini Mullo boboning ko'prugi sari yiborildi. Juvong'or va g'ul Bobo Lo'li yo'la bila bo'lduk. Ul mahalda Xalifaning bog'ining o'runida bir kichikroq boqcha edi. Ulug'bek mirzo solib edi, Langar yo'sunluq. Agarchi daraxt va yig'ochi qolmaydur edi, vale muhavvatasi bor edi. Mirzoxon anda o'lturub edi.

Muhammad Husayn mirzo Ulugʻbek mirzo solgʻon Bogʻi Bihishtta edi. Men Mullo Bobo bogʻining koʻcha tarafidagi goʻristongʻa yetib edimkim, tezliq qilib ilgari bogʻgonlarni urub, yondurub, bizga tiqtilar. Ilgari borib Mirzoxon oʻlturgʻon havligʻa kirganlar toʻrt kishi edi: bir Sayid Qosim eshik oqo edi, yana bir Qanbar Ali Qosimbek edi, yana bir Sherquli qorovul moʻgʻul edi, yana bir Sulton Ahmad moʻgʻul edi, Sherqulning jamoatidin edi.

Bu toʻrt kishi yetgan bila betahoshi-oʻq Mirzoxon oʻlturgʻon hanligʻa kirarlar, gʻavgʻo boʻlur. Mirzoxon bir otqa minib qochib chiqar, Abulhasan Qulbegining inisi Muhammad Husayn ham Mirzoxongʻa navkar boʻlub edi, bu toʻrt kishidin Sherqulini chopib yiqor, boshini kesar mahalda xalos boʻlur, bu toʻrt kishi qilich yeb, oʻq yeb, yaraluq boʻlub, mazkur boʻlgʻon yerda bizga tiqilib keldilar. Tor koʻchada otliq el tiqildilar, turdilar, ne ilgari yuruy oladurlar, ne keyinga yona oladurlar.

Men yovugʻumdagi yigitlarga dedimkim: tushub zoʻrlang, Doʻst Nosir, Xoja Muhammad Ali kitobdor, Bobo Sherzod, Shoh Muhammad¹ va yana bir necha yigit tushub yurub oʻq qoʻydilar. Yogʻiy qocha berdi, qoʻrgʻondagʻilarni koʻz tuttuk, ish vaqtida yetisha olmadilar, yogʻiyi tebratgandin soʻng birin-ikin chopishib kela boshladilar. Hanuz Mirzoxon oʻlturgʻon chorbogʻqa kirmaydur edimkiy, qoʻrgʻondagi eldin Ahmad Yusuf, Sayid Yusuf keldi, mening bila hamroh-oʻq Mirzoxon oʻlturgʻon bogʻga kirduk. Koʻrdum, Mirzoxon yoʻqtur, qochib chiqib-

¹ L. b. – Shoh Mahmud.

tur, tez-o'q yondim, Ahmad Yusuf mening so'ngimcha edi. Chorbog'ining eshigidin Do'st Saripuliy piyodakim, Kobulda mardonlig'i jihatidin rioyat qilib, kutvolliq mansabini berib, Kobulda qo'yulub edi, yalang'och qilich ilikda kirib keldi. Manga-o'q tiqilib keladur, men jiba kiyib edim, g'arbichi bog'lamaydur edim, dubulg'a ham kiymaydur edim. Bir necha qichqirar edim: «Hay, Do'st, hay Do'st», deb, Ahmad Yusuf ham qichqirdi. Men sovuqqa va qorg'a ko'nganimdin-mu, meni tanimadi yo urush iztirobidinmu edi, betahoshi yalang bozumg'a-o'q qilich soldi, tengri inoyati edi, sari mo'ye kor qilmadi.

*Agar teg'i olam bijunbad zi joy
Naburrad rage to nahohad Xudoy...¹*

Andin chiqib Muhammad Husayn mirzo o'lturg'on Bog'i Bihishtg'a keldim, Muhammad Husayn mirzo qochib chiqib, yoshing'ondur. Muhammad Husayn mirzo o'lturg'on bog'channing raxnasida yetti-sekkiz o'qluq, yoyliq kishi turubtur, men bu kishilarning ustig'a otimni poshna qilib yettim, to'xtay olmadilar, qocha berdilar, men yetib, biriga qilich soldim, andoq yumalanib bordikim, tasavvur qildimkim, magar boshi uchub ketti. O'ta chiqtim, men qilich solg'on kishi Mirzoxonning ko'kaltoshi Tulak ko'kaltosh ekan. Qilich egniga tushgan ekan. Muhammad Husayn mirzo o'lturg'on uylarning eshigiga yetganda tom

¹ Agar olam tig'i o'z joyidan qo'zg'alsa, Xudo xohlamasa biror tomirni ham qirqolmaydi.

ustidin bir mo'g'ulkim, mening navkarim edi, men ani tanir edim, eshiklik, tuvurluq yerdin tortti o'qni yuzumga, ul tarafdin, bu tarafdin hay-hay, podshohdur deyshtilar, o'qni yondurub solib qochti, o'q otmoqtin ham ish o'tub edi. Mirzosi, sardorlari qochti, giriftor bo'ldi, kim uchun o'q otar ushbu yerda.

Sulton Sanjar barlosnikim, rioyat qilib Ningnahor tumanini anga inoyat qilib edim, ul ham bu fitnada bular bila sharik edi, tutub bo'yini bog'lab kelturdilar, muztarib bo'lub qichqiradurkim: – Hay menda ne gunoh. Gunoh mundin ortuq bo'lurmukim, bu jami' bila hamjihat va hammashvaratlardin bir ulug'rog'i sen. Chun xon dodamning validasi Shohbegim hozarzdasi bo'lur edi, buyurdumkim, mundoq bezzatona kezdur mang, o'lum yo'qtur.

Mundin chiqib Ahmad Qosim ko'hburni va nekim qo'rg'ondag'i beklardin biri ul edi, bir pora yigitlar bila Mirzoxonning so'ngicha yibordim. Ushbu Bog'i Bihisht yonida Shohbegim va xonim uylar yasab o'lturub edilar, bu bog'din chiqib, Shohbegimni va xonimni ko'ra bordim, shahr eli qora tayoq hujum qilibturlar. Go'sha va kanorda el tutmoqqa, mol talamoqqa ilik qo'yubturlar, kishilar qo'yub barcha elni urub-surub chiqorildi.

Shohbegim va xonim bir uyda o'lturub edilar. Doimg'i yerda tushub, kelib burung'idek adab va ta'zim bila yurub ko'rushtum, Shohbegim va xonim behad va beqiyos muztarib va munfail va sarafganda va xijil bo'lubturlar, ne ma'qul uzr ayta oladurlar, ne mushfiqona so'rmoq tarhin

sola oladurlar. Bulardin tamaim mundoq emas edi. Bu jam' bir badbaxtliq maqomida bo'lsalar edi, andoq emas edikim, begimning, xonimning so'zlariga quloq solmag'aylar edi. Mirzoxon xud shohbegimning tuqqon nabirasi kecha va kunduz begim qoshida bo'lur, so'zlariga kirmasa, Mirzoxonni qo'ymay o'zlarining qoshida saqlasa xud bo'lur edi.

Necha qatla ham kim, zamona nohamvorlig'idin va davron nosozkorlig'idin va taxt va mulk va navkar va savdardin ayrilib, alarg'a iltijo etdim, onam ham bordi, hech nav' rioyate va shafqate ko'rmaduk. Mening inim Mirzoxonning va onasi Sulton Nigorxonimning ayn va ma'mur viloyatlari bor edi, men va onam viloyat xud tursun, bir kent va bir necha qush egasi bo'la olmaduk. Mening onam Yunusxon qizi va men nabirasi emasmu edim. Ul tabaqadin har kimki mening sarvaqting'a tushti, iligimdin kelgancha tuqqonliqni va yaxshiliqni bajo kelturdim, nechukkim Shohbegim keldilar. Pamg'onnikam, Kobulning a'lo yerlaridindur, berdim. Yana har nav' farzandliq va xizmatgorliqta taqsire qilmadim.

Sulton Saidxon Koshg'ar xoni besh-olti yayoqyalang bila keldi, tuqqon inilarimdek ko'rub Lang'on tumanlaridin Mandrovar tumanini berdim. Shoh Ismoil Shayboniyxonni Marvda olg'onda Qunduzg'akim, o'ttum, Andijon viloyati mening sori boqib, ba'zi dorug'alarini qavlab, ba'zi yerlarini berkitib, manga kishi yibordilar. Men Sulton Saidxong'a bori navkarlarimni topshurub, ko'mak qo'shub, zodu bud Andijon viloyatini bag'ishlab, xon qilib yibordim.

Bu tarixgacha ham ul tabaqadin har kimki keldi, o'z tuqqonlarimdin o'zga ko'rmadim. Nechukkim Chin Temur sulton va Esan Temur sulton va To'xta¹ sulton va Bobo sulton bu tarixda mening qoshimdadurlar, barchani o'z tuqqonlarimdin yaxshiroq ko'rub, rioyat va shafqatlar qilibturmen.

Bu bitilganlardin g'araz shikoyat emas, rost hikoyatturkim, bitibturmen. Bu mastur bo'lg'onlardin maqsud o'zning ta'rifi emas, bayoni voqeyi bu edikim, tahrir etibturmen. Chun bu tarixda andoq iltizom qililibturkim, har so'zning rostini bitilgay va har ishning bayoni voqeyini tahrir etilgay. Lojaram ota-og'adin² har yaxshiliq va yamonlig'kim shoye edi, tahrir qildim va qarindosh va begonadin har ayb va hurarkim bayoni voqe edi, tahrir ayladim. O'qug'uvchi ma'zur tutsun, eshitguvchi taarruz maqomidin o'tsun.

Mundin qo'pub Mirzoxon o'lturg'on chorbog'qa kelib, viloyatlarga va aymoq va oxshomg'a fathnomalar yiborildi. Andin so'ng otlanib arkka keldim, Muhammad Husayn mirzo xonimning to'shakxonasig'a qo'rqunchdin qochib kirib, to'shakning bo'g'jamasig'a o'zini bog'latibtur. Qo'rg'ondag'ilardin Mirim devonni va yana ba'zini qo'ydukkim, bu uylarni axtarib, Muhammad Husayn mirzoni topib kelturgaylar. Xonimning eshigiga kelib, durushtroq, beadabonaroq so'zlar aytibtur. Bore baharxol Muhammad Husayn mirzoni xonimning to'shak-

¹ Q. b. - To'xta Bug'a.

² Q. b. - ini-og'adin.

xonasidin topib, arkta mening qoshimg'a kelturdilar. Men burung'idek-o'q ta'zim qilib qo'ptum, xeyli ham durusht yuzga kelmadim. Muhammad Husayn mirzokim mundoq zisht va shani' harakatga iqdom qildi va bu nav' sho'r va fitna angiz va bunyodig'a ehtimom ayladi, agar pora-pora qilsam, yeri bor edi, turluk-turluk azob-u uqubat bila o'lmakka sazovor edi, chun orada bir nav' urug'luq bo'lub edi, mening tuqqon xolam Xo'b Nigorxonimdin o'g'lonlari va qizlari bor edi, bu huquqni yod qilib, Muhammad Husayn mirzoni ozod qildim. Xuroson sari ruxsat berildi, bu bemuruvvat va haqnoshunos kishi mening mundoq yaxshilig'imnikim, joni ni bag'ishladim, billkul unutulub, Shayboniyxon qoshida mendin g'iybatlar va shikoyatlar qilib-tur. Oz fursat o'tmadikim, Shayboniyxon-oq o'lturub, jazosig'a yetkurdi.

*Tu bad kunandayi xudro ba ro'zgor supor,
Ki ro'zgor turo chokarest kina guzor.¹*

Ahmad Qosim ko'xbur va yana ba'zi bir necha yigitnikim, Mirzoxonning so'ngicha yiborilib edi, Qarg'a buloq pushtalarida Mirzoxong'a yetarlar, qocha ham olmas, ilik tebratguncha quvvat va jur'ati ham yo'q edi, olib keldilar. Men eski devonxonaning sharqi shimoliy sorig'i ayvonida o'lturub edim. Men dedimki: - Kel, ko'rushaling. Oldarag'ondin yukunub kelguncha ikki qatla yiqildi. Ko'rushgandin so'ng,

¹ Sen o'zingga yomonlik qilganni turmushga topshir, turmush sening o'ch oluvchi xizmatkoringdir.

Ushbu yil Nosir mirzoning va tarbiyatkar-dalarining ixtilot va maoshidin Badaxshon beklarikim, Muhammad ko'rchi va Muborakshoh va Zubayr va Jahongir bo'lg'ay, ranjida balki yog'iy bo'ldilar. Barcha ittifoq qilib, cherik tortib, Ko'kcha suyining Yaftal va Rog' sori tuzi bila otliq-yayoqni yig'ib, yasob pushtalar bila Xamchonning yovug'ig'a keldilar. Nosir mirzo va qoshidag'i betajriba yigitlar andisha va mulohaza qilmay, bular bila urushqa pushtalarda kelib urushurlar. Yeri burtog'ya yayog'i qalin bir-ikki qatla ot solg'onda to'xtab urubki yondururlar, bo'ldura olmaslar, qocha berurlar. Badaxshoniylar Nosir mirzoni bosib bo'lg'on tavobi' va lavohiqini tolon-toroj qildilar.

Nosir mirzo yovug'idag'ilari bila bosturub, talatib, Ishkamish va Norin bila Qelogoy kelib, Qizil suv yuqqori-o'q yurub, Obdara yo'li bila kirib, Shibartu ko'talidin oshib, Kobulg'a yetmish-sekson talatg'on, oldurg'on, ochyalang'och navkar-savdari bila keldi. Ajab qodiredur, ikki-uch yil mundin burun Nosir mirzo tamom el va ulusni ko'churub surub, Kobuldin yog'iyqib chiqib, Badaxshonga yetib, dara va qo'rg'onlarini berkitib, ne xayollar bila yurur edi burung'i qilg'onlaridin sarafganda va xijil ul nav' ayrilg'onlaridin sharmanda va munfail bo'lubtur. Men dog'i hech nav' kelmadim. Yaxshi so'rub-istab inifoldin chiqordim.

VAQOYEYI SANAYI SALOSA ASHARA VA TIS'A MIA¹

G'iljini chopmoq davdag'asi bila Kobuldin o'tlanildi. Saridehga tushganda xabar kelturdilarkim, Masht va Sekonadakim, Saridehdin bir yig'och bo'lg'ay, qalin Mahmand g'ofil o'tturubtur. Bo'lg'on beklar va yigitlar barin bo'ldilarkim, Mahmandni chopmoq kerak. Men dedimkim: Ravo bo'lg'aymu, ne azimat bila o'tlang'aybiz, maqsadqa yetmay o'z raiyatimizni-o'q chopib yong'aybiz. Bu ish mumkin emas.

Saridehdin o'tlanib, Kattavoz tuzini kecha bila qorong'uda tay qilduk. Qop-qorong'u kecha, tup-tuz yer, ne tog' va pushta ko'runadur, ne yo'l va iz ma'lum bo'ladur, hech kim boshlay olmadi. Oxir men-o'q boshladim, bir-ikki qatla bu navohig'a yetib edim, o'shul qiyos bila qutbni o'ng yag'rinimg'a olib tebradim, tengri rost kelturdi. Rost Qiyoqtu va Ulobatu rudig'a-o'q kelildikim, G'ilji o'tturg'on yerg'akim, Xoja Ismoil sariyati bo'lg'ay, ushbu rudtin yo'l chiqar. Ul ro'dta tushub, o'zumiz va otimiz bir zamon uyuxlab, dam olib, tong otqonda andin tebraduk.

Oftob chiqib edikim, bu pushtalardin va qo'llardin tuzga chiqg'och, G'iljining qorasimu yo tutunimu ko'rundi. Yoxud cherik eli tamom chopqun ko'ydilar, bir-ikki kuruhgacha chopib, kishini, otni o'qlab, elni tiydim mundoq jilavrez besh-olti ming chopqun qo'yg'on cherikning tiy-

¹ To'qqiz yuz o'n uchinchi (1507–1508) yil voqealari.

mogʻining xeyli ashkoli¹ bor, tengri rost kelturdi, cherik tiyildi. Yana bir sharʻiygʻa yovuq yoʻl kelib, afgʻonning qorasini koʻrub, chopqun qoʻyuldi, qalin qoʻy bu chopqunda tushti. Hech chopqunda muncha qalin qoʻy tushgan emas edi.

Molni yondurub tushgandin soʻng, har tarafdin boʻlak-boʻlak kelib, tuzga tushub, urush angizi qildilar. Bir boʻlakni baʻzi beklar va ichkilar borib, ariq olib, tamom oʻlturdilar. Yana bir boʻlagini Nosir mirzo otlanib, borisini qirdi. Oʻlgan afgʻonlarning boshidin kalla manora qoʻporildi. Doʻst piyodan kutvolningkim oti mazkur boʻlub edi, oyogʻiga oʻq tegib, Kobulgʻa kelganda oʻldi. Xoja Ismoilin koʻchub, Ulobatugʻa kelib tushduk. Munda farmon boʻdikim, bazi beklar va ichkilar yurub, ehtimom qilib, bu gʻanoyimning xumsini olgʻaylar. Qosimbek va baʼzilardin rioyat qilib, xumsin olmaduk. Qalangʻa kelgan xums oʻn olti ming qoʻy chiqtikim, sekson mingning xumsi boʻlgʻay. Talaf boʻlgʻon va rioyat qilgʻon bila bir lak qoʻyda hech soʻz yoʻq edi.

Ul yurttin erta bila otlanib, Kattavoz² tuzida ov uchun charga qoʻyuldi. Bu dashtning hamesha kiyik va quloni semiz boʻlur va koʻp boʻlur³, charga orasigʻa qulon va kiyik qalin kirdi. Qalin qulon va kiyik oʻlturdilar. Ov asnosida bir qulonning soʻngicha choptim, yovuqroq yetib, bir oʻq urdum, yana bir oʻq ham urdum, vale bu zaxmlar yiqilgʻucha kori emas edi. Bu ikki

¹ Q. b. – emgagi.

² L. b. – Kattavod.

³ L. b. – bu ibora tushgan.

zaxmning zarbidin burungi yugurishidin ohis-taroq bo'ldi. Poshna qildim, yaqin sig'inib kelib, ikki qulog'idin keyingi chakkasiga-o'q choptim, kekirtaki-o'q ilinib qoldi, qilichim xeyli yaxshi kesti. G'arib semiz qulon edi, qazisi kishining bir qarishidin juz'i kamrak bo'lg'ay edi. Shirim tag'oyi va ba'zi Mo'g'uliston kiyigini ko'rganlar taajjub qilib, dedilarkim: Mo'g'ulistonda ham muncha semiz kiyik kam ko'rubturbiz. Bukun ham yana bir qulon ottim, ushbu ovda tushgan qulon va kiyik aksari semiz edi, vale hech qay-sisi men o'lturg'on quloncha semiz emas edi.

Bu chopqundin yonib kelib, Kobul tush-tuk. O'tgan yilning oyog'ida Shayboqxon Samarqanddin Xuroson doiyasi bila cherik otlandi. Shoh Mansur baxshi... namak haromkim, Andxud anda edi, Shayboqxong'a kishilar yiborib, Shayboqxonni o'tlanmoqqa tezrak qilib-tur, Andxud navohisig'a kelgonda bu... o'zbekka kishi yiboribturmen deb, e'timod qilib, yasanib, boshig'a o'tag'a sanchib, peshkash tortiq olib chiqorda boshsiz o'zbek tush-tushidin rez qilib¹, bu gandani va tortiq va peshkash va kishi-korasini tirt-pirt qilibturlar.

Badiuzzamon mirzo va Muzaffar mirzo va Muhammad Burunduq barlos va Zunnun arg'un bori Boboxoki navohisida cherik bila o'lturub edilar, ne urushmoqqa ozim edilar, ne qo'rg'on berkitmakka jozim, hech ishni mushaxxas qilmay, hech ishning qilurin muqaqqaq, bil-may sarosimavor o'lturub edilar. Muhammad Burunduqbek hisob bilur kishi edi, ul de-

¹ Q. b. – tig'ilishib.

gandurkim: Muzaffar mirzo va men Hiriyning qo'rg'onini berkitaling¹. Badiuzzamon mirzo bila Zunnunbek Hiriyning atrof va novahisidagi tog'larga borib, Sistondin Sulton Ali arg'unni, Qandihor va Zamini Dovardin Shohbekni va Muqimni cheriklari bila kelturub o'zlariga qo'shsunlar. Nekim bo'lg'on hazora va nakdariy cheriklarini yig'ib mustaid va mukammal yursunlar.² G'animning xud tog'ga bormog'i mushkildur. Tashqarig'i cherikning dag'dag'asidin qo'rg'on ustiga ham kela olmas, xo'b etibdur. Hisobliq ra'y xotirig'a yetibtur. Zunnun arg'un agarchi mardona kishi erdi, vale xasis va moldo'st va ra'y va hisobdin yiroqroq va kovokrak va telbarak kishi edi. Bu fursatlardakim, Hiriya da og'a-ini shirkat bila podshoh edilar. Badiuzzamon mirzo qoshida bu sohibi ixtiyor edi, nechukkim mazkur bo'ldi, moldo'stlig'i jihatin Muhammad Burunduqning shahrda turmog'ig'a rozi bo'lmadi, o'zi shahrda turar xayol qildi, ani ham o'xshata olmadi! Aning go'lluk va telbalig'ig'a hech nima mundin yaxshiroq dalil bo'lurmikim, zarroq va tammo' elning yolg'on va xushomadin qabul qilib, o'zini fazihat va rasvo qildi.

Tafsili budurkim, Hiriya da mundoqkim ixtiyor va e'tibor bo'ldi, bir necha shayx va mullo anga kelib derlarkim, Qutb bizning bila ixtilot qiladur, sanga «Hizabrulloh» laqab bo'ldi, sen o'zbekni olg'ungdur. Bu so'zga inonib, bo'yig'a fo'ta solib, shukrlar qilibtur. Ushbu jihatlardin

¹Q. b. – Hiriya qal'asini mazbut qilurmiz.

²Q. b. – cheriklari bo'lsa yirishturub, Ko'histonda mustaid va mukammal bo'lub tursunlar.

Muhammad Burunduqning ma'qul ra'yi bila amal qilmay, ne qo'rg'on ishini mazbut qilib-tur, ne urush yarog'ini marbut, ne qorovul, ne chig'dovulkim yog'ni keluridin ogoh qilg'ay, ne yasolda tartib va nasaqkim yog'iy kelsa urush xotirxoh qilg'ay.

Shayboqxon muharram oyida Murg'obdin o'tub, Serkoy¹ navohisig'a yovuq yetganda-o'q xabardor bo'lurlar, sarosima bo'lub, hech ish qila olmaslar, ne elni yig'a olurlar, ne yasolni qila olurlar, tushluk-tushidin yuruy berurlar. Zunnun arg'un ushbu xushomadg'a g'arra bo'lub, qirq-ellik ming o'zbekning o'trusida yuz-yuz ellikcha kishisi bila Qarorabotta turar. Qalin qish yetgan bila-o'q olib tebrarlar. Zunnunni olib, o'lturub boshini kestilar.

Mirzolarning ona va egachi-singil va haramlari va xavotinlari tamom qal'ayi Ixtiyoriddinda edikim, Olaqo'rg'ong'a mashhurdur, mirzolar kech shahrg'a yetarlar, yarim kechagacha ot-larini tindurub, uyuxlarlar, sahar vaqti solib tebralar. Qo'rg'on berkuturni xud xayol qila olmaslar. Muncha fursat va furjada ona va egachi-singilni va ko'ch va o'g'lon-ushoqni ham olib chiqmay, o'zbekning asirligiga tashlab qo-charlar.

Poyanda Sultonbegim, Xadichabegim boshliq Sulton Husayn mirzoning haramlari va Badiuzzamon mirzoning va Muzaffar mirzoning haramlari va o'g'lon-ushoqlari nekim bo'lg'ay, mirzolarning xazoyin va baytutoti tamom Olaqo'rg'onning ichida edi, qo'rg'onni xotirxoh

¹ Q. b. - Sarokat.

mazbut va saranjom qilmaydurlar edi. Qo'rg'on ko'magi(ga) yigitlar ham yetmaydurlar edi. Oshiq Muhammad arg'un Mazidbekning inisi yayoq cherikdin qochib kelib qo'rg'ong'a kirdi. Yana Alixon Amir Umarning o'g'li edi¹, yana shayx Muhammad Abdullo bakavul edi, yana Mirzobek Kayxisraviy edi, yana Miraki ko'r devon edi. Shayboqxon kelgach, ikki-uch kundan so'ng shayxulislom va akobir ahd va shart qilib, tosh qo'rg'onning kalidlarini olib bordilar. Qo'rg'onni bu Oshiq Muhammad o'n olti-o'n yetti kun saxladi, tashqaridin Ot bozori tarafidin naqb solib, o't urub bir burjini uchurdilar. Qo'rg'on eli dast-pocha bo'lub, qo'rg'onni saxlay olmadilar, oldurdilar.

Shayboqxon Hiriyni olg'andin so'ng, bu podshohlarning zoh va zodi bila yamon maosh qildi, ne yolg'uz bu jam' bila, bori xaloyiq bila. Rustoyi va nodida kishi, besh kunluk o'tar dunyo uchun mundoq yamon ot qozg'ondi. Shayboqxondin noshoyist harakot va afolekim Hiriya sodir bo'ldi, avval bukim chirki dunyo uchun Hadichabegimni Shoh Mansur baxshi ko'targuchiga tutturub, turluk-turluk qiyinlar qildurdi. Yana Shayx Purondek vali aziz kishini mo'g'ul Abdulvahhobg'a tutturdi, bir o'g'lini yana bir kishiga tutturdi, yana jam'i ahli she'r va ahli tab'i Mullo Binoiyg'a tutturdi.

Xuroson zurafosidin bu moddada bir qit'a mashhur bo'ldi:

¹ Q. b. - Yana Alixon Ko'hburning o'g'li Umarbek edi.

*Ba juz Abdullohi kerī xar imro'z
Nadida hech shoir ro'yi zarro.*

*Binoyi zar tama' dorad zi shoir
Magar xohad giriftan kerī xarro.¹*

Yana Muzaffar mirzoning Xonzodaxonim otliq haramini Hiriyni olg'och-o'q iddat chiqorig'a boqmay, nikoh qilib oldi. Yana Qozi Ixtiyor bila Muhammad Mir Yusufg'akim, Hiriyning mashhur va xushtab' mullolaridin edilar, bovujudi omiliq tafsirdin sabaq aytti. Yana Mullo Sulton Ali Mashhadiy bila Behzod musavvirning tasvir va xattig'a qalam kiyurub, isloh qildi. Yana har necha kunda bir bemaza bayt aytur edi va minbarda o'qutub, Chorsuda osturub, shahr elidin sila olur edi. Agarchi saharxez edi va besh vaqt namozni tark qilmas edi, qiroat ilmini tavre bilur edi, vale mundoq go'lona va ablahona va kofirona aqvol va af'ol andin bisyor sodir bo'lur edi.

Hiriyni olg'ondin o'n-o'n besh kundan so'ng Qahdistondin Puli Solorg'a kelib, bo'lg'on cherigini Temur sulton bila Ubayd sultong'a boshlatib, Abulmuhsin mirzo bila Kepak mirzoning ustig'akim, Mashhadta g'ofil o'lturub edilar, yibordi. Bir martaba qal'ani berkitmak xayol qilibturlar. Yana bir martaba bu cherikning keladurg'anini eshitib, o'zga yo'l bila Shayboqxonning ustig'a ilg'amoq bo'lurlar, bu ajab yaxshi xayol ekandur, ammo hech ishga so'zi-

¹ Bukun eshak olati Abdullodan boshqa hech shoir oltin betini ko'rmagan. Binoiy shoirdan oltin tama qiladi, biroq ulardan eshak olatini oladi, xolos.

ni qaror bera olmay, o'lturg'onda Temur sulton bila Ubayd sulton cherik bila ilg'ab yetishur. Mirzolar ham yasob chiqarlar, Abulmuhsin mirzoni bot-o'q olib tebrarlar. Kepak mirzo ozroq-ozroq kishi bila og'asining g'animig'a chopar, ani ham ko'tarurlar. Ikkala og'a-inini tushururlar. Bir yerda o'lturg'uzg'onda og'a-ini bir-birini kuchushub, o'pushub, vido' qilurlar. Abulmuhsin mirzodin bedilliq zohir bo'fur. Kepak mirzog'a chandoni tafovut qilmas. Ikka-la mirzoning boshlarini Shayboqxon Puli Solor-da ekanda yiborurlar.

Bu ayyomda Shohbek va inisi Muhammad Muqim Shayboqxonning tavvahumidin muqarrar elchilar va arzadoshtlar yiborib, izhori yak jihatliq va davlatxohliqlar qildilar. Muqim xud bir arzadoshtida sarih meni tilab edi. O'zbek viloyatni mundoq yangli olg'on mahalda bizning boqib turmog'imiz munosib ko'runmadi, chun muncha elchilar va arzadoshtlar yiborib bizni tiladilar, alarning kelib mulozamat qilmoqlarida taraddud kamroq qoldi. Bori beklar va sohib ray kishilar bila mashvarat qilib, so'zni munga qo'yuldukim, cherik o'tlanilg'ay, bu arg'un beklari qotilg'ondin so'ng Xuroson ustiga yurumakni yo har maslahat bo'lsa, bularning saloh va savobdiydi bila qaror berilg'ay. Bu azimat bila Qandihor sari mutavajjih bo'lduk.

Habiba Sultonbegim, ani yanga der edim, nechukkim mazkur bo'ldi, qizi Ma'suma¹ Sul-tonbegimni Hiriya muqarrar bo'lg'on yo'sunluq olib keldi. G'aznida muloqot qilduk. Xis-

¹ Q. b. - Xadicha.

rav ko'kaltosh na Sultonquli chinoq va Gadoy Bilol Hiriydin qochib Ibni Husayn mirzoning qoshig'a borur edilar. Andin Abulmuhsin mirzo qoshig'a borurlar. Anda ham tura olmay, bizning qoshimizg'a alar bila keldilar.

Qalotg'a yetganda qalin Hinduston savdogarikim, Qalotg'a savdo qilg'ali kelgan ekandurlar, qocha olmadilar, cherik eli alar ustig'a-o'q yetib bordi. Aksar barin bo'ldilarkim, mundoq yog'iyliq mahalda yog'iy viloyatig'a keladurganni talamoq kerak, men rizo bo'lmadim. Dedimkim, savdogarning ne gunohi bor, mundoq juz'iy-juz'iy foydadin tengri rizosini aroda ko'rub kechsak, muning muqobalasida kulliy-kulliy favoyid tengri taolo ro'zi qilg'usidur. Nechukkim, ushbu necha kunda G'iljini chopa otlang'onda Mahmand afg'oniy qo'y va mol va ahl va ayol bila cherikning bir-yig'ochda ekan-da aksar ani chopmoqqa barin bo'ldungiz, ush-buni mulohaza qilib men rozi bo'lmadim. Tonglasig'a-o'q tengri taolo yog'iy afg'oniyning molidinkim, yog'iykim G'ilji bo'lgay, oncha cherik eliga rezi qildikim, hech chopqunda muncha qo'y tushmabtur edi. Qalottin o'tub tushub, bu savdogarlardan peshkash rasmi bila biror nima olildi.

Mirzoxonnikim Kobulni olg'ondin so'ngra Xuroson sari ruxsat berilib edi, yana Abdu-razzoq mirzokim, biz Xurosondin chiqqonda anda qolib edi. Qalottin o'tganda bu ikki mirzo Qandihordin qochib keldilar. Bahor mirzoning nabirasi Jahongir mirzoning o'g'li Pirmuhammad mirzo, bu Pirmuhammad mirzoning onasi

mirzolar bila kelib mulozamat qildi. Shohbek bila Muqing'a kishilar va xatlar yiborildikim, sizlarning so'zungiz bila kelduk, o'zbekdek yot yog'iy. Xurosonni oldi, keling! Ne tavrkim salohi davlat bo'lsa sizlarning ittifoq va savobdiydingiz bila qaror berali. Xat bitimoqdin va bizni tilamoqdin munkir bo'lub, rustoyiyona va durusht javoblar yibordilar. Ul rustoyiliklaridin biri bu edikim, Shohbek manga bitilgan xatning orqasida beklar beklarga, balki ulug'roq martabaliq beklar kichikrak chargalik beklarga muhr bosar yerda qog'ozning o'rtasida muhr bosib yiboribtur. Agar mundoq rustoyiyona harakotlar qilmasa erdi va bu nav' durusht javoblar yiborsa edi, ish munga yetmas edi. Nechukkim:

*Siteza bajoyi rasonad suxan,
Ki vayron kunad xonadoni kuhan¹.*

Ushbu sitezalaridin va rustoyiliqlaridin edikim, honumonlarini va o'ttuz-qirq yil qozg'onlarini barbod berdilar.

Shahri Safo navohisida erkanda bir kun o'rdu ichida g'alat g'avg'oye tushdi. Barcha cherik eli yarog'lanib otlandilar, men g'usl va tahoratg'a mashg'ul edim. Beklar g'alaba iztiroblar qildilar, forig' bo'lub otlandim. Chun g'avg'o g'alat edi, bir zamondin so'ng bosildi. Andin ko'chbarko'ch yurub kelib Guzarg'a tushtuk, munda ham bir necha so'zlashmoq tarhini solduk, parvo qilmay inod va sarkashlik

¹ Zug'm bilan aytilgan so'z shu darajaga yetkazadiki, qadimiy xonadonlarni vayron qilib yuboradi.

maqomida-o'q edilar. Muni bilur davlatxohlar arz qildilarkim, Qandihorga kelur rudlarning boshi Bobo Husayn Abdol va Xalishak tarafdur. Ul yuzga o'tub Qandihorg'a kelur ro'dlarni tamom yiqmoq kerak. So'zni munga qo'yub, sabohi jibalanib, burong'or, juvong'or, yasol yasab, Xalishak ko'chuldi. Shohbek va Muqim Qandihor tog'ining men tosh imorat qozdurg'on tumshug'ining olida shomiyona tikib o'turub edilar. Muqimning kishisi tezlik qilib yig'och orasida yaqinroq keldilar. To'fon arg'un kim, Shahri Safo navohisida ekanda qochib kelib edi, yolg'uz arg'unlarning yasoli sariroq sig'inib tur. Ishqullo otliq yetti-sekkiz kishi bila ayrilib berak kelur. Ishqullo yetti-sekkiz kishidin ilgarrak ayrilur. To'fon arg'un yolg'uz borib ro'baro' bo'lub, qilich olishib, otdin yiqib boshini kesib, men Sangi Lahshak to'g'risidin o'tganda kelturdi, shugun tuttuk.

Chun bu yer mahallot va yig'och orasi edi, mundoq urushmoqni saloh ko'rmay, domana bila o'tub, Xalishakning olida rudning Qandihor tarafidagi o'langda yurt ta'yin qilib tushadur edukkim, Sherquli qorovul ildan kelib, arz qildikim, yog'iy yasob yetishti. Qalottin o'tgali cherik eli xeyli ochliq, tanqisliq tortib edi. Xalishak navohisig'a kelgach, yuqqori-quyi qo'y va o'y va oshliq va somon jihatidin cherik elining ko'pragi butrab tarqab edi. Cherikni yig'ilurig'a boqmay chopa o'tlanildi. Bizning nekim bo'lg'on kishimiz ikki mingga yovushqay edi, munda tushar mahalda, nechukkim, mazkur bo'ldi, yuqqori-quyi cherik elidin xeyli kishi

borib edi, urush vaqti alar qo'shula olmadilar. Urushta hozir qishimiz ming chog'liq bo'lg'ay edi. Agarchi kishimiz oz edi, vale xeyli yaxshi tuzuk va mazbut yasol ta'biya va tartib qilib edim. Hech mahal oncha tartib va nasaq bila yasamaydur edim. Xossa tobindakim tamom ilikdin ish kelur yigitlarni ayrilib edi, tamom o'n-o'n va, ellik-ellik bitilib, bitilib o'n, ulug'i va ellik ulug'i ta'yin etib edim. Har o'n va har eldik o'ng qo'lda va so'l qo'lda turar yerlarini bilib, urush chog'i qilur ishlarini ma'lum qilib, hozir va nozir edilar. Burong'or, juvong'or va o'ng qo'l va so'l qo'l, o'ng yon va so'l yon o'ng va so'l cho-pa otlang'och bekulfat yasamoq va beminnat tavochi cherik eli yerlik yeri bila-o'q mutavajjih bo'ldilar.

Agarchi burong'or va o'ng qo'l va o'ng yon bir ma'nisi bor, vale alfoz tag'yiri bila tashxis muxtalif maoniyg'a men itloq qildim. Nechukkim, maymana va maysarakim, burong'or va juvong'or, derlar, yasolda qalbningkim, g'ul derlar, doxili emas. Munda bu nav' yasolni o'shul sarofate bila burong'or va juvong'or deyildi. Yana g'uldkim, boshqa yasoldur, muning yamin va yasorini imtiyoz uchun o'ng qo'l, so'l qo'l bitildi. Yana g'uldakim, xossa tobindur, muning yamin va yasorinin o'ng yon va so'l yon aytili. Yana xossa tobindakim, bo'y tengidur, turki lafzida mujarradni ham bo'y derlar, munda ul bo'y murod emasdur, yaqin murodtur, muning yamin va yasorini o'ng va so'l otaldi.

Burong'or: Mirzaxon, Shirin tag'oyi. Yorak tag'oyi og'a-inilari bila, Chalma mo'g'ul, Ayyub-

bek, Muhammadbek, Ibrohimbek, Ali Sayid mo'g'ul mo'g'ullari bila, Sultonquli chuhra, xudobaxsh va Abulhasan og'a-inilari bila.

Juvong'or: Abdurazzoq mirzo, Qosimbek, Tengriberdi, Qanbar Ali, Ahmad elchi Bo'g'a, G'o'ri barlos, Sayid Husayn Akbar, Mirshoh qavchin. Erovul: Nosir mirzo, Sayid Qosim eshik oqo, Muhib Ali qo'rchi, Bobo o'g'li Olloveran turkman, Sherquli qorovul, mo'g'ul og'a-inisi bila, Muhammad Ali.

G'ulda mening o'ng qo'lumda Qosim ko'kaltosh, Xisrav ko'kaltosh, Sulton Muhammad do'ldoy, Shoh Mahmud¹ parvonachi, Qul Boyazid bakovul, Kamol sharbatchi: so'l qo'lumda Xoja Muhammad Ali, Do'st Nosir, Mirim Nosir, Bobo Sherzod, Xonquli², Vali xizonachi, Qutluq qadam qorovul, Maqsud suvchi, Bobo Shayx; g'ulda tamom ichkilar edi, ulug' beklardin kishi yo'q edi. Bu mazkur bo'lg'onlardin hanuz hech kim beklilik martabasig'a yetmaydur edi.

Bu bo'yda bitilgan Sherbek. Hotam qo'rbegi. Kepak, Qulbobo, Abulhasan qo'rchi, mo'g'ullardin Urus Ali Sayid, Darvesh Ali Sayid, Xushkeldi Chalma, Do'stkeldi Chalma tog'chi³ va Amachi Mindi: turkmanlardin Mansur va Rustam Ali og'a-inisi bila, Shohnazar, Suyunduk.

G'anim kishisi ikki bo'lak bo'ldi: bir bo'lak Shoh Shujo' arg'un kim, Shohbek-o'q bitilgusidur: yana bir bo'lak inisi Muqim. Bu arg'unlarning qarosini olti-yetti-ming chinor-

¹ Q. b. – Shoh Muhammad.

² Q. b. – Jon Ali.

³ Q. b. – bog'chi.

lar edi, to'rt-besh ming yarog'liq kishisida xud hech so'z yo'q edi. G'ul bila va burong'or bila o'zi ro'baro' bo'ldi. Muqim juvong'or bila ro'baro' bo'ldi. Muqimning cherigi og'asining cherigidin chiyyi kamroq bo'yag'ay edi.

Bizning juvong'org'akim Qosimbek va hamrohlari bo'lg'aylar, mahkam zo'r keldi. Urush vaqtig'acha ikki-uch kishi Qosimbekdin kelib ko'mak tiladi. Chun olimizda bizning g'animimiz ham zo'r edi, kishi ayira olmaduk. G'animga tarafig'a bedarang mutavajjiq bo'lduk. O'q kela boshlag'on fursatta bir dast bizning erovulimizni urib yondurub g'ulg'a chiqtilar. O'q qo'yubkim, yuruduk, andak fursat o'q qo'yub, to'xtag'ondok qildilar. O'trumda bir kishi elni chaqirib, ottin tushub-o'q qo'yar xayol qildi. Biz betavaqquf yurub kelganimiz bila bo'ldura olmadi, o'tlanib yuruy berdi. Bu yayoq tushgan Shohbek o'zi ekandur.

Urush asnosida Piribek turkman to'rt-besh og'a-inisi bila dastorlarin olib, yog'iydin yuz evrub bizga kirdilar. Bu Piribek ul turkmanlardindurkim. Shoh Ismoil Boyandur salotinig'a musallit bo'lub, Iroq mamolikig'a mutasarrif bo'lg'onda Abdulboqi mirzo va Murodbek Boyandur boshliq turkman beklari bila kelib edilar.

Burong'orimizni yog'iy burunroq olib tebradi. Burong'orimizning uchi men yasag'on bog'qa sanchilib bordi. Burong'orimiz Bobo Hasan Abdoldin xeyli quyiroq uluq axmil ariqlarg'a yetib bordi. Bizning juvong'orning o'trusida Muqim edi – tavobe va lavohiqi bila. Juvong'or kishisi g'animi Muqimg'a boqa asru oz edi. Tengri rost kelturdi, Qandahor va kentlarig'a borur uch-

to'rt ulug' axmil ariqlar bizning juvong'or bila g'anim orasida voqe bo'ldi. Guzar boshini tutub, o'tgali qo'ymadilar.

Juvong'or kishisi bovujudi ozliq yaxshilar to'xtab, oyoq berkitti. Arg'unlar tarafidin Halvochi tarxon suv ichida Qanbar Ali va Tengriberdi bila chopqulashtilar, Qanbar Ali yaraliq bo'ldi. Qosimbekning yag'rinig'a¹ o'q tegdi. G'o'ri barlosning qoshining ustiga o'q tegdi. Qochorining ustida chiqdi.

Ushbu fursatta yog'lyni qochurub, bu ariqlar din Murg'on tog'ining tumshug'li sari o'ttuk. Ariqlar din o'tar fursatta bir bo'z to'pchoq otliq kishi tog' domanasida ul sori-bu sori bormoqqa mutaraddid bo'lub oxir bir-sori boqa tebradi. Shohbekka o'xshattim. G'olib, Shohbek ekandur. Yog'lyni bosqoch, tamomi cherik kishi tushurmoqqa va yog'lyni quvlamoqqa bordilar. Mening bila sanog'liq o'n bir kishi qolib edi. Ul o'n bir kishidan durusti Abdullo kitobdor edi. Muqim hanuz turub urushadur edi. Kishimizning ozig'a boqmay, tengriga tavakkul qilib, naqoralarni qoqib, g'anim sori boqib yuruduk.

*Ko'p-u ozg'a tengridur berguchi,
Bu dargohda yo'qtur kishining kuchi.*

«Kam min fiatan qalilatin g'alabat fiatan kasiratan biiznilloh»².

¹ *L. b.* – peshonasig'a.

² Bu arabcha jumlaning mazmuni: «Xudoning amri bilan kichik to'daning katta to'da ustidan g'alaba qilgani ozmuncha emas».

Naqora unini eshitib, bizning mutavajjih bo'lg'onimizni bilib, qaror tariyqin unutup, firor yo'lin tutti. Tengri rost kelturub, yog'iyini qochurub, Qandahor sori yurub, Farruxzodbekning chahorbog'ig'akim, bu tarixta andin asar qolmaydur, kelib tushtuk. Shohbek va Muqimkim qochtilar. Qandahor qalasig'a kira olmadilar. Shohbek Shol va Mastung sori chiqti. Muqim Zamini Dovar tarafi bordi. Qo'rg'on berkitguncha kishi qo'ymaydur edi.

Qulibek arg'unning og'a-inisidin Ahmad Ali tarxon va ba'zilarkim, manga ixlos va aqidalari ma'lum bo'lub edi, qo'rg'onda edilar, so'zlashib og'a-inilarining jonig'a amon tiladilar. Mazkur bo'lg'onlar inoyat bila mashmul bo'lub, qilg'on istid'olari mabzul bo'ldi. Qo'rg'onning Moshur darvozasini ochtilar, elning boshsizlig'ini mulohaza qilib, o'zga darvozalarni ochilmadi. Ushbu ochilg'on darvozada Shirimbekni va Yorakbekni tayin qilildi. O'zum bir necha ichkilar bila kirib, boshsiz elni otqulab, siyosat uchun bir-ikki kishini ham buyurdumkim, o'lturdilar. Avval Muqimning xazinasig'a yettimkim, Tosh qo'rg'onda edi. Abdurrazzoq mendin ilgarrak kelib tushub ekanlar.¹ Abdurrazzoq mirzog'a biror nima xazinadin inoyat qilib, bu xazina-ning ustiga Do'st Nosirbekni va Qul Boyazid baqovulni va baxshilardin Muhammad baxshini muqarrar qilildi.

Mundin o'tub arkka bordim. Xazina ustiga Shohbek, Xoja Muhammad Alini va Shoh Mahmudni va baxshilardin Tag'oyi Shoh baxshini

¹ L. b. – bu ibora yo'q.

Muqarrar qilduk. Mirxon degan Zunnunning devonining uyiga Mirim Nosirni va Maqsud suvchini yiborildi. Nosir mirzog'a tutturuldi. Mirzoxong'a Shayx Busaid tarxonni tutturuldi.¹ Ul viloyatlarda mundoq qalin oq yormoqni hargiz ko'rmay eduk. Balki muncha yormoq ko'rgan kishidin ham eshitilgan emas edi. Ul kechasi arkta-o'q bo'ldum. Shohbekning Sunbul qulini tutub keturdilar. Avval mahalda agarchi mahrami edi, oncha rioyat topmaydur edi. Birovga topshurdim, yaxshi ehtiyot qilmay qochurubtur.

Tonglasi Farruxzodning chahorbog'ig'akim, o'rdi anda edi, keldim. Qandahor viloyatini Nosir mirzog'a berdim. Xizonalarni zabt qilib, yuklab chiqar mahalda, arktagi xizonadin bir qator teva yuki oq tanga Nosir mirzo olib qolibtur. Ani tilamay, Nosir mirzog'a-o'q inoyat qildim. Andin ko'chub Qushxona o'langiga tushuldi. O'rduni ko'churub, o'zum sayr qilib, kechrak o'rdug'a keldim. Burung'i o'rdi emas, tanig'usiz o'rduye bo'lubtur: yaxshi to'pchoq otlar va qator-qator nar va moya tevalar va xachirlar va qumosh raxtliq har, zinliq moyalar va saqarlot va maxmal chodirlar va shomiyonalar va har uyda xarvor-xarvor sanduqlar. Bu ikki og'a-inining jihatini boshqa-boshqa xazina qilib edi. Har xazinada sanduq-sanduq va tang-tang raxtlar va ortmoq-ortmoq va qop-qop oq tangalar, har kimning o'tog'ida va chodirida har jins o'ljadin bisyor edi, qo'y ham bisyor edi, qo'yg'a chandon ham parvo qilmadilar.

¹ Q. b. – Bu jumla quyidagicha: «Va Mirjon otliq devonining uyiga Mirzoxon shayxga Abusaid mirzoni tutturuldi. Zunnunbek va Mirim Nosir va Maqsud suvchini yiborib, Nosir mirzog'a tutturduk».

Qosimbekka Qalotning ichidagilarnikim, Muqimning navkarlari anda edi, boshlig'i Qo'ch arg'un va Tojiddin Mahmud edi, mol va jihotlari bila inoyat qildim. Qosimbek chun hisob bilur kishi edi. Qandahor navohisida ko'p turarimizni saloh ko'rmay, ayta-ayta muhassilliqlari bila ko'chturdi. Nechukkim mazkur bo'ldi. Qandahorni Nosir Mirzog'a inoyat qilib, Nosir mirzog'a ruxsat berib, Kobul azimati qilildi. Qandahor navohisida xizona ulashgucha fursat bo'lmadi. Qarobog'da to'rt-besh kun turub, xazinani ulashildi. Sanamog'ning ishkoli bor edi, tarozu bila tortilib ulashildi. Bek va begot, navkar va tobin xarvor-xarvor va qop-qop oq tangani vajh va ulufalarig'a yuklab, ko'tarib eltarlar edi. Qalin o'lja va mol, ulug' obro' va nomus bila Kobulg'a kelildi.

Sulton Ahmad mirzoning qizi Ma'suma Sultonbegimningkim, Xurosondin tilab kelturub edim, ushbu kelganimda aqd qildim.

Olti-yetti kundan so'ng Nosir mirzoning navkarlaridin bir kishi Shayboqxon kelib Qandahorning qabag'onining xabarini kelturdi. Burun mazkur bo'lub edikim. Muqim Zamini Dovar tarafi qochti, borib Shayboqxonni ko'rar, Shohbekdin ham mutavotir kishilar borur. Bularning ig'vo va angizidin Shayboqxon Hiriydin tog' yo'li bila meni Qandahorda xayol qilib, Qandahor ustiga ilg'ar, ushmuni mulohaza qilib, Qosimbek tajribaliq kishi muhassilliqlar bila Qandahordin bizni ko'churdi.

*Harchi dar oina javon binad,
Pir dar xisht puxta on binad¹.*

Kelib Nosir mirzoni Qandahorda muhosara qilur. Bu xabar kelgach beklarni tilab mashvarat qilildi. Bu so'zlar orag'a tushtikim, o'zbek va Shayboqxondek yot el va kari dushman jami' Temurbekning avlodining iligidagi viloyatqa mutasarrif bo'ldilar. Turk va chig'atoydin har go'sha va kanorda ham kim qolib edilar, ba'zi rag'bat bila, ba'zi karh bila o'zbekka payvasta bo'ldilar. Bir men Kobulda qolib edim. Dushman bisyor kaviy, biz ko'p zaif, ne maslahat qilmoqqa ehtimol, ne muqovamat qilmoqqa majol. Muncha quvvat va qudrat. O'zumizga bir yer fikrini qilg'uluqudur va bu miqdor furja va fursatta qaviy dushmandin yiroqroq ayrilg'uluqtur, yo Badaxshon jonibi, yo Hinduston sori jazm qilmoq kerak. Bu ikki tarafdin bir tarafg'a bormoqni jazm qilmoq kerak. Qosimbek va Shirimbek tavobeyi bila Badaxshon bormoqqa barin edilar. Ul fursatta Badaxshonda bosh ko'targanlar badaxshoniylardin Mubarakshoh vazir edi. Yana Jahongir turkman va Muhammad qo'rchi edi; Nosir Mirzoni chiqarib edilar; o'zbekka ham kirmaydurlar edi.

Men va ba'zi ichki beklar Hinduston tarafi bormoqni tarjih qilib, Lamg'ong'a mutavajjih bo'lduk. Qandahor fathidin so'ng Qalot va Tarnuk viloyatini Abdurazzoq mirzog'a inoyat qilib, Abdurazzoq mirzoni Qalotda qo'yulub

¹ Yosh kishi oynaga qarab nima ko'rsa, keksa odam xishtga qarab, undan ham yaxshiroq ko'radi.

edi. O'zbek Qandahorni kelib qabag'och Abdurazzoq mirzo Qalotta tura olmay Qalotni solib chiqti. Biz Kobuldin ko'chgan fursatta keldi. Kobulda Abdurazzoq mirzoni qo'yuldi.

Badaxshonda chun podshoh va podshohzodalardin kishi yo'q edi.¹ Shohbeginning munosabati bila yo savob diydi bila Mirzoxon Badaxshon jonibig'a mayl qildi. Mirzoxong'a Badaxshon sori ruxsat berildi. Shohbegim ham Mirzoxon bila mutavajjih bo'ldilar. Mening xolam Mehr Nigorxonim ham Badaxshon bormoq bo'ldilar. Mening bila bo'lmog'larining munosabati ko'prak edi, tuqqonlari edim, har necha man' qilildi, mamnu' bo'lmadilar. Ular ham tebradilar.

Jumodil avval oyi Kobuldin Hinduston azimati bila ko'chuldi. Hurd Kobul bila yurub Surx rabot bila Qo'ruqsoyga inildi. Kobul bila Lang'on orasidagi afg'onlar amonliqta ham duzd va duzd afshordurlar, mundoq va vaqoyeni xud tilab topa olmaslar. Meni Kobulni tashlab Hindustong'a boradur deb, bir yamonliqlari o'n bo'ldi, yaxshilari ham yamonliqqa evruldi. Anga yettikim, Jigdalikdin ko'chgan sabohi oraliqdagi (xizr xayl, xirilji va xugiyon) afg'onlari Jigdalik ko'talini to'smak xayol qilib, shimol tarafidagi tog'qa yasob kelib, dabllar cholib, qilichlar o'ynab tika qila boshladilar.² Otlang'on bila buyurdumkim, cherik eli tushluq-tushidin tog'ga yurugaylar. Cherik eli har qo'l va har qongsor bila chopqon bila mutavajjih

¹ Q. b. - «Xonmirzani» so'zi bor.

² Q. b. - tika qila yozdilar.

bo'ldilar. Afg'onlar bir zamon to'xtab bir o'q ham qo'ya olmadilar, qocha berdilar. Afg'onlarni qavlab tog'ga chiqtim, bir afg'on quyi yonimdan yonlab, qochib boradur, qo'lig'a o'qladim. Bu o'q tekkan afg'onni, yana bir necha afg'onni tutub kelturdilar. Siyosat uchun ba'zisini sixqa o'lturguzuldi.

Ningnahor tumaniga Oadinapur qo'rg'onining olig'a tushuldi. Burunroqdin dur andeshlik qilib, hech bir yurt fikrini qililmaydur edi. Ne bormoqqa yere muqarrar, ne turmoqqa yurte muayyan, yuqqori-quyi yana bir xabar olg'uncha yurttin ko'ch qilib ko'chulur edi. Kech kuz edi. Sholini tuzlarda aksar ko'tarib edilar. Bir suv bilur kishilar arzga tegurdilarkim, Alishang tumanining rudi yuqqori Mil qanori sholini qalin ekarlar. Cherikka qishliq oshliq ehtimoli borkim, andin hosil bo'lg'ay. Ningnahor julgasidin o'tlanib, ildam kelib, Soygildin o'tub, Puromin darasig'acha borildi. Qalin sholi cherik eii oldilar. Sholizorlari tovning tubida edi, eli qochib chiqti. Bir necha kofir qatlg'a bordi. Puromin darasining tumshug'idin bir necha yigitni sarko'bqa chiqarilib edi, yonar mahalda kofirlar tog' ustiga ildam kelib, o'q qo'yidilar. Qosimbekning kuyovi Puronni yetib, boltu bila chopib olur mahalda, yana yigitlar yonib zo'rlab qochurub, Puronni ayrib oldilar.

Kufforning sholizorida bir kecha qo'nub, qalin oshliq olib o'rdug'a kelildi.

Ushbu ayyomda Mandrovar tumani navohisida Muqimning qizi Mohchuchuknikim, holo bu tarixda Shoh Hasanning nikohidadur. Qosim ko'kaltoshqa aqd qilildi.

Chun Hinduston jonibi bormoq salohi topilmadi, Mullo Boboyi Pashog'ariyni bir necha yigitlar bila Kobulg'a yiborildi. Mandrovar navohisidin ko'chub, Atar va Sevag'a¹ kelduk. Bir necha kun ul navohida o'turuldi. Atardin Kunar va Nurgilni borib sayr qildim. Kunardin jolag'a o'turub, o'rdug'a keldim. Andin burun jolag'a o'turg'on emas edim. Xeyli xush yoqti, mundin so'ng jola shoye bo'ldi.

Ushbu ayyomda Mullo Mirak Farkatiy Nosir mirzo qoshidin keldi. Shayboqxon Qandahorning tosh qo'rg'onini olib, arkini ola olmay yong'onini va Shayboqxon yong'onidindin so'ng ba'zi jihatlardindin Nosir mirzo Qandahorni solib. G'aznig'a kelganining xabarini mashruh arz qildi. Bir kundindin so'ng Shayboqxon Qandahor ustig'a g'ofilliqta kelur, tosh qo'rg'onni berkita olmaslar, qo'yarlar, arkning girdida necha yerdá naqb solurlar, necha qatla urush keltururlar. Ushmundoq iztiror holatida Xoja Muhammad Amin, Xoja Do'st Hovand, Muhammad Ali piyoda, Shomiy² qo'rg'ondindin tashlab chiqarlar. Qo'rg'on eli ma'yus bo'lub oldurur mahalda Shayboqxon sulh so'zini orag'a solib, Qandahor ustidindin qo'par.

Qo'pmog'ining jihati bu bo'lurkim, Qandahor ustiga kelurda haramlarini Neratuga yiborib ekandur. Neratuda bir kishi bosh ko'tarib, qo'rg'ong'a mutasarrif bo'lur, bu jihattindin sulh guna qilib yonar.

¹ Q. b. – Atar va Sheva.

² L. b. – Soqiy.

Bovujudkim, qish o'rtasi edi. Bodij yo'li bila Kobulg'a kelduk, Bodijning ustida bir toshda buyurdimkim, bu kelur va borurning tarixini qozg'aylar. Hofiz Mirak bitidi, Ustod Shoh Muhammad sangtaroshliq qildi. Shitob uchun obodon qozimadi.

G'aznini Nosir mirzog'a inoyat qildim, Abdu-razzoq mirzog'a Niganhor tumoni va Mandrovar va Darayi Nur va Kunar va Nurgilni berildi.

Ushbu tarixqacha Temurbekning avlodini bovujudi saltanat mirzo derlar edi, ushbu navbat buyurdimkim, meni podshox degaylar.

Ushbu yilning oxirida seshanba kechasi zilqa'da oyining to'rtida oftob xut burjida edi, Kobulning arkida Humoyun¹ mutavallid bo'ldi. Tarixi valodatini Mavloni Sayidiy shoir «Sulton Humoyunxon» topib edi. Kobul shoirlaridan biroq, «shohi feruz kadr» topib edi, uchto'rt kundan so'ng Humoyun ismi bila mavsum bo'ldi. Humoyunning valodatidin besh-olti kundan so'ng Chorbog'ga chiqib, Humoyunning valodatining to'yi bo'ldi. Bek va begot ulug'kichik sochiq kelturdilar, qalin oq tanga o'quldi, ondin burun oncha qalin oq yormoqni bir yerda ko'rulmaydur edi, xeyli yaxshi to'y bo'ldi.

¹ Humoyun – Boburning birinchi o'g'li, hijriy hisobi bilan 913-yilda tug'ilganligini shoirlar «Sulton Humoyunxon» yoki «shohi feruz qadr» so'zlarida «abjad» hisobi bilan chiqar-ganlar. Qaysi oy va qaysi kunda tug'ilganini Boburning o'zi aytib o'tadi.

VAQOYEI SANAYI ARBAA ASHARA VA TIS'A MIA¹

Bu yoz Muqur navohisida Mahmand afg'on-ning bir bo'lagini chopildi. Chopqundin kelib tushgandin necha kundin keyin Ko'chbek va Faqir Ali Karimod va Bobo chuhra qochar xayoli qilibturlar. Xabar topib, kishi yiborildi. Istarg'ichning ayog'idin olib keldilar. Jahongir mirzoning tirigida ham bulardin ba'zi yaramas so'zlar arzg'a yetib edi, buyurdumkim, barchani bozorboshida yasoqqa yetkurgaylar. Darvozag'a eltib, ip solib osar mahalda Xalifani Qosimbek yiborib, mubolag'alar bila gunohlarini tiladi. Bekning xotiri jihatidin qonlarin bag'ishladim, zindonga buyurdumki, solg'aylar.

Hisoriy Qunduziynikim, Xisravshoh navkari mo'g'ullar urug'lari Chalma, Ali Sayid Shakma, Sherquli, Egu Solim, yana Xisravshohning chig'atoydin rioyat qilg'on navkarlari Sulton Ali chuhra, Xudobaxsh boshlig', yana turkmandin Suyunduk va Shohnazar boshlig' ikki-uch ming o'bdon yigitlar bu muddatda bir-birlari bila so'zlashib, so'zni bir yerda qo'yub, yamonliq maqomida bo'lubturlar. Bu mazkur bo'lg'onlar Xoja Rivojning olida so'ng qo'rg'on o'langidin Cholok o'langigacha o'lturub edilar. Abdurazzoq mirzo Niganhordin kelib, dehi Afg'onda o'lturub edi. Bir-ikki navbat bularning mundoq tersanganini Muhib Ali qo'rchi Xalifa bila Mulla Bobog'a aytur, manga ham imoye qildilar. Inong'udek so'z emas edi, parvo qililmadi.

¹ To'qqiz yuz o'n to'rtinchi (1508–1509) yil voqealari.

Bir oqshom Chorbog'da devonxonada o'turub edimkim, kech namozi xuftanda yondin Muso Xoja yana bir kishi bila ildam kelib, qulog'img'a ayttikim, mo'g'ullar tahqiq yog'iqmoqchi bo'ldilar. Abdurrazzoq mirzoni o'zlariga qo'sharni tahqiq bilmaduk. Bularning ham bu oqshom yog'i g'uri jazm emas edi.

Tag'oful qilib, bir lahzadin so'ng haram sari mutavajjih bo'ldum. Ul mahalda, haramlar Bog'i Xilvatda va Bog'i Yurunchqada o'tururlar edi, haramg'a yovuq yetganda chuhra-churpa va yatish eli yondilar. El yong'ondin so'ng men va Sarvarqul shahr sari yuruduk. Xandaq yo'li bila Ohanin darvozasig'a yetib edimkim, ul tarafdin bozor yo'li bila Xoja Muhammad Ali keldi bila kelib men hammomning toqining...¹

¹ Asarning bu bobi bizning qo'limizdagi har ikkala nusxada ham shu yerga yetganda uzilib, tamomlanmay qoladi. Shundan keyingi 10–11-yillik voqealar ham yo'q.

VAQOYEYI BIST-U PANCHUM¹

Dushanba² kuni muharram oyining g'urrasi-da Chandoval julgasining oyog'ida qattiq zilzila bo'ldi. Andoqkim, imtidodi yarim soate nujumiyg'a yaqinlashti. Tonglasig'a bu yurttin ko'chub, Bajur qo'rg'onig'a zo'rlamoq doiyasi bila Bajur qo'rg'onining yaqinig'a tushub, dilazok afg'oniydin bir mu'tabar kishini Bajurg'a yibordukkim, Bajur sultonig'a va elig'a nasihat qilg'aykim, qulluq maqomida bo'lub, qal'ani topshurg'aylar. Ul jam'i besaodati johil nasihatni qabul qilmay, parishon javoblar yibordilar. Farmon bo'ldikim, cherik eli to'ra va shotu va qo'rg'on olmoq asbobi tayyor qilg'aylar. Bu maslahat uchun bir kun o'shul yurta o'tturuldi.

Panjshanba kuni muharram oyining to'rtida buyuruldikim, cherik eli jiba kiyib, yarog'lanib, otlang'aylar. Juvong'or ilgari yurub, Bajur qo'rg'onining yuqqori yonida suv kirishida suvdin o'tub, qo'rg'onning shimol tarafida tushgay. G'ul kishisi qo'rg'onning g'arbi shimolida suvni kechmay, nohamvor balandliq va pastliq yerda tushgay. Burong'or quyig'i darvozaning g'arbida tushgay. Do'stbek boshlig' juvong'or beklari suvdin o'tub, tushar mahalda qo'rg'on din yuz-yuz ellikcha yayoq chiqib, o'q qo'ydilar. Bu beklar dag'i ilgari yurub, otqulashib, yayoqlarni qo'rg'ong'a tiqib, fasiltubig'a yetkurdilar. Mullo Abdulmalik Xostiy devonavor ot bila fasilning tubig'a kirib yurur erdi. Agar shotu

¹ Yigirma beshinchi voqealar.

² Q. b. – Shanba.

va to'ra tayyor bo'lub, kun kech bo'lmasa edi, o'shal soat qo'rg'on ollur erdi.

Mullo Turk Ali va Tengriberdining navkarlari yog'iy bila chopqullashib, g'animni olib, boshini kesib kelturdilar. Har qaysisig'a juldu va'da bo'ldi. Bajur eli, chun tufangni ko'rmaydur edilar,¹ tufang unidin hech parvo qilmadilar, balki tufang unini eshitgach, tamasxur qilib, muqobalada shane harakatlar qilurlar edi. O'shal kuni Ustod Alikuli besh kishini tufang bila otib yiqdi. Vali xozin ham ikki kishini tufang bila yiqdi. O'zga tufangandozlar ham tufang otmoqta bisyor jalodat ko'rsatib yaxshilar otilar. Qalqondin, jibadin, govsardin o'tkara-o'tkara, yiqita-yiqita otilar. Oqshomg'acha shoyadkim, yetti-sekkiz-o'n bajuriy tufang zarbi bila yiqildi ekin. Andin so'ngra, andoq bo'ldikim, tufangning zarbidin bosh chiqara olmaslar edi. Farmon bo'ldikim, oqshom bo'lubtur, cherik asbobni tayyor qilib, sahar qo'rg'ong'a yopushsunlar.

Odina kuni, muharram oyining beshida, farz vaqtida farmon bo'ldikim, urush naqorasi chalinib, har qaysi yerlik-yeridin yurub, qo'rg'ong'a yopushqaylar. Juvong'or bila g'ul o'z buljorlaridindin yakdast to'ra kiyurub, shotu qo'yub yopushtilar. Xalifa Shoh Hasan² arg'un va Ahmad Yusuf boshlug' tamom g'ulning so'l qo'lig'a farmon bo'ldikim, juvong'org'a ko'mak bo'lg'aylar. Qo'rg'onning sharqi shimoliy burjining tubig'a Do'stbek kishisi kirib, qazmoq-yiqmoqqa mashg'ul bo'ldilar. Ustod Aliqu-

¹ *L. b.* – bu uch so'z yo'q.

² *Q. b.* – Husayn.

li ham anda edi, ul kun ham yaxshilar tufang otti, ikki qatla farangi otti. Vali xozin ham bir kishini tufang bila yiqti.

G'ulning so'l qo'lidin Malik Ali qavchin shotug'a burun chiqib, muddate harbu zarbqa mashg'ul edi, g'ul buljorida Muhammad Ali jang-jang va inisi Navro'z har qaysisi biror shotug'a chiqib, nayza va qilich tegurdilar. Yana bir shotug'a Bobo yasavul chiqib, boltu bila qo'rg'onning tomini yiqmoqqa va buzmoqqa mashg'ul edi. Aksar yigitlar anda yaxshi yurub, qalin shiba urub, g'animni bosh chiqarg'ali qo'ymadilar. Yana ba'zi yigitlar yog'iyning harb-u zarbidin hech parvoy qilmay, o'qi bila toshini zarra ko'zga iimay, qo'rg'on teshmak bila buzmoqqa mashg'ul va mash'uf edilar. Chosht bor edikim, sharqi shimoliy burjikim, Do'stbekning kishisi qozadur edi, teshilib, Do'stbekning kishisi g'animni qochurub, burj ustig'a chiqtilar. O'shal zamon g'ul kishisi ham shotudin qil'ag'a chiqtilar, g'uldin ul qo'rg'ong'a chiqti. Tengri taoloning lutfi va inoyati bila mundoq mazbut va mustahkam qo'rg'on ikki-uch soati nujumiyda fath bo'ldi. Yigit-yalang ulcha imkoni jid va ehtimom edi, zohir ettilar va bahodirliq oti va neknom hosil ayladilar.

Bajur eli chun bog'iy edilar, islom eli bila yog'is edilar, bovujudi bag'iy va dushmanliq kuffor rusumi bu el ichida shoye edi va islom oyini ul xayl arasida zoye bo'lub, qatli omg'a borib, ahlu ayollari tamom asir bo'ldi. Taxminan uch mingdin ko'prak kishi qatlg'a borib-

tur. Chun sharq sari urush tushmaydur edi, ozroqcha kishi sharq tarafidin qochib chiqtilar.

Qo'rg'on fath bo'lg'ondin so'ng, kirib qo'rg'onni sayr qilildi. Tomlarda va uy va ko'chalarda va ko'ylarda benihoyat o'luk yotib edi, o'tuvchi-kechuvchi o'luklarning ustidin ubur va murur qilurlar edi. Sayrdin yonib, sultonlarining uyida o'lturub, Bajur viloyatini Xoja Kalong'a inoyat qilduk. Ko'mak uchun o'bdon yigitlardin qalin kishi ta'yin qilib, namozi shom o'rdug'a kelildi.

Tonglasi ko'chub, Bajurning julgasida Boboqaro chashmasig'a tushuldi. Har necha bandikim qolib edi. Xoja Kalonning shafoti bila gunohlarin bag'ishlab, ahlu ayollarini alarg'a qaytib ruxsat berildi. Ba'zi sultonlari va sarkashlarikim, ilikka tushub edi, yasoqqa yetdi.

Sultonlarining boshi bila bir necha bosh bu fath xabari bila Kobulg'a yiborildi. Badaxshon va Qunduz va Balhqa ham fathnomalar bila boshlar yiborildi. Shoh Mansur Yusuf Zayikim, Yusuf Zayidin kelib edi, bu fathda va bu qatli omda bor edi, to'n kiydurub, Yusuf Zayiga siyosatlar bila farmonlar bitib, ruxsat berildi.

Bajur qo'rg'onining muhimmotidin xotirjam qilib, seshanba kuni muharram oyining to'qquzida ko'chub, biror quruh quyiroq ushbu Bajur julgasida-o'q tushub, bir balandiyda kalla manora buyuruldi.

Chorshanba kuni, muharram oyining o'nida sayr qila otlanib, Bajur qal'asiga borib, Xoja Kalonning uyida shurb majlisi bo'ldi. Bajur navohisidag'i kofirlar bir necha tulunda chog'irlar kelturdilar. Bajurning chog'iri va mevasi tamom navohisidag'i kofiristondin kelur. Kecha anda

bo'lub, sabohi qo'rg'onning burju borusini mulohaza qilib, o'tlanib, o'rdug'a keldim.

Tonglasi ko'chub, Xoja Xizr ro'di yoqasig'a tushuldi, andin ko'chub, Chandoval ro'di yoqasig'a tushtuk. Farmon bo'ldikim, Bajur qo'rg'onig'a ko'mak bitilgan el beboqiy Bajurg'a borg'aylar.

Yakshanba kuni oyning o'n to'rtida¹ Xoja Kalong'a tug'inoyat qilib, Bajur qo'rg'onig'a ruxsat berildi. Xoja kalong'a ruxsat bergondin bir-ikki kun so'ng bug'ina qit'a xotirg'a keldi. Xoja Kalong'a bitilib yiborildi.

*Qaror-u ahd ba yor inchunin nabud maro,
Gazid hachr-u maro kard be qaror oxir,
Ba ishvalahoyi zamona chi chora sozad kas,
Bachur kard chudo yorro zi yor oxir.*²

Chorshanba kuni muharram oyining o'n yettisida Sulton Alouddin Savodiy Sulton Vays Savodiyning muorizi kelib, mulozamat qildi.

Panjshanba kuni Bajur bila Chandoval orasidagi tog'ni ovladuk. Bu tog'ning bug'u, marali qop-qora ranglik bo'ladur. Quyurug'i yana bir o'zgacha ranglik, g'olibo mundin quyi Hinduston bug'u, marali tamom qopqora bo'fur. Ushbu kun yana bir sariq qush tushti, ul dag'i qora edi. Ko'zlari ham qora edi. Ushbu kun burgut bir kiyik oldi.

Cherik elida oshliq qamroq bo'lub edi. Qahroj darasig'a borib, oshliq olib, Savodqa Yusuf zayi

¹ *L. b.* – bu iboralar yo'q.

² Mening yor bilan ahd, qarorim bunday emas edi. Oxirda hajri chaqib, beqaror qildi meni. Zamona ishvalariga kishi nima chora qiladi? Oxirda Bajur yorni yordan judo qildi.

afg'וניyning ustig'a yurumak azimati bila odina kuni ko'chub, Chandoval suyi bila Bajur suyining qotilishi bila Panjkura suyining oralig'iga tushuldi.

Shoh Mansur Yusuf zayi bir necha xushxo'r va kayfiyatlik kamoli kelturub edi. Bir kamolini uch bo'lub, bir hissani men yedim, birini Gadoyi tag'oyi yana birini Abdullo kitobdor; g'ariyb guzaro kayfiyat qildi, ul martabadakim, namozi shomda beklar yig'ilg'onda kengashga chiqa olmadim. Ajab nimadur, emdilar o'shal jins kamolidin birni durust yeyilsa ma'lum emaskim, aning yarmicha kayfiyat qilg'ay.

Andin ko'chub, Qahroj darasining va Peshgrom darasining og'zig'a yovuq Panjko'raning olig'a tushuldi. Ushbu yurttakanda qor o'shuqtin yog'di. Bu orada ahyonan qor yog'ar ekandur, el taajjub qildilar.

Sulton Vays Savodiyning ittifoqi bila cherik maslahati jihatidin Kahroj eliga to'rt ming xarvor oshliq tahmil bo'ldi. Bu oshliq taxsilig'a Sulton Vays yiborildi. Rustoyi ko'hiy el hargiz mundoq tahmillarni tortg'on emaslar. Oshliq bera olmay, buzuldilar.

Seshanba kuni oyining yigirma uchida cherikni Hindubekka boshlatib, Panjko'rag'a chopkun yiborildi. Panjko'ra tog'ning o'rtasidin yuqqorroq voqe bo'lubtur, bir kuruhqa yovuq dobon chiqmoq kerak, to Panjko'raning kentlariga kishi yetgay. El qochib chiqib edilar, bir pora gala qaralarini va uylaridin qalin oshliqlarini kelturdilar. Tonglasi cherikni Qo'chbekka boshlatib chopkun yiborildi.

Panjshanba kuni oyingning yigirma beshida cherik eli oshliq olur maslahati jihatidin, Kahrojning darasining ichiga Mondish kentlarig'a tushuldi.

Humoyundin so'ngra Humoyun bila bir tuqqon necha farzand bo'ldi, turmadi. Hindol hanuz tug'maydur edi. Bu navohilarda ekan-da Mohimdin xat keldi, bitibdurkim, xohi o'g'ul bo'lsun, xohi qiz, mening baxt-u tolem – manga bering, men farzandchilay saxlay.

Odina kuni oyingning yigirma oltisida ushbu yurtta ekanda Hindolni Mohimg'a berib, xatlar bitib, Yusuf Ali rikobdorni Kobulg'a yiborildi. Hanuz Hindol tug'maydur edi.

Ushbu yurtta ekanda, Mondish viloyatida daraning o'rtasida bir balandiy ustida bir ulug' sufa tosh bila yasaldikim, oq uy peshxonasi bila sig'di. Bu sufaning toshlarini tamom ichkilar va sipohilar tashidilar. Bu so'zning tafsili budurkim, chun aning bila tuqqonlardin ul zamong'acha bir o'g'ulkim bor edi, andin kichik, o'zga boridin ulug' yana uch qiz: biri Mehrjon, yana ikkisi kichiklikda turmadilar. Va bir tuqqon havasi xeyli bor edi. Ul zamonda Dildor og'achaning bo'yi og'ir erdi. Men der edimkim, ne bo'lg'ay, edi anga bir tuqqon bo'lsa edi. Hazrat volida dedilarkim, agar Dildor og'acha o'g'ul tuqsa, olib asrasam nechukdur? Men dedim: bisyor xo'btur.

G'olibo zuafo orasida fole rasmdurkim, o'g'ul bo'lurmu, yo qiz bo'lurmu ekin deb, ikki kog'azda birida Ali yo Hasan bitib, yana birida Foti-

ma bitib, ikki kulula balchiq ichida qo'yub, ul balchiqlarni bir ayog' suv ichig'a qo'yarlar. Har qaysi burna ochilsa andin istidlol qilurlar: er kelsa, er bo'lur, qiz kelsa, qiz bo'lur derlar, fol qildilar, er keldi. Chun mujda bo'ldi, aning yuzidin-o'q xat bitib yiborduk.

Necha kundin so'ngra er o'g'ul tengri karam qildi, xabardin burna uch kun tuqqondin so'ngra onasi olidin xohi va naxohi olib, uyimizg'a kelturub saxlabturlar. Chun valodatining xabarini yiborduk. Bahrani olg'onda bu xabar yetar, tayammunan va tafa'ulan otini Hindol qo'ydilar. Bu munosabatlardin manga ham inidur va ham farzand¹. Yusuf zayi afg'ondin Malik Shoh Mansur Malik Sulaymon shohning o'g'li kelib edi. Davlatxohlik maqomida edi. Yusuf zayi ulusining maslahatig'a aning qizini tilalib edi. Bu yurtta xabar keldikim, Shoh Mansurning qizi bila Yusuf zayinning moli keladur.

Namoz shomda chog'ir suhbat bo'ldi, suhbatta Sulton Alouddinni chorlab o'lturg'uzub, xossa xil'at inoyat bo'ldi.

Yakshanba kuni, oying yigirma sekkizida ko'chub, Kahroj darasidin chiqib tushtuk. Tovusxon Yusuf zayi Shoh Mansurning inisi, mazkur bo'lg'on birodarzodasini bu yurtta kelturdi. Bisut² elining Bajur qo'rg'onida munosabati bor jihatidin bu yurttin Yusuf Ali bakovulni yiborildikim, ko'churub Bajur qo'rg'onig'a kelturgay. Kobulda qolg'on cherikka farmonlar bitib yiborildikim, kelgaylar.

¹ L. b. - bu joylar tushgan.

² Q. b. - Bihsut بهسوت.

Odina kuni safar oyining uchida Panjko'ra suyi bila Bajur suyining qotilishig'a tushuldi.

Yakshanba kuni oyning beshida bu yurttin Bajur borib, Xoja Kalon uyida chog'ir suhbatl bo'ldi.

Seshanba kuni oyning yettisida beklarni va dilazok afg'onlari ulug'larini tilab, kengashib, so'zni munga qo'yuldikim, yil oxir bo'lubtur, xutg'a bir-ikki kun qolibdur, tuzdagi oshliqni tamom ko'taribturlar. Bu fursatda Savodqa borsak, cherik eli oshliq topmay tanqisliq bo'lg'usidur. Anbohar va Poni Yoli¹ yo'li bila yurub, Hashnag'arning yuqqori yoni bila Savod suyini o'tub, Yusuf zayining singiri Mohura² to'g'risi tuzdagi olturg'on afg'onlarnikim, Yusuf zoyi va Muhammad zayi bo'lg'ay, ilg'ob chopmoq kerak.

Yana yil ertaroq oshliq vaqtida kelib, bu afg'onlarning fikrini bar asl qilmoq kerak. So'zni munga qo'yub tonglasi chorshanba kuni Sulton Vays va Sulton Aloudding'a otlar va xil'atlar inoyat qilib, istimolatlar bila ruxsat berib, ko'chub Bajur to'g'risi tushuldi. Shoh Mansurning qizini cherikdin murojaat qilg'uncha Bajur qo'rg'onida qo'yuldi.

Tonglasi ko'chub, Xoja Xizrdin o'tub tushduk. Xoja Kalong'a bu yurttin ruxsat berildi. Urug' otlug' bila ortuqsi cherik masolihini va og'ir partolni Kunar yo'li bila Lamg'onga yiborildi.

Tonglasi ko'chub, og'ir partol va tevani Xoja Mir Mirong'a boshlatib, Jarg'otu va Darvo-

¹ Q. b. - Poni mol.

² Q. b. - Ma'mura.

za yo'li bila va Qaro ko'ba ko'tali bila yiborib, o'zimiz jarida otliq bila ilg'ob, Anbohar ko'tali bila oshib, yana bir ulug' ko'taldin ham oshib, namozi shomdin¹ ertarak Poni Yolog'a tushuldi. Ug'onberdini bir necha kishi bila til olg'ali ilgarrak yiborildi. Chun afg'onlar bila oramiz yovuq edi, erta ko'chmaduk. Chosht bor edikim, Ug'onberdi keldi. Bir afg'onni olib, boshini kesibtur, kelurda boshni yo'lda tushurubtur, ko'ngil tilagudek tahqiq xabar kelturmadi.

Tush bila ko'chub, Savod suyini o'tub, namozi digardin ertaroq tushuldi. Namozni xuftanda otlanib, ildam yuruduk, Oftob bir nayza bo'yi chiqqanda Rustam turkmannikim, qorovulluqqa yiborilib edi, xabar kelturdikim, afg'onlar xabardor bo'lub, qo'zg'olishibturlar. Bir pora afg'on tog' yo'li bila boradur. Muni eshitgach ildamroq yurub, chopqunchini ilgariroq ayirduk, borib, bir necha afg'onni o'lturub, boshlarini kesib, bir pora asir va o'y va galalarini kelturdilar. Dilazok afg'onlari ham bir necha bosh kesib kelturdilar.

Yonib, Kotlang navohisig'a tushuldi. Urug'nikim, Xoja Mir Miron boshlab keladur edi, o'trusig'a boshchi yiborildikim, Maqomda kelib, bizga qo'shulg'ay.

Tonglasi ko'chub, Kotlang bila Maqomning orasig'a tushuldi. Shoh Mansurning kishisi keldi. Xisrav ko'kaltosh va Ahmadiy parvonachini bir pora kishi bila uruq o'trusig'a yiborildi. Seshanba kuni oyning o'n to'rtida Maqomg'a tushganda uruq kelib qo'shuldi.

¹ L. b. – bu ibora yo'q.

Ushbu o'ttuz-qirq yilda Shahboz qalandar otliq bir mulhid bor ekandur. Yusuf zayining bir jamoatini va dilazokning bir jamoatini mulhid qilg'on ushbu qalandar ekandur. Maqomning tog'ining tumshug'ida bir parcha pastroq tog' voqe bo'lubtur, tamom dashtlarg'a mushrif, xeyli purfazo va maddi nazarliq balandi voqe bo'lubtur. Shaxboz qalandarni qabri anda edi. Sayr qilib kelib, mulohaza qilildi. Xotirg'a kechtikim, mundog' havoliq yerda mulhid qalandarining qabri betaqribdur: buyurdukkim, buzub, yer bila hamvor qildilar. Chun xeyli safoliq va havoliq yer edi, ma'jun ixtiyor qilib, bir zamon anda o'lturuldi.

Bajurdinkim yonildi. Behra xayoli bila yonilib edi, to Kobulg'a kelib eduk, hamisha Hinduston yurushi xayolida eduk, ba'zi mavone jihati-din muyassar bo'lmas edi. Bajur cherikinikim, uch-to'rt oy cherikladuk, cherik elining ilgiga mu'tamad nima tushmadi.

Chun Hindustonning sarhadi Behra yovuq edi, xotirg'a kechtikim, filhol jarida kirsak, cherik elining ilgiga bir nima tushsa, bu xayol bila yopib, afg'onlarni chopib, Maqomg'a tushganda ba'zi davlatxohlar arzg'a yetkurdilarkim, Hindustong'a kirilur bo'lsa, bar-bunyodliq kirilisa: ba'zi cherik Kobulda qoldi. Bir pora o'bdon yigitlarni Bajurda qo'yuldi. Lamg'ong'a ham otlari orig'lig'ldin qalin cherik yondi. Munda kelganlarning ham otlari andoq xarobturkim, bir kun qatrar majoli qolmaydur.

Agarchi bu so'zlar ma'qul edi, chun bu azimat qililib edi, bu hisoblarg'a boqmay erta bila

ko'chub, Sind suvining guzari sari mutavajjih bo'lduk. Sind daryosining guzarini ko'rgan Mir Muhammad jolabonni og'a-inisi bila yana bir necha yigitlarni bularg'a qo'shub, yuqqori-quyi guzar ko'rgali yiborildi.

O'rduni daryo sari yurutub, men Savoti tarafikim, Kargxona ham derlar, karg ovlog'ali bordim, bir necha karg paydo bo'ldi, Vale jangali qalin edi, jangaldin chiqmadi. Bir buzovliq karg tuzga chiqib, qocha berdi, xeyli o'q uruldi, jangal yovuq edi, o'zini jangalg'a soldi. Jangalg'a o't soldilar, ul karg xud topilmadi. Yana bir karg buzovi o'tga kuyub, tiprachilab yotadur edi, bo'g'uzlab, har kishi shibrong'a¹ oldi. Savotidin yonib xeyli sargardonliq tortib, namozi xuftonda o'rdug'a kelduk. Guzar ko'ra barg'onlar, guzar ko'rub kelibturlar.

Tonglasi panjshanba kuni oyning o'n oltisida ot va teva bila va partol bila kechittin kechildi. Urdu bozori va yayoq va eshakni jolabonlar bila kechurdilar. Ushbu kun guzar boshida ekanda Nilobiylar kelib, to'qquz ot² va uch yuz shohruxiy peshkash qilib ko'rdilar.

El tamom kechgach, o'shal namozi peshin-o'q ko'chub, kechanning bir posig'acha yurub, Kachakut suvining yovug'ig'a tushuldi. Andin erta ko'chub, Kachakut suvini o'tub, tush qotila Sangdaki ko'talini oshib tushuldi. Sayid Qosim eshik og'o chog'dovul edi. Keyindin kuch keyincha keladurgan gujurlarni tutub, bir necha bosh kesib kelturdi.

1 Q. b. - shirolg'a.

2 L. b. - bir kechimlik ot.

Sangdakidin sahar ko'chub, kech namozi peshin Suhon suvini o'tub tushuldi. O'rduning keyini tun yarmig'acha kela qoldi, mahkam uzoq ko'ch edi. Otning bemajolig'i va oriqlig'i mahalli bisyor zo'r bo'ldi, xeyli ot qoldi.

Behradin yetti kuruh shimol sari bir tog' tushubtur. Bu tog'ni «Zafarnoma»da va ba'zi kitoblarda «Ko'hi Jud» bitibturlar, vajhi tasmiyasi ma'lum emas edi, so'ngralar ma'lum bo'ldi: bu tog'da bir ota naslidan ikki xil el bor. Birini jud va birini janjuha derlar. Bu tog'dag'i va Nilob bila Behra orasidag'i el va ulusqa bular qadimdin hokim va farmonravo bo'la kelgandurlar. Vale yorona va birodarona hukumat qilurlar, harne xotiralari tilasa ola olmaslar. Bir kesim yo'sunluq qadimdin har nimakim muqarrar qilibturlar. Bularning olishi va ularning berishi bu muqarrardin ortuqva o'ksuk bo'lmas. Muqarrarlari budurkim, qo'sh boshidin bir shohruxiy berurlar. Kadxudolikda yetti shohruxiy berurlar, cheriklarig'a ham borurlar. Jud ham necha shu'ba bo'lubtur, janjuha ham.

Bu tog'kim Behraning yetti kuruhida voqe bo'lubtur. Kashmir tog'laridinkim, Hindukush tog'i ushbu tog'lar bila payvast tog'lardur, ayrilib, g'arbi-janub sari tortib borib, Dinkutning ayog'ida Sind daryosig'a muntahi bo'lubtur. Ushbu tog'ning yarmida juddur, yarmida janjuha. Bu tog'ni judqa mansub qilib, Ko'hi Jud debturlar. Bulardin bir mu'tabar ulug'i roy xitob topar. O'zga ini-o'g'lini malik derlar. Bu janjuha Langarxonning tag'oyilari bo'lur. Suhon suyining navohisidag'i el va ulusning

hokimining oti malik Hast edi, asli oti Asadur. Hindustoniylar mundoq harakatlarni gohi sokin o'qurlar, nechukkim, «xabar»ni, «xabr» derlar, «asad»ni «asd» depturlar, bora-bora «hast» bo'lubtur.

Langarxonni malik Hast Janjuhag'a tushgach-o'q yiborildi. Qatrob borib, inoyat va shafqatimizdin umidvor qilib, namozi huftanda olib keldi. Bir kejimlik ot peshkash kelturub, mulozamat qildi. Yigirma ikki-yigirma uch yoshida bo'lg'ay edi. Bularning gala-qoralari o'rduning gird va navohisida bisyor edi. Chun xamisha Hinduston olmoq xotirda edi, bu bir necha viloyatlarkim, Behra va Xushob va Chanob va Chanut bo'lg'ay, necha mahal turk tasarrufida edi, bularni xud mulkimizdek tasavvur qilur eduk. Zo'r bila yo sulh bila o'zimizning mutasarrif bo'lurmizg'a mutayaqqin eduk. Bu jihattin bu tog' eli bila yaxshi maosh qilmoq vojib va lozim edi. Farmon bo'ldikim, hech kim bularning galaqoralarig'a, balki ip uchi, igna sinug'larig'a atrof va navohida zarar va nuqson yetkurmasun.

Andin erta ko'chub, namozi peshin Kaldakaxorg'a kelib tushtuk. Atrof va navohida qalin xavidzor edi. Bu Kaldakaxor tavr yeri voqe bo'lubtur. Behraning o'n kuruhida, Jud tog'ining orasida hamvor yere tushubtur, bu hamvor yerning o'rtasida bir ulug' ko'ldur, atrof-dag'i tog'lardin yomg'ur suvlari yig'ilib, bu qo'l bo'lubtur, gir-do-girdi uch kuruhga yovushg'ay. Shimolida yaxshi o'lang voqe bo'lubtur. G'arbi-

da tog' domanasida chashmadur, bu chashma suvi balandilarg'akim, bu ko'lg'a mushrifdur, o'lturur uchun qobil yer edi, bog'e soldim. Bog'i Safog'a mavsum, xeyli xushhavo va bosafu yer voqe bo'lubtur. Nechukkim sharhi kelgusidur.

Kaldakaxordin sahar otlanildi. Hamtotu¹ ko'talining boshida bir necha yerlik el muhaqqar peshkash bila kelib, mulozamat qildilar. Abduraxim shig'ovulg'a kelgan kishini ko'shub, Behra yiborildikim, Behra elig'a istimolat berib degaykim, bu viloyatlar qadimdin turkka taalluq bo'la kelgandur, zinhor tavahhum va dag'dag'a o'zlarig'a yo'l berib, elni buzulg'ali qo'ymasunlarkim, bu viloyat va el bila yoqimiz² bordur, tolon va toroj bo'lmag'usidur.

Chosht ko'tal tubig'a tushub, Qurbon Charxiy, Abdulmuluk Hastiy³ boshlig' yetti-sekkiz kishini ilgari xabar olg'ali yiborildi. Ilgari borg'onlardin Mir Muhammad Mahdi Xoja bir kishi kelturdi. Bu asnoda afg'onlarning ulug'laridin bir necha kishi peshkash bila kelib, mulozamat qildi. Langarxong'a qo'shub, istimolat jihatidin Behra elig'a yiborildi. Ko'taldin oshib, jangaldin chiqib, burong'or, juvong'or, g'ul, yasol bila Beqra sari mutavajjih bo'lduk. Behrag'a yovuq yetgan mahalda Davlatxon Yusuf xaylning o'g'li Alixonning navkarlaridin Deva hind-u yana Saktuning o'g'li Behraning arboblari bila kelib, bir ot peshkash qilib, mulozamat qildilar. Namozu peshin bo'la Behra elig'a

¹ Q. b. – Hambotu.

² «Yaqinligimiz» bo'lsa kerak.

³ Q. b. – Qastin.

zarar va zahmat tegurmay, Behraning sharqida Baxat suyining yoqasida bir zorda¹ tushuldi.

Temurbek Hindustong'a kirib chiqqani(din) beri bu necha viloyatkim, Behra va Xushob va Chonob² va Chanut bo'lg'ay, Temurbekning avlodining tavobe va lavohiqi tasarrufida edi. Shohrux mirzoning nabirasi Suyurg'itimish mirzoning o'g'li Sulton Mas'ud mirzoningkim, Kobul va Zobul ayolat hukumati ul fursatga anga taalluq uchun, Sulton Mas'ud Kobuliy derlar edi. Tarbiyat kardalaridin Mir Alibekning o'g'lonlari Boboyi Kobuliy va Daryoxon va Opoqxonkim, so'ngra G'ozixon derlar edi, Sulton Mas'ud mirzo va o'g'li Ali Asg'ar mirzodin so'ng mutag'allibliq bila Kobul va Zobul va bu mazkur bo'lgon Hindustondag'i viloyat va parganalarg'a mutasarrif bo'lub edilar. Sulton Abusaid mirzo zamonida Kobul va G'azni bularning tasarrufidin chiqti. Hindustondag'i viloyatlar bularning tasarrufida edi.

Tarix to'qquz yuz o'nda³ Kobulg'a avval kelgan yilikim, Hindustong'a kirmoq doiyasi bila Xaybardin o'tub, Parshovar⁴ kelganda Boqi Chag'oniyoniyning sa'yi bila quyig'i Bangash sarikim Ko'hat bo'lg'ay, yurub, qalin Afg'onistonni chopib, qirib Bannu va Dashtni tolon-toroj qilib, Duki bila chiqildi.

Ul fursat Behra va Xushob va Jonob hukumati Mir Alining nabirasi – G'ozixonning o'g'li

¹ «Sabzazorda» bo'lsa kerak.

² Q. b. – Jonot.

³ Milodiy 1504–1505-yil.

⁴ Q. b. – Pashovar.

Sayid Alixong'a taalluq edi. Iskandar Bahlulning otig'a xutba o'qub, aning itoatida edi. Ul cherik cheriklaganidin mutavvahhim bo'lub, Behrani tashlab, Baxat suvidin o'tub, Behra kentlaridin Shirkutni o'turub yeri yasab edi. Bir-ikki yildin so'ng bizning jihatimizdin Sayid Alixon bila Afg'on badgumon bo'ldi. Ul ham bu sababtin dag'dag'a va tavahhum o'zig'a yo'l berib, bu viloyatlarni Davlatxon Totorxon Yusuf xaylg'akim, Lohur hokimi yl vaqt yl edi, topshurdi. Davlatxon ulug' o'g'li Alixong'a Behrani berib edi, ul choq Behra Alixonning tasarrufida edi. Davlatxonning otasi Totorxon olti-yetti sardordin birisidurkim, xuruj qilib, Hindustong'a mutasarrif bo'lub, Bahlulni podshoh qildilar. Sihrin va Satluj daryosining shimoliy viloyatlari tamom bu Totorxonda edi. Bu viloyatlarning jami' uch kuruhdin ko'proq bo'lur. Totorxon o'lgandin so'ng, Sulton Iskandar podshohlig'ida bu viloyatni Totorxonning avlodidin olib edi. Men Kobul viloyatig'a kelgan tarixdin bir-ikki yil burunroq bir Lohurni-o'q Davlatxong'a berib edi.

Tonglasi ba'zi munosib yerlarg'a chopqunchi yiborildi. Ushbu kun Behrani sayr qildim. Sangarxon Janjuha ushbu kun kelib, ot peshkash qilib, mulozamat qildi.

Chorshanba¹ kuni oying yigirma ikkisida Behraning ulug'larini va chavdarilarini tilab, bu yurtta to'rt yuz ming shohruhiy² moli amon qaror berilib, muhassillar ta'yin qilildi. Dag'i, otlanib sayr qilib, kemaga kirib, ma'jun yeduk.

¹ Q. b. – Panjshanba kuni.

² Q. b. – ming shohruhiy.

Behra va Xushob o'lturushluk bulujlarg'a Haydar alamdorni yiborilib edi. Panjshanba sabohi bir gulbodom to'pchoq peshkash qilib, mulozamat qildilar. Arzg'a yettikim, cherik eli Behra elig'a besarliq va dastandozliqlar qiladurlar. Kishilar yiborib, besarliq qilg'on elning ba'zisini yasoqqa yetkurub, ba'zisini burnini teshib, o'rdudin evrurdilar.

Odina kuni Xushob elidin arzadosht keldi. Shoh Hasan va Shoh Shujo' arg'un ta'yin bo'ldikim. Xushobg'a borg'ay.

Shanba kuni oyning yigirma beshida Shoh Hasanni Xushobg'a yiborildi.

Yakshanba kuni andoq yomg'ur yog'dikim, tamom tuzlarni suv tutti. Behra bila o'rdi tushgan bog'lar orasida ozgina suv erdi. Namozni peshingacha arzi bir ulug' daryocha bo'ldi. Behraning yovug'ida bir tiyrgaz otimi yerdin ko'proq guzar yo'q edi, uzdurub o'tar edilar, ikki namoz orasida kirgan suvlarni sayr qila otlandim. Yog'in va chopkun andoq bo'ldikim, yana yonib o'rdug'a kelmakka tavahhum bo'ldi. Ikki namoz orasida o'shul kirgan suvni uzdurub o'ttum. Cherik eliga ham bisyor tavahhum bo'ldi. Aksar el o'toqlarini va og'ir partollarini tashlab, jiba va kiyim-yarog'larini egnilariga olib, ot yalang'ochlab, uzdurub o'ttilar. Tuzlarini tamom aksar suv tuyub edi. Sabohi daryodin kemalarni¹ kelturub, aksar cherik edi chodirlarni, partollarni kema bila o'tkardilar. Tushga yovuq Qo'chbekning kishisi bir shar'iy suv yuqqori borib, guzar toptilar. Qolg'on el guzar bila o'ttilar.

¹ L. b. – bu joylari tushgan.

Behraning qo'rg'onining ichidakim, Jahon-namo derlar, bir kun turub, seshanba sabohi ko'chub, yomg'ur va sel taraddudidin Behraning shimol sari yonidagi balandiylarning ostiga tushuldi. Taqabbul yormog'ida ehmol qiladurlar edi, to'rt sarkor qilib, beklarga buyuruldikim, ehtimom qilib, butkargaylar. Bir sarkor Xalifaga ta'yin bo'ldi, yana bir sarkor Qo'chqa, yana bir sarkor Do'st Nosirga, yana bir sarkor Sayid Qosim bila Muhib Alig'a. Chun turk o'lturushluk, viloyatlarni o'zumizning tasavvur qilib eduk. Ul jihattin talon-toroj bo'lmadi. Hamisha elning so'zi bu edikim, agar musolaha jihatidin elchi borsa, turkka taalluq viloyatlariga muzoyaga qilmog'ularidur.

Panjshanba kuni rabiul-avval oyining g'urrasida bu jihattin Mullo Murshidni Sul-ton Ibrohimg'akim, otasi Sul-ton Iskandar o'shul besh-olti oyda o'lub, Hind saltanati munga tegib edi, elchilikka ta'yin qilib bir qarchig'ay yiborib, qadimiy turkka taalluq viloyatlarni tiladuk. Davlatxong'a bitilgan xatlarni va Sul-ton Ibrohimg'a bitilgan xatlarni topshurub, og'iz so'zlarni dog'i aytib, Mullo Murshidga ruxsat berildi. Bu Hinduston eli, alaxusus afg'onlar ajab xush va xiraddin yiroq va ra'y va tadbirdin qiroq ellar bo'lur ermish, ne yog'ilyiq yurush va turushin qila oldilar, ne do'stluq roh va ravishin bila oldilar. Borg'on kishimini Davlatxon necha kun Lohurda saxlatib, ne o'zi ko'r-di va ne kitobatni Ibrohimg'a yibordi. Necha oydin so'ng borg'on kishimiz hech javob topmay Kobulg'a keldi.

Odina kuni oyning ikkisida Shayboq piyoda bila Darvesh Ali piyodakim, holo tufangandozdur. Kobuldin arzadoshtlar kelturub, Hindolning tuqqon xabarini ham kelturdilar. Hindning tasxiri zamonida bu xabar kelgani uchun, shugun tutub, Hindol ot qo'ydim. Qanbarbek ham Balxdin Muhammad Zamon mirzoning arzadoshtlarini kelturdi.

Tonglasi devon tarqag'ondin so'ng sayrg'a o'tlanib, kemaga kirib, araq ichildi. Majlis ahli: Xoja Do'st Xovand, Xisrav Mirim, Mirzoquli, Muhammadiy, Ahmad Gadoyi, Nu'mon, Langarxon, Ruxdam, Qosim Ali taryoqiy, Yusuf Ali, Tengriquli. Kemaning boshi sari tolur bor edi, usti hamvor, men bir necha kishi bila munda o'turub edim. Yana bir necha kishi tolarning ostida o'turub edilar, kemandigilarning quyrug'i sari ham o'turub yer bor edi. Muhammadiy va Gadoyi, Nu'mon anda o'turub edilar. Namozigil digargacha araq ichildi. Araqning badxo'rlig'idin mutanaffir bo'lub, bu yuzdagilarning ittifoqi bila ma'jun ixtiyor qilduk. Kemandigil ul uchidagilar ma'jun yeganimizni bilimadilar, araq-o'q ichtilar.¹

Kemadin namozigil xuftonda o'tlanib, kech o'rdug'a kelduk. Muhammadiy bila Gadoyi meni araq ichadurg'on xayol qilib, shoyista xizmate qilaling deb, araq ko'zasini ot ustida navbat bila ko'tarishib, g'ariyib nash'a va bashoshat bila kirib keldilar. Dedilarkim, mundoq qorong'u kechada ko'zani o'zumiz navbat bila ko'tarib kelduk. So'ngra ma'lum qildilarkim, suhbat o'zgacha emish va kayfiyat

¹ Q. b. – «ichtilar»dan so'ng «xayol qildilar» bor.

o'zgacha. Jami' ma'juniy va jami' chog'irmast. Chun hargiz ma'jun suhbati bila chog'ir suhbati rost kelmas, bisyor munfail bo'ldilar. Men dedimkim, suhbatni barham urmang, araq icharg'a ko'ngulli kishi araq ichsun, ma'jun yerga ko'ngulli kishi ma'jun yesun. Hech kim bir-biriga taarruz bila guftugo' qilmasun. Ba'zi araq ichtilar, ba'zi ma'jun yedilar. Bir zamon takalluf bila suhbate tutuldi. Bobojon¹ Qanbuziykim, suhbatda yo'q edi, oq uyga kelganda ani tiladuk, araq ichmak istid'o qildi. Turdi Muhammad qipchoqni ham tilab, mastlar bila hamsuhbat qilduk. Chun ma'jun suhbati bila hargiz araq va chog'ir suhbati rost kelmas, mastlar har tarafdin parishon guftugo' qila kirishtilar, aksar taarruzlari ma'jun va ma'juniylar bila edi. Bobojon ham mast bo'lub, g'alaba parishonlar aytti. Turdi Muhammadqa ham mastlar to'la-to'la ayoqlarini paydarpay berib, oz fursatda masti loya'qil qildilar. Har necha sa'y va isloh maqomida bo'lduk, baham yetmadi. Shaloyinliq xeyli bo'ldi. Suhbat bemaiza bo'ldi, har sarig'a tarqashtilar.

Dushanba kuni oyining beshida Behra viloyatini Hindubekka berildi. Seshanba kuni Jonob viloyatini Husayn ikrakka inoyat qilib, Husayn ikrakka va Jonob eliga ruxsat berduk. Bu fursatlarda Sayid Alixonning Minucheixon otliq o'g'likim, Hindustondin bizni deb, yuqqorig'i yo'l bila keladiganda, Totor kakarga yo'luqur. Muni qo'ymay saxlab, qizini berib, kuyov qilur, necha mahal aning bila edi, kelib mulozamat qildi.

¹ L. b. – Boboxon.

Nilob bila Beqra tog'lari oralig'ida Jud va Janjuhning xaloyiqidin boshqa Kashmir tog'larig'a payvast Jat va Gujur va ul tavoyifdin yana qalin ellardurkim, har qo'lda va har pushtada kentlar yasab o'turubturlar, bularning hokimi va ulug'i kakar qabilasidur. Bularning ulug'lug'i ham Jud va Janjuhning ulug'lug'idektur. Bu tog'larning domanasidag'i xaloyiqning ulug'lug'i ul tarixda bir ota o'g'li Totor kakar bila Hotiy kakarda edi, emmzoda edi. Bularning berk yerlari obkanlar va jarlar bo'ladur. Totorning yerining oti Parola edi, qorluq tog'din xeyli quyuroq edi. Hotiyning viloyati tog'ga payvastdur. Kalonjarnikim, Bobuxon Bisutqa taalluq edi, ani ham Hotiy o'ziga boqturub edi. Totor kakar Davlatxonni ko'rub edi. Filjumla itoatguna qilur edi. Hotiyni ko'rmaydur edi. Fitna va fasod maqomida edi. Totor Hinduston beklarining ittifoqi va so'zlari bila kelib, iroqroqtin Hotiyni qabag'on yo'sunluq qilib, o'turub edi.

Ushbu fursatlardakim, Behrada eduk, ov bahonasi bila g'ofilliqta Hotiy Totorning ustiga yurub o'turub, viloyatini va haramlarini bo'lg'onini ilikladuk. Namozni peshin sayrg'a o'tlanib, kemaga kirib, araq ichildi. Ahli majlis: Do'stbek va Mirzoquli, Ahmad Gadoyi, Muhammad Ali jang-jang asas, O'g'onberdi mo'g'ul, ahli nag'ma, Ruxdam, Bobojon, Qosim Ali, Yusuf Ali, Tengriquli, Abulqosim Ramazon lo'li. Namozni xuftangacha kemada ichib, namozni xuftan kemadin mast tofiq chiqib, o'tlanib, mash'alni ilgimga olib, daryo yoqasidin o'rdug'acha otning bu yuzig'a egilib, gah ul yuzig'a egilib, yakji-

lov chopib kelibturmen g'ariyib mast ekan-durmen. Tonglasig'a mundoq mash'al olib, o'rdug'acha yakjilov kelganimni sharh qildilar. Aslo xotiring'a kelmadi. Uyga kelganimda xeyli istifrog' qilibturmen.

Odina kuni sayr qila o'tlanib, kema bila suv-din o'ttuq. Ul yuzdag'i bog'ot va shukufalarni va nayshakar ekilgan yerlarni tafarruj qilib, dalv va charxlarini ko'rub, suv tortib chiqarmoq kayfiyatini so'rub, balki muqarrar suvlar tortturduk. Sayr asnosida ma'jun ixtiyor qilildi. Andin yonib kelib, kemaga kirildi. Minuchehrong'a dag'i ma'jun berilib edi, andoq ma'juniy bo'lub edikim, ikki kishi qo'ldab, turg'uzub edilar. Bir zamon suvning o'rtasida kemaga langar solib turuldi. Andin so'ng suv kuyi xeyli borildi. Muddattin so'ng yana kemani yuqqori boqa tortturduk. Ul oqshom kemada-o'q uyxulab, saharga yovuq o'rdug'a kelduk.

Shanba kuni rabiul-avval oyining o'nida oftob hamalga tahvil qildi. Ushbu kun namozi peshin sayr qila o'tlanib, kemaga kirib araq ichildi. Ahli majlis: Xoja Do'st Xovand, Do'st, Bek, Mirim, Mirzo Quli, Muhammadiy, Ahmadiy, Yunus Ali, Muhammad Ali jang-jang, Gadoyi tag'oyi, Mir Xurd asas, ahli nag'ma, Ruxdam, Bobojon, Qosim, Yusuf Ali, Tengriquli, Ramazon. Bir shoxobg'a kirib, mudatte suv quyi borildi. Behra to'g'risidin xeyli¹ quyiroqdin chiqib, kech namoz vaqtida o'rdug'a kelduk.

Ushbu kun Shoh Husayn Xushobdin keldi. Chun elchi yiborib, qadimdin turkka taal-

¹ *L. b.* – bu joyi tushgan.

luq viloyatlarni tilab, musolaha orag'a solilib edi, tavjih qilg'on yarmoqlar aksar ilikka tush-ti. Issiq ham yovushti. Hindubekka ko'mak Shohmuhammad muhrdorni, yana ba'zi munosabatliq yigitlarni tayin qilib, har qaysig'a faroxo'r hollarig'a yarasha vajhi istiqomat muqarrar va muayyan bo'ldi. Langarxong'akim, bu yurushlarg'a soye va bois ul edi. Xushobni inoyat qilib, tug' berib, muni ham Hindubekka ko'mak muqarrar qilduk. Behrada bo'lg'on turk va yerlik sipohilarning dag'i vajh va ulufalarini ortturub, Hindubekka ko'mak qo'yduk. Bu jumladin bir Minuchehrxon edikim, oti mazkur bo'ldi, yana Nazar Ali turk Minuchehrxonning urug'-qayoshi bo'lur edi, yana Sangarxon Janjuha va Malik Xast Janjuha edi.

Viloyat ishini musolaha umidi bila bir nav' qaror berib, yakshanba kuni rabiul-avval oyining o'n birida Behradin ko'chub, Kobulg'a murojaat qilduk. Kaldakaxorg'a kelib tushuldi. Ul kun ham g'ariyb yomg'ur edi. Kepanaklik, kepanaksiz barobar edi. O'rduning keyini kech namozi xuftang'acha kela qoldi. Bu yer va mulkning obutobini bilur kishilar alaxusus, janjuhkim, kakarning qadimiy dushmani edi, arz qildikim, Hotiy kakar oraliqta yamon kishi voqe bo'lubtur. Yo'lni ul urar, elini ul buzar. Andoq qilmoq kerakkim, bu oradin ketgay, yo anga go'shmoli yanbag'iy yetgay.

Bu ittifoq bila tonglasig'a Xoja Mir Mironni va Mirim Nosirni o'rdu bila ta'yin qilib, ulug' choshtga o'rdudin ayrilib, Hotiy kakarning ustig'akim, o'shul necha kunda Totorni o'lturub,

viloyati Parolag'a mutasarrif bo'lub, Parolada edi, nechukkim mazkur bo'ldi, idg'aduk.

Namozi digarda tushub, otqa bo'g'iz berib, namozi xuftanda ul yerdin o'tlanildi. Boshchi Malik Hastning Surpo o'tliq gujur navkari edi. Kecha yo'lni oziqib, saharg'a yovuq tushuldi. Pek Muhammad mo'g'ulni o'rdug'a yondurildi. Yorug' bo'lg'onda o'tlanildi. Chosht jiba kiyib, ildam yurduk, bir shar'iy qolgonda Parolaning savodi ko'rundi. Chopqunchi qo'yuldi. Burong'or Parolaning¹ sharqiy tarafi bordi. Ko'chbekkim, burong'or edi, – burong'orning orqasig'a ko'mak yiborildi. Juvong'or kishisi, g'ul kishisi Parolaning ustiga-o'q tiqilib bordi. Do'stbekni juvong'orning Parolaning ustiga borg'on kishining orqasig'a ko'mak yiborildi.

Parola jarlarning² orasida voqe bo'lubtur. Ikki yo'li bor: biri sharqi-janubiy yo'lidurkim, biz bu yo'l bila kelduk, jarlar usti bila kelur. Ikki tarafida obkan jarlar voqe bo'lubtur. Parolaning yarim kuruhidin andoq bo'lurkim, darvozasig'a yetguncha to'rt-besh yerda ikki taraf tin jar qilib, yakraha bo'lubturkim, bir tiyrgaz o'timi chevurub bormoq kerak. Yana bir yo'li g'arbi-shimoliy tarafidindurkim, bir keng qo'lining ichi bila kelib, Parolag'a chiqar, bu ham yakrahadur. O'zga hech tarafdin yo'li yo'qtur. Agarchi fasili va kungurasi yo'qdur, vale zo'r kelturgudek yeri ham yo'qtur. Atrofi yetti-sekkiz-o'n qari yakandoz jardir.

Juvong'or kishisi targilardin o'tub, darvozag'a tiqilib bordi. Hotiy o'ttuz-qirqcha ot-

¹ L. b. – bu joyi tushgan.

² L. b. – «jarlarning» tushgan.

luq jibaliq, kejimlik kishi bila qalin yayogʻi bila chopqunchini yondurub soldi. Doʻstbekkim, chopqunchining orqasigʻa koʻmak erdi, yetishib, yaxshi zoʻrlab, koʻp kishi sini tushurub, yogʻiyni bosti. Hotiy kakar ul orada mardonaligʻi bila mashhurdur. Har necha jadal qildi, boʻldura olmay qochti. Chun bu tangilarda toʻxtay olmadi, qoʻrgʻonigʻa yetgach, qoʻrgʻonini ham berkita olmadi. Chopqunchi keyinicha oʻq qoʻrgʻongʻa kirdilar. Bu Parola qoʻrgʻonining tangisi va jaridin gʻarbi-shimoli saridin yugurdilar, Hotiy jarida qochib chiqti. Munda ham Doʻstbek yaxshi bordi. Juldu Doʻstbekning otigʻa boʻldi.

Men oʻshul zamon Parola qoʻrgʻonigʻa kirib, Totorning uylarigʻa tushtum. Chopqun qoʻyar mahalda mening bila turargʻa muqarrar boʻlgʻon kishilardin baʼzi chopqungʻa borur edilar, ul jumladin, Amin Muhammad tarxon argʻunni va Qorachani bu jurmona jihatidin Surpo otliq gujurni boshchi qoʻshub, oʻrduning roʻbaroʻsigʻa besarupa sahro va biyobongʻa yiborildi. Tonglasigʻa gʻarbi shimoliy jardin oʻtub, xavidzorgʻa tushuldi. Vali xizonachigʻa bir necha yigitni qoʻshub, oʻrdu oligʻa yiborilidi.

Panjshanba kuni oyning oʻn beshida koʻchub, Andarobagʻakim¹, Suhon suvining yoqasidadur, tushuldi. Bu Andaroba qoʻrgʻoni Malik Hastning otasigʻa qadimdin taalluq ekan-dur. Hotiy kakar Hastning otasini oʻlturgʻondin soʻng, buzulubtur, ul fursatga buzuq edi.

Namozi xuftanda Kaldakaxordin ayrilgʻon oʻrdu, kishisi kelib qoʻshuldi. Hotiy Totorni

¹ L. b. – Andzor. Andazona.

olg'onda Parbat otlug' urug'ini kejimlik ot va peshkash bila manga yiborgandur, uchramay, keyin qolg'on o'rdu eliga yo'luqub, uruq bila kelib, peshkashlarini berib, mulozamat qildi. Langarxonkim, ba'zi muhimlar uchun Behradin keyin qolg'on uruq bila kelib edi, muhimlarni rost qilib, ba'zi yerlik el bila Behrag'a ruxsat berildi.

Dog'i qo'chub Suhon suvidin o'tub, bir push-ta ustig'a tushuldi. Hotiyning urug'i Parbatg'a xil'at kiydurub, Hotiyg'a istimolat farmonlar bitib, Muhammad Ali jang-jangning navkarini yiborildi. Bobo Do'st va Halohil boshlig' Humoyunning necha navkarini Nilobqa va Qorluq hazorasig'akim, Humoyung'a berilib edi. dorug'aliqqa kelib edilar. Sangar qorluq va Mirza Malviy qorluq boshliq o'ttuz-qirqcha kishi qorluq uluqlarni olib keldilar. Bir kejimlik ot peshkash qilib, mulozamat qildilar. Dilazok afg'oniyning ham cherigi keldi.

Ertasi andin ko'chub, ikki sha'riy kelib tushuldi. Bir balandiyg'a chiqib, o'rduni mulohaza qilib, buyurdukkim, o'rdu tevasini sanag'aylar, besh yuz yetmish teva chiqti.

Sunbul daraxtining ta'rifi eshilib edi, bu yurtta ko'rduk. Bu tog' domanasida sunbul daraxti ozroqtur. Biror-biror bo'ladur. Ilgarroq Hinduston ko'h domanasida sunbul daraxti qalin bo'ladur, uluq bo'ladur. Hindustoning hayvonot va nabototini zikr qilg'onda mazkur bo'lg'usidur.

Bu yurttin naqora vaqti ko'chub, chosht bo'la Sangdoki ko'talining tubig'a tushub,

namozi peshin andin ko'chub, ko'tal va ro'dtin o'tub, bir balandiyg'a tushuldi. Andin yarim kecha ko'chub, Behra borurda o'tgan guzarni sayr qila borilib edi. O'shul o'tgan guzarda bir ulug' oshliq jolasi loylabtur, egalari har necha qilib jolani tebra olmaydurlar. Bu oshliqni olib, bizning bila bo'lg'onlarga ulashildi. Asru dar-mahal oshliq edi.

Tushga yovuq kelib, Kobul suvi bila Sind suvining qotilishidin qo'yiroq ko'hna Nilobdin yuqqorroq ikki suvning orasig'a tushuldi. Nilobdin olti kema kelturub, burong'or, juvong'or, g'ulg'a qismat qilildi. Bajid suv o'tmakka mashg'ul bo'ldilar. Biz kelgan dushanba kuni, seshanba oqshomi, seshanba kuni va chahorshanba kunigacha suv kecha qoldilar. Panjshanba kuni ham oz-og'loq kishi suv kechti. Nilobdin kechgondin so'ng¹ Hotiyning Parbat otluq urug'inikim, Andaroba navohiysidin Muhammad Ali jang-jangning navkarini qo'shub, Hotiyg'a yiborilib edi, suv yoqasida kelib, Hotiydin bir kejimlik ot peshkash kelturdi. Nilob eli ham bir kejimlik ot peshkash kelturub, mulozamat qildilar.

Muhammad Ali jang-jangning Behrada turmoqqa havasi bor edi. Behra chun Hindubekg'a inoyat bo'ldi. Behra bila Sind daryosining orasidag'i viloyatlarni va ellarni, masalan, Qorluq, Hazora va Hotiy va G'ayosvol va Kitib Muhammad Ali jang-jangga inoyat bo'ldi. Raiyatliqqa bo'yun qo'yg'on raiyatliq qilg'ay. Har yerda har kimki, bo'yun qo'ymasa:

¹ *L. b.* – da bu joylari chalkashib ketgan. *Q. b.* dan olindi.

*Har kimki bo'yunni qo'ymasa oni tiygay,
Chopqoy, talag'ay, muti-u munqod etgay.*

Bu inoyatlardin so'ng Muhammad Ali jang-jangga xossa qora mahmallik boshliq, qalmoqi jiba berib, tug' ham inoyat bo'ldi. Hotiyning urug'ig'a ruxsat berib, Hotiyg'a qilich va bosh-oyoq va istimolat farmonlarini yiborildi.

Panjshanba kuni oftob chiqqonda suv yoqasidin ko'chuldi. Bu kun ma'jun yeyildi. G'ariyb gulzorlar ma'juniylikta tafarruj qilduk. Sariq arg'uvoniy parcha-parcha yerlarda yakdast sariq gullar ochilibtur¹. Yana ba'zi yerlarda afshon qilg'andek dahrim ochilibtur. O'rdu yovug'ida bir balandiy ustida o'tturub, gulzor tafarruj qilduk. Tarrohliq qilg'ondek bu tepaning olti tarafida bir dafa sariq va bir dafa arg'uvoniy gul xat-xat musaddas shaklda ochilibtur. Ikki tarafda gul ozroq edi, ko'z kor qilguncha ush-mundoq gulzor edi. Parshovarning² navohisida bahor vaqti yaxshi gulzorlar bo'ladur.

Sahar ul yurttin ko'chduk, kelurda daryo yoqasidin bir sher g'irqirab chiqti, otlar sher unini eshitgach, beixtiyor har sarig'a elni olib, titrab, jar va chuqurg'a o'zini tashladi. Yonib, yana jangalg'a kirdi. Buyurdukkim, govmish kelturub, jangalg'a solib, sherni chiqarg'aylar. Yana g'irqirab chiqti, har taraftin o'qladilar, men ham o'qladim. Xolviy³ piyoda nayza bila sancharda nayzaning sinonin ushata tishaldi.

¹ *L. b.* – bu iboralar yo'q.

² *Q. b.* – Pashovar.

³ *Q. b.* – Nuxoy.

Sher qalin o'q yeb, butag'a siqinib turub edi, Bobo yasovul qilich sug'urub, yaqin yurub edi, sher hamla qilurda, boshig'a chopti. Andin so'ng Ali Siystoriy belig'a chopti, sher o'zini daryog'a soldi, suv ichida-o'q o'lturdilar. Suvdin chiqarib, terisini buyurdukkim, olg'aylar.¹

Ertasig'a ko'chub, Bigromg'a yetib, Ko'rakat-riyni tafarruj qilduk. Bir savmaa yo'sunluq torroq va qorong'u uyginadur. Eshikdin kirgach, ikki-uch zina quyi tushgach, uzalib yotib kirmak kerak, sham'siz kirib bo'lmas. Bu uyning gird va navohisida soch va soqolkim qirqibturlar, benihoyat yotibdur. Bu Ko'rakatriyning atrofida Madrasa hujralaridek xeyli hujralar bordur. Kobulg'a avval kelgan yilikim, Ko'hat va Bannu va Dashtni chopildi. Bigromda ulug' bir yig'ochni tafarruj qilib, Ko'rakatriyni ko'rma-ganga taassuf yer eduk, xeyli taassuf yegudek yer emas emish. Ushbu kun mening bir yaxshi shahbozim (yo'g'oldi) kim, Shayxim Mirishkor saxlab edikim, turnani va laklakni asru xo'blar olib edi, ikki-uch tullab edi. Andoqlar olib edikim, mendek havassiz kishini qushchi qilib edi.

Malik Buxon² va Malik Muso boshliq Dalizok afg'onlari ulug'larig'a olti kishig'a yuzar misqol kumush, birar to'nluq parcha, uchar o'y, birar govmush Hinduston savg'osidin berib, o'zlarig'a ham faroxo'r hollari yarmoq va parcha va govmush inoyat bo'ldi. Ali Masjid tushganda, Ma'ruf oltuq Dilazok Yaqub xayli ba'zi oshliq,

¹ L. b. – ilg'aylar.

² Q. b. – Tarxon.

o'n qo'y, ikki xarvor gurunch, sekkiz ulug' panir peshkash kelturdi.

Ali Masjidtin Yada-bir tushuldi, Yada-birdin Jo'yi Shohiyg'a namozi peshin yetib tushuldi. Ushbu kun Do'stbekka muhriq isitma bo'ldi. Jo'yi Shohiydin sahar ko'chub, Bog'i Vafoda tushlanib namozi peshin Bog'i Vafodin tebraduk. Gandamakning Siyoh obidin o'tub, kech namozi shomda bir xavidzorda tushub, otlarni to'yg'ozub, bir-ikki giridin so'ng otlanib, Surxobdin o'tub, Karkta tushub, uyquladuk.

Tong otmasdin burun yana otlanib, Qo'ratuning yo'li ayrilishidin men besh-olti kishi bila Qo'ratuda solg'on bog'ni tafarruj ko'ra bordim. Xalifa va Shoh Hasanbelmi va o'zga elni to'g'ri yo'l bila yiborildikim, Qo'ruq soyda manga ta-vaqquf qilg'aylar. Qo'ratug'a yetganda Shohbek arg'unning Qizil otliq tavochisi Shohbekning Koxonni olib, talab, yong'on xabarini kelturdi. Farmon andoq edikim, hech kim ilgari xabar etmagay.

Namozi peshin bor edikim, Kobulg'a yetduk, Qutluqqadamning ko'prugiga yetguncha hech kim xabardor bo'lmadi. Andin so'ngra Humoyun bila Komron xabar topib, ot minguncha fursat bo'lmadi, chuhralarig'a ko'tartib, shaqr darvozasi bila ark darvozasi orasig'a kelib, mulozamat qildilar. Namozigardig'a Qosimbek va shahr qozisi va Kobulda qolg'on mulozimlar va arboblarning kelib, mulozamat qildilar.

Odina kuni rabiul-oxirning g'urrasida namozigardig'a chog'ir majlisi bo'ldi. Shoh Hasang'a xossa bosh-ayoq inoyat qildim.

Shanba sahari kema kirib, sabuhiy qilduk. Nurbek bu suhbatı ud cholur edi, ul vaqt to-yib emas edi. Namozı peshın kemadın chiqib, Gulkına bıla tog'ning orasıdag'ı bog'ni sayr qilib, namozı digar Bog'ı Bınafshaga kelıb ichıldı. Namozı shom Gulkına tarafıdın fasılıdın chiqib, arkka keldım.

Seshanba kechasi oyning beshıda Do'stbek-kim, yo'lda tunda isıtıb edi, tengrı rahmatıg'a bordı. Base mutaassır va muta'allım bo'lduk. Do'stbekning na'shını G'aznıg'a eltıb, sulton-ning ravzasınıng eshıkınıng olıda qo'ydılar. Do'stbek xeylı yaxshı yıgıt edi, beglıgıda hanuz taraqqıy qılır edi. Beglıgıdın burun ıchkıllık-larıda necha qatla yaxshılar bordı. Ul jumladın bır martaba Andıjonning bır yıg'ochı Rabo-tı Zavraqda Sulton Ahmad Tanbal shabıxun kelganda, men o'n-o'n besh kışi bıla yurub, chopqunchısını urub yondurub, g'ulıg'a yet-ganda yuzcha kışi bıla turub edi, ul fursatta uch kışi qoldıkım, menıng bıla to'rt bo'lg'oy, ul uchdın birısı Bo'st Nosır edi, yana bırı Mirzo-qulı ko'kaltosh, yana bırı Karımdod. Men o'q jı-balab edım. Tanbal yana bır kışi bıla yasolıdın eshıklık-tuvurluq ilgarrak turub edi, men Tan-bal bıla ro'baro' bo'ldım, bır o'q dubulg'asıg'a tegar urdım, yana bır o'q qolqonını qorıbchısı bıla ko'klay urdım. Bır o'q butumg'a o'tkara ottilar. Tanbal boshıng'a choptı. Ajabdurkim boshımda dubulg'a bo'rki edi, bır torı kesılma-di, vale boshıng'a xeylı yara bo'ldı. Yana hech ko'mak yetmadi, menıng bıla hech kım qolma-di, zarurat bo'lub, jılov yondurdım. Mendın

keyinrak Do'stbek edi, mendin o'tub, aning chopibdur. Yana Axsidin chiqar mahalda Boqi hez bilakim, agarchi hez derlar edi, vale qilichg'a mahkam erklik edi, chopqulashti. Axsidin chiqqonda, men sekkiz kishi bila qolg'onda ham bila edi. Ikki kishidin so'ng Do'stbekni tushurdilar.

Bekliklarida Suyunchukxon sultonlar bila kelib, Toshkantda Ahmad Qosimni qabag'onda alarni bosturub kirdi. Qabolda yaxshi jonlar tortti. Ahmad Qosim bularg'a xabar qilmay, solib chiqti. Anda ham xonlar, sultonlarni bosturub, Toshkantdin yaxshi chiqti. Yana so'ngra Shirim tag'oyi va Mazid va alar yog'iqqonda G'aznidin ikki-uch yuz kishi bila ilg'ob kelaturg'onida bu mo'g'ullar uch-to'rt yuz o'bdon yigitlarni Do'stbekning olig'a yibordilar. Sharukon navohisida olig'a borg'onlarni yaxshi bosib, qalin kishi tushurub, g'alaba bosh kesib kelturdi. Bajur qo'rg'onini ham Do'stbek kishisi eldin burunroq, yetishib, fasilg'a chiqti. Parolada ham Do'stbek yurub, Hotiyni bosib qochurdi. Parola fatx bo'ldi. Do'stbekning favtidin so'ngra viloyatini inisi Mirim Nozirg'a inoyat qildim.

Odina kuni rabiul-oxirning sekkizida qo'rg'ondin Chohorbog'qa chiqildi.

Seshanba kuni oyning o'n ikkisida Sulton Husayn mirzoning uluq qizi Muhammad Sulton mirzoning onasi Sultonim bekimkim, bu fataratlarda Xorazmg'a tushub edi. Yo'lbars sultonning inisi Esanquli sulton Sultonim begimning qizini olib edi. Kobulg'a keldilar. Alar o'lturg'ali Bog'i Xilvat ta'yin bo'ldi. Ul bog'da

tushgandin so'ng men borib ko'rdum. Chun egachi edilar, ta'zim va ehtiromlari jihatidin yukundum, alar ham yukundilar, yurub orada ko'rushuldi. So'ngralar doim bu qoidani mar'iy tutarlar edi.

Yakshanba kuni oyning o'n yettisida Bobo Shayx haromnamaknikim, xeyli muddat bandta edi, gunohini afv qilib, bandtin chiqarib, xil'at in'om bo'ldi.

Seshanba kuni oyning o'n to'qqizida tush qayta Xoja Seyoron sarig'a otlanildi. Bu kun ro'za edim. Yunus Ali alar taajjub qilib dedilarkim, seshanba kuni va sayr va ro'za – bu g'aribtur. Behzodg'a kelib, qozisining uyiga tushuldi. Kechasi suhbat angizi bo'ldi. Qozi arzg'a yetkurdikim, mening uyumda mundoqlar bo'lg'on emas, podshoh hokimdurlar. Bovujudkim, majlis asbobi muhayyo bo'lub erdi, qozining istir'zoyi xotiri uchun, ichku bartaraf bo'ldi.

Chorshanba kuni Xoja Seyorong'a borildi.

Panjshanba kuni oyning yigirma birida bog' solg'on tog'ning tumshug'ida ulug' gird sufa soldurduk.

Odina kuni ko'prukdin jolag'a o'turduk. Sayyodlarning uylarining to'g'risig'a yetganda, sayyodlar bir dang degan qushni tutub ekandurlar, kelturdilar. Mundin burun dangni ko'rugan emas edi, g'arib hay'atliq qushtur, sharhi Hinduston hayvonotini zikr qilg'onda kelgusidur.

Shanba kuni oyning yigirma uchida bu gird sufaning ustiga chanor niholi va tol niholi dar-

harn tikildi. Namozni peshin chog'ir suhbatini bo'ldi, sahari ushbu sufaning ustida sabuhiy qilduk.

Tushdin so'ngra o'tlanib, Kobulg'a mutavajjiq bo'lduk. Xoja Hasang'a kalla mastliqda yetib, lahza uyxuladuk. Xoja Hasandin o'tlanib, yarim kecha Chorbog'ka kelildi.

Xoja Hasanda mastlik holatida, Abdullo to'n ufrog'i bila o'zini suvg'a soldi. O'tlang'onda kechrak bo'la sovuqg'a to'ngub kela olmadi. Kechasi Qutluq Xojaning tiyulida bo'lub, tonglasi o'tgan kunning bei'tidollig'idin mutanabbih bo'lub, toib keldi. Men dedim, filhol ul nav' tavba muyassar bo'lg'ay, yo yo'q, bori filhol mundaq tavba qilkim, mening suhbatimdin o'zga yerda ichmagaysan. Qabul qildi. Bir necha oy bu qoidani mar'iy tutub, o'ziga bo'ldura olmadi.

Dushanba kuni o'yning yigirma beshida Hindubekkim, Behrada va ul viloyatlarda sulh umidi bila qo'yulub edi, keldi.¹ Sulh va saloh so'zlarig'a quloq solmay, bizning so'zlarimizni ko'zga ilmay, quloqqa olmay, biz yong'och-o'q qalin afg'on va Hindustoniyni yig'ib, Hindubekning ustiga Behraga yurudi. Yerlik el ham afg'onlar sari evruldi. Hindubek Behrada tura olmay, Xushob kelib, Dinkut viloyatining orasi bila Nilob kelib, Kobulg'a keldi. Deva hind-u Sektuning o'g'li va yana har hindukim, Behradin band qilib kelturilib edi, muhimlarini biror nima berib qat' qildilar. Bu hindularg'a otlar, bosh-ayoqlar in'om qilib, ruxsat berildi.

Odina kuni o'yning yigirma to'qqizida badanimda isitma harorati zohir bo'ldi. Fasd

¹ L. b. - tushgan.

qildim. Kun olush, gohi ikki kun osha, gohi uch kun osha isitur edim. Har isitqonda g'arqi araq bo'lmag'uncha isitma qo'ymas edi. O'n-o'n ikki kundin keyin, Mullo Xojago mamzuj chog'irni nargis bila berdi, bir-ikki qatla ichtim. Foyda ham qilmadi.

Yakshanba kuni jumodil-avval oyining o'n beshida Xoja Muhammad Ali Hosttin keldi. Bir egarlik ot peshkash qilib, tasadduqqa yormoq ham kelturdi. Muhammad Sharif munajjim va Host mirzolari ham Xoji Muhammad Ali bila kelib, mulozamat qildilar. Tonglasi dushanba kuni Mullo Kabir Koshg'ardin keldi. Andijon viloyatidin Koshg'ar bila evrulub, Kobulg'a kelibtur.

Dushanba kuni oyning yigirma uchida Malik Shoh Mansur Yusuf zayi olti-yetti Yusuf zayining ulug'lari bila Savoddin kelib, mulozamat qildi.

Dushanba kuni jumodis-soniy¹ oyining g'urrasida Shoh Mansur boshliq Yusuf zayi afg'oniyning ulug'larig'a xil'atlar kiyduruldi. Shoh Mansurg'a qumosh to'n, jiba va tug'masi bila yana biriga yalaklik² qumosh to'n, yana olti kishiga qumosh to'nlar kiydurub, ruxsat berildi. Andoq muqarrar bo'ldikim, Abuhadin³ yuqqori Savod viloyatig'a daxl qilmag'aylar va jami' raiyatlarni ichlaridin chiqarg'aylar. Yana Bajur va Savodta ekan afg'onlar olti ming xarvor oshlig' devong'a tushurgaylar.

Chorshanba kuni oyning uchida jullob ichtim. Yana ikki kun jullob ichtim.

¹ L. b. - jumodil-oxir

² Q. b. - bilaklik.

³ Q. b. - Anuh.

Shanba kuni oyning oltilisida doruyi kor ichtim.

Dushanba kuni oyning sekkizida Xalifaning ulug' qizig'a Qosimbekning kichik o'g'li Hamzaning sochig'i kirdi. Ming shohruxiy edi. Bir egarlik ot ham tortti.

Seshanba kuni Shoh Hasan Shohbek chog'ir suhbatig'a ruxsat tilab, Xoja Muhammad Ali boshliq ba'zi beklar bila ichkilarni uyiga eltti. Yunus Ali va Gadoyi tag'oyi mening qoshimda edilar. Men hanuz chog'irdin parhez qiladur edim. Dedimkim, hech andoq bo'lmaydurkim, men hushyor o'lturub, jami' chog'ir irtikob qilg'aylar va men sop-sog' turub, bir bo'lak o'zini masti sharob qilg'aylar. Keling, mening qoshimda ichinglar, menzamone tafarruj qilay, hushyorlar bila mastlarning ixtilot va omizishi nechuk bo'lurin bilay. Chanor bog'ining eshigida solg'on suratxonaning sharqi-janub sari yonida kichikrak oqqina uy tiqilib edi, gohi anda o'lturur edim, anda majlis bo'ldi, So'ngra G'iyos masxara keldi, necha qatla majlisdin mutoyaba tariyqi bila buyuruldikim ixroj qildilar. Oxir shaloyin bo'lub, masxaraliq bila majlisda yo'l topti. Turdi Muhammad qipchoq bila mullo Kitobdorni ham majlisqa tiladuk. Shoh Hasang'a va uyidag'i majlis ahlig'a bu ruboiyni badohatan aytib yiborildi:

*Ahbobki bazmida guliston husntur,
Yo'q lek alar bazmida bizga¹ dastur,
Ul jam'da gar huzuri jam'iyat bor,
Yuz shukr, bu jam' behuzur emastur.*

¹ Q. b. – erga.

Ibrohim chuhradin yiborildi. Ikki namoz orasig'a yaqin bu majlis ahli mast bo'lub tarqashtilar. Bu behuzurluq muddatida taxtiravon bila ko'tarib yurur edim. Bir necha kun burunroq mamzuj chog'ir ichilib edi, yana foyda qilmaganidin, ichilmaydur edi. Naqohat ayyomning oxirida Tolor chamanining g'arbi-janub tarafida, olma tubida majlis tartib qilib, mumzuj chog'ir ichtim.

Odina kuni oyning o'n ikkisida Ahmadbek va Sulton Muhammad do'ldoykim, Bajurda ko'mak qo'yulub edi, keldilar.

Chorshanba kuni oyning o'n yettisida Haydar Naqiyning, bog'ida Tengriberdi ba'zi beklarga va yigitlarga suhbat beradur edi, men ham ul suhbatqa borib ichtim. Kech namozi xuftan andin qo'pub kelib, ulug' oq uyda ham ichildi.

Panjshanba kuni oyning yigirma beshida Mullo Mahmud qoshida fikh sabaqi o'qumoq ta'yin bo'ldi.

Seshanba kuni oyning salxida Shoh Shujo' arg'uning qoshidin Abu Muslim ko'kaltosh elchilikka keldi. Bir to'pchoq ot peshkash kelturdi. Ushbu kun Yusuf Ali rikobdor Chinor bog'idagi havzni uzub, qo'l solib, yuz navbat evruldi. Bosh-oyoq va egarlik ot va yormoq in'om bo'ldi.

Chorshanba kuni rajab oyining sekkizida Shoh Hasanbekning uyig'a borib ichtim. Aksar beklar va ichkilar bor edilar.

Shanba kuni oyning o'n birida majlis edi, namozi digar bila namozi shomning orasida, ulug' Kabutarxonaning tomining ustig'a chiqib

ichildi. Kechroq bir kecha o'tliq dehi Afg'on saridin yo'l bila shahr sari o'tub boradur. Tahqiq qilildi: Darvesh Muhammad sorbon ekan-durkim, Mirzoxon qoshidin elchilikka keladur ekandur, tom ustidin chorladuk. Deyildikim, to'ra va to'qa bila elchilik qilurni qo'yg'ul, betakallufona kelgil! Darvesh Muhammad kelib, suhbatga o'turdi, ul fursatta toib edi, ichmas edi. G'oyati shabqacha munda ichildi.

Tonglasi devon o'turg'onda rusum va qoida bila kelib, Mirzoxon yiborgan peshkashlarni tortti. O'tgan yil yuz tashvish va ko'p va'da bila tabob ul yuzdagi aymoqlarni ko'churub, Kobul kelturub eduk. Kobul tor yerdur, aymoq va atroknining gala-qorasig'a farog'at bila qishloq va yayloq yer emas. Sahronishin elni o'z ko'nglug'a qo'ysa, hargiz Kobulni havas qilmas. Qosimbekka xizmat qilib, ul yuzga o'tar uchun, org'a soldilar, Qosimbek ko'p mubolag'a qildi. Oxir aymoqlarg'a Qunduz va Bog'lon sari o'tmak uchun ruxsat oldi.

Hofiz Mir kotibning og'a-inisi Samarqandtin kelib erdi, bu fursatta Samarqandg'a ruxsat berib, Fo'lod sultong'a devonimni yibordim. Devonning orqasida bugina qit'ani bitidim:

*Ul sarvning harimig'a gar yetsang, ey sabo,
Bergil bu hajr xastasidin yod ko'ngliga.
Rahm aylabon sog'inmadi Boburni, bor umid
Solg'ay Xudoy rahmni Fo'lod ko'ngliga.*

Odina kuni oyning o'n yettisida Shoh Mazid ko'kaltosh Muhammad Zamon mirzo qoshidin

tasadduq va peshkash ot kelturub, mulozamat qildi. Ushbu kun Shohbekning elchisi Abu Muslim ko'kaltoshqa xil'at kiydurub, in'om qilib, ruxsat berildi. Xoja Muhammad Ali bila Tengriberdiga ham viloyatlarig'a – Xost bila Andarobqa bormaqqa ushbu kun ruxsat bo'ldi.

Panjsanba kuni oyning yigirma uchida¹ Muhammad Ali jang-jangkim, Kachakut va Qorluq navohisida qo'yub, ul viloyatlarni anga uhda qililib edi, Mirzoyi Malviy Qorluqning o'g'li Shoh Hasan yana Hotiyning kishisi ham bila keldilar. Ushbu kun Mullo Alixonkim, Samarqandg'a ko'chini kelturg'ali borib edi, kelib, mulozamat qildi.

Abdurrahmoniy afg'on Gardiz sarhadida o'ltururlar adi, mol va muomalada rayij emas edilar, borur-kelur korvoniylar ham bulardin mutazarrir edilar. Chorshanba kuni, rajab oyining yigirma to'qquzida bu afg'onlarni chopa otlanildi. Tangi Vag'chon navohisida tushub, osh yeb, kech namozi peshin andin otlanduk. Kechasi yo'l oziqib, Panjob Shahnaning sharqi-janubi sari pushtalarda va dashtlarda xeyli sargardonlik tortildi. Muddatdin so'ngra yo'lg'a kelib kirduk. Chashmayi Paraning ko'talidin oshib, Gardiz sari² boqishliq qo'lidin farz vaqtida tuzga chiqib, chopkun yiborildi. Bir bo'lak cherik eli Kirmosh tog'i sarig'akim, Gardizning sharq va janubidur, chopqun bordilar. Ul chopqunchi orqasig'a Xisrav Mirzaquli va Sayid Ali boshliq g'ulning o'ng qo'lini yiboril-

¹ Q. b. – yigirma to'qqizda.

² Q. b. – tushgan.

di, ko'proq cherik eli Gardizning sharqiy tara-
fi julga yuqqori boqa chopqun bordilar. Bu
chopqunchining orqasig'a Sayid Qosim eshik
og'a, Mirshoh qavchin, Qiyom, Hindubek,
Qutluqqadam, Husayn boshliqlarni yiboril-
di. Chun cherik elining ko'pragi julg'a yuqqori
boqa chonqun borib edilar, alarni uzotg'on-
din so'ng, men ham bularning keticha-o'q
yurudum. Bu julga yuqqori el yiroq ekandur.
Julga yuqqori borg'on cherik elining otlari
bo'ldurdi. Oncha nima cherik eliga tushmadi.
Qirq-ellikcha afg'on yayog'i tuzda ko'runur. Bu
cherik orqasig'a borg'onlar alar sari mutavajjiq
bo'lub, manga kishi chapturdilar. Men dag'i il-
damroq yurudum. Men yetguncha Huseyn va
Hasan bataqrib va behisob yolg'uz ot solibtur.
Afg'onlarning ichiga kirib, qilich solur mahalda
otini o'qlab yiqarlar. Qo'pg'och, oyog'iga chopib
yiqiturlar. Tush-tushidan pichoqlab, chopqu-
lab, pora-pora ayladilar. Bu beklar boqib turub,
ko'makka yetishmaslar.

Bu xabar kelgach, Gadoyi tag'oyi, Poyan-
da Muhammad qoplon, Abul-Hasan qo'rchi,
Mu'min atka boshliq ichkilarni va yigitlarni ji-
lovrez ilgari yiborib, o'zum ham tez yurudum.
Boridin burun Mu'min atka bir afg'onni nay-
za bila tutub, boshini kesib kelturdi. Abul-
Hasan qo'rchi ham yalang'och yaxshi yurub,
afg'onlarning olin to'sub, ot solub, bir afg'onni
chopqulab yiqib, boshini kesib kelturdi. O'zi-
ga uch yara bo'lub edi, otig'a bir yara bo'lub
edi. Poyanda Muhammad qoplon ham yaxshi
yurub, bir afg'onni chopqulab boshini olib kel-

turdi. Agarchi, Abul-Hasan bila Poyanda Muhammad qoplonning yigitliklari mundin burun ham ma'lum edi, bu yurushta ishlarini ko'prak bildurdilar. Bu qirq-ellikcha afg'on tamomisi o'qqa, qilichqa borib, poralandilar. Bu afg'onlar qirilg'ondin so'ng, bir xavidzorg'a tushub, buyurdukkim, bu afg'onlarning boshlarini kalla manora qildilar.

Yo'lda keladurgonda, Husayn bila bo'lg'on beklar keldilar. Siyosat va g'azab bila dedimkim, muncha kishi boqib turub, bir necha yayoq afg'ong'a tup-tuz yerda mundoq yigitlarni oldurubsiz. Sizlarni to'ra-muchangizdin, par-gana va viloyatingizdin ayrib, soqallaringizni qirqib, shahrlarda tashhir qilmoq kerak, to har kim mundoq yigitni mundoq g'animg'a oldur-sa, mundoq tup-tuz yerda ilik tebratmay boqib tursa, sazosi bo'lg'ay.

Kirmosh sari borg'on cherik eli qo'y va o'lja olib keldilar. Bobo Qashqa mo'g'ul ham Kirmosh sari borg'on cherik bila borib edi. Bobo Qashqag'a bir afg'on qilich tegurur mahal-da yaxshi to'xtab turub, o'qini to'ldurub, bu afg'onni urub yiqibtur.

Sabohi ko'chub, Kobul sari mutavajjih bo'lduk. Muhammad baxshi va Abdul-Aziz miroxur va Mir Xurd bakovulga hukm bo'ldi-ki, Chashmayi Parani o'tub, andin qirg'ovul ovlagaylar. O'zum bir necha kishi bila Maydoni Rustam yo'li bilakim, ko'ruilmagan edi, bordim. Maydoni Rustam tog'larning orasida voqe bo'lubtur, tog'ning boshig'a yovuqroq, xeyli safoliq yer emastur. Ikki tog'ning orasi-

da kengrak julgasi tushubtur. Janub tarafida pushtaning etagida kichikrok chashmasi bor. Ulug'-ulug' rim¹ daraxtlari ham bor. Bu Maydoni Rustamning Gardiz tarafidin chiqar yo'lda chashmalari bor, daraxtlari ham xeyli bor. Bu kichikrak daraxtlardur. Agarchi julgasi torroqdur, vale bo'g'ina daraxtlarning tubi ko'p ko'k, yaxshig'ina o'langlardur. Safoliqqina julgadur. Maydoni Rustamning janub tarafidag'i tog'ga chiqildi. Kirmosh tog'lari va Bangash tog'lari oyoq ostida ko'runadur. Kirmosh tog'laridin nari pashkol bulutlari tah-batah ko'runadur, ul viloyatlar sarikim pashkol bo'lmas, aslo bulut ko'runmaydur. Namozı peshin Xuniyg'a² kelib tushuldi. Tonglasi Muhammad og'o kentining navohisida tushub, majun irtikob qilib, baliq dorusini suvg'a solib, bir pora baliq tutuldi.

Yakshanba kuni sha'bon oyining uchida Kobulg'a kelduk. Seshanba kuni oyning beshida Darvesh Muhammad Fazliy bila Xisravning navkarini tilab, Husayn olilg'onda qisqaliq qilg'onlarning kayfiyatın so'rub, to'ra-muchalaridin hurattuk. Namozı peshin chapor tubida chog'ir majlisi bo'ldi. Bobo Qashqa mo'g'ulg'a xul'at in'om bo'ldi.

Odina kuni oyning sekkizida Kepakkim, Mirzoxon qoshig'a borib edi, keldi.

Panjshanba namozı digar Xoja Seyoron va Boron va Domani ko'hning sayrig'a otlandim. Namozı xuftanda. Momo xotung'a tushuldi. Tonglasi Iсталif kelib tushtuk. Ul kun ma'jun yeyildi.

¹ Q. b. – nim.

² Q. b. – Hulig'a.

Shanba kuni Istalifda chog'ir suhbatı bo'ldi. Sabohi Istalifdin o'tlanib, Sanjid darasining orasi bila o'tub, Xoja Seyoronning yaqiniga yetganda, bir ulug' yilonkim, yo'g'onligi bilakcha va uzunligi bir quloch bo'lg'ay edi, o'tturuldi. Bu ulug' yilonning ichidin bir inchkarak yilon chiqti, g'olibo o'shul yaqinda yutub ekandur, bori a'zosi butun edi. Bu inchka yilon bu ulug' yilondin juzviy qisqaroq bo'lg'ay edi. Bu inchka yilonning ichidin bir katta sichqon chiqti, ul ham butun edi. Hech yeri hal bo'lmaydur edi. Kelib Xoja Seyoronda chog'ir majlisi bo'ldi. Ushbu kun kichkina tunqatordin ul yuzdagi beklarga buljor liba farmanlar bitib yiborildikim, cherik o'tlaniladur, muqarrar bo'lg'on buljorg'a ehtimom qilib, yetisha kelsunlar.

Sabohi o'tlanib, ma'jun yeb, Parvon suv qotilishida Parvon suvig'a bu el dasturi bila baliq dorusi solib, qalin baliq tutuldi. Mirshohbek oshu ob tortti.

Mundin o'tlanib, Gulbahor borildi. Namozı shomdin so'ng chog'ir suhbatı bo'ldi. Bu suhbatlarda Darvesh Muhammad sorbon bo'lur edi. Agarchi yigit edi va sipohi edi, vale chog'ir irtikob qilmas edi, toib edi. Qutluq Xoja ko'kaltosh muddati madid edi, sipohiliqni tark qilib, darvesh bo'lub edi. Yoshi ham xeyli bor edi, soqoli xud oppoq oqorib edi. Hamisha suhbatlarda harifi sharob edi.

Men Darvesh Muhammadqa dedimkim, Qutluq Xojaning soqolidin uyat! Darvesh va qari va oq soqolliq hamisha chog'ir ichar. Sen sipohi

va yigit va qop-qora soqollik, xarg'iz ichmassen, ne ma'ni?

Chu mening da'b va tariyqim andoq emas edikim, ichmas kishiga chog'ir taklifi qilg'aymen. Ushmuncha bila-o'q hazl bila o'tti, chog'ir taklifi qililmadi. Sabohi sabuhiy qilduk.

Chorshanba kuni Gulbahordin otlanib, Abunning¹ kentida tushub, tarm yeb, otlanib, Bog'oti Xumg'a borib tushuldi. Namoz peshindin so'ng chog'ir suhbat bo'ldi. Tonglasig'a andin otlanib, Xoja Xond Saidning mazorini tavof qilib kelib, Jina qo'rg'onidin jolag'a kirduk. Panjhir suvining qotilishida jalo tog'ning to'kunishig'a urunub, g'arq bo'layozdi. Ruhdam, Tengriquli, Mir Muhammad jolabon jola tog'ga urungach, suvg'a yiqildilar. Ruhdam bila Tengriqulini tashvishlar bila tortib, jolag'a-o'q chiqordilar. Chini piyola va qoshuq va doira suvg'a bordi. Munding o'tub, Sangiburiyda to'g'risig'a yetganda, jola suvning o'rtasida shohkamu yo band uchun qoqqon qozuqqamu urundi, Shoh Hasan Shohbek arqong'a-o'q bordi. Mirzoquli ko'kaltoshni ola-o'q yiqildi. Darvesh Muhammad sorbon ham suvg'a yiqildi. Mirzoquli tavre bordi. Yiqilur mahalda iligidagi qovun kesadur, pichoqni jaloning ustidagi bo'ryog'a sanchib-o'q yiqildi. Mirzoquli jolag'a kelmay, to'n ufrog'i bila uzub chiqti, joladin chiqib, ul oqshom jolabonlarning uyida qo'nduk. Biaynihi suvg'a borg'on haftrang piyoladek Darvesh Muhammad peshkash qildi.

¹ Q. b. – Alunning.

Odina kuni suv yoqasidin o'tlanib, Inich-kadin quyig'a Ko'hbacha'ning domanasida tushub, o'z iligimiz bila g'alaba misvok olduk. Andin o'tub, Xoja Xizriylarning uyida osh yeb, o'tlanildi. Namozni peshin Qutluq Xojaning yatu-li Lamg'oniy kentig'a tushduk. Qutluq Xoja mohazare hozir qildi. Tanovul qilib, o'tlanib, Kobulg'a kelildi.

Dushanba kuni oyning yigirma beshida Darvesh Muhammad sorbong'a xossa xil'at va egarlik ot inoyat qilib, navkarlikka yukunduruldi. To'rt-besh oy sochimni qirqmaydur edim, chorshanba kuni oyning yigirma yettisida sochimni qirqtim. Bu kun chog'ir suhbat bo'ldi.

Odina kuni oyning yigirma to'qquzida Mir Xurdining Xindolning atkaligiga yukunduruldi. Ming shohruhiy sochiq kiyurdi.

Chorshanba kuni ramazon oyining beshida Tulak ko'kaltoshning qoshidin Barlos Jiki otliq navkari arzadoshtini kelturdi. O'zbek chopquchisi ul navohig'a kelgan ekandur, Tulak chiqib, urushub bosibtur. Bir tirik o'zbek va bir bosh kelturdi.

Shanba oqshomi oyning sekkizida Qosimbekning uyiga borib, og'iz ochduk. Bir egarlik ot tortti.

Yakshanba oqshomi Xalifaning uyida og'iz ochildi. Bir egarlik ot peshkash qildi. Tonglasi Xoja Muhammad Ali va Jon Nosirnikim² cherik maslahatig'a tilalib edi, viloyatlaridin keldilar.

Chorshanba kuni oyning o'n ikkisida Komronning tag'oyisi Sulton Ali mirzokim, men

¹ Q. b. - Ko'fcha.

² L. b. - Xonjirnikim.

Xostdin Kobulg'a borur yil Koshg'arg'a borib edi, nechukkim mazkur bo'ldi, keldi.

Panjschanba, kuni oyning o'n uchida Yusuf Alining¹ dafi va rafig'a azm-jazm qilib, otlanib, Dehi Ya'qub suvining Kobul tarafidagi o'langga tushuldi. Otlanur choq Boboxon axtachi yaramasroq ot tortti, achchig'imdin bir musht yuziga urdum, Binsir, barmog'im tubidin sindi. Ul fursatta xeyli og'rimadi. Kelib, yurtqa tushganda xeyli tashvish berdi. Bir necha mahal xeyli riyozat torttim. Xat bitiy olmas edim, oxir chur butti. Ushbu safar qilg'on yurtta mening xolam Davlat Sul-tonxonimning Qutluq Muhammad otliq ko'kaltoshi Koshg'ardin Xonim qoshidan xat va bilkot keltirdi. Ushbu kun Dilazokning ulug'lari Buxon va Muso kelib, peshkashlar bila mulozamat qildilar.

Yakshanba kuni oyning o'n oltisida Qo'ch-bek keldi.

Chorshanba kuni oyning o'n to'qqizida ko'chub, Bichokdin² o'tub, doim tushar yerga-kim, ushbu Bichok rudining yoqasidur, tushuldi. Bomiyon va Kohmard va G'o'ri Qo'chbekka taalluq viloyatlar o'zbakka yaqin jihatidin Qo'chbekni bu cherikdin maof tutub, ushbu yurttin o'zum chirmog'on mandil va bosh-ayoq inoyat qilib, viloyatig'a ruxsat berildi.

Odina kuni oyning yigirma birida Bodom chashmag'a tushduk. Tonglasi Borik ob tushuldi. O'zum Qoratuvni sayr qilib keldim. Ushbu

¹ Q. b. – Yusuf Zayi.

² Q. b. – Tipxok (Tarjimalarda Put-xok. But-xok).

yurtta yig'ochdin asal topildi. Ko'ch-barko'ch mutavajjix bo'lduk.

Chorshanba kuni oyning yigirma oltisida Bog'i Vafoda tushduk.

Panjschanba kuni bog'da-o'q bo'ldum. Odi-na kuni ko'chub, Sul-tonpur-din o'tub tushul-di. Bu kun Shoh Mir Husayn viloyatidan keldi. Buxon va Muso boshliq Dilazokning ulug'lari ham bu-kun keldilar. Savodqa Yusuf zayining dafig'a azimat qililib edi, Dilazok maliklari arz-g'a yetkurdilarkim, Hashang'arda ulus qalin-dur, oshliq ham ko'p topulur, Hashang'arg'a sa'y qildilar. Mashvarat qilib, so'zni munga qo'yul-dikim, chun Hashang'arda oshliq qalin emish, andag'i afg'onlarni chopib, Hashang'ar qo'rg'onini yo Parshovar qo'rg'onini rost qilib, bu oshliqdin zaxira solib, Shoh Mir Husayn-ni bir pora yigitlar bila anda qo'yulg'ay. Bu – maslahat uchun Shoh Mir Husayng'a o'n besh kunluk buljor bila ruxsat berildikim, viloyatig'a borib, yarog'ini qilib kelgay.

Tonglasig'a ko'chub, Jo'yi Shohiyga ke-lib tushduk. Tengriberdi, Sul-ton Muhammad do'ldoy keyindin bu yurtqa keldilar. Hamza ham Qunduzdin bu-kun keldi.

Yakshanba kuni oyning salxina Jo'yi Sho-hiydin ko'chub, Qirq ariqqa tushuldi. Men bir necha maxsuslar bila jolag'a kirib keldim. Iyd hiloli bu yurtta ko'ruildi.

Darayi Nurdin bir necha ulog' chog'ir kel-turub edilar, namozi shomdin keyin chog'ir majlisi bo'ldi. Ahli majlis: Muhib Ali qo'rchi, Xoja Muhammad Ali kitobdor, Shoh Hasan,

Shohbek, Sulton Muhammad doʻldoy, Darvesh Muhammad sorbon edi. Darvesh Muhammad toib edi. Kichiklikdin beri mening shartim andoq edikim, ichmas kishiga taklife qilmagʻoy-men. Doyim suhbatlarda Darvesh Muhammad boʻlur edi, hech navʼ taklife qilinmas edi. Xoja Muhammad Ali erkiga qoʻymay, taklif qila-qila chogʻir ichurdi.

Dushanba kuni sabohi iyd kuni koʻchtuk. Yoʻlda xumor doʻfigʻa maʼjun yeduk. Maʼjunnoklikta bir hanzal kelturdilar. Darvesh Muhammad hanzalni koʻrgan emas edi. Men dedimkim, Hindustonning hinduvonasidur, bir karj kesib berdim. Ragʻbat bila tishladi, oqshomgʻacha achchigʻligʻi ogʻzidin ketmadi. Garm chashmaning balandisida tushub, yaxni tortiladur, edikim, Langarxonkim, necha mahal oʻz yerida edi, kelib, ot va bir pora maʼjun tortib¹, mulozamat qildi. Kelib Yada-birgʻa tushtuk. Namozigarda bir necha maxsus bila jolagʻa kirib, bir kuruhcha quyi borib chiqtuk. Tonglasi andin koʻchub, Xaybar koʻtalining tubigʻa tushuldi. Ushbu. kun Sulton Boyazid Nilobdin Pora yoʻli bila oʻtub, bizning xabarimizni topib, keyinimizcha kelib, arz qildikim, Afridiy afgʻon koʻch va moli bila Porada oʻlturubdur. Sholi qalin ekibturlar, sholisi nishib, tamom oyoq ustidadur. Chun Hashangʻardagʻi Yusuf zayi afgʻonlar ustigʻa azimat qilib eduk, anga parvo qilmaduk. Namozig peshinda Xoja Muhammad Alining oʻtogʻida sharob majlisi boʻldi. Ushbu

¹ L. b. – bir pora tortib.

majlisda-o'q Sul-ton Tarohiydin¹ bu sorig'a kelgan kayfiyatini mashruh bitib, Bajurg'a Xoja Kalong'a yiborildi. Farmon hoshiyasida bu baytni bitidim:

*Sabo, ba lutf big'u on g'azoli ra'noro,
Ki sar ba ko'h-u biyobon tu dodayi moro².*

Andin saboh ko'chub, ko'taldin inib, Xaybar tangisidin o'tub, Ali Masjidg'a tushuldi. Andin namozi peshiy o'tlanib, partoldin ayrilib, ikki pos bo'lub edikim, Kobul suvining yoqasig'a kelib, ozroqcha uyuxladuk. Sahar guzar topib, suvdin kechildi. Qorovuldin xabar keldikim, afg'onlar xabar topib, qochg'ondurlar. Yurub, Savod suvidin o'tub, afg'onlarning ekinining orasig'a tushuldi. Ta'rif qilg'onning yarimi, balki choragicha oshliq topilmadi. Hashang'arni bu oshliq umidi bila yasamoq hisobi tag'ayyur topti. Bu yurushga sa'y qilg'on Dilazok maliklari bu jihattin munfail bo'ldilar. Namozidigar Savod suvining Kobul tarafig'a kechib tushuldi.

Tonglasi Savod suvidin ko'chub, kengashga kirar beklarni chorlab, kengashib so'z mung'a qaror toptikim, Sul-ton Boyazid aytqon Afridiy afg'onini chopib, aning molini va oshlig'ini ko'chi bila Parshovar qo'rg'onini yasatib, kishi qo'yulg'ay. Hindubek qavchun va Xost mirzodalari keyindin bu manzilda keldilar.

¹ L. b. – Sul-ton Barohidin.

² Ey tong yeli, u go'zal ohuga yumshoqlik bila ayt-ki, bizni tog' va sahrolarga uloqtirgan sensan.

Bukun ma'jun yeyildi. Darvesh Muhammad sorbon, Muhammadiy ko'kaltosh, Gadoyi tag'oyi, Asas edi. So'ngra Shoh Hasashga ham tiladuk. Osh tortilg'ondin so'ng namozi digar jolag'a kirduk. Langarxon Niyoziy¹ ham jolag'a chorladuk. Namoz shomda joladin chiqib, o'rdug'a kelildi. O'shul Qaror bila suv yoqasidin sahar ko'chub, Jomdin o'tub, Ali Masjid suvining chiqishida tushuldi.

Abulhoshim Sulton Alikim, keyindin kelib edi, dedikim, arafa kechasi Jo'yi Shohiydin Badaxshondin kelgan kishi bila Jamrudtin o'tub edim. Ul dedikim, Sulton Saidxon jazm Badaxshon ustiga keldi. Men podshohqa xabar qila keladurmen.

Beklarni chorlab, mashvarat qilib, bovujudi bu xabar qo'rg'on yasamoqning maslahatini topmay, Badaxshon azimati bila murojaat qilildi. Langarxong'a xil'at berib, Muhammad Ali jang-jangga ko'mak ta'yin qilib, ruxsat berildi.

Ul oxshom Xoja Muhammad Alining chodirida chog'ir majlisi edi. Erta bila bu yerdin ko'chub, Xaybar ko'talidin oshib, ko'tal tubig'a tushuldi. Xizr xaylidan ko'p noshoyist xarakterlar zohir bo'lub edi. Cherik borurda keyingaga qolg'on, yoqag'a tushgan cherik elita o'qlar qo'yub, otlarini elturlar edi. Alarg'a ta'dibe qilmoq va go'shmole bermoq vojib va lozim ko'rundi. Bu xayol bila ko'tal Tubidin sahar ko'chub, Dehi G'ulomonda tushlanduk. Namoz peshin otg'a bo'g'uz berib, otlanildi.

¹ Q. b. - Soriniy.

Muhammad Husayn qo'rchini Kobulg'a chop-turuldikim, Kobulda bo'lg'on Xizr xaylini band-lab, jihatini mafsal qilib, arzg'a yetkurgaylar. Badaxshondin dag'i har xabar bo'lsa, mashruh bitib, bir kishidin bot yiborgaylar.

Ul kecha ikki posqacha yurub, Sul-tonpur-din ozroqcha o'tub, tushub, lahza uyuxlab, otlanduk. Xizr xayli Bahor va Masxgiromdin Qorasuvg'acha o'lturg'on ekandurlar. Tong burnida yetib, chopqun qo'yuldi. Aksar moli va o'g'lon-ushog'i cherik eliga tushti. Oz-og'loq-chasi tog'ga yovuq edi, tog'ga tortib qutuldi.

Tonglasi Qilog'ug'a tushuldi. Ushbu yurtta qirg'ovul olildi. Keyin qolg'on uruq ham bukun bu yurtta kelib qo'shuldi. Vaziriy afg'on doyim yaxshig'ina mol bermas edi. Bu siyosattin uch yuz qo'y¹ peshkash kelturdi.

Iligim chiqqoni (sababli) hech nima bitimay-dur edim, ushbu yurtta yakshanba kuni oyning o'n to'rtida ozroqcha nima bitidim.

Tonglasi xirilji Shamu xayl boshliq afg'onlar-ning ulug'lari keldilar. Dilazokning uruqlari bu jamoaning gunohlarini mubolag'alar bila dar-xost qildilar. Gunohlarin bag'ishlab, asirlarin ozod qilduk. Mollarin to'rt ming qo'yg'a qaror berib, ulug'larig'a to'nlar kiydurub, tahsildorlar ta'yin qilib yiborildi.

Bu ishlarga qaror berib, panjshanba kuni oyning o'n sekkizida ko'chub, Bahor va Masx-girmog'a tushub, tonglasi Bog'i Vafog'a keldim. Bog'i Vafoning xo'bluq mahallari edi, sahn-lari tamom se bargazor, anor daraxtlari sap-sarig'

¹ L. b. – Yuz qo'y.

xushrang xazon boʻlubtur. Anorlar daraxtlarda qip-qizil, norunj daraxtlari sabz va xurram, norunj daraxtlarda benihoyat, vale norunjlar xotir-hoh sargʻaymaydur edi. Anorlari yaxshi, anorlari garchi viloyatlarning yaxshi anorlaricha emas edi. Bogʻi Vafodin bir yaxshi mahzuzkim boʻlduk, bu navbat edi. Bu uch-toʻrt kunkim bu bogʻda eduk, bori urdu eli ifrot bila anor yedilar.

Dushanba kuni bogʻdin koʻchtuk. Men bir paxrgʻacha yurub, baʼzi norunjlarni oldurdum. Shoh Hasangʻa ikki daraxtning norunji inʼom boʻldi. Baʼzi beklarga bir daraxt norunji, baʼzilari gʻa ikki kishiga bir daraxt norunji inʼom boʻldi. Chun qish Lamgʻon sayri qilur xayoli bor edi, havzning atrofida yigirmacha norunj daraxtini buyurdunkim, qoʻrugʻaylar.

Bukun Gandamakka tushub, tonglasi Jingdalik tushuldi. Namoz shomgʻa yaqin chogʻir majlisi boʻldi, aksar ichkilar bor edilar, oxir suhbatta Qosimbekning xoharzodasi Gadoyi Muhammad¹ xeyli shaloyinliq qildi. Mast boʻlgʻonda mening yonimdagi takyaga tayandi. Gadoyi tagʻoyi majlisdin koʻtarib chiqardi.

Ul yurtin erta koʻchuldi. Qoʻruqsoy yonidagi Borik ob quyi yuqqori sayr qila bordim. Bir necha turoq daraxtlari asru xoʻb xazon boʻlubtur. Oʻsha yerda tushub, yilqiron oshini tortturuldi, Xazon bois boʻldi, chogʻir ichildi. Yoʻldin qoʻy kelturub, buyuruldikim, kaboblar qilgʻaylar. Balut shoxlarigʻa oʻtlar qoʻyub, tafaruj koʻrduk.

¹ L. b. – Gadoyi Behjat.

Mening keladurgan xabarimni Mullo Abdulmalik devona eshitib, istid'o qildikim, Kobulg'a eltgay. Kobulg'a Mullo Abdulmalikni yiborildi. Hasan nabira Mirzoxon qoshidin meni deb kelgan ekandur. Bu yerda kelib mulozamat qildi. Zavol vaqtig'acha munda ichildi. Andin so'ng otlanildi. Majlis ahli guzaro mastlar bo'lub edilar. Sayid Qosim andoq mast edikim, ikki navkari tashvish bila ot ustiga solib, o'rdug'a yetkurdilar. Do'st Muhammad Boqir andoq mast edikim. Amin Muhammad tarxon va Mastiy chuhra boshliqlar har necha sa'y qilib, otlandura olmaslar. Boshig'a suv quyarlilar ham bo'lmas. Bu fursatda bir pora afg'on paydo bo'lur, Amin Muhammad tarxon chog'ir kayfiyatida xayol qilurkim, muni mundoq etib oldurg'uncha boshini kesib olib ketarbiz. Bori yuz mashaqqat bila ot ustig'a solib, olib kellarlar.

Yarim kechada Kobulg'a kelduk. Sabohi devonda Qulibekkim, Koshg'arg'a Sulton Saidxon qoshig'a elchilikka borib edi, kelib, mulozamat qildi. Beshka mirzoyi itarchini Qulibekka qotib, elchilikka yiborib edi, ul viloyatning matoyidin bir pora savg'ot kelturdi.

Chorshanba kuni zilqa'da oyining g'urrasida Qobilning go'rining qoshida yolg'uz borib, sabuxiy qildim. So'ngra ahli majlis birin-ikkin keldilar. Oftob yoyila Bog'i Binafshag'a borib, havz yoqasida ichildi. Tush bo'la uyqulab, namozi peshin yana ichildi. Ushbu namozi peshin suhbatida Tengriqulibek va Mahdig'akim,

mundin burun suhbatta chog'ir berilmaydur edi, chog'ir berdim. Namozni xuftan hammomg'a keldim. Ul kecha hammomda edim.

Panjsanba kuni Yahyo Nuhoniy boshliq Hindusgon savdogarlariga xil'atlar inoyat qilib, ruxsat berildi.

Shanba kuni oyning to'rtida Koshg'ardin kelgan Beshka marzog'a xil'at kiydurub, in'om qilib, ruxsat berildi.

Yakshanba kuni eshik ustidagi kichkina suratxonada suhbat edi. Bovujudkim, torg'ina hujra edi, aqli majlis o'n olti kishi edilar.

Dushanba kuni xazon sayrig'a Istalifg'a bo'rildi. Bukun ma'jun irtikob qililib edi. Bu kecha yomg'ur bisyor yog'di. Mening bila kelgan beklar va ichkilar aksar mening chodiring'akim, Bog'i Kalonning ichida tiqilib edi, kirdilar. Tonglasi ushbu bog'da chog'ir majlisi bo'ldi. Oxshomg'acha ichildi, Sabohi sabuhiy qilduk. Mast bo'lub uyuxlab, namozni peshin Istalifdin o'tlanib, yo'lda ma'jun yeyildi. Namozni digar bo'la Behzodiyg'a kelduk. Xazonlar asru xo'b bo'lub edi. Xazon sayr asnosida chog'irg'a mayil hariflar chog'ir angizi qila boshladilar, bovujudi ma'jun. Chun xazonlar asru xo'b bo'lub edi, xazon bo'lg'on daraxtlarning tubida o'lturub, chog'ir ichildi.

Namozni xuftang'acha ushul yerda-o'q suhbat edi. Mullo Mahmud Xalifa keldi. Ani ham suhbatg'a chorladuk, Abdullo xeyli mast edi. Xalifa tarafidin bir so'z chiqti. Mullo Mahmudtin g'ofil bu misra'ni o'qudikim:

Bar har ki bingari ba hamin dog' mubtalost¹.

Mullo Mahmud hushyor edi, Abdullo hazri tariyqi bila bu misra'ni o'qug'on jihatidin taaruzlar qildi. Abdullo voqif bo'lub, iztiroblar qilib, xeyli shirin guftugo'lar qildi.

Panjsanba kuni xazonlar sayr qilib, kech namozi shom Chorbog'qa kelib tushtum.

Juma kuni oyning o'n oltisida Bog'i Binafshada ma'jun yeb, ba'zi maxsuslar bila kemaga kirildi. Humoyun bila Komron ham so'ng keldilar. Humoyun bir o'rdakni yaxshi otti.

Shanba kuni oyning o'n sekkizida Chorbog'din tun yarimida otlandim, tunqator va axtachini yondurdum. Mullo Boboning ko'prugidin o'tub, Devrin tangisi bila chiqib, Kush Nodir va bozorlarning koriza bila Xirsxona orqasidin evrulub, erta sunnat vaqtida Turdibek Xoksoning korizig'a keldim. Turdibek xabar topib, iztirob bila yugurub chiqti. Turdibekning qalloshlig'i ma'lum edi. O'zum bila yuz shohruxiy olib borib edim, Turdibekka berdim, dedimkim, chog'ir va asbob tayyor qilg'ilkim, xilvat va lavandona suhbat tutar xayolim bor. Turdibek chog'ir uchun Behzodiy sari bordi. Otimni Turdibekning qulidin bir qo'lg'a yibordim. O'zum korizning orqasida bir pushtada o'lturdum. Bir pos bor edikim, Turdibek bir ko'za chog'ir kelturdi. Ikkovidin-ikkov ichmakka mashg'ul bo'lduk. Turdibek chog'irni keltururda Muhammad Qosim barlos va Shohzoda voqif bo'lubturlar. Mendin xoli zihn Turdibek so'ngicha yayoq keldilar, suhbatg'a chorladuk.

¹ Kimga qarasang, shu dardga mubtalodir.

Turdibek dedikim, Hulhul¹ enaganing armوني borkim, sizning bila chog'ir ichgay. Men dedimkim, men ham xotun kishining ichganini ko'rmaydurmen, suhbatqa tilang. Shohi degan qalandar bila yana bir korizliq rubobiyni ham suhbatg'a chorladuk. Namozni shomg'acha korizning orqasidagi balandiyda o'turub ichildi. Andin so'ng Turdibekning uyig'a kelib, sham' yorug'ida kech namozni xuftang'acha ichtim. Tavr beg'il-u g'ash suhbate edi. Men takya qildim. Ahli majlis yana bir uyga borib, naqora vaqtig'acha ichtilar. Oxir o'zumni mastliqqa solib xalos bo'ldum. Xayolimda bu edikim, elni g'ofil qilib, yolg'uz o'tlanib, Istarg'achg'a borg'ayman. El voqif edi, muyassar bo'lmadi.

Oxir naqora vaqtida o'tlandim. Turdibek bila Shohzodag'a xabar qilib, uchovlon o'tlanib, Istarg'ach sari mutavajjih bo'lduk. Farz vaqtida Istalifning oyog'i Xoja Hasang'a yettuk. Bir zamon tushub, ma'jun yeb, xazon sayri qilduk. Oftob chiqqa Istalif bog'ig'a tushub, uzum yeb, o'tlanib, Istarg'ach tavobiidin Xoja Shihobg'a tushub uyqladuk. Ota miroxurning uyi ul orada ekanur. Uyg'ong'ancha osh pishirib, bir ko'za chog'ir hozir qilibtur. Xeyli yaxshi xazon edi. Bir necha piyola ichib, o'tlanduk. Namozni peshin Istarg'achda bir yaxshi xazonliq bog'da tushub, suhbat tutuldi. Bir lahzadin so'ng Xoja Muhammad Amin keldi. Namozni xuftang'acha ichildi. Ul kuni va oxshomi Kobuldin Abdullo asos, Nurbek, Yusuf Ali keldilar. Sabohi osh yeb o'tlanib, Istarg'achning oyog'idagi podshohiy bog'ini sayr qilildi. Bir olma niholi yax-

¹ L. b. – Bulbul.

shi xazon boʻlub edi, har qaysi shoxida besholti barg siyoq bila qolib edi, andoqkim, agar naqqoshlar takalluf bila tortsalar, oncha torta olmagʻay edilar. Istargʻachdin otlanib, Xoja Hasanda osh yeb, namozi shom Behzodiy kelib, Xoja Muhammad Aminning Imom Muhammad otliq navkarining uyida chogʻir ichildi. Tonglasi seshanba kuni Kobul chorbogʻigʻa kelildi.

Panjshanba kuni oyning yigirma uchida koʻchub, qalʻagʻa kirildi. Odina kuni Muhammad Ali Haydar rikobdor bir tuygʻun tutub, kelturub tortti.

Shanba kuni oyning yigirma beshida Chinor bogʻida suhbat edi. Namozni xuftan otlanildi. Sayid Qosimning oʻtgan voqeadin infiali bor edi. Kelurda aning uyida tushub, bir necha oyoq ichildi.

Panjshanba kuni zilxijja oyining gʻurrasida Qandahordin Tojiddin Mahmud kelib, mulozamat qildi.

Dushanba kuni oyning oʻn toʻqquzida Muhammad Ali jang-jang Nilobdin keldi.

Seshanba kuni Sangarxon Janjuha Behradin kelib, mulozamat qildi.

Odina kuni oyning yigirma uchida Alisherbekning toʻrt devonidin buhur, avzon bir bayti¹ bila gʻazallar va abyotkim, intixob qililadur edi, itmomigʻa yetti.

Seshanba kuni oyning yigirma yettisida arkta suhbat edi. Bu suhbatta andoq farmon boʻldi-kim, suhbattin har kishi mast boʻlub chiqsa, yana ul kishini suhbatqa tilamagaylar.

Odina kuni zilhijja oyining salxida Langʻon sayri azimati bila otlanildi.

¹ Q. b. - «bir bayti» oʻrnida - «tartib».

VAQOYEYI SANAYI SITTA VA ISHRINA VA TIS'A MIA¹

Shanba kuni muharram oyining g'urrasi-
da Xoja Seyoron kelildi. Pushta ustida yangi
arig'kim chiqarilib edi, yaqosida shurb majlisi
bo'ldi. Saboh o'tlanib, Regi ravonni sayr qilib,
Sayid Qosimning Bulbulining uyiga tushub
suhbat tutuldi. Saboh andin o'tlanib,² ma'jun
yeb, borib Bilgarg'a tushtuk: Be ulkim, oxshom
ichilgay, sabohi sabuhiy qilduk. Namozni pe-
shin borib, Durnomag'a tushuldi. Shurb maj-
lisi bo'ldi, erta sabuhiy qilduk. Haqdod Durno-
maning ulug'i bog'ini peshkash qildi.

Panjshanba o'tlanib. Nijrovdagi tojiklar kentiga
tushuldi.

Odina kuni Chihl qulba bila Boron suvi-
ning orasidagi torni ovladuk, xeyli kiyik tushti.
Iligim ozurda bo'lg'ali o'q o'tmaydur edim. Bir
narmdek³ (?) yoy bila bir kiyikning qo'ltug'iga
ottim. O'q parxonasining yarimig'acha kirdi.
Namozni digar ovdin yonib, Nijrovg'a kelduk.
Tonglasi Nijrov eli peshkashini oltmish oltung'a
qaror berildi.

Dushanba kuni Lamg'on sayra azimatig'a ot-
lanildi. Xayolda bu edikim, bu sayrda Humoyun
ham bizning bila bo'lg'ay. Turmoqqa mayl qildi,
Ko'ra ko'talidin ruxsat berildi. Kelib Badrovg'a
tushduk. Andin o'tlanib, O'g'bug'a⁴ tushtuk.
Boron suvida sayyodlar bir pora baliq tuttilar.

¹ To'qqiz yuz yigirma oltinchi (1519) yil voqealari.

² *L. b.* – tushgan.

³ *L. b.* – نورد يك. *Q. b.* تورد يك

⁴ *Q. b.* – Ulug'bug'a.

Namozi digarda jolag'a o'turub ichildi. Namozini shomdin kechroq joladin chiqib, oq uyda ham ichildi. Haydar alamdorni Dovartin kofirlariga yiborilib edi, Bodichning tubida kofirning ulug'lari bir necha tulum chog'ir kelturub, mulozamat qildilar. Ko'taldin inganda ajab g'alaba chivirtka ko'ruildi. Tonglasi jolag'a kirib, ma'jun yeb, Bo'londin quyiroq chiqib, o'rdug'a kelduk. Ikki jola edi.

Odina kuni ko'chub, Mandirovardin quyiroq domanada tushuldi. Kecha shurb suhbatini edi.

Shanba kuni jolag'a kirib, Daruta tangisidin o'tub, Jahonnamoydin yuqorroq joladin chiqtuk. Odinapur olidagi Bog'i Vafog'a borduk. Qiyom Urdushoh Ningnahor tumanining hokimi joladin chiqqanda kelib, mulozamat qildi. Langarxon Niyoziy necha mahal edikim, Nilobta edi, yo'lda kelib mulozamat qildi. Bog'i Vafoda tushtuk, norunjlari xo'b sarg'aribtur, sabzalari xo'b yetilibtur, bisyor safoliq bo'lubtur. Besh-olti kun Bog'i Vafoda turduk.

Chun bu dag'dag'a bor edikim, qirq yoshqa bir yildin ozroq qolib edi, ifrot bila ichilur edi.

Yakshanba kuni o'ning o'n oltisida sabuhiy qilib, hush yor bo'lub, ma'jun ehtiyor qilg'onda Mullo Yorak panjgohda muxammas davrida bog'lag'on naqshini o'tkardi. Yaxshi naqsh bog'labtur. Necha mahal edi, mundoq nimalariga mashg'ulluq qilmaydur edi. Manga ham dag'dag'a bo'ldi, bir nima bog'lag'aymen. Bu taqrib bila chorgoh savtini bog'ladim. Nechukim, mahallida mazkur bo'lg'usidur.

Chahorshanba kuni sabuhiy qilg'onda mutoyaba jihatidan deyildikim, har kim sortcha aytsa bir ayog' ichsun. Bu jihattin ko'p kishi ayog' ichti. Sunnat vaqtida chaman o'rtasidagi tolol ostida o'lturuldi. Deyildikim, har kishi turkicha aytsa bir ayog' ichsun. Bunda ham g'alaba kishi ayog' ichti.

Oftob chiqa norunjar tubida, havz yoqasida borib ichildi. Tonglasi Dutahdin jolag'a kirib, Jo'yi Shohiydin chiqib, Atarg'a borduk. Atardind o'tlanib, Darayi Nurni sayr qilib, Suvson kentig'acha yetib, yonib, Omlag'a tushuldi. Xoja Kalon Bajurni yaxshi zabt qilib edi. Chun musohib edi, ani tilab, Bajurni Shoh Mir Husayn uhdasig'a qilildi.

Shanba kuni o'yning yigirma ikkisida Shoh Mir Husayng'a ruxsat bo'ldi. Bukun ham Omlada ichildi. Tonglasi yomg'ur yog'durub, Kunarda Kula-giromg'akim, Malikqulining uyi anda edi, kelib o'rtanchi o'g'lining uyidakim, norunjzorg'a mushrif edi, tushuldi. Yomg'ur jihatidin norunjzorg'a bormay, o'shanda-o'q ichildi. Yog'in ko'p behad bo'ldi. Bir tilisme bilur edim, Mullo Alixong'a¹ o'rgatdim: to'rt parcha kog'azg'a bitib, to'rt tarafg'a osti. O'shul zamon yomg'ur turub, havo ochilmoq bunyod bo'ldi. Sabohi jolag'a kirduk, yana bir jolada ba'zi yigitlar kirdilar.

Bajur va Savod va girdi ul navohiyda bir bo'za qilurlar, bir «kim» degan nima bor, o'tlar ildizidin va ba'zi adviyadin qilibturlar. Nondek gird-gird yasab qurutub, soqlabturlar. Bu bo'za

¹ Q. b. – Mullo Alijon.

moyasi bu «kim», bo'ladur, ba'zi bo'zalari g'arib pur kayfiyat bo'ladur. Vale g'arib talx va bema-za bo'ladur. Bu bo'zani ichmak xayol qilduk, talhlig'idin icha olmay, ma'jun ixtiyor qilildi.

Asas va Hasan Ikrak va Mastig'akim, yana bir jolada o'lturub edilar, farmon bo'ldikim, bu bo'zadin ichg'aylar. Ichib mast bo'lub, Hasan Ikrak bemaza shaloyinlik qila kirishti. Asas xud guzaro mast bo'lub edi, muqarrar noxush harakatlar qildi. Andoqkim, batang bo'lduk. Bir xayol qildimkim, joladin chiqarib, suvning ul yuzida o'tkarg'aybiz. Yana ba'zilar darxost qildilar.

Bu fursat Bajurni Shoh Mir Husayng'a inoyat qilib, Xoja Kalonni tilab eduk. Negakim, Xoja Kalon musohib edi. Bajurda turmog'i mumtad bo'ldi. Bajur ishini ham osonroq tasavvur qilildi. Shoh Mir Husayn Bajurg'a borurda, Kunar¹ suvining guzarig'a yetganda yo'luqti. Tilab, ba'zi og'iz so'zlarni aytib, xossa qo'rni inoyat qilib, ruxsat berildi.

Nurgil to'g'risi yetganda bir qari kelib, gadoylik qildi. Joladag'ilar har qaysi to'n va dastor va fo'tadek nima berdilar. Qari xeyli nima oldi. Yarim yo'lda bir yamon yerda jola dakka urdi, xeyli tavahhum bo'ldi. Agarchi jola g'arq bo'lmadi, Mir Muhammad jolabon suvg'a yiqildi. Kecha Atarning yovug'ida bo'lduk.

Seshanba kuni Mandirovar kelildi. Qutluqqadam va Davlatqadam otasi qal'aning ichida suhbat tartib qilib edilar, agarchi safosiz yer edi, alarning xotiri uchun bir necha ayog' ichib, namozi digar o'rdug'a kelildi.

¹ L. b. – Kaz suvi.

Chorshanba kuni Kingdar chashmasig'a borib, sayr kilduk. Kingdar Mandirovar tumanig'a taalluq kenttur. Tamom Lamg'onotda ushbu kentta o'q xurmo bordur. Bu kent tog' etagidindin yuqqorroq voqe bo'lubtur. Naxlistoni sharq saridur. Bu chashma naxlistonning yonidadur, yon yerdadur. Chashma boshidin olti-yetti qari quyiroq toshlarni qalab, g'usl qilg'ali panohe qilibturlar. Bu martabag'acha suvni mushrif qilibturlarkim, g'usl qilur kishining boshig'a suv to'kuladur. Bu chashma suvi bisyor mu'loyim, qish kunlari kishiga bu suv avval juz'iy sovuq maxsus bo'ladur, so'ngra turg'on soyi kishiga suv xush yoqadur.

Panjsanba kuni Sherxon Tarkaloni uyiga tushurub ziyofat qildi. Namozni peshin andin o'tlanib, yasag'on mohixonalarda baliq tuttilar. Burnaroq bu mohixonaning kayfiyati mazkur bo'lub edi.

Odina kuni Xoja Mirmironning kentining yaqiniga tushtuk. Namozni shomda majlis bo'ldi.

Shanba kuni Alishang bila Alangorning oralig'idagi tog'ni ovladuk. Bir tarafdin Alangorlik, yana bir tarafdin Alishganlik charga qilib, tog'din kiyikni indurdilar. Xeyli kiyik o'ldi. Ovdin yonib, Alangorda maliklarning bog'iga tushub, suhbat tutuldi. Ilgarigi tishimning yarimi sinib, yarimi qolib edi, bugun taom yeydurganda qolg'on yarimi ham sindi. Saboqi o'tlanib, baliqqa to'r soldurduk. Tush bor edikim, Alishangga borib, bog'da ichildi. Tonglasi Hamzaxon Alishangning malikiningkim, yamon

ishlar qilib, nohaq qonlar to'kur edi, qonliqlarig'a topshuruldi, qasosg'a yetkurdilar.

Seshanba kuni vird o'qub, Yonbuloq yo'li bila Kobulg'a murojaat qilduk. Namozig digar Alg'anudin¹ suv kechib, namozig shom Qorabug'a kelib, otqa bug'uz berib, mohazare hozir qildilar, ot arpasini tugatgach, otlanduq.

¹ Q. b. – Afitu.

VAQOYEYI SANAYI ISNO VA SALOSINA VA TIS'A MIA¹

Odina kuni safar oyning g'urrasida tarix to'qquz yuz o'ttuz ikkidakim, oftob qavs burjida edi, Hinduston azimati bila safar qilib, Yaklanga pushtasidin o'tub, Dehi Ya'qub suvining g'arb tarafidagi o'langga tushuldi. Bu yurtta Abdulmuluk qo'rchikim, yetti-sekkiz oy edi, Sulton Saidxon qoshig'a elchilikka borib edi, Xonning Yangibek ko'kaltosh otliq kishisi bila keldi. Xonimdardin va Xondin xatlar bila muhaqqar savg'ot va yiloq kelturdi. Ikki kun cherik maslahati uchun bu yurtta turub, mundin ko'chub, ora qo'nub, Bodom chashma tushuldi. Bu yurtta ma'jun yeduk.

Chahorshanba kuni Boriq ob tushganda Hindustonda qolg'on Nurbekning inilaridin yigirma ming shohruxiyliq oltun va ashrafiy va tangakim, Xoja Husayn² devon Lohur xolisotidin yiborib edi, kelturdi. Aksarini Mullo Ahmad³ Balx arbobidin Balx maslahati uchun yiborildi.

Odina kuyi oyning sekkizida Gandamakka tushganda manga tund rezandaliq bo'ldi. Bihamdillo osonliq bila o'tti.

Shanba kuni, Bog'i Vafoda tushuldi. Bir necha kun Humoyun mirzo va ul yuzning cheriki uchun Bog'i Vafoda tavaqquf qilildi.

Bog'i Vafoning haddi va hududi va safo latofati bu tarixda muqarrar mazkur bo'lub-

¹ To'qqiz yuz o'ttiz ikkinchi (1525) yil voqealari.

² Q. b. - Xoja Hasan.

³ L. b. - Mullo Muhammad.

tur. Asru safoliq bog' voqe bo'lubtur. Har kim xaridorliq ko'zi bila ko'rsa, bilgaykim, ne tur-luk yerdur. Necha kunkim, anda eduk, ichar kunlari aksar ichildi va sabuhiy qilildi, ichmas kunlari ma'jun suhbatlari edi. Humoyun miyod-din ko'p keyin qolg'on jihatidin durusht xatlar bitib, qattiq xitoblar qilib yiborildi.

Yakshanba kuni safar oyining o'n yettisida sabuhiy qililib edikim, Humoyun keldi. Kech kelgan jihatidin bir pora qattiq-qattiq so'z ayt-tim. Xoja Kalon ham G'aznidin ushbu kun keldi.

O'shul dushanba oxshomi-o'q qo'chub, Sul-tonpur bila Xoja Rustanning orasida solg'on yangi bog'ga tushuldi.

Chahorshanba kuni andin ko'chub, jolag'a kirib, Qo'shgunbazg'acha chog'ir ichib borib, Qo'shgunbazdin chiqib, o'rdug'a tushuldi. Tonglasi ham o'rduni ko'churub, jolag'a kirib, ma'jun ixtiyor qilildi. Doyim tushar yurt Qirq ariq edi. Qirq ariq to'g'risig'a yetganda har necha mulohaza qilildi, o'rdudin asare zohir bo'lmadi. Otlar ham paydo bo'lmadi. Xotirg'a kechtikim, Garm chashma yovuqtur, shoyad o'rdu anda tushub ekin deb, bu yerdin o'tuldi. Garm chashmag'a yetgan chog' xud kun kech bo'lub edi, anda ham turmay, kechasi ham yuruldi. Bir yerda jolani turg'uzub, bir pora uy-qulab¹, sunnat vaqti Yadabirg'a chiqtuk. Kun burni bila cherik eli kela boshladi. O'rdu xud Qirq ariq navohisig'a tushgan ekandur, bizga ko'runmaydur.

¹ L. b. - uyuyquldi.

Jolada she'r aytur el xeyli bor edilar. Misli, Shayx Abul Vohid va Shayx Zayn va Mullo Alixon¹ va Turdibek Xoksor, yana ba'zilar ham bor edi. Suhbatta Muhammad Solihning bu bayti mazkur bo'ldikim:

*Mahbubiyi har ishvagarero chi kunad kas,
Joye ki tu boshi digarero chi kunad kas.*²

dedukkim, bu go'shada aytsunlar. Tab'i nazmi bor el aytmoq maqomida bo'ldilar. Chun Mullo Alixon bila xeyli mutoyaba qililur edi, hazl tariyqi bila bu bayt badihada xotirg'a keldi.

*Monandi tu madxushu karero chi kunad kas,
Har govkuni moda xarero chi kunad kas.*³

Mundin burun yaxshi va yamon, jid va hazl harne xotirg'a yetsa edi, mutoyaba tariyqi bila gohi manzum bo'lur edi. Har nechuk qabih va zisht nazm bo'lsa marqum bo'lur edi. Bu fursat-takim, «Mubayyin»ni nazm qiladur edim, xotiri fotirg'a xutur etti va hazin ko'ngulga mundoq yettikim, hayf bo'lg'ay ul tildinkim, mundoq alfozni darj qilg'ay, yana fikrini qabih so'zlarga xarj qilg'ay va darig' bo'lg'ay ul ko'nguldinkim, mundoq maoniy zuhur etgay, yana zisht xayollar anda xutur etgay.

¹ Q. b. – Alijon.

² Har bir noz-karashmachining muhabbatini nima qilsin kishi, sen bo'lgan joyda boshqani nima qilsin kishi.

³ Senga o'xshash hushsiz, karni nima qilsin kishi. Har bir ho'kizga chopuvchi urg'ochi eshakni nima qilsin kishi.

Andin beri hajv va hazl she'r va nazmidan torik va toib edim. Bu baytni aytur mahal aslo xotirg'a yetmadi va bu ma'ni hargiz ko'ngulga xutur etmadi.

Bir-ikki kundin so'ng Bigromda tushganda rezandoliq bo'lub isittim. Bu rezandaliq surfag'a munjar bo'ldi. Har yo'talganda qon tukurur edim, aksar isitma bo'ldi, bildimkim, bu isitma¹ qondindur va bu tashvishni qilg'andin...

*Ne qilayin sening bila, ey til,
Jihatingdin mening ichim qondur.
Necha yaxshi desang bu hazl ila she'r
Birisi fahsh-u biri yolg'ondur,
Gar desang kuymayin bu jurm bila,
Jilavingni bu arsadin yondur.*

...Yana boshdin istig'for va e'tizor maqomida bo'lub, bu nav' botil andeshadin, bu yo'sunluq noloyiq peshadin ko'nglumni tindurub, qalamni sindurdum. Ul dargohdin osiy bandalarg'a bu nav' tanbihlar davlatedur azim, har banda hamkim, mundoqlardin mutanabbih bo'lg'ay saodatedur jasim.

Oxshom andin ko'chub, Ali Masjid tushuldi. Bu yurtning torlig'idin doyim men bir pushta ustiga tushar edim, cherik eli tamom bir qo'lda tushar edikim, men tushgan pushta borig'a mushrif edi. Kecha cherik elining o'tidin ajab yaxshi charog'on bo'lur edi. Har navbatkim bu yurtta tushulubtur, bu jihattin albatta ichilibtur. Bu qatla ham munda tushganda ichildi.

¹ L. b. – «isitma» o'rnida «tanabbuh» yozilgan.

Subhdin burun ma'jun ixtiyor qilib, otlandim. Ushbu kun ro'za ham tutdum. Kelib Bigromning yovug'ig'a tushuldi.

Tonglasi ul yurtta tavaqquf qilib, karg ovig'a otlanduk. Cherik Bigrom olidagi siyoh obdin o'tub, suv quyi boqa charga solduk. Muddate borilg'ondin so'ng keyindin kishi keldikim, Bigromning yovug'ida-o'q oroqcha jangalg'a karg kirdi, tegrasini olib turubturlar, o'shandin jilavrez tebrab yettuk. Jangalg'a charga solib, g'avgo qilg'on bila karg chiqib, tezga qocha berdi. Humoyun va ul yuzdin kelganlar hech kim kargni ko'rgan emas erdi, bori xotirxoh tafarruj qildilar. Bir kuruhga yovuq qovlab, qalin o'qlab yiqtilar. Bu karg hech hishiga va otg'a yaxshi hamla qilmadi. Yana ikki kargni ham o'turdilar. Doyim xotirg'a kechar edikim, fil bila kargni ro'baro' qilsa, nechuk muomala qilg'aylar. Bu navbat filbonlar fillarni kelturadur ekandurlarkim, bir karg ro'baro'-o'q chiqar, filbonlar ilgarrak yurugan bila karg ro'baro' kelmas, o'zga sari qochar.

Ul kunkim, Bigromda turuldi, ba'zi beklarni va ichkilarni va baxshi va devonlar bila olti-yetti sarkor qilib, Nilob guzarida kemalarning ustiga ta'yin qilildikim, jami' cherik elini nom-banom bitib, sonlarin olg'aylar.

Oqshomi rezandaliq bo'lub, isittim, bu rezandaliq yo'talga tortti, har yo'talganda qon tukurur edim, xeyli tavahhum bo'ldi, alhamdullilloh ikki-uch kundan so'ng bartaraf bo'ldi.

Bigromdin ko'chub, yomg'ur yog'durub, Kobul suvi yoqasida tushuldi. Hindustondin

xabar keldikim, Davlatxon va G'ozixon yigirma-o'ttiz ming cherik yig'ib, Kalonurni oldi, Lo-hur ustiga kelmakchidir. Mo'min Ali tavochini qadag'a bila chopturuldikim, biz ko'ch-bar-ko'ch mutavajjihdurbiz, biz yetguncha urushqunchi bo'lmasunlar. Ikki qo'nub, panjshanba kuni oyning yigirma sekkizida Sind yoqasig'a tushtuk.

Shanba kuni rabiul-avval oyning g'urrasida Sind suvi kechib, Kachakut suvidin o'tub, daryo yoqasida tushuldi. Kemalar ustiga qo'yg'on beklar va baxshilar va devonlar cherikka kelgan elning sonini arzg'a yetkurdilar. Uluq-kichik, yaxshi-yamon navkar, g'ayri navkar o'n ikki ming qalamg'a kelibtur.

Bu yil tuzda pashkol oz bo'lg'ondur. Tog' domanasidagi viloyatlarda pashkol yaxshi bo'lg'ondur. Oshliq maslahatidin tog' domanasi bila Siyalkut yo'li bila mutavajjih bo'lduk. Hotiy kakarning viloyati to'g'risi yetganda, bir ro'dta har yerda-har yerda qalin suvlar turubtur. Bu suvlar tamom yax bog'labtur bir ilikcha qalinlig'i bo'lg'oy. Hindustonda bu nav' yax g'aribtur. Yaxni o'shanda-o'q ko'ruildi. Bu necha yilki Hindustonda eduk, qor va yaxdin osor va alo-mat ko'ruilmadi.

Sindin besh ko'ch ko'chub, oltinchida Jud tog'ig'a payvast Bolnot jo'gining tog'ining tubida Bakiyollar yurti ro'dqa kelib tushuldi. Tonglasi el oshliq olur maslahati uchun ul yurtta turduk. Ul kun araq ichildi, Mullo Muhammad Parg'ariy ko'p hikoyat qildikim, oncha purgo'yluq qilib edi, Mullo Shams xud ertaki shalo-

yin edi, bir shaloyinlik boshlasa, kechgacha tugata olmas edi.

Oshliqqa borg'on qul-qulluqchi va yaxshi va yamon oshlikdin o'ta chiqib, changal va tog' va qattiq va bo'rtog' yerlarga pareshon va behisob borib, bir necha kishi oldurdilar. Kichkina tunqator anda o'ldi.

Andin ko'chub, Bihat suvining Jilamdin quyi-roq go'zar bila kechib tushtuk. Vali Qizilkim, parganasi Bimrugiriy va Akriyoda edi, Siyalkut ko'magi edi, munda kelib ko'rdi. Siyalkutni asramag'on jihatidin itob va xitob maqomida edukkim, arz qildikim, men parganaga kelib edim, Xisrav ko'kaltosh Siyalkuttin chiqarida manga xabar ham kelmadi. Bu uzri masmu' edi. Deyildikim, Siyalkutni asramading. Lohurda beklarga necha borib qo'shulmading? Mulzam bo'ldi. Chun ish yovuq edi, aning bu jarimasini parvo qilmaduk.

Ushbu yurttin Sayid To'fon, Sayid Lochinni Lohurdag'ilarga qo'sh ot bila chopturuldikim, urushquchi bo'lmang. Siyalkutta yo Parsrurda kelib bizga qo'shulung.

Har kimning so'zi bu edikim, G'ozixon o'ttuzqirq ming kishini yig'ibtur. Davlatxon ul qarilig'i bila beliga ikki qilich bog'labtur. Bular jazm urushurlar. Xotirga kechtikim, u masal borkim, «gah yozdah beh, gah nuh»¹. Chun bu ketmas, Lohurdag'illarni o'zumizga qo'shub-o'q urushaling. Beklarga kishi yiborib, ora qo'nub, Chonob suvi yoqasida tushuldi. Yo'ldin borib, Bahlulpurkim, xolisa edi, sayr qilduk. Qo'rg'oni

¹ «Goh o'n bir yaxshi, goh to'qquz».

Chonob suvining yoqasida baland jar ustida voqe bo'libtur. Xeyli xotirg'a yoqti. Siyalkutni munda kelturur xayol qilduk. Inshoolloh fursat bo'lg'och-o'q kelturulgidur.

Bahlulpurdin o'rdug'acha kema bila kelduk, suhbat edi, ba'zi araq, ba'zi bo'za ichtilar, ba'zi ma'jun yedilar. Kemadin namozi xuftandin kechroq chiqib, xirgohda ham ozroqcha ichildi. Ot maslahatig'a bir kun bu suv yoqasida otqa dam berduk.

Odina kuni rabiul-avval oyining o'n to'rtida Siyalkutqa tushtuk. Doyim Hindustong'a bor-sak, gov va govmish o'ljasig'a tog'din va tuzdin jat va kajur behad va beqiyos kelur edi. Boshsizliq va zulm qilg'uchi ushbu badbaxtlar edi. Burun viloyatlar yog'iy edi. Xeyli tili qisiq yo'q edi. Bu navbatkim, bu viloyatlar tamom el bo'libtur, o'shandoq muomala qila kirishtilar. Siyalkutning eshikta yalang'och faqir, miskinim, o'rdug'a kelib edilar, bayakbor g'avg'o tushti, tolong'a bordilar. Boshsizliq qilg'on elni topturub, ikki-uchni pora-pora qildurdum.

Siyalkuttin Shohim Nurbekni ham Lohur beklariga chopturuldikim, yog'iy ne yerda ekanini tahqiq qilib, qayda qotilurlarini sohib vuquf kishidin bilib, aytib yiborsunlar.

Ushbu yurtta bir savdogar kelib, Olamxon Sulton Ibrohimxong'a bosturg'onini arz qildi. Sharhi budurkim, Olamxon ruxsat olg'on-din so'ng ushmundoq issiq havoda hamrohqa boqmay, ikki ko'chni bir qilib, Lohur kelur. Olamxong'a ruxsat bergan fursatta o'zbek xonlari, sultonlari tamom kelib, Balxni qabab

edi. Olamxong'a Hinduston sari ruxsat berib, o'zumiz Balx ustiga otlanduk.

Lohurg'a kelgandin so'ng, Hindustondagi beklarg'a muhassil kirarkim: «Podshoh sizlarni manga ko'mak bo'lsun debtur, manga qotilib yurung. G'ozixonni o'zumizga qo'shub, Dehli va Ogra ustiga yuruling». Bular derlarkim: «G'ozixong'a ne e'timod bila qotilaling. Farmon ham mundoqturkim, har qachon G'ozixon inisi Hojixonni o'g'li bila dargohga yiborsa, yo ulkim, Lohurg'a yiborib, garav yo'sunluq tursa, sizlar qotiling. Yo'q ersa qo'shulg'uchi bo'lmag'aysiz, deb. Siz ham tuna-kun urushub bosturubsiz, yana ne e'timod bila qo'shulasiz. Sizga ham maslahat emaskim, qotilg'aysiz».

Har necha bu yo'sunluq so'zlar aytib man' qilurlar, yetiqqa kirmas. O'g'li Sherxonni yiborib, Davlatxon va G'ozixon bila so'zlashib ko'rushurlar. Dilovarxonkim, necha mahal bandta edi, ikki-uch oy bo'lub edikim, Lohurg'a bandtin qochib kelib edi, ani ham o'zi bila olib borur. Mahmudxon Xonijahonkim, Lohurda pargana berilib edi, ani ham hamroh eltar. G'olibo so'zni bu yerg'a qo'yarlarkim, Davlatxon va G'ozixon Hivdustonda qo'yulg'on beklarni, balki tamom bu tarafni o'zig'a olur. Dilovarxonni va Hojixonni Olamxong'a qotar. Bular Dehli va Ogra tarafini o'zlariga olurlar. Ismoil Jilvoniy¹ va yana ba'zi umaro kelib, Olamxonni ko'rarlar. Betavaqquf Dehli sari ko'ch-barko'ch tebrarlar. Indirig'a yetganda, Sulaymon Shayxzoda ham kelib ko'rar. Bularning jam'iyati o'ttuz-qirq

¹ Q. b. – Ulvoiy.

mingga tortar, kelib Dehlini qabarlar, urush ham sola olmaslar, qo'rg'on eliga tanqis ham bera olmaslar.

Sulton Ibrohim bularning jamiyatidin xabar topib, bularning ustiga cherik otlanur. Yovuqroq yetgach, bular ham xabar topib, qo'rg'on ustidin qo'pub, muqobalag'a yururlar. So'zni munga qo'yarlarkim, agar kunduz urush solsak, afg'on bir-biri nomusdin qochmaslar. Agar shabixun borsak, qorong'u kechada kishi kishini ko'rmas, boshliq-boshig'a bo'lurlar deb ora olti kuruh yerdin shabixun kelurlar. Ikki qatla shabixung'a qun tushga otlanib ikki pos, uch posg'acha ot ustida-o'q turub, ne keyin yonib, ne ilgari yurub, so'zni bir yerga qo'ya olmay, uchunchisida kechanning bir pahri qola shabixun kelurlar. Bularning shabixuni chodirg'a va o'tog'ga o'rt qo'ymoq emish. Kelib bir boshdin o'rt qo'yub, g'avgo solurlar. Jalolxon Jikaht va yana ba'zi umaro kelib, Olamxonni ko'rarlar.

Sulton Ibrohim o'z sarochasidin-o'q bir necha xos xayli bila tebranmas. Mungacha tong otar. Olamxonning bo'lg'on kishisi el talamoqqa va o'lja olmoqqa mashg'ul bo'lurlar, Sulton Ibrohimning cherigi ko'rarkim, bularning kishisi asru ozdur, o'shandin birozroq favj, bir fil bila bular sari mutavajjih bo'lur. Fil ilgarrak yurugach, bular to'xtay olmaslar. Qocharlar. O'shandin qochg'on bila Olamxon Miyoni duob sari kechib, Ponipat navohisidin yana Ponipat sari o'tarlar. Indiriyg'a yetgan mahalda bir bahona qilib, Miyoni Sulaymondin uch-to'rt lak

olib qo'yarlar. Ismoil Jilvoniydin Olamxonning ulug' o'g'li Jalolxon bulardin ayrilib, Miyoni duob sari o'zlarini tortarlar.

Olamxong'a yig'ilg'on cherikdin bir porasi, misli Sayfxon va Daryoxon va Mahmudxon va Xonijahon va Shayx Jamol farmuliy yana ba'zilar urushtin burun o'q qochib, Ibrohimg'a borurlar. Olamxon va Dilovarxon va Hojixon Sihrinddin o'ta bizning kelib Milvatni olg'onimizni xabar toparlar. Dilovarxon chun hamisha davlatxohliq maqomida edi va bizning uchun uch-to'rt oy band tortib edi, ayrilib Sultonpurg'a ko'chiga kelib, biz Milvatni olg'ondin uch-to'rt kun so'ng Milvat navohisida bizga kelib, mulozamat qildi.

Olamxon va Hojixon Shatlut¹ suvidin kechib, Dun bila Dashtning orasidagi tog'da Ginguta otliq bir berk qo'rg'ong'a kelib kirarlar. Bizning chopqunchi afg'ondin va hazardin kelib, bularni qabarlar. O'shandoq berk qo'rg'onni ola yovushqon ekandurlarkim, kech bo'lur, chiqar xayoli qilurlar, otlarining darvozag'a yiqitilg'on jihatidin chiqa olmaslar. Fillari bor ekandur, fillarni ilgari solurlar. Aksar otlarni fillar bosib o'lturur. Bovujud ham ot bila chiqa olmaslar. Qorong'uda yayov chiqib, yuz ming tashvishlar bila G'ozixonkim, Milvatg'a kirmay, tog' sari qochib edi, borib qo'shulurlar. G'ozixon yaxshig'ina oshnoliq ham bermas.

Zarurat bo'lub, Dunning ayog'ida Lampur² navohisida Olamxon kelib, mulozamat qildi. Si-

¹ Q. b. – Satluj.

² Tarjimalarda Paxlur. L. b. – بلور Q. b. – بلور.

yalkutta Lohurdag'ildin kishi keldikim, tongla borcha kelib, mulozamat qilurlar.

Tonglasi ko'chub, Parsrurg'a tushtuk. Muhammad Ali jang-jang, Xoja Husayn, yana ba'zi yigitlar munda kelib, mulozamat qildilar. Yog'iyning doirasi Rovi suvining Lohur tarafda ekandur, Bo'jak¹ boshliqlarni xabar uchun yiborduk. Kechaning uch pahri bo'la yovushub edikim, xabar kelturdilarkim, yog'iy xabar topqoch, bir-biriga boqmay burulub qocharlar.

Erta ko'chub, partoldin va uruqdin ayrilib, Shoh Mir Husaynni, yana Jonbekni uruqqa qo'yub, o'zumiz ildam tebraduk. Ikki namoz orasida Kalonurg'a kelib tushtuk. Muhammad Sulton mirzo va Odil Sulton, o'zga beklar munda kelib, mulozamat qildilar.

Kalonurdin erta ko'chub, yo'lda G'ozixon va qochqonlarning xabarini yovuq soliq berdilar. Muhammadiy va Ahmadiy va Qutluqqadam va Vali Xozin boshliq va aksar beklarnikim, bu navbat Kobulda beklikka yukundurulub edi, bu qochqonlarning keyniga qovg'unchi yiborduk. Andoq muqarrar bo'ldikim, yeta olsalar xud xo'b, agar yeta olmasalar Malut qo'rg'onining girdo-girdini yaxshi ehtiyot qilg'aylarkim, qo'rg'on eli qochib ketmagaylar. Bu ehtiyotlardan g'araz G'ozixon edi.

Bu beklarni ilgari yiborib, Konvahin to'g'risidin Biyoh suvini kechib tushuldi. Andin ora ikki qo'nub, Milvat qo'rg'onining qo'lining og'zida tushtuk. Burun kelgan beklar bila Hindustondag'i beklarga hukm bo'ldikim, qo'rg'onni yaqin qabab tushgaylar.

¹ Q. b. – Bo'jka.

Davlatxonning nabirasi, uluk o'g'li Alixonning Ismoilxon o'tliq o'g'li munda keldi. Bir pora va'da va va'id va istimolat va tahdid bila yana qo'rg'onga yiborib, odina kuni o'rduni ilgari ko'churub, qo'rg'onga yarim kuruh yovuq tushtuk. O'zum kelib, qo'rg'onni ko'rub, burong'or, juvong'or, g'ulg'a buljorlar ta'yin qilib, yonib o'rduga tushtum.

Davlatxon kishi yiborib, arz qildikim, G'ozixon qochib tog'ga bordi. Mening gunohimni afv qilsalar, kulluqqa borib, qo'rg'onni topshuray. Xoja Mirmironni yiborildi, tavahhumni xotiridin chiqarib kelturdi. Davlatxon va o'g'li Alixon bila keldilar. Buyurdumkim, o'shal ikki qilichkim, bizning bila urushur uchun belga bog'lab edi, bo'ynig'a ostilar. Mundoq rustoyi va loda mardak bo'lg'aymukim, ishi bu yerga yetib, hanuz taallul qiladur. Ilgarrak kelturdilar. Buyurdumkim, qilichlarni bo'ynidin oldilar. Ko'rushur vaqt yukunmakta ta'xir qiladur. Buyurdumkim, oyog'ini tortib yukundurdirilar. Ilgari o'lturg'uzub, bir hindustoniyni bilur kishiga buyurdumkim: Bu so'zlarni biror-biror anga xotir nishon qila aytkil, mundoq degilkim, men seni ota dedim, ta'zim va ehtiromingni ul tariyqkim, sening xotiring tilar edi, andin yaxshiroq qildim. O'zungni va o'g'lonlaringni, bulujlarning darbadarliqlaridin qutqordim. Xaylxonalarigizni va haramlaringizni Ibrohimning bandaxonasidin xalos qildim. Uch kurur Totorxonning viloyatini sanga inoyat qildim. Sening haqqingda yamon bordimmukim, to'shung bila belingga ikki qilich bog'lab, cherik tortib, biz-

ning viloyatlarning ustiga kelib, mundoq sho'r va fitna solursen.

Qari mabhut mardak bir-ikki so'z og'zida-o'q puypadi, so'zlay olmadi. Andoq muqarrar bo'ldikim, xaylxonalari va haramlarini munga topshurub, o'zga bo'lg'on jami' jihotlarni zabt qilg'aylar. Farmon bo'ldikim, Xoja Mirmiron bila tushgay.

Shanba kuni rabiul-avval oyining yigirma ikkisida ularning xaylxona va qaramxonalarini solim chiqarmoq uchun o'zum kelib, Milvat qo'rg'onining darvozasining ro'baro'yidagi balandiyg'a tushtum. Alixon chiqib, bir pora ashrafiy peshkash qildi. Namozni digarga yovuq xaylxonalari va haramlari chiqara kirishtilar.

G'ozixonni agarchi chiqib ketibtur deydurlar edi, vale ba'zilar dedikim, biz ko'rdukkim, qo'rg'ondadur. Bu jihatdin ba'zi ichkilarni va chuhralarni darvozada qo'yuldikim, gumonliq kishini axtarg'aylarkim, G'ozixon mug'allat qilib, chiqmag'aykim, ko'nliy g'araz ul edi. Yana ba'zi javohir va jarovini ham yashurub chiqardurg'on bo'lsa, zabt qilg'aylar.

O'shul darvozaning olidag'i balandiyda chodir tikturub, kecha anda-o'q bo'ldum. Sabohi Muhammadiy va Ahmadiy va Sulton Junayd va Abdulaziz va Muhammad Ali jang-jang va Qutluqqadam va bir necha ichki beklarga farmon bo'ldikim, ichkari kirib, xizonalari va bo'lg'on jihotlarini zabt qilg'aylar. El qo'rg'on eshigida bisyor g'uluv qiladurlar edi, siyosat uchun bir necha o'q ottim, yakbor bir qazo o'qi Humoyun mirzoning qissaxoniga tekgach-o'q jon bahaq taslim qildi.

Ikki kecha o'shul balandiyda qo'nub, du-shanba kuni qo'rg'ong'a kirib sayr qilib, G'ozixonning kitobxonasi g'a kirdim. Bir necha nafis kitoblar chiqti, bir nechasini Humoyung'a berib, bir nechasini Komrong'a yibordim. Mulloyona kitoblar xud bisyor edi. Vale oncha nafis kitoblarkim, ko'z tutulur edi, oncha chiqmadi. Kechasi anda qo'nub, tonglasi o'rdug'a keldim.

G'ozixonni qo'rg'onda tasavvur qilur eduk, ul behamiyat nomard ota, og'a, inisini va ona-egachi-singlini Milvatta tashlab, ma'dude bila tog' sari qochibtur.

*Mabin on behamiyatro ki hargiz
Naxohad did ro'yi nekbaxtiy,
Tan osoni guzinad xeshtanro,
Zan-u farzand biguzorad ba saxtiy.¹*

. Chahorshanba kuni ul yurttin ko'chub, G'ozixon qochqon tog' sari mutavajjih bo'lduk. Milvatning og'zidag'i yurttin bir kuruh yo'l kelib, bir qo'l da tushtuk. Dilovarxon munda kelib, mulozamat qildi. Davlatxonni va Alixonni va Ismoilxonni va yana bir necha urug'larini band qilib, Kattag'a topshurdukkim, Bahradag'i Milvat qo'rg'onig'a eltib saxlag'ay. O'zgalarnikim, har kishiga tutturulub edi, Dilovarxonning itifoqi bila xunbaho ta'yin qilildi. Ba'zini kafilga berib, ba'zini band qilib, saxladilar. Katta bandilarini eltti. Davlatxon Sultonpurg'a yeta o'ldi.

¹ Unday behamiyatni ko'rma, u hech qachon xushbaxtlik yuzini ko'rmaydi. U o'z gavdasini qutqarib, xotin, bola-chaqasini yomon holda qoldiradi.

Milvat qo'rg'onini Muhammad Ali jang-jangning uhdasida qilduk. O'z jonibidin og'asi Arg'unni bir pora yigitlar bila anda qo'ydi. Hazora va afg'ondin ham ikki yuz ellikcha kishi qo'rg'ong'a ko'mak ta'yin bo'ldi.

Xoja Kalon G'azni chog'irlaridindin bir necha tevada yuklatib edi. Xoja Kalonning yurti bir balandiyda voqe bo'lub edikim, qo'rg'ong'a va o'rdug'a mushrif edi, anda suhbate tutulub, ba'zi el chog'ir ichti, ba'zi el araq ichtilar, tavr, suhbate edi.

Andin ko'chub, Milvatning bir arg'adolliq ushoq tog'laridindin oshib, dung'a kelduk. Hinduston tili bila julgani «dun» dermishlar. Hindustonda bir oqar suv ushbu dundadur. Dunning atrofi qalin kentlardur. Jevol parganasini emishkim, Dilovarxon alarning tag'oyilari bo'lg'ay. Dun tavr julgaye tushubtur. Rudning atroflari o'langdur, ba'zi yerda sholi ekibturlar, o'rtasidindin uch-to'rt tegirmon suv oqib boradur. Julganing kengligi bir kuruh-ikki kuruh, ba'zi yeri bo'lg'aykim, uch kuruh ham bo'lg'ay. Tog'lari kichikrak-kichikrak pushta yo'sunluq tog'lardur, kentlari bu tog'larning domanalarida voqe bo'lubtur. Kent bo'lmag'on yerlarda tovus va maymun bisyor. Uy tovug'idek tovuq ham ko'ptur. Biaynihi tovuqdur, vale aksar bir rangdur.

Chun G'ozixonning xabaribir yerda muhaqqaq emas edi. Turdikani va Birim Div Malinhos bila ta'yin qildukkim, har yerda G'ozixon bo'lsa, borib, bir nav' qilib, iliklag'aylar.

Bu dun atrofidagi ushoq tog'larda tavre mazbut qal'alar tushubtur. Sharqi shimol tarafila bir qal'a voqe bo'lubtur. Ko'tila otliq, atrofi yetmish-sekson qari yakandoz, ulug' darvozasi tarafi yetti-sekkiz qari bo'lg'ay. Puli ravon solur, yerining kengligi o'n-o'n ikki qari bo'lg'ay, ikki uzun yig'ochni ko'pruk qilibturlar. Otni va galani andin o'tkarurlar.

Bu ko'histonda G'ozixonning berkitgan qo'rg'onlaridin biri budur, kishisi bor ekandur. Chopqunchi yetib, urush solur. Alar yovushqondurlar. Kech bo'lg'och, qo'rg'onning ichidagilar mundoq rust qo'rg'onni tashlab qocharlar.

Bu dun navohisida yana bir rust qo'rg'on Ginkuta qo'rg'onidur, aning atrofi ham uchmadur, vale ul muncha rust emastur. Olanxon ushbu Ginkuta qo'rg'oniga kirib edi, burun mazkur bo'ldi.

G'ozixonning ustiga ilg'or ayirg'ondin so'ng himmat rikobig'a oyoq qo'yub, tavakkul inonig'a ilik urub, Sulton Ibrohim binni Sulton Iskandar binni Sulton Bahlul Ludiy afg'onning ustig'akim, ul tarixda Dehli poytaxti va Hinduston mamoliki aning taxti tasarrufida edi, hozir cherigini bir lak derlar edi, o'zida va beklarida mingga yovuq fil chenarlar edi mutavajjih bo'lduk.

Bir kechdin so'ng Boqi shig'ovulg'a Diboldurni inoyat qilib, Balxqa ko'mak yiborildi. Balx maslahati jihatidin, qalin yarmoq va Kobuldagi uruq-qayosh va o'g'lon-ushoqqa Milvat fathida tushgan mato'din savg'otlar yiborildi.

Dundin quyi bir-ikki ko'chtin so'ng Shoh Imod Sheroziy Oroyishxon va Mullo Muhammad muzahhibning xatlarini olib keldi. Bir pora davlatohliq izhori qilib, bu yurushga sa'y va ehtimomlar qilubturlar. Biz dag'i bir yayoq-dik inoyat farmonlari yiborib, ilgari ko'chtuk.

Milvattin borg'on chopqunchi Xarur, Kahlur va ul navohidagi tog' qo'rg'onlarinikim, mud-datlar ekandur, ul orag'a berkligidin hech kim borg'on emas ekandur, tamom olib, elini talab, bizga kelib qo'shuldilar. Olamxon ham xarob-lab, yayoq-yalang keldi. O'trusig'a beklardin va ichkilardin yiborib, otlar ham yiborduk. Ushbu navohida kelib, mulozamat qildi. Bu navohi-ning tog' va daralarig'a dag'i chopqunchi borib, bir-ikki qo'nub keldilar. Mu'tabar nima ilikka tushmadi. Shoh Mir Husayn va Jonbek va ba'zi yigitlar chopqung'a ruxsat tilab bordilar.

Dunda ekanda ikki-uch navbat Ismoil Jil-voniyning va Bibanning arzadoshlari keldi. Mundin ham alarning ko'ngli tilagandek far-monlar yiborildi.

Dundin ko'chub, Arupar kelduk. Aruparda ekanda qalin yomg'urlar yog'di. Filjumla sovuq bo'ldi. Och-yalang'och hindustoniylar qalin qirildi.

Arupardin ko'chub, Sihrind to'g'risi Karalg'a¹ tushub edukkim, bir hindustoniylar: «Sulton Ibro-himning elisidurmen», – deb keldi. Agarchi, xat va kitobati yo'q edi, bizdin bir kishi elchilikka istid'o qilibdur. Biz ham aning muqobalasida bir Savodiy tunqatorni yiborduk. Bu faqirlar

¹ Q. b. – Karmol.

yetgach, har ikkisini Ibrohim band qildurur. O'shal kunkim, Ibrohimni bostuk, o'shal zamon Savodiy xalos bo'lub keldi.

Ora qo'nub, Banur¹ va Sanur ro'diy yoqasig'a tushtuk. Hindustonda daryolardan boshqa bir oqar suvkim bor-budur, muni Gagar suvi derlar. Chitr ham bu suv yoqasidadur. Bu suv yuqqori sayr qila otladuk. Chitrdin uch-to'rt kuruh yuqqorroq bu suv ro'dning zihidin chiqib keladur, ro'd yuqqorikim, sayrg'a borildi, bir keng daradin to'rt-besh tegirmon suv chiqib keladur. Yuqqorroq xeyli latif va xush havo munosib yerlardur. Ushbu suvning keng daradin chiqishida bir chaxorbog' buyurdum. Bu suv tuzga tushub. bir-ikki kuruh yo'l borib. ro'dg'a singadur. Gagar suvi zahobdin chiqar, bu suv singar yerdin uch-to'rt kuruh kuyiroq bo'lg'ay. Pashkolda bu ro'd suvi qalin kelib, Gagar suvig'a qotilib, Somona va Sanomg'a borurlar.

Bu yurtta xabar toptukkim, Sulton Ibrohimkim, Dehlining beri yonida edi, andin ilgari boqa ko'chubtur. Yana Hitori Firuzaning shaqdori Hamidxoni xossa xayliy Hitori Firuza va ul navohining cheriki bila Hitori Firuzadin o'n-o'n besh kuruh berirak chiqib kelibtur. Kattabekni xabar uchun Ibrohimning o'rdusig'a yiborildi. Mo'min atkani Hitori Firuza cherikiga xabar uchun yiborildi.

Yakshanba kuni jumodil-avval oyining o'n uchida Anboladin ko'chub, bir ko'l yoqasig'a tushub edukkim, Mo'min atka va Kattabek ushbu kun keldilar. Humoyunni tamom bu-

¹ L. b. – Tanur.

rong'or kishisi bilakim, Xoja Kalon va Sulton Muhammad do'ldoy va Vali Xozin bo'lg'ay va Hindustonda qolg'on beklardin Xisravbek va Hindubek va Abdulaziz va Muhammad Ali jang-jang va g'uldin, ichkildin va yigitlardin Shoh Mansur barlos va Kattabek va Muhib Ali va bir pora kishi qo'shub, Hamidxon ustiga ta'yin qilduk.

Biban ushbu yurtta kelib, mulozamat qildi. Bu afg'onlar ko'p rustoyi va behush el bo'ladur. Bovujudkim. Dilovarxon ham navkar va ham martabag'a andin uluqroq, o'turmas, Olamxonning o'g'lonlarikim, podshohzodalardur, alar o'turmas, bu o'turmoq istid'o qildi, aning noma'qulig'a kim quloq solur.

Dushanba kuni sabohi oyning o'n to'rtida Hamidxon ustig'a Humoyun muttavajjih bo'ldi, Ilg'ob, Humoyun o'zidin ilgarrak yuz-yuz ellik o'bdon yigitni qorovul ayirur. Qorovul kishisi yovuq yetib, ilik olishib, bir-ikki dast egarishgan mahalda keyindin Humoyunning qorasi paydo bo'lg'ach-o'q g'anim qochar. Yuz-ikki yuz kishi tushurub, yarimining bo'ynini urub, yarimini yetti-sekkiz fil bila kelturdi. Humoyunning bu fathining xabarini odina kuni tush vaqtida oyning o'n sekkizida Bek Mirak mo'g'ul o'shal yurtta-o'q kelturdi. Filhol xossa bosh-oyoq va tavaladag'i xossa otlardin bir ot inoyat qilib, juldu ham va'da bo'ldi.

Dushanba kuni oyning yigirma birida o'shal yurtta Humoyun yuzcha bandi bila va yetti-sekkiz fil bila kelib, mulozamat qildi. Bandilarni Ustod Aliquli va tufangandozlarga buyuruldi-

kim, siyosat jihatidin borini tufang bila qirdilar. Avvali yurushi va avval ish ko'rgani bu edi. Shugung'a bisyor yaxshi bo'ldi, Qovug'unchi qochg'on elini qovlab, Hisori Firuzag'a yetgan bila-o'q olurlar, Hisori Firuzani talab keldilar. Humoyung'a Hisori Firuzani tavobe va lavohiqi bilakim, bir kurur viloyattur, yana bir kurur yarmoq juldu berildi.

Ul yurttin ko'chub, Shohobod kelduk. Til tutar uchun Sulton Ibrohimning o'rdusig'a kishi yiborib, necha kun bu yurtta tavaqquf bo'ldi. Rahmat piyodani fathnomalar bila Kobulg'a yiborildi.

Ushbu yurtta dushanba kuni jumodil-avval oyning yigirma sekkizida ofob hamal burjig'a tahvil qildi. O'n sekkiz yoshda edi, ushbu yurtta Humoyun yuziga ustara yo miqroz tegurdi, tarix sana 961 bo'lg'ay.¹

Ibrohimning o'rdusidin ham mutavotir xabarlar kela boshladikim, bir kuruh-ikki kuruh ko'chub har yurtta ikki-uch kun maqom qila-qila keladur. Biz ham mutavajjih bo'lub, Shohoboddin ora iqkm qo'nub, Jo'n daryosining yoqosig'a Sarsova g'arbisi kelib tushtuk. Xoja Kalonning navkari Haydarqulini til tuta yiborildi.

Men Jo'n daryosini Guzar bila kechib borib, Sarsovani sayr qildim. Ul kun ma'jun ham yeduk. Sarsovaning chashmasi bor, ozroqcha suv bu chashmadin chiqib boradur, yamon

¹ Qozon bosmasida Humoyunning 18 yoshga kirgani tarixini 961-yil deb ko'rsatilishi xato. London bosmasida bu jumla tushirilib qoldirilgan.

yer emas. Bir Turdibek xoksor ta'rif qildi. Men dedimkim, seniki bo'lsun. Bu taqrib bila Turdibekka Sarsova berildi.

Bir kemada tolur yasatib, gohi kema sayri qilur edim, gohi ko'chlarda kema bila andin kelur edim.

Ul yurttin daryo yoqalay quyg'a boqa ikki ko'ch ko'chulub edikim, til tuta borg'onlardin Haydarquli xabar kelturdikim, Dovudxon Haytimxonni besh-olti ming kishi bila Miyoni duob sari kechurubtur. Uch-to'rt kuruh Ibrohimning doirasidin berirak doira urub o'lturubtur.

Bu favjning ustida yakshanba kuni jumodil-oxir oyining o'n sekkizida¹ Chin Temur Sultonni va Mahdi Xoja va Muhammad Sulton² mirzo va Odil Sultonni tamom juvong'or kishisinikim, Sulton Junayd va Shoh Mir Husayn va Qutluqqadam bo'lg'ay g'uldin ham Yunus Ali va Abdullo va Ahmadiy va Kattabekni ilg'or ayirduk. Namozni peshin bu yerdni suv kechib, namozni digar-namozni shom orasida ul yuzdin tebradilar. Biban ushbu ilg'or bahonasi bila suvdin o'tub qochti. Farz vaqtida g'anima ustiga yetarlar. Oz-og'loq yasab chiqqandek qilurlar. Bizning kishi yetgan bila-o'q olib tebrarlar, Ibrohimning doirasi to'g'risig'acha tushura borurlar. Haytimxonnikim, Dovudxonning og'asi va bir sardori ul edi, tushurub, yetmish-sekson bandi bila, olti-yetti fil bila, kelib ko'rdilar. Siyosat uchun, asqari yasoqqa yetti.

Andin ko'chub, burong'or, juvong'or, g'ul yasol yasab ko'ruildi. Ul miqdorkim, qiyos qilur eduk, oncha cherik nazarg'a kelmadi.

¹ L. b. - «O'n» so'zi yo'q.

² L. b. - tushgan.

Bu yurtta farmon bo'ldikim, jami' cherik eli faroxo'r holig'a aroba kelturgaylar. Yetti yuz aroba bo'ldi. Ustod Aliqulig'a farmon bo'ldikim, Rum dasturi bila arobalarning orasida zanjir o'rnig'a o'yning xomidin arg'amchilar eshib, bir-birig'a bog'laylar. Har ikki aroba orasida olti-yetti to'ra bo'lg'ay. Tufakandozlar bu aroba va to'ralarning keynida turub, tufak otqaylar. Bu asbobning tartibi jihatidin besh-olti kun bu yurtta tavaqquf bo'ldi.

Va bu asbob va olot tayyor va mukammal bo'lg'ondin so'ng, tamom beklarni va so'z bilur o'bdon yigitlarni dag'i kengashga tilab, om kengash qilib, ra'ylar munga qaror toptikim, Ponipat shahredur, mahallot va uylari qalin, har taraf mahallot va uylar bo'lur, yana atrofini aroba va to'ra bila berkitib, tufakandoz va yayoqni aroba va to'ra orqasida ta'yin qilmoq kerak.

Bu qaror bila ko'chub, ora qo'nub, panjshanba kuni jumodil-oxir oyning salxi Ponipat kelduk. O'ng qo'l shahr va mahallot bo'ldi. Olimizda tartib qilg'on to'ralar bo'ldi. So'l qo'lda va ba'zi yerlarda xandaq va shox bo'ldi. Har o'q otimi yerda yuz-yuz ellik otliq chiqqudek yerlar qo'yuldi. Cherik eli ba'zi xeyli mutaraddid va mutavahhim edilar. Taraddud va tavahhum betaqribdur. Nekim azalda tengri taqdir qilibtur, andin o'zga bo'lmas. Agarchi alarni ham ayb qilib bo'lmas, haq alar jonibi edi. Neuchunkim, vatandin ikki-uch oychiliq yo'l kelilib edi. G'arib qavme bila elning ishi tushub edi. Ne biz alarning tillarini bilur eduk, ne alar bizning tilimizni.

*Pareshon jame-yu, jame pareshon,
Giriftor qavme-yu, qavme ajoyib.*

G'animning hozir cherikini bir lak chenarlar edi. O'zining va umarosining ming-ikki mingga yovuq fili bor derlar edi. Ikki otasidin qolg'on xazina xud naqd iligida edi, Hindustonda rasme bordurkim, mundoq ish tushganlarda yarmoq berib, miyod bila navkar tutarlar. Bu elni bidhindi derlar. Agar mundoq xayol qilsa edi, bir lak, ikki lak ham navkar tuta olur edi. Tengri taolo rost kelturdi, ne yigitini rozi qila oldi, ne xazinasini ulasha oldi. Qandin yigitini rizo qila olurkim, tabiatig'a imsok ro'p g'olib edi. O'zi yarmoq yig'ishturmoqqa behad tolib, betajriba yigit edi. Ne kelishi saranjomliq edi, ne turushi, ne yurushi ehtimomliq edi, ne urushi.

Ul fursattakim, Ponipatta cherik elining atrof va javonibini aroba va shox va xandaq bila mazbut va murattab qililadur edi. Darvesh Muhammad sarbon arzg'a yetgurdikim: «Muncha ehtiyot kim bo'ldi, ul ne imkondurkim kelgay».

Dedinkim: «Sen bularni o'zbek xon, sultonlarig'a qiyos qilurmusen? Ul yil Samarqanddin chiqib, Hisor kelganda o'zbekning jami' xon va sultonlari yig'ilib, ittifoq qilib bizning ustumizg'a kelur azimat bila Darbanddin o'ttilar. Biz jami' sipohi va mo'g'ulning ko'ch va mollarini mahallotqa kiyurub, mahallotni ko'chaband qilib, berkittuk. Chun ul xonlar va sultonlar yurush-turushining hisob va yarog'ini bilur edilar, ko'rdilarkim, o'luk-tirikni Hisorda ko'rub, Hisorni berkittuk. Hisor ustig'a

kelmakning hisobin topa olmay, Chag'oniyon navohisi Navandokdin-o'q yoydilar. Bularni alarg'a o'xshatma. Ish hisobini va yurush yarog'ini qanda bilurlar?»

Tengri rost kelturdi, men degandek-o'q bo'ldi. Yetti-sekkiz kun Ponipatta eduk, oz-oz kishimiz borib, doirasig'acha qalin kishilariga o'q qo'yarlar edi, bosh kesib keltururlar edi. Alar hech harakate va junbushe qilmaslar edi. Oxir ba'zi davlatxoh hindustoniylar beklarning ra'yi bila amal qilib, Mahdi Xoja va Muhammad Sulton mirzo va Odil Sulton va Xisrav va Shoh Mir Husayn va Sulton Junayd barlos va Abdulaziz miroxur va Muhammad Ali jang-jang va Qutluqqadam va Vali Xozin va Muhib Ali xalifa va Muhammad baxshi va Jonbek va Qaraqo'zi boshlig' to'rt-besh ming kishini shabixung'a yiborduk. Kecha bila o'bdon ittifoq qila olmay, pareshon borib tegarlar, ish qila olmadilar. Tong otib, yoruq bo'lg'uncha g'animning doirasining yaqinida edilar. G'anim kishisi naqoralarini choldurub, fillar bila yasab chiqtilar. Agarchi ish qila olmadilar, andoq qalin kishi bila ilik olishib, vale hech kishi qora oldurmay, solim va salomat chiqtilar. Muhammad Ali jang-jangning oyog'ig'a o'q teshi, agarchi muhlik emas edi, vale urush kuni ishga yaramadi.

Bu xabarni topib, Humoyunni cheriki bila bir kuruh-bir yarim kuruh bularning o'trusig'a yiborib, o'zum ham qolg'on cherik bila yasab chiqtim. Shabihun borg'onlar Humoyung'a qo'shulub keldilar. Chun g'anim kishisi ilgarrak kelmadi, biz ham yonib tushtuk.

Bu kecha o'rduda g'alat g'avg'oye tushti. Bir giriga yovuq suron edi va g'avg'o edi. Mundoq g'avg'olarni ko'rmagan ellarga xeyli taradud va tavahhum bo'ldi. Bir zamondin so'ng g'avg'o bosildi.

Odina kuni rajab oyining sekkizida farz vaqti-da qorovuldin xabar keldikim, g'anim yasab keladur. Biz dag'i jibalanib, yarog'lanib otlanduk. Burong'or Humoyun va Xoja Kalon va Sulton Muhammad do'ldoy va Hindubek va Vali Xozin va Pirquli Siystoniy edi. Juvong'or Muhammad Sulton mirzo va Mahdi Xoja va Odil Sulton va Shoh Mir Husayn va Sulton Junayd barlos va Qutluqqadam va Jonbek va Muhammad baxshi va Shoh Husayn Yoragiy¹ mo'g'ul g'onchi edi.

G'ulning o'ng qo'li Chin Temur Sulton va Sulaymon mirzo, Muhammadiy ko'kaltosh va Shoh Mansur barlos va Yunus Ali va Darvish Muhammad sorbon va Abdullo kitobdor edi. G'ulning so'l qo'li Xalifa va Xoja Mirmiron va Ahmadiy parvonachi va Turdibek va Qo'chbek va Muhib Ali halifa va Mirzobek'tarxon edi. Irovul Xisrav ko'kaltosh va Muhammad Ali jang-jang edi. Abdulaziz miroxurni tarhqa tayin qilib eduk. Burong'orning uchida Vali Qizil va Malik Qosimni, Bobo qashqani mo'g'ullari bila to'lg'amag'a muqarrar qilduk. Juvong'orning uchida Qoraqo'zi va Abul Muhammad nayzaboz va Shayx Ali va Shayx Jamol borin va Mahdi va Tengriquli Pishg'i mo'g'ulni to'lg'amag'a yasaduk. G'anim kishisi yovuq kelgan, bu ikki bo'lak to'lg'ana o'ng qo'ldin, so'l qo'ldin g'anim-

¹ Q. b. - Bargiy.

ning orqasig'a evrulgaylar. G'animning qorasi ko'ringanda, burong'or sari mayli ko'prak edi, bu jihattin Abdulaziznikim, tarhqa muayyan edi, burong'org'a ko'mak yiborildi.

Sulton Ibrohimning qorasi yiroqtinkim, ko'rundi, hech yerda darang qilmay, tez-o'q keladur edi. Ilgarrak kela bizning qoramizkim, alarg'a ko'rundi, bu tartib va yasolnikim, mu-lohaza qildilar, hasr bo'lub, turay-turmay, kelay-kelmay degandek qilib, ne tura oldi, ne burung'idek bedarang kela oldi.

Farmon bo'ldikim, to'lg'amac'a tayin bo'lg'on kishi o'ng qo'ldin, so'l qo'ldin g'animning orqasig'a evrulub, o'q qo'yub, urushqa mashg'ul bo'lg'aylar. Burong'or, juvong'or ham yurub, g'anim bila tegishgaylar. Tulg'ama kishisi orqasig'a evrulub, o'q qo'ya kirishtilar. Juvong'ordin Mahdi Xoja burunroq tegishti. Mahdi Xojaning o'trusig'a bir favj bir fil bila keldi. Bular ham qalin o'q qo'yub, ul favjni yondurdilar. Juvong'org'a ko'mak g'uldin Ahmadiy parvonachi va Turdibek, Qo'chbek va Muhib Ali xalifani yiborildi. Burong'orda ham urush qoyim bo'ldi.

Muhammad Ali ko'kaltosh va Shoh Mansur barlos va Yusuf Ali va Abdullog'a farmon bo'ldikim, g'ulning olida ro'baro'din yurub, urushqa mashg'ul bo'ldilar. Ustod Aliquli ham g'ulning olidin necha qatla yaxshi farangilar otti. Mustafo to'pchi ham g'ulning so'l qo'ldin aroba us-tidagi zarbzanzlar bila yaxshi zarbzanzlar otti. Burong'or, juvong'or va g'ul va to'lg'ama g'animning gir-do-girdini olib, shiba qo'yub, bajid urushqa mashg'ul bo'ldilar. Bir-ikki qatla ju-

vong'or, burong'or sari qisqa-qisqa hamlalar qildilar. Bizning kishi o'q qo'yub, shiba zarbi bila yana g'o'lig'a tiqtilar. G'animning o'ng qo'li va so'l qo'li bori bir yerda yig'ilib, andoq tiqilish bo'ldikim, ne ilgari kela oldilar, ne qochg'ali yo'l topa oldilar.

Oftob bir nayza bo'yi chiqib edikim, urush angizi bo'ldi. Kun tushgacha zarb urush edi. Kun tush bo'la a'do mag'lub va maqhur va ahibbo muhtahij va masrur bo'ldilar. Tengri taolo fazl-u karami bila mundoq dushvor ishni bizga oson qildi va andoq qalin cherikni yarim kunda andoq yer bila yakson qildi. Besh-olti ming kishi Ibrohimning yaqinida bir yerda-o'q qatlg'a yetibturlar. O'zga har yerda o'lganlarni bu ma'arakada o'n besh-o'n olti ming taxmin qilur eduk. So'ngra Ograga kelganda Hinduston eli taqridin andoq ma'lum bo'ldikim, qirq-ellik ming kishi bu ma'arakada o'lgan ekandur.

Yog'iyni bosib tushira-tushira yuruldi. O'trudin tushurgan umarolarni va o'g'lonlarni olib kela boshladilar. Suruk-suruk fillarni filbonlari kelturub, peshkash qildilar. Yog'iyning keynicha yurub, xossa tobindin Qismtoy mirzoni¹ va Bobochuhrani va Bujka boshliqlarni, Ibrohimni chiqqan xayol qilib, quvg'unchi ta'yin qildukkim, Ograga yetguncha ta'jil bila borib, iliklagaylar.

Ibrohimning o'rdusining ichi bila o'tub, sa-rocha va uylarini sayr qilib, bir qora suv yoqasig'a tushtuk. Namozig digar bor edikim, Tohir Tabariy xalifaning qayin inisi Sul-ton Ibrohim-

¹ Q. b. - Qosmoy mirzo.

ning o'lugini qalin o'luklar ichida tanib, boshini kelturdi.

Ushbu kun-o'q Humoyun mirzoni va Xoja Kalon va Muhammadiy va Shoh Mansur barlos va Yunus Ali va Abdullo va Vali Xozinni tayin qildukkim, jarida ildam yurub, Ograni iliklab, xizonani zabt qilg'aylar.

Mahdi Xojani va Muhammad Sulton mirzo va Odil Sulton va Sulton Junayd barlos va Qutluqqadamni muqarrar qildukkim, partoldin ayrilib, ilg'ab, Dehli qo'rg'onig'a kirib, xizonalarni ehtiyot qilg'aylar.

Tonglasi ko'chub, bir kuruh yo'l kelib, ot maslahatig'a Jo'n¹ yoqasig'a tushtuk. Ora ikki qo'nub, seshanba kuni Shayx Nizom avliyoning mazorini tavof qilib, Dehli to'g'risi Jo'n yoqasida tushuldi. Ushbu chahorshanba oxshomi-o'q Dehli qo'rg'onini sayr qilib, kechasi anda bo'lub, tonglasi panjshanba kuni Xoja Qutbidinning mazorini tavof qilib, Sulton G'iyosiddin filbon va Sulton Alouddin Xiljiyning maqbara va imoratlari va minorini va havzi xosni va Sulton Bahlul va Sulton Iskandarning maqobiri va bog'otini sayr qilib, o'rdag'a tushub, kema-ga kirib, araq ichildi. Dehlining shikdorlig'ini Vali Qizilg'a inoyat qilib, Do'stni Dehli viloyatida devon qilib, bo'lg'on xizonalarni muhr qilib, bularning uhdasig'a qilduk.

Panjshanba kuni andin ko'chub, Tug'ulqobod to'g'risi Jo'n yoqasig'a tushuldi.

Odina kuni ul yurtida tavaqquf qilduk. Mavlono Mahmud va Shayx Zayn, yana ba'zi borib,

¹ Q. b. – Jo'y.

Dehlida jum'a namozi qilib, mening o'ting'a xutba o'quttilar. Fuqaro va masoking'a bir pora yarmoq ulashib, o'rdug'a keldilar.

Shanba kuni ul yurttin ko'chub, ko'ch-bar-ko'ch Ogra azimati qilildi. Men borib, Tug'ulqobodni sayr qilib, o'rdug'a tushtum.

Odina kuni rajab oyining yigirma ikkisi-da Ograning maholloti Sulaymon farmuliyning manzilig'a tushuldi. Chun bu yurt xeyli qo'rg'ondin yiroq edi. Tonglasig'a ko'chub, Jalolxon Jikhatning imoratig'a tushuldi.

Humoyunkim, ilgarrak kelib edi, qo'rg'ondag'ilar uzr aytib, hiyal qilibturlar, bular ham elning besarlig'ini mulohaza qilib, xizonag'a dastandoz bo'lmag'aylar deb biz kelguncha chiqar yo'llarni ehtiyot qilib, o'lturubturlar.

Bikramojit hindukim, Guvalyor rojasi edi, yuz yildin ko'prak Guvalyor viloyatida otalari saltanat qilib edilar. Iskandar Guvalyorni olur maslahatig'a necha yil Ograda o'lturdi. So'ngra Ibrohim zamonida A'zam Humoyun Sarvoniy necha mahal bajid urushti, oxir sulh bila olib, Shamsobodni anga berdi. Bikramojit Sulton Ibrohimni bosqonda do'zahqa bordi. Avlodi va xaylxonasi Ograga kelganda Bikramojitning xaylxonasining qochar xayoli bor ekandurkim, Humoyun qo'yg'on kishilar ko'p ehtiyot maqomida bo'lur, Humoyun ham borg'ali qo'ymas. O'z rizolari bila qalin javohir va jarov Humoyung'a peshkash qilur. Bu jumladin bir ashhar olmos¹ edikim, Sulton Alouddin kelturgan ekan-

¹ L. b. – bir shuhratliy olmos.

dur. Andoq mashhurdurkim, bir muqayyim¹ muning qiymatini tamomi olamning ikki yarim kunluq xarji² debtur, g'olibo sekkiz misqoldur. Men kelganda Humoyun menga peshkash qildi, men Humoyung'a-o'q bag'ishladim.

Qo'rg'on ichidagi sipohilardin bilguluk kishilardin biri Malik Dod Karoniy edi, yana Malik So'ruk, yana Firuzxon Mevotiy edi, bir nima hiyal bulardin zohir bo'ldi. Siyosat qilib yiborildi. Malik Dod Karoniyini chiqarib, ba'zi istid'olar qilibturlar. Bora-kela bu so'zlar qaror topquncha to'rt-besh kun o'tti. Alarning muddaosidek inoyat va shafqat qilib, jami' jihotlarini o'zlariga-o'q maof tuttuk. Ibrohimning otasig'a yetti laklik pargana naqd inoyat bo'ldi. Beklariga ham har qaysig'a parganalar berildi.³ Ibrohimning otasini bayrilari⁴ bila chiqarib, Ogradin bir kuruh suv quyi yurt berildi.

Panjshanba kuni rajab oyining yigirma sekizida namozi digar Ograga kirib, Sulton Ibrohimning manziliga tushuldi. Tarix to'qquz yuz o'ndakim,⁵ Kobul viloyati musaxxar bo'ldi, ul tarixdin bu tarixqacha hamisha Hinduston havasi qililur edi. Gohi beklarning sust raylig'idin, goxi og'a-inining nohampoylig'idin Hinduston yurushi muyassar bo'lmas edi. Oxir mundoq mavone qolmadi. Kichik-kirim bek va bekottin hech kim xilofi maqsud so'z ayta olmadi.

¹ *L. b.* – muqavvim.

² *L. b.* – sarfi.

³ *L. b.* – bu ibora tushgan.

⁴ *L. b.* – partollari.

⁵ Milodiy yil hisobi bilan 1504/5-yil.

Tarix to'qquz yuz yigirma beshida¹ cherik tortib, Bajurni zo'r bila ikki-uch kerida olib elini qatli om qilib, Behrag'a kelduk. Tolon va toroj qilmay. Behra eliga moli omon solib, nakd va jinsdin to'rt lak shohruhiy olib, cherik eliga navkar adadi bila ulashib, Kobulg'a murojaat qilildi.

Ushbu tarixdin to'qquz yuz o'ttuz ikkigacha² Hindustong'a, bajid yurushub, yetti-sekkiz yil-da besh navbat Hindustong'a³ cherik torttuk. Beshinchi navbat tengri taolo o'z fazl-u karami bila Sul-ton Ibrohimdek g'animni maqhur va abtar ilib, Hindustondek vase mamlakatni bizga muyassar va musaxxar qildi.

Hazrati risolat zamonidin bu tarixqacha ul yuz podshohlaridin uch kishi Hinduston viloyatig'a musallit bo'lub, saltanat qilibturlar; bir, Sul-ton Mahmud G'ozu va avlodi Hinduston mamlakatida muddati madid saltanat taxtig'a o'lturubturlar. Ikkinchi, Sul-ton Shihobiddin G'uriy va qullari va tavobeyi ko'p yillar bu mamolikda podshohliq surubturlar. Uchunchi mendurmen, vale mening ishim ul podshohlarning ishiga o'xshamas: ne uchun-kim, Sul-ton Mahmud Hindustonnikim musaxxar qildi, Xuroson taxti aning taxti zabtida edi va Xorazm va Dorulmurz⁴ salotini anga mute va mundoq edi. Samarqand podshohi aning zeri dasti edi. Cheri-ki ikki lak bo'lmasa, xud bir lakta ne so'z edi. Yana g'animlari rojalar edi.

¹ Milodiy 1519-yil.

² Milodiy yil hisobi bilan 1526-yilgacha.

³ *L. b.* - bu joyi tushgan.

⁴ *L. b.* - Dor-modor.

Tamom Hinduston bir podshohda emas edi. Har roja bir viloyatga o'z boshicha podshohliq qilur edi.

Yana sulton Shihobiddin G'uriy agarchi Xuroson saltanati anda emas edi, og'asi Sulton G'iyosiddin G'uriyda edi, «Tabaqoti Nosiriy»da kelturubturkim, bir navbat bir lak-u yigirma ming bargustvondor bila Hindustong'a cherik tortibdur. Muning g'animplari ham roy va rojalar edi. Tamom Hinduston bir kishida emas edi.

Avval navbatkim, Behraga kelduk, ming besh yuz, nihoyati ikki ming kishi bo'lg'ay eduk. Beshinchi navbatkim kelib, Sulton Ibrohimni bosib, Hinduston mamolikini fath qildim, hech qachon Hinduston yurushida muncha cherik bila kelilmaydur edi. Navkar va savdar va chokar jami' cherik bila bo'lg'onlar o'n ikki ming kishi qalamg'a keldi. Manga taalluq viloyot Badaxshon va Qunduz va Kobul va Qandahor edi, vale bu viloyatlardin mu'taddun bih nafe yo'q edi, balki ba'zi viloyatlar yog'iyg'a yovuq voqe bo'lg'on uchun, qulliy madadlar qilmoq lozim edi. Yana jami' Movarounnahr viloyatlari o'zbek xavonin va salotinning tasarrufida edi, yuz mingga yovuq cheriklari bor edi, qadimiy dushman edi. Yana Hinduston mamlakati Behradin Bahorg'acha afg'on tasarrufida edi, podshohi Sulton Ibrohim edi. Viloyat hisobi bila besh lak cheriki bo'lmoq kerak edi. Ul fursatta yurub¹ umarosi muxolafat maqomida edilar. Hozir cherikini bir lak chenarlar edi. O'zining

¹ «Yurt» bo'lsa kerak.

va umarosining ming chog'liq fili bor derlar edi. Bu hol va bu quvvat bila tavakkul qilib, o'zbekdek yuz ming qari yog'iyini orqada qo'yub, Sulton Ibrohimdek qalin cheriklik va vase mulkluk podshoh bila ro'baro' bo'lduk. Tavakkulimizga yarasha tengri taolo ranj va mashaqqatimizni zoye qilmay, mundoq zo'r g'animni mag'lub qilib, Hindustondek keng mamlakatni maftuh ayladi. Bu davlatni o'zumizning zo'r va quvvatidin ko'rmasbiz, balki tengrining mahzi lutf va shafqatidindur va bu saodatni o'zumizning sa'y va himmatidin bilmasbiz, balki tengrining ayni karam va inoyatidindur.

Hinduston mamoliki vase va purmardum va purhosil viloyat voqe bo'lubtur. Sharqi va janubi, balki g'arbi ham muhit daryosig'a muntahi bo'lur. Shimoli bir tog'durkim, Hindukush va Kofiriston va Kashmir tog'lari bila payvastur. G'arbi shimoli Kobul va G'azni va Qandahor voqe bo'lubtur. Jami' Hinduston viloyatining poytaxti Dehli ermish. Sulton Shihobiddin G'uriyidin so'ng, Sulton Firuzshohning oxir axdig'acha aksar Hinduston Dehli salotining taxti zabtida ekandur.

Bu tarixdakim, men Hindustonni fath qildim, besh musulmon podshoh va ikki kofir Hindustonda saltanat qilurlar edi. Agarchi kichik-kirim roy va roja tog' va jangalda xeyli bor edilar, vale mu'tabar va mustaqil bular edilar. Bir afg'onlar edikim, Dehli poytaxti alarda edi. Behradin Bahorg'acha qobiz edilar. Afg'onlardin burun Junpur Sulton Husayn Sharqiyning qabzida edi. Bu jamoatni puriy derlar. Bularning otalari

Sulton Firuzshoh va ul salotinning olida saqqo ekandurlar. Firuzshohdin so'ng Junpur mam-lakatig'a musallit bo'lubturlar.

Dehli Sulton Alouddinning iligida edi. Bu tabaqa sayidtur. Temurbek Dehdini olg'onda Dehli hukumatini bularning otalarig'a berib, borib edi. Sulton Bahlul Ludiy afg'on va o'gli Sulton Iskandar Dehli poytaxti bila Junpur poytaxtig'a qobiz bo'ldilar. Har ikki poytaxt bir podshohnishin bo'ldi.

Ikkinchi Gujarotta Sulton Muzaffar edi. Sul-ton Ibrohim fathidin bir necha kun burunroq olamdin naql qildi. Bisyor mutasharre podshoh edi, tolibi ilmlig'i bor erdi, hadis mutolaa qilur erdi, doim mushaf kitobat qilur erdi. Bu taba-qani tonk derlar. Bularning ham otalari Sulton Firuzshoh va ul saloting'a sharobdor ekandur-lar. Firuzshohdin so'ng Gujarot viloyatig'a qo-biz bo'lubturlar.

Uchunchi Dakanda Bahmaniylar edi. Vale bu tarixta Dakan salotinig'a ixtiyor va iqtidor qolmaydur edi. Tamom viloyatlarni ulug' beklar iliklab edi. Bir nimag'a ehtiyoj bo'lsa, beklardin tilar edi.

To'rtunchi Molva viloyatidakim, Mandov ham derlar, Sulton Mahmud edi. Bu tabaqa-ni xaljiy derlar. Muni Rono Sango kofir bosib, aksar viloyatig'a qobiz bo'lub edi, bu ham zaif bo'lub edi. Bularning otalari Firuzshohning tarbiyatkardalaridin ekandur. Andin so'ngra Molva viloyatig'a qobiz bo'lubturlar.

Beshinchi Bangola viloyatida Nusratshoh edi. Otasi Bangolada podshoh bo'lub edi. Sayid

edi va Sulton Aloudding'a mulaqqab edi. Munga saltanat meros tegib edi. Ajab rasmedur, Bangolada saltanat merosi kamroq bo'lar. Podshohining bir muayyan taxti bor. Umaro va vuzaro va sohib mansablarning har qaysining bir muqarrariy yeri bordur. Bangola el qoshida ul taxt va yerlar mu'tabardur. Har qaysi yerda tobe va mute navkar va chokar va jam'i muayyan va muqarrardur. Podshohining nasb va azli xotiri tilasa har kimni-kim birovning yerig'a o'lturg'uzdi, ul yerga tobe va mute navkar va chokar tamom bu kishining bo'lar, balki podshohining taxtida ham bu xosiyattur. Har kim podshohini o'lturub, taxtg'a chiqquncha fursat topsa, ul podshoh bo'lar. Umaro va vuzaro va sipohi va raiyat barcha anga itoat va inqiyod qilurlar. Burung'i podshohidek podshoh va farmonravo bilurlar. Bangola elining so'zi budurkim, biz taxti halolxuridurbiz.¹ Har kim taxt ustida bo'lsa, biz ang'a mute va munqodurbiz. Nechukkim, Nusratshohning otasi Sulton Alouddindin burun bir habashiy podshohini o'lturub, taxtqa chiqib, muddate saltanat qildi. Habashiyi Sulton Alouddindin so'ng, irs tariyqi bila holo o'g'li podshoh bo'lubtur.

Yana Bangolada bu rasmdurkim, har kishikim podshoh bo'ldi, burung'i podshohlarning xizonalarini sarf va xarj qilmog'liq kulliy ayb va ordur. Har kim podshoh bo'lsa, yana yangi xizona yig'moq kerak. Xizona jam' qilmog'liq ul elning qoshida faxr va mubohottur. Yana bir rasm budurkim, xizona va poygoh va

¹ L. b. - Quvoridurbiz.

mulk salotinining jami' maunotining qadimdin muqarrar va muayyan tanlari parganalar bor-durkim, o'zga yerga aslo xarj bo'lmaz.

Uluq mu'tabar va musulmon va qalin cheriklik va bisyor viloyatliq bu besh podshoh edikim, mazkur bo'ldi.

Kofirlardin ulug'rog'i viloyat va cherik bila Bijongar rojasidur. Yana Rono Sangodurkim, bu yovuqlarda o'zining jur'ati va qilichidin muncha ulg'ayib edi. Asli viloyati Chetur edi, Mandov salotinining saltanati xalal topganda Mandovg'a taalluq qalin viloyatqa qobiz bo'ldi: misli, Ratanpur¹ va Sorangpur va Bxilson va Chandiriy.

Tarix to'qquz yuz o'n to'rtta tengri taolo inoyati bila Chandiriykim, necha yil edi, dorul-harb bo'lub edi. Medini-rov otliq Rono Sango-ning ulug' va mu'tabar kishisi to'rt-besh ming kofir bila anda edi. Bir-ikki kerida-zo'rlab olib, kofirlarni qatli om qilib, dorul-islom qildim, nechunkim, sharhi mazkur bo'lg'usidur. Yana Hindustonning atrof va javonibida g'alaba roy va rojadur, ba'zi mutiul-islom, ba'zi yiroqligidin yo yeri berkligidin islom podshohlarig'a itoat qilmaydurlar.

Hinduston avvalg'i iqlimdin va ikkinchi iqlimdin va uchunchi ilqimdindur. To'rtunchi iqlimdin Hindustonda yo'qtur. G'arib mamlakate voqe bo'lubtur. Bizning viloyatlarg'a boqa o'zga olamedur. Tog' va daryosi va jangal va sahrosi, mavozi' va viloyoti va hayvonot va nabototi, eli va tili va yomg'uri va yeli borcha o'zga-

¹ Q. b. – Ranpur.

cha voqe bo'lubtur. Kobul tavoben garmserlar agarchi ba'zi ishta Hindustong'a mushobahati bor, ba'zida yo'q. Sind¹ suvini o'tgach, yer va suv va yig'och va tosh va el va ulus va roh va rasm tamomi Hinduston tariyqidadir. Shimoldagi tog'kim, mazkur bo'ldi, Sind daryosidin o'tgach, bu tog'da Kashmir tavobeyi viloyatlardur. Agarchi bu tarixda bu tog'dagi viloyatlar, misli, Pakli va Shahmang aksari Kashmirga itoat qilmas, vale burun Kashmir doxili ekanadir. Kashmirdin o'tgach, bu tog'da bedihoyat el va ulus va pargana va viloyatlardur. Bang'ola va balki muhit yoqasig'acha bu tog'da payvast haloyiqdur. Hinduston elidin muncha tahqiq va taftish qilildi, hech kim bu tavoyifdin tahqiq xabar ayta olmadi. Ushmuncha deydurlarkim, bu tog' elini Kas derlar. Xotirg'a yettikim, Hinduston eli «shin»ni «sin» talaffuz² qilur. Chun bu tog'da mu'tabar shahr Kashmirdur, balki Kashmirdin o'zga bu tog'da yana shahre eshitemaydur. Bu jihatdin bo'la olurkim, Kashmir demish bo'lg'aylar.

Bu tog' elidin mato' nofa, mushk va qo'tosi bahriy va za'faron va surb va misdur. Bu tog'ni Hind eli Savo lak parbat derlar, hind tili bila «savo» – rub', «lak» – yuz ming, «parbat» – tog', ya'ni rub' va yuz ming tog'kim, yuz yigirma besh ming tog' bo'lg'ay. Bu tog'larda qor o'qsumas, Hindustonning ba'zi viloyatidin, misli Lohur va Sahrind va Sanbaldin bu tog'da qor oqarib ko'runur. Ushbu tog' Kobulda Hindukush-

¹ L. b. – Hind.

² «Shin»ni «sin» talaffuz qilmoq – «sh» harfini «s» deb aytmoq.

qa mavsumdur. Kobuldin bu tog' sharqqa boqa boribtur, bir nima janubqa moyil. Janubi tamom Hindustonottur. Bu tog'ning va bu nomal'um uluslarning kim, «kas» derlar, shimoli Tebat viloyatidir.

Bu tog'din qalin daryo chiqib, Hindustonning ichi bila oqar. Sahrinddin shimol sari boqa olti daryokim, Sind va Bahat va Chonob va Roviya va Biyoh va Satluj bo'lg'ay ushbu tog'din chiqib, Mo'ltan navohisida borcha bir yerda qotilur, borcha bir yerda qotilg'onda ham Sind derlar: G'arb sari oqib Tatta viloyatining ichi bila o'tub, Ummong'a qotilur. Bu olti daryodan o'zga daryolar: Jo'n va Gang va Rahab va Go'mti va Gagar va Siru' va Gandak va yana qalin daryolardurkim, bori Gang daryosiga qotilib, Gang-o'q atanur. Sharq sari oqib, Bangola viloyatining orasi bila o'tub, muhitqa to'kukur. Borining manbayi ushbu savo lak parbattur. Yana ba'zi daryolardurkim, Hinduston tog'lari-dan chiqar, misli, Chanbal va Banos va Bitvi va Sun², bu tog'larda qor aslo bo'lmas, alar ham Gang daryosiga qotilur.

Hindustonda ham tog'lar bordur. Ul jumladin bir tog'e tushub tur, shimoldin janubqa boqa boriptur. Bu tog'ning ibtidosi Dehli viloyatida Firuzshohning Jahonnamo otliq imoratdindurkim, parchag'ina toshliq tog'ning ustida voqe bo'lubtur. Mundin o'tgach, Dehli navohisida parcha-parcha, kichikrak-kichikrak, anda-munda toshliq toqqinalar paydo bo'lib-

¹ Q. b. – Sird.

² L. b. – «sun» yo'q.

tur. Mevot viloyatig'a yeta bu tog'lar ulug'roq bo'lor, Mevotdin o'tub, Biyona viloyatig'a borur, Sekri va Bori va Dulpurning tog'lari ham ushbu tuta tog'lardindur, agarchi payvast emas. Guvalyorningkim, Kolpur derlar, tog'lari ushbu tog'ning shu'balaridindur. Rantanbur va Chetur va Mandov va Chandiriy tog'lari ham ushbu tog' raglaridindur. Ba'zi yerlarda yetti-sekkiz kuruh munqati' bo'lubtur. Bu tog'lar past-past va durusht va toshliq va jangalliq tog'lardur. Bu tog'larda qor aslo yog'mas.

Hindustonda ba'zi daryolarning manbayi bu tog'lardur. Hindustonning aksari viloyati tuz yerda voqe bo'lubtur. Muncha shahrlar va muncha viloyatlarkim bor, hech yerda oqar suv yo'qtur. Oqar suvi daryolardur, ba'zi yerlarda qora suvlardur.

Ba'zi shahrlarningkim, ariq qozib, suv chiqarur qobiliyati ham bor, suv chiqormaydurlar. Bu necha jihattin bo'la olur: bir bukim, ziroat va bog'otig'a aslo suv ehtiyoj emas, harifiy mahsuli xud pashkol yomg'uri bila bo'ladur. Bu g'aribturkim, rabiiy mahsulig'a agar yomg'ur bo'lmasa ham bo'ladur. Daraxtlarning niholig'a bir-ikki yil suvni tashib yo charx bila yo dalv bila suv beradurlar, andin so'ng aslo bermak ehtiyoj emas. Ba'zi sabzilarg'a suv beradurlar. Lohur va Dibolpur va Sihrind va ul navohida charx bila suv beradurlar.

Ikki uzun ipni chohning qaddicha halqa qilibturlar, ikki ipning orasig'a yig'ochlar bog'lab, ko'zalarni yig'ochlarga berkitibturlar. Bu ko'zalarni berkitgan ipni choq ustida-

gi charxg'a solibturlar. Bu charxning tiyrining yana bir boshida yana bir charx qilibturlar, bu charxning qoshida yana bir charx qilibturlarkim, o'qi tik turubtur, o'y bu charxni evurgach, parralari ikkinchi charxning parralarig'a kirib, ul ko'zalik charx evrulur. Suv to'kukur yerda nov ko'yubturlar, nov din har qayon suv eltarlar.

Yana Ogra va Chanduvor va Biyona va bu navohida dalv bila suv berurlar. Bu mashaqqatliqtur va murdorlig'i ham bor. Choh yoqasida ayri yig'ochni berkitib, ayrining orasida g'altak tartib qilib-turlar. Uzun arg'amchig'a ulug' dalvni bog'lab, bu g'altak ustig'a solibturlar. Arg'amchining bir uchini o'yg'a bog'labturlar. Bir kishi o'yni haydamoq kerak, bir kishi dalv suvin to'kmak kerak. Har qatla o'y tortib, dalvni chiqorib yonar mahalda ul arg'amchi o'yning yo'lig'akim, o'y siyduk va tezagi bila mulavvasdur, tegib, yana chohqa tushar. Ba'zi ziroatlarg'a suv ehtiyoj bo'lsa, ko'za bila er va xotun suv tashib sug'oradurlar.

Hindustonning shahrlari va viloyatlari asru besafodur. Bori shahrlari va bori yerlari bir vaz'liq, bog'otig'a tom bo'lmas. Aksar yorlari tub-tuz voqe bo'lubtur. Ba'zi daryolarning va rudlarning yoqasi pashkol yog'inlari jihati-din obkanlar bo'lubturkim, har yerdin ubur va murur mutaazzirdur. Tuzlarida ba'zi yerlarda tikonlik, daraxt jangali bordurkim, parganalarning eli bu jangallarda quzg'adab mutamarridliq qilib, mol bermaslar.

Hindustonda oqar suv daryolardin o'zga kamdur. Ahyonon ba'zi yerda qora suvlar bor.

Ushmuncha shahr va viloyat choh suvi bila yo havz suvi bilakim, pashkol yomg'uridin yig'il-mish bo'lg'ay, maishat qilurlar.

Hindustonda mavozi' va kentlarning, balki shahrlarning buzulmoq va tuzalmagi bir zamonda bo'ladur. Ushmunidoq uluq shahrlarkim, yillar anda mutavattindurlar, agar qocharlari bo'lsa, bir kunda-bir yarim kunda andoq qocharlarkim, osor va alomatlar qolmaydur. Agar tuzalmakka yuz qo'ysalar, ariq qozmog'i va band bog'lamog'i ehtiyoj emas. Ekinlari tamom lalimiydur. Eliga xud nihoyat yo'qtur, jami' yig'ildilar, bir havz yasadilar, yo choh qozidilar. Uy yasamoq yo tom ko'parmoq xud yo'qtur. Xas bisyor va daraxt beshumor, chirilar qildilar, filhol kent yo shahr bo'ldi.

Hayvonotkim, Hinduston maxsusidur, vuhushdin bir fildurkim, Hindustoni «hotiy» derkim, Kolpi viloyatining sarhadlarida bo'lur. Andin yuqqori sharq sari boqa borg'on sari sahroi fil ko'prak bo'lur. Ul oradin fil tutub keltururlar. Karra va Monikpurdin o'ttuz-qirq mavzi'ning ishi fil tutmoqdur. Devong'a fil-o'q javob berurlar. Fil azimul-jussa va ziyrak jonivordur. Har ne desalar bilur va har ne buyursalar qilur. Bahosi uluqlug'ig'a yarahadur, qarilab sotarlar. Har necha uluqroq – bahosi ko'proq. Andoq rivoyat qildilarkim, ba'zi jazoyirda o'n qari fil bo'lur ermish. Bu orada xud to'rt-besh qaridin ikizrak ko'ruvmadi. Filning yemak va ichmagi tamom xartumi biladur, xartumi bo'lmasa tirilmas. Xartumining ikki yonida yuqqorig'i engagida ikki uluq tishi bor,

tomg'a va yig'ochqa ushbu tishlarini qo'yub, zo'rlab yiqitur. Urushmoq va har zo'r ishlarkim bo'lsa, ushbu tishlar bila qilur. Oj bu tishlarni derlar. Bu tishlarning hind elining qoshida xeyli qadri bor. Filning tuki yo'qtur. Hinduston elining qoshida filning bisyor e'tibori bor. Cheriklarida har fayjkim bor, albatta, bir necha fil hamrohdur. Filning ba'zi yaxshi haysiyatlari bor: uluq suvlardin va tund va tez suvlardin qalin yuk ko'tarib, oson o'tadur. Yana to'rt-besh yuz kishi tortar qazon arobasini uch-to'rt fil ocon tortib boradur, vale bo'g'uzi xeyli uluqtur, ikki qator tevaning bo'uzini bir fil yer.

Yana karkdur: bu ham ulug' jonivoredur, zaxomati uch govmishcha bo'lg'ay. Ul so'zким, ul viloyatlarda mashhurdurkim, kark filni shox bila ko'tarur emish, g'olibo g'alattur. Bir shoxi bor, burnining ustida, uzunligi bir qarishdin ko'prak, ikki qarish xud ko'rulmaydur. Bir uluq shoxidin bir obxo'ra kishti bo'ldi, yana bir nardning tosi bo'ldi, yana uch-to'rt ellik ham shoyad ortti ekin. Terisi bisyor qalin bo'lur. Qattiq yoy bila bag'alkusho va xo'b to'lturub, ursalar, yaxshi kirsas, to'rt ellik kirar. Derlarkim, po'stining ba'zi yerlaridin o'q xeyli o'tar ermish. Ikki qo'lining qoshidin va ikki butining qoshidin tih tushubtur. Yiroqdin yopug' yopqondek ko'runur. O'zga hayvonottin otqa mushobahati ko'praktur. Nechukkim, otning uluq qorni bo'lmas, muning ham uluq qorni yo'qtur, nechukkim, otning oshuq o'rnida parcha so'ngagi bo'lur, muning ham oshuq o'rnida parcha so'ngagi bor: nechukkim otning ilgida

ko'muk bo'lar, muning ham ilgida ko'muk bor. Bu fildin darrandaroqtur. Vale oncha mute va munqod bo'lmas, Parshovar va Hashangarning jangallarida qalin bo'lar. Yana Sind suvi bila Behra viloyatining orasidagi jangallarda ham bo'lar. Yana Hindustonda Saru daryosining yoqasida qalin bo'lar. Aksar Hinduston yurushlarida Parshovar, Hashang'ar jangallarida kark o'lturulur edi. Tavr shoxlar urar. Bu ovlarda g'alaba kishini va otni shox urubtur. Bir ovda Maqsud otliq chuhraning otini shoxi bila bir nayza bo'yi tashladi. Bu jihattin Maqsud karkka mulaqqab bo'ldi.¹

Yana, sahroyi govmishidir. Bu govmishdin xeyli ulug'roqdur. Shoxi bu govmishning shoxidek keyinga boqa yotuq emastur. Bu mahkam muzir va darranda jonivordur. Hindustonda Saru daryosining yoqasida ham qalin bo'lar.

Yana nilagovdur, balandlig'i otcha bo'lg'ay, otdin bir nima inichkaraktur. Erkagi ko'ktur. Bu jihattin g'olibu nilagov derlar. Ikki kichikrak shoxi bor. Bo'g'zida bir qarishdin uzunroq tuki bordur. Bahriy qo'tosqa mushobahati bor. Tuvog'i o'yning tuvog'idek ayridur. Modasining rangi bo'g'u-maralning rangidadur. Bo'g'zidagi tuki ham yo'qtur. Erkagiga boqa tupchoq vaz'dur.

Yana ko'tahpoydur. Uluqlug'i oq kiyikcha bo'lg'ay. Muning ikki qo'li va ikki buti qisqaroqdur. Bu jihattin ko'tahpoy derlar. Munguzi bo'g'-u munguzidek shoxchaliqdur, vale kichikraktur. Har yil, bo'g'udek, bu ham mun-

¹ L. b. – tushgan.

guz solur. Yugurushda zabunroqdur. Bu jihatdin jangaldin chiqmas.

Yana bir jayranning erkagi huna yo'sunluq kiyikdur. Orqasi qora, tuki oq, hunaning shoxidin muning shoxi uzunroqtur va parishonroqtur. Hindustoniy «g'alakra» der. Aslda «golohran» ekandur, ya'ni qora kiyik, taxfif qilib, «galakra» deb turlar. Modasi oqdur. Ushbu galakra bila kiyik tutarlar: bu galakhraning shoxig'a tuzoqning halqasini berkiturlar. Oyog'iga to'puqdin ulug'roq toshni ovizon bog'larlar, ya'ni kiyik eltg'ondin so'ng yiroq ketariga mone bo'lg'ay. Andin so'ng yozi galahrasi ko'rub, muqobalasila qo'ya berurlar. Bu kiyik urushqa g'arib harisdur. filhol urushga kirur. shox urushub. susub-susub ilgari keyin borurda-kelurda ul kiyikning shoxi bu kiyikning shoxiga berkitgan tuzoqqa kirar. Ul qochmoqqa mayl qilsa, rom kiyik qochmas, g'olibo oyog'iga bog'lag'on tosh mone bo'lur. Bu nav' bila qalin kiyik tutarlar. Tutqondin so'ng rom qilurlar. Yana kiyiklarni tutmoqqa rom qilurlar. Yana bu rom kiyiklarni ham uyda urushga solurlar. Yaxshi urushur.

Yana Hindustonning tog' domanalarida kichikrak kiyik bo'lur. Arqar g'alchanning bir yilliq to'qlisicha ulug'lug'i bo'lg'ay.

Yana birgina o'ydur, kichikkina o'ydur. Ul yerlarning uluq qo'ch-qoricha bo'lg'ay. Go'shti bisyor yumshoq va lazizdur.

Yana maymundur. Hindustoniy «bondar» der. Bu ham puranvo' bo'lur. Bir nav'i uldurkim, ul viloyatlarga eltarlar. Lo'lilar o'yun o'rgaturlar. Darayi Nur tog'larida Ko'hi Safidning jar navohisidagi domanalarida va andin quyi

tamom Hindustonotta boʻlur. Bulardin yuqqori boʻlmas. Tuki sariq va yuzi oqdur, quyrugʻi xeyli uzun emastur.

Yana bir navʼ maymun boʻlur. Bajur va Savod va ul navohilarda koʻrulmaydur. Ul viloyatlargaʻa eltar maymunlardin xeyli uluqroqdur. Quyrugʻi ham bisyor uzundur. Tuki oqroqtur. Yuzi qop-qoradur. Bu navʼ maymun Hindustonning togʻlarida va jangallarida boʻladur. Ul viloyatlarda yoʻqtur.

Yana bir navʼ maymun boʻladur, yuzi va tuki va bori uzvi qop-qoradur.

Yana nuldur¹, kishidin juzviy kichikrak boʻlgʻay. Yigʻochqa chiqar. Baʼzi mush hurmo ham derlar. Muni muborak tutarlar.

Yana bir sichqondurkim, kilohiriy derlar. Bu hamisha daraxtlarda-oʻq boʻlur. Daraxtlarning ustida yuqqori-qoʻyi ajab chust-u naspon yugurur.

Tuyurdin: bir tovusdur. Purrang va purzeb jonivoredur. Andomi rang va zebicha emas. Jussada turnacha boʻlgʻay, turnacha baland emastur. Narining va modasining boshida yigirma-oʻttuz par bordur, ikki-uch ellik balandligʻi boʻlgʻay. Modasining yana zeb va rangi yoʻqtur. Narining boshida tovqi savsaniydir, boʻyni xushrang koʻktur. Boʻynidin quyi orqasi sariq tutagiy va koʻk va binafsha ranglar bila munaqqash voqe boʻlubtur. Orqasidagʻi gullari kichikrak-kichikrak gullardur. Orqasidin quyiroq ushbu ranglar bila munaqqash ulugʻ-ulugʻ gullar quyrugʻining uchigʻacha bordur.

¹ Q. b. - niyul.

Ba'zi tovuslarning quyrug'i birar quloch bo'lur va gulluk parlarining ostida qisqaroq, o'zga qushlarning quyrug'idek, quyrug'i ham bordur. Bu rasmiy quyrug'i va qanotlari qizildur. Bajur va Savodda va andin quyi bo'lur. Andin yuqqori Kunar va Lamg'onot va hech yerda bo'lmas. Uchmoqta qirg'ovuldin ham ojizroqdur. Bir-ikki qatladin ortuq ucha olmas. Uchmoqta zabun jihatidin yotog'da bo'lur yo jangalda. Bu ajab-turkim, tovus bo'lur jangallarda shag'ol ko'p bo'lur. Bir quloch quyrug'i bila jangaldin jangalg'a yurur, shag'oldin nechuk mutazarrir bo'lmas ekan. Hindustoniy «mo'r» der. Imom Abuxanifa mazhabida haloldur. Go'shti xoli az maza emas¹, durroj go'shtiga o'tishar, vale teva etidek karohati tab' bila yeyiladur.

Yana to'tidur. Bu ham Bajur va andin quyig'i viloyatlarda bo'lur. Yozlar tut pishig'ida Ningnahor va Lamg'onotqa kelur. O'zga vaqtlarda bo'lmas. To'ti turluk-turluk bo'ladur.² Bir nav'i uldurkim, ul viloyatlarg'a eltarlar, suxango'y qilurlar.

Yana bir nav'i bu to'tidin kichikrak bo'lur. Muni ham suhango'y qilurlar. Bu jinsni jangaliy derlar. Bu jins Bajur va Savod va ul navohida bisyor bo'lur. Ul martabadakim, besh ming-olti ming bir xil uchar. Bu to'ti bila ul to'ti orasida jussada tafovuttur. Ranglari xud birdek-o'qtur.

Yana bir nav' to'ti bo'lur. Bu jangaliy to'tidin hanuz kichikrak, boshi qip-qizil, qanotlarining usti ham qizil bo'lur. Quyrug'ining uchi ikki

¹ Go'shti mazadan xoli emas, ya'ni bemaza emas, maza-likdur demoqchi.

² Q. b. - To'ti necha nav'dir. Ko'k bo'ladur.

ellikcha yer oq boʻlur. Ushbu jinsning baʼzi-sining boshi savsaniy boʻlur. Bu jins suhangoʻy boʻlmas. Muni Kashmir toʻtisi derlar.

Yana bir navʼ toʻti boʻlur. Jangaliy toʻtidedek kichikrak boʻlur. Tumshugʻi qora, boʻynida uluq qora tavqi bor, qanotlarining usti qizil, yaxshi soʻz oʻrganur. Xayol qilur edukkim, toʻti va shorak harne oʻrgatsalar aytur, oʻz boshicha maʼni taxayyul qilib, talaffuz qila olmas. Bu fursatta Abulqosim jaloyirkim, yaqin mulozimlarimdindur, ajab nima rivoyat qildi: ushbu jins toʻtining qafasi yopuq ekandur, toʻti aytibturkim, «Roʻyi maro vo kun ki damgir shudam».¹ Yana bir navbat koʻtargan qahorlar² dam olgʻali oʻlturgʻonda rahguzar el oʻtub boradurlar ekandur, toʻti debturkim: «Mardum raftand, shu-moyon nameraved?»³ val-uhdatu alarroviy.⁴ Bovujud kishi oʻz qulogʻi bila eshitmaguncha inonsa boʻlmas.

Yana bir navʼ toʻti boʻlur, xushrang qip-qizil. Yana baʼzi ranglari ham bor. Mushaxxas xotirda qolmagʻon uchun mashruh bitilmadi. Qizil, bisyor xushrang va xushshakl toʻtidur, suxangoʻy ham qilurlar emish. Aybi budurkim, chinni sinigʻini mis tabaqqa tortqondek koʻp noxush va tez uni bor.

Yana bir shorakdur. Bu Lamgʻonotta bisyordur. Andin quyi tamom Hindustonotta koʻp boʻlur. Bu ham turluk-turluk boʻladur. Bir navʼi

¹ «Mening yuzimni och, dimiqdim».

² Q. b. – qahr borlar.

³ «Odamlar kettilar, siz ketmaysizmi?».

⁴ Bu arabcha jumlaning eshitilgan soʻzga ishonilmagan taqdirda aytiladi: «soʻzning toʻgʻri-notoʻgʻriligi aytuvchining boʻyniga» maʼnosida.

budurkim. Lamg'onotta ko'ptur, boshi qora, qanotlari ola, jussasi chug'urchuqdin bir nima uluq va qaboroqtur. So'z o'rgaturlar. Bir nav'ini miyno derlar. Bangoladin keltururlar. Yakrang qoradur, jussasi bu shorakdin xeyli uluqdur, tumshug'i va oyog'i sariqdur, ikki qulog'ida sariq po'stlari bor, solinib turadur. Muning badnamolig'i bor. Suxango'y qilurlar, yaxshi aytur va fasih aytur.

Yana bir nav' shorak bo'lur. Burun mazkur bo'lg'on shorakdin inichkaraktur. Ko'zlarining girdi qizil bo'lur. Bu jins suxango'y bo'lmas, «vin shorak» derlar.

Yana bu fursatdakim, Gang suvig'a ko'pruk bog'lab o'tub, muxoliflarni qochurduk. Laknurdagi¹ va navohisida bir nav' shorak ko'ruddikim, ko'ksi oq, boshi ola, yelkasi qora, hargiz ko'rumaydur edi. Bu jins g'olibo so'z o'rganmas.

Yana lo'chadur,² bu qushni buqalamun ham derlar. Boshidin quyrug'ig'acha besh-olti muxtalif rangi bor, kabutarining bo'ynidek barroqdur. Uluqlug'i kabki dariycha bo'lg'ay, g'olibo Hinduston kabki dariysidur. Nechukkim, kabki dariy tog'larning qullarida yurur, bu ham tog' qullarida yurur. Kobul viloyatlaridin Nijrov tog'larida va andin quyig'i tog'larda bo'lur. Andin yuqqori bo'lmas. Ul el ajab nima rivoyat qildilar: qish bo'lg'och, tog' domanalarig'a tushar, agar uchursalarkim, uzum bog'idin o'tsa, yana aslo ucholmas, tutarlar. Ma'kulul-lahmdur³, bisyor laziz eti bordur.

¹ Q. b. – Laknav.

² Q. b. – Kuja.

³ «Makulul-lahm» – eti yeyiladigan.

Yana bir durrojdur. Bu Hinduston maxsus emastur. Garmser viloyatlarda boʻlur, vale baʼzi jinsi Hindustondin oʻzga yerda boʻlmas uchun, muni taqrib bila zikr qildim. Durrojning jussasi kaklikcha boʻlgʻay. Narining orqasi qirgʻovulning modasi rangidekdur, boʻgʻzi va koʻksi qoradur, oq-oq tuklari bordur, ikki koʻzining ikki yonida qizil xatte tushubtur, tovre qichqururkim: «Shir doram shakarak»¹ aning unidin masmuʼ boʻlur, «shir»ni qitdek aytadur, «doram shakarak» xud durust mutalaffiz boʻladur. Astrobod durrojleri «bot meni tuttilar» deb qichqirur emish. Arabiston va ul navohining durroji «Bishshukri tadumun-naaum»² deb chorlar emish. Modasi qirgʻovulning yuzlaridek ranglikdur. Nijrovdin quyi boʻlur.

Yana bir durroj jinsi bir qushdur, «kanjal» derlar. Jussasi durrojcha-oʻq boʻlgʻay, uni kaklikning³, uniga xeyli oʻxshar, vale muning uni koʻp tezdur. Nari bila modasining rangi orasida tavofut kamdur. Parshovar va Xashangʻar viloyatida va andin quyigʻi viloyatlarda boʻlur, andin yuqqori boʻlmas.

Yana pul-pakordur⁴, uluqlugʻi kabki dariycha boʻlgʻay, uy tovugʻi andomliqdur, rangi ham mokiyon ranglikdur, tomogʻidin quyi koʻksigacha hushrang qip-qizildur. Pul-pakor Hinduston togʻlarida boʻlur.

¹ «Sutim bor shakargina».

² «Shukur qilsang, neʼmat farovon boʻladi» maʼnosida.

³ Q. b. – Kabk.

⁴ Q. b. – Pul-paykar.

Yana sahroyi tovuqdur. Uy tovug'i bila bu tovuqning orasida farq budurkim, bu sahroyi tovuq qirg'ovuldek uchar, yana uy tovug'idek har rang-har rang bo'lmas. Bu tovuq Bajur tog'larida va andin quyig'i tog'larda bo'lur. Bajurdin yuqqori bo'lmas.

Yana chalsiydur. Jussada pul-pakordek-tur, pul-pakor mundin xushrangroqdur. Bajur tog'larida bo'lur.

Yana shomdur. Uluqlug'i uy tovug'icha bo'lg'ay. G'ayri muqarrar ranglari bor. Bu ham Bajur tog'larida bo'lur.

Yana bo'danadur. Agarchi bo'dana Hinduston maxsusi emasdur, vale to'rt-besh jins bo'danadurkim, Hinduston maxsusidur. Bir bo'danadurkim, bizning viloyatlarg'a borur bo'danadin uluqroqdur. Yana bir bo'danadurkim, ul viloyatqa borur bo'danalardin qisqaroqdur, qanot-quyrug'ining qizilroq rangi bor. Bu jins bo'dana chirdek xayl-xayl uchadur. Yana bir bo'danadurkim, ul viloyatlarg'a borur bo'danadin kichikrak, bo'g'zi bila ko'ksida qorasi ko'prak bo'lur. Yana bir bo'danadur. Bu bo'dana Kobulg'a oz-oz borur. Kichikki-na bo'danadur, qorchadin bir nima uluqroq bo'lg'ay, Kobulda «qurotu» derlar.

Yana bir xarchaldur, ulug'lig'i tug'doqcha bo'lg'ay. G'olibo, Hinduston tug'dog'idur. Go'shti bisyor lazzatliqdur. Ba'zi qushning but eti yaxshi bo'lur, ba'zining ko'ksiga eti yaxshi bo'lur: xarchalning bori eti lazzatlik va xo'bdur.

Yana charzdur. Tug'doridin jussasi bir nima kichikrakdur. Narining orqasi tug'doridektur,

ko'ksi qoradur. Modasi yakrangdur. Charzning go'shti ham bisyor lazizdur. Nechukkim, xarchalning tug'doqqa mushobahati bor, charzning ham tug'dorig'a mushobahati bor.

Yana Hinduston bag'riqarosidur, ul bag'riqarodin kichikrak va inichkaraktur. Bag'rining qorasi ham kamdur. Uni ham andin inichkaraktur.

Yana qushlardurkim, suvda va suv yoqalarida bo'fur: ul jumladin: bir dingdur, uluq jusalik jonivordur, har qanoti bir quloch bordur. Boshining va bo'ynining tuki yo'qtur. Bo'g'zida xaritadek bir nima solinib turubtur. Orqasi qora, ko'ksi oqdur. Ahyonan Kobulg'a borur. Bir yil Kobulda ding tutub kelturub edilar, yaxshi rom bo'lub edi. Go'shtni tashlab bersalar hargiz xato qilmas edi, tumshug'i bila olur edi. Bir qatla bir shash na'l kafshni yutub edi. Yana bir navbat bir butun tovuqni qanotlari va patlari bila durust yutti.

Yana biri sorasdur. Hindustonda bo'lg'on turklar tevaturna deyduklar. Bu bir nima dingdim kichikrak bo'lg'ay, bo'yi dingdin balandroqdur, boshi qip-qizildur. Muni uyda saxlayduklar, yaxshi rom bo'ludur.

Yana manikdur. Bo'yi sorasqa yovushur. Jursasi kichikraktur. Laklakdin xeyli uluqdur, laklakka mushobahati bor, tumshug'i laklakning tumshug'idin uzunroqdur. Tumshug'i qoradur, boshi savsaniy, bo'yni oq, qanoti oladur, jarka qanotlarining uchlari va tublari oqdur, o'rtasi qoradur.

Yana bir laklakdur. Bo'yni oqdur, boshi va jami' a'zosi qoradur. Ul viloyatlarg'a borur lak-

lakdin kichikrakdur. Bu laklakni Hindustoniya yakrang der. Yana bir laklakdur – rangi va va'zi tamom ul viloyatlarg'a borur laklaklardektur. G'oyatash, tumshug'i qoraroqtur. Ul laklakdin xeyli kichikdur.

Yana bir qushdur, uqor bila laklakka mushobahati bor. Uqordir tumshug'i uluqroq va uzunroqdur, jussasi laklakdin kichikraktur.

Yana bir ulug' bo'zakdur. Ulug'lug'i sorchabo'lg'ay. Ikki qanotining orqasi oqdur. Baland uni bordur.

Yana bir, boshi va tumshug'i qora oq bo'zakdur. Ul viloyatqa borur bo'zakdin xeyli uluqdur. Hinduston bo'zakidin kichikraktur.

Yana bir o'daktur, g'armpoy derlar, so'na burchindin ulug'roqdur, nari va modasi bir rangdur. Hashang'arda doyim bo'kur, gohi Lamg'onotqa ham borur. Go'shti xeyli lazizdur.

Yana bir o'rdaktur, shahmurg' derlar, qozdin juzviy kichikrak bo'lg'ay, tumshug'ining ustida balandlig'i bor, ko'ksi oqdur, orqasi qoradur. Go'shti mazaliqdur.

Yana bir zumajdur, ulug'lug'i bo'rkcha¹ bo'lg'ay. Qora ranglikdur. Yana bir sor bo'ludur orqasi va quyrug'i qizil. Yana Hindustonning olaqarg'asidur, ul viloyatning olaqarg'asidin kichikrak va inichkarakdur. Bo'ynida juzviy oqi bordur.

Yana bir qushdur qarg'a bila akkag'a mushobahati bor. Lamg'onotta murg'i jangal derlar. Boshi va ko'ksi qora, qanotlari va quyrug'i qizilroq, ko'zlari qip-qizil. Uchmoqta ojiz uchun jangaldin chiqmas. Bu jihatdin murg'i jangal derlar.

¹ Q. b. – burgut.

Yana bir ulug' shapparadur, chamagdar derlar. Uluqlug'i yapaloqcha bo'lg'ay. Boshi itning quchugining boshig'a o'xshar. Daraxtqakim, qo'nar xayoli qiladur, bir shoxni tutib, sarnigun bo'lub turadur. G'arobati bordur.

Yana bir Hinduston akkasidur, mato derlar. Akkadin juzviy kichikrak bo'lg'ay. Akka oq-oladur, mato malla oladur.

Yana bir qushqinadur, uluqlug'i sondug'ochcha bo'lg'ay, xushrang qizildur, qanotlarida ozroqcha qoralari bordur.

Yana bir qarchadur, qorlug'och yo'sunluqdur, qorlug'ochdin xeyli uluqdur, yakrang qop-qoradur.

Yana bir quyildur, uzunlug'i zog'cha bo'lg'ay, zog'chadin xeyli inichkarakdur. Tavre o'qur. Hinduston bulbuli bu emish. Hinduston eli qoshida bulbulcha hurmati bordur. Qalin daraxtliq bog'larda bo'ladur.

Yana bir qushdur shaqroq yo'sunluqdur. Yig'ochlarga. yopushib yurur, uluqlug'i shaqroqcha bo'lg'ay. To'tidek sabz rangliqdur.

Suv hayvonoti: bir sheri obiydur, qora suvlarda bo'ladur, kalsg'a mushobahati bor. Derlarkim, kishini va balki govmishni olur emish.

Yana sepsordur, bu ham kals vaz'likdur. Tamom Hinduston daryolarida bordur. Tutub kelturub edilar, uzunlug'i to'rt-besh qari yovushar edi. Yo'g'onlig'i qo'ycha bo'lg'ay. MUNDIN ulug'roq ham bo'lur emish. Yarim qaridin uzunroq tumshug'i bor, yuqqorig'i tumshug'i va quyig'i tumshug'ida inichka-inichka qa-

tor kichik tishlari bor. Suv yoqalarida chiqib yotadur.

Yana xuki obiydur, bu ham tamom Hinduston daryolarida boʻlur. Suvdan bayakbor chiqar, boshi koʻrunur-koʻrunmas yana suvgʻa choʻmar, quyrugʻi koʻrunub qolur, Muning tumshugʻi ham sesor tumshugʻidek uzundur va ushoq qator tishlari bordur. Oʻzga boshi va tanasi baliqdektur, suvda oʻynar vaqt mushuk yoʻsunluq koʻrunadur. Saru suvidagʻi xuki obiy-lar oʻynar mahalda suvdin durust chiqadur. Bu baliqdek suvdin tashqari hargiz chiqmas.

Yana karyoldur, bu uluq boʻlur emish. Saru daryosida cherik elidin xeyli kishi koʻrdilar. Bu kishini olur emish. Saru yoqasida ekanda bir-ikki dodakni olibtur. Gʻozipur bila Banoras orasida oʻrdu elidin uch-toʻrt kishini oldi. Ushbu navohida men ham karyolni yiroqtin koʻrdum, oʻbdon mushaxxas koʻrulmadi.

Yana kakka¹ baliqdur. Ikki qulogʻining toʻgʻrisi ikki soʻngak chiqibtur, uzunligʻi uch ellik boʻlgʻay. Yotqonda bu ikki soʻngakni tebratadur. Gʻarib tavr un keladur. Gʻolibo ul uni jihatidin kakka debturlar.

Hinduston baliqlarining goʻshti laziz boʻlur edi va qiltigʻi boʻlmas. Ajab chust baliqdurlar. Bir qatla bir suvning ikki tarafidin toʻr solib keldilar, toʻrning bir tarafi suvdin yarim qaridin koʻprak yuqqori edi, baliqlarning koʻpragi toʻrdin bir qari yuqqorroq sachrab oʻttilar.

Yana Hindustonning baʼzi suvlarida ushoq baliqlar bor, bir qattiq un yo tovush boʻlsa

¹ L. b. – gala 𐤀𐤎𐤁𐤏

buyakbor sachrab, suvdin bir qari-bir yarim qari baland chiqadurlar.

Yana Hinduston baqalari, agarchi o'shal baqalardektur, vale bu baqalar suvning yuzida yetti-sekkiz qari yuguradurlar.

Nabototkim , Hinduston maxsusidur, bir anbadur. Aksar Hinduston eli «be» ni beharakat talaffuz qilurlar, yamon mutalaffiz bo'lur uchun ba'zi «nag'zak» debturlar, nechukkim, Xoja Xisrav debtur:

*Nag'zaki mo nag'z kuni bo'ston,
Nag'ztarin mevayi Hinduston.¹*

Yaxshisi yaxshi bo'ludur, g'alaba yesa bo'ludur, vale yaxshisi kam bo'ludur. Aksar xom uzadurlar, uyda pishadur, xomi xo'b osh qatig'i bo'ludur. G'o'rasining murabbosi ham xo'b bo'ludur. Filvoqe Hindustonning yaxshi mevasi budur. Daraxti bisyor bolida bo'ludur. Ba'zi el anbani andoq ta'rif qilib edilarkim, qovundin o'zga jami' mevaga tarjih qilib edilal. El ta'rif qilg'oncha xud emastur. Kordiy shaftolug'a shabohati bor. Pashkol vaqtida pishadur. Ikki nav' yeyilur: biri, siqib, po'la qilib, terisini teshib, so'rub suvini icharlar, yana bir shaftoluyi kordiydek terisini aritib yerlar. Bargi shaftolu bargiga andake o'xshar, tanasi badnamo va bad andomdur. Bangola va Gujarotta yaxshi bo'lur emish.

¹ «Nagzak»imiz bo'ston bezagi va Hindustonning eng go'zal mevasidir.

Yana kayladur, arab mavz der. Daraxti xeyli baland emas, balki daraxt deb ham bo'las. Giyoh bila daraxt deb ham bo'las. Giyoh bila daraxt orasida bir nimadur. Bargi amon qaroning bargiga mushobihdur, vale kaylaning bargining uzunlug'i ikqi qari bo'lur, yassilig'i bir qarig'a yovushur, o'rtasida yurakdek bir shox chiqar, g'unchasi bu shoxda bo'lur va uluq g'unchasi qo'y yuragi vaz'liqdur, g'unchasining har bargi ochilg'och, bargining tubida qator olti-yetti guli bo'lur, bu qator gullar kayla bo'lur. Ushbu yurakdek shox uzog'on soyi ul uluq g'unchaning barglari ochilib, qator kayla gullari zohir bo'lur. Har kayla daraxti bir qatla-o'q bar berur emish. Kaylaning ikki lato-fati bor: bir ulkim, terisi oson so'yulur. Yana bir ulkim, hech donasi va jirmi bo'las, bodinjondin bir nima uzunroq va inichkarakdur, xeyli chuchuk emas. Bangola kaylalari bisyor chuchuk bo'lur emish. Xeyli xushnamo daraxti bor, yassi-yassi xushrang sabz barglari yaxshi ko'runur.

Yana anbulidur, xurmoyi hindiyni bu ot bila ayturlar. Reza bargi bor, javzi-bo'yo bargiga filjumla o'xshar, vale muning bargi bo'yo bargidin rezaroqtur. Xeyli xushnamo daraxtedur, soyasi qalin bo'lur. Daraxti xeyli bolida bo'ludur. Sahroyisi ham qalin bo'ludur.

Yana bir mahvadur, gul chikon ham derlar. Muning daraxti ham xeyli bolida bo'lur. Hinduston elining imoratlari aksar mahva yig'ochidindur. Mahvaning gulidin araq tortarlar va gulini mavizdek qurutub yerlar va araq ham tortar-

lar. Filjumla kish-mishga shabohati bor. Bad mazalig'i bor. Gulining o'li ham yamon emas, yesa bo'lur. Bu ham sahroyi bo'ludur. Mevasi bemaza bo'ludur. Donasi uluqroq, terisi yupqo, muning donasining mag'zidin yog' ham tortarlar.

Yana kirnidur. Muning daraxti agarchi ko'p bolida bo'lmas, kichik ham bo'lmas. Mevasi sarig' ranglikdur, jigdadin inichkaraktur. Mazasi filjumla uzumga o'xshar, oxirida ozroqcha badta'mlig'i bor, yamon emas, yesa bo'lur. Donasining terisi yupqadur.

Yana jomandur, bargi tol bargiga filjumla o'xshar, girdroq va yashilroqtur, daraxti xoli az xush namoliq emas.¹ Mevasi qora uzumg'a o'xshar, turshroq mazasi bor, xeyli yaxshi emastur.

Yana kamrakdur. Panj pahludur. Urug'lug'i g'aynolucha bo'lg'ay, uzunlug'i to'rt ellik bo'lg'ay, sariq pishadur, muning ham donasi yo'qtur. Xomroq uzgani ko'p achchiqtur. Yaxshi pishg'onning turshlig'i mayxushdur, yamon emas, xoli az latofat² emas.

Yana qadhildur. Bu g'ariyb badhay'at va badmaza mevadur, biaynihi qo'yning qonidurkim, kissadek qorinning ichi tashqari bo'lg'ay. Mazasi dil ochur chuchukdur, ichida fundukdek-fundukdek dopalari bor. Xurmog'a filjumla shabohati bor. Muning donalari girddur, uzun emastur. Bu donalarning xurmodin yumshoqroq go'shti bor, ani yeydurlar, xeyli chaspandadur. Chaspandalig'idin ba'zi ilikni, og'izni

¹ «Daraxti chiroyli ko'rinishdan xoli emas».

² «Latifikdan xoli emas».

yogʻlab yer emishlar. Ham daraxtning shoxida boʻladur, ham tanasida, ildizida ham boʻlur emish. Daraxtdin goʻyokim kissalarni osib-osib qoʻyubturlar.

Yana badhaldur, ulugʻlugʻi olmacha boʻlgʻay edi. Yomon emas, xomligʻida gʻarib gʻursh va bemazadur, pishigʻi yamon emas yumshoq nishar va har yeridin ilik bila uzub yesa boʻladur. Mazasi bixining ganda boʻlgʻonigʻa xeyli oʻxshar, tursh-tursh yaxshigʻina mazasi bor.

Yana biyrdur, forsiy kunor derlar emish. Bu anvoʻ boʻladur. Oluchadin bir nima uluqrokdur. Bir navʻi boʻladur, husayni uzum andomida, aksari xeyli yaxshi boʻlmaydur. Bondirda bir biyr koʻrduk. xeyli yaxshi edi. Muning daraxti savr va javzoda barg tugub, saratonda va asad-takim, ayni pashkoldur, barg chiqarib, tar va toza boʻladur. Mevasi dalv va xutta pishadur.

Yana karundadur, bizning viloyatning jikasi yoʻsunluq buta-buta boʻladur. Jika togʻlarda boʻlur. Bu dashtlarda boʻladur. Mazasi mirminxongʻa¹ oʻxshar, mirmixondin chuchukroq va kam obroqtur.² Andin qalyaliq osh pishiradurlar, mazalik boʻladur. Xeyli qalyasi rivojqa oʻxshar.

Yana panyoladur, oluchadin ulugʻroqtur, qizil olmaning gʻoʻrasigʻa shabihdur, turshqina mazasi bor, yaxshigʻinadur. Daraxti anor yigʻochidin ulugʻroqtur, bargi bodom bargigʻa oʻxshar.

Yana gulardur, mevasi daraxtning tanasidin chiqar, anjirgʻa oʻxshar. Gular gʻarib bemaza mevadur.

¹ Q. b. – mirminjon.

² L. b. – tushgan.

Yana omiladur, bu ham panj pahludur, g'ozaning g'unchasiga o'xshar, zumuxt va be-maza nimadur. Murabbose yamon emas. Xeyli pur foyda mevadur. Daraxtning yaxshi hay'ati bor, bisyor reza bargliktur.

Yana chirunchidur, daraxti ko'hiy emish. Bizning bog'larda uch-to'rt tup bor ekandur, so'ngra bildim. Mahvag'a xeyli shabihdur, mag'zi yamon emas, mag'zi yang'oq mag'zi bila bodom mag'zi orasida bir nimadur. Mag'zi pista mag'zidin kichikraktur. Chirunchining mag'zi girdtup, poludag'a va halvolarg'a solurlar.

Yana xurmodur. Agarchi xurmo Hinduston maxsusi emas. Chun ul viloyatlarda yo'q edi, mazkur bo'ldi. Xurmo daraxti Lamg'onda ham bordur, shoxlari daraxt kallasida bir yerda-o'q bo'lur. Barglari shoxlarining tubidin uchig'acha ikki tarafida bo'lur, tanasi nohamvor va bad-rangdur. Mevasn uzumning xo'shasidek bo'lur, uzumning xo'shasidin xeyli ulug'roq bo'lur.

Derlarkim, nabotot orasida xurmo daraxtining ikki ishi hayvonatqo o'xshar: bir ulkim, nechukkim, hayvonot boshini kesarlar – hayoti munqati' bo'lur. Xurmo daraxtining ham boshi kesilsa, daraxti qurur. Yana bir ulkim, nechukkim, hayvonottin be nar natija hosil bo'lmas, xurmo daraxtig'a ham nur xurmodin shoxini kelturub, tegurmasalar yaxshi bar bermas. Bu so'zning haqiqati ma'lum emas.

Xurmoning boshikim mazkur bo'ldi, ul paniredin iborattur. Xurmo paniri andoq bo'lurkim, shox va bargining chiqar yeri panirdek oq

boʻladur. Bu oq panirdekdan shox va barg chiqadur. Shox va barg uzogʻon soyi bargi sabz-roq boʻladur. Bu oq nimani xurmoning paniri derlar. Tavredur, yamon emas. Ul yongʻoqning oʻl magʻzigʻa xeyli oʻxshar. Ushbu paniri boʻlur yerni zaxm qiladurlar. Ul zaxmgʻa xurmo bargini andoq qoʻyadurlarkim, ul zaxmdin har suv kelsa, bu xurmo bargining usti bila oqadur, bargini koʻzaning ogʻzigʻa qoʻyub, koʻzani daraxtqa bogʻlabturlar, ul zaxmdin har suvkim hosil boʻlsa, koʻzada yigʻiladur. Agar filhol ichil-sa, chuchumonroq suvdur, uch-toʻrt kundan soʻng ichil-sa, filjumla kayfiyati bor derlar. Men bir navbat Borini sayr qilaborgʻonda, Chanbal daryosining yoqasidagi kentlarga sayr qila borib edim. Yoʻlda qoʻlda ushbu navʻ xurmo suvini oladurgʻonlar uchradi. Bu suvdin xeyli ichildikim, aning kayfiyati maʼlum boʻlgʻay, kayfiyati maʼlum boʻlmadi. Gʻolib xeyli ichmak kerakkim, andak kayfiyati maʼlum boʻlgʻay.

Yana norgildur, arab muarrab qilib «norgil» der, Hinduston eli nolir deydu. Gʻolibo gʻalati omdur. Norgilning birisi javzi hindiydurkim, qora qoshqularni andin qilurlar, Ulugʻrogʻini gʻijjakning kosasi qilurlar. Daraxti biaynihi xurmo daraxtidur, gʻoyatash, norgilning shoxi purbargaktur. Bargining rangi ham ravshan-roqtur. Nechukkim, yongʻoqning toshida koʻk poʻsti boʻlur, norgilning toshida ham koʻk poʻsti bor, vale norgilning poʻsti resha-resha boʻladur. Tamom daryodagʻi jihozlarning va kemalarning tanobini ushbu norgilning poʻstidin qilurlar emish. Kemalarning darzlarini ham muning ipi

bila tikar emishlar. Norgilning po'stini artqoch, bir uchida musallas uch to'shak o'rni zohir bo'lur, ikkisi rust, biri bo'sh, andak ishorat bila teshiladur. Mag'z bog'lardin burun norgilning ichi suv bo'ladur. Bu tushukni teshib, ul suvni ichadurlar. Mazasi yamon emas, go'yokim xurmo panirini suv qilibturlar.

Yana bir tordur, torning shoxlari ham boshida-o'q bo'lur, torg'a ham xurmodek ko'za bog'lab, suvini olib ichadurlar: bu suvni toriy deydurlar. Muning kayfiyati xurmo suvining kayfiyatidin tundroq bo'lur emish. Torning shoxlarining bir qari-bir yarim qarigacha hech bargi bo'lmas, andin so'ng o'ttuz-qirq barg shoxining uchida bir yerdin-o'q irikroq panja uradur. Bu barglarining uzunlug'i bir qarig'a yovushur. Hindi xatlarni daftar yo'sunluq bu barglarda xeyli bitiydurlar. Hinduston eli kengkeng quloqlarining tushuklariga xalqa bo'lmasa, bu tor bargidin yasab soladurlar. Ushbu tor bargidin quloq tushuguga solmoq uchun bozorlarda yasab-yasab sotadurlar. Tanasi xurmo daraxtning tanasidin yaxshiroq va hamvorroqtur.

Yana noranj va limu mashhur mevalardur. Noranj Lamg'onotta va Bajur va Savodta ko'p bo'lur va xub bo'lur. Lamg'onot noranji kichikrak va kindiklik bo'lur, bisyor latif va nozuk va serob bo'lur. Xuroson navohisining noranjig'a hech nisbati yo'qtur. Nozuklugidindurkim, Lamg'onottin Kobulg'achakim, o'n uch-o'n to'rt yig'och bo'lg'ay, kelturguncha ba'zi noranjlar xarob bo'lur. Astrobod noranjini Sa-

marqandg'akim, ikki yuz yetmish-ikki yuz seksion yig'och bo'lg'ay, eltarlar. Terisining qalinlig'idin va kam oblig'idin oncha xarob bo'lmas. Bajur noranjlarining ulug'lug'i bihicha bo'lor, suvi ko'ptur va o'zga noranjlarining suvidin turshroqtur. Xoja Kalon dedikim, Bajurda ushbu jins noranjning bir daraxtidin olib sanaduk, yetti ming noranj chiqti. Mening xotiring'a doyin kechar edikim, «noranj» lafzi muarrab monanddur, o'shandoq-o'q ekandur. Bajur va Savod eli noranjni tamom norang deydurlar.

Yana limudur, bisyor bo'ladur, ulug'lug'i yumurtqacha bo'lg'ay, yumurtqa andomliqtur. Ildizini masmum qaynatib ichsa, mazarratini daf qilur emish.

Yana bir noranj mushobihi meva turunjdur. Bajur va Savod eli boling deydurlar. Bu jihat-tin turunj po'stining murabbosini murabboyi boling der emishlar. Hindustonda turunjni bajoriy deydurlar. Turunj ikki nav' bo'ladur: biri chuchuk va bemaza va dil oshur. Chuchuk, yeyarga xud yaramas, magar po'sti murobbog'a yaragay. Lamg'onotning turunji ushmundoq dil oshur chuchuktur. Yana Bajur turunjleri va Hinduston turunjleri tursh bo'ladur va xo'b turshdurlar. Sharbati bisyor xushmaza va xushta'm bo'ladur. Turunjning ulug'lig'i xisraviy qovuncha bo'lg'ay. Po'sti qutur-putur va nohamvordur. Uchi inichka va tumshuqluq bo'lor. Turunjning rangi noranj rangidan sarig'roqtur. Daraxti tanaliq daraxt bo'lmas, kichikrak bo'lor. Va buta-buta bo'lor, bargi noranj bargidin ulug'roq bo'lor. *

Yana noranj mushobihi mevalardin sangtoradur, rangi va vaz'i turunjedkdur, g'oyatash, muning terisi siydamdur, nohamvor emas, juzviy turunjdin kichikrakdur. Daraxti uluq buladur. O'ruk daraxticha bo'ladur, bargi noranj bargiga o'xshar, xo'b turshlug'i bordur. Sharbati yaxshi lazzatliq va xushta'm bo'ladur. Bu limudek muqavviyi me'dadur, noranjdek muz'if emas.

Yana noranj, mushobahati mevalardin uluq limudurkim, Hindustonda galgal limu deydurlar. Andomi qoz yumurtqasig'a o'xshar, vale yumurtqadek ikki boshi inichkarak emas. Muning po'sti ham sangtora po'stidedek hamvordur, g'arib serob bo'ladur.

Yana chanbiriydur, noranj mushobiqidir. Andomi noranjdektur, vale rangi sariqdur, noranjiy emas, idi turunj idiga o'xshar, muning ham yaxshi turshlig'i bor.

Yana noranj mushobihi sadofaldur, amurd andomliqtur, rangi bihi rangidektur. Chuchuk bo'ladur, vale chuchuk noranjcha dil oshur emas.

Yana noranj mushobihi amradpaldur.

Yana noranj mushobihi karnadur. Muning ulug'lug'i galgal limucha bo'lg'ay. Bu ham turshdur.

Yana noranj mushobihi amalbeddurkim, bu uch yildan beri emdi nazarg'a keldi. Andoq dedilarkim, ignani muning ichiga solsalar erir, turshlig'idinmu ekin, yo xosiyatinmu ekin. Turshlig'i noranj va limucha bo'lg'ay.

Yana Hindustonda tavrre gullar bordur: bir josundur. Ba'zi hindustoniya qarhal deydur.

Giyoh emas, daraxti soqliqtur. Gulbundin bir nima balandrakdur, rangi anor gulidin hanuz sabzroqtur, ulugʻlugʻi qizil gulcha boʻlgʻay, vale qizil gul gʻuncha boʻlgʻondin soʻng bir-oʻq ochilur. Bu josunkim, ochildi-oʻrtasidin yana ham ushbu bargidin inichka boʻlub, tanadek bir ellik uzab, yana ushbu josun barglari ochiladur. Hosil dusunba¹ gul boʻladur, xoli az gʻaroyib emas. Daraxtining ustida bisyor xushrang va xushnamo koʻrunadur, koʻn turmaydur, bir kunda-oʻq pajmurda boʻladur. Toʻrt oy – pashkol oylarida asru xoʻb va koʻp ochiladur, gʻolibo aksar yil ochilur, vale bu koʻkluk bila idi yoʻqtur.

Yana bir kanirdur, oq ham boʻladur, qizil ham boʻladur. Shaftolu guli vazʻliq panj barga boʻladur. Qizil kanirning shaftolu guliga shabohati bor. Vale kanir guli oʻn toʻrt-oʻn besh gul bir yerda ochiladur, yiroqtin bir uluq guldek koʻrunadur. Muning butasi gulbundin ulugʻroqtur. Qizil kanirning tavregʻina idi bor, xysh oyandadur. Bu ham pashkolda koʻp va xoʻb ochiladur. Bu ham aksar yil topilur.

Yana kiyuradur, bisyor latif idi bor. Mushkning aybi budurkim, xushklugʻi bordur, muni «mushki tar» desa boʻfur. Bisyor latif idi bordur. Agarchi oʻzining gʻarib tavr haʻyati bordur, gulining uzunlugʻi bir yarim qarish-ikki qarish boʻlgʻay. Vazʻi gʻarav bargidek uzun barglardur. Muning tikani bordur. Gʻunchadek tiqilgʻon tashqarigʻi barglari sabzroq tikanlikrak, ichkarigi barglarn yumshoqroq barglar boʻladur.

¹ Q. b. – Dil shabh.

Ichkarigi barglarining oralarida gulning o'rtasidag'idek nimalar bo'ladi, yaxshi idi andin keladi. Yangi chiqib, hanuz tana paydo qilmag'oni erkak qamishning butasiga o'xshar. Muning bargi yassiroqtur, va tikanlik, tanaligi bisyor beandomdur, ildizlari ko'runub turubtur.

Yana yosuman bo'ladi oq, muning jambuliy derlar. Bizning yer yosumanlaridin ulug'roq va idi tundroq bo'ladi.

Yana ul viloyatlarda to'rt fasltur. Hindustonda uch fasl bo'lur, to'rt oyi yozdur, to'rt oyi pashkol¹, to'rt oyi qish. Oylarning ibtidosi hiliy oylarning istiqbolidindur. Har uch yilda bir oyni pashkol oylariga ziyoda qilurlar. Yana uch yilda qish oylariga ziyoda qilurlar. Yana uch yilda yoz oylariga. Bularning kabisasi budur.

Chitar, baysok, jit, asor – tobiston; muvofiqi: hut va hamal va savr va javzo.

Sovan, bodun, kuvor, kotik – pashkol; muvofiqi; saraton va asad va sunbula va mezon.

Aghan, po's, moh, pogun – zimiston; muvofiqi; aqrab va qavs va jady va dalv.

Hind² eli fusulnikim, to'rtar oy tayin qilibturlar, har faslda yana ikkirar oyni issiqning va yog'inning va sovuqning zo'ri tutubturlar. Yoz oylaridin ikki so'nggi oykim, jit bila asordur, issiqning zo'ri bu ikki oydur. Pashkol oylaridin ikki burung'i oykim, sovan va bodundur, yog'inning zo'ri bu ikki oydur. Qish oylaridin ikki o'rtadagi oykim, po's va mohdur, sovuqning zo'ri bu ikki oydur. Bu e'tibor ila bularning fasli olti bo'ladi.

¹ Q. b. – tushgan.

² Bu iboralarni Q. b. dan olindi.

Kunlarga ham ot qo'yubturlar: shanba – (sonichar); yakshanba – (aytvar); dushanba – (sumvar); seshanba – (mongalvar); chahorshanba – (budvor); panjshanba – (brispavtor); odina – (sukrvor¹).

Nechukkim, bizning viloyatlar istilohida kecha-kunduzni yigirma to'rt qismat qilibturlar, har qaysisini bir soat debturlar va har soatni oltmish qismat qilibturlar, har qaysisini bir daqiqa debturlarkim, bir kecha-kunduz ming to'rt yuz daqiqa bo'lg'ay. Daqiqaning miqdori taqriban olti qatla «fotiha»ni «bismillo» bila o'qug'unchadurkim, bir kecha-kunduz sekkiz ming olti yuz qirq navbat «fotiha»ni «bismillo» bila o'qug'uncha bo'lg'ay.

Hind eli kecha-kunduzni oltmish qismat qilibturlar, har qaysini bir giri debturlar, yana kechani to'rt va kunduzni to'rt qismat qilibturlar. Har qaysini bir pahr debturlarkim, forsisi pos bo'lg'ay. Ul viloyatlarda pos va posbon eshitilur edi, bu xususiyat bila ma'lum emas edi.

Ushbu maslahatqa Hindustonning jami' mu'tabar shahrlarida jami'yi muqarrar va muayyandurlarkim, karyoliy derlar. Birinjdin bir yassi nima qo'yubturlar, ulug'lug'i tabaqcha bo'lg'ay, qalinlig'i ikki ellikcha bo'lg'ay. Bu birinjni «karyol» derlar. Bu karyolni bir baland yerda ovzon qilibturlar. Yana bir toslari borjom soat, aning quyisi tushukdur, har girida bir to'lar, karyoliylar navbat bila tosni suvg'ar qo'yub muntazirdurlar. Masalan: kun tug'ar vaqttakim, bu tosni qo'yidilar, tos bir to'lsa,

¹ Bu joylar Q. b. dan olindi.

to'qmoqlari bila karyolg'a bir urarlar, ikki to'lsa, ikki, to pahr tugaguncha. Har pahrkim tugansa, alomati budurkim, to'qmoqpi karyolg'a bot-bot g'alaba-g'alaba qoqarlar. Agar kunduzdin avvalgi pahr bo'lg'on bo'lsa, bot-bot qoqondin so'ng darangi qilib, bir navbat qoqarlar. Ikkinchi pahr bo'lg'on bo'lsa, bot-bot qoqondin so'ng ikki qoqarlar, uchunchida uch, to'rtunchida to'rt. Kunduzning to'rt pahrikim tugandi, kecha pahridin boshlab ushbu dastur bila kechaning to'rt pahrini tugaturlar.

Burun karyoliylar kecha-kunduzda pahr tuganganda-o'q pahr alomatini qoqarlar edi. Kechalar uyqudin uyg'ong'onlarg'a uch giri yo' to'rt girining qoqqon uni kelsa edi, ma'lum bo'lmas edikim, ikkinchi pahrmudur, yo uchunchi pahrmudur. Men buyurdumkim, kecha girilarini va bulutluq kunduz girilarini qoqondin so'ng, pahrning alomatini qoqqaylar, masalan, kechaning avvalgi pahridin uch giri qoqqondin so'ng, darang qilib, pahrning alomatini yana bir ham qoqqaylar, ya'ni ma'lum bo'lg'aykim, bu uch giri avvalgi pahrdir. Kechaning uchunchi pahridin to'rt giri qoqqondin so'ng, darang qilib, pahrning alomatini uch qoqqaylar, ya'ni ma'lum bo'lg'aykim, bu to'rt giri uchunchi pahrdir, xeyli yaxshi bo'ldi. Kecha har vaqt uyg'ong'onda karyol uni kelsa, mushaxxas bo'laturkim, qaysi pahrdir necha giri bo'lubtur.

Yana har girini oltmish bo'lubturlar, har birini pul debturlarkim, bir kecha-kunduz uch ming olti yuz pul bo'lg'ay. Yana har bir pul

miqdorini oltmish qatla ko'zni yumub ochquncha debturlarkim, kecha-kunduz ikki yuz o'n olti ming ko'zni yumub ochquncha bo'lg'ay. Bir pulni tajriba qilildi, taqriyban sekkiz qatla «qulhuallo»ni «bismillo» bila o'qug'uncha bo'ldikim, kecha-kunduz yigirma sekkiz ming sekkiz yuz «qulhuallo»ni «bismillo» bila o'qug'uncha bo'lg'ay.

Yana hind eli vaznlarni tavre ta'yin qilib turlar: sekkiz rati bir mosha, to'rt mosha bir tongkim, o'ttuz ikki rati bo'lg'ay. Besh mosha bir misqolkim, qirq rati bo'lg'ay. O'n ikki mosha bir to'lakim, to'qson olti rati bo'lg'ay. O'n to'rt to'la bir ser. Bu xud muqarrardurkim har yerda qirq ser bir botmon bo'lur, o'n ikki botmon bir moni bo'lur. Yuz monini bir minosa derlar. Javohir va marvoridni tong bila tortarlar.

Yana hind eli adadni ham xo'b tayin qilib-turlar: yuz mingni lak derlar, yuz lakni kurur derlar. Yuz kururni arb derlar. Yuz arbni karb, yuz karbni nil, yuz nilni padam, yuz padamni song. Bu adadlarning tayini Hinduston moli-ning ko'plugining dalilidir.

Hinduston elining ko'pragi kofir bo'ladur. Hind eli kofirni hind-u derlar. Hindular aksar tanosuxiy bo'ladur. Omil va musta'jir va korguzor tamom hindudur.¹

Bizning viloyatlarda, sahroda yurur elning qabila-qabila otlari bo'lur, munda viloyat va kentlarda mutavattin ellarning qabila-qabila otlari bo'ladur.

¹ L. b. – tushgan.

Yana har xirfagarkim bor, ota-otasidin beri ul hirfani qila kelibtur.

Hinduston kam latofat yer voqe bo'lubtur. Elida husn yo'q va husni ixtilot va omizish va omad-u raft yo'q va tab' va idrok va adab yo'q va karam va muruvvat yo'q va hunarlarida va ishlarida siyoq va andom va raja va go'niya yo'q va yaxshi ot yo'q va yaxshi it yo'q va uzum va qovun va yaxshi mevalar yo'q va yax yo'q va sovuq suv yo'q va bozorlarida yaxshi osh va yaxshi non yo'q va hammom yo'q va madrasa yo'q va sham' yo'q va mash'al yo'q, sham'don yo'q va sham' va mash'al o'rnig'a jami' kasir chirkini bo'ladur, «devtiy» deydurlar; chap iliklariga kichikrak sepoya tutubturlarkim, bu sepoyaning bir poyasining uchida sham'donning boshidek bir temurni sepoya yig'ochig'a berkitibturlar. Bir yo'g'on, fatilanikim, bosh barmoqcha bo'lg'ay, sepoyaning temurluk yig'ochig'a bog'labturlar. O'ng iliklarida bir kadudurkim, to'shukini torroq qo'yubturlarkim, yog'i andin inichka chuburub oqadur. Harqachon fatilag'a yog' ehtiyoj bo'lsa, bu kadudin yog' quyadurlar. Ulug'larning bu devtiylari yuz-ikki yuz bo'ladur,¹ sham' va mash'al o'rnig'a muni isti'mol qiladurlar. Podshohlari va beklariga kechalar sham'g'a ehtiyoj bo'lg'uluq ish bo'lsa, ushbu chirkin devtiylar bu chirog'ni kelturub, yaqin olib turadurlar.

Daryolaridin va qora suvlaridin o'zgakim, jarlar va chuqurlarda oqadur, bog' va imoratida oqar suvlar yo'q. Va imoratlarida safo va havo va siyoq va andom yo'q. Raiyat rezapoy eli

¹ L. b. – tushgan.

tamom yalang'och yuruydurlar. Lunkutadek bir nima bog'laydurlar, kindikdin ikki qarish quyi, qisiq latta solilib turubtur, bu soling'on qisiq lattaning ustida yana bir parcha latta bor, lunkutaning bog'iningkim bog'larlar, ul parcha lattani ikki butning arosidin olib, keyin lunkutaning bog'idin o'tkarib berkitadurlar. Xotunlari xud bir uzun lung bog'labturlar, yarmini bellarig'a, yarmini boshlarig'a soladurlar.

Latofatekim, Hindustonda bor – uluq viloyatdur. Va oltun va yarmog'i qalin bo'ladur va pashkol havolari bisyor xo'b bo'ladur. Goh kuni bo'ladurkim, o'n-o'n besh-yigirma qatla yog'adur. Yog'inlarida bir zamonda sellar keladur, hech suv yo'q yerlarda daryolar oqadur. Yog'ar mahallida va yog'ib turg'on mahallarida g'arib yaxshi havolar bo'ladur, andoqkim, havoning e'tidoli va latofati andin o'tmas. Aybi budurkim, havo ko'p purnam bo'ladur.

Ul viloyatlarning yoylarig'a pashkol o'lsa, xud o'tib bo'lmaydur, tez buzuladur, ne yolg'uz yoy, jiba va kitob, raxt va mato'g'a – borig'a ta'sir qiladur. Imorat ham ko'p turmaydur. Pashqoldin boshqa ham qish va yoz yaxshi havolardur, vale shimol yeli hamisha qo'padur. Gard va xok xeyli bo'ladur. Yozlar savr va javzoda pashkolga yovuq bu yel yilda to'rt-besh navbat bisyor tund qo'padur. Andoqkim, gard va xok ul martabada bo'ladurkim, bir-birni ko'rub bo'lmaydur, muni «andi» deyduurlar. Javzo issiq bo'ladur, vale oncha bei'tidol issiq emastur. Balx va Qandahorning issig'lcha yo'qtur va imtidodi xud ul yerlarning issig'ining yarmisicha bo'lg'ay.

Yana bir latofati budurkim, har sinfdin va har hirfagarddin behad va benihoyat ko'ptur. Har ish uchun va har nima uchun jami muqarrar va muayyandurkim, ota-otalaridindin beri ul ish va ul nimani qila kelgandurlar. Nechukkim, «Zafarnoma»da Temurbekning «masjidi sangin» imoratini qilurda Mullo Sharaf mundoq mubolag'a bila bitibdurkim, Ozarbayjon va Fors va Hinduston va yana o'zga mamolik sangtaroshlaridindin har kunda ikki yuz kishi masjidda ish qilurlar edi. Bir Ograda ushbu Ograning sangtaroshlaridindin mening imoratlarimda har kunda olti yuz sekson kishi ish qilurlar edi. Yana Ograda va Sekrida va Biyonada va Dulpurda va Guvalyorda va Ko'lda ming to'rt yuz to'qson bir sangtarosh xar kunda mening imoratimda ish qilurlar edi. Har hirfagar va har korigarddin ushbu qiyos bila Hindustonda behad va benihoyatdur.

Bu viloyatlarkim, Behradin Bahorg'acha holo mening tasarrufimdadur, ellik ikki kururdur, nechukkim, bu mufassaliddin mujmali ma'lum bo'lg'usidir. Bu jumladin sekkiz-to'qqiz kurur roy va rojalarning parganalaridurkim, itoat qilib, qadimdin bu parganaotni vajhi istiqomat tariqida topibturlar.

Taxmini jam'i Hinduston az onchi bil-fe'l dar tahti tasxiri ra'yati nusrat oyat daromada.

Sarkori on ro'ioibi Satluj va Behra va Lohur va Siyolkut va Dibolpur va g'ayriho: se kurur-u siy-u se lak-u ponzdah hazor-u nuhsad-u hashtod-u nuh tanga.

Sarkori Sahrind: yak kurur-u bist-u nuh lak-u siy-u yak hazor-u nuh sad-u hashtod-u panj tanga.

Sarkori Hiori Firuza: yak kurur-u siy lak-u haftod-u panj hazor-u yaqsad-u haftod-u chahor tanga.

Sarkori dorul-maliki Dehli va Miyoni duob: se kurur-u shast-u nuh lak-u panjoh hazor-u duvist-u panjoh-u chahor tanga.

Sarkori Mevotki dar zamoni Iskandar doxil nabuda: yak kurur-u shast-u nuh lak-u hash-tod-u yak hazor tanga.

Sarkori Biyona: yak kurur-u chihl-u chahor lak-u chahordah hazor-u nuh sad-u siy tanga.

Sarkori Ogra: bist-u nuh lak-u haftod-u shash hazor-u nuh sad-u nuzdah tanga.

Sarkori Miyoni viloyat: du kurur-u navad-u yak lak-u chahor hazor tanga.

Sarkori Guvalyor: du kurur-u bist-u se lak-u panjoh-u haft hazor-u chahor sad-u panjoh tanga.

Sarkori Kolpiy va Sihanda va g'ayrihi: chahor kurur-u bist-u hasht lak-u panjoh-u panj xazor-u nux sad-u panjoh tanga.

Sarkori Kanuj: yak kurur-u siy-u shash lak-u shast-u se hazor-u sesad-u panjoh-u hasht tanga.

Sarkori Sanbal: yak kurur-u siy-u hasht lak-u chihl-u chahor hazor tanga.

Sarkori Laknur¹ va Bakasar yak kurur-u siy-u nuh lak-u hashtod-u du hazor-u chahor sad-u siy-u se tanga.

¹ Q. b. 5 - Laknav.

Sarkori Xayrobod: duvozdah lak-u shast-u panj hazor tanga.

Sarkori Ud va Bahroj: yak kurur-u hafdah lak-u yak hazor-u sesad-u shast-u nuh tanga.

Sarkori Junpur: chahor kurur-u hashtod-u hasht hazor-u sesad-u siy-u se tanga.

Sarkori Karra va Monikpur: yak kurur-u shast-u se lak-u bist-u haft hazor-u duvist hashtod-u du tanga.

Sarkori Bahor: chahor kurur-u panj lak-u shast hazor tanga.

Sarkori Sarvor: yak kurur-u panjoh-u panj lak-u hafdah hazor-u ponsad-u shash-u nim tanga.

Sarkori Soran: yak kurur-u dah lak-u hajdah hazor-u sesad-u haftod-u se tanga.

Sarkori Chaporan: yak kurur-u navad lak-u hashtod-u shash hozar-u shast tanga.

Sarkori Kandla: chihl-u se lak-u siy hazor-u sesad tanga.

Sarkori Tirhut az haddi miyonayi roja Rup Narin: du lak-u panjoh-u panj hazor tangayi nuqra, bist-u haft lak-u panjoh hazor siyoh tanga.

Sarkori Rantanbur Bo'li dar Chots-u Malona: bist lak.

Sarkori Nogur.

Sarkori roja Bikramojit az Rantanbur.

Sarkori Kalanjariy.

Sarkori roja Sing-dev.

Sarkori roja Bikam-dev.

Sarkori roja Bikam chand.

Hinduston viloyatining yerining va elining xususiyoti va kayfiyoti ulcha ma'lum va mushax-

xas boʻlub edi, mazkur va mastur boʻldi. Munding soʻng yana bitilgudek nima nazargʻa kelsa, tahrir qilgʻumdur; eshitulgudek nima eshitilsa, taqrir qilgʻumdur.

Dushanba kuni rajab oyining yigirma toʻqqizida xizonani koʻrmak va ulashmak bunyod boʻldi: Humoyungʻa yetmish lak xizonadin berildi. Yana bir bitilmagan, tahqiq qilmagan xizona uyini oʻshandoq-oʻq Humoyungʻa inʻom qildim. Yana baʻzi beklarga oʻn lak, baʼzilarigʻa sekkiz lak, yetti lak, olti lak berildi. Jamiʼ cherikta boʻlgʻon afgʻon va xazora va arab va baluj va har jamoatka qadri hollarigʻa yarasha xizonadin naqd inʻomlar boʻldi. Har savdogar va har tolibi ilm va balki har kishikim. bu cherikda hamroh edilar, barcha inʻom va baxshishdin xazzi vofir va nasibi komil eltilar.

Cherikta boʻlmagʻonlarga ham bu xizonadin qalin inʻom va baxshishlar bordi. Misli, Komrongʻa oʻn yetti lak, Muhammad Zamon mirzogʻa oʻn bosh lak. Askariygʻa va Hindolga va balki jamiʼ uruq qayosh, oʻgʻlon-ushoqqa qalin qizildin, oqtin, raxttin, javohirdin, bardadin savgʻotlar bordi.

Ul yuzdagi beklarga va sipohilarga qalin inʻomlar bordi. Samarqand va Xuroson va Koshgʻar va Iroqqa uruq qayosh uchun savgʻotlar yiborildi. Samarqand va Xurosondagʻi mashoyixqa nuzur bordi. Makka va Madinagʻa ham nazr bordi. Kobul viloyati bila Varsak sadasining jondor boshigʻa erdin va xotundin banda va ozoddin, boligʻ va noboligʻdin biror shohruhiy¹ inʻom boʻldi.

¹ Q. b. – boburiy.

Biz avval Ograga kelganda, bizning el bila bu elning orasida g'arib mug'oyarat va munofarat edi. Sipohisi va raiyati bizning eldin qir-qir qocharlar edi. Bir Dehli va Ogradin o'zga jami' qo'rg'onliq yerlar qo'rg'onlarini berkitib, itoat va inqiyod qilmadilar. Sanbalda Qosim Sanbaliy edi, Biyonada Nizomxon edi. Mevotta xud Hasanxon Mevotiy edi. Bu shar-u sho'rni boshlag'on tamom ushul mulhid mardak edi. Dulpurda Muhammad Zaytun edi, Guvalyorda Totorxon Sorangxoniy edi. Robiriyda Husaynhon Nuhoniy¹ edi. Atovada Qutbxon edi, Kolpiyda Olamxon, Qanuj va Gangning nari yuzi xud tamom muxolif afg'onlarda edi. Misli, Nasirxon Nuhoniy va Ma'ruf Farmuliy va yana qalin umaro edi. Ibrohim, o'laridin ikki-uch yil burundin beri yog'iqib edilar.² Men Ibrohimni bosqon fursat Qanuj va andin narigi jami' viloyatlarga qo-biz bo'lub, Qanujdin bir-ikki ko'ch beri kelib, o'lturub edilar. Daryoxonning o'g'li Bahorxonni³ podshoh qilib, Sulton Muhammad laqab qo'yub edilar. Mahovinda Marg'ubqo'l edi. Ushmuncha yovuq turub, necha mahalga'acha kelmadi.

Biz Ograga kelganda issiq vaqtlari edi, xaloyiq tavahhumdin tamom qochib edilar. O'zga va otqa oshliq va xas topilmas edi. Kentlar mug'oyarat va munofarat jihatidin yog'iylikka va o'g'urлуqqa va rahzanliqqa yuz qo'yub edilar. Yo'llar ravon bo'lmaydur edi. Bizga hanuz fursat ul bo'lmaydur edikim, xizonani ulashib,

¹ Q. b. – Luhoniy.

² L. b. – tushgan.

³ Q. b. – Bahodirxon.

har pargana va har yerga mazbut kishilar tayin qilg'aybiz. Yana ul yil keyli issiq edi. Keyli el bodi samumning ta'siridin har zamonda yiqilib-yiqilib, o'la kirishtilar. Bu jihatlardin aksar beklar va o'bdon-o'bdon yigitlar ko'ngul solib edilar. Hindustonda turmoqqa rozi emas edilar, balki ketarga yuz qo'yub edilar.

Uluq yoshlik tajribaliq beklar mundoq so'zlarni aytsa aybi yo'qtur. Mundoq so'zlarni hamkim ayttilar, bu kishida oncha aql va hush bordurkim, alar taqrir qilg'ondin so'ng saloh va fasodig'a yetgay va yaxshi-yamonni farq etgay. Borchani bu kishi o'ziga ko'rub, bir ishinikim jazm qildi, o'zga aytilg'on so'zlarni muqarrar oida qilmoqning ne mazasi bor. Kichik-kirimdin xud mundoq so'zlar va mundoq bemaza ra'ylarning ne taqriybi bor. Bu g'aribdurkim, kichik-kirimdin bu navbat Kobuldin otladurg'onda, bir nechani yangi bek qililib edi. Mening chashmdoshtim bulardin mundoq edikim, men o'tqa, suvg'a kirsam-chiqsam, beta-hoshiy bular bila kirgaylar va bila chiqqaylar. Men har sorig'a bo'lsam, alar mening sori bo'lg'aylar. Yo'qkim: mening xilofi maqsudum so'z aytqaylar, har ish va har muhimningkim, borining kengash va ittifoqi bila o'zumizga jazm qilduk, kengashtin qo'shmasdin burunroq ul so'z va muhimdin qaytqaylar.

Bular agarchi yamon bordilar, Ahmadiy parvonachi va Vali Xozin bulardin yamonroq bordi. Kobuldin chiqib, Ibrohimni bosib, Ograni olguncha, Xoja Kalon yaxshilar bordi, mardona so'zlar aytti va sohib himmaton ra'ylar ko'rsat-

ti; vale Ograni olg'ondin necha kun so'ngra tamom ra'ylari o'zga bo'ldi. Bir bormoqqa bajid Xoja Kalon edi.

Elning bu muzabzablig'ini bilib, tamom beklarni tilab kengashtuk. Men dedimkim: «Saltanat va jahongirlik' beasbob va olot dast bermas. Podshoqliq va amirlik benavkar va viloyat mumkin ermas. Necha yil sa'ylar qilib, mashaqqatlar ko'rub, uzoq yerlar qat'i etib, cheriklar yurub, o'zumuzni va cherikni harb va qitol muxotaralarig'a solg'aybiz. Tengri inoyati bila bu nav' qalin yog'iyarlarni bosib, mundoq keng mamlakatlarni olg'aybiz. Holo ne zo'r kelibtur va ne zarur qilibturkim, mundoq jonlar tortib olg'on viloyatlarni bejihat solg'aybiz. Yana borib, Kobulg'a tangdastlig' ibtilosig'a qolg'aybiz. Har kim davlatxohdur, mundin so'ng mundoq so'zlarni aytmasun, har kim toqat keltura olmay ketarg'a yuz qo'ysa, borg'onidid qaytmasun».

Mundoq ma'qul va muvajjah so'zlarni xotirni-shon qilib, xohi va noxohi elni bu dag'dag'alardin o'tkarduk.

Chun Xoja Kalonning turar ko'ngli yo'q edi, muqarrar andoq bo'ldikim, savg'ochlarni Xoja Kalon, qalin navkarlik kishidur, olib borg'ay. Kobul va G'aznida ham kishi ozdur, alarni zabt va saranjom qilg'ay. G'azni va Gardiz va Sulton Mas'udiy hazorani Xoja Kalong'a inoyat qildim. Hindustonda yana uch-to'rt laklik Kuhrom parganasini ham berildi. Xoja Mirmiron ham muqarrar bo'ldikim, Kobulg'a borg'ay. Savg'otilar Mirning uhdasig'a bo'ldi. Qobiz Mullo Hasan sarrof va To'ka hindu ta'yin bo'ldi.

Xoja Kalon chun hinddin mutanaffir edi, borurida uyining imoratlarining tomida bu baytni bitibturkim:

*Agar ba xayr-u salomat guzar zi Sind kunam,
Siyoh ro'y shavam, gar havoyi Hind kunam.¹*

Biz Hindistonda turub, mundoq zarofatomiz bayt aytmoq va bitmoq besurattur. Ketmakdin bir kudurat bo'lsa, bu nav' zarofattin ikki kudurattur. Men dag'i badihada bir ruboiy aytib, bitib yibordim:

*Yuz shukur de, Boburki, karim-u g'affor
Bordi sanga Sindu Hindu mulki bisyor.
Issiqliq'ig'a gar sanga yo'qtur toqat,
Sovuq yuzini ko'ray desang G'azni bor.*

Bu fursatta Mullo Opoqnikim, burunlar martabasi asru furud edi, ikki-uch yil edikim, og'a-inisini yig'ishturub, filjumla jam'iyat qilib edi. O'ruk zayni va Sind yoqasidag'i ba'zi afg'onlarni berilib edi, Ko'lga yiborildi. Ul navohida bo'lur tarkashband va sipohiga istimolat farmonlari yiborildi.

Shayx Go'ran e'tiqod va ixlos bila kelib, mu-lozamat qildi. Miyoni duob tarkashbandlaridin ham ikki-uch ming sipohini kelturub, mu-lozim qildi. Alixon Farmuliyning o'g'lonlari va urug'i Dehli bila Ograning orasida, Yunus Ali

¹ «Agar sog'-salomat Sinddan o'tib ketsam, Hindustonni yana havas qilsam, yuzim qora bo'lsin».

oziqib, Humoyundin ayrilg'on mahalda uchrar. Oz og'loq urushub bosib, o'g'lonlarini band qilib, kelturub edi. Bu taqriyb bila Davlatqadam turkning o'g'li Mirza Mo'g'ulg'a Alixonning banddagi o'g'lonlaridin birini qo'shub, Alixong'akim, bu buzuqluqta borib edi, istimolat farmonlari bila yiborildi, olib keldi. Alixong'a tarbiyat qilib, yigirma besh laklik ayni parganalaridin berildi.

Sulton Ibrohim, Mustafo Farmuliy va Firuzxon Sarangxoniy boshliq necha umaroni buzub, tog'l yog'iy bog'iy umro ustiga tayin qilib edi, Mustafo bu bog'iy umaro bila yaxshilab harb va zarb qildi. Necha qatla yaxshi bosti, Ibrohimning shikastidin burunroq Mustafo o'ldi. Shayx Boyazid inisi edi. Chun Ibrohim muhimmi ustida edi, filhol og'asining el-kunini ul boshi-ko'z qildi.

Firuzxon va Shayx Boyazid va Mahmudxon Nuhoniy va Qozi Jiyo qulluqqa keldilar. Bularni ham muddaolaridin ortuqroq rioyat va shafqatlar qilib, Firuzxong'a Jo'npurdin bir kurur-u qirq olti lak-u besh ming tanga: Shayx Boyazidqa Uddin bir kurur-u to'qson lak-u o'ttuz besh ming tanga va Qozi Jiyog'a Jo'npurdin yigirma lak¹ inoyat bo'ldi.

Shavval iydidin necha kun o'tub edikim, Sulton Ibrohimning haramsaroyining o'rtasidagi tosh sutunluq ayvon gunbazta uluk suhbat tutuldi. Humoyung'a chorqab va kamar shamshir va oltun egarlik tupchoq, Chin Temur Sultong'a va Mahdi Xojag'a va Muhammad Sulton Mirzog'a ham chorqab va kamar shamshir va

¹ London bosmasida bu yerda kishilarga berilgan tangalar sanog'i forsicha berilgan (Q. b. dan olindi).

kamar xanjarlar in'om bo'ldi. Yana beklarga va yigitlarga faroxo'r hollari kamar shamshir va kamar xanjar va xil'atlar in'om bo'ldi. Nechukim, mujmali munda masturdur.

Tupchoq ot egari bila; kamar shamshiri murassa' ikki qabza; xanjari murassa' yigirma besh qabza; katora murassa' o'n olti qabza; jamdarayi murassa' ikki qabza; pichoqband va bori oltun qabza; chahorqab to'rt to'p; saqarlot chakman yigirma sekkiz to'p.¹

Suhbat kuni ajab g'alaba yomg'ur yog'di. O'n uch martaba yomg'ur yog'di. Ba'zilarga yer tashqari tegib edi, g'arq o'l bo'ldilar.

Muhammad ko'kaltoshqa Somona viloyatini inoyat qilib, Sanbalg'a ilg'or tayin qilildi. Hitori Firuzani Humoyung'a juldu berilib edi. Sanbalni dag'i Humoyung'a inoyat qildim. Hindubekni Humoyun qoshida qo'yyulub edi, bu munosabattin Muhammadiy o'rnig'a Sanbalg'a ilg'or Hindubekni va Katta bekni va Malik Qosim Bobo Qashqani og'a-inisi bila, Mullo Opoqni, Shayx G'o'ranni Miyoni duob orasidag'i tarkashbandlari bila ilg'or yiborildi.

Uch-to'rt navbat Qosim Sanbaliydin kishi kelib edikim, Biban haromxo'r Sanbalni qabab, ojiz qilibtur, ilg'or kelsun deb, Biban bu shaq va hay'ati bila bizdinkim qochti, tog'ni domanalab borib qochqan-ko'raragan afg'on va hindustoniyni yig'ib, bu fataratta yerni xoli topib, kelib Sanbalni qababtur.

¹ London bosmasida (bu xat boshi orasida) berilgan in'omlar ham forsicha yozilgan (Q. b. dan olindi).

Hindubek va Kattabek va tayin bo'lg'on ilg'or, Ohor guzarig'a yetib, suv kechmakka mashg'ul bo'lub, Malik Qosim Bobo Qashqani og'a-inisi bila ilgarrak ayururlar. Malik Qosim suv o'tgan bila yuz-yuz ellik kishi o'z og'a-inisi bila il-dam-o'q yurub, namozi peshin Sanbalg'a yetar. Biban ham yasab, o'rdusidin chiqar, Malik Qosim alar tez-o'q yurub, qo'rg'onni orqag'a olib, ilik qo'sharlar. Biban to'xtay olmay qochar. Bir pora kishisining boshini kesib, bir necha fil va qalin ot va o'lja olur.

Tonglasig'a bu ilg'or beklari ham yetar. Qosim Sanbaliy kelib ko'rar, vale qo'rg'onni bularg'a topshurmoq xush yoqmas, xayal qilur.

Bir kun Shayx Go'ran, Hindubek alar bila so'zlashib, bir bahona bila Qosim Sanbaliyni bu beklar qoshig'a kelturub, bizning kishini Sanbal qo'rg'onig'a kiyurur. Qosim Sanbaliyning ko'ch va mutaaliqlarini solim va salomat chiqarib yibordilar.

Biyonag'a Kalandar piyodani yiborib, Nizomxong'a va'da va vaid farmonlari yiborildi. Bug'ina qit'ani badihada aytib, bitib yiborildi:

*Bo turk siteza makun, ey miri Biyona,
Choloki-yu mardonagiysi turk ayonast,
Gar zud nayoi-yu nasihat nakuni go'sh,
Onjo ki ayonast chi hojat ba bayonast.¹*

Biyona qo'rg'oni Hindustonning mashhur qal'alaridindur. Behush mardak qal'asining

¹ E Biyona miri, turk bilan o'ynashma. Turkning epchilik va mardligi hammaga ayondir. Agar tez kelib, nasihatni quloqqa olmasang. Ayon bo'lgan gapni bayon qilishning nima hojati bor.

berkligiga ishonib, havsalasidin ortuqroq nimalar istid'o qilib yiboribtur. Aning kelgan kishisiga yaxshi javob bermay, qal'agirlik asbobig'a ishtig'ol ko'rsatildi.

Boboqulibekni Muhammad Zaytung'a va'da va vaid farmonlari bila yiborildi. Bu ham uzr aytib, xayal qilibtur.

Rono Sango kofir agarchi biz Kobulda ekan-da elchisi kelib, izhori davlatxohliq qilib, mundoq qaror qilib edikim, podshoh ul tarafdin Dehli navohisig'a kelsalar, men bu saridin Ogra ustig'a yuruymen.

Men Ibrohimni bostim va Dehli va Ograni oldim: bu choqqacha bu kofirdin hech xarakate zohir bo'lmadi. Necha mahaldin so'ng kelib, Kandor degan qo'rg'onnikim, Makanning Hasan otluq o'g'li anda edi, qabadi. Hasan Makandin necha qatla kishilar keldi, Makan hanuz kelib ko'rmaydur edi. Bu tegradagi qo'rg'onlar, misli Atova va Do'lpur, Guvalyor, Biyona hanuz kirmaydurlar edi. Sharq sarig'i afg'onlar inod va sarkashlik maqomida edilar. Qanujdin ikki-uch ko'ch Ogra sarig'a cheriklab o'turub edilar. Yovuqdag'i girdu go'shadin hanuz xotir tamom jam' bo'lmaydur edi. Bu jihattin aning ko'magiga kishi ayira olmaduk.

Ikki-uch oydin so'ng Hasan bechora bo'lub, ahd qilib, Kandor qo'rg'onini berdi. Robiriydag'i Husaynixon tavahhum qilib, Robiriyni tashlab chiqti. Robiriyni Muhammad Ali jang-jangg'a berildi. Qutbxonkim, Atovada edi, necha navbat va'da va vaid bila farmonlar yiborildi, ne kelib bizni ko'rdi, ne Atovadin solib chiqti.

Atovani Mahdi Xojag'a inoyat qilib, Muhammad Sulton mirzoni va Sulton Muhammad do'ldoy, Muhammad Ali jang-jang, Abdulaziz miroxur boshliq beklardin va ichkilardin bir pora qalin kishini ko'mak ko'shub, Atova ustiga yiborildi. Qanujni Sulton Muhammad do'ldoyg'a berildi. Firuzxon va Mahmudxon va Shayx Boyazid va Qozi Jiyo boshliqlarg'akim, asru uluq rioyatlar qilib, Po'rub sari parganalar berilib edi, bular ham Atovag'a ta'yin bo'ldilar.

Muhammad Zaytun Do'lpurda o'lturub, hayal qilib, kelmaydur edi. Do'lpurni Sulton Junayd barlosqa inoyat qilib, Odil Sulton, Muhammadiy ko'kaltosh, Shoh Mansur barlos, Qutluqqadam, Abdullo Vali, Jonbek, Pirquli, Shoh Husayn Borakiy boshliqlarni tayin qildukim, Do'lpurni zo'rlab olib, Sulton Junaydka topshurub, Biyona ustiga borg'aylar.

Bu cheriklarni tayin qilg'ondin so'ng, turk umarosini va hind umarosini tilab mashvarat qilib, bu so'zni orag'a soldukim, Po'rub yog'iy bog'i umarokim, Nasirxon Nuhoniy va Ma'ruf Farmuliy boshliq bo'lg'ay, qirq-ellik ming kishi Gangdin o'tub, Qanujqa mutasarrif bo'lub, ikki-uch ko'ch berroq kelib o'lturubtur. Rono Sango kofir Kandorni olib, fitna va fasod maqomidatur. Pashkol ham oxir bo'la yovushti. Yo bog'iy ustiga yo kofir ustiga mutavajjih bo'lmoq vojib va lozim ko'runadur. Bu gird va navohidag'i qo'rg'onlarning ishi sahldur. Bu uluq dushmanlar daf' bo'lg'ondin so'ng bular qayon borg'aylar.

Rono Sangoni muncha tasavvur qililmas edi, borcha muttafiqul-kalima arz qildilarkim, Rono

Sango yiroqroqtur, ma'lum emaskim yovuq ham kela olg'ay. Bu yog'ylarkim muncha yovuq kelibturlar, bularning dafi aham va avlodur.

Bu yog'ylarning ustiga otlanmoqchi edukim, Humoyun arzg'a yetkurdikim, podshoh, otlanmoq ne hojat, bu qulluqni men qilay.

Borchag'a bu xush kelib, turk hind umarosi bu ra'yni pisand tuttilar. Humoyunni Po'rubqa tayin qilib, Do'lpurg'a tayin qilg'on cheriklarga Kobuliy Ahmad Qosimni chopturuldikim, ul cheriklar kelib, Humoyung'a Chandvorda qo'shulsun. Mahdi Xoja, Muhammad Sulton mirzo boshliq Atova ustig'a ta'yin bo'lg'on cheriklarga ham farmon bo'ldikim, Humoyung'a qo'shulg'aylar.

Panjshanba kuni zulqa'da oyining o'n uchida Humoyun safar qilib, Jilisir degan kentginagakim, Ogradin uch kuruh bo'lg'ay, tush-ti. Bir kun anda tavaqquf qilib, andin ko'chub, ko'ch-barko'ch mutavvajjih bo'ldi.

Panjshanba kuni ushbu oyning yigirmasida Xoja Kalong'a Kobulg'a borurg'a ruxsat bo'ldi.

Doim xotirg'a yetar edikim, Hindustonning bir ulug' aybi budurkim, oqar suvi yo'qtur. Har yerda o'lturushluq bo'lsa, charxlar yasab, oqar suvlar qilib, tarhliq va siyoq yerlar yasasa bo'lar. Ograga kelganidan bir necha kundan so'ng ushbu maslahatqa Jo'n suvidin o'tub, bog' yerlarini mulohaza qilduk. Andoq besafo va xarob yerlar edikim, yuz karohat va noxushluq bila andin ubur ettuk. Bu yerning makruhlug'i va noxushlug'idin chorbog' xayoli xotirdin chiqti. Mundin o'zga mundoq yovuq yer Ograda chun

yo'q edi, mecha kundin so'ng zarur bo'lub, bu yerga-o'q ilik qo'yuldi. Ul ulug' chohqim, hammom suvn andindur, bunyod bo'ldi. Yana bu parcha yerkim, ambuli daraxtlari va musamman havz andadur, bulardin so'ng ulug' havz va sahne bo'ldi. Andin so'ng tosh imorat olidag'i havz va tolur bo'ldi. Andin so'ng «Xilvatxonana» bog'chasi va uylari bo'ldi. Andin so'ng hammom bo'ldi. Mundoq besafo va besiyuq Hindta tavr tarrohliqlar va siyoqliq bog'chalar paydo bo'ldi. Har go'shada maqbul chamanlar, har chamanda muvajjah gul va nastaranlar muratab va mukammal bo'ldi.

Hindustonning yana uch ishidin mutazarrir erduk: bir issig'idin, yana bir gardidin, yana bir tund yelidin. Hammom har uchalasining dofiyi ermish. Gard va yel xud hammomda ne qilalar. Issiq havolarda andoq sovuq bo'laturkim, yovuqdurkim, kishi sovuqqa to'ngg'ay. Hammomning bir hujrasinikim, qullatayin havz andadur, tamom toshdin tugatiburlar. Izorasi oq toshdin, o'zga tamom farsh va saqfi qizil toshdinkim, Biyona toshidur.

Yana Xalifa va Shayx Zayn va Yunus Ali va har kimgakim dare yoqasida yer tegib edi, siyoqliq va yaxshi tarhliq bog'chalar va havzlar yasadilar. Lohur va Diboldpur dasturi bila charx rost qilib, suvlar joriy qildilar.

Hind eli bu tarh va bu andom bila yerlar ko'rmagan jihatidin. Jo'nning imoratlari qilg'on tarafi yerlarga Kobul ot qo'yuburlar. Yana qo'rg'on ichida Ibrohimning imorati bila fasilning orasida bir xoli yer edi, anda ham bir uluq

voyim buyurdum dahidardah. Hinduston istilohi bila zinaliq uluq chohni «voyin» derlar. Bu voyinni bu chorbog'din burun bunyod qililib edi. Ayni pashkolda qazmoqqa mashg'ul edilar, necha navbat yiqildi, muzdurlarni bosti. Rono Sangoning g'azvidin so'ng tamom bo'ldi. Nechukkim, tarix toshida bitibturlar, itmomi g'azvdin so'ngra erkonga ishorat etibturlar. Tavr voyine voqe bo'lubtur. Uch tabaqa imorat bu voyinning ichida bo'lubtur. Boridin u quyig'i tabaqasi uch ayvondur, yo'li chohqa tushadur, zinadin o'qtur. Har uch ayvong'a bir yo'l-o'q borur. Har ayvon bir-biridin uchar zina balandtur. Boridin quyig'i ayvondin suv tortilg'on chog'da suv bir zina quyi tushar. Boridin yuqorig'i ayvong'a pashkol vaqti suv ulg'ayg'onda gohi chiqar. O'rtanchi tabaqasida bir qaznoqliq ayvondur. Bu ayvonning qarinasida bir gunbazdurkim, suv charxini uyurur, o'y bu gunbazta uyurulur. Yuqorig'i tabaqasi bir ayvondur, tashqari boqishliq choh ustidagi sahndin besh-olti zina quyiroq, ikki tarafdin zinadin bu ayvong'a yo'l borur. Rost tarafig'a borur yo'lning o'trusida tarix toshidur. Bu chohning yonida yana bir choh qo'porilibtur. Ul chohning tubi burung'i chohning o'rtasidin bir nima yuqqorroq bo'lg'ay. Mazkur bo'lg'on gunbazta charxning o'yi uyrulub, ul chohdin suv bu chohqa kelur. Bu chohqa yana bir charx yasalibturkim, ul charx bila suv fasilning ustiga chiqar. Fasil usti bilan yuqqorig'i bog'chag'a suv borur. Chohning zinasi chiqar yerda ham bir toshdin

imorat bo'libtur. Bu¹ chohning muhavvasi-din tashqari bir tosh masjid qilibtur, vale yaxshi qilmaydurlar. Hinduston tariyqi bila qilibturlar.

Humoyun otlang'on fursatta, Nasirxon Nuhoniy va Ma'ruf Farmuliy boshlig' yog'iy umaro Jojmovda jamiyat qilib o'lturub edilar. Humoyun o'n-o'n besh kuruh yo'ldin Mo'min atkani xabarg'a yiborur, molg'a chopqung'a bo'fur, yaxshig'ina ham xabar keltura olmas. Mo'min atkaning borg'onidindin xabardor bo'fur, bu yog'iylar turush bermay qochib ketarlar, Mo'min atkadin so'ngra Qisimtoy bila Bobocho'hra va Bo'chkani xabar uchun yiborurlar. Bu borg'onlarning yog'iyning buzulub, qochqanning xabarini kelturur. Humoyun yurub, Jojmovni o'tub, Dalmov navohisida kelganda Fathxon Sarvoniy kelib ko'rar. Fathxon Sarvonnini Mahdi Xoja va Muhammad Sulton mirzog'a qo'shub, bizga yibordi.

Ushbu yil Ubayxon Buxorodin cherik tortib, Marv ustiga keldi. Marvning arkida o'n-o'n besh raiyat ekandur, olib qirib Marvning bandini qirq-ellik kunda bog'lab, Saraxs ustiga bordi. Saraxsda o'ttuz-qirq qizilbosh ekandur, darvozani tortib, qo'rg'onni bermaslar. Raiyatlar olaqishib darvozani ocharlar. O'zbeklar kirib, bu qizilboshlarni ham qirarlar. Saraxsni olib, Tus va Mashhad ustiga borurlar. Mashhad eli bechora bo'lub, kirarlar. Tusni sekkiz oy qabab, sulh bila olib, ahdg'a turmay, tamom er atog'lig'ini qirib, xotunlarini asir qilurlar.

¹ L. b. - tushgan.

Ham ushbu yil Sulton Muzaffar Gujarotiy-ning Bahodurxon otliq o'g'likim, holo otasining o'rnig'a Gujarotga podshoh bo'lubtur, otasidin yamonlab, Sulton Ibrohim qoshig'a keldi. Bu boizzatona ko'rdi. Ponipat navohisida ekan-da manga arzadoshlari keldi. Men ham inoyat omiz mushfiqona farmonlar yiborib, tiladim. Kelur xayolda edi. Yana ra'yi munqalib bo'lub, Ibrohim cherikidin ayrilib, Gujarot sari mutavvajjih bo'ldi.

Ushbu fursatlarda otasi Sulton Muzaffar favt bo'lub, og'asi Iskandarshohkim, Sulton Muzaffarning uluq o'g'li bo'lg'ay, otasi o'rnig'a Gujarotta podshoh bo'ldi. Maoshining yamonlig'idin Imodulmulk otliq quli jami' bila ham-jihat bo'lub, Iskandarshohni bo'g'ub o'turub, Bahodurxonnikim, hanuz yo'lda edi, tilab kel-turub, otasining o'rnig'a o'lturg'uzdi. Bahodurshohqa mulaqab bo'ldi. Bu ham xo'b bordi. Imodulmulkdinkim, mundoq namakharonliq bosh urub edi, o'turub jazosig'a yetkurdi. Mundin boshqa ham otasidin qolg'on beklarni xeyli o'turdi. Xeyli saffok va bebok yigit nishon beradurlar.

VAQOYEI SANAYI SALOSA VA SALOSINA VA TIS'A MIA¹

Muharram oyida Foruqning tavalludining xabarini Bek Vays kelturdi. Agarchi burun xabarni bir piyoda kelturub edi, vale sevinchig'a Bek Vays bu oyda keldi. Odina kechasi shavvol oyining yigirma uchida mutavallid bo'lg'ondur, Foruqqa mavsum bo'ldi.

Biyona va ba'zi kirmagan qo'rg'onlar maslahatig'a bir uluq qozon Ustod Aliqulig'a buyuru-lub edikim, qo'yg'ay. Ko'ra va jam'i masolihi-ni tayyor qilib, manga kishi yibordi. Dushan-ba kuni muharram oyining o'n beshida ustod Aliqulining qozon quyarning tafarrujig'a bor-duk. Qozon quyari yerning girdida sekkiz ko'ra qilib, olotni eritibtur. Har ko'raning tubidin bir arig'e bu qozonning qolibig'a rost qilibtur. Biz borg'och, ko'ralarning teshuklarini ochti, har ariqdin erigan olot suvdek sharildob qolibg'a kirar edi. Bir zamondin so'ng qolib to'lmay, bu ko'ralardin kelaturgan erigan olotning kel-mog'i birar-birar munqate bo'ldi. Ko'rada yo olotta qusure bor ekandur. Ustod Aliqulig'a g'arib yamon holate bo'ldi. Darin edikim, o'zi-ni qolib ichidagi erigan misqa tashlag'ay. Ustod Aliqulig'a diljo'yluq qilib, xil'at kiydurub, bu in-fi'oldin chiqarduk. Bir-ikki kun qolib sovug'on-din so'ng ochtilar. Ustod Aliquli ko'p bashoshat bila kishi yiboribturkim, qozonning tosh uyi bequsurdur. Doruxonasini quymoq osondur. Qozonning tosh uyini chiqarib, jam'eni aning

¹ To'qqiz yuz o'ttiz uchinchi (1526) yil voqealari.

islohiq'ga tayin qilib, o'zi qozonning doruxonasi-ni quymoqqa mashg'ul bo'ldi.

Mahdi Xoja Fathxon Sarvoniyni Humoyun-ning qoshidin olib keldi. Humoyundin Dalmov-din ayrilibturlar. Fathxonni yaxshi ko'rub, ota-si A'zam Humoyunning parganalarini berib, yana ortuqsi viloyatlar ham inoyat bo'ldi. Bir kurur-u oltmish laklik pargana berildi.

Hindustonda uluq rioyat qilg'on umarog'a muqarrariy xitoblar berurlar: ul jumladin biri A'zam Humoyundur, yana bir – Xonijahon, yana bir – Xonixonon. Muning otasining xitobi A'zam Humoyun edi. Bovujudi Humoyun bu xitob bila birovni muxotab qilmoqliq besurattur. Bu xitobni bartaraf qildim, Fathxon Sarvoni-yg'a Xonijahon xitob berildi.

Chahorshanba kuni safar oyining sekkizida anbuli daraxtlarining yuqqorig'i yonidag'i uluq havzning yoqasida shomiyonalar tikib, majlis tartib qilib, Fathxon Sarvoniyni chog'ir maj-lisiga chorlab, chog'ir berib, kiygan dastor va bosh-oyog'imni inoyat qilib, bu inoyat va ilti-fot bila sarafroz qilib, viloyatig'a ruxsat berildi. Andoq muqarrar bo'ldikim, o'g'li Mahmudxon doim mulozamatga bo'lg'ay.

Chahorshanba kuni muharram oyining yigirma to'rtida Muhammad Ali Xaydar rikob-dorni Humoyunga qadag'a bila yiborildikim, Shukr Po'rub yog'lari qochmish. Bu borg'on kishi yetgach, Jo'npurg'a bir necha munosib beklarni tayin qilib, o'zing cherikni olib, bizga bot yetishakelgaysan, Rono Sango kofir yovuq qopuda kelibtur, aning fikrini bar asl qilaling.

Cheriklar Po'rub sari borg'ondin so'ng Turdibek Qo'chbekni va inisi Sherafganni va Muhammad Xalil axtabegini va og'a-inisi va axtachilari bila va Rustam turkmonni og'a-inisi bila va yana Hinduston elidnn Rovuyi-Sarvoniyini tayin qilildikim, borib Biyona navohiyisini chopib, talag'aylar. Agar qo'rg'ondag'ilarni va'da va istimolat bila bizga boqtura olsalar, boqturgaylar. Yo'q ersa chopib, talab, g'animni ojiz qilg'aylar.

Bu Biyonadagi Nizomxonning bir og'asi Olamxon otliq Tahangar qo'rg'onida edi, aning kishilari muqarrar kelib, qulluq va davlatxohlig'ini arzga tegurdilar. Bu Olamxon o'ziga oldikim, podshohdin favj tayin bo'lsa, jami' Biyona va bu kentlarning tarkashbandilarini va'da va istimolat bila kelturmak va Biyona qo'rg'onini iliklamak manga tegdi.

Bu muqarrar bo'lg'on Turdibek boshliq ilg'or yigitlariga farmon bo'ldikim, Olamxon, chun yerlik kishidur, bu nav' qulluq va xizmatkorliqni o'ziga oladur. Biyona maslahatida aning saloh va savob diydi bila amal qiling.

Hinduston eli agarchi ba'zisi qilich chonqay, vale aksar sipohiliq roh va ravishidin va sardorliq yurush-turushidin oriy va bebahradurlar. Bu Olamxong'akim, bizning ilg'or qo'shulur, hech kishining so'ziga boqmay, ishning yaxshisi va yamonini mulohaza qilmay, Biyonag'a bu ilg'orni yovuq olib borur. Bizning borg'on ilg'or turkdin ikki yuz ellik-uch yuzga yovushur edi. Hindustoniydin va atrofiy cherikdin ikki mingdin bir nima ko'prak bo'lg'ay edi. Nizomxon

va Biyonadagi afg'on va sipohi to'rt mingdin ko'prak otliq cherik bor edi. Yayog'i xud o'n mingdin ham ko'prak edi. Bularni ko'rub, bilib, ushbu mazkur bo'lg'on otliq-yayoq cheriki bila tez-o'q bularning ustiga chiqar; ildam yetib, qalin kishi ot solg'on bila bu ilg'or kishisini qochurur. Olamxon Tahangariynikim, og'osi edi, tushururlar. Yana besh-olti kishi ham olurlar. Bir pora partol oldururlar, Bovujudi bu harakat va'da va istimolat berib, burungi va so'nggi jarimasini afv qilib, farmonlar yiborildi.

Rono Sango kofirning xabari tezrak bo'lg'ach, chora qila olmadi. Sayid Rafi'ni tilab, Sayid Rafi'ning tavassuti bila qo'rg'onni, bizning kishiga topshurub, Sayid Rafi' bila kelib, mulozamat davlatig'a musharraf bo'ldi. Yigirma laklik pargana Miyona duobni inoyat qildim.

Do'st eshik og'ani Biyonag'a oriyatiy yiborildi. Necha kundan so'ng Biyonani Mahdi Xojag'a inoyat qilib, vajhi istiqomatini yetmish lak qilib, Biyonag'a ruxsat berildi.

Totorxon Sarongxoniykim, Guvalyorda edikim, kishisi kelib, izhori qulluq va davlatxohliq qilur edi. Kofir Kandorni olib, Biyonag'a yovuqrok, kelganda Guvalyor rojalaridin Darmankat yana Xonijahon otliq kofir Guvalyor navohisig'a kelib, qal'a tamayig'a sho'r va fitna angez qila boshladilar. Totorxon kelib, Guvalyorni topshurmoq bo'ldi. Beklar va ichkilar va aksar o'bdon yigitlar tamom cherikta va har taraf ilg'orda edilar. Rahimdodqa bir necha Behralik va Lohurluqni, Hastichi tunqatorni og'o-inisi bila qo'shub, ushbu mazkur

bo'lg'onlarg'a Guvalyorda-o'q parganalar tayin qilib yiborildi. Mullo Onoq va Shayx Go'ran-ni dag'i yiborildikim, Rahimdodni Guvalyorda o'lturg'uzub, kelgaylar. Bularkim Guvalyorning yovug'ig'a borurlar. Totorxonning ra'yi munqalib bo'lub, bularni qal'ag'a tilamas.

O'shul asnoda Shayx Muhammad¹ G'avskim, darvesh kishidur, xeyli mashg'ullug'i ham bor, murid va as'hobi ham bisyordur, Guvalyorning qo'rg'onining ichidin Rahimdodqa kishi yiborurkim, harnav' qilib, qo'rg'ong'a o'zungizni solingkim, bu kishining ra'yi munqalib bo'lur, fosid xayoldadur.

Bu xabar Rahimdodqa kelgach, aytib yiborurkim, tashqarilar kofirlar jiqatidin muxotaradur. Men bir necha kishi bila qo'rg'ong'a kiray, o'zgalar tashqari tursun. Mubolag'alar bila munga rozi bo'lur. Ozroq kishi bila kirgach derkim, bu darvozada bizning kishi tursun. Hotipulda² o'zining kishisin qo'yar. Ushbu kecha-o'q ushbu Hotipuldin bo'lg'on kishisini kiyurur. Tonglasig'a Totorxon bechora bo'lur, qo'rg'onni xohi-noxohi topshurub chiqar. Kelib, Ograda mulozamat qildi. Aning vajohi istiqomati Biyona parganasidin yigirma laklik tayin bo'ldi.

Muhammad Zaytun ham chora qila olmay, Do'lpurni topshurub, kelib mulozamat qildi. Anga bir necha laklik pargana inoyat bo'ldi. Do'lpurni xolisa qilib, shakdorlig'ini Abulfath turkmanga inoyat qilib, Do'lpurg'a yiborildi.

¹ Q. b. – Mahmud.

² Q. b. – Hosipul.

Hisori Firuza navohisida Hamidxon Sorangxoniy va bir pora paniy afg'onlaridin va yana atrofiyi afg'onlardin uch-to'rt ming jam'iyat qilib sho'r fitna maqomida edilar.

Chahorshanba kuni – safar oyining o'n beshida Chin Temur Sultong'a, Ahmadiy parvonachi va Abulfath turkman va Malikdod Karoniy va Mujohidxon Mo'ltoniy boshliqlarni qo'shub, bu afg'onlarning ustig'a tayin qilduk. Borib, yiroqtin ilg'ob, bu afg'onlarni yaxshi bosib, qalin kishisini qirib, g'alaba boshlar yibordi.

Safar oyining oxirlarida Xojagiy Asadkim, Iroqqa Shahzoda Tahmosbqa elchilikka borib edi, Sulaymon degan turkman bila kelib, savg'otlar kelturdi. Ul jumladin ilki charkas qiz edi.

Odina Kuni rabiul-avval oyining o'n oltisida g'arib voqea dast berdi: nechukkim, Kobulg'a bitigan kitobatda mashruq bitilib edi. Ul kitobatni-o'q beziyoda va benuqson munda kelturildi. Ul kitobat budur:

«Voqeayi uzmokim, jum'a kuni rabiul-avval oyining o'n oltisida tarix to'qquz yuz o'ttuz uchta ro'y berdi, tafsili budurkim, Ibrohimning onasi bu badbaxt eshiturkim, men Hinduston elining iligidin nima yeydurman. Bu qissa mundoq edikim, uch-to'rt oy bu tarixdin burunroq Hinduston oshlarini chun ko'rmaydur edim, dedimkim, Ibrohimning bovurchilarini kelturdilar. Ellik-oltmishcha bovurchidin to'rtini sahladim. Bu kayfiyatni bu eshitib, Ahmad choshnigirgakim, Hinduston eli bakavulni choshnigir deydurlar, Atovag'a kishi yiborib

kelturub, bir dodak ilgiga chorso'ta qilg'on qog'azda bir to'la zahr berur, to'la ikki misqoldin bir nima ko'prak bo'lur, nechukkim, burunroq mazkur bo'ldikim, Ahmad choshnigirga bergay. Ahmad bizning bovurchixonadagi Hindustoniy bovurchig'a berib, to'rt pargana va'da qilurkim, har tavr qilib mening oshing'a zahrni solg'ay. Ul dodakdinkim, zahrni Ahmad choshnigirga yiborur, yana bir dodakni aning so'ngicha yiborurkim, ko'rgay, ul zahrni beradurmu yo yo'qmu? Yaxshikim, qozong'a solmay, tabaqqa solur. Bu jihattin qozong'a solmaskim, bakavullarga ta'kidlar qilib edimkim, Hindustoniylardan hozir bo'lg'aylar, qozonda osh pishirur mahalda tottururlar ermish. Osh tortarda bizning bedavlat bakavullar g'ofil bo'lurlar. Chiyni ustiga yupqa nonni solur va non ustiga ul qog'azdagi zahrning ozroq yarmini separ, zahrning ustiga yog'liq qaliyani solur. Agar qaliya ustiga sepsa edi, yo qozong'a solsa edi, yamon edi. Dast-pocha bo'lub, zahrning ulug' yarmini o'choqqa tashlar.

Odina kuni kech namozi digar osh torttilar. Tovushqon oshidin xeyli yedim. Bu Hindustoniy zahrliq oshining ustidin bir-ikki tikka mayl qildim, qaliya olib yedim, hech noxush maza ma'lum bo'lmadi. Qoq go'shttin bir-ikki tikka oldim. Ko'nglum barham urdi, o'tgan kun qoq go'shtni yeganimda bir noxush maza anda bor edi, ko'nglumning barham urg'onin andin xayol qildim. Yana bir ko'nglum qo'zg'olib keldi. Dasturxon ustida ikki-uch marta ko'nglum barham urub, qusayozdim. Oxir ko'rdumkim,

boʻlmas, qoʻptum. Obxonagʻa borguncha yoʻlda bir navbat qusayozdim. Yana bir navbat qusayozdim. Obxonagʻa borib, qalin qustum. Hargiz oshdin soʻng qusmas edim, balki ichganda ham qusmas edim. Koʻnglumgʻa shubha kechti. Bovurchini saxlatib buyurdumkim, ul qayni itga berib, itni saxlagʻaylar. Tonglasigʻa bir pahruga yovuq it beholroq boʻlub, qorni dam qilgʻondek boʻldi. Har necha tosh bila urdilar, evrushtilar, qoʻpmadi. Kun tushgacha bu holi bor edi, andin soʻngra qoʻpti, oʻlmadi. Bir-ikki choʻhra ham bu oshdin yegandur. Tonglasigʻa alar ham qalin qustilar, birisining xud holi xarob edi, oxir bori xalos boʻldilar. Misraʼ

«Rasida bud baloye, vale ba xayr guzasht».¹

Tengri manga boshdin jon berdi. Ul dunyodan keladurmen, onadin emdi tugʻdum. Men xasta oʻlub edim, tirildam. Jon qadrini, billoh emdi bildim.

Sulton Muhammad baxshigʻa buyurdumkim, bovurchini ehtiyot qilgʻay. Qiyingʻakim tutar, mazkur boʻlgʻondek birin-birin sharhi bila aytur.

Dushanba kuni devon kuni buyurdumkim, akobir va ashrof va umaro va vuzaro devonda hozir boʻlgʻaylar. Ul ikki er kishini va ikki xotun kishini kelturub soʻrgʻaylar va bayoni voqeni sharhi va basti bila ayttilar. Ul choshnigirni pora-pora qildurdum. Bovurchini tiriklay terisini soʻydurdum. Ul xotunlardin birisini fil ostigʻa

¹ «Bir balo yetishgan edi, biroq yaxshilik bilan kechdi».

soldurdum, Birini ehtiyot qildurdum.¹ Ul ham o'z amalig'a giriftor bo'lub, jazosig'a yetgusidur.

Shanba kuni bir ayoq sut ichtim. Yakshanba kuni ham bir ayoq sut ichtim, «gili maxtum»ni va «taryoki foruq»ni ezib ichtim. Dushanba kuni sut ichtim, sut ichimni xeyli surdi. Shanba kuni, avvalgi kuni safroyi so'xtadek qoraqora nimalar daf' bo'ldi. Shukr, holo hech qissa yo'qtur. Jon mundoq aziz nima emish, muncha bilmas edim, ul misra' borkim:

«Kim o'lar holatqa yetsa, ul bilur jon qadrini».

Har qancha bu voqeayi hoila xotiring'a kelsa, bexost holim mutag'ayyir bo'lur. Tengri taoloning inoyati bor ekandur, manga yangi boshdin jon bag'ishladi. Munung shukrini na til bila qilg'aymen. Xotirlarg'a taraddud kechmagay deb, har ne voqe bo'lg'onni sharhi va basti bila bitidim. Agarchi tilga, og'izg'a siqqusiz qo'rqqudek voqea edi, shukr tengrig'a yana kun ko'rarim bor ekandur. Xayr-xo'bluq bila o'tti. Hech dag'dag'a va taraddud xotirlaringizg'a kechurmang deb, seshanba kuni rabiul-avval oyining yigirmasida chahorbog'da erurda bitildi».

Bulardin forig' bo'lub, bu bitilgan xatni Kobulg'a yiborildi. Chun mundoq ulug' gunoh bu badbaxttin sarbar urdi, Yunus Ali bila Xojagiy Asadg'a buyuruldikim, naqd va jins va qul va dodakini olg'ondin so'ng, Abdurrahim shig'ovulg'a topshuruldikim, ehtiyot bila sax-

¹ L. b. – tushgan.

lag'ay. Buning nabirasi Ibrohimning o'g'lini-
kim, xeyli ta'zim va ehtirom bila nigohdosht
qilinur edi, chun mundoq qasde bu tabaqadin
sodir bo'ldi. Ibrohimning o'g'lini munda sax-
lamoqning salohini ko'rmay, panjshanba kuni
rabiul-avval oyining yigirma to'qquzida Mullo
Sarsong'akim, Komron qoshidin ba'zi ish-kuch
uchun kelib edi, qo'shub Komrong'a yiborildi.

Humoyunkim, Po'rub tog'i yog'iyalar ustiga
borib edi, Jo'npurni fath qilib, G'ozipurg'a Na-
sirxonning ustig'a ildam bordi. Xabar topib,
Gang daryosini kechgan ekandur. G'ozipur-
din Xarid¹ ustig'a bordi. Andag'i afg'onlar ham
xabar topib, Saru suvini kechgan ekandur.
Xaridni cherik eli toroj qilib, andin yondi. Men
muqarrar qilg'on yo'sunluq Shoh Mir Husayn
bila Sul-ton Junaydni bin pora o'bdon yigitlar
bila Junpurda qo'yub, Qozi Jiyoni ham bular
bila tayin qildi. Udqa Shayx Boyazidni muqar-
rar qildi. Bu muhimmotni zabt va saranjom
qilib, Karra Monikpur navohisidin Gang dar-
yosini o'tub, Kolpiy² yo'li bila mutavajjih bo'fur
vaqta, Olamxon va Jalolxon jikhatkim Kolpiy-
da edi, arzadoshti kelur edi, o'zi kelmaydur
edi. Humoyun Kolpiy to'g'risi yetganda kishi
yiborib, dag'dag'ani aning ko'nglidin chiqarib,
o'zi bila olib keldi.

Yakshanba kuni rabiul-oxir oyining uchida
«Hasht bihisht» bog'ida Humoyun kelib, mulo-
zamat qildi. Ushbu kun Xoja Do'st Xovand ham
Kobuldin keldi.

¹ Q. b. – Xayrobod.

² Q. b. – Kobul.

Bu kunlarda Mahdi Xojaning kishisi pay-dar-pay kela boshladikim, Rono Sangoning keluri tahqiq bo'ldi. Hasanxon Mevotiy ham Ronog'a qo'shulmoqchi emish. Bularning fikrini bar asl qilmoq kerak. Cheriktin ilgarrak bir pora ko'mak kishi ham Biyonag'a kelsa, davlatg'a munosibdur deb, cherik o'tlanmoqqa azm-jazm qilib, o'zumizdin ilgarrak Muhammad Sulton mirzo, Yunus Ali, Shoh Mansur barlos, Kattabek, Qisimtoy, Bo'jaka boshliqlarni Biyonag'a ilg'or yiborildi.

Hasanxon Mevotiyning Nohirjon otliq o'g'li Ibrohimning urushida ilikka tushub edi, garavga saqlab eduk. Bu jihattin otasi Hasanxon zohirda omadu raft qilur edi. O'g'lini doim tilar edi. Ba'zining xotirig'a yettikim, Hasanxonning istimolati jihatidin o'g'lini yiborilsa ko'prak mustamol bo'lub, xizmatkorliqni yaxshiroq bajoy kelturg'ay. Hasanxonning o'g'li Nohirxong'a xil'at kiydurub, otasig'a va'dalar qilib, ruxsat berildi. Bu munofiq mardak xud o'g'lining ruxsatig'a ma'tal ekandur. O'g'lining ruxsatini xabar topqoch, o'g'li yetmasdin burun-o'q, Alvordin chiqib kelib, Rono Sangog'a To'dada kelib qo'shuldi. Aning o'g'lini mundoq mahalda ruxsat bermoq behisob ekandur.

Bu fursatlarda yomg'ur xeyli yog'or erdi, doim suhbatlar tutulur edi. Humoyun ham suhbatlarda bo'lur edi. Agarchi mutanaffir edi, ul bir necha kun irtikob qildi.

Bu ovonda o'tgan g'aroyib voqeaottin biri budurkim, Humoyun Qal'ayi Zafardin Hinduston cherikiga kelurda yo'ldin Mullo Bobo

Pashog'ariy va inisn Boboshayx qochib, Ketin Qaro sultong'a bordilar. Balxdag'ilar o'z bo'ldular. Balx Ketin sultonning iligiga tushti. Bu kovok mardak inisi bila bu tarafning ishkuchini bo'yinlarig'a olib, Aybak va Xurram va Sorbog' navohisig'a kelurlar. Shoh Iskandar Balxning kirganidin bepoy bo'lub, G'o'ri qal'asini o'zbekka berur. Mullo Bobo bila Boboshayx bir necha o'zbek kishisi bila G'o'ri qo'rg'onig'a kelib kirarlar. Mirhamaning qo'rg'oni chun yaqin edi, chora qila olmas, o'zbekka kirar. Bir necha kundin so'ng Mirhamani jamoati bila ko'churub, Balx sori eltar maslahatidin Boboshayx bir necha o'zbek kishisi bila Mirhamaning qo'rg'onig'a kelurlar. Mirhama Boboshayxni qo'rg'onida tushurur. O'zgalariyi har yerda-har yerda o'toq berur. Mirhama Boboshayxni chopqulab, bir necha kishisi bila band qilib, Tengriberdiga Qunduzg'a kishi chopturur. Tengriberdi Yor Ali va Abdullatifni bir necha o'bdon yigiti bila yiborur. Bular yetgancha Mullo Bobo o'zbek kishisi bila Mirhamaning qo'rg'onig'a kelib, urush-murush solur xayoli qilur, hech ish qila olmas. Tengriberdining kishisiga qo'shulub, Qunduz keldilar.

Boboshayxning bir inisi yamon ekandur, ul jihattin boshini kesib, ushbu fursatlar-da, Mirhama kelturdi. Inoyatlar va shafqatlar bila sarafroz qilib, aqron va amsolidin mumtoz ayladim. Boqi shig'ovul borg'onda bu ikki ko'hna bedavlatning boshig'a birar ser oltun va'da qilib edim. Bu inoyatlardin boshqa, bir ser oltun o'shal va'da yo'suni bila Mirhamag'a berildi.

Bu fursatta Qisimtoykim, Biyonag'a ilg'or borib edi, bir necha bosh kesib kelturdi. Qisimtoy bila Bo'jaka bir necha qazoq yigitlar bila til tuta borg'onida ikki bo'lak kofirning chopqunchisini bosib, yetmish-sekson kishi olurlar. Hasanxon Mevotiyning tahqiq kelib qo'shulg'on xabarini Qisimtoy ayta keldi.

Yakshanba kuni oyning sekkizida Ustod Aliquli o'shul uluq qozoni bilakim, quyarda tosh uyi benuqson edi, doruxonasini ham so'ngra quyub, tayyor qilib edi, tosh otarida tafarrujig'a bordim. Namozni digar bor edi, oshotti. Ming olti yuz qadam bordi. Ustodg'a kamar xanjar va xil'at va tupchoq ot in'om bo'ldi.

Dushanba kuni jumodil-avval oyining to'q-quzida g'azo ishi bila safar qilib, mahallottin chiqib, tuzda tushuldi. Uch-to'rt kun munda cherik yig'ilmoqqa va cherikning jabdug'i qilmoqqa kutub turduk. Chun Hinduston elig'a xeyli e'timod yo'q edi, har tarafg'a-har tarafg'a bu Hinduston umarosidin ilg'or bitildi: Olamxonni Guvalyorg'a ilg'or yiborildikim, borib Rahimdodg'a, ko'mak bo'lg'ay. Makanni va Qosimbek Sanbaliyni va Xomid va og'a-inisi bila va Muhammad Zaytunni Sanbalg'a ilg'or bitildi.

Ushbu yurtta xabar keldikim, Rono Sango bo'lg'on cheriki bila Biyonaning yaqinig'acha chopar. Qorovulliqqa borg'onlar xabar yetkura olmaslar, balki qo'rg'ong'a ham kira olmaslar. Qo'rg'on eli qo'rg'ondin yiroqroq va besirparoq chiqarlar. Yog'iy zo'rroq kelib, bularni durbat. Sangarxon janjuha anda shahid bo'ldi.

Bu g'avg'oda Kattabek jibasiz-o'q chopib chiqar. Bir kofirni yayoqlatib olur mahalda Kattabekning bir navkarining qilichini olib, Kattabekning kiftig'a-o'q chopar. G'alaba tashvishlar tortti. Rono Sangoning g'azosida kela olmadi. Necha mahaldin so'ng yaxshiroq bo'ldi. Vale ma'yubroq bo'lubtur.

Qisimtoy va Shoh Mansur barlos va har kimki, Biyonadin keldi, bilmon qo'rqqonlarimu edi, yo elni qo'rqutqonlarimu edi? Kofirning cherikini jald va jarrorliq bila asru ko'p sitoyish va ta'rif qildilar.

Safar qilg'on yurttin Qosim miroxo'rni bel-dorlar bila yiborildikim, Madhokur parganasi-dakim, o'rdu tushar yerdur choh qozdurg'ay.

Shanba kuni jumodil-avval oyining o'n to'rtida Ogra navohisidin ko'chub, chohlar qozilg'on yurtqa kelib tushuldi. Ertasiga andin ko'chtuk. Xotirg'a kechtikim, bu navohida uluq o'rdug'a suyi vafo qilur yer Sekridur. Ehtimol borkim, kofir suvni olib tushgay. Bu jihattin burong'or, juvong'or, g'ul yasol yasab-o'q mutavajjih bo'lduk. Darvesh Muhammad Sarbon bila Qisimtoykim, Biyonag'a borib kelib, yer-suvni ko'rub bilib edi, ilgari Sekri ko'lining yoqasida yurt ko'ra yiborildi. Kelib, yurtta tushub, Mahdi Xojag'a, Biyonadagilarga kishi chopturuldikim, betavaqquf kelib qo'shulg'aylar.

Humoyunning navkari Bekmirak mo'g'ulni bir necha yigit bila kofirdin xabar olg'ali yiborildi. Kechasi borib, xabar olib, tonglasig'a xabar kelturdilarkim, g'anim kishisi. Basovardin bir kuruh ilgarroq kelib tushgan ermish. Ham

ushbu kun Mahdi Xoja va Muhammad Sulton mirzo va Biyonadag'i ilg'or kelib qo'shuldilar. Beklar navbat bila qorovulluqqa tayin bo'ldilar.

Abdulaziz qorovulluq navbatida ilgari-keyni mulohaza qilmay, rost Konvohag'a borib-turkim, Sekridin besh kuruh yo'ldur, kofir ilgarrak ko'chgan ekandur. Bularning mundoq jilovsiz ilgari borg'onlarini bilib, to'rt-besh ming kishi tez-o'q yetib kelurlar.¹ Abdulaziz va Mullo Opoq ming besh yuzcha kishi bo'lg'ay edi, g'anim kishisini chog'lamay, bular ham ilik qo'sharlar. Qalin kishi olg'on bila-o'q tebrar. Bu xabar bizga kelgach, Muhib Ali xalifani navkarlari bila yiborduk. Mullo Husaynni va yana ba'zilarni ubruq-subruq bularning ko'makiga yiborduk. So'ngra Muhammad Ali jang-jangni ham yiborildi.

Ilgari ta'yin bo'lg'onlar, Muhib Ali alar yetguncha Abdulaziz alarni tebratib, tug'ini olib, Mullo Ne'mat va Mullo Dovud va Mullo Opoqning inisi va yana bir nechani olib, shahid qilg'on ekandurlar. Bular yetgach, Tohir Tabariy Muhib Alining tag'oyisi chopar, ko'mak yetmas, Tohirni o'shanda-o'q olurlar. Muhib Ali xam urush asnosida yiqilur. Boltu ko'ndalondin kirib, Muhib Alini chiqarur. Bir kuruhgacha bularning keynicha kelurlar. Muhammad Ali jang-jangning qorasi paydo bo'lg'ach, turarlar.

Bizga payo-pay xabar keldikim, g'anim kishisi yovuq keldi. Jiyba kiyib, otlarga kejim solib, yarog'lanib, chopa otlanduk. Buyurdumkim, arobalarni tortib kelturg'aylar. Bir kuruh

¹ L. b. – tushgan.

kelduk. G'anim kishisi yong'on ekandur. Yonimizda uluq ko'l edi, suv maslahatig'a ushbu yerda tushuldi. Arobalarni ilgari mazbut qilib, zanjirlar bila arobalarni marbut ayladuk. Har ikki aroba fosilasi yetti-sekkiz qari bo'lg'ay edikim, zanjir tortilur edi. Mustafu Rumiyy Rum dasturi bila aroba qilib edi, xeyli chust va chaspon yaxshi arobalar edi. Chun Ustod Aliquli ziddona maosh qilur edi, bu jihattin Mustafoni burong'orda Humoyunning olida tayin qilildi. Aroba yetmagan yerga xurosoniy va hindustoniy beldorlar va qalandiylarni solib, xandaq qozduruldi.

Bu kofirning mundoq ildam kelishidin va Biyonada bo'lg'on urush ishidin va Shoh Mansur va Qisimtoy Biyonadin kelganlarning ta'rif va sitoyishidin cherik elida bedillig' zohir bo'latur edi. Abdulazizning bosturg'oni xud bir sari bo'ldi. Elning itmiynoni xotiri va cherikning istihkomi zohiri uchun aroba yetmagan yeriga yig'ochdin sepoyadek nima yasab, har ikki sepoyaning orasinikim, yetti-sekkiz qari bo'lg'ay, o'yning xomidin arg'amchilar qilib mazbut va marbut qilildi. Bu asbob va olot muhayyo va mukammal bo'lg'uncha yigirma-yigirma besh kunga tortti.

Ushbu fursatta Kobuldin Sulton Husayn mirzoning qiz nabirasi, Qosim Husayn sulton va Ahmad Yusuf, Sayid Yusuf va Qivom O'rdu-shoh yana ba'zi yakka-yarimdin besh yuzcha kishi keldilar. Muhammad Sharif Munajjim shumnafas ham bular bila keldi. Bobodo'st

suvchikim, chog'ir uchun Kobulg'a borib edi, G'azning muvajjah chog'irlaridin uch qator tevada yuklab, ul ham bular bila keldi.

Mundoq mahaldakim, o'tgan vaqoye va holot parishon so'z va kalimottin, nechukkim mazkur bo'ldi, cherik elining taraddudi va tavahhumi bisyor edi. Muhammad Sharif munajjim shum-nafas, agarchi manga aytur yorosi yo'q edi, har kimga yo'luqsa mubolag'alar bilan aytur edikim: «Bu ayyomda Mirrix g'arb saridur, har kim bu tarafdin urushsa mag'lub bo'lur». Mundoq shumnafas nekim surdi, bedil elning ko'ngli-ni ko'prak sindurdi. Aning bu parishon so'zla-rig'a go'sh qilmay, qilur ishlarimizni tigilmay urush ishida bajid va masof qilmoqqa mustaid bo'lduk.

Yakshanba kuni oying yigirma ikkisida Shayx Jamolni yiborildikim, Miyoni duob tar-kashbandlaridin va Dehlidin yig'a olg'oncha cherik yig'ib, Mevotiyning kentlarini chopib, ta-lab, iligidin kelganini taqsir qilmag'ay. To bu-larga ul tarafdin haduge bo'lg'ay. Mullo Turk Alikim, Kobuldin keladur edi, farmon bo'ldikim, Shayx Jamol bila qo'shulub, Mevotni chopmoq-ta va buzmoqta taqsir qilmag'aylar. Mag'fur devonga ham bu yo'sunluq farmon bo'ldi. Borib, Mevotning bir necha yoqa buchqoqdag'i kent-larini chopib, talab, asir qilibturlar. Ul mamar-din bularg'a chandon haduk bo'lmadi.

Dushanba kuni jumodil-avval oyining yigir-ma uchida sayr qila otladim. Sayr asnosida xotiring'a yettikim, hamisha tavba dag'dag'asi

xotirimda bor edi, bu nomashru' amr irtiko-
bidin aladdavom ko'nglumda g'ubor edi, de-
dimkim, ey nafs:

*Chand boshi zi maosi mazakash,
Tavba ham bemaza nest bi chash.¹
Necha isyon bila oludalig'ing,
Necha hirmon ara osudalig'ing,
Necha nafsingg'a bo'lursen tobe,
Necha umrungni qilursen zoye
Niyati g'azv ilakim yurubsen,
O'lmakingni o'zunga ko'rubsen.
Kimki o'lmak o'ziga jazm etar,
Ushbu holatta bilursenki netar,
Dur etar jumla manohiydin o'zin,
Aritur barcha gunohidin o'zin.
Xush qilib o'zni bu kechmakliktin,
Tavba qildim chog'ir ichmakliktin.
Oltun-u nuqra suroxiy-yu ayoq,
Majlis oloti tamomin ul choq,
Hozir aylab borini sindurdum,
Tark etib mayni, ko'ngul tindurdum.*

Bu sindurulg'on oltun-kumush surohiy va olotni mustahiq-larg'a va darveshlarg'a ula-
shildi. Ul kishikim, tavbada muvofaqat qilib
edi, Asas edi. Soqol qirmoqta va qo'ymoq-
ta muvofaqat qilib edi, ul kechasi va tongla-
si beklardin va ichkilardin va sipohilardin va
g'ayri sipohidin uch yuzga yaqin kishi tavba
qildilar! Hozir chog'irlarni to'kturub, Bobodo'st
kelturgan chog'irlarni buyurdukkim, tuz solib,

¹ «Qachongacha gunoh ishlardan zavq olasan; tavba ham bemaza emas, undan ham totib ko'».

sirka qilg'aylar. Chog'irlarni to'kkan yerda bir voyin qozduruldi. Niyat qildimkim, bu voyinni tosh bila qo'portib, bu voyinning yonida buqayi xayre qilg'aylar.

Muharram oyi to'qquz yuz o'ttuz beshdakim¹, borib Guvalyorni sayr qildim, yong'on-da Do'lpurdin Sekriy keldim. Bu voyin tamom bo'lub edi.

Burunroq niyat qilib edimkim, Rono Sango kofirg'a zafar topsam, tamg'ani musulmonlarg'a bag'ishlay. Tavba asnosida Darvesh Muhammad sorbon bila Shayxi Zayn tamg'a baxshishini yod berdilar. Dedimkim, yaxshi yod berdingiz, iligimizdagi viloyatlarda musulmonlarning tamg'asi baxshish bo'ldi. Munshiylarini tilab, buyurdumkim, bu ikki azimush-sha'n umurkim, voqe bo'ldi, buning ixborig'a farmonlar bitigaylar.

Shayx Zaynning inshosi bila farmonlar bitilib, jami' qalamravg'a yiborildi. Ul insho budur.²

¹ Milodiy hisob bilan 1528-yil.

² Bu forsicha yozilgan «farmon» tarjimasini kitobning oxiriga ilova qilindi.

«FARMONI ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR¹»

Nahmadu tavvoban yuhibbut-tavvobina va yuhibbul-mutatah hirina va nashkur-u vahhoban yahdil-muznibina va yag'firul-mustag'firina va nusalli alo xayri xalqihi Muhammadin va olihit-tayibina va sahbihat-tohirin.

Maroyon aroyi arbobi albob ki machlisi macholin suvari asbob va mahozini laoliyi nuqushi sidq va sabot ast naqsh naziri chachohiri zavohiri in ma'ny xohad bud ki, tabiati insoniy ba muhtazoy fitrat moili lazzoti nafsonist va tarki mushtahiyot mutavvaqqif bar tavfiqi yazdony va ta'yidi osmony, nafsi bashar az mayi ba shar dur nest. «Va mo ubarriu nafsiy innan-nafsa la ammoratun bis-su'» va ichtinob az on chuz ba ra'fati malika g'afur ne, «va zolika fazlullohi yu'tihi man yasho', vallohu zulfazlil-azim».

G'araz az tasviri in maqola va taqriri in maqula on ki ba muqtazoyi bashariyat ba hasbi marosimi podshohon va lavozimi podshohy va bar odati sohib chahon az shoh va sipohy dar unfoni ayyomi shabob ba'ze az manohi va barxe az malohy irtikob namuda meshud va ba'd az chand ro'ze ro'zi nadomat va hasrat tamom hosil omada yak-yak az on manohiyi murtakibaro tark menamud va ba tavbayi nasuh bobi ruchi' ba don masdud megasht.

Ammo tavbayi sharob ki, ahammi matolibi on maqsad va a'zami maoribi on maqsud ast dar hichobi «al-umur-u marhunatun biavqo-

¹ L. b. – tushgan.

tiho» muxtachib monda, ro'ý namenamud. To on ki dar in avqoti farxunda soot ki ba chahdi tamom ihromi chihod basta bo asokiri islomi mosir dar muqobalayi kuffor ba muqotala nishasta budem, az mulhimi g'ayby va xotifi lorayby mazmuni maymuni «Alam ya'ni lillazina oman-u an taxshaa qulubahum bizikrillohi» shunuda, jihati qal'i asbobi ma'siyat ba chiddi tamomi tom qar'i abvobi inobat namudem. Va hodiyyi taviq hasabal-mazmuni «man qaraa boban valachcha vacha» dari iqbol kushd, va iftitohi in chihod ba chihodi akbar ki muxolifati nafs ast, amr farmud. Alqissa: «rabbano zalamno anfusano» bar zaboni ixlos bayon ovarda, «tubtu ilayka va ana avvalul muslimin»ro bar lavhi dil munaqqash gardonidem. Va doiyayi tavbayi sharobro ki maknuni xazinayi sina bud, ba imzo rasonidem. Va xuddomi zafar ihtishom ba muchibi hukmi farxunda farchom surohi va jom va soir adavot va oloti tillo va nuqra ki ba kasrat va zinat chun kavokibi sipexri rafe muzayyini machlisi bade bud izzati shariatro bar zamini xory va mazallat zada, monandi asnom ki insho-olloh taolo anqariyb ba kasrashon muvaffaq shavem, pora-pora soxtand va har poraro nazdi miskine bechoraye andoxtand. Va ba yumni in inobati qaribul-ichobat bisyory az muqarraboni dargoh va muqtazoyi «Annos-u alo dini mulikihim» dar hamon machlis ba sharafi tavba musharraf gashtand va bilkulliya az sari shurbi xamr dar guzashtand, va hanuz favch-favch az mutioni avomir va navohy soatan fa-soatan ba-din saodat musta'id mer-

gandand. Umed ki ba muqtazoyi «addollu alalxayri ka-foilihi» savobi in a'mol ba ro'zgori bo iqboli navvobi xuchasta foli podshohy oid gardad va ba maymanati in saodat fath nusrat yavman fa-yavman mutazoid oyad.

Va ba'd az itmomi in niyat va takmili in amniyat farmoni olam mute sharaf nafoz yoft ki dar mamoliki mahrusa (xarasahallohu an-il-ofat val-muxofot), mutlaqan hech ofarmida murtakibi shurbi xamr nashavad va dar tahsili on nako'shad va xamr nasozad va nafro'shad va naxarad va nadorad va nabarad va nayorad: «fachtanibuhu laallakum tuflihun».

Va shukran alo hozihil-futuh va tasadduqan li qabuli tilkat-tavbatan-nasuh bahri baxshoyishi podshohy dar cho'sh omada, amvochi karam, ki sababi obodoniya olam va obro'y bani odam ast, zohir soxt, va tamg'oyi jameyi mamolikro az musulmonon ki hosili on az hadu hasr afzun ast, bovuchudi istimrori azminayi salotini sobiq bagiriftani on chun az zavobiti shariati sayyidul-mursalin berun bud, barandoxta farmon sodir shud ki dar hech shahr va balad va roh va guzar va mamar va bandar tamg'o nagirand va nasitonand va tag'yir va tadbil ba qavoidi in hukm roh nadihand: «Va man baddalahu ba'da mo samiah-u fainnamo ismuhu alallazina yubaddilunah».

Sabili musta'minoni ziloli otifati podshohy az turk va tochik va arab va acham va hindiy va forsiy va raiyat va sipohy va kofaayi umam va ommayi tavoifi bany odam on, ki ba-din orifayi muayyaada mustazhir va umedvor buda ba

duoyi davlati abad ittisol ishtig'ol namoyand va az lavozimi¹ in ahkomi maymanat anchom dar naguzarand va inhirof navarzand.

Meboyad ki bar hasabi farmon amal namuda ba taqdim rasonand va chun ba tavqi'yi vaqiyyi ashrafi a'lo rasad e'timod namoyand.

Kutiba biamril-oliy a'lallohul-mutaoliy va xallada naqozahu:, fi 24 shahri chumodil-avval, sana 932»².

Ushbu ayyomda o'tgan vaqoyedin nechukim mazkur bo'ldi, uluq-kichikta dag'dag'a va taraddud ko'p edi. Hech kimdin mardona so'z va dalirona ra'y eshitilmas edi. Hikoyat deguchi vuzaroning va viloyat teguchi umaroning ne so'zlari mardona edi, na tadbirlari, na o'zlari sohib himmatona edi, na taqrirlari.

Bu yurushta Xalifa yaxshilar bordi, zabt va istihkom bobida jiddu ihtimomni taqsis qilmadi.

Oxir elning mundoq bedilliqlarini so'rub va bu nav' sustluqlarini ko'rub, bir tadbir xotiring'a yetti. Jami' beklarni va yigitlarni chorlab dedimkim:

«Beklar va yigitlar!

Har ki omad ba jahon ahli fano xohad bud,

On ki poyanda-u boqest Xudo xohad bud.»³

Har kimki hayot majlisig'a kiribtur, oqibat ajal paymonasidin ichgusidur va har kishikim, tiriklik manzilig'a kelibtur, oxir dunyo g'amxo-

¹ L. b. – tushgan.

² Q. b. – 933.

³ Mazmuni: Har kimki bu jahong'a kelarkan, oxirida yo'qliqqa ketadi, abadiy qoluvchi yolg'iz Xudodir.

nasidin kechgusidur. Yomon ot bila tirilgandin yaxshi ot bila o'lgan yaxshiroq.

*Ba nomi neko' gap bimiram ravost,
Maro nom boyad ki tan margrost.¹*

Tengri taolo bu nav' saodatni bizg'a nasib qilibtur va mundoq davlatni bizga qariyb aylabtur. O'lgan shahid, o'lturgan g'oz. Barcha tengrining kalomi bila ont ichmak kerakkim, hech kim bu qitoldin yuz yondurur xayol qilmag'ay, to badandin joni ayrilmag'uncha, bu muhoraba va muqotaladin ayrilmag'ay».

Bek va navkar uluq-kichik borcha rag'bat bila mushafni ilikka olib, ushbu mazmun bila ahd va shart qildilar. Tavr tadbire edi, yovuqtin, yiroqtin do'st, dushman ko'rgali, eshitgali yaxshi bo'ldi.

Ushbu ayyomda to'sh-to'shdin sho'r va fitna qoyim bo'ldi. Husaynixon Nuhoniy Robiriy-ni kelib oldi. Qutbxonning kishisi Chandvor-ni oldi. Rustamxon degan bir mardak Miyoni duobdag'i takashbandlarni yig'ushturub, kelib Ko'lni olib, Kichik Alini band qildi, Sanbalni Zohid tashlab chiqti. Qanujni Sulton Muhammad do'ldoy qo'yub keldi. Guvalyorni guvalyorliq kofirlar kelib, muhosara qildi. Olamxonnikim, Guvalyorg'a ko'mak yiborilib edi, Guvalyorg'a bormay, o'z viloyatig'a bordi. Har kun har taraf-tin bir noxush xabar kelur edi. Cherikdin ba'zi hindustoniylar qocha kirishtilar: Haybatxon

¹ Yaxshi nom bilan o'lsam, shu yetadi, menga yaxshi nom kerak, tana esa o'lim uchundir.

Karkandoz qochib, Sanbalg'a bordi. Hasanxon Borivol qochib, kofirg'a kirdi. Bularg'a parvo qilmay, olimizg'a-o'q mutavajjih bo'lduk.

Arobalar va g'altaklik sepoyalar, bu asbob va olotkim tayyor bo'ldi, seshanba kuni jumodil-oxir oyining to'qquzida navro'z kuni ko'chtuk. Burong'or, juvong'or, g'ul yasol yasab, olimizda arobalarni va g'altaklik sepoyalarni yurutub, bularning keyinida Ustod Aliqulini jami' tufangandozlari bila ta'yin qilildikim, yayoq, arobaning keynidin¹ ayrilmay, yasol bila yurugaylar. Yasollar yerlik yeriga kelgandin so'ng, jami' yasollarg'a ildam qatrab yetib, burong'or, juvongor, g'uldag'i beklar va yigitlar va sipohilarg'a ko'ngullar berib, har qaysi bo'lakning qaysi yerda turushini, ne yo'sunluq yurushini muqarrar va muayyan qilib ushbu tartib va nasaq bila bir kuruhcha yo'l kelib tushtuk.

Kofir kishisi ham xabardor bo'lub, o'trudin bo'lak-bo'lak yasab keldilar. Aroba va xandaq bila o'rdi tushgandin so'ng, o'rduni va o'rdi o'trusini mazbut va mustahkam qilildi. Chun bukun urush xayoli yo'q edi, oz-og'loq yigit-yalang ilgari chiqib, g'anim kishisi bila ilik olishib, shul kuni bostilar. Bir necha kofirni olib, boshini kesib kelturdilar. Malik Qosim ham bir necha bosh kesib kelturdi. Malik Qosim yaxshi bordi. Ushmuncha bila cherik elining ko'ngli xeyli qo'пти, quvondi. Elga o'zgacha tahniyat paydo bo'ldi.

Tonglasi ko'chub, urushur xayolimiz bor edikim, Xalifa va ba'zi davlatxohlar arzg'a yetkur-

¹ L. b. – tushgan.

dilarkim, chun muqarrar bo'lg'on yurt yovuqtur, ani xandaqlab, mazbut qilib-o'q ko'chulsa davlatqa munosibtur. Xandaq maslahati uchun Xalifa o'tlanib, xandaq yerlarini beldorlarg'a ta'yin qilib, muhassillar muqarrar qilib keldi.

Shanba kuni jumodil-oxir oyining o'n uchida arobalarni olimizg'a tortturub, burong'or, juvong'or, g'ul yasol bila bir kuruhqa yovuq yo'l kelib, muqarrar bo'lg'on yurtqa tushuldi. Ba'zi chodirlar tiqilib, ba'zi tikilmoqda edikim, xabar kelturdilarkim, yog'uning yasoli paydo bo'ldi. Filhol o'tlanib, farmon bo'ldikim, burong'or burong'org'a, juvong'or juvong'orga, yerlik-yeriga borib, arobalar bila yasollarni mazbut va murattab qilg'oylar.

Chun bu «Fathonoma»din islom cherikining kayfiyati va kuffor haylining kamiyyati, sufuf va yasolning turushlari va ahli islom va ahli kufnrning urushlari mushaxxas va ma'lum bo'fur, ul jihattin beziyoda va nuqson o'shul «Fathonoma»kim, Shayx Zayn insho qilib edi, sabt bo'ldi.

FARMONI ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR G'OZY¹

Alhamdu lillohil-lazi saddaqa va'dah-u va narasa abdahu va g'azza chandah-u va hazamal-ahzoba vahdah-u va loshay'a ba'dah-u yo man rafaa daoyimal-islomi binasri avliyohiroshidina va vazaa qavoimal-asnomi biqahri a'doihil-moridina faqutia dobirul-qavmil lazina zalamu val-hamdu lillohi rabbil-olamina va salalohu alo xayri halqihi Muhammadin Sayyidil g'uzzoti val-muchohidina va alo olihi va as'ho-bihil-xudoti ilo yavmiddin.

Tavoturi nuamoyi subhony boisi takosuri shukr va sanoyi yazdonist va takosuri shukr va sanoyi yazdoni murisi tavoturi nuamoyi subhony. Bar har ne'mat shukre murattab ast va har shukrero ne'mate az aqib: adoyi lavozimi shukr az qudrati bashar mutachoviz ast va ahli iqtidor az istefoyi marosimi on ochiz. Alalxusus shukre ki dar muqobili ne'mate lozim oyad, ki na dar dunyo davlate az on azimtar boshad va na dar uqbo saodate az on chasimtar namoyad. Va in ma'ni chuz nustar bar aqviyoyi kuffor va istilo bar ag'niyoyi fuchchor, ki: «uloika humulkafaratul-fachara», dar bayoni amsoli eshon nozil ast, nahohad bud va dar nazari basorati arbobi albob ahsan az on saodate nahohad namud.

Alminnat-u lilloh, ki on saodati uzmo va mavhibati kubro ki minal-mahdi ilo hozal-ahd

¹ Bu forsicha «Farmon»ning qisqartilgan tarjimasini kitobning oxiriga ilova qilindi.

matlubi asli va maqsudi haqiqiyi zamiri xayrandesh va ra'yi savobkesh bud, dar in ay-yomi xuchasta farchom az mamkani avotifi haz-rati maliki allom ro'y namud. Fattohi beminnat va fayyozi beillat muchaddidan bamiftohi fathi abvobi fayz bar chehrai omoli navvobi nusrat maoli mo kushud. Asomiyi nomiyyi afnochi bo ibtihochi mo dar daftari g'uzzoti kiromy sabt gardid, va livoyi islom bo imdodi lashkariyoni zafar anchomi mo ba avchi rif'at va irtiqo rasid.

Kayfiyati suduri in saodat va zuhuri in dav-lat on ki chun ashi'ayi suyufi sipohi islompano-hi mo mamoliki Hindro ba lamaoti anvori fath va zafar munavvar soxt. Chunonchi dar fath-nomahoyi sobiq samti tahrir yofta bud, ayo-din tavfiq royoti zafar oyoti moro dar mamoliki Dehli va Ogra va Cho'npur va Xarid va Bahor va g'ayri zolika bar afroxt. Aksar tavoifi aqvom az as'hobi kufr va arbobi islom itoat va inqi-yodi navvobiyi farxunda farchomi moro ixtiyor namuda tariqi ubudiyatro ba qadami sidq va ixlos paymudand.

Ammo Rono Sango kofirki, dar savobiqi ay-yom dami itoati navvobiyi xuchasta anchomi mo mezad, aknun ba mazmuni: «abo va istakbara va kona minal-kofirin» amal namuda shayton-sifat sarkashida qoidi lashkari davron va sar-xayli sipohi mahchuron gashta, boisi ichtimoyi tavoif gardid, ki ba'ze tavki la'nati zunnor dar gardan doshtand va barxe xori mehnati irtidod dar doman va istiloyi on kofiri lain «xazalahu fi yavmid-din» dar viloyati Hind ba martabaye bud ki pesh az tuluyi aftobi dalati podshohy va

qabl az sutun nayyiri xilofati shahanshoi bo on ki rochaho va royoni buzurg nihod ki dar in muqotala itoati farmonash namudand va hokimon va peshvoyoni muttasif ba irtidod ki dar in muhoraba dar inonash budand, buzurgiyi xudro manzur doshta dar hech qitole mutobaat, bal muvoffaqati vay nakardaand, va dar hech musofarat tariqi musohabat va murofaqati o' nasupurdaand. Tomomi salotini rafi'i in xit-tayi vase', chun sultoni Dehli va sultoni Gucharot va sultoni Mondu va g'ayrihim az muqovamati on badsiyar muvofaqati kuffori digar ochiz budaand, ba latoiful-hiyal ba o' mudoro va muvoso menamudand. Livoyi kufr dar qarib divist shahr az bilodi islom afroxta bud va taxribi masjid va maobid namuda, ayol va atrofi mo'minoni on buldon va amsorro asir soxta va quvvati vay az qarori voqe' bachoye rasida ki nazar ba qoidayi mustamirrayi hindki, yak lak viloyatro sad suvor va kururero dah hazor suvor e'tibor mekunand, bilodi musaxxarayi on sarxayli kafara ba dah kurur rasida ki joyi yak lak suvor boshad. Dar in ayyom base az kuffori nomi ki hargiz dar hech ma'arakayi yake az islom imdodash namunamudaand, bino bar advati asokiri islomi bar lashkari shaqovat asari vay afzudand.

Chunonchi dah hokimi ba istiqlol, ki har yak chun dud da'viyi sarkashy menamudand va dar qutri az aqtori qoidi cham'i az kuffor budand, monandi ag'lol va salosil, badon kofiri fochir muttasil gashtand va on asharayi kafara, ki bar naqizi asharayi mubashshara, livoyi

shaqovat fazoyi «fabashshirhum bi azobin alim» meafroshtand, tavobe' va asokiri bis'yor va parganoti vasiul-aqtor doshtand.

Chunonchi: Salohiddin yey hazor suvor va Mendi Rov duvozdah suvor¹ viloyat dosht, va Roval Udy Sing Nogary duvozdah hazor suvor, va Hasanxon Mevoti duvozdah hazor suvor, Bormal Edri chahor hazor va Narpat Hora haft hazor, va Satrvy Kechi shash hazor va Derim Dev chohor hazor. Birsing Dev chahor hazor va Mahmudxon valadi Sulton Skandar agarchi viloyat va pargana nadosht, ammo dah xazor suvor taxminan ba umedvoriyi sardory cham' karda bud ki machmuyi cham'iyati on mahchuroni vodiya salomat va amniyat nazar ba qoidayi mustamirra pargana va viloyati Hind du lak-u yak hazor boshad.

Alqissa, on kofiri mag'ruri botin ko'r, zohiri dilhoi bo qasovati kuffori siyoh ruzgorro «Kazulmotin ba'zuho favqa ba'z» bo yakdigar muvofiq soxta, dar maqomi muxolafat va muhorabai ahli islom va hadmi asosi shariati sayyidul-anom alayhis-salotu vassalom daromad va muchohidoni asokiri podshoh monandi qazoyi ilohy bar sari on dachcholi a'var omada qaziya «Izo choal-qazbu amiyalbasar»ro manzuri nazari ba sirati as'hobi sirat gardonidand, va karimayi «Man chohada fa innamo yuchohidu linafsih» ro malhuz doshta hukmi vochibul-iz'oni «chohidul kuffora val-munofiqin» ro ba imzo rasonidand.

¹ L. b. – tushgan.

Ro'zi shanba sezdahmi shahri chumodis-sony 933 ki «borakallohu fi sabbatum» nishoni muboraki on ro'z ast, dar navohiyi mavziyi Konvo az muzofoti Biyona havoli ko'he ki du kuruhi a'doyi din bud mazribi xiyomi nusratanchomi lashkari islom gardid, chun kavkaba va dab-dabayi mavkibi islomy ba go'shti a'doyi din va kofirini lain rasid, muxolifoni millati Muhammady ki monandi «as'hobi fil» dar payi inhidomi ka'bayi ahli islom budand, filoni ko'h paykari ifrit manzarro e'tizodi xud soztand va hama muttafiq va yaqdil gashta lashkari shaqovat asari xudre favcho mepardoxtand:

*Ba on filho hinduvoni zalil
Shunda g'arra monandi «as'hobi fil»,
Chu shomi achal chumla makruh-u shum,
Siyahar zi shab, beshtar az nuchum,
Hama hamchu otash, valekin chu dud,
Kashida sar az kin ba charxi kabud,
Chu mo'r omdand az yamin-u yasor,
Suvor-u piyoda hazoron-hazor.*

Va ba azmi muqotala va korzor mutavachchihi o'rduyi nusratshior shudand, g'uzzoti asokiri islomy, ki ashchori riyozu shuchoatand, sanavbarsifat sofho kashidand va no'gi xo'di sanavbary hay'ati oftob shio'ro chun qulubi «muchohidini filloh» ba avchi irtifo' rasonidand, safe chun «Saddi Skandariy» ohanfom va binohe monandi tariqi shariati payg'ambary ba istiqomat va istihkom: matini quvvati matonatah «kannahum bun'yonun marsus» va faloh

va firuze ba muqtazoyi «uloika alo hudan min rabbihim va uloika humul-muflihun» bo aholni on sifati maxsus.

Qit'a:

*Dar on raxna ne az tibou vahim,
Chu ra'yi shahanshoh-u dini qavim.
Alamhoi o' farshi farsho hama,
Alifhoi «Inno fatahno» hama.*

Va rioyati hazmro manzur doshta ba tariqi g'uzzoti Rum chihati panohi tufakchiyon va ra'dandozon ki dar peshi sipoh budand, safe az aroba tartib namuda bo yak-digar ba zanchir ittisol doda chud.

Alqissa chuyushi islom chunon intizom va istehkome padid ovard, ki aqli pir va charxi asir mudabbir va murattibashro ofarin kard.

Dar in tartib va istehkom va tashyid va intizom muqarrabul-hazrati sultony e'timodud-davlotul-haqony Nizomuddin Ali Xalifadod sa'y va¹ ichtihod va hama tadbirrotash muvofiqi taqdir va chumla sardoriho va korguzorihoyi o' pisandidan ra'yi munir aftod.

Maqarri izzati podshohy dar g'ul muqarrar gasht va bar dasti rosti g'ul brodari aazzi arshadi archumandi saodat yor almuxtassu biavotifil-malikel-mustaon Chin Temur sulton farzandi aazzi arshadi manzuri anzori hazrati iloh Sulaymonshoh va chanobi hidoyat maobi viloyat intisob Xocha Kamoliddin Do'st Hovand va mo'tamaddus-saltanatul-aliya mo'tamanul-atabatus-saniya muqarrabi xos va zubdayi

¹ *L. b.* – tushgan.

as'hoobi ixtisos Kamoliddin Yunus Ali va umdatul-xavos komilul-ixlos Chaloliddin Shoh Mansur barlos va umdatul-xavos zubdayi as'hoobi itisos Nizomiddin Darvesh Muhammad sorbon va umdatul-xavos sodiqul ixlos Shihobiddin Abdullo kitobdor va Nizomiddin Do'st eshikoqo dar mahalli xud qaror giriftand.

Va bar dasti chapi g'ul saltanat maob, xilofat intisob, almuxtassu biavotifil-malikel-mustaon Sulton Alouddin Olamxon binni Sulton Bahlul Ludiy va muqarrabil-hazratis sultoniyy al-mushor-u ilayh va dasturi a'zamis-sudur baynal-anom malozil-chumhur va muayyidil islom Shayx Zayni Hofiy va umdatul-xavos komilul-ixlos Kamoliddin Muhib Ali valadi muqarrabi hazrati sultony mushorun ilayh va umdatul-xavos Nizomiddin Turdibek brodari Qo'ch Ahmadi marhum va umdatul-aozim val-a'yon xoni a'zam Orayishxon valadi Qo'chbeki marhumi mazkur va Sherafkan va dasturi aozimi vuzaro baynal umam Xocha Kamoliddin Husayn chamoayi devoniyoni izom har yak dar mavxie muqarrar istodand.

Va dar burong'or farzandi arshadi archumandi saodat yori komgor manzuri anzori inoyoti hazrati ofaridgor axtari burchi saltanat va komgori, mehri sipehri xilofat va shahriyori al-mamduh bilisonilabd val-hur muizzis-saltanat val xilofat Muhammad Humoyun Bahodur mutamakkin gashta: bar yamini saodat qarini al'aziz farzandi chanobi saltanat maob almuxtassu biavotifil-malikel-dayyon Qosim Husayn sulton va umdatul-xavos Nazomiddin

Ahmad Yusuf o'g'loqchi va mo'tamaddul-mulk komilul-ixlos Chaloliddin Hindubek qavchin va mo'amaddul-mulk sodiqul ixlos Chalolid-din Xisrav ko'kaltosh va mo'tamaddul-mulk qivombek O'rdushoh va umdatul-xavos komilul-aqida val-ixlos Vali Xozin Qaroqo'zy va umdatul-xavos Nizomiddin Pirquli Siystony va umdatul-vuzaro banal-umam Xocha Kamolid-din Pahlovon Badaxshy va mo'tamaddul-xavos Nizomiddin Abdushshukur va umdatul-a'yon Sulaymon oqo elchiyi Iroq va Husayn oqo elchi Siyston muqarrar gashta: bar yasori zafar disori farzandi komgori mushorun ilayh olichanobi sayodat maobi murtazavy intisob Mirhama va umdatul-xavos komilul-ixtisos Shamsiddin Muhammady ko'kaltosh va Nizomiddin Xochagi Asadi xondor ta'yin yoftand.

Va dar burong'or az umaroyi Hind umdatul-mulk Xonixonon Dilovarxon va umdatul-a'yon Malikdod Karony va umdatul-a'yon shayxul-mashoyix Shayx Go'ran – har yak dar maqome, ki farmon shuda bud, istodand.

Va dar chuvong'ori asokiri islom shior olichoh naqobatpanoh rifatdastgoh iftixori oli toho va yosin, qudvayi avlodi Sayyidul-mursalin Sayid Mahdi Xocha va brodari aazzi arshadi komgor manzuri anzori inoyoti hazrati ofaridgor Muhammad Sulton mirzo va saltanat maob xilofat intisob almuxtassu biavotifil-malikil-mustaon Odil Sulton binni Mahdi Sulton va mo'tamaddul-mulk komilul ixlos Muizziddin Abdulaziz miroxur va mo'tamaddul-mulk Shamsiddin Muhammad Ali chang-chang va umdatul-xa-

vos komilul-ixlos Chaloliddin Qutluqqadam qarovul va umdatul-xavos komilul-ixlos Chaloliddin Shoh Husayn Yorakiyi mo'g'uli g'onchi va Nizomiddin Chon Muhammadbek atka saf kashidand.

Va dar in chonib az umaroyi Hind natichatus-salotin Kamolxon va Chalolxon avlodi Sulton Alouddini mazkur va umdatul-a'yon Alixonni Shayxzodayi Farmuly va umdatul-a'yon Nizomxonni Biyona ta'yin shuda budand.

Va chihoti to'lg'ama mo'tamaddul-xavos komilul-ixlos Turdika va Malik Qosim brodari Bobo Qashqa bo cham'e az firqayi mo'g'ul dar chonibi burong'or: mo'tamaddul-xavos sodiqul-ixlos. Mo'min atka va mo'tamaddul-xavos Rustam turkman boshlig' bo chamoati az tobinoni xossa – dar tarafi chuvong'or nomzad shudand va umdatul-xavos komilul-ixlos zundayi as'hobi ixtisos Nizomiddin Sulton Muhammad baxshi a'yon va arkoni g'uzzoti islomro dar mavzu' va mahol muqarrari eshon doshta, xud ba istimoyi ahkomi mo mustaid bud va tavochiyon va yasovulonro ba atrof va chavonib irsol megardonid va ahkomi mutoayi moro dar zabt va rabti sipoh va sipohy ba salotini izom va umaroyi kirom va soiri g'uzzoti zavil-ehtiro m merasonid va chun arkoni lashkar koim gashta har kas ba choyi xud shitoft, farmoni vochibul-iz'oni lozimul-imtisol sharaf isdor yoft ki hech kas behukm az maholi xud harakat nanamoyad va beruxsat dast ba muhoraba nakushoyad va az ro'zi mazkur pose guzash-ta bud, ki fariqayni mutaqqobilayn mutaqqoribi

yak digar gashta, bun'yodi muqotala va korzor shud. Qalbayni askarayn monandi nur va zulmat dar barobari yak-digar istoda dar burong'or va chuvong'or chunon azim qitole voqe' shud ki zalzala dar zamin va valvala dar sipehri barin aftod. Chuvong'ori kuffori shaqovatosor va chanibi burong'ori maymanat disori asokiri islomshior mutavachchih gashta bar sari Xisrav ko'kaltosh va Malik Qosim brodari Bobo Qashqa hamla ovardand. Brodari aazzi arshad Chin Temur sulton hasbul farmuda ba ko'maki eshon rafta mardona qitole og'oz nihod va kufforroaz cho bardoshta qarib ba aqbi qalbi eshon rasonid va chuldu ba nomi on aziz brodar shud va nodirul-asry Mustafo Rummy az g'uli farzandi aazzi komgor manzuri nazari anzori inoyoti hazrati ofaridgor, almuxtassu bi avotifil-malikillazi yanho va ya'mur Muhammad Humoyun Bahodur arobahoro pesh ovarda sufufi sipohi kufforro ba tufak va zarbzan monandi qulubashon munkasir gardonid va dar ayni muhoraba brodari aazzi arshad Qosim Husayn sulton va umdatul-xavos Nizomiddin Ahmad Yusuf, Qivombek farmon yofta ba imdodi eshon shitoftand va chun zamon-zamon afvochi kuffor mutaoqib va tutavotir ba imdodi mardumi xud meomadand.

Mo niz mo'tamaddul-mulk Chaloliddin Hindubekro va az aqbi o' umdatul-xavos Muhammady ko'kaltosh va Xochagi Asadi Chondor va ba'd az on mo'tamaddus-saltanatul aliya mo'tamanul-atabatussaniya muqarrabi xos Kamoliddin Yunus Ali va umdatul-xavos komi-

lul-ixlos. Chalolidin Shoh Mansur barlos va umdatul-xavos Shihobiddin Abdullo kitobdor va az payi eshon umdatul-xavos Do'st eshikoqo va Shamsiddin Muhammad Xalil axtabegiro ba ko'mak ffristodem.

Va burong'ori kafara ba karrot va marrot hamlaho bar chonibi chuvong'ori lashkari islom ovardand va xudro ba g'uzzoti zunnachot rasonidand, va har navbat g'oziyoni izom ba'zero bazaxmi sihomi zafar-farchom ba dorulbavori yaslavnafo fa bi'sal-karor ffristoda, barxero bar gardonidand, va mo'tamaddul-xavos Mo'min atka va Rustam turkman ba chonibi aqbi sipohi zulmatdastgohi kuffori shaqovatpanoh tavachchuh namudand va mo'tamaddul-xavos sodiqul ixlos Xocha Mahmud Ali atka boshlig'i navkaron, muqarrabul-hazratu-sultony e'timodud-davlatul-hoqony Nizomuddin Ali Xalifaro ba ko'maki mushorun ilayx ffristodem va brodari aazzi arshad Muhammad Sul-ton mirzo va saltanatmaob Odil Sul-ton va mo'tamaddul-mulk Muizziddin Abdulaziz miroxo'r va Chalolidin Qutluqqadam qarovul va Shamsiddin Muhammad Ali changchang va umdatul-xavos Shoh Husayni Yorakiyi mo'g'uli g'onchi dast ba muhoraba kushoda poy mahkam kardand va dasturi aozimul-vuzaro baynal-umam Xocha Kamoliddin Husayn-ro bachamoayi devoniyon ba ko'maki eshon ffristodem. Hamayi ahli chihod dar rioyati chid va ichtihod rog'ibi muqotala omada karimayi «Qul hal tarabbasuna bino illo ihdal-husnayn»

ro manzur doshtand va azimati chonfishony karda livoyi chonsitochny afroshtand.

Va chun muhoraba va muqotala der kashid va ba tatvil anchomid, farmoni vochibul-iz'on ba nofiz rasid, ki az tobinoni xossayi podshohy chavononi changy va hizabroni beshayi yakrangy dar pasi aroba monandi sher dar zanchir budand, az rost va chapi g'ul berun oyand va choyi tufakchiyonro dar miyon guzorand va az har du chonib korzor namoyand. Az pasi aroba monandi tuluyi taliayi subhi sodiq az tutuqi ufuq berun toxtand va xuni shafaquni kufori nomaymunro dar ma'arakayi maydone, ki naziri sipehri gardon bud, rexta bis'oriy az sarhon serkashonro sitora sifat az falaki vuchud mahv soxtand va nodirul-asr Ustod Aliquli ki bo tavobiyi xud dar peshi g'ul istoda bud, mardonagiho karda va sanghoyi azimul-qadr ki chun dar pallayi mizoni a'molash nihand sohibash: «Faammo man saqulat mavozinuh-u fahuva fi ishatir-roziya» nom barorad va agar bar ko'hi rosix va chabali shomix andozand «kal-ihnil-manfush» az po dar orad, ba chonibi histori ohandisori safi kuffor andoxt va ba andoxtani sang va zarbzand va tufak bisyor az abniyayi achsomi kufforro munhadim soxt. Tufakandozoni g'uli podshohy hasabul-farmon az aroba ba miyoni ma'raka omada xar yaki az eshon bis'yore az kufforro zahri mamot chashonidand va piyoda dar mahalli muxotarayi azim daromada, nomi xudro dar miyoni sheroni besha va dalironi ma'arakayi chavonmardy zohir gardonidand.

Va muqorini in holat farmoni hazrati hoqony ba pesh rondani arobahoyi g'ul va nafoz rasid va yafsi nafisi podshohy fath va davlat az yamin-u iqbol va nusrat az yasor ba chano-bi sipohi kuffor mutahorrik gardid va az atrof va chavonib asokiri zafar manoqib in ma'niro mushohada namuda tamomiyyi bahri zaxxori lashkari nusratshior tamavvuchi azim barovard va shuchoati hamayi nahongoni on bahro az quvvat ba fe'l darovard va zilomi g'ubori g'imomkirdor chun sahobi muzlik dar tamomiyyi ma'raka mutarokim gasht va bariqi lamaoti suyuf dar on az lamaoni barq dar guzasht, taxayyuchi gard ro'yi u xurshidro chun pushti oina az nur ory kard, zorib ba mazrub, g'olib ba mag'lub omexta samti imtiyoz az nazar mutavory shud. Sohiri zamona chunon shabe dar nazar ovard ki sayyora dar on g'ayri tir nabud va kavokibi savobitash chuz mavokibi sobitul aqdom namenamud:

*Furo' raft-u bar raft ro'zi nabard,
Nami xun ba mohi-yu bar moh gard,
Zi summi suturon dar on pahn dasht,
Zamin shash shudu osmon gasht hasht.*

Muchohidoni g'ozi ki dar ayni sarandozy va chonbozy budand, az xotiri g'ayby navid: «va lo tahin-u va lo tahzan-u va antum a'lavna» meshunidand va az munhiyi lorayby mujdayi «Nasrun minallohi va fathun qarib va bashshirilmo'minin» istimo' menamudand. Chunon ba

shavq muhoraba mekardand, ki az qudeiyoni «Malayi a'lo» nidoyi tahsin ba-deshon merasid va maloyiki muqarrab parvonasifat bar girdi sari eshon megardid. Va mobaynas-salotayn noirayi qitol chunon ishtiol yoft ki mashoyili on alam bar aflok meafrosht va maymana va maysarayi lashkari islom maysara va maymanayi kuffori nofarchomro bo qalbashon dar yak mahal muchtame' gardonid.

Chun osori g'olibiyati muchohidoni nomy va irtifoysi livoyi islomiy zohir shudan girift, soate on kuffori lain va on ashrori bedin dar holi xud mutahayyir mondand va oxir dilho az chon barkanda bar chonibi rost va chapi g'ul hamla ovardand va dar chonibi chap beshtar huchum karda xudro nazdik rasonidand, ammo g'uzzoti shuchoat simot samari savobro manzur doshta niholi tir dar zamini sinayi har yak nishondand va hamaro chun baxti siyohi eshon bargardonidand. Qarini in hol nasoyimi nusrat va iqbol bar chamani davlati navvobiyi xuchasta maoliyi mo varzid va mujdayi «Inno fatohno laka fathan mubinan» rasonidand, shohidi fahx, ki chamoli olam oroyash ba turrayi «yansurakallohu nasran azizan» muzayyan gashta saodati iqbol ki dar sitri ixfo bud, yory namuda qarini hol gardid.

Hinduvoni botil holi xudro mushkil donista «kal-ihnil-manfush» mutafarriq shudand va: «kal-faroshil-mabsus» mutaloshiy gashtand, bis'yore kushta gashta dar ma'raka aftodand va kasire az sari xud dar guzashta sar dar

biyoboni ovoragy nihodand va to'man zog'-u zag'an gardidand va az kushta pushtaho afroxta shud va az sarho manoraho pardoxta gardid. Hasanaxoni Mevotyi ba zarbi tufak dar silki amvot daromada va hamchunin beshtari az on sarkashoni zalolat nishonro ki saromadoni qavm budand, tiyr va tufak rasida ro'zi hayot saromad.

Az chumla Roval Udy Sing Bogary, ki voli-yi viloyati Udaypur¹ buda va duvozdah hazor suvor doshta va Roy Chandarpon Chuhonki chahor hazor suvor doshta va Papat Rov valadi Salohiddini mazkur ki hokimi xittayi Chandry buda, shash hazor suvor doshta va Mnikchind Chuhon va Dilpat Rov ki sohibi chahor hazor suvor buda va Gang-u va Karmsing va Dangu-si ki sy hazor suvor doshta va cham'i digar ki har yake az eshon buzurg guruhe va sardori qotibayi zi shavkat va shukuhe budand, rohi do'zah paymudand va az in dori vahal ba darki asfal intiqol namudand, Rohi dorulharb az zaxmiyoni dar roh murda monandi chahannam pur shud va darkul-asfal az munofiqon chon ba moliki do'zax supurda mamlu gardid.

Az asokiri islomy har kas ba har chonib ki shitofy dar har gomi xud gomero kushta yofty va o'rduyi nomy az aqbi munhazimon har chand ko'ch namudy hech qadam az farsudayi muhtasham xoly nayofy.

*Hamma hinduvon kushta zor-u zalil,
Ba sangi tufak hamchu as'hobi fil,
Zi tanho base ko'hho shud ayon,*

¹ L. b. - Dungarpur.

*Ba har koʻh az on chashmayi xun ravon,
Zi sahmi sihomi safi purshukuh,
Guzoron gurezon ba har dasht-u koʻh.*

Val-lav alo abdorihim nufuran va kona am-rullohi qadaran maqduran. Fa nahmadullo-has-samiul-alim. Va man nasara illo min indil-lohil-azizil-hakim.

Tahriran fi bist panchumi shahri chu-modil-oxir sana 933.

* * *

Bu fathdin soʻngra «tugʻro»da «gʻoziy» bitildi. Fath-nomada tugʻroning ostida bu ruboiyni bitidim:

*Islom uchun ovorayi yozi boʻldum,
Kuffor-u hunud harbsozi boʻldum,
Jazm aylab edim oʻzni shahid oʻlmoqqa
Alminnatu lllahki gʻoziy boʻldum.*

Shayx Zayn bu fathqa «Fathi podshohi is-lom»¹ lafzini tarix topib, ruboiy aytib yiborib edi, – tavorud² voqe boʻlubtur. Ham Shayx Zayn va ham Mir Gisunning ruboiylaridin topqonlari yaxshiroq uchun oʻshul alfozni-oʻq kelturuldi. Yana bir qatla Diboldpurni fathida Shayx Zayn «vasati shahri rabiul-avval»³ ni tarix topib edi. Mir Gisu ham ushbu lafzni topib edi.

¹ Bu jumladagi (بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ) harflarni «abjad» hisobi bilan his-soblab chiqilsa, 933-hijriy yil chiqadi, milodiy yil hisobida 1527.

² Tavorud – ikki shoir sheʼrida biror bayt yoki misraning mazmunan yoki shaklan bir xilda chiqib qolishi.

³ Bu jumladagi (بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ) harflar «abjad» hisobida 930 chiqadi (milodiy 1524).

Yog'iyini bosib tushura-tushura tebraduk. Kofirning doirasi bizning o'rdudin ikki kuruh bo'lg'ay edi, o'rdusig'a yetib, Muhammadiy va Abdulaziz va Alixon va ba'zilarni kofir keynig'a quvg'unchi yiborildi. Bir nima kohilliq bo'ldi. Kishi umidiga qo'ymay, o'zum-o'q bormoq kerak edim. Bir kuruhcha kuffor doirasidin o'tub edim. Kun kech bo'lg'on jihatidin yonib, namozi xuftanda o'rdug'a kelildi.

Muhammad Sharif munajjimkim, ne nav' shumnafaslar surub edi, filhol muborakbodg'a keldi. G'alaba so'kub, ichimni xoli qildim. Agarchi kofirvash va shumnafas va o'ziga asru mag'rur va bisyor sard kishi edi, chun qidamiy xizmati bor edi, bir lak in'om qilib, ruxsat berdimkim, mening qalamravimda turmag'ay.

Tonglasi o'shul yurtta turuldi. Muhammad Ali jang-jangni va Shayx Go'ranni va Abdulmalik qo'rchini qalin favj bila Ilyosxonning ustiga yiborildikim, Miyoni duobda xuruj qilib, Ko'lni olib, Kichik Alini band qilib edi. Bular yetgan bila urusha olmas, buzulub har taraf parishon bo'lurlar. Men Ogra kelgandin bir necha kundin so'ng tutub kelturdilar, tiriklay terisini so'ydurdim. Ko'hbachchakim, o'rduning olida edikim, urush ushbu Ko'hbachchaning olida voqe bo'ldi, kufforning boshildin ushbu Ko'hbachchaning ustida kalla manora farmon bo'ldikim, qo'porg'aylar.

Bu yurttin ikki ko'chub, Biyona borildi. Biyonag'acha, balki Alvor va Mevotqacha ahli kuffor va ahli irtidodning jiyfasi benihoyat yetib edi. Men borib, Biyonani sayr qildim. O'rdug'a

kelib, turk va hind umarosini charlab, bu ko-firning viloyatining ustiga yururni mashvarat qilildi. Yoʻlda suyining ozi va issigʻining koʻpi jihatidin ul yurush mavquf boʻldi.

Mevot viloyate voqe boʻlubtur, Deqlining yovugʻida, taqriyban uch-toʻrt kururcha jamiʻyi bor. Hasanxon Mevotiy ota-otasidin beri yuz-ikki yuz yilga yaqin Mevotta istiqlol bila hukumat qila kelibturlar. Dehli salotinigʻa nimkora itoate qilurlar ekondur. Hind salotini viloyatlari kengligidin yo fursatlarining torligʻidin, yo Mevot viloyati kengligidin yo fursatlarining torligʻidin, yo Mevot viloyati koʻhison jihatidin evrushmay, bu viloyatning zabtining payigʻa tushmay, ushmuncha itoat bila alargʻa-oʻq musallam tutubturlar. Biz ham Hind fathidin soʻng salotini sobiq dasturi bila Hasanxongʻa rioyatni marʻiy tuttuk. Bu haq noshunos, kofirvash, mulhid bizning lutf va inoyatimizni koʻzga ilmay, tarbiyat va rioyatimizni shukrin qilmay, barcha fitnalargʻa ul muhrik va jamʻi yamonliklargaʻa ul bois edi, – nechukkim, mazkur boʻldi.

Chun ul yurush mavquf boʻldi. Mevot tas-xirigʻa mutavajjih boʻlduk. Ora toʻrt qoʻnub, Alvor qoʻrgʻoninikim, Mevotning hokimnishini, bu edi, olti kuruhida Monas suyining yoqasigʻa tushuldi. Hasanxondin burun, ota-otasi Tijorada oʻltururlar ekondur. Men Hindustongʻa evrushub, Pahorxonni bosib, Lohur, Dibolpurni olgʻon yili mening taraddudimdin dur andeshlik qilib, bu qoʻrgʻonning imoratigʻa mashgʻul boʻlgʻondur.

Hasanxonning Karmchand otliq muʻtabar kishisi oʻgʻli Ograda ekanda ham kelib edi,

o'g'lining qoshidin Alvordin kelib, amon tiladi. Abdurahim shig'ovulni anga qo'shub, istimolat farmonlari bila yiborildi. Borib, Hasanxonning o'g'li Nohirxonni olib keldi. Yana inoyat maqomida bo'lub, bir necha laklik pargana vajahig'a berildi.

Urushta Xisravni yaxshi ish qilibtur xayol qilib, vajhi istiqomatini ellik lak qilib, Alvorni aytili. Bedavlatlig'idin noz qilib olmadi. So'ngra xud ma'lum bo'ldikim, ishni Chin Temur Sulton qilg'on ekandur. Juldu Sulton otig'a bo'lub, Tijora shahrinikim, Mevotning poytaxtidur, inoyat qilib, vajhi istiqomatini ellik lak qilildi.

Turdig'akim, Sango urushida o'ng qo'l to'lg'amasida edi, o'zgalarga boqa yaxshi edi, vajahini o'n besh lak qilib, Alvor qo'rg'onini inoyat qilildi. Alvor qo'rg'onining xazoyinini ichidagilari bila Humoyung'a inoyat bo'ldi.

Ul yurttin chahorshanba kuni rajab oyining g'urrasida ko'chub, Alvorning ikki kuruhasida kelduk. Men borib, Alvor qo'rg'onini sayr qildim. Ul kecha anda-o'q bo'ldum. Tonglasi o'rdug'a keldim.

Kofir g'azitidin burunroq, nechukkim mazkur bo'ldi, ulug'-kichikka ont berurda, bu ham mazkur bo'lub edikim, bu fathdin so'ngra taklife yo'qtur. Har kim agar borur bo'lsa, ruxsat berilgay. Humoyunning navkarlari aksar Badaxshoniy va ul yuzluk ellar edi. Hargiz bir oychiliq, ikki oychiliq cherik tortqon emas edilar. Urushdin burun betoqatliqlari bor edi. Andoq va'da ham voqe bo'ldikim, Kobul ham xoli edi. Bu jihattin raylar munga qaror toptikim, Humoyung'a Kobulg'a ruxsat berilgay. So'zni

munga qo'yub, Alvordin panjshanba kuni rajib oyining to'qquzida ko'chub, to'rt-besh kuruh kelib Monas suyining yoqasig'a tushuldi. Mahdi Xojaning ham xeyli tashvishi bor edi, Kobulg'a ruxsat berildi. Biyonaning shaqdorlig'ini Do'st eshik oqag'a berildi. Burun chun Atovani Mahdi Xojag'a atalib edi, Qutbxonkim, Atovani tashlab, qochib chiqdi, Mahdi Xojaning o'rnig'a o'g'li Ja'far Xojani Atovag'a yiborildi. Humoyung'a ruxsat berur jihatdin ikki-uch kun bu yurtta turuldi. Ushbu yurttin Mu'min Ali tavochini fathnoma bila Kobulg'a yiborildi.

Piro'zpurning chashmasining va Kutilaning ulug' ko'lining ta'rifini eshilib edi, ham Humoyunni uzata va ham bu yerlarni sayr qila yakshanba kuni o'rduni o'shul yerda qo'yub, o'rdudin otlandim. Ul kuni Piro'zpur va chashmasini sayr qilib, ma'jun yeyildi. Chashma suyi kelur darada tamom kanir gullari ochilibtur, holi az safo, emas, agarchi ta'rif qilg'oncha emas. Ushbu daraning ichida har yerdakim, suv kengrak bo'lub edi, buyurdunkim, toshlarni tarosh qilib, dahi-dardah qilg'aylar.

Ul kecha o'shul darada bo'lub, tonglasib otlanib borib, Kutila ko'lini sayr qildim, har yoni tog'ning domanasi voqe bo'lubtur. Monas suyi bu ko'lg'a kirar emish, xeyli ulug' ko'l, bu yoqasidin ul yoqasini yaxshi ko'runmaydur. Ko'lning o'rtasida bir balande voqe bo'lubtur. Ko'lning atrofida kichik kemaginalar xeyli bor. Atrofdag'i kentlik el sho'r-u g'avg'oda bu kemalarga kirib o'zlarini qutqorurlar emish. Biz yetganda ham bir pora kishi kemaga kirib, ko'lning ichiga bordilar.

Ko'lni sayr qilib, kelib Humoyunning o'rdu-sig'a tushuldi. Anda istirohat qilib, taom yeb, mirzog'a va beklariga xil'atlar kiydurub, namozi xuftanda Humoyunni vido' qilib, o'tlanib, yo'lda bir yerda uyxulab, andin o'tlanib, tong otqonda Kuhriy parganasidan o'tub, yana andake uy-xulab, o'rdug'akim, To'dada tushub edi, kelildi.

To'dadin ko'chub, Sunkaroga tushg'anda Hasanson Mevotiyning o'g'li Nohirxonkim, Ab-dirahimg'a topshurulub edi, qochti. Mundik ora qo'nub, Busovar bila Jo'saning¹ oralig'idagi tog'ning tumshug'ida voqe bo'lg'on chashmag'a tushub, shomiyonalar tikturub, ma'jun irtikob qilduk. Cherik mundin o'tarda Turdibek Xoksor bu chashmani ta'rif qilib edi, kelib sari asbaki sayr qilib o'tulub edi, tavr chashma voqe bo'lub-tur. Hindustondakim, oqar suv hargiz bo'lmas, chashma xud ne tilar. Ahyonon chashma ham-kim bor, yerdin zax suyidek sizib chiqar. Ul yerning chashmalaridek qaynab chiqmas. Bu chashmaning suyi yarim tegirmon suyiga yo-vushur. Tog'ning domanasidin qaynab chiqadur, atrofi tamom o'lang, xeyli xush keldi. Buyurdumkim, bu chashmaning ustida sangi taroshida bila musamman havz qilg'aylar. Chashma yoqasida ma'junnoklikda Turdibek har zamon mubohot bila takror qiladur edikim: «Chun choye xush kardaam nome meboyad mond»² Abdullo dedikim, «Chashmayi podsho-hiyi Turdibek xushkarda» demok kerak. Bu so'zi xeyli boisi zihk va bashoshat bo'ldi.

¹ Q. b. – Xushaning.

² «Bu joyni yoqtirgan ekanman, nom qo'yish kerak».

Do'st eshik oqa Biyonadin bu chashma boshida kelib, mulozamat qildi. Bu yerdin yana borib, Biyonani sayr qilib, Sekriy kelib, buyurulg'an bog'ning yonida tushub, ikki kun turub, bog'ni ehtimom qilib, panjshanba sahari rajab oyining yigirma uchida Ograga keldim. Chandvor va Robiriyni nechukkim mazkur bo'ldi, muxoliflar bu g'avg'oda mutasarrif bo'lub edilar. Muhammad Ali jang-jangni, Turdibek Qo'chbekni, Abdulmalik qo'rchini va Husaynxonni daryoxoniylari bila Chandvor va Robiriy ustiga yiborildi. Chandvorg'a yovug' yetgach, ichidagi Qutbxonning kishisi xabar topib, qochib chiqar. Chandvorni iliklab Robiriyg'a o'tarlar. Husaynxon Nuhoniyning kishilari ko'cha bandta oz-og'loq urush xayoli bila kelurlar. Bular zo'rlab yetgach, to'xtay olmaslar, qocharlar. Husaynxon fil minib, bir necha kishisi bila daryog'a kirar. Bunda g'arq bo'lur. Bu xabarni eshitib, Qutbxon ham Atovani tashlab, oz kishisi bila qochib ketti.

Atovani chun avval Mahdi Xojag'a atalib edi, o'g'li Ja'far Xojani Mahdi Xoja o'rnig'a Atovag'a yiborildi, Sangoyi kofirning xurujida, nechukkim, mazkur bo'ldi, aksari Hindustoniy va afg'on evruladilar, tamomiy pargana viloyatg'a mutasarrif bo'ldilar.

Sulton Muhammad do'ldoykim, Qanujni tashlab kelib edi, qo'rqunchdin yo nomusdin Qanujg'a bormoqni qabul qilmay, Qanujning o'ttuz lakini Sahrindning o'n besh laki bila muovaza qildi. Kanujni Muhammad Sulton mirzog'a inoyat qilib, vajhni o'ttuz lak qilildi. Badounni Qosim Husayn Sultong'a berib, Muhammad Sulton mirzog'a qo'shub, yana

turk umarosidin Malik Qosim Bobo qashqani, og'a-ini va mo'g'ullari bila va Abul-Muhammad nayzabozni va Muayyadni otasi va Husaynixonni Daryoxoniylari bila va Sulton Muhammad do'ldoyning navkarlari bila, yana hind umarosidin Alixon Farmuliy va Malikkod Karoniy va Shayx Muhammad Shayx Nigoriy va Totorxon Xonijahonni Muhammad Sulton mirzog'a qo'shub, Bibanning ustigakim, Sangoyi kofirning g'avg'osida kelib Laknurni qabab, olib edi, yiborildi. Bu favj Gang daryosidin o'tar fursatta Biban xabar topib, partolin tashlab qochibtur. Bu favj so'ngicha Xayrobodqa borib, necha kun turub, andin yondilar.

Xizonani ulashilib erdi. Viloyat va parganotni ulashguncha kofir muhimmi oraga tushti. Kofir g'azvidin forig' bo'lg'och, viloyat va parganotni qismat qilildi. Chun pashkol yovug'lashib edi, muqarrar andoq bo'ldikim, har kim parganasiga borib, yarog'in qilib, pashkol o'ta hozir bo'lg'aylar.

Bu asnoda xabar keldikim, Humoyun Dehlig'a borib, Dehlidag'i xizonalardin bir necha uyni ochib, behukm mutasarrif bo'lubtur. Men andin hargiz mundoq ko'z tutmas edim. Ko'nglumga bisyor dushvor keldi. Durusht-durusht nasihatlar bitib, yibordim.

Panjshanba kuni sha'bon oyining o'n beshida Xojagiy Asadnikim, Iroqqa elchilikka borib, Sulaymon turkman bila kelib, edi, yana Sulaymong'a qo'shub, Shahzoda Tahmosbqa munosib savg'otlar bila elchilikka yiborildi.

Turdibek Xoksorkim darveshlikdin chiqarib, sipohi qilib edim, necha yil mulozamatta edi,

yana darveshliq dag'dag'asi g'olib bo'lub, ruksat tiladi. Ruksat berib, Komrong'a elchi yo'sunluq yiborildi. Uch lak xizona ham Komrong'a yiborildi. O'tgan yil borg'onlarning hasbi holig'a birgina qit'a aytilib edi. Mullo Alixonni muxotab qilib, ul qit'ani Turdibekdin Mullo Alixong'a yiborildi. Ul qit'a budur:

*Ey alarkim, bu Hind kishvaridin
Bordingiz anglab o'zga ranju alam,
Kobul-u xush havosini sog'inib,
Hinddin garm bordingiz ul dam,
Ko'rdingiz, toptingiz ekin anda
Ishrat-u aysh birla nozu niam.
Biz dag'i o'lmaduk, bihamdilloh,
Garchi ko'p ranj edi-yu behad g'am.
Hazzi¹ nafsi-yu mashaqqati badaniy,
Sizdin o'tti va o'tti bizdin ham.*

Bu ramazonni «Hasht bihisht» bog'ida o'tkarildi. Har tarovihni g'usl bila o'taldi. O'n bir yoshimdin beri ikki ramazon iydini payo-pay bir yerda qil'g'on emas edim. O'tgan ramazon iydi Ograda bo'lub edi. Bu qoida xalal topmasun deb, yakshanba salx oqshomi iyd qila Sekriyg'a borildi. Sekriyda solg'on «Bog'i fath»ning g'arbi-shimol tarafidag'i tosh sufa tayyor bo'lub edi. Ul sufa ustida oq uy tikib, anda iyd qilildi. Ogradin otlangon oxshomi Mir Ali qo'rchini Shoh Hasang'a Tattag'a yiborildi. Kanjafag'a² xeyli mayli bor edi, tilab edi. Kanjafa yiborildi.

Yakshanba kuni zilqa'da beshida sohibi uzr bo'ldum, o'n yetti kunga tortti.

¹ Q. b. – Xatari.

² Q. b. – Katjafa.

Odina mazkur oyning yigirma to'rtida Dulpur sayrig'a borildi. Kechasi yarim yo'lda bir yerda uyuxlab, sabohi Sulton Iskandarning bandig'a kelib tushtum. Bandtin quyiroq tog'ning tunganishida qizil imorat toshidin yakpora toshe tushubtur. Ustod Shoh Muhammad sangtaroshni kelturub, buyurdumkim, agar yakpora uy tarosh qilib bo'lur, xud yakpora qilsunlar. Agar past bo'lsa, imorat uchun hamvor qilg'on toshda yakpora havz qozg'aylar.

Dulpurdin Boriy sayrig'a borildi. Tonglasi Boriydin o'tlanib, Boriy bila Chanbal orasidagi tog'din o'tub, Chanbal daryosini sayr qilib yonildi. Ushbu oralig'dagi tog'da obnus yig'ochini ko'rduk. Mevasini tund deydurlar. Obnus yig'ochining oqi ham bo'lur emish. Bu tog'da aksar oq obnus edi. Boriydin borib, Sekriyni sayr qilib, chahorshanba kuni ushbu oyning yigirma to'qquzida Ograga kelduk.

Ushbu kunlarda Shayx Boyaziddin parishon xabarlar aytadurlar edi. Sulton Ali turkni yigirma kunluk miyod bila Shayx Boyazidqa yiborildi.

Odina kuni zil-hija oyining ikkisida qirq bir qatla o'qur virdni bunyod qildim. Ushbu ay-yomda bu baytimni:

Qadu xaddu soch-u belinimu de –
Qadu xaddu soch-u belinimu de –

besh yuz to'rt vaznda taqte qildim. Bu jihatdin risola tartib berildi. Bu kun yana sohibi uzr bo'ldum, to'qquz kunga tortti.

Panjshanba kuni zil-hijja oyining yigirma to'qquzida Ko'l va Sanbal sayrig'a o'tlanildi.

VAQOYEYI SANAYI ARBAA VA SALOSINA VA TIS'A MIA¹

Shanba kuni muharram oyining g'urrasida Ko'fga tushtuk. Darvesh Ali Yusufni Humoyun Sanbalda quyub edi. Qutb Servoniyni va bir pora rojalarni daryodin o'tub urushub, yaxshi bosibturlar. Qalin kishi o'lturub, bir pora bosh va bir fil yiboribtur. Ko'lda ekanda kelturdilar. Ikki kun Ko'lni sayr qilib, Shayx Go'ran istid'o qilg'on uchun, aning uyig'a tushtuk. Ziyofat qilib, peshkashlar tortti. Andin otlanib, O'truli tushuldi.

Chahorshanba Gang daryosidin o'tub, Sanbal kentlarida qo'nuldi.

Panjshanba kuni Sanbalg'a tushtuk. Ikki kun Sanbalni sayr qilib, shanba sahari Sanbaldin murojaat qilildi.

Yakshanba kuni Skandarada Rov Servoniyning uyiga tushtuk. Oshlar tortib, xizmatkorlik qildi. Andin subhdin burun otlanildi. Yo'lda bir bahona bila eldin ayrilib, chisolib Ograning bir kuruhig'acha yolg'uz keldim. El andin so'ng keyindin kelib qo'shuldi. Namozni peshin Ograga tushuldi.

Yakshanba kuni muxarram oyining o'n ol-tisida isittim, titradim, navbat-navbat bo'ldi. Yigirma besh-yigirma olti kunga tortti. Doruyi kor ichtim. Oxir basit yarashti, uyqusizlig' va tashnalig'din bisyor tashvish torttim. Bu maraz ayyomida uch-to'rt ruboiy aytili. Ul jumladin biri budur:

¹ To'qqiz yuz o'ttiz to'rtinchi (1527) yil voqealari.

*Jismimda isitma kunda mahkam bo'ladur,
Ko'zdin o'chadur uyqu, chu oxshom bo'ladur.
Har ikkalasi g'amim bila sabrimdek,
Borg'on sayi bu ortadur, ul kam bo'ladur.*

Shanba kuni safar oyining yigirma sekkizida Faxr Jahonbegim va Xadicha Sultonbegim – Amma begimlar keldilar. Kema bila borib, Skandaroboddin yuqqoroq mulozamat qildim.

Yakshanba kuni Ustod Aliquli ulug' qozon bila tosh otti. Agarchi toshi yiroq bordi, vale qozon pora-pora bo'ldi. Bir porasi jameni bosti. Bu jumladin sekkiz kishi o'ldi.

Dushanba kuni rabiul-avval oyining yettisi-da Sekriyni sayr qila otlandim. Ko'ning ichida buyurg'on musamman sufa tayyor bo'lub edi. Kema bila borib, shomiyona tikturub, ma'jun ixtiyor qilduk. Sekriy sayridin yonib kelib, dushanba oxshomi rabiul-avval oyining o'n to'rtida g'azo niyati bila Chanderiy azimatig'a safar qilib, uch kuruhcha yo'l kelib, Jalisirg'a tushuldi. Ikki kun el yaroq va iste'dod qilur uchun turub, panjshanba kuni ko'chub, Anvorg'a tushuldi. Anvordin kemaga kirib, Chandvordin chiqtuk. Andin ko'ch bar ko'ch yurub, dushanba kuni oyning yigirma sekkizida Kanor guzarida tushuldi.

Panjshanba kuni rabiul-oxir oyining ikkisida men daryodin o'ttum. To'rt-besh kun ul yuzda-bu yuzda cherik eli o'tguncha maks bo'ldi. Bu necha kunda payonay kemada o'lturub, ma'jun yeyildi. Chanbal daryosining qotilishi Kanor guzaridin bir-ikki kuruh, yuqqorroq-

tur, odina kuni Chambal daryosida kemada o'lturub, qotilishidin o'tub, o'rdu kelildi.

Agarchi Shayx Boyaziddin sarih muxolafat voqe bo'lmaydur edi, vale harakot va af'olidin yaqin bo'lub edikim, muxolafat doiyasi bor. Bu maslahatqa Muhammad Ali jang-jangni cherikdin ayirib yiborildikim, Qanujdin Muhammad Sulton mirzo va ul nanohidag'i salotin va umaro misli, Qosim Husayn Sulton, Bihub¹ Sulton, Malik Qosim Qo'liy², Abul-Muhammad nayzaboz, Minuchehraxon og'a-inisi Daryoxoniylari bila jam'iyat qilib, Sirvordag'i muxolif afg'onlar ustiga yurug'aylar. Shayx Boyazidni tilag'aylar, agar e'tiqod bila kelib qo'shulsa, bila yurug'aylar. Agar kelmasa, avval aning dafini qilg'aylar. Muhammad Ali bir necha fil tiladi, o'ncha fil berildi. Muhammad Alig'a ruxsat, bergandin so'ng Bobocho'hrag'a ham farmon bo'ldikim, borib, bularg'a qo'shulg'ay. Qanordin bir ko'ch kema bila kelildi.

Chahorshanba kuni rabiul-oxir oyining sekizida Kolpiyning bir kuruhida tushuldi. Bobo Sulton Sulton Saidxonning tuqqon inisi Sulton Xalil Sultonning o'g'li bu yurtta kelib, mulozamat qildi. O'tgan yil og'asidin qochib kelib, Andarob hadidin yana pushaymon bo'lub, yonib, Qoshg'arning yovug'ig'a yetganda xon Haydar mirzoni o'trusig'a yiborib, yondurubtur.

Tonglasi Kolpiyda Olamxonning uyig'a tushuldi. Hinduston tariyqi bila osh va taom tortib, peshkash qildi.

¹ Q. b. – Temur. Bihib.

² Q. b. – Ko'qiy.

Dushanba kuni o'ying o'n uchida Kolpiydin ko'chuldi. Odina kuni Erijg'a tushtuk. Shanba kuni Boyazidg'a tushuldi.

Yakshanba kuni o'ying o'n to'qqizida olti-yetti ming kishini Chin Temur Sultong'a boshlatib, Chandiriy ustiga o'zumizdin ilgarroq yiborildi. Borg'on ilg'or beklari: Boqi mingbegi, Turdibek Qo'chbek, Oshiq bakovul, Mullo Opoq, Muhsin do'ldoy, Hinduston beklaridin: Shayx Go'ran.

Odina kuni o'ying yigirma to'rtida Kachvaning yaqiniga tushuldi. Kachva eliga istimolat berib, Kachvani Badriddinning o'g'lig'a berildi.

Kachva tavg'ina yerdur. Atrofida kichikrak-kichikrak tog'qinalar tushubtur. Kachvaning sharq janubidagi tog'ining orasida band solib-turlar, ulug' ko'l bo'lubtur, girdo-girdi besh-olti kuruh bo'lg'ay. Bu ko'l Kachvaning uch tarafini ihota qilibtur. G'arbi shimol tarafida andak yer quruqturkim, darvozasi o'shul tarafdur. Bu ko'lning ichida kichikkina kemalar bor, uch-to'rt kishi siqquncha, har qachon qocharlari bo'lca kemalarga kirib, suvning ichiga kirarlar. Kachvag'a yetguncha yana ikki yerda ushmun-doq tog' orasida band solib, ko'llar qilibturlar. Kachva ko'lidan kichikrak.

Kachvada bir kun turub, jald muhassillar va qalin beldorlarni tayin qilildikim, yo'lning chaqir-chuqurini rost qilib, jangallarni kesgay-larkim, arobalar va qozon betashvish o'tgay. Kachva bila Chandiriy orasi jangalliq yer voqe bo'lubtur.

Kachvadin ora qo'nub, Chandiriyning uch kuruhida Burhonpur suyini o'tub tushtuk.

Chandiriyning arki tog' ustida tushubtur. Tosh qo'rg'oni va shahri tog' orasida voqe bo'lubtur. Hamvor yo'likim, aroba yurur, qo'rg'onining tubidin o'tar. Burhonpurdin ko'chub, aroba maslahatig'a bir kuruq Chandiriydin quyiroqdin yuruldi.

Orada qo'nub, seshanba kuni oyning yigirma sekkizida Bahjatxonning havzining yoqasida band ustida tushtum. Tonglasig'a otlanib, buljor-buljor qo'rg'onning girdo-girdining g'ul va burong'or va juvong'org'a qismat qilildi. Ustod Aliquli tosh otar uchun bir bog'da yassi yerni ixtiyor qildi. Muhassillar va beldorlar tayin bo'ldikim, qozon qurari uchun buljor qo'parg'aylar. Jami' cherik elige farmon bo'ldikim, to'ra va shotu va navkari to'ranikim, qal'agirlik asbo-bidur, tayyor qilg'aylar.

Chandiriy burun Mandov podshohlarig'a taalluq ekandur, Sulton Nosiriddin o'lganidin so'ng bir o'g'li Sulton Mahmudkim, holo Mandovdadur, Mandovg'a va ul navohig'a mutasar-rif bo'lur. Yana bir o'g'li Muhammadshoh otliq Chandiriyini iliklab, Sulton Iskandarg'a iltijo kelturur. Sulton Iskandar ham qalin cheriklar yiborib, aning homisi bo'lur, Sulton Iskandardin so'ng Sulton Ibrohimning zamonida Muhammadshoho'ar, Ahmadshoh otliq kichikkina o'g'li qolur. Sulton Ibrohim Ahmadshohni¹ chiqarib, o'z kishisini qo'yar, Rono Sango Ibrohimning ustiga cherik tortib, Do'lpur kelganda beklari muxolafat qilurlar. O'shub fursatta Chandiriy Sangoning iligig'a tushar. Mindniy Rov ot-

¹ L. b. – Muhammadshoh.

liq ulug' mu'tabar kofirg'a berur. Bu fursatta to'rt-besh ming kofir bila Mindniy Rov Chandiriy qo'rg'onida edi. Oroyishxonning oshnolig'i bor ekondur. Oroyishxon bila Shayx Go'ranni yiborib, inoyat va shafqat so'zlari aytildi. Chandiriyning mubodalasiga Shamsobodni va'da qilildi. Bir-ikki e'tiborliq kishisi chiqti. Bilmon, e'timod qilmadimu, yo qo'rg'onig'a ishondimu, – isloh ishi somon topmadi.

Chandiriy qo'rg'onig'a zo'rlamoq azimati bila seshanba sabohi jumodil-avval oyining oltisida Bahjatxonning havzidin ko'chub, qo'rg'onning yaqinidag'i o'rta havzaning yoqosida tushuldi. Ushbu saboh keladurganda Xalifa bir-ikki xat olib keldi. Mazmuni bukim, Purabg'a¹ tayin bo'lg'on cherik behisob borib, urushub, shikasg topibturlar. Laknavni tashlab, Qanujg'a kelibturlar. Ko'rdumkim, bu jihattin Xalifa bisyor mutaraddid va purdag'dag'a.

Men dedimkim: «Taraddud va dag'dag'a be-vajh ast, harchi taqdiri xudost, g'ayri on name-shavad. Chun in kor dar pesh ast, azin maqula dam nameboyad zad fardo ba qal'a zo'r avarem. Ba'd az on harchi ro'y dihad bubinem».²

Bular xud arkni berkitgan ekandurlar. Tosh qo'rg'onida baroyi maslahat birinikkin kishi yurur ekandur. Bu oxshom har tarafdin cherik eli tosh qo'rg'onig'a chiqtilar. Oz-og'loq kishisi

¹ L. b. – Puran.

² «Tashvishlanish, hovliqish vajsizdir. Xudoning taqdiri nima bo'lsa, shundan boshqasi bo'lmaydi. Bu ish oldinda bo'lgani uchun, bu to'g'rida hech narsa demaslik kerak. Indinga qal'aga zo'r urib ko'ramiz. Shundan keyin nima yuz bersa, ko'rarmiz».

bor edi, chapdon urush ham bo'lmadi. Qochib arkka chiqtilar.

Chahorshanba sabohi jumodil-avval oyi-ning yettisida cherik eliga farmon bo'ldikim, yarog'lanib, buljorlik buljoriga borib, urush angizi qilg'aylar. Men naqora va alam bila otlang'och, to'shluq-to'shidin zo'r kelturgaylar. Urush qizig'uncha naqora va alamni mavquf qilib, o'zum ustod Aliqulining tosh otarini tafarruj ko'ra bordim. Uch-to'rt tosh otti. Chun yeri bog'daysiz va fasili asru mustahkam va tamom toshdin edi, korgar kelmadi.

Mazkur bo'lub edikim, Chandiriyning arki tog' ustida voqe bo'lubtur, bir tarafida suv jihatidin dutahi qilibturlar. Bu dutahining fasili tog'din quyidur, bir zo'r kelturur yer bu yerdur. G'ulning o'ng qo'li va so'l qo'li va xossa tobig'a bu yer buljar tegib edi. Har tarafdin urush soldilar. Bu yerdin ko'prak zo'r kelturdilar. Yuqqoridin kuffor har necha tosh ottilar, o't yondurub soldilar, bu yigitlar yonmadilar. Oxir tosh qo'rg'onning fasili bu dutahining fasilig'a yetgan yerdin Shohim yuzbegi chiqti, yana ikki-uch yerdin ham yigitlar tormoshib chiqtilar. Dutahidagi kofirlar qocha berdilar, dutahi olildi.

Yuqqoridagi qo'rg'onda muncha ham urushmadilar, bot qochtilar. G'alaba kishi tormoshib, yuqqorig'i qo'rg'onga chiqtilar. Andak fursattin so'ngra kofirlar tamom yalang'och bo'lub kelib, urusha kirishtilar. G'alaba elni qochurub, fasilidin uchurdilar. Bir necha kishini chopqulab, zoye qildilar. Fasilning ustidan bot borg'onlarining jihati bu ekandurkim, oldururlarini jazm

qilib, xotunlarini¹ tamom chopqulab, o'lturub, o'zlariga o'lumni ko'rub, yalang'och bo'lub, urushqa kelmishlar. Oxir tush-tushdin zo'r qilib, fasil ustidin qochurdilar. Ikki yuz-uch yuz kofir Mindniy Rovning havolisiga kirdi. Ushbu havolida aksar o'zlari bir-birlarini o'lturubtur. Andoqqim, birisi bir qilichni olib turubtur, o'zgalari birar-birar rag'bat bila bo'yunlarini uzotib turubtur. Aksar bu dastur bila do'zahqa bordi.

Tengri inoyati bila mundoq nomdor qo'rg'on alam va naqorani kelturmay, bajid urush solmay-o'q kiryida fath bo'ldi. Chandiriyning g'arbi-shimol tarafidagi tog'ning ustida kufforning boshidin kalla manora qo'porildi. Bu fathning tarixiga «fathi dorul-harb» lafziga tarix topib edilar. Men mundoq bog'ladim:

*Bud chande maqomi Chandiriy
Pur zi kuffor-u dorul-harb.
Fath kardam ba harb qal'ayi o',
Gasht tarix «Fathi dorul-harb».*²

Chandiriy tavre viloyat voqe bo'lubtur. Atrof va navohiysida oqar suv xeyli bor. Arki tog'ning ustida tushubtur, ichida toshdin ulug' havz qozibturlar. Yana bir ulug' havz ushbu dutahida edikim, o'shul yerdin zo'rlab olildi. Vaze

¹ London bosmasida «xotunlarini» so'zidan keyin (صورتیلا دین) so'zi bor, bu aniqlanmadi.

² Mazmuni: «Chandiriy ko'pdan buyon kofirlar bilan to'lgan «dorul-harb» edi. Uning qal'asini urushib qo'lga kiritdim, «fathi dorul-harb» bunga tarix bo'ldi». (Bu tarix «abjad» hisobida 934-h. y bo'ladi, milodiy bilan 1527-yil).

va sharifning imorati tamom toshdin, ulug'larining imoratlarini takalluf bila taroshida toshdin qilibturlar Rezapoy elining imorati ham toshdin, g'oyatash taroshida emas. Po'shishi safol o'rnig'a taxta sanglar bila qilibturlar. Qo'rg'onining olida uch ulug' havzdur. Atrof va javonibida burungi hukkom bandlar solib, havzlar qilibturlar. Yeri baland voqe bo'lubtur. Bitviy deb bir daryochasi bor. Chandiriydin uch kuruh bo'lg'ay. Hindustonda Bitviy suyi xo'bluq va xush ta'mliq bila mashhurdur, tavr daryog'ina voqe bo'lubtur. O'rtasida parcha-parcha qiyolar tushubtur, imorat qilmoqqa munosib. Ogradin Chandiriy janubg'a boqa to'qson kuruh yo'ldur. Chandiriyda judayning irtifoyi yigirma besh darajadur.

Tonglasi panjshanba kuni qo'rg'on girdidin ko'chub, Malluxonining havzining yoqasig'a tushuldi. Bu niyat bila kelilib edikim. Chandiriy fathidin so'ng Roy Sing va Bihilston va Sorangpur ustigakim, kuffor viloyatidur, Salohiddin kofirg'a taalluq edi, yurulgay. Bularni olib, Sangoning ustiga Cheturg'a yurulgay. Chun mundoq parishon xabar keldi, beklar ni charlab, mashvarat qilib, bu mufattin va yog'ylarning sho'r va fitnasining daf'ig'a mutavajjih bo'lmoq ansab va avlo ko'rundi.

Chandiriyni Ahmadshoh mazkurg'akim, Sulton Nosiriddinning nabirasi bo'lg'ay, berildi. Chandiriydin ellik lak xolisa qilib, shaqdorlig'ini Mullo Opoqg'a uhda qilib, ikki-uch ming turk va hindustoniylar bila Ahmadshohqa ko'mak qo'yuldi.

Bu ishlarga somon borib, yakshanba kuni jumodil-avval oyining o'n birida murojaat azimati

bila Malluxonning havzidin ko'chub, Burhonpur suyining yoqasig'a tushtuk.

Yakshanbehiyg'a Bondirdin Yakka Xoja bila Ja'farxojani yiborildikim, Kolpiy kemalarini Kanor guzarig'a kelturgaylar.

Yakshanba¹ kuni oyning yigirma to'rtida Kanor g'uzarig'a tushub, farmon bo'ldikim, cherik eli o'ta qirishgaylar. Bu kunlarda xabar keldikim, ilg'or borg'onlar Qanujni ham tashlab, Robiriyg'a kelibturlar. Shamsobod qo'rg'onini Abul-Muhammad nayzaboz borkitgan ekandur. Qalin kishi kelib, Shamsobod qo'rg'onini zo'rlab olibturlar. Uch-to'rt kun cherik daryodin kechguncha ul yuzda-bu yuzda maks bo'ldi, Daryodin o'tub, ko'chbarko'ch Qanuj sori yurub, qazoq yigitlarni muxoliflardin xabar olg'ali ilgari ayirduk. Qanujg'a ikki-uch ko'ch qola xabar kelturdilarkim, bu til tuta borg'onlarning qorasini ko'rub, Qanujdin Ma'rufning o'g'li qochib chiqibtur. Biban va Boyazid va Ma'ruf bizning xabarimizni topib, Gangdin o'tub, Qanuj to'g'risi Gangning sharqiy tarafiga guzarbandliq xayoli bila o'lturubturlar.

Panjshanba kuni jumodil-oxir oyining oltisida Qanujdin o'tub, Gang yoqasida g'arbiy tarafida tushuldi. Bizning yigitlar borib, muxoliflarning bir necha kemasini zo'rlab oldilar. Yuqoridin-quyidin ulug'-kichik o'ttuz-qirq kema kelturdilar. Mir Muhammad jolabonni yiborildikim, ko'pruk solmoqg'a munosib yer ko'rub, ko'pruk asbobini mavjud qilg'ay.

¹ Q. b. - shanba.

O'rdi tushgandin bir kuruhcha quyiroyq yer xushlab keldi. Jald muhassillar tayin qilildi. Ko'pruk solur yerning yovug'ida Ustod Aliquli qozon qurub, tosh otmog' uchun yer xushlab, tosh otmoqqa ishtig'ol ko'rsatti. Ko'pruk bog'lar yerdin quyiroyq Mustafo Rumiyy zarbzaniq arobalarini bir arogl'a kechurub, aroldin zarbzaniq ota kirishti. Ko'prukdin yuqqori mo'ljari qo'porilib edi. Tufakandozlar mo'ljari ustidin yaxshi tufaklar ottilar. Bir-ikki navbat Malik Qosim mo'g'ul va ba'zi yigitlar kema bila kechib oz-oz kishi yaxshilar urushtilar.

Bobo Sulton va Darvesh o'n-o'n besh kishi bila ushbu dalirliq bila behisob bir namozi shom kema bila o'tub, urush yo'q, nima yo'q, yana yonib keldilar. Bu o'tushlarini xeyli malomat qilildi. Oxir dalir bo'lub, oz kishi bila Malik Qosim yog'lyni doirasig'a urub otqulab, sig'indurdi. Muholiflar qalin kishi bir fil bila kelib, zo'rladilar. Bularni tebrattilar. Kemaga kirib, kemani yurutguncha fil yetib, kemani g'arq qildi. Malik Qosim ul urushta o'ldi. Bu necha kun ko'pruk bog'lag'uncha Ustod Aliquli yaxshilar tosh otti. Avvalgi kun sekkiz tosh otti, ikkinchi kun o'n olti tosh otti. Uch-to'rt kun ush-mundoq tosh otti. Bu toshlarni «G'oziy qozoni» bila otti. Bu qozon ul qozon edikim, Sangoyi kofirning urushida tosh otib edi. Ul jihattin g'oziyg'a mavsum bo'lub edi. Yana bir ulug'roq qozon quyub edi, bir-o'q tosh otti, qozon sindi. Tufakandozlar ham qalin tufak ottilar. G'alaba

kishini va otni tufak bila yumalattilar. Nufur qo'llardin ham korgar bila rahrav kishi va ot o'ttilar¹.

Ko'pruk ishi yovug' yetgach, chahorshanba kuni jumodil-oxir oyining o'n to'qqizida ko'chub, ko'pruk ustiga kelduk. Afg'onlar ko'pruk bog'lamoqni istib'od qilib, tamasxur qilurlar ekandur. Panjshanba kuni ko'pruk tayyor bo'ldi. Oz-og'loq yayoq va Lohuriy o'tub, ozroqcha urush bo'ldi.

Odina kuni g'uldin xossa tobin va o'ng qo'l va so'l qo'l yigitlari va tufakandozlar yayoq o'ttilar. Afg'onlar tamom yarog'lanib o'tlanib fillari bila kelib, zo'r kelturdilar. Bir dast so'l qo'l kishisini tebrattilar. G'ul kishisi va o'ng qo'l kishisi to'xtab urub, g'animlarni yondurdilar. Ikki kishisi qalinidin tezroq ayrilib choptilar. Biri-sini o'shonda-o'q tushurub olib keldilar. Yana birining otini va o'zini qalin urdilar. Oti tuylab yonib, o'z elining orasida yiqildi. O'shul kuni yetti-sekkiz bosh kelturdilar. Qalin kishisiga o'q yarasi va tufak yarasi bo'ldi. Kech namozi digarg'acha urush edi.

Kecha tamom o'tganlarni yondurildi. Agar ushbu shanba oxshomi kishi o'tkarilsa edi, ehtimoli bor edikim, aksari ilikka tushgay edi, vale xotirg'a bu yettikim, o'tgan yil seshanba kuni navro'z kuni Sekriydin Sango urushi azimati bila ko'chub, shanba kuni yog'iyini bos-

¹ *L. b. da:* – (نفر قورلاردىن مەم كاركا بىلە رەردووا كەشپ و آتە ابتىلار)

Q. b. da: (نفر قورلاردىن مەم كارگر بىلە رەردووا كەشپ و آتە اسلار)

(Bu jumlaning mazmuni ochilmagani uchun har ikki nusxaning shakli berildi).

tuk. Bu yil chahorshanba kuni navro'z kuni bu yog'ylarning urushi azimati bila ko'chtuk. Yakshanba kuni g'animg'a zafar topsoq g'aroyib voqeotedindur. Bu jihatdin kishi o'tkarilmadi.

Shanba kuni urushg'a kelmadilar, yiroqdin yasob turdilar. Ushbu kun arobalarni o'tkarildi. Ushbu sahar farmon bo'ldikim, el o'tgay. Naqora vaqtida qarovuldin xabar keldikim, g'anim kishisi qochib ketibtur.

Chin Temur Sultong'a hukm bo'ldikim, cherikni boshlab¹, g'animni qavlag'ay. Muhammad Ali jang-jang, Hisomiddin Ali xalifa, Muhib Ali xalifa, Ko'ki Bobo qashqa, Do'st Muhammad Bobo qashqa, Boqi Toshkandiy, Vali Qizil boshliqlarni qovg'unchi tayin qilildikim, Sulton bila bo'tub, Sultonning so'zidin chiqmagaylar. Sunnat vaqti men ham o'ttum. Tevani hukm bo'ldi, quyiroq ko'ruigan guzar bila o'tgay.

Ul kun yakshanba kuni Bangarmovning bir kuruhida Qorasuv yoqasiga tushuldi. Qovg'unchig'a tayin bo'lg'onlar yaxshi yurumaydurlar, Bangarmovda tushgan ekandurlar. Ushbu namozi peshin Bangarmovdin tebraturlar. Tonglasi Bangarmovning olidagi ko'lning yoqasig'a tushuldi.

Ushbu kun To'xta Bug'a sulton, kichik xon dodamning o'g'li, kelib manga mulozamat qildi.

Shanba kuni jumodil-oxir oyining yigirma to'qquzida Laknavni sayr qilib kelib, Ko'y suyidin o'tub tushuldi. Ushbu kun Ko'y suyida g'usl qildim. Bilmon, qulog'img'a suv kirdimu, yo havo ta'siridin bo'ldimu, o'ng qulog'im tutti, vale bir necha kun xeyli og'rig'i yo'q edi.

¹ L. b. - tashlab.

Udg'a bir-ikki ko'ch qola Chin Temur Sulton-din kishi keldikim, g'anim Saru daryosining ul yuzida o'turubtur, ko'mak yiborsunlar. Qazoq boshliq mingqa chog'liq yigitni g'ul kishisidin ko'mak ayirduk.

Shanba kuni rajab oyining yettisida Udtin ikki-uch kuruh yuqqoroq Gagar bila Saruning qotilishida tushuldi.

Ushbu kungacha Ud to'g'risida Saruning nari yuzida Shayx Boyazid bor ekandur. Xat yiborib, Sulton bila so'zlashadur ekandur. Aning hiyalini Sulton ma'lum qilib, namozi peshin Qarochaga kishi yiborib, daryo kechmak bo'lurlar. Qarocha Sultong'a qo'shulg'och betavaqquf suvdin o'tarlar. Ellikcha otlig'i uch-to'rt fil bila bor ekandur, turush berolmay, qocharlar. Bir necha kishi tushurub, bosh kesib yibordilar. Behub Sulton va Turdibek va Bobocho'qra, Qo'chbek, Boqi shig'ovol Sultondin so'ngra kecharlar. Bulardin burunroq burno kechganlar. Shayx Boyazidni namozi shomg'acha qovlarlar. Shayx Boyazid o'zini jangalg'a solib qutulur, Chin Temur Sulton kecha Qora suv yoqasig'a tushub, yarim kecha otlanib, yog'iy keyinicha surarlar. Qirq kuruhcha yo'l borib, ko'ch va sabihisi¹ bo'lg'on yerga yetarlar. Alar qochqon ekandurlar. Bu yerdin chopqunchi har tarafg'a ayrilur. Boqi shig'ovul bir necha yigit bila yog'iyning keyinicha surub, ko'ch va sabiqisig'a yetib, afg'onlarning yasirini kelturdilar.

Bir necha kun Udning va bu navohining zabt va rabti uchun bu yurtta tavaqquf bo'ldi. Udtin

¹ L. b. – bashi.

yetti-sakkiz kuruh yuqori Saru daryosining yoqasini ovloq yer, deb ta'rif qildilar. Mir Muhammad jolabonni yiborildi. Gagar suyining va Saru suyining guzarini ko'rub keldi. Panjshanba kuni oyning o'n ikkisida ovlamoq xayoli bila otlandim.

VAQOYEYI SANAYI XAMSA VA SALOSINA VA TIS'A MIA¹

Odina kuni muharram oyining uchida Askariynikim, Chandiriy yurushidin burun-roq Multon maslahatig'a tilab edim, kelib, xilvatxonada mulozamat qildi. Tonglasi Xondamir muarrix va Mavloni Shihob muammoyi va Mir Ibrohim qonuniy Yunus Alining qarobatikim, muddati madid edikim, mulozamat doiyasi bila Hiriyydin chiqib edilar, kelib mulozamat qildilar.

Yakshanba namozi digari oyning beshida Guvalyor sayri doiyasi bilakim, kitoblarda Golyur² bitirlar, Jo'ndin kechib, Ogra qal'asig'a kirif Faxrijahonbegim bila Xadicha sultonbegim bilakim, o'shul ikki-uch kunda Kobulg'a azimat qilmoqchi edilar, hayrbod qilib, otlandim. Muhammad Zamon mirzo ruxsat tilab, Ograda qoldi. O'shul kecha uch-to'rt kuruh yo'l yurub, ulug' bir ko'l yoqasida tushub, o'y quvladuk. Namozni ertarak o'tab, otlanduk. Gambir suyining yoqasida tushlanib, namozi peshin andin otlanib yo'lda Mullo Rafe yasag'on safufni kayfiyat uchun tolqon bila cholib ichtuk. Bisyor badxo'r va bemaza keldi.

Kech namozi digar Do'lpurning bir kuruhida g'arb sori bog' va imoratig'akim, buyurulub edi, kelib tushtum. Bu bog' va imorat buyurg'on bir tog'ning tumshug'ining tuganishi voqe bo'lubtur. Bu tog' tuganishi tumshuq yakpora qizil imorat toshidindur. Muni buyurub, edimkim, bu tog'ni qozib, yerga yer tekurgaylar. Agar yak-

¹ To'qqiz yuz o'ttiz beshinchi (1528) yil voqealari.

² Q. b. - Kolpur.

pora toshdin oncha baland qolsakim, yakpora toshdin imorat taroshlasa bo'lg'ay, hud imorat tarosh qilg'aylar. Agar oncha baland qolmasa, buyakpora toshdin hamvor bo'lg'on sahnada havz qozilg'ay. Oncha baland tog' qolmaydurkim, yakpora toshdin imorat bo'lg'ay. Ustod Shoh Muhammad sangtaroshqa buyuruldikim, bir kallador musamman havz bu yakpora sahn bo'lg'on toshning ustida tarh qildi. Hukm bo'ldi: sangtaroshlar bajid mashg'ul bo'lg'aylar.

Bu yakpora toshdin havz buyurg'on yerning shimoli qalin daraxtlardur: anba va jomin va har nav' daraxttin. Bu daraxtlarning orasida bir dahi dardah chohe buyurub edim, ul choh itmomig'a yeta yovushubtur. Bu chohning suyi ul havzg'a borur. Bu havzning g'arbi-shimolida Sulton Iskandar bande solibtur. Bandning ustida imoratlar qilibtur. Bandtin yuqqori pashkol suvlari yig'ilib, uluq ko'l bo'lur, bu ko'lning sharq atrofi bog'dur. Ko'lning sharq tarafida ham buyurdumkim, yakpora toshdin sufana-molar tarosh qilg'aylar. G'arb tarafida masjid buyuruldi. Seshanba va chorshanba bu maslahatlar uchun Do'lpurda turuldi.

Panjshanba kuni otlanib, Chanbal daryosidin o'tub, pamozi peshinni daryo yoqasida qilib, ikki namoz orasida Chanbal yoqasidin tebrab, namozi shom bila namozi xuftan orasida Kavoriy suyidin o'tub tushtuk. Yog'in jihatinin suv ulug' bo'lub, otni uzdurur edi, kema bila o'ttuk.

Tonglasi odina kunikim, oshur edi, andin otlanib, yo'lda bir kentta tushlanib, namozi xuftan Guvalyordin bir guruh shimol sari bir chor-

bog'dakim, men o'tgan yil buyurub edim, kelib tushtum.

Tonglasi namozi peshindin so'ng o'tlanib, Guvalyorning shimoliy pushtalarini va namozgohini sayr qilib kelib, Guvalyorning Hotipul otliq darvozasidinkim, Roja Mon Singning imorati bu darvozag'a payvasttur, kirib, Roja Bikramojitning imoratlarig'akim, Rahimdod anda o'lturub edi, kech namozi digar kelib tushtum.

Ushbu kecha qulog'imning tashvishi jihatin va mohtob ham bois edi, afyun ixtiyor qildim. Tonglasi afyun xumori bisyor tashvish berdi Xeyli qay qildim¹. Bovujudi xumor Mon Singning va Bikramojitning imoratlarini tamom yurub, sayr qildim, g'arib imoratlardur. Agar-chi bo'luk-bo'luk va besiyuqdur, bu imoratlar tamom sangi taroshidadindur. Borch rojalar imoratlaridin Mon Singning imoratlari yaxshiroq va oliyroqtur. Mon Sing imoratining tomining bir zil'i sharq soridur. Bu zil'ni o'zga zil'larg'a boqa ko'prak takalluf qilibtur. Balandlig'i taxminan qirq-ellik qari bo'lg'ay, tamom sangi taroshidadin, yuzini gach bila oqortibturlar. Ba'zi yerda to'rt tabaqa imorattur. Ikki quyig'i tabaqasi xeyli qorong'udur, andak yorug'lug'i muddate o'lturg'ondin so'ngra zohir bo'ludur. Bularni sham' bila yurub sayr qilduk. Bu imoratning har zil'ida besh gunbazztur. Bu gunbazlarni oralarida kichik Hinduston dasturi bila chorsu-chorsu gunbazchalardur. Bu besh uluq gunbazlarning ustiga zarandud qilg'on mis tangalarini qadabturlar. Bu tomlarning

¹ L. b. - «qildim» o'rnida «kardam».

tashqarisini yashil qoshi bila koshikorliq qilib-turlar. Yashil koshi bila girdo-girdini tamom kela daraxtlarini ko'rsatib-turlar. Sharq soyig'i zil'ining burjida Hotiypuldur. Filni «hotiy» derlar, darvozani «pul». Bu darvozaning chiqishida bir filning suratini mujassam qilib-turlar, ustida ikki filbon ham qilib-turlar: biaynihi fil, xeyli mushobih qilib-turlar. Bu jihattin «Hotiypul» derlar. To'rt tabaqa imoratkim bor, boridin quyig'i tabaqasining bu mujassam fil sori ravzani bor, andin fil yovuq ko'runadur. Yuqqorig'i martabasi xud mazkur bo'lg'on gunbazlardur. Ikkinchi tabaqasida o'turur uylaridur. Bu uylar ham chuqur yerlarda voqe bo'lubtur. Agarchi Hindustoniya takalluflar qilib-turlar, vaie behavoroq yerlardur.

Mong Sing o'g'li Bikramojitning imoratlari qo'rg'onning shimoli sori o'rtacha¹ voqe bo'lubtur. O'g'lining imoratlari otasining imoraticha emas. Bir uluq gunbaz qilibtur, xeyli qorong'u, muddate turg'ondin so'ngra ravshanliq zohir bo'ladur. Bu uluq gunbazning ostidag'i bir kichikrak imorattur, anga xud hech tarafdin yorug'luq kirmas.

Ushbu uluq gunbazning ustida Rahimdod bir kichikrak tolog'iga qilibtur. Rahimdod ushbu Bikramojitning imoratlarida o'turubtur. Ushbu Bikramojitning imoratlaridin bir yo'le qilibturlarkim, otasining imoratlarig'a borur. Toshoridin aslo ma'lum emas, ichkaridin ham hech yer ko'runmas, ba'zi yerdin yorug'liq kirar, tavr yo'ledur.

¹ Q. b. - o'tarda.

Bu imoratlarni sayr qilib, o'tlanib Rahimdod solg'on madrasani kezib, qo'rg'onning janubiy tarafida bir uluq havzning yoqasida Rahimdod solg'on bog'chani tafarruj qilib, kech o'rdu tushgan chorbog'qa kelduk.

Bu bog'chada xeyli gullar tikibtur. Xushrang qizil kanir xeyli bor. Bu yerlarning kaniri guli shaftoli bo'lur. Guvalyorning kaniri qip-qizil xushrang kanirlardur. Bir pora qizil kaniri Guvalyordin Ogra bog'larig'a kelturub ekturdum.

Bu bog' janubida bir uluq ko'ldur. Pashkol suvlari bu ko'lda yig'ilur. Bu ko'ning g'arbida bir baland butxonadur. Sulton Shamsiddin Iltamish¹ bu butxonaning yonida bir masjidi jome solibtur. Bu butxona xeyli baland butxonadur. Qo'rg'onda mundin balandroq imorat yo'qtur va Do'lpurning tog'idin Guvalyor qo'rg'oni va butxona mushaxxas ko'rinur. Derlarkim, bu butxonaning toshlarini tamom ushbu uluq ko'ldin qozib olibturlar. Bu bog'chada bir yig'och tolur qilibtur, pastroq, beandomroq. Bog'channing eshigida Hindustoniy vaz'liq bemaza ayvonlar qilibtur.

Tonglasi namozi peshin Guvalyorning ko'r-magan yerlarining sayri doiyasi bila o'tlanib, Mon Singning qo'rg'onidindin toshqorig'i Bodalgari otliq imoratini ko'rub, Hotiypul darvozasidindin kirib, Udvo degan yerga borduk. Bu Udvo degan yer qo'rg'onning g'arbiy tarafida bir ko'l voqe bo'lubtur. Agarchi bu ko'l bir fasildinkim, tog' ustida qilibturlar, toshqoridur, vale bu ko'ning

¹ Tarjimalarda - Iltutmish.

dahanasida yana ikki martaba baland fasillar qilibturlar. Bu fasillarning balandligi o'ttuz-qirq qari yovushur. Ichkarigi fasil uzunroqtur va balandroqtur. Bu fasil ko'lining bu yuzidagi va ul yuzidagi qo'rg'on fasilig'a payvast bo'lubtur. Bu fasilning o'rtasida bu fasildin pastroq yana bir fasil igribturlar. Bu fasil sar-tosar emas, obro'd maslahatig'a bu fasilni igirgandurlar. Bu fasilning ichida suv olmoq uchun voyine qilibturlar, o'n-o'nbesht ziyina bila suvg'a yetar. Bu o'luq fasilning voyinliq fasilig'a chiqar eshigining ustida Sulton Shamsiddin Iltamishning otini toshda qazib, bitibturlar, tarixi: «sana-yi salosina va sitta miadur¹».

Bu toshqorig'i fasilning tubida qo'rg'ondin toshqori uluq ko'l tushubtur, g'olibokim, kam bo'lar ko'l emas, obro'dg'a bu ko'l suyi borur. Bu Udvoning² ichida yana ikki uluq ko'ldur. Qo'rg'on eli bu ko'llarning suyini o'zga suvlarg'a tarjih qilurlar. Bu Udvoning uch tarafi yakpora tog'voqe bo'lubtur. Toshining rangi Biyona toshlaridek qizil emastur, bir nima berangroqtur.

Bu Udvoning atrofidagi yakpora qiyolarni qozib, uluq-kichik mujassam butlar tarosh qilibturlar. Janub tarafi bir uluq buttur, balandlig'i taxminan yigirma qari bo'lg'ay. Bu butlarni tamom yalang'och, besatri avrat ko'rsatibturlar.

Udvoning ichidagi ikki uluq ko'lining atrofidagi yigirma-yigirma besh choh qozibturlar. Bu chohlardin suv tortib, sabzikorliqlar qilib va

¹ Olti yuz o'ttuz (hijriy) yil demak bo'lib, milodiy yil hisobicha 1232/33-yilga to'g'ri keladi.

² Tarjimalarda – Urvo.

gullar va daraxtlar ekibturlar. Udvo yamon yer emas, tavr yeredur. Aybi atrofida g' butlardur. Butlarni ham buyurdumkim buzg' aylar. Udvo-din yana qo'rg'ong'a chiqib, Sul-toniy pulning o'zinikim, kofirlar zamonidin beri bu darvoza masdud ekondur, tafarruj qilib, namozi shom Rahimdod solg'on bog'chaga kelib tushtum, ul oxshom o'shul bog'chada-o'q bo'ldum.

Seshanba kuni oyning o'n to'rtida Rono Sango-ni ng Bikramojit otliq ikkinchi o'g'lidinkim, onasi Padmovati bila Rantapur¹ qal'asida edilar, kishilari keldi. Guvalyor sayrig'a o'tlang'ondin burun ham Bikramojitning uluq e'tiborliq Asuk otliq hindustonidin kishilar kelib, qulluq va xizmatgorliq izhorini qilib, o'ziga yetmish laklik vajhi istiqomat istid'o qilib edi. Andoq muqarrar qilib edikim, Rantapurni topshurg'ay. Muddao-sidek, parganalar inoyat qilib, kishilariga rux-sat berduk. Guvalyor sayrig'a boriladur edi, ul kishilariga Guvalyorda miyod qilduk Miyoddin bir necha kun keyinroq qoldilar. Bu Asuk hin-du Bikramojitning onasi Padmovatig'a yaqin uruq bo'lur emish. Bu kayfiyatni onaliq-o'g'ul-luqqa ham izhor qilibtur. Ular ham bu Asuk bila muttaliq bo'lub, davlatxohliq va xizmatgorlik qabul qilibturlar.

Toj, kuloh va zar kamarkim, Sango Sul-ton Mahmudni bosib, Sul-ton Mahmud kofirning qaydig'a tushganda bu ta'rifiy toj va kuloh va zar kamarni olib, Sul-ton Mahmudni qo'yub edi.

¹ Bu so'z har ikkala nusxada turlicha, ya'ni London bos-masi matnida «Rantapur», ko'rsatkichida «Rantanbahur», Qozon bosmasida esa «Rantapur» shaklida yozilgan.

O'shul toj va kuloh va zar kamar Bikramojitta ekandur, og'asi Ratansinkim, holo otasi o'rnig'a rono bo'lub, Chiturg'a qobizdur, toj, kuloh bila zar kamarni inisidin tilabtur. Bu bermaydur. Bu kelgan kishilardin toj, quloh va zar kamarni manga so'zlanibtur. Rantaburning, mubodala-sig'a Biyonani tilabtur. Biyona so'zidin alarni o'tkarib, Shamsobodni Rantabur mubodala-sig'a va'da qilduk. O'shul kuni-o'q bu kelgan kishilariga xil'atlar kiydurub, to'qquz kunda Biyonag'a kelmoq miyodi bila ruxsat berildi.

Bu bog'chadin o'tlanib, Guvalyorning butxonalarini sayr qilduk. Ba'zi butxonalar du oshyona, se oshyona, oshyonlari pastroq, qadimiy vaz'liq, izorasida tamom mujassam suratlar toshdin qozibturlar. Ba'zi butxona madrasa, vaz'liq peshgohida uluq va baland gunbaz, madrasa hujralaridek hujralarikim bor, har hujraning ustida tang-tang gunbazlar taroshida toshdin qilibturlar. Quyig'i hujralarida mujassam toshdin butlar tarosh qilibturlar. Bu imoratlarni tafarruj qilib, Guvalyorning g'arbiy darvozasidin chiqib, Guvalyor qo'rg'onining janub tarafidin evrulub, sayr qilib, Rahimdod solg'on chahorbog'qakim, Hotiypulning olidatur, kelib tushtum. Rahimdod to'y ishini bu chorbog'da tayyor qilib edi, yaxshi oshlar tortib, qalin peshkashlar qildi, jins va naqddin to'rt lak peshkash edi. Bu chorbog'din o'tlanib, kech o'z chorbog'img'a keldim.

Chahorshanba kuni oyning o'n beshida Guvalyorning sharqi-janubi sori obshornikim, Guvalyordin olti kuruh yo'ldur, sayr qila bor-

dim, mundin kechrak o'tlanilg'on ekondur. Obshorg'akim, kech namozi peshin yetish-tuk. Bir arg'amchi baland qiyodin bir tegirmon suyi shorildob tushadur. Bu suv tushar yer-din quyiroq ulug' yo'l bo'lubtur. Bu obshordin yuqqori bu suv yakpora qiyoning ustidin oqib keladur. Bu suvning tubi yakpora toshdur. Har yerda-har yerda tushub ko'l bo'lubtur. Bu suv-ning yoqalarida yakpora parcha-parcha tosh-lar tushubtur, o'lturg'udek, vale bu suv doimiy emas emish. Obshorning ustida o'turub, ma'jun yeduk. Suv yuqqori borib, suvning bi-doyatig'acha sayr qilib, yonib, bir balande usti-ga chiqib, muddate o'turduk. Sozandalar, soz choldilar va go'yandalar nima ayttilar. Obnus yig'ochnikim, hind eli tindu derlar, ko'rmagan-larga ko'rsatiladi.

Andin yonib, tog'din tushub, namozi shom bila namozi xuftanning orasida andin o'tlan-duk. Ikki posg'a yovuk bir yerda kelib uyqu-laduk. Kunning bir pahri bo'la chorbog'qa kelib tushuldi.

Odina kuni oyning o'n yettisida So'hjana de-gan Salohiddinning zodbud kentini va kenti-din yuqqori tog' orasidagi va qo'l ichidagi limu va sadofal¹ bog'ini sayr qilib, bir pahrda kelib, chorbog'qa tushtum.

Yakshanba kuni – oyning o'n to'qquzida tongdin burunroq chorbog'din o'tlanib, Kavori suyidin o'tub, tushlanduk. Namoz peshin an-din o'tlanib, oftob o'turur mahal Chanbal suy-i-din o'tub, namozi shom namozi xuftan orasida

¹ Q. b. – Savoqal.

Do'lpur qo'rg'onig'a kirib, charog' bila Abulfath solg'on hammomni sayr qilib, andin otlanib, yangi chorbog' solg'on yerga band boshig'a kelib tushuldi.

Tonglasiga buyurulg'on yerlarni yurub sayr qildim, Yakpora toshda buyurulg'on kallador havzning yuzini bir martaba tamom ko'tarmaydurlar edi, buyuruldikim, sangtaroshlar ko'prak kelib, bir martaba, havzning tubini durust olsunlarkim, suv quyub, atrofini tarozu qilsa bo'lg'ay. Kech namozi digar havzning bir martaba yuzini tamom oldilar. Buyurdumkim, suv to'ldurdilar. Atrofini suv bila tarozu qilib, hamvor qilmoqqa mashg'ul bo'ldilar. Bu navbat yana bir obxona buyurdumkim, yerini yakpora toshdin tarosh qilg'aylar, ichidagi kichik havzni ham yakpora toshdin qozg'oylar. Dushanba kuni ma'jun suhbatini bo'ldi. Seshanba kuni ham anda-o'q edim.

Chahorshanba kechasi og'iz ochib, nima yeb, Sekriyga bormoq azimati bila otlanildi. Ikki pahr g'a yovuq bir yerda tushub, uyquladuk. Qulog'img'a, bilmon, sovuqning ta'siri bo'ldi o'xshar, bu oxshom asru ko'p og'ridi, uyqulay olmadim. Tong boshida bu yerdin tebrab, bir pahrda Sekriyda solg'on bog'ga yetib tushuldi. Bog'ning tomi va chohning imoratlari xotirxoh bo'lmag'on jihatidin ish ustidagilarni tahdid va siyosat qilildi. Sekriydin namozi digar bila namozi shom orasida otlanib, Madhokurdin o'tub, bir yerda tushub uyquladuk. Andin otlanib, bir pahr bo'la Ograga kelib, qal'ada Xadicha sultonbegimnikim, Faxrijahonbegim

borib, bular ba'zi ish-kuch uchun¹ qolibturlar, ko'rub, Jo'ndin o'tub, «Hasht bihisht» bog'iga keldim.

Shanba kuni safar oyining uchida uluq amma begimlardin uch begim: Guharshodbegim, Badiul-Jamolbegim, Oqbegim; kichik begimlardin: Xonzodabegim, Sulton Mas'ud Mirzoning qizi, yana Sulton Baxtbeginning qizi, yana yanga chechamningkim, Zaynab Sultonbegim bo'lg'ay, nabirasi kelib, Tutadin o'tub, mahallot yoqasida daryo qirg'og'ida tushub edilar, borib, namozi digar bila namozi shomning orasida ko'rdum. Andin kema bila-o'q keldim.

Dushanba safar oyining beshida Bikramojitning burung'i elchisi va so'ngg'i elchisiga boyri Behralik hindulardin Devaning o'g'li Xomusini qo'shub yiborildikim, Rantaburni topshurmoq uchun, xizmatgorliqni qabul qilmoq uchun o'z roh va rasmi bila ahd va shart qilg'ay. Bizning yiborgan kishi ko'rub, bilib, inonib kelgay. Ul bu aytg'onlarining ustiga tursa, men ham va'da qildimkim, tengri rost keltursa, otasining o'rnig'a rono qilib, Cheturda o'lturg'uzay.

Ushbu fursatlarda Dehlidag'i va Ogradag'i Iskandar bila Ibrohimning xizonalari tamom bo'ldi. Cherikyoyarog'ig'a va to'p va tufakchining dor-u va jidog'ig'a panjshanba kuni safar oyining sekkizida jami' vajhdorning vajhidin sadu siy farmon bo'ldikim, devong'a tushurub, bu asbob va alotqa sarf va xarj qilg'aylar.

Shanba kuni oyning o'nida Sulton Muhammad baxshining Shoh Qosim otliq piyodasi-

¹ L. b. – tushgan.

nikim, bir qatla Xuroson ahlig'a istimolat farmonlari elitib edi, yana Hiriyg'a yiborildi. Bu mazmun bila farmonlar elittikim: «Hindustonning sharq va g'arb yog'ilaridin va kofirlaridin tengri inoyati bila xotirlar jam' bo'ldi. Ushbu yoz tengri rost keltursa, albatta o'zumizni har nav' qilib yetkurgumizdur». Ahmad Afshorg'a ham farmon yiborildi. Farmonning hoshiyasida o'z xatim bila bitib, Faridun qubuziyni tiladim. Ushbu kun peshin simob yemakni bunyod qildim.

Chahorshanba kuni oyning yigirma birida bir hindustoniyy pochi Komronning va Xoja Do'st Xovandning arzadoshtlarini kelturdi. Xoja Do'st Xovand zilhijja oyining o'nida Kobulg'a borib, Humoyun qoshig'a tebrab ekan. Xubyonda Komronning kishisi Xojag'a borurkim: «Xoja kelsunlar, har nekim farmon bo'lubtur, yetkursunlar, so'z-unni so'zlashib borsunlar».

Komron zilhijja oyining o'n yetisida Kobulg'a kelgandur. Xoja bila so'zlashib, Xoja ushbu zilhijja oyining yigirma sekkizida Qal'ayi Zafarg'a uzotur.

Bu kelgan arzadoshtlarda yaxshi xabarlar edi: Shahzoda Tahmosb o'zbekning dafig'a azimat qilib, Renish o'zbekni Domg'onda olib o'lturub, elini qatli om qilur. Ubaydxon qizilbosh xabarini tahkiq topqoch, Hiriyy girdidin qo'pub, Marvg'a borib, Samarqand va ul navohiydagi sultonlarni Marvg'a tilar. Movarounnahrdaqi sultonlar tamom Marvg'a ko'makka borurlar.

Bu xabarni ushbu pochi kelturdikim, Humoyunning o'g'li bo'lmish. Yodgor tag'oyining qizidin, Komron ham Kobulda kadxudo bo'latur emish, tag'oyisi Sulton Ali mirzoning qizini olatur emish.

Ushbu kun Sayid Dakniy Sheroziy jibagarg'a xil'at kiydurub, in'om qilib, xoraliq chohni buyurdukkim, biluricha itmomg'a tegurgay.

Odina kuni oyning yigirma uchida harorate badanimda zohir bo'ldi. Andoqqim, jum'a namozini masjidta tashvish bila o'tadim. Namozni peshin ehtiyotini kelib, kitobxonada bir zamondin so'ng mashaqqat bila o'tadim. Indini yakshanba kuni isitib, ozroq titradim.

Seshanba kechasi safar oyining yigirma yettisida xazrati Xoja Ubaydulloning «Volidiya» risolasini nazm qilmoq xotiring'a kechti. Hazratning ruhig'a iltijo qilib, ko'nglumga kechurdumkim, agar bu manzum ul hazratning maqbuli bo'lur, hud nechukkim, sohibi «Qasidayi Burda»ning qasidasi maqbul tushub, o'zi aflj marazidin xalos bo'ldi, men dog'i bu orizadin qutulub, nazmimning qabulig'a dalile bo'lg'usidur. Ushbu niyat bila «ramali musaddasi maxbuni aruz» va «zarbgohi maxbuni mahfuz» vaznidakim, mavlono Abdurrahmon Jomiyning «Suhba»si ham bu vazndatur, risola nazmig'a shuru' qildim, ham o'shal kecha o'n uch bayt aytili. Iltizom yo'sunluq, kunda o'n bayttin kamrak aytilmas edi. G'olibo bir kun tark bo'ldi. O'tgan yil va balki har mahal mundoq orizakim bo'ldi, aqalli bir oy-qirq kunga tortti. Tengri inoyati bila, hazratning himati-

din, panjshanba kuni oyning yigirma to'qquzida andake afsurda bo'ldi, o'zga bu orizadin xalos bo'ldum. Shanba kuni rabiul-avval oyining sekkizida risola so'zlarining nazm qilmog' xitimomig'a yetti. Bir kun ellek ikki bayt aytili.

Chahorshanba kuni oyning yigirma sekkizida atrof va javonibqa cheriklarga farmonlar yiborildikim, yaqin fursatta, tengri yetkursa, cherik otlang'o'mizdur. Cherik yarog'i bila bot yetisha kelsunlar.

Yakshanba kuni rabiul-avval oyining to'qquzida Bayonshayx otliq Muhammad ta'liqchi keldi. O'tgan yil muharram oyining oxirida Xumoyung'a xil'at va ot eltib edi.

Dushanba kuni oyning o'nida Bekkina Vays log'ariy bila Bayonshayx otliq Humoyunning bir navkari Humoyunning qoshidin keldilar. Bekkina Humoyunning o'g'lining sevinchisiga kelibtur. Otini Al'amon qo'yubtur, Shayx Abulvajd valodatig'a tarix: «Shahi saodatmand»¹ topibtur. Bayonshayx Bekkinadin xeyli so'ngra chiqibtur. Odina kuni safar oyining to'qquzida Kishmning oyog'ida Dushanba degan yerdin Humoyundin ayrilibtur. Dushanba kuni rabiul-avval oyining o'nida Ograga keldi, jald keldi. Yana bir qatla ham ushbu Bayonshayx qal'ayi Zafardin Qandahorg'a o'n bir kunda borib edi. Shahzodaning kelgonining va o'zbekning shikast topqonining xabarini bu Bayonshayx kelturdi.

Tafsili budurkim, shahzoda Tahmosb Iroqdin qirq ming kishi bila Rum dasturi tufak va

¹ Bu ikki so'zdagi harflarni «abjad» hisobi bilan songa aylantirilsa, 934-hijriy yil chiqadi, milodiy yil hisobida 1527.

aroba tartib qilib, tez-o'q yurub kelib, Bistom va Domg'onda Renish o'zbekni olib, eli bila qirib, tez-o'q o'tar. Kepak biyning o'g'li Qambur Ali ni ham qizilbosh odami bosar. Oz-og'loq kishi bila Ubaydxon qoshig'a kelur. Ubaydxon Hiri navohiysida turush yarog'ini topmay, jami' Balx va Hisor va Samarqand va Toshkandagi xon va sultonlarg'a qadag'a bila kishilar chopturub, o'zi Marvg'a kelur, bot-o'q yig'ilurlar. Toshkanddin Suyunchakxonning ulug'idin kichikroq o'g'li Baroq¹ sulton Samarqand va Miyonqoldin Ko'chumxon va Abusaid sulton va Po'lod sulton va Jonibek sulton o'g'lonlari bila va Hisordin Hamza sulton bila Mahdi sultonning o'g'lonlari va Balhdin, Ketin qaro sulton² va jami' sultonlar bot-o'q borib, Marvda Ubaydxon bila mulhaq bo'lurlar. Yuz besh ming kishi bo'lurlar. Bularning tilchisi mundoq xabar keltururkim, shahzoda Ubaydxonni Hiriyning navohiysida oz-og'loq cherik bila o'lturubtur deb qirq ming kishi bila ildam kelibtur. Holo bu jamiyatning xabarini topib, Rodagon³ o'langida xandaqlab o'lturubturlar. O'zbeklar bu xabarni topib, g'animni ko'zga ilmay, kengashni munga qo'yarlarkim, barcha xon va sultonlar Mashhadda o'ltururbiz, bir necha sultonni yigirma ming kishi bila tayin qilurbizkim, qizil boshning o'rdusining navohiysida yurub, boshini chiqorg'ali qo'ymas. Aqrab bo'lg'och, yadachilarg'a buyururbizkim, yada qilg'aylar. Ushbu rangda ojizlandurub olurbiz deb, Marv-

¹ L. b. – Boron.

² Q. b. – tushgan.

³ Q. b. – Zodgon.

din ko'charlar. Shahzoda ham Mashhaddin chiqib, Jom va Xargird navohiysida muqobala bo'lurlar. Shikast o'zbek sori voqe bo'lur. Qalin sulton giriftor bo'lub, qatlg'a borur.

Bir xatta xud andoq bitib edilarkim, Ko'chumxondin o'zga hech sultonning tahqiq chiqqani mushaxxas emas. Cherik bila bo'lg'on kishilardin hanuz kishi kelmaydur. Hisordagi sultonlar Hisorni tashlab chiqarlar. Chalmakim, asli oti Ismoildur, Ibrohimxoniyning o'g'li Hisor qo'rg'onida ekandur. Ushul Bayonshayxdin-o'q Humoyung'a, Komrong'a xatlar bitib, tez-o'q yondurildi.

Odina kuni oyning o'n to'rtida xat va kitobatlar tayyor bo'lub, Bayonshayxqa topshurib, ruxsat berildi. Shanba kuni oyning o'n beshida Ogradin uzadi.

Humoyung'a bitilgan xatning savodi:

«Humoyung'a mushtoqliklar bila sog'inib salom degach, so'z ulkim, dushanba kuni rabiul-avval oyining o'nida Bekkina bila Bayonshayx keldilar. Xatlardin va arzadoshtlardin ul yuzdagi, bu yuzdagi kayfiyat va holot mushaxxas va ma'lum bo'ldi.

*Shukr, bermish sanga haq farzande,
Sanga farzand-u, manga dilbande.*

Tengri taolo mundoq sevinchlarni manga va sanga hamisha ro'zi qilg'ay, omin yo rabbal-olamin. Otini Al'amon qo'ymishsen. Tengri muborak qilg'ay. Vale bovujudkim, o'zung bitibsen, mundin g'ofil bo'lubsernkim, kasra-

ti isti'mol bila avom Alamo derlar, yo El Amon derlar, o'zga mundoq alif-lom otta kam bo'ur. Tengri otini va zotini farxunda va muborak qilg'ay, manga va sanga ko'p yillar va bisyor qarnlar Al'amonni davlat va saodat bila tuta bergay.

Tengri taolo o'z fazl-u karami bila bizning ishimizni yasaydur. Mundoq qop-u qarlarda topilmas. Yana seshanba kuni oyning o'n birida arojif xabar keldikim, Badx eli Qurbonni tilab Balhqa kiyurmishlar.

Yana Komrong'a, Kobuldag'i beklarga farmon bo'ldikim, borib, sanga qo'shulub, Hisor yo Samarqand yo har sorig'akim salohi davlat bo'lsa, yurugaysiz. Tengrining inoyati bila yog'iyarlarni bosib, viloyatlarni olib, do'stlarni shod, dushmanlarni nigunsor qilg'aysiz, inshoollohu taolo. Sizlarning jon tortib, qilich chopmoq mahallaringizdur. Qopuda kelgan ishni taqsir qilman-giz. Taronjonliq bila kohilliq podshohliq bila rost kelmas.

*Jahongire tavaqquf bar nayobad,
Jahon onro buvad ko' beh shitobad,
Hama chizi ayi ro'yi kadxudoy,
Sukun meyobad illo podshohy¹.*

Agar tengri inoyati bila Balx va Hisor viloyati muyassar va musaxxar bo'lsa, Hisorda sening kishing bo'lsun, Balxta Komronning kishi-si bo'lsun. Agar tengri inoyati bila Samar-

¹ «Jahongirlik to'xtab turmaydi, kim yaxshi tirishsa, jahon o'shaniki bo'ladi, hayotda har bir narsaning to'xtashi mumkin, ammo podshohlik (ishi) to'xtamaydi».

qand ham musaxxar bo'lsa, Samarqandta sen o'lturg'il, Hisor viloyatini, inshoolloh, xolisa¹ qilg'umdur. Agar Komron Balxni ozirg'ansa, arzadosht qiling, inshoolloh aning qusurini o'shal, viloyatlardin-o'q rost qilg'umizdur.

Yana sen o'zing bilur edingkim, doim bu qoida mar'iy edi: olti hissa sanga bo'lsa, besh hissa Komrong'a bo'lur edi. Hamisha bu qoidani mar'iy tutub, mundin tajovuz qilmang. Yana ining bila yaxshi maosh qilg'aysan. Uluqlar ko'tarimlik kerak, umidim borki, sen ham yaxshi ixtilot qilg'aysan. Aning ham mutasharri' va yaxshi yigit qo'yubtur, ul ham mulozamat va yakjihatliqta taqsir qilmag'ay.

Yana sendin ozroq ginam bor, bu ikki-uchi yildin beri bir kishing kelmadi. Men yiborgan kishi ham rost bir yildin so'ngra keldi. Mundoq bo'lurmu?

Yana xatlaringda yolg'uzluq, yolg'uzluqkim, deb sen, podshohlikta aybdur, nechukkim debturlar:

*Agar poy bandi rizo pesh gir,
Va gar yaksuvori sari xesh gir.²*

Hech qayde podshohliq qaydicha yo'qtur. Podshohlik bila yolg'uzluq rost kelmas. Yana men degandek, bu xatlaringni bitibsen va o'qu-

¹ Q. b. – xossa.

² Agar oyog'ing band bo'lsa, rizoni oldinga qo'y, agar tanho suvori bo'lsang, o'z boshingcha bor, ya'ni jahonga bog'langan bo'lsang, boshingga kelgan har narsaga rozi bo'l, agar hech narsaga bog'lanmagan kishi bo'lsang, yo'lingdan qolma, keta ber.

maysen, ne uchunkim, agar o'qur xayol qilsang edi, o'quyolmas eding. O'quyolmagandin so'ng albatta tag'yir berur eding. Xatingni xud tashvish bila o'qusa bo'ladur, vale asru mug'laqtur. Nasri muammo hech kishi ko'rgan emas. Imlong yamon emas. Agarchi xeyli rost emas, iltifotni «To» (ط) bila bitibsen. Qulunjni «yo» (ل) bila bitibsen. Xatingni xud har tavr qilib o'qusa bo'ladur, vale bu mug'laq alfozingdin maqsud tamom mafhum bo'lmaydur. G'olibo xat bitirda kohillig'ing ham ushbu jihattindur. Takalluf qilay deysen, ul jihattin mug'laq bo'ladur. Buning nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti: ham sanga tashvish ozroq bo'ur va ham o'qug'uchig'a.

Yana uluq ish ustiga borasen, ish ko'rgan, ray va tadbirliq beklar bila kengashib, alarning so'zi bila amal qilg'aysen.

Agar mening rizomni tilarsen, xilvatnishinliqni va el bila kam ixtilotliqni bartaraf qilg'il. Kunda ikki navbat iningni va beklarni ixtiyorlarig'a ko'ymay, qoshingg'a charlab, har maslahat bo'lsa kengashib, bu davlatxohlarning ittifoqi bila har so'z-unga qaror bergaysen.

Yana Xoja Kalon mening bila gustoxona ixtilot qila o'rganib edi, sen dog'i, nechukkim Xoja Kalon bila ixtilot qilur edim, o'shundoq ixtilot qilg'aysen. Tengri inoyati bila ul sorilar ish ozroq bo'lsa, Komrong'a ehtiyoj bo'lmasa, Komron Balxta mazbut kishilarni qo'yub, o'zi mening qoshimg'a kelsun.

Yana muncha fath va zafarlar Kobulda ekanda bo'ldi, Kobulni shugun tutubturmen,

ani xolisa qildim. Hech qaysingiz tama' qilmag'aysiz.

Yana yaxshi boribsen, Sulton Vaysning ko'nglini olibsen, ani qoshing'ga kelturub, aning ra'yi bila amal qilg'aysenkim, ish bilur kishidur. Cherikni yaxshi yig'ib yurgaysen. Og'iz so'zlaridin Bayonshayx sohib vuqufdur, ma'lum bo'lg'usidur, deb mushtoqliqlar bila salom.

Panjshanba kuni rabiul-avval oyining o'n uchida bitildi».

Komrong'a va Xoja Kalong'a dag'i ushbu mazmun bila o'z ilgim bila xatlar bitib yibordim.

Chahorshanba kuni oyning o'n to'qquzida mirzolar va sultonlar, turk va hind umarosini charlab, mashvarat qilib, so'zni munga qo'yuldikim, bu yil xud, albatta, bir sori cherik yurumak kerak. O'zumizdin burunroq Askariy Po'rubqa mutavajjih bo'lg'ay. Gang daryosidida narig'i salotin va umaro cheriklari bila Askariyga kelib qo'shulub, har sorig'akim, salohi davlat bo'lsa, azimat qilg'aylar.

Bu kayfiyatlarni bitib, shanba kuni oyning yigirma ikkisida o'n olti kunlik buljor bila G'iyosiddin qo'rchini Sulton Junayd barlos boshliq Po'rub umarosig'a chopturuldi. Og'iz so'zlari bu bo'ldikim, zarbzan va aroba va tufak urush asbob va olotidur, bular tayyor bo'lg'uncha, o'zumizdin ilgarrak Askariyni yiborildi. Gangning nari¹ yuzidagi jami' salotin va umarog'a farmon bo'ldikim, Askariy qoshig'a

¹ L. b. - nori.

yig'ilib, har sorig'a salohi davlat bo'lsa, tengri inoyati bila mutavajjih bo'lg'ay. Andag'i davlatxohlar bila mashvarat qiling. Agar manga ehtiyojliq ish bo'lsa, ushbu miyod bila borg'on kishi kelgach-o'q betavaqquf inshoollohu taolo, otlang'umdur. Agar Bangoliy yakjihatliq va ixlos maqomida bo'lsa va ul orada manga ehtiyoj bo'lg'udek ishi bo'lmasa, ani ham sharh bila arzadosht qiling. Boqib turub bo'lmas, o'zga sori azimat qilg'umdur. Sizlar davlatxohlarning mashvarati bila, Askariyni olib yurub, andag'i ishlarga tengri taolo inoyati bila faysal bergaysiz.

Shanba kuni rabiul-avval oyining yigirma to'qquzida Askariyga murassa' kamar xanjar bila, podshohona xil'at kiydurub, alam va tug' va naqora va tavila to'pchoq va o'n fil va qator teva va qator xachir, podshohona asbob va olot in'om bo'ldi. Hukm bo'ldikim, devon boshida o'lturg'ay. Mullosig'a va ikki atkasiga tugmalik chakmanlar va yana o'zga navkarlariga uch to'qquz to'n in'om bo'ldi.

Yakshanba kuni oyning salxida Sulton Muhammad baxshining uyiga bordim, poyandoz solib, sochiq kiyurdi. Naqd va jinsdin ikki lakdin ko'prak nima peshkash qildi. Osh va peshkash tortilg'ondin so'ng yana bir hujrasig'a borib, o'turib ma'jun yeduk. Andin uch pahra chiqib suvdin o'tub, «Xilvatxona» kelildi.

Panjshanba kuni rabiul-oxir oyining to'rtida mundoq muqarrar bo'ldiki, Ogradin Kobulg'acha Chaqmoqbek Shohiy tamg'ochining navisandalig'i bila tanob urg'ay. Har to'qquz kuruhda manor qo'porg'aylarkim, manorning

balandlig'i o'n ikki qari bo'lg'ay. Ustida bir chordara qo'porg'aylar. Har o'n sekkiz kuruhda olti yom oti bog'lag'aylar. Yomchi va sayisga ulufa va otlarg'a aliq ta'yin bo'lg'ay. Andoq farmon bo'ldikim, bu yom oti bog'latur yer agar bir xolisag'a yovuq bo'lsa, bu mazkur bo'lg'onlarni andin saranjom qilsunlar, yo'q ersa, har bekning parganasiga voqe bo'lsa, aning uhdasida qilsunlar. Ushbu kun Chaqmoq bila Shohiy Ogradin chiqtilar. Bu kuruhlarni mil bila muvofiq tayin qilildi. Nechukkim, «Mubayyin»da¹ mazkur durlar:

*To'rt mingdur qadam bila bir mil,
 Bir kuruh oni Hind eii der bil.
 Dedilar bir yarim qari bir qadam,
 Har qari bilki, bordur olti tutam.
 Har tutam to'rt elik, yana har elik
 Olti jav arzi bo'ldi bil bu bilik.*

Paymoyish tanobini bu mazkur bo'lg'on bir yarim qari bilakim, to'qquz tutam bo'lg'ay, qirq qari tayin qilildikim, yuz tanobi bir quruh bo'lg'ay.

Shanba kuni oyning oltisida to'y bo'ldi. Qizilbosh va o'zbek va hindularning elchilari bu to'yda bor erdilar. Qizilbosh elchilarini o'ng qo'lda, yetmish-sekson qari yiroqroq shomiyo-na barpoy qilib, o'lturg'uzuldi. Farmon bo'ldikim, beklardin Yunus Ali qizilboshlar bila o'lturg'ay. So'l qo'lda ham ushbu dastur bila o'zbek elchilari o'lturub, beklardin Abdulloqa

¹ «Mubayyin» – Boburning bir asari.

farmon bo'ldikim, bular bila o'lturg'ay. Men yangi solg'on musamman xaspo'sh tolorning shimoliy zil'ida o'lturdum, o'ng qo'lumda besh-olti qari – To'xta Bo'g'a sulton va Askariy va Hazrati Xojaning avlodi Xoja Abdushshahid va Xoja Kalon va Xoja Xusayniy¹ va Xalifa yana Samarqanddin kelgan xojalarning tavobeyi hofiz va mullolar o'lturdilar. So'l qo'lumda besh-olti qari – Muhammad Zamon mirzo va Tongotmish sulton va Sayid Rafe va Sayid Rumiyy va Shayx Abulfath va Shayx Jamoliy va Shayx Shihobiddin arab va Sayid Dakniy o'lturdilar. Jami' salatini va havonini va akobir va umaro oshdin burun qizildin, oqtin, qoradin, raxttin, jinstin sochiqlar kiyurdilar. Buyurdumkim, olimda zaylucha soldilar. Qizil va oqni bu zaylucha ustiga to'ktilar. Raxt va oq parcha va badralarni ham qizil va oqning yonida to'da qildilar.

Oshdin burunroq sochiq kiyurur asnosida mast tevalarni va fillarni o'trudagi orolda urushqa soldilar. Bir necha qo'chqor ham urushturdilar. Bulardin so'ng kushtigirlar kushti tuttilar.

Ulug' osh tortilg'ondin keyin, Xoja Abdushshahid bila Xoja Kalong'a o'rmak² abraliq kish jubbalar munosib xil'atlar bila kiyduruldi. Mullo Farruh va Hofiz boshliq bila kelganlariga chakmanlar kiyduruldi. Ko'chumxonning elchisiga va Hasan Chalabiyning inisiga ham qumosh boshliq, tugmalik kish jubbalar faroxo'riy xil'atlar inoyat bo'ldi. Abusaid sultonning va Mehri-

¹ L. b. – Xoja Choshiy.

² Q. b. – O'zbek.

bon xonimning va o'g'lining, Po'lod sultonning elchilariga va Shoh Hasanning elchisiga tugmalik chakmanlar, qumosh to'nlar in'om bo'ldi. Ikki xojag'a va ikki ulug' elchigakim, Ko'chumxonning navkari va Hasan Chalabiyning inisi bo'lg'ay, kumush toshi bila oltun va oltun toshi bila kumush tortilib, in'om bo'ldi. Oltun toshi besh yuz misqoldurkim, Kobul toshi bila bir ser bo'lg'ay, kumush toshi ikki yuz ellik misqoldurkim, Kobulning yarim seri bo'lg'ay. Xoja Mir sultong'a va o'g'lonlariga va Hofiz Toshkandiy va mullo Farruh boshliq Xojaning mulozimlarig'a va o'zga elchilarg'a ham oltundin, kumushdin tarkash bila in'omlar bo'ldi. Yodgor Nosirg'a kamar xanjar in'om bo'ldi. Yana Mir Muhammad jolabong'a Gang daryosig'a yaxshi ko'pruk bog'lag'oni uchun mustavjibi inoyat bo'lub edi, bu Mir Muhammadg'a va yana tufakandozlardin pahlavon Hoji Muhammad va pahlavon Bahlul va Vali Porschiyg'a yakka xanjar inoyat bo'ldi. Ustod Aliqulining ikki o'g'liga ham xanjar in'om bo'ldi. Yana Sayid Dovud Garmseriyga qizildin, oqdin in'om bo'ldi. Yana qizim Ma'sumaning va o'g'lum Hindolning navkarlariga tugmalik chakmanlar va qumosh xil'atlar in'om bo'ldi. Yana Andijondin va bevi-loyat va bevatan yurgan yerlarimiz va So'x va Hushyordin kelganlarga chakmanlar va qumosh xil'atlar va oltundin va kumushdin, raxtdin, jinsdin in'omlar bo'ldi. Qurbon bila Shayxning navkarlariga va Kohmard raoyosig'a ham ushbu dastur bila inoyatlar bo'ldi.

Osh tortilg'ondin so'ng farmon bo'ldikim, Hindustonni bozigarlari kelib, o'yunlarini ko'rsatgaylar. Lo'lilar kelib, ishlarini ko'rsattilar. Hinduston lo'lilari ba'zi ishlare ko'rsaturlarkim, ul viloyatlarning lo'lilaridin ko'rulmaydur edi. Ul jumladin biri budurkim, yetti xalqani peshonasig'a va ikki tiziga ta'biya qilib, yana to'rt halqani ikkini ikki ilik barmog'i bila va ikkini ikki oyog'i barmog'i bila tez va bedarang evuradur. Yana biri bukim, raftori tovus yo'sunluq bir iligini yerga qo'yub, bir iligi va ikki oyog'i bila uch halqani tez va bedarang evuradur. Yana biri bukim, ul viloyat lo'lilari ikki yig'ochni oyog'larig'a bog'lab «poyi cho'bin» qilib, yo'l yururlar. Hinduston lo'lilari bir yig'och bila «poyi cho'bin» qilib, yo'l yuruydurlar, oyog'larig'a ham bog'lamaydurlar. Yana biri bukim, ikki lo'li bir-birini tutushib, ul viloyatlarda ikki turluk muallaq borurlar. Hinduston lo'lilari bir-birlarini tutushub, uch, to'rt turluk muallaq boradurlar. Yana biri bukim, olti-yetti qari yig'ochning tubini bir lo'li beliga qo'yub, yig'ochni tik tutub turadur, yana bir lo'li bu yig'ochqa chiqib, yig'och ustida o'yunlar o'ynaydur. Yana biri bukim, bir kichik lo'li yana bir ulug' lo'lining boshig'a chiqib, tik turadur, quyig'a lo'li ul sari, bul sari ildam yurub, ish ko'rsatganda, bu kichkina ul lo'lining boshining ustida tiptik tebranmay turub, ul ham ishlar ko'rsatadur. Qalin motular¹ ham kelib, raqqosliq qildilar.

Namozi shomg'a yaqin qizildin, oqdin, qoradin g'alaba sochildi. G'arib g'avg'o va izdihome

¹ Q. b. – potirlar.

bo'ldi. Namozni shom bila namozni xuftan orasida besh-olti maxsuslarni qoshimg'a o'lturg'uzdum. Bir pahrin ko'proq o'lturildi. Tonglasi ikki pahrda kemaga o'lturub, «Hasht bihisht»g'a kelildi.

Dushanba kuni Askariykim, safar qilib chiqib edi, kelib hammomda ruxsat olib, Sharqqa ko'chdi. Seshanba kuni Do'lpurda bu yurg'on havz va choh imoratlarini ko'ra bordim. Bir pahr va bir girida bog'din otlandim. Kecha-ning avvalgi posidin besh giriy bo'lub edikim, Do'lpur bog'ig'a borildi.

Panjanba kuni oyning o'n birida sangin choh va yigirma olti tosh tarnov va tosh sutun va yakpora qiyodin qazilg'on arig'lar tayyor bo'lib, ushbu kunning uch pahrin chohdin suv tortmoq bunyod bo'ldi. Do'lpurda ish qiladurg'on sangtarosh va durudgar va jami' muzdurlarg'a Ogradagi ustodkorlar, muzdurlar dasturi bila in'omlar bo'ldi. Choh suyi idi uchun ehtiyotqa buyuruldikim, o'n besh kecha-kunduz tinmay charxin evurub, suv tortkaylar.

Odina kuni avvalgi pahrig'a bir giriy qolib edikim, Do'lpurdin o'tlanildi. Oftob hanuz o'lturmaydur edikim, darsdin kechildi.

Seshanba kuni oyning o'n oltisida qizilbosh bila o'zbekning urushida bor kishi Dev sultonning navkari keldi. Andoq taqdir qildikim, Jom va Xargird navohisida oshur kuni turkman bila o'zbekning masofi voqe bo'lur. Farz vaqtdin namozni peshingacha urushurlar. O'zbek kishisini uch yuz ming bor edi, dedi. Turkman qirq-ellik ming kishi ekandur. Qorasini yuz ming kishi chenadi. Vale o'zbek o'zining

kishisini yuz besh ming kishi derlar edi. Qizilbosh odami Rum dasturi bila aroba va zarbzan va tufakandoz tartib qilib, o'zini berkitib urushur. Ikki ming aroba, olti ming tufakandoz bor ekandur. Shahzoda va Jo'ha¹ sulton yigirma ming o'bdon yigit bila arobaning ichida turar, o'zga beklarni arobadin tashqari burong'or va juvong'or yasar, o'zbaklar yetgan bila tashqarig'i kishini bssib, tushura-tushura olib-o'q tebrarlar. Orqaga evrulub, teva va partol o'lja qilurlar. Oxir, arobaning ichidagilar zanjirni ochib chiqarlar. Munda ham zarb urush bo'lur. O'zbak uch qatla yondura solur. Tengri taolo inoyati bo'lub, o'zbakni bosarlar. Ko'chumxon, Ubaydxon, Abusaid sulton boshliq to'qquz sulton giriftor bo'lur. Bir Abusaid sulton tirik emish, o'zga sekkiz sulton maqtul bo'lur. Ubaydxonning boshini topmaslar, tanasini toparlar, o'zbaktin ellik ming kishi va turkmandin yigirma ming kishi qatlg'a borur.

Ham ushbu kun G'iyosiddin qo'rchikim, o'n olti kunluq buljor bila Junpurg'a borib edi, keldi. Sulton Junayd alar Xaridqa cherik borg'ondurlar. Bu Xaridqa borg'on jihatdin buljorg'a yetisha olmas. Sulton Junayd og'iz so'zi muni debturkim, shukr-shukr tengri inoyatidin bu garafklar podshoh mutavajjih bo'lg'uncha ish ko'runmaydur. Mirzo kelsalar bu navohiydag'i salotin va xavonin va umarog'a farmon bo'dsakim, mirzo qadamida mutavajjih, bo'lsalar. Umid borkim, bori ishlar osonliq bila muyassar bo'lg'ay.

¹ Q. b. – Shahzoda va Xoja.

Agarchi Sulton Junaydtin mundoq javob keldi. Vale Mullo Muhammad muzahhibnikim, Sangoyi kofirning g'azvidin so'ng Bangolag'a elchilikka yiborilib edi, bukun tongla kelur deydurlar erdi, aning xabarig'a ham boqildi.

Odina kuni oyning o'n to'qqizida ma'jun yeb, bir necha maxsuslar bila «Xilvatxona»da o'lturub edim. Mullo Muhammad muzahhib oxshomig'akim, shanba kechasi bo'lg'ay, kelib mulozamat qildi. Ul tarafdag'i kayfiyatni bir-bir so'rub, ma'lum qildukkim, Bangoliy itoat va yakjihatliq maqomida emish.

Yakshanba kuni turk va hind umarosini «Xilvatxona»da charlab kengashtuk. Bu so'zlar orag'a tushtikim, Bangoliy elchi yiborib, itoat va yakjihatliq maqomida emish. Bangolag'a bormoq xud besurattur. Agar Bangola borilmasa, ul avohiyda bir xizonaliq yer yo'qturkim, cherik eliga madade bo'lg'ay. G'arb tarafida ba'zi yerlar bor ham yovuqdur va xizonasi bordur.

*Moli vofir, eli kofir, yo'l yovuq,
Sharq sori gar yiroqtur, ul yovuq.*

Oxir so'z munga qaror toptikim, g'arb tarafi borur yo'limiz chun yovuqtur, bir necha kun tavaqquf qilib, sharq tarafidin xotirni jam' qilib, borilsa ham bo'lor. Yana G'iyosiddin qo'rchini yigirma kunluk miyod bila Po'rub umarosig'a farmonlar bitib chopturuldikim, bori salotin va havonin va umarokim, Gang suyining nari yuzidaturlar. Askariyning qoshig'a yig'ilib, bu yog'ylarning ustiga yurugaylar. Bu farmonlar-

ni yetkurub, har ne onda bo'lg'on xabarni topib olib, miyodqa yeta kelgay.

Ushbu ayyomda Muhammadiy ko'kaltosh-tin arzadosht keldikim. Baluj yana kelib, ba'zi yerlarni chopti.

Bu maslahat uchun Chin Temur Sultonni tayin qilidikim, Sihrind va Somonavidin narig'i beklar, misli: Odil Sulton, Sulton Muhammad do'ldoy, Xisrav ko'kaltosh, Muhammad Ali jang-jang, Abdulaziz miroxo'r, Sayid Ali, Vali Qizil, Qarocho, Halohil, Oshiq bakavul, Shayx Aliy Katta, Gujurxon, Hasan Ali Savodiy boshliqlar sulton qoshig'a yig'ilib, olti oyliq yaroq bila Baluj ustiga yurugaylar. Sultonning jor va yasog'iga hozir bo'lub, yo'lluq, to'raliq so'zidin chiqmag'aylar. Bu farmonni yetkurgali Abdulg'affor tavochi tayin bo'ldi. Andoq muqarrar bo'ldikim, avval Chin Temir Sultong'a bu farmonlarni tegurgay. Andin o'tub, mazkur bo'lg'on beklarga farmonni ko'rsatib, ne yerdakim, Chin Temir Sulton buljor qilg'on bo'lsa, borchani cherigi bila anda hozir qilg'ay. Abdulg'affor ham o'zi bu cherikda bo'lg'ay. Har kimdin sustluq va beihtimomlik zohir bo'lsa, arzadosht qilg'ay. O'shal taqsir qilg'onni mucha chargasidin uzatib, viloyat va parganisidin yiratqaybiz. Bu farmonlarni topshurub, og'iz so'zlarini tuyturub, Abdulg'afforg'a ruxsat berildi.

Yakshanba kechasi oying yigirma sekkizida uch pahr va olti giriya Jo'ndin o'tub, Do'lpurda Nilufar bog'ig'a mutavajjih bo'lduk. Yakshanba kunidin uch nahr yovushub edikim, bog'qa kelduk. Bog'ning atrof va javonibida beklarga

va ichkilarga yerlar, yurtlar tayin bo'ldikim, o'zlari uchun imoratlar va bog'lar solg'aylar.

Panjschanba kuni jumodil-avval oyining uchida bog'ning sharqi janubiy tarafida hammomg'a yer tayin qilib, hammom yerini tuzatilar. Buyurdumkim, bu tuzalgan yerda hammomning kursisini qo'porg'ondin so'ng, hammom tarhini solgaylar. Bu hammomning bir uyida dahidardah havz buyurdum.

Ushbu kuni Qozi Jiyoning va Bir Sing Devning arzadoshtlarini Ogradin Xalifa yiborib-tur. Bihorni Iskandarning o'g'li Mahmud olg'on emish. Bu xabar kelgach cherik o'tlanmoqini jazm qilib, tonglasi odina kuni olti giriya Nilufar bog'idin o'tlanib, namozi shom Ograga kelildi. Muhammad Zamon mirzo Do'lpurg'a boradur ekandur, yo'lda uchradi. Chin Temir Sulton ham ushbu kun Ograga kelib ekandur.

Tonglasi shanba kuni kengash beklarini tilab, panjschanba kuni oyning o'nida Po'rub sari o'tlanmoqqa so'zni qaror berildi.

Ham ushbu shanba kuni Kobuldin xat va xabar keldikim, Humoyun ul yuzlarning cherikini yig'ib, Sulton Vaysni o'ziga qo'shub, qirq-ellik mingcha kishi bila Samarqand ustiga azimat qilibtur. Hisorg'a Sulton Vaysning inisi Shohquli borib kiribtur. Tursun Muhammad sulton Tirmiztin yurub, Qabodiyonni olib, ko'mak tilabtur. Humoyun Tulak ko'kaltoshni va Mir Xurdni qalin kishi bila va bo'lg'on mo'g'ullar bila Tursun Sultong'a ko'mak yiborib, o'zi ham alarning so'ngicha mutavajjih bo'lubtur.

Panjshanba kuni jumodil-avval oyining o'ni-da uch girydin so'ng Po'rub azimati bila sa-far qilib, Jalisir kentidin yuqqoriroq kema bila Jo'ndin kechib, «Zarafshon» bog'ig'a keldim. An-doq farmon bo'ldikim, tug' va naqora va tavila va jami' cherik eli bog'ning o'trusida suvning ul yuziga tushg'ay. Ko'rinishga kelur kishi kema bila kechib kelgaylar.

Shanba kuni Ismoil Matokim, Bangola elchi-si edi, Bangoliyning peshkashlarin kelturub, Hinduston dasturi bila mulozamat qildi. Bir gaz otimi yer kelib, ta'zim qilib yondi. Mu'todiy xil'atkim, sermo'yna derlar, kiydurub keltur-dilar. Bizning dastur bila uch yukunub kelib, Nusratshohning arzadoshtini berdi. Kelturgan peshkashlarni o'tkarib, murojaat qildi.

Dushanba kuni Xoja Abdulhaq keldilar. Kema bila suvdin kechib, Xojaning chodirla-rig'a borib, mulozamat qildim.

Seshanba kuni Hasan Chalabiy kelib, mu-lozamat qildi. Cherik jabdug'ining maslahatig'a necha kun Chorbog'da tavaqquf qilildi.

Panjshanba kuni oyning o'n yettisida uch gi-ryidin keyin andin ko'chuldi. Men kemaga kirib bordim. Anvor kentigakim, Ogradin yetti ku-ruhdur, tushuldi.

Yakshanba o'zbek elchilariga ruxsat berildi, Ko'chumxonning elchisi Amin mirzog'a kamar xanjar va zarbaft yalak va yetmish ming tanga in'om bo'ldi. Abusaid sultonning navkari Mul-lo Tag'oyig'a va Mehrixonim bila o'g'li Po'lod sultonning navkarlariga tugmalik chakman-lar bila qumosh xil'atlar kiyduruldi. Bularning ham faroxo'r hollari naqddin in'om bo'ldi.

Tonglasig'a Xoja Abdulhaqqa Ograda turmoqqa va Xoja Kalon Xoja Yahyoning nabirasig'akim, o'zbek xon va sultonlaridin risolat tariyqi bila kelib edilar, Samarqand bormoqqa ruxsat bo'ldi.

Humoyunning o'g'li bo'lg'onning tahniyatig'a va Komronning kadxudolig'ining tahniyatig'a Mirzoyi Tabreziyni va Mirzobek tag'oyini o'n ming shohruhiy sochiq bila yiborildi. O'zum kiygan to'n va bog'lag'on kamar har ikki mirzog'a yiborildi. Mullo Bihishtiydin Hindolg'a murassa' kamar va xanjar va murassa' davot va sadafkorliq sandali va kiygan nimcha va tagband va «Boburiy xat»ning mufradotini yiborildi. Yana «Boburiy xati» bila bitilgan qit'alar yiborildi. Humoyung'a tarjimanikim, Hindustong'a kelgali aytqon ash'orni yiborildi.¹ Hindolg'a va Xoja Kalong'a ham tarjima va ash'or yiborildi, Mirzobek tag'oyidin ham Komrong'a tarjima va Hindqa kelgali aytqon ash'or va «Boburiy xati» bila bitilgan sarxatlar yiborildi.

Seshanba kuni Kobulg'a borur kishilarga xatlar bitib, ruxsat berib, Mullo Qosim va ustod Shoh Muhammad sangtarosh va Mirak Mirg'iyos va Mir sangtarosh va Shoh Boboyi beldorg'a Ograda va Do'lpurda qilur imoratlarni xotirnishon qilib, bularning o'xdasig'a qilib, ruxsat berildi.

Bir pahr yovushub edikim, Anvordin otlanildi. Oxir namozi peshin Chandvorning bir kuruhida Obopur otliq kentga tushuldi. Panjshanba oxshomi Abdo'lmuluk qo'rchini Hasan Cha-

¹ L. b. – tushgan.

labiyg'a qo'shub, shohg'a va Chopuqni o'zbek elchilari bila xonlar va sultonlarg'a yiborildi.

Kechadin to'rt giriy qolib edi. Obopurdin ko'chub, men tong boshida Chandvor qoshidin kelib, kemaga kirdim. Namozni xuftanda Robiriyning oldidin kemadin chiqib, o'rdug'a keldim. O'rdi Fathpurda tushub edi. Fathpurda bir kun turub, shanba sahari vuzu qilib, otlanib, Robiriyning yovug'ida namozni bomdodni jamoat bila o'taduk. Mavlono Mahmud Forobiy imom edilar. Oftob tuluida Robiriyning ulug' to'qayining quyisidin kemaga kirildi. «Tarkib xati» bila tarjima bitar uchun bukun o'n bir satrliq mistar bog'ladim. Ushbu kun ahlulullo-ning so'zlaridin ko'nglumg'a tanbihe bo'ldi.

Robiriy parganalaridan Jokin otliq pargana to'g'risida kemalarni yoqag'a tortib, ul oxshom kemada-o'q bo'lduk. Andin subhdin burunroq kemalarni yurutub, orada namozni bomdodni o'taduk. Kemada edimkim, Sulton Muhammad baxshi Xoja Kalonning navkari Shamsiddin Muhammadni olib keldi. Xatlaridin va taqriridin Kobuldag'i kayfiyat va holot mushaxxas va ma'lum bo'ldi. Mahdi Xoja ham kemada ekan- da keldilar.

Erta namozni peshin Atovanning olidag'i suv-ning nari yuzidagi bog'qa chiqib, Jo'nda g'usl qilib, zuhr ado qildim, Namoz o'tagan yerdin Atova sariroq kelib, ushbu bog'ning daraxtlarining soyasida bir balandiy ustidakim, suvg'a mushrif edi, o'lturub, yigitlarni sho'xluqqa solduk. Mahdi Xoja buyurg'on taom munda tortildi. Namozni shomda suvdin o'tub, namozni

xuftan o'rduga keldim. Cherikning yig'iluri uchun va Shamsiddin Muhammaddin Kobulda g'ilarg'a xatlar bitilur uchun ikki-uch kun ul yurtta tavaqquf bo'ldi.

Chahorshanba kuni jumodil-avval oyining salxida Atovadin ko'chub, sekkiz kuruh kelib, Mo'riy va Adusag'a tushub, Kobulg'a borur ba'zi qolg'on xatlarni bu yurtta bitildi. Humoyung'a bu mazmuni bitildikim: «Agar holag'acha mu'taddun bih ishe bo'lmaydur, xud o'g'ri bila qaroqni man' qilg'il, orag'a tushgan sulh ishini barham urmasun. Yana bu edikim, Kobul viloyatini xolisa qildim, o'g'lonlardin hech kim tama' qilmag'aysiz. Yana Hindolni tilab edim. Yana Komrong'a Shahzoda bila yaxshi omad-uraft rioyat qilmog'lig'i va Mo'ltan viloyatini o'ziga inoyat qilmog'lig'i va Kobul viloyatining xolisa bo'luri, ko'ch va uruqning kelurini bitilib edi. Yana ba'zi kayfiyat Xoja Kalong'a bitilgan xat-tin ma'lum bo'lur uchun o'shal xatning savodini betafovut bitildi:

«Xoja Kalong'a salom degach, so'z ulkum, Shamsiddin Muhammad Atovag'a keldi. Kayfiyatlar ma'lum bo'ldi. Bizning ehtimomimiz ul sarilar bormoqqa behad va beg'oyattur, Hinduston ishlari ham bir nav' somon topib keladur. Tengri taolodin umid andoqdurkim, bu oraning ishi tengri taolo inoyati bila bot saranjom topg'ay. Bu ish zabtidin so'ng betavaqquf, tengri yetkursa, mutavajjih bo'lg'umdur. Ul viloyatlarning latofatlarini kishi nechuk unutqay. Alalxusus mundoq toyib va torik bo'lg'onda qovun va uzumdek mashru' hazni

kishi ne tavr xotirdin chiqarg'ay. Bu fursatta bir qovun kelturub edilar, kesib yegach, g'arib ta'sir qildi. Tamom yig'lab edim, Kobulning nomarbutlug'ini bitilib edi, ul bobta andisha qilib, oxir xotir munga qaror toptikim, yetti-sekiz hokim bir viloyatta bo'lsa, ne tavr marbut va mazbut bo'lg'usudur. Bu vajhdin egachimni va haramlarni Hindustong'a tiladim. Jami' Qobul viloyat va quroyotini xolisa qildim. Humoyung'a va Komrong'a ham bu mazmunni mashruh bitidim. Bir o'bdon kishi ul xatlarni mirzolarg'a eltsun. Mundin burun ham ushbu mazmunni mirzolarg'a bitib yiborib edim, shoyad ma'lum bo'ldi erkin. Emdi ul viloyatning zabtida va imoratida hech uzr va so'z qolmadi.

Mundin so'n agar qo'rg'on nomazbut yo raiyat noma'mur bo'lsa, yo zaxira bo'lmasa, yo xazina to'lmasa, ul umdatulmulkning bemuhosillig'ig'a haml bo'lg'usidir. Ba'zi zaruriyotkim, mastur bo'lg'usidir, ba'zisig'a farmon ham boribtur. Bulardin ortqon xazina bo'lsun. Zaruriyot bulardur: avval qo'rg'onning marammatig'a, yana zaxira, yana kelur-borur elchining ulufa va qo'nlag'asi, yana masjidi jum'aning imorati yormog'ini moldin olib, shar'iy qilib sarf qilsunlar.

Yana korvonsaro va hammomlarning marammati, yana arkta ustod Hasan Ali qilg'on pishiq xisht bila nimkora imoratning itmomi; bu imoratni ustod Sul-ton Muhammad bila mashvarat qilib, munosib tarh bila buyrulsun. Agar ustod Hasan Ali tortqon burung'i tarh bordur, xud o'shandoq-o'q tamom qilsun, yo'q ersa,

ittifoq bila bir shirin tarhliq imorat solsun. Andoqkim, sahn devonxona sahnı bila barobar bo'lg'ay. Yana Xurd Kobulning bandikim, tangining Xurd Kobul sari chiqarida Buthaq suyig'a bog'lag'uluqtur. Yana G'aznining bandining marammati, yana Bog'i Xiyobon va xiyobon. Yana bu borning suyi ozdur, munga bir tegirmon suvni sopqun¹ olib, kelturmak kerak.

Yana Xoja Bastaning g'arbi-janub tarafida Tuto'm dara suvini bir pushta ustiga kelturub havz qilib, nihollar tikturub edim. Gu-zargohning muqobalasida tushgan uchun va yaxshi maddi nazari bor uchun, «Nazargoh»g'a mavsum bo'lib edi, munda ham yaxshi nihollar tikmak kerak. Tarh bila chamanlar qilib, chamanlar atrofida xushrang va xushbo'y gul va rayohin tikmak kerak.

Yana Sayid Qosim ham ko'mak tayin bo'ldi. Yana tufakandozlar bila ustod Muhammad Ayin jibachining ahvalidin g'ofil bo'lmang. Yana bu xat yetgach-o'q egachimni va haramlarni bot chiqarib, Nilobqacha badraqa bo'lub keling. Kerakkim, ushbu xat yetgach, o'shul haftada har necha kech qolsalar, albatta, chiqsunlar. Ne uchunkim, Hindustondin borg'on cherik tor yerda tanqislik ham tortarlar, viloyat ham xarob bo'lur.

Yana Abdullog'a bitilgan kitobatta mastur edikim, tavba vodiysida muvofaqat dag'dag'asi ko'p bo'lub edi, bu ruboiy andake mone bo'ldi:

*May tarkini qilg'ali parishondurmen,
Bilmon qilur ishimni-yu hayrondurmen.*

¹ Q. b. – sotqun.

*El borcha pushaymon bo'lor-u tavba qilur,
Men tavba qilibmen-u pushaymondurmen.*

Binoiyning zarofat qilg'oni xotirg'a keldi: bir kun Alisherbek qoshida Binoiy zarofate qilur. Alisherbek tugmalik chakman kiygan ekandur. Derkim: «Nag'z zarofate kardi, chakmanro medodam, vale tugmaho namemond va moneast». Binoiy derkim: «Tugmaho chi moneast, bodigiho moneast»,¹ (Val-uhdatu alarroviy). Ma'zur tutung. Muncha zarofatkim bo'ldi, tengri uchun, xotiringizg'a kechurmang.

Yana ul ruboiy o'tgan yil aytilib edi. Filvoqe bu o'tgan ikki yilda chog'ir majlisining orzu va ishtiyoqi behad va g'oyat edi, andoqkim, chog'ir ishtiyoqidin borlar yig'lamoq sarhadig'a yetar edim. Bu yil, alhamdu lilloh, ul dag'dag'a tamom xotirdin raf' bo'ldi. G'olibo, tarjima-ni nazm qilmog'ining yumnu barakatidin edi ekin. Siz ham tavba qiling. Suhbat va chog'lr hamsuhbat va hamkosa bila xushturkim, bila suhbat tutqaysizkim, bila chog'ir ichgay-siz. Agar hamsuhbat, hamkosa Sherahmad va Haydarqulidur, xud bu tavbaning xeyli ashkoli yo'qtur, deb orzumandliq bila salom.

Panjshanba kuni jumodil-oxir oyining g'urrasida bitildi».

Bu nasihat omiz so'zlar bitir mahalda man-ga bisyor ta'sir qildi. Bu xatlarni Shamsiddin Muhammadqa topshurub, og'iz so'zlarin tuy-durub, odina kechasi ruxsat berildi.

Odina kuni sekkiz kuruh kelib, Juvomand-nog'a tushuldi. Ketin Qaro sultonning navkari-

¹ L. b. – tushgan.

kim, elchilikka kelgan Kamoliddin Qiyocq otliq navkariga yiborib edi, sarhad beklarining maosh va ixtilotidin va qaroq va o'g'ring shikva va shikoyatidin qiyocqi nimalar bitib edi, qiyocqlar ul kelgan kishini munda yiborib edi. Qiyocqa ruxsat berib, sarhad beklariga farmon bo'ldikim, qaroq va o'g'rini man' qilib, yaxshi maosh va ixtilot qilg'aylar. Bu farmonlarni Ketin Qaro sultondin kelgan kishiga topshurub, ushbu yurttin ijizat berildi.

Shohquli degan Hasan Chalabiydin kelib, urush kayfiyatlarini arz qilib edi, bu Shohqulidin Shohga xat bitib, Hasan Chalabiyning kech qolg'onining uzrini butub, odina kuni oyning ikkisida ruxsat berildi.

Shanba kuni sekkiz kuruh kelib, Kolpiy parganalaridin Kakuro va Chachovaliyda¹ tushuldi.

Yakshanba kuni oyning to'rtida to'qquz kuruh kelib, Kolpiy parganalaridin Diydapur otliq parganada boshimni qirqtim. Ikki oy edikim, boshimni qirqmaydur edim. Singar suvida g'usl qildim.

Dushanba kuni oyning o'nida o'n to'rt kuruh kelib, Kolpiy parganalaridin Charkadada tushuldi.

Tonglasi seshanba kuni oyning oltisida Qarochaning Hindustoniy chokari, Mohimning Qarochag'a bitilgan farmonini olib keldikeladur emish. Mening yurtda o'z iligim bila bitigan parvona yo'suni bila Lohur va Behra va ul navohidag'ilarni badraqa tilabtur. Jumodilavval oyining yettisida Kobuldin bu farmonni bitigandur.

¹ Q. b. – Hamovaliyda.

Chahorshanba kuni yetti kuruh kelib, Odampur parganasiga tushuldi. Ushbu kun tongdin burun o'tlanib, yolg'uz tushlab kelib, Jo'n daryosida yettim. Jo'nni yoqalab, quyig'a yurudum. Odampur to'g'risig'a yetganda bir orolda o'rduning yovug'ida shomiyonalar tik-turub, ma'jun yeyildi. Ushbu kun Sodiq bila Kulolni kushtiga solduk. Kulol da'vo bila kelib edi. Ograda kushti tutmoqqa yo'l ko'ftini uzr aytib, yigirma kun muhlat tiladi. Qirq-ellik kun muhlatidin o'tti. Bukun zarur bo'ldi – kushti tutti. Sodiq yaxshi kushti tutti, xeyli oson yiqti. Sodiqqa o'n ming tanga va egarlik ot va boshoyog' va tugmalik chakman in'om bo'ldi. Bovujudkim, Kulol yiqilib edi, ma'yus qilmay, anga ham saru poy va uch ming tayga in'om bo'ldi. Farmon bo'ldikim, arobalarni va kozonlarni kemalardin chiqarg'aylar. Yo'l yasab, yer tuza-tib, arobalarni va qozonlarni chiqarg'uncha bu yurtta uch-to'rt kun maks bo'ldi.

Dushanba kuni o'yning o'n ikkisida o'n ikki kuruh kelib, Karraga tushuldi. Bukun tax-tiravon bila keldim. Karradin o'n ikki kuruh kelib, Karra parganalaridin Kuryag'a tushtuk. Kuryadin sekkiz kuruh yurub, Fathpur Asvag'a tushtuk. Fathpurdin sekkiz kuruh yurub..¹ Sa-roy Mandog'a tushuldi. Ushmunda tushganda namozi xuftan Sul-ton Jaloliddin kelib, mulo-zamat qildi. Ikki kichikkina o'g'lini ham o'zi bila olib keldi.

Tonglasi shanba kuni o'yning o'n yettisida sekkiz kuruh kelib, Karra parganalaridin Dug-

¹ L. b. – tushgan.

dugiyg'a Gang yoqasig'a tushuldi. Yakshanba kuni Muhammad Sulton mirzo va Qosim Husayn Sulton va Biho'b Sulton va Turdika ushbu yurtta keldilar. Dushanba kuni Askariy ham ushbu yurtta kelib, mulozamat qildi. Bu kelganlar bori Gangning sharqiy tarafidin kelib edilar. Andoq farmon bo'ldikim, Askariy bila cheriklar tamom Gangning ul yuzi bila-o'q yurugaylar. Har yerda bu o'rdi tushsa, agar dag'i ro'baro'da ul yuzda tushgaylar.

Ushbu navohida ekanda ilgaridin mutaoqib xabarlar keladur edikim, Sulton Mahmudg'a bir lak afg'on yig'ilibdur. Shayx Boyazid bila Bibanni qalin cherik bila Sarvor tarafi yiborib, o'zi va Fathxon Sarvoniy Gang yoqalab, Chunor ustig'a keladur. Sherxon surkim, o'tgan yil rioyat qilib, qalin pargana berib, bu navohida qo'yulub edi, bu afg'onlarga kiribtur. Sherxon va yana bir necha umaroni suvdin o'tkaribtur. Sulton Jaloliddinning kishisi Banorasni saxlay olmay, qochib chiqibtur. So'zlari bu emishkim, Banoras qo'rg'onida basqiylarini qo'yub, Gang yoqasida kelib urushqaylar. Dugdugydin ko'chub, olti kuruh kelib, Karraning uch-to'rt kuruhida Kusora tushuldi. Men kema bila keldim. Ikki-uch kun bu yurtta Sulton Jaloliddinning ziyofati jihatidin turuldi.

Odina kuni Karra qal'asining ichida Sulton Jaloliddinning uylariga tushuldi. Mehmondorliq qilib, bir pora osh va taom tortti. Taomdin so'ng o'ziga va o'g'lonlarig'a yaktoyi, oma, nimcha kiyduruldi. O'zining istid'osidek ulug' o'g'li – Sulton Mahmud xitobi bila muxotab bo'ldi.

Karradin o'tlanib, bir kuruhcha yo'l kelib, Gang yoqasig'a tushuldi. Shahrak bekkim, Mohim qoshidin Gangga avval kelgan yurtta kelib edi, ushbu kun xat bitib, ushbu yurttin ruxsat berildi. Xoja Kalon Xoja Yahyoning nabirasi mendin bitiyturgan voqoyeni tilaydur edi, istik-tob qildurub erdim, Shahrakdin yiborildi.

Tonglasi shanba ko'chub, to'rt kuruh kelib, Ko'h tushtuk. Men kema bila-o'q keldim. Tushar yurt yovuq ekandur, erta-o'q kelildi. Muddattin so'ng kema ichida-o'q o'lturub ma'jun yeduk. Xoja Abdushshahid Nurbekning uyida ekandur, alarni tiladuk. Mullo Mahmudni Mullo Alixonning uyidin tilab kelturduk. Bir zamon o'lturub, kema bila ul yuzga o'tub, kushtigirlar-ni kushtiga solduk. Do'st Yasinxayrg'a buyuruldikim, pahlavon Sodiq bila tutmay, o'zglar bila minyogirliq qilg'ay. Xilofi qoida buyuruldikim, avval zo'roqlarni miyongirliq qilg'ay. Sekkiz kishini yaxshi miyongirliq qildi. Namozni diygarda Sul-ton Muhammad baxshi kema bila ul tarafdin keldi. Sul-ton Iskandarning o'g'li Mahmudxonningkim, bu yog'iylar Sul-ton Mahmud derlar edi, buzulg'onining xabarini kelturdi. Namozni peshin mundin borg'on josus bu yog'iylarning buzulg'onining xabarini kelturur. Ikki namoz orasida Tojixon Sorangxoniyning arzadoshti ham josus xabarig'a muvofiq kelur. Bu kayfiyatlarni Sul-ton Muhammad¹ kelib arzg'a yetkurdi. Chunorni kelib muhosara qilg'on ekandur. Ozroqcha urush ham solg'ondur. Bizning kelganimizning tahqiqi xabarini topqoch,

¹ Q. b. - Sul-ton Mahmud.

buzulg'on yo'sunluq andin qo'par. Banorasqa o'tgan afg'onlar ham iztirob bila yonib, suv kecharda ikki kema g'arq bo'lub, bir pora kishi suvg'a borur.

Tonglasi olti kuruh kelib, Piyog parganalaridin Sepovaliyyg'a kelildi. Men kema bila-o'q keldim. Esan Temur Sulton bila To'xta Bo'g'a sulton yarim yo'lda ko'runishga tushub, turub edilar, sultonlarni ham kemaga tiladim. To'xta Bo'g'a sulton yada qilg'on ekandur. Tun yel qo'pub, yomg'ur yog'akirishti. Tavr xavoye bo'ldi. Bu havo ma'jun yemakka bois bo'ldi. Bovujudkim, o'tgan kun ma'jun yeyilib edi, bukun ham ma'jun yeduk. Yurtqa kelib, tonglasi yurttta tavaqquf qilildi.

Seshanba kun, o'rdu to'g'risi sabzaliq orol bor ekandur, kema bila o'tub, ul orolni sayr qilib, bir pahrda kelib, kemaga kirdim. Otliq sayr qilurda daryo yoqasida g'ofil borilg'on jarning usti bila o'ttum. Ot darz qilg'on jarning ustig'a chiqqach, jar uchti, men filhol sekrab, o'zumni yoqag'a soldim, ot ham uchmadi. Agar men otning ustida bo'lsam edi, g'olib bu edikim, ot bila-o'q uchgay edim. Ushbu kun Gang daryosini qo'l solib o'ttim. Bir qo'lni sanadim, o'ttuz uch qo'l bila o'ttum, yana tinmay uzub, bu yuzga ham o'ttum. Bori daryolarni uzub, kechib edim, Gang daryosi qolib edi, namozi shom Gang suyi Jo'n suyining qotilishig'a yetib, Piyog tarafi bila kemani tortturub, bir pahr to'rt girida o'rdug'a keldim.

Chorshanba kuni ikki pahrdin cherik Jo'n daryosidin o'ta kirishti. To'rt yuz yigirma kema edi.

Odina kuni rajab oyining g'urrasida men suvdin o'ttum.

Dushanba kuni oyning to'rtida Jo'n yoqasidin Bahor azimati bila ko'chuldi. Besh kuruh yurub, Lavoying'a tushtuk. Men kema bila-o'q keldim. Ushbu kungacha cherik el suvdin kechadur edi. Zarbzanliq arobalarnikim, Odampurdin kemalardin chiqarilib edi, farmon bo'ldikim, Piyogtin yana kemaga solib, kema bila kelturgaylar.

Tushgan yurtta kushtigirlarni kushtiga solduk. Pahlavon Lohuriy kishtibon bila Do'st Yasinxayr kushti tutti. Qalin talashti, tashvish bila Do'st yiqitti. Ikkalasiga sarupo in'om bo'ldi.

Ilgari botqoqliq, bolchiqlik yamon suv bor emish, To's suyi der emishlar,¹ guzar ko'rarga va yo'l yasarg'a ikki kun bu yurtta tavaqquf bo'ldi. Ot va tevaga guzar yuqqorroq topildi. Yukluk aroba ul guzarining noxamvor toshlari bor jihatidin chiqa olmas emish, yukluk arobalarni farmon bo'ldikim, andin-o'q o'tkargaylar.

Panjshanba kuni andin ko'chub, men To's suyining qotilishigacha kema bila keldim. Qotilishidan kemadin chiqib o'tlanib, To's suyi yuqqori yurub, namozi diygar o'rdug'akim, suvdin o'tub tu shub edilar, kelildi. Bukun olti kuruh kelildi. Tonglasi ul yurtta maqom bo'ldi.

Shanba ko'chub, o'n ikki kuruh yurub, Nilobg'a yana Gang yoqosig'a kelildi. Andin ko'chub, o'n ikki kuruh yurub.² Ushbu yurtta Chunordin Tojixon o'g'lonlari bilan kelib, mu-

¹ Q. b. – bu katta matn tushgan.

² L. b. – tushgan.

lozamat qildi. Bu ayyomda Muhammad baxshining arzadoshti keldikim, Kobuldin ko'ch va urug' tahqiq keladur emish.

Chorshanba kuni ul yurttin ko'chub, Chunor qo'rg'onini sayr qilib, Chunordin bir kuruhcha o'tub tushuldi. Piyogdin ko'chgan ayyomda vujudumda obila jarohati paydo bo'lub edi. Bu yurtta bir Rumiyy Rumda emdi paydo bo'lg'on muolajani qildi. Murchini safol qozonda qaynatti, jarohatni aning issiq buxorig'a tuttum. Buxori kamroq bo'la issiq suvi bila yudum, ikki soati nujumiyg'acha darang bo'ldi.

Ushbu yurtta bir kishi ayttikim, o'rduning yonidagi orolda sher va kark ko'rubturlar. Sabohi ul orolni chargaladuk. Fillarni ham kelturub edi. Sher va kark chiqmadi. Charga uchidin bir sahroyi govmish chiqibtur. Bukun tund yel qo'пти. Gard va g'ubor ko'p tashvish berdi. Kemaga yetib, kemaga kirib, o'rdug'a keldim. O'rdu Banorastin ikki kuruh yuqqorroq tushub edi. Chunorning navohisidagi jangallarda fil qalin bo'lur emish. Bu yurttin borib, fil ovlar xayolim bor edi. Tojixon xabar kelturdikim, Mahmudxon Sun suvining qoshidadur. Beklarni charlab, g'anim ustiga ilg'amoqni mashvarat qilildi. Oxir munga qaror toptikim, uzun-uzoq ko'chub, bedarang-o'q yurulgay. Andin ko'chub, to'qquz yurub, Balva guzarig'a tushuldi.

Ushbu yurttin dushanba oxshomi oying o'n sekkizida Toxirni Ograga yiborildi. Kobuldin keladurganlarga qo'nolg'a yo'sunluq in'om bo'lg'on yormoqlarning barotini olib bordi.

Ushbu kun kema bila keldim, tongdin burunroq kemaga kirilib edikim, Go'ý suvining qotilishig'akim, Jo'npur suyidur, yetib kema bila ozroqcha Go'ý suyi yuqqori borib, yana yondim. Agarchi torg'ina suv edi, vale guzari yo'q edi. Ul yuzdagi cherik eli kema bila va sol bila va ot uzdurub o'tadur edilar. Jo'npur suyining qotilishidin bir kuruh quyiroq kelib, bilturg'i, yurtnikim, andin Jo'npurg'a borilib edi, sayr qildim. Muvofiq yel suv yuqqoridin paydo bo'ldi. Bangoliy kemanding yelkanini tortturub, ulug' kemani ul kemaga bog'ladilar, xeyli ildam keldi. Urdu Banorastin bir kuruh yuqqorroq tushub edi, yurtka kundan ikki tiriy qolib edikim, yetildi. Turmay keyinimizcha kelgan kemalardin botroq kelgani namozi xuftanda keldi.

Chunordin farmon bo'lub edikim, Mo'g'ulbek har ko'chta paymoyish tanoi bila to'g'ri yo'lni tanob urg'ay. Har qachonkim, men kemaga kirsam, Lutfibek daryo yoqasini tanob urg'ay. To'g'ri yo'l o'n bir kuruh ekandur. Suv yoqasi o'n sekkiz kuruh: Tonglasi ul yurttta tavaqquf bo'ldi.

Chahorshanba kuni hamma kema bila kelib, G'ozipurdin bir kuruh quyiroq tushuldi. Panjshanba kuni o'shul yurttta Mahmudxon Nuhoniy kelib, mulozamat qildi. Ushbu kun Jalolxon Bahorxon Bahoriyning, Faridxon Nasirxonning, Sherxon sur yana Alouddin xon sur va yana bir necha afg'on umarolarining arzadoshtlari keldi.

Ushbu kun Abdulaziz miroxo'rning arzadoshti keldi. Lohurdin jumodil-oxir oyining yigirmasida bitilgandur. Ushbu arzadosht bitilgan

kuni Kolpiy navohisidin yiborgan Qarochaning Hindustoniychokari yetar. Abdullazizning arzadoshtida mazkur edikim, Abdulaziz va muqarrar bo'lg'onlar jumodil-oxir oyining to'qquzida Nilobta ko'chga o'tru borurlar. Abdulaziz Chonobqacha bila kelib, Chonobtin ayrilib, Lohurg'a ilgararak kelib, bu arzadoshtni yiborgandur.

Odina kuni ko'chuldi. Men kema bila-o'q bilturg'i Cho'sa to'g'risidag'i oftob tutulg'on va ro'za tutulg'on yurtni chiqib sayr qildim. Kelib kemaga kirdim. Muhammad Zamon mirzo ham kema bila keyindin keldi. Mirzoning angizi bila ma'jun yeyildi. O'rdi Karmnos suyining yoqasida tushub edi, bu Karmnos suyidin hindular ko'p parhez qilurlar otmish. Parhezkor hindular bu suvdin o'tmay, kemaga kirib, Gang bila bu suvning to'g'risidin o'ttilar. Mutaqadlari andoqdurkim, bu suv kishiga tegsa, ibodatini zoye qilur. Vajhi tasmiyasini ham ushmunga munosib aytilar. Kema bila kelib, ozroqcha Karmnos suyi yuqqori borib, yana yonib, Gangning shimoliy tarafi kechib, suv yoqasida kemalarni turg'uzduk.

Yigitlar bir pora sho'xluq qildilar, bir pora kushtigirlik qildilar. Soqiy Muhsin da'vo qildikim, to'rt-besh kishini miyongirlik qilurmen. Bir kishi bila tutti, yiqilayozdi. Ikkinchisi Shodmon edi, Muhsinni yiqti. Xijil va munfayil bo'ldi. Kushtigirlar ham kelib, kushti tuttilar.

Tonglasi shanba Kuni Karmnos suyining guzarini ko'ra kishi yiborgan jihatidin bir pahrg'a yovuq ko'chuldi. Men otlanib, guzar sori bir kurhcha Karmnos suyi yuqqori bordim. Guzar

yroq jihatidin yana yonib, kema bila-o'q yurtqa keldim. O'rdu Cho'sadin bir kuruh ilgarrak tushub edi.

Ushbu kun yana murch dorusini qildim. Bir nima issiqroq ekandur, vujudim qabardi. Xeyli tashvish torttim...

Ilgari botqoqliq kichikroqqina suv bor ekan-dur, yo'lni yasamoq uchun, tonglasi ul yurtta turuldi. Dushanba oxshomi Abdulaziz yibor-gan Hindustoniy yayoqning kelturgan xatqa javob bitib yiborildi.

Dushanba sabohi kema bila keldim. Yel ji-hatidin kemalarni tortib kelturdilar. O'tgan yil qalin o'lturg'on Baksara to'g'risidag'i yurtning ro'baro'yiga yetib, suvdin o'tub, ul yurtni sayr qilildi. Daryo yoqasig'a inarga zinalar qililib edi, g'olibo, qirqdin ko'prak, ellikdin ozroq edi. Ikki yuqqorig'i zina qolibtur, o'zga barcha zinani suv buzubtur. Kemaga kirib, ma'jun yeyildi. O'rdu-din yuqqoriroq bir orolda kemani turg'uzub pahlavonlarni kushtiga solduk. Namozni xuftan o'rdug'a kelildi.

Bultur ushbu o'rdu tushgan yurtni Gang suyidin men dastak bila o'tub ba'zi ot, ba'zi teva minib kelib, sayr qililib edi. Ul kun afyun yeb edim.

Tonglasi seshanba kuni Karimberdi va Mu-hammad Ali Haydar rikobdor va Bobo shayx boshliqlarni ikki yuzcha o'bdon yigitlar bila bu muxoliflardin xabar olg'ali yiborildi. Ushbu yurttin Bangola elchiga farmon bo'ldi, bu uch fasl so'zni arzadosht qilsun.

Chahorshanba kuni Yunus Alini Muhammad Zamon mirzog'a yiborildikim, Bahor tarafidin

istimzoje hosil qilg'ay. Sustroq javob kelturdi. Bahor shayxzodalarining kishisi arzodasht bila Bahorni tashlab chiqqanlarning xabarini kelturub edi.

Panjsanba kuni Turdi Muhammad va Muhammad Ali jang-jangg'a turk va hind umarosi va tarkashbandiydin ikki mingcha chog'iliq kishi qo'shub, Bahor eliga istimolat farmonlari bitib, ruxsat berildi.

Xoja Murshid Iroqiyni Bahor sarkorig'a devon qilib, Turdi Muhammadg'a qo'shub yiborildi.

Tonglasi Muhammad Zamon mirzo Bahor bormoqni qabul qilib, Shayxi Zayn va Yunus Alidin ba'zi nima arzodesht qilib, bir pora kishini ko'mak yo'sunluq tilabtur. Ba'zi yigitlarni Muhammad Zamon mirzog'a ko'mak bitib, yana ba'zilarni navkar etib, shanba kuni sha'bon oyining g'urrasida bu uch-to'rt kun o'tturulg'on yurttin ko'chuldi. Men bukun o'tlanib, Bo'jpur va Bihiyani sayr qilib, kelib o'rdug'a tushtim.

Muhammad Ali boshliqlarnikim, xabarg'a yiborilib edi, yo'lda bir pora kofirni bosib, Sulton Mahmud o'tturg'on yerga yetarlar. Sulton Mahmud ikki mingcha kishi ekandur, bu qorovulning xabarini topib, buzulub, ikki pilini o'tturub ko'char. Bir pilini qorovul yo'sunluq qo'yg'on ekandur, bu yigitlardin yigirma chog'liq kishi yetar, turush bermay qochar. Necha kishisini tushurub, birini bosh kesib, bir-ikki o'bdonni tirik kelturdilar.

Tonglasi ko'chub, kema bila keldim. Bu yurtta Muhammad Zamon mirzo daryodin o'tti.

Mirzoning o'tari va ketari uchun ikki-uch kun bu yurtta o'lturildi.

Seshanba kuni oyning to'rtida Muhammad Zamon mirzog'a xossa bosh-oyoq va kamar shamshir va tupchoq va chatr inoyat qilib, Bahor viloyatig'a yukundurildi. Bahor sarkoridin bir kurur-u yigirma besh lak xolisa qilib, devonlig'i Murshid Iroqiyg'a uhda bo'ldi.

Panjshanba kuni ul yurttin kema bila keldim. Bori kemalarni turg'uzub, men yetgach, buyurdumkim, kemalarni yurutub, charga bila bir-biriga bog'lag'aylar. Daryoning arzidin ham ko'p ortti. Bovujudkim, tamom kema yig'ilmaydur edi, ba'zi yer past, ba'zi yer chuqur uchun va ba'zi yer ravon va ba'zi yer noravon uchun ushbu yo'sunluq g'alaba yurutub bo'lmadi. Kemalarning chargasiga bir kiryol ko'runur. Bir baliq kiryolning qo'rqunchidin andoq baland sachrarkim, bir kemaning ichiga kelib tushar. Tutub kelturdilar.

Yurtqa yetganda kemalarga ot qo'yuldi. Burung'i boyri ulug' kemagakim, Ograda Sango g'azvidin burunroq tamom bo'lub edi, «Osoyish» ot qo'yuldi. Ushbu yil cherik o'tlanurdin burunroq Oroyishxon bir kema yasatib peshkash qildi. Ushbu kelurda anga ham tolur bog'lattim. Bu kemaga «Oroyish» ot qo'yuldi. Sulton Jaloliddin tortqon kemag'a ulug'roq tolur kildurub, bu tolurning ustida yana bir tolur buyurildi, munga «Gunjoyish» ot qo'yuldi. Yana bir kichik javkandiliq zavraqqakim, har ish-kuch uchun ani yiborulur edi, bu zavraqqa «Farmoyish» ot qo'yuldi.

Tonglasi odina kuni ko'chulmadi. Muhammad Zamon mirzoning bori ish-kuchi saranjom bo'lub, Bahor azimati bila bir-ikki kuruh o'rdudin ayrilib tushub edi, ushbu kun kelib, mendin ruxsat oldi.

Ikki josus Bangola cherikidin kelib dedikim, bangoliylar Maxdumi Olam boshliq Gandak suyining yoqasini yigirma to'rt yerda qismat qilib, fasil qo'poradurlar. Sulton Mahmud boshliq afg'onlarkim, ko'ch va uruqlarini o'tkaradurlar ekandur, o'tkali qo'ymay, o'zlariga qo'shub-turlar. Bu xabar kelgach, chun urush ehtimoli bo'ldi. Muhammad Zamon mirzoni man' qilduk. Shoh Iskandarni uch-to'rt yuz kishi bila Bahorg'a yiborildi.

Shanba kuni Duduning va o'g'li Jalolxon Bahorxonning kishisi keldi. Bangoliy bularni ko'z bog'i yo'sunluq saxlar ekandur. Meni deb, Bangoliydin, zarbrost urushub, ayrilib, suvdin o'tub, Bahor navohisig'a yetib, mulozamatqa mutavajjih emish. Ushbu kun Bangola elchisi Ismoil Mitog'a farmon bo'ldikim, burun bitib yiborgan uch faslning javobi kech bitiladur: xat bitib yiborsunkim, agar ixlos va yakjihatliq maqomidadurlar, xud botroq javob kelsa kerak.

Yakshanba oxshomi Turdi Muhammad va Jang-jangning kishisi keldi.

Chahorshanba sabohi sha'bon oyining beshida bu tarafdin bularning qorovuli yetar, narig'i darvozadin Bahor shiqdori qochib ketar.

Yakshanba kuni ul yurttin ko'chub, Oriy parganasig'a tushuldi. Bu yurtta xabar kel-

dikim, lashkari Xarid yuz-yuz ellik kema bila Saru bila Gangning qotilishida Saru suvining nari yuzida o'lturg'on emish. Chun Bangoliy bila sulhguna bor edi, hamisha mundoq ish-larda tayammun jihatidin sulh ishini ilgari tutulubtur. Agarchi beodobliq qilib, kelib yo'limiz ustida o'lturubtur, vale doyimg'i qoidani mar'iy tutub, Bangola elchisi Ismoil Mitog'a yana Mullo Muhammad muzahhibni qo'shub, o'shul burung'i uch so'zni aytib, muqarrar bo'ldikim, ruxsat berilgay.

Dushanba kuni Bangola elchisi mulozamatqa kelib edi, ruxsatni anga aytturuldi. Bu ham mazkur bo'ldikim, g'anim dafig'a ul sari bu sari mutavajjih bo'lg'umizdur. Sizlarga taal-luq yer va suvg'a zarar va osibe yetmagusidur. Nechukkim, ul uch fasl so'zning biri bu edi: lashkari Xaridqa aytkim, yo'l ustini qo'yub, Xaridqa kelsun. Turkdin bir necha kishi anga qo'shaling, Xarid eliga istimolat berib, yeriga keltursunlar. Agar guzar boshidin ketmasa va bu nodir muqobala so'zlarin tark etmasa, har yamonliq boshig'a yetsa, o'zidin va har nosho-yist qoshig'a kelsa, so'zidin ko'rsun.

Chorshanba kuni Bangola elchisi Ismoil Mitog'a mu'todiy xil'at kiydurub, in'om qilib, ruxsat berildi.

Panjshanba kuni Shayx Jamolni Dudu bila o'g'li Jalolxong'a istimolat farmonlar va inoyat so'zlari bila yiborildi. Ushbu kun Mohimning navkari keldi, Bog'i Safodin nari Voliydin¹ ayrlig'on ekandur. Xatlar kelturdi.

¹ Q. b. – Varosdin.

Shanba kuni Iroq elchisi Murod qo'rci qajarni ko'ruildi.

Yakshanba kuni Mullo Muhammad muzahhibqa mu'todiy yodgoriylarni topshurub, ruxsat berildi.

Dushanba kuni Xalifani va ba'zi beklarni yiborildikim, daryoning ne yeridin o'tarni mulohaza qilg'aylar. Chorshanba kuni yana Xalifani ikki suvning oralig'i ko'ra yiborildi.

Janub tarafi Oriy parganasining yovug'idag'i nilufarzor sayr qila otlandim. Nilufarzorni sayr qilurda Shayx Go'ran nilufarning yangi tuxum bog'lag'onini kelturdi. Bu pistag'a filjumla shabohati bor. Yaxshigina nima gulikim, nilufar bo'lg'ay. Hindustoniya «kaval kikriy-der, tuxmini - «duda». Andin So'nni yovuqtur dedilar. Borib So'nni tafarruj qilduk. So'n suyi quyi qalin daraxtlar ko'rundi, dedilarkim, Munirdur. Shayx Sharafiddin Muniriyning otasi Shayx Yahyoning qabri andadur. Chun muncha yovuq yetilib edi, So'ndin o'tub, So'n quyi ikki-uch kuruh kelib, Munirni sayr qilib, bog'oti bila o'tub, mazorni tavof qilib, So'n yoqasig'a kelib, g'usl qilib, namozi peshinni erta ado qilib, o'rdu sori mutavajjih bo'ldum.

Otlar semiz uchun bir necha ot qoldi. Yana bir necha otlar oldarab edi, bir necha kishini qo'yub, farmon bo'ldikim, otlari toliqqonlarni yig'ib, otlarini sug'orib, tindurub, iztirob qilmay kelgaylar. Agar mundoq bo'lmasa edi, xeyli ot zoye bo'lar edi.

Buyurub edimkim, Munirdin yong'onda bir kishi So'nning yoqasidin otining har qadamini o'rdug'acha sanasun, - yigirma uch ming-u bir

yuz sanabturkim, qirq olti ming ikki yuz qadam bo'lg'aykim, o'n bir yarim kuruhdur. Munirdin So'ng'acha yarim kuruh yovushur. Yonish o'n ikki kuruh. Borurda ul yon bul yon sayr qilib borildi. O'n besh-o'n olti kuruh va o'ttuz kuruhga yovuq bukun sayr qilildi. Kechaning avvalg'i pahridin olti giriy bo'lub edikim, o'rdug'a kelildi.

Tonglasi panjshanba kuni Jo'npurdin Sulton Junayd barlos va Jo'npurdagi yigitlar keldilar. Kech qolg'onlari jihatidin itob va xitob qilib, ko'rushmadim. Qozi Jiyoni charlab ko'rushtum. Ushbu kun turk va hind umarosini mashvaratqa charlab, suv o'tar bobida jonki qilildi. So'z munga qaror toptikim, Gang bila Saru suvining oralig'i baland ko'rarda Istod Aliqo'li qozon va farangi zarbzanni qurub, qalin tufakandozlar bila bu yerdin urush angizi qilg'ay. Ikki suv qotilishidin juzviy quyiroq jaziradakim, Bangoliyning bir fil va qalin kemasit turubtur, ro'baro'yida Gang suvining Bahor tarafidin Mustafo olot va adavotini mukammal va muhayyo qilib, urushg'a mashg'ul bo'lg'ay. Qalin tufakandozlardag'i muning bila bo'lg'ay. Muhammad Zamon mirzo va bu bitilganlar¹ Mustafog'i orqasig'a tushub, ko'mak bo'lg'aylar. Ustod Aliquli bila Mustafog'a zarbzan otmoqqa va qozon qurmoqqa, mo'ljor qo'porib, yer yasamoq uchun qalin beldor va qahorg'a muhassillar tayin qilildi. Asbob va masolih topmoqqa va yig'moqqa mashg'ul bo'ldilar. Salotim va umaro va xavonin ildam yurib, Haldiy guzaridin Sa-

¹ Q. b. – yetganlar.

runi o'tub, mo'ljor qilg'on vaqt ul yuzdin mukammal va mustaid bo'lub, g'anim ustiga kelgaylar.

Bu asnoda Sulton Junayd va Qozi Jiyo arz qildirlikim. sekkiz kuruh yuqorroq guzar bor edi. Ro'baro' tayin bo'ldikim, jolabonlardin bir-ikkisini Sulton Junayd va Mahmudxon va Qozi Jiyoning kishilaridin olib borib, guzarni ko'rgaylar. Agar guzar bo'lsa aning bila-o'q kechilgay.

El orasida bu so'z bor edikim, Bangoliy Haldiy guzarig'a ham kishi tayin qilur xayoli bor ermish. Mahmudxonning Iskandirpurdagi shiqdorining arzadoshti keldikim, Haldiy guzarida ellikcha kema yig'ib, kishtibonlarga muzd beribmen, vale kishtibonlar Bangoliyning kelur ovozasidin bisyor mutavahhimdurlar.

Chun Saru suvidin guzar tonilmog'i vaqti edi, guzar ko'ra borg'on kishiga tavaqquf qilmay, shanba kuni beklarni mashvaratqa chorlab dedimkim, Iskandarpur Chaturmukdin Ud va Bahroyijg'acha Saru daryosining guzarlari tamom yerda edi. Mundoq etib o'lturg'uncha, qalin favjini tayin qilurbizkim, Xaldiy guzaridin kemalar bila o'tub, bularning ustiga kelgaylar. Alar kelguncha Ustod Aliquli va Mustafo to'p va tufak va zarbzan va farangiy bila urushqa mashg'ul bo'lub, chiqg'aylar. Biz dog'i Gang daryosidin o'tub, Ustod Aliqulig'a ko'mak tayin qilib, mustaid va mukammal bo'lub turaling. Guzardin o'tgan favj yaqin yetsa, biz ham munda urush solib, zo'rlab o'taling. Muhammad Zamon mirzo va ul yuzda tayin bo'lg'onlar Gang

daryosining Bahor tarafidin Mustafo qoshida, urushqa mashg'ul bo'lg'aylar.

So'zni munga qo'yub, Gangning shimolidagi cherikni to'rt favj qilib, Askariyg'a boshlatib Haldiy guzarig'a yiborildi. Bir favj Askariy o'z navkari bila yana bir favj Sulton Jaloliddin Sharqiy yana bir favj o'zbek sultonlari Qosim Husayn sulton va Biho'b sulton va Tongotmish sulton va Mahmudxon Nuxoniy G'ozippuriy va Ko'ki Bobo Qashqa va To'lamish o'zbek va Qurbon Charxiy va Husaynixon boshliq Daryoxoniy-lar, bir favj Muso sulton va Sulton Junaydkim va nekim Jo'npur cheriki taxminan yigirma ming kishi muhassillar tayin qilildikim, ushbu kecha-o'qqim, yakshanba kechasi bo'lg'ay, ul cherikni otlanturg'aylar.

Yakshanba sabohi cherik Gangdin o'ta kirishti. Men bir posta kemaga kirib o'ttum. Uch pahr bo'lub edikim, ro'yardlarkim, guzar ko'ra borib edilar, keldilar. Guzar xud topmaydurlar. Kemalarning va tayin bo'lg'on favjning yo'lda uchrag'onining xabarini kelturdilar.

Seshanba kuni suv kechgan yerdin ko'chub, urush yeri qotilishig'a bir kuruh yovuq kelib tushuldi. O'zum borib, Ustod Aliqulining farangiy va zarbzhan otmog'ini tafarruj qildim. Ushbu kun Ustod Aliquli farangiy toshi bila ikki kemani urub sindurub, g'arq qildi. Mustafo ham ul yuzdin farangiy toshi bila ikki kema urub sindurub, g'arq qildi. Uluq qozonni jang joyig'a eltib, yerini yasamoqqa Mullo G'ulomni muhassil qo'yub, bir pora yasavullardin va jald yigitlardin anga ko'mak tayin qilib, yonib

kelib, oʻrdu toʻgʻrisi bir orolda maʼjun yeduk. Bu oxshom maʼjunnok kemani xirgohqa yaqin keltirub, kemada oʻq takya qildum. Bu oxshom gʻarib voqea dast berdi: Kechaning uch posigʻa yovuq kemada suron va gʻavgʻo chiqti. Choʻhralar – har kim kemanding bir yigʻochini olib, ur-ur deb qichqirishadurlar. «Farmoyish» kemasi men takya qilgʻon «Osoyish» kemasi-ning yonida edi. Bir tunqator anda edi, uyqu-din koʻz ochib koʻrarkim, bir kishi «Osoyish» kemasiga ilik qoʻyub chiqar xayolidadur. Ustiga tashlar; suvga choʻmub, chiqarida tunqatorning boshigʻa chopar: ozroqcha zaxm qilib edi, suv sari-oʻq qochar. Gʻavgʻo bu jihattin ekan-dur. Munirdin kelgan kechasi ham kemanding yaqinida bir-ikki tunqator bir necha hindistoniy-ni qavlab, ikki¹ qilich va bir xanjarlarini kelturub edi. Tengri taolo saxladi.

*Agar tegʻi olam bijunbad zi joy,
Naburrad rage to naxohad Xudoy.²*

Tonglasi chahorshanba kuni «Gunjoyish» kemasiga kirib, tosh otar yerga yaqinroq kelib, har kimni har ishga tayin qildim. Oʻgʻonberdi moʻgʻul boshliq ming chogʻliq yigitni yiborilib edikim, bir-ikki-uch kuruh yuqqorroqtin har tavr qilib suv kechgaylar. Bular borurda Askariyning oʻrdusi toʻgʻrisidin yigirma-oʻttuzcha kema bila Bangoliylar oʻtub, qalin yayoq

¹ L. b. – tushgan.

² «Agar olam tigʻi oʻz joyidan qoʻzgʻolsa, Xudo xohlamasa, biror tomirni ham qirqolmaydi».

chikib, dastburdi ko'rsatur xayolida ekandurlarkim, bular ot solib qochurub, bir nechasini olib, boshini kesib, qalin kishini o'qlab, yetti-sekkiz kema olurlar. Ham ushbu kun Muhammad Zamon mirzo tarafidin ham bir necha kema bilan Bangoliylar yorib chiqib, urush angizi qulurlar. Ul taraftin zo'rlab, Bangoliylarni qochurub, uch kema kishisi suvg'a g'arq bo'lur. Bir kemani iliklab, mening qoshimg'a kelturдилar. Munda Bobocho'hra yaxshi yurub zo'rlar. Farmon bo'ldikim, O'g'onberdi alar olg'an yetti-sekkiz kema bila Muhammad Sulton, Yakka Xoja, Yunus Ali, O'g'onberdi va ul jamoatkim, burun o'tmakka muqarrar bo'lub edilar, kemalarni kech qorong'uda yuqqori tortib o'tgaylar.

Ushbu kun Askariydin kishi kelib dedikim, suvdin beboqiy o'ttilar. Tongla sabohikim panjshanba kuni bo'lg'ay, yog'iy ustiga kelurlar. Farmon bo'ldikim, bu o'tganlar Askariyg'a qo'shulub, g'anim ustig'a yurugaylar. Namozni peshin ustod qoshidin kishi keldikim, tosh tayyor bo'lubtur, ne farmon bo'lur? Farmon bo'ldikim, bu toshni otsun, yana men borg'uncha yana bir toshni tayyor qilsun.

Namozni diygarda kichkina Bangoliy zavraqqa kirib muljor qo'porg'on yerga bordim. Ustod bir navbat ulug' tosh otti, yana bir necha farangiy otti. Bangoliylarning otashbozliq bila shuhrati bor erdi, bu navbat yaxshi sinaduk, bir yerni chog' qilib otmaydurlar, har tavr bila otadurlar.

Ushbu namozni diygar buyurdukkim, Saru daryosi bila alarning olidin bir necha kemani tortib o'tkardilar. Kema tortar kishilar beta-

hoshiy va bepanoh bir necha kemani tortib o'tkardilar. Farmon bo'ldikim, Esan Temur Sulton, To'xta Bo'g'a Sulton, Bobo Sulton, Oro-yishxon, Shayx Go'ran bu kemalar o'tgan yerda turub, kemani muhofazat qilg'aylar.

Andin yonib, bir posta o'rdug'a keldim. Yarim kechaga yovuq yuqori tortadurg'on kemalardin xabar keldikim, tayin bo'lg'on favj ilgarrak bordi. Biz kemalarni tortib boradur edukkim, Bangoliy kemalarni biz tortar yerni tuyub, urushtilar. Bir kemachini oyog'ig'a tosh tegib, oyog'i sindi, o'ta olmaduk.

Panjshanba sabohi mo'ljordagilardin xabar keldikim, yuqqorig'i kemalar tamom keldilar. Otliqlari tamom o'tlanib, bizning keladurgan favjning ro'baro'yig'a mutavajjih bo'ldilar. Men dag'i ildam o'tlanib, oxshom o'tkargan kemalarning ustiga keldim. Kishi chopturuldikim, Muhammd Sulton mirzo boshliq o'tmakka muqarrar bo'lg'onlar betavaqquf o'tub, Askariyg'a qo'shulsunlar. Esan Temur Sulton bila To'xta Bo'g'a Sultonkim, bu kemalar ustida edilar, buyurdumkim, o'tmakka mashg'ul bo'lsunlar. Bobo Sulton muqarrar bo'lg'on yerda kelmaydur edi, filhol Esan Temur Sulton bir kema bila o'ttuz-qirqcha navkari bila otlarini kemanding yonida yoldab o'ttilar. Bularning keyinicha yana bir kema ham ravon bo'ldi.

Bularning o'tganini ko'rub, bangoliylar qalin yayoq bularg'a mutavajjih bo'ldilar. Esan Temur Sultonning yetti-sekkiz navkari o'tlanib, bu yayoqlarning o'trusig'a borib, sulton o'tlang'uncha tortqulashib, otqulashib, yayoq-

larni sulton sarig'a torttilar. Mungacha Esan Temur Sulton ham otlandi. Ikkinchi kema ham kechti. O'ttuz-o'ttuz besh otliq bila qalin yayoqqa chopib, yaxshi qochurdi. Xeyli namoyon ish qildi. Ul chasp-chaspon, betahoshiy borchadin burunroq kechti. Ikkinchi ulkim, qalin yayoqning ustiga oz kishi bila yaxshi yurub qochurdi. To'xta Bo'g'a Sulton ham kechti. Kemalar paydarpay kechmakka kirishtilar. Lohuriy va Hindustoniy yo'sunluq to'shidin dastak bila va dasta qamish bila o'ta kirishtilar.

Bu holatni ko'rub, mo'ljor to'g'risidagi qalin Bangoliy kemalari suv quyi qochmoqqa yuz qo'ydilar.

Darvesh Muhammad sorbon va Do'st eshik og'a va yana ba'zi yigitlar mo'ljor to'g'risidin o'ttilar. Sultonlarg'a kishi chopturdumkim, o'tganlarni yaxshi yig'ib, ul o'trudagi favjga yovuq yeta yonidin yurub, g'animg'a ilik qo'shung, o'tganlarni sultonlar o'zlariga qo'shub uch-to'rt to'p bo'lub, g'anim sari mutavajjih bo'ldilar.

Bular yovuq yeta g'anim kishisi yayog'ini olig'a solib, yasolini buzmay yuruy berur.

Askariy bila muqarrar bo'lg'on favjdin Ko'ki jamoati bila yetar. Ul tarafdin Ko'ki, bu tarafdin sultonlar yetib, ilik qo'sharlar. G'animni tushura-tushura olib, otliq tebrarlar. Basang Rov otliq mu'tabar kofirni Ko'ki, alar tushurub, boshini kesarlar. O'n-o'n besh kishisi aning ustiga tushar, o'shanda-o'q chopqularlar. To'xta Bo'g'a Sulton g'animning olidin borib, chopib, yaxshi qilich tegurur. Mo'g'ul Abdul-

vahhob va inisi ham qilich tegururlar. Mo'g'ul bovujudkim, suv bilmas, jiba bila daryodin ot yoldab o'tar.

Mening kemalarim keyin edi, kemalarga kishi yibordim. «Farmoyish» kemasi ilgarrak keldi. «Farmoyish» kemasiga kirib o'tub, bangoliylarning yurtlarini sayr qilib, «Gunjoyish» kemasiga kirib, yuqqori yer boridin so'rdum.

Mir Muhammad jolabon arz qildikim, Saru daryosi yuqqorroqdin o'tkali yaxshiroqtur. Farmon bo'ldikim, ul degan yerdin cherik eli o'tmakka mashg'ul bo'lg'aylar.

Muhammad Sulton mirzo boshliqlarg'akim, o'tmakka farmon bo'lub edi, suv o'tarda Yakka Xojaning kemasi g'arq bo'lub, Yakka Xoja tengri rahmatig'a bordi. Navkar va viloyatini inisi Qosim Xojag'a inoyat qildim.

Namozi peshinda g'usl asnosida sultonlar keldilar. Ta'rif va sitoyish qilib, inoyat va shafqatdin umidvor qildim. Askariy ham ushul asnoda keldi. Askariyning avval ish ko'rgani edi, shuguni yaxshi bo'ldi. Ul oqshom chun hanuz o'rdu ko'chmaydur edi, bir orolda «Gunjoyish» kemasida takya qildim.

Odina kuni Saru daryosining shimolida Xarid tavobeyi Nirhun parganasining Kundba¹ otliq kentida tushuldi.

Yakshanba kuni Ko'kning jamoati bila Xojipurg'a xabar olg'ali yiborildi. Shoh Muhammad Ma'rufkim, biltur kelganida anga ulug'rioyat qilib, Soran viloyatini berilib edi, necha qatla yaxshilar bordi. Otasi Ma'rufni ikki qat-

¹ Q. b. – Kundana.

la urushub bosib, tutub edi. Sulton Mahmud g'adr bila Bahorni olg'onda, Biban bila Shayx Boyazidning ustiga borg'onda chora qila olmay, alarg'a qotilib edi, bu fursatta ham necha navbat arzadoshti kelib edi. El orasida andin parishon so'zlar derlar edi. Askariy Haldiy guzaridin o'tgach-o'q jamiyati bila Askariyni kelib ko'rub, Askariy bila bangoliylar ustiga keldi, ushbu yurtta ekanda kelib, mulozamat qildi.

Bu ayyomda Shayx Boyazid va Bibandin mutavotir xabarlar keladur edi, – Saru daryosini o'tar xayolida emishlar.

Ushbu fursatta Sanbaldin ajab xabar keldi: Ali Yusufkim, Sanbalda turub, tavre zabt va rabt qilib edi, o'zi va bir musohib yo'sunluq tabibi bir kunda-o'q tengri rahmatig'a borurlar. Sanbalning zabt va rabti uchun muqarrar bo'ldikim, Abdullo Sanbal zabt va rabtig'a borg'ay, Odina kuni ramazon oyining beshida Abdulloqa Sanbalg'a ruxsat berildi.

Chin Temur Sultonning ushbu ayyomda arzadoshti kelib edikim, muqarrar bo'lg'on beklaridin Kobuldin ko'ch qoladurgan jihatidin sultong'a qo'shula olmaydurlar. Muhammadiy va yana ba'zilar sulton bila yuz kuruqcha yer ilg'ab borib, balujni yaxshi bosibturlar. Abdullodin Chin Temur Sultong'a va Sulton Muhammad do'ldoy va Muhammadiy va ba'zi andagi beklarga va yigitlarga farmon bo'ldikim, Chin Temur Sulton bila Ograda yig'ilib, tayyor bo'lub turg'aylar. Muxoliflar har sari yuzlansalar, ul sari mutavajjih bo'lg'aylar.

Dushanba kuni oyning sekkizida Jalolxon Daryoxonning nabirasigakim, Shayx Jamoliy

borib edi, bo'lg'on mu'tabar umarosi bila kelib, mulozamat qildi. Ham ushbu kun Yahyo Nuhoniykim, burunroq inisini yiborib, qulluq izhori qilib edi, siyosat farmoni borib edi, kelib mulozamat qildi. Chun yetti-sekkiz ming nuhoniyy va afg'on umidvorliq bila kelib edilar, alarni navmid qilmay, Bahordin bir kurur xolisa qilib, ellik lak Mahmudxon nuhoniyg'a inoyat qilib, qolg'onini ushbu Jalolxong'a musallam tutuldi. Bir kurur xizmatona ham qabul qildi. Bu yormoqning tahsilig'a Mullo G'ulom yasavulni yiborildi. Muhammad Zamon mirzoga Jo'npur viloyatini berildi.

Panjshanba kuni oxshomi Xalifaning G'ulom Ali otliq navkari kim, Ismoil Mitodin burunroq Shahzoda Mungirning Abulfath otliq navkari bila ul uch fasl so'zni eltib edi, ushbu Abulfath otliq bila hamroh Shahzoda Mungirning va Hasanson langar vazirning, Xalifaning bitilgan xatlarini kelturdi. Ul uch shartni qabul qilib, Nusratshoh tarafini o'ziga olib, isloh so'zini orag'a solibtur.

Chun bu yurush bog'i afg'onlarning dafi uchun edi, bu yog'iyldin ba'zini boshini olib eltilar, ba'zisi kelib, chokarlik va qulluqni qabul ettilar. Oz-og'loqqim, qolib edi, Bangoliyning dastgiri edi. Ani Bangoliy o'ziga oldi. Pashkol ham yovuqlashib edi. Biz dag'i aning muqobalasida mazkur bo'lg'on sharoit bila isloh so'zini bitib yiborduk.

Shayba kuni Ismoil Jilvoniy, Odilxon Nuhoniy, Avliyoxon Ishroqiy, besh-olti umaro bila kelib, mulozamat qildilar. Ham ushbu kun Esan Temur Sulton bila To'xta Bo'g'a Sultong'a

juldu kamar shamshir va kamar xanjar jibalar va xil'atlar va to'pchoq otlar va Esan Temur Sultong'a Nornul parganasidin o'ttuz olti lak va To'xta Bo'g'a Sultong'a¹ Shamsobod parganasidin o'ttuz lak inoyat qilib, yukunduruldi.

Dushanba kuni oyning o'n beshida Bahor va Bangola tarafidin xotirni jam' qilib, Saru daryosi yoqasidag'i va Ko'ndba navohiydag'i yurttin Biban va Shayx Boyazid haromxo'ring dafi sharriga azm-jazm qilib ko'chtuk. Ora ikki qo'nub, chahorshanba Chaturmuk, Iskandar-purning Cho'pora otliq guzari ustiga tushuldi. Ushbu kundan el o'tmakka mashg'ul bo'ldilar. Bu haromxo'rlardin mutavotir xabar kela boshladikim, Saru bila Gagardin o'tub, Laknav sari mutavajjihdurlar. Bularning guzar bandlig'iga turk va hind umarosidin Sulton Jaloliddin Sharqiy, Alixon Farmuliy, Turdika, Nizomxon Biyoniy, Tulamish o'zbek, Qurbon Charxiy, Hasanson² Daryoxoniy boshliqlarni tayin qilib panjshanba oxshomi ruxsat berildi.

Ushbu oxshom tarovihdin so'ngra bir pos va besh giriy bo'lub edikim, pashkol bulutlari qaynab, bir zamonning ichida andoq to'fon bo'lub, qattiq yel qo'ptikim, yiqilmag'on chodir kam qoldi. Men xirgoh ichida kitobat qiladur edim, kog'az va ajzoni yig'ishturg'uncha fursat bo'lmadi, xirgohni peshxona bila-o'q mening boshimg'a yiqti. Xirgoh tunlugi reza-reza bo'ldi. Tengri saxladi, osebe yetmadi. Kitob va ajzo g'arq o'l bo'ldi. Tashvish bila yig'ishturuldi.

¹ L. b. – tushgan.

² Q. b. – Husaynixon.

Saqarlot kat zayluchasig'a chirmab, kat ostig'a qo'yub, ustiga gilemlarni yoqtuk. Ikki giriyydin so'ng taskin topti. To'shaxxona chodirin tik-turub, sham' yoqturdi. Mashaqqat bila o't yon-durub, tong otg'uncha uyuxlamay, avroq va aj-zoning qurutmog'ig'a mashg'ul eduk.

Panjsanba kuni men suvdin kechtim. Odi-na kuni otlanib, Xarid va Iskandarpurni sayr qilildi. Ushbu kun Abdullo bila Boqiy Lak-navning olilg'onini bitib edilar. Shanba kuni Ko'kini jamoati bila ilgarrak yiborildikim, Bo-qiyg'a borib qo'shulg'ay. Yakshanba kuni Sul-ton Junayd barlosni va Hasan Xalifani va Mul-lo Opoqning jamoatini va Mo'min atkaning og'a-inisini ruxsat berildikim, borib Boqiyg'a qo'shulub, men yetguncha ilikdin kelurlarini taqsir qilmag'aylar.

Ushbu namozi diygar Shoh Muhammad Ma'rufqa xossa xil'at va tupchoq inoyat qilib, ruxsat berildi. Bilturg'i dastur bila Soranni vaj-hig'a va Kundlani tarkashband saqlamog'ig'a inoyat qilildi. Ham ushbu kun Ismoil Jilvoni-yg'a Sarvordin yetmish ikki lak vajh inoyat qilib, xossa xil'at va tupchoq ot inoyat qilib, ruxsat berildi. Alovulxon Nuhon boshliq aning bila kel-ganlarga ham Sarvordin vajh tayin qilib, ruxsat berildi. Muqarrar andoq bo'ldikim, har qaysi-ning birorini o'g'li Ograda hamisha mulozamat-ta bo'lg'ay, «Gunjoyish» va «Oroyish» kemasini yana ikki Bangoliy kemasi bilakim, bu navbat tushgan kema Bangola kemalaridin intixob qililib edi, bangoliylarg'a uhda qilildikim, Tir-muhoniy bila G'ozipurg'a eltgaylar. «Osoyish»

bila «Farmoyish» kemasiga farmon bo'ldikim, Saru yuqqori o'rdu bila hamroh eltgaylar.

Bahor va Sarudin xotirni jam' qilib, dushanba kuni Chaturmukning Cho'pora guzaridin Ud tarafi Saru yoqalay ko'childi. O'n kuruhcha yo'l kelib, Fathurning tavobiidin Kilira¹ degan kentning yonida Saaru yoqasida tushuldi. Erta ko'chganlar oziqib, Fathurning ulug' ko'liga boribturular. Bir necha kishini chopturuldikim, yaqindagi elni yondurg'aylar. Kichik Xoja yiborildikim, ko'l yoqasida qo'nub, anda tushgan cherikni tonglasi kelturub, o'rdug'a qo'shg'ay. Erta andin ko'chub, yarim yo'lda «Osoyish» kemasiga kirdim. Yuqqori yurtg'acha tortturub keldim. Yo'lda Shoh Muhammad devonaning o'g'likim, Boqi qoshidin kelib edi, Xalifa kelturdi – Laknav xabari tahqiq bo'ldi.

Shanba kuni ramazon oyining o'n uchida urush solurlar. Urush bila hech ish qila olmaslar. Urush asnosida yig'ishturg'on xas va kapa va jarig'a yakbora o't tutashur, andoqkim, qo'rg'on ichi tanurdek tafson bo'lur, fasil ustida yura olmaslar. Qo'rg'onni olurlir. Ikki-uch kundan so'ng bizning qaytg'on² xabarimizni topib, Dalmud sari ko'charlar. Bu kun ham o'n kuruhcha yo'l kelib, Sekriy parganasining Jalisir otliq kentining yonida Saru yoqasig'a tushuldi.

Chahorshanba otning osoyishi uchun ul yurtta maqom bo'ldi. Shayx Boyazid va Bibanni ba'zilar dedilar edikim, Gangdin o'tub, Chunor

¹ L. b. – Kalpuhra کالپھرا

² Q. b. – qolg'on.

va Jo'n navohisi bila o'zlarini bashimilarig'a¹ torta xayollari bor emish. Beklarni charlab, mashvarat qilib, andoq so'z bo'ldikim, Muhammad Zamon mirzo va Sulton Junayd barloskim, Jo'npur ivazig'a Chunorni va yana ba'zi parganotni topib edilar. Mahmudxon Nuhoniy, Qozi Jiyo, Tojixon Sorangxoniy borib, Chunorda muxoliflarning yo'lini to'sqaylar.

Tonglasi panjshanba kuni erta ko'chub, Saru daryosidin ayrilib, o'n bir kuruh yo'l kelib, Parsarudin o'tub, Parsaruning yoqasida tushuldi. Beklarni charlab, mashvarat qilib, Esan Temur Sulton, Muhammad Sulton mirzo, To'xta Bo'g'a Sulton, Qosim Husayn Sulton, Bixo'b Sulton, Muzafar Husayn Sulton, Qosim Xoja, Ja'far Xoja, Zohid Xoja, Jonbek, Askariy navkarlari bila, Kichik Xoja, hind umarosidin Olamxon Kolpiy, Malikdod Karoniy, Roduyi Sarvoniy boshliqlarni tayin qilildikim, Boyazid va Bibanning keyincha Dalmut tarafi cherikdin ayrilib, ildam borg'aylar.

Ushbu Parsaruda kecha tahorat qiladur edim, sham' yorug'ig'a qalin baliqlar yig'ilib, suv yuziga chiqtilar. Men va yana yovug'umdag'ilar ilik bila qalin baliq tuttuk.

Odina kuni Parsaruning bir shox obining boshig'a tushuldi. Xeyli inichka suv edi. Cherik elining ubur va mururidin tag'ayyur topmag'ay deb, yuqqorisini bo'g'durub, bir daxi-dardah bo'lg'on yerini tahorat uchun yasattim. Bist-u haftum² kechasi ushbu yurtta bo'ldi.

¹ Q. b. – bila yuzlati sipohilarig'a.

² Bist-u haftum – yigirma yettinchi (ramazon oyining bu kechasi qutlug' hisoblanadi, shuning uchun bu kechani alohida qayd etgan).

Tonglasi bu suvdin ayrilib, Tus suvini o'tub tushuldi. Yakshanba kuni ushbu suv yoqasig'a tushtuk.

Dushanba kuni oyning yigirma to'qquzida ushbu Tus suvining yoqasida manzil edi. Bu oxshom bovujudkim, havo yaxshi sof emas edi, bir necha kishi oy ko'rdilar. Qozi qoshida guvohliq berdilar, oy boshi sobit bo'ldi.

Seshanba sabohi iyd namozini o'tab, o'tlanildi. O'n kuruh yo'l kelib, Toyikning bir kuruhida Go'y suvining yoqasida tushtuk. Namozni peshinga yovuq ma'jun irtikob qilildi. Shayx Zayn va Mullo Shihob va Hond Amirg'a bug'ina baytini yiborib tiladuk:

*Shayx-u Mullo Shihobu Xond Amir,
Keling uch-uch, ikki-ikki, bir-bir.*

Darvesh Muhammad va Yunus Ali va Abdullo ham bor edilar. Namozni diygar kushtigirlar kushti tuttilar. Chahorshanba kuni ul yurtta maqom edi. Choshtqa yovuq ma'jun yeyildi. Malik Sharqqim, Tojixonni Chunordin chiqorg'ali borib edi, bukun keldi. Bukun kushtigirlar kushti tuttilar. Pahlavon Udiykim, burn kelib edi, bu fursatga kelgan Hindustoniy kushtigir bila kurashib yiqti. Yahyo Nuhoniyg'a o'n besh laklik yer Sarvordin vajhig'a berib, sarupo kiydurub, ruxsat berildi.

Tonglasi o'n bir kuruh yo'l kelib, Go'y suvidin o'tub, ushbu suv yoqasida tushuldi. Ilg'or borg'on sultonlar va beklardin andoq xabar topildikim, Dalmudg'a borib, hanuz Gang darvosidin o'tmaydur emishlar. Achchig'lanib far-

monlar yiborildi: Gang daryosidin tez o'tub, yog'iyning so'ngiga yurub, Jo'ndin ham o'tub; Olamxonni¹ o'zingizga qo'shub, jahd qilib yog'iyg'a ilik qo'sha ko'ring.

Ushbu suvdin ora ikki qo'nub, Dalmud keldi. Gang daryosidin guzar bila aksar cherik eli ushbu kun-o'q o'ttilar. O'rduni o'tkarib, guzardin quyi orolda ma'jun yeyildi. Cherik eli jonoligon² jihatidin suvdin o'tub tushgan yurtta bir kun maqom bo'ldi. Boqi Toshkandiy Ud cheriki bila ushul kun kelib, mulozamat qildi.

Gang suvidin ora qo'nub, Guvoraning yonida Arind suvining yoqasig'a tushuldi. Dalmuddin Guvora yigirma ikki kuruh chiqti.

Panjsanba kuni ul yurтин erta ko'chub, Odampur parganasining olig'a tushuldi. Muxoliflarning so'ngiga o'tmoq uchun burunroqdin jolabonlardin bir-ikkini Kolpiy yiborilib edikim, bo'lg'on kemalarni kelturgaylar. O'shunda tushgan oxshom bir pora kema keldi. Daryodan guzar ham topildi. Yurtning purgardlig'idin orolda-o'q o'lturdum. Necha kunkim anda edim, kecha-kunduz orolda-o'q bo'lur edim. Muxoliflardin tahqiq xabar kelmagan uchun Boqi shig'ovulni Uddagi yigitlar bila suv kechurub, yog'iydin xabar olg'ali yiborildi.

Tonglasi jum'a namozi diygari Boqibekning navkari keldi. Shayx Boyazid va Bibanning qorovulini bosib, Muborakxon Jilvoniy otliq o'bdon kishisini va yana bir necha kishisini o'lturub, bir necha bosh va bir tirik yiborib-

¹ Q. b. - Alixon.

² Q. b. - jonokigan.

tur. Sabohi Shoh Husayn baxshikim, Boqi bila borib edi, keldi. Qorovulni bosganini va andag'i xabarlarini mashruh arz qildi.

Ushbu oxshomkim, yakshanba kechasi va oyning o'n uchi bo'lg'ay, Jo'n daryosi kirdi, andoqqim, sabohi bu orolni durust suv bosti. Bir o'q otimi quyuroq yana bir orolg'a borib, chodir tikib o'lturdum.

Dushanba kuni ilg'or borg'on sultonlar va beklar qoshidin Jalol Toshkandiy keldi, ilg'or xabarini topib, Shayx Boyazid va Biban Mahuba parganasidin qochib turlar.

Chun pashkol yetishib edi va besh-olti oy cherik cheriklib, cherik elining ot va ulog'i xarob bo'lub edi, borg'on ilg'or sultonlarg'a va beklarga farmon bo'ldikim, Ogra va ul navohidin toza ilg'or kelguncha yetgan yerda tavaqquf qilg'aylar.

Ushbu namozi diygar Boqi shig'ovul bila Ud cherikiga ruxsat berildi. Muso Ma'rif Farmuliykim, cherikdin yonib, Siru daryosidin o'tganda kelib, mulozamat qilib edi, o'ttuz laklik pargana Amrahordin vajhig'a tayin qilib, xossa boshoyoq va egarlik ot inoyat qilib, Amrahorg'a ruxsat berildi.

Bu taraflardin xotirjam qilib, seshanba kechasi uch pos va bir giriysin so'ng ilg'or tariyqi bila Ograga mutavajjih bo'lduk. Tonglasi o'n olti kuruh yo'l kelib, tushga yovuq Kolpiy tavobeyidin Balodar degan parganada tushlanib, otg'a arpa berib, namozi shom andin o'tlanildi. Bu kecha o'n uch kuruh yo'l yurub, uch posta Kolpiy parganalaridin So'gaidpurg'a Bahodur-

xon Sarvoniyning go'rxonasig'a tushub uyuxlab, namozi bomdodni o'tab, andin tebraduk. O'n olti kuruh kelib, kun tushta Atovag'a yettuk. Mahdi Xoja o'tru keldi. Kechaning bir posida andin otlanib, yo'lda ozroqcha uyuxlab, o'n olti kuruh yo'l kelib, Robiriyning Fathpurig'a tush tushuldi. Erta namozi peshin Fathpurdin otlanib, o'n yetti kuruh yo'l yurub, kechaning ikki posida Ograning «Hasht bihisht» bog'ig'a tushuldi.

Tonglasi odina kuni Muhammad baxshi va ba'zilar kelib, mulozamat qildilar. Namozni peshinga yovuq Jo'ndin o'tub, Xoja Abdulhaqqa mulozamat qilib, qal'a borib, amma begimlarni ko'rdum.

Balxiy polizkorni qovun ekkali qo'yulub edi. Bir necha qovun sahlag'on ekandur, kelturdi. Keyli yaxshig'ina qovunlar edi. Bir-ikki buta tok «Hasht behisht» bog'ida ekturub edim, aning ham yaxshig'ina uzumlari bo'lub edi. Shayx Go'ran ham bir sabad uzum yiborib edi, yamon emas edi, Hindustonda qovun, uzumning muncha bo'luridin filjumla xursandlig'e bo'ldi.

Yakshanba kechasi ikki pos bor edikim, Mohim keldi. Biz cherikka jumodil-avval oyining o'nida otlanib eduk, g'arib umuri ittifoqiy voqe bo'lubturkim, bular ham Koboldun ushbu kunda chiqqan ekandurlar. Panjshanba kuni zilqa'da oyining g'urrasida ulug' devonxonada devon o'lturg'onda Humoyunning va Mohim peshkashlarin torttilar. Ushbu kun Mag'fur devonning bir navkarin yuz ellik kahorg'a¹

¹ Q. b. – korbor.

muzd berib qovun va uzum va meva uchun Kobulg'a yiborildi.

Shanba kuni oyning uchida Hindubekkim, Kobuldin badraqa bo'lib kelib edi, Ali Yusuf o'lgan uchun, Sanbalg'a yiborgan ekandurlar, kelib, mulozamat qildi. Hisomiddin Ali Xalifa ham Alvordin ushbu kun kelib, mulozamat qildi.

Tonglasi yakshanba kuni Abdullokim, Tirmuhoniydin Ali Yusuf o'lgan jihatidin Sanbalg'a yiborilib edi, keldi.

Kobuldin kelguchilardin andoq masmu' bo'lar edikim, Shayx Sharif Qarobog'iy Abdulazizning ig'vosidin nohavodorlig'idin qilmag'on zulm va o'tmagan bid'atlarni bizga isnod qilib, mahzarlar bitib, Lohur aimmasining otlarini taklif bila bitib, mahzarining savodini shahrlarga yiborib, bahs qilur xayoli bor. Abdulaziz dag'i necha hukmni eshitmay, anvoyi noshoyist aqvol va noboyist af'ol andin sodir bo'lubtur. Bu jihatlardin yakshanba kuni oyning o'n birida Qanbar Ali arg'unni yiboridikim, Shayx Sharifni va Lohur aimmasini va savdariylarini va Abdulazizni dargohig'a olib kelturgay.

Panjshanba kuni oyning o'n beshida Tijoradin Chin Temur Sulton kelib, mulozamat qildi. Ushbu kun pahlavon Sodiq bila Ulug' Udiy kushtigir kushti tuttilar. Sodiq imkora yiqti. Keyli tashvish tortti.

Dushanba kuni oyning o'n to'qquzida qizilbosh elchisi Murod qo'rchig'a murassa' kamar xanjar va munosib xil'at kiydurub, ikki lak tanganga inoyat qilib, ruxsat berildi.

Bu kunlarda Sayid Mashhadiy Guvalyordin kelib, Rahimdodning yog'iyliq angizini arz qildi.

Xalifaning navkari Shoh Muhammad muhrdorini yiborildi. G'alaba nasihat omiz so'zlar bitib yiborildi. Borib bir necha kundin so'ngra o'g'lini olib keldi. Agarchi o'g'li keldi, vale o'zining kelur xayoli yo'q edi. Aning rafi tavahhumi uchun Nurbekni seshanba kuni zilhijja oyining beshida G'uvalyorg'a yiborildi. Necha kundin so'ng Nurbek kelib, Rahimdodning qilg'on istid'olarini arz qilib, muddaosidek farmonlar butkarib yiborur holatta bir navkari kelib arz qildikim, meni o'g'lini qochurg'ali yiboribtur, kelur xayoli yo'qtur. Bu xabar kelgach, filhol Guvalyor ustiga o'tlanmoq bo'lduk. Xalifa arzg'a yetkurdikim, yana bir navbat men nasihat omiz xat bitib yiboray, shoyadkim islohqa kelgay. Bu maslahat uchun Shihobiddin Xisravni yiborildi.

Panjanba kuni mazkur oyning yettisida Atovatdin Mahdi Xoja keldi. Iyd kuni Hindubekka xossa bosh-oyoq, murassa' kamar shamshir va tupchoq inoyat bo'ldi. Hasan Alig'akim, turkman orasida Chig'atoyg'a mashhurdur, bosh-oyoq va murassa' kamar xanjar va yetti laklik pargana inoyat bo'ldi.

VAQOYEI SANAYI SITTA VA SALOSINA VA TISA MIA¹

Seshanba kuni muharram oyining o'n uchida Guvalyordin Shihobiddin Xisrav bila shayx Muhammad G'avs Rahimdodning shafoti uchun keldi. Chun darvesh va aziz kishi edi, Rahimdodning gunohini alarg'a bag'ishlab, Shayx Go'ran² bila Nurbekni Guvalyorg'a yiborildikim, Guvalyorni bularg'a topshurub...³

...Bularning ko'makiga yiborduk. So'ngra Muhammad Ali jang-jangni yiborildi. Ilgari tayin bo'lg'on Mullo Muhib Alilar yetguncha, Abdulaziz alarni tebratib, tug'ini olib, Mullo Ne'mat va Mullo Dovud va Mullo Opoqning inisi va yana bir nechani olib, shahid qilgan ekan-durlar. Bular yetgach, Zohid Tabariy Muhib Alining tag'oyisi chopar, ko'mak yetmas, Zohirni o'shanda-o'q olurlar, Muhib Ali ham urush asnosida yiqilur. Boltu ko'ndalondin kirib, Muhib Alini chiqarur. Bir kuruhgacha bularning keyinicha kelurlar. Muhammad Ali jang-jangni qarosi paydo bo'lg'ach, turarlar. Bizga payopay xabar keldikim, g'anim kishisi yovuq keldi. Jiba kiyib, otlarg'a kechim solib, yarog'lanib chopa otlanduq. Buyurdumkim, arobalarni tortib keltirgaylar. Bir kuruh kelduk. G'anim kishisi yong'an ekandur.

¹ To'qqiz yuz o'ttiz oltinchi (1529) yil voqealari.

² Q. b. - «Go'ran» yo'q.

³ Har ikki bosmada ham asar mana shu «topshurub» so'ziga kelib uzilib qoladi. Bundan keyingi parchalarni esa, Qozon bosmasidan olib ilova qilindi. Bu parchaning ham bosh tomoni tushib qolgan. Bu parchalar L. b. da yo'q.

Daryo (yi) Xo'rdagi ulug' ko'l edi, suv maslahatiga ushbu yerda tushuldi. Arobalarni ilgari mazbut qilib, zanjirlar bilan arrobalarni girdini berkuttuk va Rono Sango benihoyatliq qul va qo'shuni bilan oyoq ilgari qo'ydikim. Hinduston qoidasi bilan yuz mingni bir lak va yuz lakni bir kurur derlar, aning qul va qo'shini ming ikki lakka yetib erdi. Nechukkim, viloyati o'n kururga yetib erdikim, bir lak otlig'ning joyi va avqot guzari bo'lg'ay. Va ko'pincha bosh va boshlig'kim, hargiz hech ma'arakada anga imdod qilib, itoat va bay'atlig'lari yo'q erdi, anga qo'shulub, farmonbardor bo'lub erdilar.

Aning cherikining tafsili budurkim, Salhdikim, Roysin va Sorangpurni hukumatlig'i anda edi, o'ttuz ming otliqqa yer va suyi bor erdi. Va Rovul Udiy Sing Nogrui o'n ikki ming otliq va Hasanxon Mevotiykim, Mevotin hokimlig'i anda edi, o'n ikki ming va Bahodur Xamloydariy to'rt ming va Satirdi Kahjiy olti ming va Jarmal Param Dev va Merta hokimni to'rt ming va Bir Sing Dev Juhon to'rt ming va Sulton Iskandar-ni o'g'li Mahmudxon agarchi viloyati yo'q erdi, sardorlig' havasiga o'n ikki ming otlig' o'zi bilan saxlar erdi. Hosil budurkim, muxolif ming ikki lak kishiga tortar erdi.

Va muxoliflarning keluri bizni masomimizga yetishti, o'z fikrimizni qilib, o'shul ravish bilan yasov yasadukkim, g'ulga mavkibi xossimiz mutamakkin bo'lub, o'ngga Chin Temur Sulton va Mirzo Sulaymon va Xoja Do'stxond va Yunus Ali va Shoh Mansur barlos va Darvesh Muhammad sorbon va Abdullo kitobdor va Do'st eshik

oqa o'zga umarolar bila muqarrar qilduk. Va so'lg'a sulton Bahouddin Baxlul Ludiyni o'g'li Aloviddin va Shayx Zayn Xofiy va Amir Muhib Alikim, Nizomiddin Ali xalifani o'g'li erdi va Turdibekkim, Qo'chbekni inisi erdi va Sher Afgankim, Qo'chbekni o'g'li erdi va Oroyishxon va Xoja Husayn va o'zga xalqimiz bila tuzaduk va burong'org'a o'zumuz bo'lub, Hinduston umarolaridin Xonixonon va Dilovarxon va Malikdod Karoniy va Shayx Go'randek kishilarni xizmatimizga saxladuk. O'ngga Qosim Husayn sulton va Ahmad Yusuf o'g'lon va Hindubek qavchin va Xisrav ko'kaltosh va Qivombek va O'rdushoh va Vali Xozin va Qaroqo'zi va Mirqu-li Siystoniy va Xoja Pahlavon Badaxshiy va Abdushukurni va Malik Qosim Bobo Qashqani, inisini o'zga mo'g'ul bahodirlari bilan tayin bo'ldilar va so'ngga Mirhama va Muhammadiy ko'kaltosh va Xojag'iy Asar bir necha yigitlar bilan nomzad bo'ldilar va Juvong'ori maymanat osorg'a Mahdi Xojani va Muhammad Sulton mirzo va Mahdi Sultonni o'g'li Odil Sulton va Abdulaziz miroxo'r va Muhammad jang-jang va Qutluqqadam qarovul va Shoh Husayn Borakiy va Jonbek atka va Hinduston umarolaridin Jalolxon va Kamolxonkim, Sulton Alovuddinni o'g'lonlaridin erdilar va Alixon, Shayxzoda Farmuliy va Nizomxon Biyona va Mo'min atka va Rustam turkman ichkilar bilan va o'zga bahodirlar va g'oziylar ixlos nihod bilan urushga bel bog'ladilar.

Va Nizomiddin Ali xalifani g'azoti Rum dasturidek, buyuruldikim, miltiqchilar va ra'dan-

dozlarkim, cherikimizni oldida edilar, alarning panohi uchun arobalarni kelturub, zanjir bilan bog'ladilar. Va Sulton Muhammad baxshini buyuruldikim, ro'baro'da turub, har ne xotirga kelsa farmon qilg'aymiz va ul yasavullar va tavochilarga buyurgaykim, boshlig'larga yetkuzgaylar va chun cherikni yurushda tartib berildi, bosh va boshlig'lar ulusi bilan borib, o'runlarig'a turdilar. Andin so'ngra farmon bo'ldikim, hech kishi o'rnidin terbanmasun va beruxsat maydonga borib, muhoraba qilmasun, to bizdin farmon bo'lmasa.

Va kundin bir posi o'tub erdikim, juvong'or va burong'or andoq urush bo'ldikim, zilzila zaminda va valvala zamonda tushti. Va yov bizni burong'or tarafidin terbanib, Xisrav ko'kaltosh va Malik Qosim va Bobo Qashqag'a hamla qildilar. Va Chin Temur Sultonni buyurdukkim, alarning ko'makiga yetsun. Va ul mardona ishlar qilib, yovni quvlab, yasovulni buzub, g'ulini yaqiniga yetkuzdi. Va bu fathining juldusi aning otiga muqarrar qilduk va Mustafo Rumiyni buyurdukkim, g'uldin arobalarni ilgari eltib, miltiq va zarban bilan andoq muxolifni lashkarini darham urdikim, bahodirlarning ko'ngullaridin qarong'u ko'tarildi. Va ko'p yovning tanasi mazallat tuprog'ig'a tushub, fano bodig'a yiborildi.

Va lekin voqea andoq edikim, Rono Sangoning cheriki keyinidin saf-saf kelur erdilar. Men ham kishilarimni yaxshilarini terib-terib bir-birini keyinidin ko'makka yiborur erdim. Avval Qosim Husayn Sulton va Ahmad Yunus va

Qivombekni buyurdum. Andin so'ng Hindubek qavchinni farmon berdim va andin so'ngra Muhammad ko'kaltosh va Xojagiy Asadni hukm qildim, andin so'ng Yunus Ali va Shoh Mansur barlos va Abdullo kitobdor va alarning keyinidin Do'st eshik oqani va Muhammad Xalil axtabegini ko'makka yiborildi va g'animni burong'ori necha qatla bizni juvong'org'a hamla kelturdi va har qatlada ixlos nihod g'oziylarimiz bir porasini o'q yog'ini bilan yerga tikar erdilar. Va yana bir porasini qilich va xanjar barqi bilan kullayin jahannamg'a yiborur erdilar. Va Mo'mun atka va Rustam turkman va mullo Mahmud va Ali atka va Muhammad Sulton mirzo va Odil Sulton va Abdulaziz miroxo'r va Qutluqqadam qorovul va Muhammad Ali jangjang va Shoh Husayn Borakiy va Mo'g'ul G'onchi qo'l urushga qo'yub, sobit qadam bo'ldilar. Va Xoja Hasan devon devoniylar bilan ko'makka kettilar. Va bori bahodirlar jon berib, jon olib, intiqom barqlarini dushmandin uzattilar. Nechukkim, g'animni ko'pligidin urush uzoqqa tortildi. Xos xizmatgorlarkim, arobalarni keyinida sherdayin zanjirda erdilar, buyurdumkim, g'ulni o'ng va so'lidin miltiqchilarni o'rtada qo'yub, ikki tarafdin korzor qilsunlar. Ushbu yigitlar sherdek zanjirni g'ajib, uzub chiqqandek o'zlarini o'z boshiga ko'rgan bilan bu xeyli kufforg'a tushub, harne qo'llaridin keldi – qildilar. Va nodurul-asr Ali Quli o'z ulusi bilan g'ulning oldida edi va miltiq va zarbzan va tosh otmoqda ishlar qilur erdilar.

Ko'rdukkim, g'anim fanosi kechroqqa tortildi. Buyuruldikim, g'ul arobalarini ilgarrak yurusunlar, o'zumuz ham yuruy-o'q berduk. Yasov xalqi o'ng va so'ldin burong'or va juvong'ordin ko'rub, terbanib, g'animg'a hamla kelturdilar. Andoq urush bo'ldikim, bizni o'ng va so'limiz g'animni o'ng va so'lini eltib, bir yerda soldilar. Va g'anim ilik ko'nglidin yub va umr pang'uni kuydurub, bizni burong'org'a va juvong'org'a chopib, o'zlarini yaqin ham teguzdilar. Chun oyog' mahkam qilib erduk, muxolifni turar majoli qolmay, beixtiyor qoch berdilar. Va ko'prog'i o'shul maydonda jon berib, jahannamg'a ketdilar. Va ozrog'i sarosima bo'lub, qumlayin bu sahrog'a yettilar. Va Hasanson Mevotiyga miltiq tegib, gardi fanog'a ketti. Va Rovuli Udiy Sing va Mangjand Jo'bon va Roy Chandiryon va Dalbas roy va Kangan va Garimsingdek boshlig'lar g'animdin adam yo'lini g'ubori bo'ldilar. Va necha ming poraliq bizni cherikni otlarining oyog'i ostida poymol bo'ldilar. Va Muhammad ko'kaltosh va Abdulaziz miroxo'r va Olamxon va yana bir necha umarolar bilan buyuruldikim, Rono Sangoni keyindin taoqub qilsunlar. Va men o'zum ham bir necha kuruhcha qavladimkim, Rono Sangoga qorong'u kun tushti.

Toinki kecha bo'ldi, g'animdin ko'ngul jam' qilib, komyob qayttuk. Va necha soattin so'ng manzilga yetishtuk. Nechunkim, taqdir bo'lmandurkim, ul kofir qo'lga tushgay. Keyinidin ketgan xaloyiq ehtimom qilmabturlar va pu-

shaymon bo'ldukkim, xalqni umidiga bo'lmay, o'zumiz taoqub qilmoq kerak erdi. Va Shayx Zayniddinkim, fuzalolarimizdin erdi, bu fathg'a tarix «podshohi islom» topti va Mirgisu ham Kobuldin o'shul tarixni bitib yibordi. Yana o'shandoq ilgari fathlarimizdinkim, Dibalpurni fath qilduk, ikki kishi «vasati rabiul-avval» topti.

Va chun fath mundoq bo'ldi, Rono Sango-ning keyinidin viloyatig'a taoqub qilmoqni sababi yo'q erdi, mavquf qilib, Mevot tashirig'a himmat bog'laduk. Va Muhammad Ali jang-ang va Shayx Go'ran va Abdulmalik qo'rchini qalin kishi bilan Ilyosxonning boshig'a yibordukkim, ikki suvni orasig'a bosh ko'tarib, Ko'l qasabasini urushub olib erdi. Va Kichik Alikim, Ko'l qasabasini hokimi erdi, tutub bandg'a solg'on ekandur. O'shal yiborgan cherikkim, biz yiborib erduk, yaqin yetganda tob keltura olmay qochibtur. Necha kundin so'ngkim, Ograga yettuk, doxil bo'lg'on kuni ul tiyra baxtni bog'lab, chirmab kelturdilar. Sazosig'a yetti.

Andin so'ngra ko'ngulga yettikim, Mevot tarafig'a bormog' kerak. Chahorshanba kuni rajab oyini oltisig'a Alvorkim, Mevot hokim-nishinidur, borildi. Aning xizonasini osonlig' bilan qo'lg'a olduk. Va chun bu viloyat ham doxili mamoliki maxrusa bo'ldi, azimati mustaqarri xilofat qilduk. Muhammad Humoyunni Kobul va Badaxshong'a ruxsat berib, o'zumiz mustaqarri xilofatka borg'onmiz.

To'qquz yuz o'ttuz to'rtta Xon Mirzo olamdin safar qildi. Badaxshonni hukumatlig'i nurul-ayniy Muhammad Humoyung'a berib erduk,

o'shul illing¹ rajab oyining to'qquzida Muhammad Humoyunni ul mamolikka ruxsat berildi. O'shul asnoda Biban Afg'onkim, bosh ko'tarib erdi, Qosim Husayn Sulton va Muhammad Qosim Bobo Qashqa va Abul-Muhammad nayzador va Husaynixon va Hinduston umarolaridin Alixon Farmuliy va Malikdod Karoniy va Totorxon va Xonijahonni Muhammad Sulton mirzog'a yo'ldosh qilib yiborildi. Ul baxti qaytg'on eshittikim, cherik tayin bo'lubtur, boshini qo'lig'a olib, dunyodin chiqar.

O'zumiz o'shul illing avoxirida Fathpur va Boriyni sayr qilib, Ograga kelduk. To'qquz yuz o'ttuz to'rtta Ko'l sayrig'a borib, andin Sanbal shikorig'a borildi. Kofhistonni sayr qilib, dorul-xilofag'a² kelindi. Va safar oyining yigirma sekkizida Faxrijahonbegim va Xadicha sultonbegim o'g'lon-ushog'i bilan Kobuldin keldilar. Va biz kemag'a kirib, alarni istiqbolig'a borib, yaxshi so'atta doxil qilduk.

Andin so'ng bir-birini keyinidin xabar kelur erdikim, Medni roy Chandiriy hokimi va Rono cherik yig'ishturmoqqa mashg'ul bo'libturlar. O'shul xabarlarikim, bizg'a yetti, olti-yetti ming yigitni Chin Temur Sultong'a yo'ldosh qilib, Kolpiy hududidin Chandiriyga yiborildi.

Chahorshanba kuni jumodil-avval oyining yettisida Chandiriy fath bo'ldi va «fathi dorul-harb» aning tarixini topib erdilar. Va Chandiriy qo'lg'a kelgandin so'ng Ahmadshohg'akim, Sulton Nosiriddinni nabirasi erdi, inoyat qilduk.

¹ Yilning.

² Poytaxt – demak.

Va yakshanba kuni jumodil-avval oyining o'n birida qaytib dorulxilofag'a doxil bo'lduk. Andin ilgaroqqim, Chandiriyg'a borg'aymiz, Rono cheriki bilan terbonib, Irajg'akim, izni xizmatgorlardin anda edi, kelib qabal qilg'on bo'lg'ay. Bir kecha yuqusida buzurgvorlardin birisi aning tushig'a kirib, qo'rquturlarkim, o'shul yuqudin titranib seskanib uyg'ona tushar, isitma tutar. O'shul isitmada cherikni hukm qilurkim, qaytsunlar. Andoq zohir bo'ldikim, yo'lda ajal yo'ldosh bo'lub, jonini olib, jahannamg'a yiborur.

Va bizni cherikimiz Burhonpur suyidin o'tar erdilarkim, xabar keldi: Ma'ruf va Biban va Boyazid Qanujdin qochib, Irajg'a kelib, Shamsobod qal'asini Abul-Muhammad nayzadordin zo'r bilan olibturlar. Aning uchun inon o'shal yong'a mayl qilib, bir necha yigitlarni ilgariroq yiborildi. Bu xabarni eshitgandin so'ng Ma'rufni o'g'li Qanujdin qochar. Va Biban va Boyazid va Ma'ruf ham Gangdin o'tub, Qanuj barobarida Gangni oftob chiqarida borib, guzarbandlig' xayolig'a o'lturarlar.

Va to'qquz yuz o'ttuz beshida jum'a kuni muharram oyining uchidakim, Mirzo Askariyni Kobuldin Multon maslahatig'a tilatib erdug', Guvalyorg'a kelib, mulozamat qildi. O'shul kuni roja Bikramojit va Mon Singning imoratlarini sayr qilib, dorul-xilofag'a mutavajjih bo'ldug'. Payshanba kuni o'shul oyining yigirma beshida doxil bo'ldug'.

Dushanba kuni rabiul-avval oyining o'nida Muhammad Humoyundin qosidlar kelib, mu-

lozamat qildilar va ariza ham kelturdilarkim, anda bitib erdikim, tengri taolo bizga bir o'g'ul karomat qildi, aning otini Al'amon qo'yduk. Ushbu ot bizga xush yoqmadi. Andin so'ng turk va hind umarolarini charlatib, jashn berduk. Ushbu jashnda maslahat va kengash andoq bo'ldikim, sharq viloyatlarig'a taxt kelturmak kerak. Ilgariroq, Mirzo Askariy og'ir cherik bilan mutavajjih bo'lsun. Va umarolarkim, Gang suyini nari yonidadurlar, yo'ldosh bo'lub, bu maslahatig'a jahd qilsunlar. Va dushanba kuni rabiul-oxir oyining yettisida Mirzo Askariy (ga) ruxsat bo'lub, mutavajjih bo'ldi.

Va o'zimiz shikor uchun Dahpur tarafig'a otlanduk. Va jumodii-avval oyining uchida xabar keldikim, Mahmud Iskandarni o'g'li Bahorni olib, sho'rish xayoli boshig'a bor. Shikordin qaytib, dorul-xilofag'a nuzul qilduk.

O'shul asnoda Badaxshondin Muhammad Humoyun qosidlar yiboribturkim, qirq-ellik ming cherik yig'ishturub, Sulton Vaysni yo'ldosh qilib, Samarqand xayoli boshqa tushubtur va sulh so'zi ham orada bor. Aning arzadoshti javobida bitildikim, tengri taolodin umidvormizkim, o'shul yaqinda Hinduston viloyati qo'lg'a kirgay. Havoxoh va yaxshi farox havsalarimizdin Hinduston viloyatig'a qo'yub, o'zumuz mavrusiy viloyatimizga borg'aymiz. Va kerakkim, bori xalqimiz bu yurushda, Humoyunga yo'ldosh bo'lub, ixlos ko'rsatgaylar.

Va panjshanba kuni o'shul oyning o'n yettisida Jo'n suyidin o'tub, sharq ro'ya tarafig'a mutavajjih bo'ldug'. Ushbu kunda Nusrat-

shohdinkim, Bangola volisi edi, elchilar kelib, peshkashiyalar kelturub, izhori bandalik qildilar.

Dushanba kuni jumodil-oxir oyining o'n to'qquzida Mirzo Askariy kelib, bizni ko'rdi. Farmon qildukkim, siz cherikingiz bilan Gang suyini nari yonida tushung. Va Ogra yaqinida Iskandar Sultonni o'g'lini Mahmudxonni buzulg'ondin xabar yetti. G'ozipur hududig'acha borib, Bahuchpur va Bahag'a tushuldi. Va anda Bahor viloyatini Mirzo Muhammad Zamong'a berildi.

Panjshanba kuni ramazon oyining yettisida Bangola va Bahordin xotirjam' bo'lub, Sarvo tarafig'a Biban va Boyazid dafi uchun yuriy berduk. Va ul muxoliflar bilan urush solib, shikast berduk. Andin so'ng Xarid va Skandarpurni sayr qilib, bu viloyatlardin xotirjam' bo'lub, ilg'or bilan doril-xilofag'a mutavajjih bo'lub, andak fursatta doxil bo'lduk.

Va Muhammad Humoyun bir ili edikim, Badaxshonda diydorlardin ayr-u tushub erdi, so'ngra bizni sog'inib, Badaxshonni Mirzo Sulaymonkim, aning kuyovi erdi, topshurub, bir kunda Kobulg'a kelur. Va Mirzo Komron Qandahordin Kobulg'a kelgan ekandur. Iydgohga muloqot qilib, hayron bo'lub, tavajjuh sababini so'rabtur. Va Muhammad Humoyun bizni ishtiyoqimizni aytib Mirzo Hindolni Kobuldan Badaxshonga yiborub, bizni tarafg'a yura berur. Bir necha kunda dorul-xilofa Ograga yetib, o'shul soatkim, biz aning onasi bilan otini tutub, so'zlashib olturub erdukkim, yeta-o'q

keldi. Ko'ngullar gul yanglig' ochilib, ko'zlar chirog'dek yorudi. Muqarrar har kun jashn edi, lekin aning o'zig'a to'y berib, hushholig'lar qilduk. Va necha muddatgacha bir yerda bo'lub, musohibona bir-bir bilan suluk qilur erdik. Va alhaq suhbatta bebadal erdi va insonni komilkim derlar, o'shal erdi.

O'shal avqottakim, Muhammad Humoyun Badaxshondin keldi, Sulton Saidxonkim, Koshg'ar xonlaridan erdi va xeshlig'i ham bizga bor erdi, Rashidxonni Yorkandga qo'yub, xayoli xom qilib, Badaxshon tarafig'a mutavajjih bo'lubtur va andin ilgarirog'kim, ul Badaxshong'a yetgay, Mirzo Hindol borib, Qal'ayi Zafarg'a kirib chandur. Sulton Saidxon uch oy qabal qilib, ilgidin ish kelmay qaytibtur.

Va bizga andoq yettikim, Koshg'ariylar kelib, Badaxshonni oldilar. Biz Xoja Xalifani farmon berdukkim, Badaxshong'a borib, nechukkim, salohdiyd bo'lsa, qilsun. Ul nofahmliq'din qabul qilmadi? Va Muhammad Humoyunga aytukkim, seni borg'oning nechuk bo'lg'ay? Ul javob berdikim, farmong'a chora yo'qtur, lekin axd qilg'onmenkim, o'z ixtiyorim, bilan diydordin ayrilmag'aymen. Aning uchun Mirzo Sulaymonni Badaxshong'a ruxsat berildi. Va Sulton Saidg'a bitidukkim, bovujudkim, bizdin necha huquq sizdadur, ajab keldikim, siz mundoq qildingiz. Alhol Mirzo Hindolni charlab, Mirzo Sulaymonni yibordik. Agar huquqni manzur qilib, Badaxshonni Sulaymon mirzog'akim, bizni farzandimizdur, bursangiz yaxshi bo'lg'ay. Va illo biz gunohni o'zumizdan soqit qilib,

merosni merosxo'rg'a topshurduk, bilsunlar. Va Mirzo Sulaymon andin ilgarikim, Kobulg'a yetgay, Badaxshonni dushman ilgidin qo'yub, amonlig' bo'lg'on ekandur. Va Mirzo Sulaymon Badaxshong'a borg'onidin so'ng, Mirxa Hindol Badaxshonni Mirzo Sulaymong'a topshurub, Hindustong'a mutavajjih bo'ldi.

Va Muhammad Humoyun Sanbalg'akim, aning joygiri erdi, ruxsat berildi. Olti oygacha anda edi: zohiran, ani yer va suyi hushyoqmadi. Isitma tutar ekandur, bora-bora uzoqqa tortar. Tonoki biz eshittuk, farmon berildikim, Dehlig'a kelturub. Dehlidin kemag'a solib keltursunlarkim, hakimi hoziqlar ko'rub, dardig'a davo qilsunlar. Bir necha kunda daryo yo'li bilan kelturdilar va tabiblar har necha dor-u darmon berdilar, yaxshi bo'lmadi. Mir Abulqosimkim, ulug' kishi erdi, arzg'a yetkurdikim, ush-mundoq dardlarg'a darmon budurkim, yaxshi nimarsalardin tasadduq qilmoq kerak. Toinki tengri taolo sihat bergay. Mening ko'nglumga keldikim. Muhammad Humoyun (ning) mendin o'zga yaxshiroq nimarsasi yo'q. Men o'zum tasadduq bo'layin, Xudoy qabul qilsun. Xoja Xalifa, o'zga muqarrablardin arzg'a tegurdilarkim, Muhammad Humoyun sihat topar, siz bu so'zi nechun tilingizga kelturasiz. G'araz budurkim, dunyo molidin yaxshisini tasadduq qilmoq kerak. Bas o'shal olmoskim, Ibrohimni urushida tushub erdi, Muhammad Humoyung'a inoyat qilib erdingiz, tasadduq qilmoq kerak. Tilga keldikim, dunyo moli aning

ivazig'a nechuk bo'lg'ay, men aning fidosi qilurmenkim, hol anga mushkil bo'libtur. Va andin o'tubturkim, men aning betoqatlig'ini toqat kelturg'aymen. O'shal holatta kirib, uch qatla boshidan o'rgulub, dedimkim, men ko'tardim xarne darding bor. O'shal zamon men og'ir bo'ldum, ul yengil bo'ldi. Ul sihat bo'lub qo'пти. Men noxush bo'lub yiqildim. A'yoni davlat va arkoni mamlakatni charlab, bay'at qo'llarini Humoyunni qo'lig'a berib, joynishinig'ig'a va valiahdlig'ig'a nasb qildim. Va taxtni anga topshurdum. Va Xoja Xalifa va Qanbar Alibek va Turdibek va Hindubek va o'zga xaloyiq ham bu nasoyihda bor erdilar, borisi qabul qilib, band bo'ldilar.

Musavvidi avroq¹ aytadurkim, to'qquz yuz o'ttuz yettida jumodil-avval oyining oltisida chahorbog'idakim, o'shul podshoh o'z qo'li bilan obod qilib, erdi, holi mutag'ayyir bo'lub, bu olami bevafoni padrud qildi.

Va fuzaloyi ahdkim, tarix va marosiy va qasoyid va tarokib ayttilar, az on jumla Mavlono Shihob muammoyi bu misra'ni tarix topti: «Humoyun bud vorisi mulki vay».²

Va maholdurkim, ul podshohi qobilning yaxshilig'larini aytgan bilan va bitigan bilan tungangay. Lekin mujmal bukim, sekkiz sifati asil aning zotig'a muttasil erdi: birisi bukim, najhati baland erdi; ikkimchisi, himmati arjumand

¹ «Varaqlarni qoralovchi» – ko'chiruvchi, kotib (kimligi noma'lum).

² «Humoyun – uning mulkinging merosxo'ri».

erdi; uchumchisi, viloyat olmog‘; to‘rtumchisi, viloyat saxlamog‘; beshumchisi, ma‘murlug‘; oltimchisi, rafohiyat niyati tengri taolo bandalarig‘a; yettimchisi, cherikni ko‘ngli(ni) qo‘lg‘a olmoq; sekkizimchisi, adolat qilmoq.

Va fazilat bobida kamlig‘i yo‘q erdikim, nazm va nasr va turkiy va forsiyni bebadal aytur erdi. Alal-xusus turkiy devoni bordurkim, anda toza mazmunlar topib, aytibtur va masnaviy kitobi ham borkim, oti «Mubayyin»dur. Til bilur dono xalq orasida aningdek latoyif yo‘qtur. Va Xoja Ahror aytgan risolakim, aning oti «Volidiya»dur, o‘shal podshoh Nazm qilibtur. Ushbu kitobkim, «Bobiriya»dur, Bayramxonni o‘g‘li Mirzoxonga buyurdilarkim, turkiydin forsiyg‘a kelturgilkim, turkiy bilmog‘on xaloyiqqa oson bo‘lg‘ay. Ul podshoh musiqiy ilmidin ham xabari bor erdi va bu ruboiyni forsiy aytib erdilar.

*Darveshonro agar na az xeshonem,
Lek az dil-u jon mu‘taqidi eshonem.
Durast mago‘y shohi az darveshy,
Shohem, vole bandayi darveshonem.¹*

Va forsiyda bu matla‘ni ham aytubturlar:

*Halok mekunadam furqati tu donistam,
Vagarna raftan az in shahr metavonistam.²*

¹ Darveshlar, agarchi bizlarga yaqin bo‘lmasalar ham, lekin biz ularga jon-u dil bilan muxlismiz. Shohlikni darveshlikdan uzoq dema, biz shoh bo‘lsak ham, darveshlarning bandasimiz.

² «Sendin ayrilish meni halok qilishini bildim; Bo‘lmasa bu shahardan keta olardim».

Va bu matla' ham alarningdur:

*To ba zulfi siyahash dil bastam.
Az pareshoniya olam rastam.¹*

Va ul podshoh aruz va qofiyag'a ham risolalari bor va ul jumladin, «Mufasssal» degankim, ushbu fan sharhi bo'lg'ay, ko'pdin-ko'p yaxshi tasnif qilibturlar.

Va ul podshohg'a to'rt o'g'ul va uch qiz tengri taolo karomat qilib erdikim, o'g'lonlar: Muhammad Humoyun podshoh va Komron mirzo va Mirzo Askariy va Mirzo Hindol erdilar. Va qizlar: Gulrangbegim va Gulchehrabegim va Gulbadanbegim erdilar. Ushbu uch qiz bir onadinda erdilar.

Va bir necha ahli tab'kim, ushbu podshoh doimul-avqot suhbatdin ayr-u qo'ymas erdi, bulardur: Abulbaqokim, ilmi hikmat bobida bebadal erdi. Va Shayx Zayn sadrkim, Zayniddin Xavofiyni nabirasi erdi, hiddati tab'i bor erdi, nazm va inshodin saliqalig' va Humoyun podshoh zamonida umarolig' ham topib erdi. Va Shayx Abulvohid Forig'iykim, Shayx Zayn Xavofiyni abasi bo'lur erdi, xushtab' va she'r ham aytur erdi. Va Sulton Muhammad ko'sakim, Mir Alisherning musohiblaridin erdikim, podshoh suhbatida izzat topib, sarafroz bo'lub erdi. Va mavlono Shihob Muammoyikim, «Faqiriy» taxallus qilib erdi, fazoyil va she'rdin nasibasi bor erdi. Va Mavlono Yusufi tabib-

¹ «Uning qora sochiga dil bog'laganimdan beri, olamning besaranjomligidan qutuldim».

kim, aning Xurosondin tilatib erdilar, nabz ko'rmog'idin va tashxis qilmog' aning ishi erdi. Va Surx Vadoiykim, turkiy va forsiyda nazm aytur erdi. Va Mulla Baqoiyni saliqasi ko'p erdi. Va «Maxzanul-asror» vaznida podshoh otig'a masnaviy aytib erdi. Va Xoja Nizomiddin Ali Xalifa xizmat va Mahramiyat va vazoratqa aql va tadbiri bor erdi va podshoh oldida hurmat va izzati oncha bor erdikim, ko'p so'zi maqbuli tab' bo'fur erdi va tibdin ham saliqasi bor erdi. Va Mir Darvish Muhammad sorbonkim, Xoja Ahrorni yaxshi muridlaridin erdi, xushsuhbat kishi erdikim, fazilatdin ul borgohda qurb va e'tibor topib erdi. Va Xond Amir muarrixkim, turfa kishi erdi. Tasoniflari borkim, xalq orasida mashhurdur: «Habibussiyar» va «Xulosatul-axbor» va «Dasturul-anvor» va o'zga tasniflari ham bor. Va Xoja Kalonbek umarolardin erdi va podshoh xizmatida o'lturur erdi, fazoyil va saxiylik bobida mumtoz. Va aning inisi Kichik Xoja muhrdor va xos ahlidin erdi va podshoh xizmatida bu ham o'lturur edi. Va Sulton Muhammad do'ldoy ulug' umarolari edi. Xushxulq kishi erdi.

«Valloxu bikulli shayin alim».

TARJIMALAR

HINDUSTONDAN G'OLIB PODSHOHNING QO'L OSTIGA KIRGAN JOYLAR DAROMADINING TAXMINIY HISOBI¹

Satluj suvining u tomoni, Behra, Lohur, Siyolkut, Dibolpur va boshqalar sarkori: uch kurur o'ttuz uch lak o'n besh ming to'qqiz yuz sakson to'qqiz (33 315 989) tanga.

Sihhind sarkori: bir kurur yigirma to'qqiz lak o'ttiz bir ming to'qqiz yuz sakson besh (12 931 985) tanga.

Hisori Firuza sarkori: bir kurur o'ttuz lak yetmish besh ming bir yuz yetmish to'rt (13 075 174) tanga.

Dehli poytaxti va Miyoni duob sarkori: uch kurur oltmish to'qqiz lak ellik ming ikki yuz ellik to'rt (36 956 254) tanga.

Mevot sarkori (bu - Iskandar zamonida qo'shilmagan): bir kurur oltmish to'qqiz lak sakson bir ming (16 981 000) tanga.

Biyona sarkori: bir kurur qirq to'rt lak o'n to'rt ming to'qqiz yuz o'ttiz (14 414 930) tanga.

Ogra sarkori: yigirma to'qqiz lak yetmish olti ming to'qqiz yuz o'n to'qqiz (2 976 919) tanga.

Miyoni viloyat sarkori: ikki kurur to'qson bir lak o'n to'qqiz (29 100 019) tanga.

Guvalyor sarkori: ikki kurur yigirma uch lak ellik yetti ming to'rt yuz ellik (22 357 450) tanga.

Kolpiy, Sihanda va boshqalar sarkori: to'rt kurur yigirma sakkiz lak ellik besh ming to'qqiz yuz ellik (42 855 950) tanga.

¹ Forscha matnning tarjiması.

Qanuj sarkori: bir kurur o'ttiz olti lak oltmish uch ming uch yuz ellik sakkiz (13 633 338) tanga.

Sanbal sarkori: bir kurur o'ttiz sakkiz lak qirq to'rt ming (13 844 000) tanga.

Laknur va Bakasar sarkori: bir kurur (kasri bilan) o'ttiz to'qqiz lak sakson ikki ming to'rt yuz o'ttiz uch (13 982 433) tanga.

Xayborod sarkori: o'n ikki lak oltmish besh ming (1 265 000) tanga.

Ud va Bahroj sarkori: bir kurur o'n yetti lak bir ming uch yuz oltmish to'qqiz (11 701 369) tanga.

Junpur sarkori: to'rt kurur sakson sakkiz ming uch yuz o'ttiz uch (40 088 333) tanga.

Karra va Monikpur sarkori: bir kurur oltmish uch lak yigirma yetti ming yuz sakson ikki (16 327 282) tanga.

Bahor sarkori: to'rt kurur besh lak oltmish ming (40 560 000) tanga.

Sarvor sarkori: bir kurur ellik besh lak o'n yetti ming besh yuz olti yarim (15 517 506 1/2) tanga.

Soran sarkori: bir kurur o'n lak o'n sakkiz ming uch yuz yetmish uch (11 018 373) tanga.

Chaporan sarkori: bir kurur o'n to'qson lak sakson olti ming oltmish (19 086 060) tanga.

Kandla sarkori: qirq uch lak o'ttiz ming uch yuz (4 330 300) tanga.

Roja Rup Narin chegarasi o'rtaligidagi Tirhut sarkori: ikki lak ellik besh ming (255 000) kumush tanga, yigirma yetti lak ellik ming (2 750 000) qora tanga.

Chortsu, Molanadagi Rantanbur Bo'li sarkori: yigirma lak (2 000 000) tanga.

Nogur sarkori. Roja Bikramojit (Rantanburdan) sarkori. Kalanjariy sarkori. Roja Sing Dev sarkori. Roja Bikam Dev sarkori. Roja Bikan Chand sarkori.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR FARMONI¹

Sabablar surati inʼikosining toʻplanish joyi va sadoqat, toʻgʻrilik injulari naqshining hazinasi boʻlgan aql egalarining fikr oyinasi bu maʼni chechaklari javharining naqshini oʻziga olurki, inson tabiati oʻzining yaratilishi boʻyicha nafs lazzatlariga moyildir, zavq keltiruvchi yoqimli narsalarni tark etish Xudoning tavfiq berishiga va osmoniy koʻmakka bogʻliq. Bashar nafsi yamonlikka mayl etishdan uzoq emas, «Nafsimiyi poklay olmadim, chunki nafs yamonlikka amr etuvchidir». Undan qaytish bagʻishlovchi malikning lutf-marhamatidan boshqa mumkin emas. «Bu Allohning ehsonidir, kinga xohlasa bahsh etadi, Alloh katta ehson egasidir».

Bu soʻzlarni ifodalashdan va bu gaplarni bayon qilishdan gʻaraz shuki, insonlik taqozosi, podshohlar rasm-rusmi podshohlik lavozimi, mansabdorlar odati boʻyicha shohdan tortib sipohiygachi goʻzal yoshlik kunlarida shariat manʼ qilgan baʼzi narsalarga va ayrim oʻyin-kulgilarga ruju qilinardi. Bir qancha vaatdan keyin pushaymonlik kunlari kelib, ularni bitta-bitta tark qilinari va chin tavba bilan ularga qaytish eshigi yopilar edi.

Ammo, maqsad va matlablarning muhimi va buyugi boʻlgan ichkilikdan qaytish tavbasi «har ish oʻz vaqtiga bogʻliq» degan parda ostiga bekinib, yuzini koʻrsatmas edi, toki bu yaxshi soatda zoʻr gʻayrat bilan urush ehromini bogʻlab,

¹ 287 – 290-betlardagi forscha matnning tarjimasini.

shavkatli islom askarlari yordamida kofirlarga qarshi jangga kirishganimizda g'ayb ilhomchisi va haqiqat jarchisidan «Imon keltirganlarga vaqt kelmadimiki, qalblarini Ollohning zikri bilan yumshatsalar?», mazmuni eshitilib, gunoh va sarkashlik asbobini ildizidan qo'porib tashlab, tavba eshiklarini to'liq jiddiyat bilan qoqdik. Tavfiq yo'llovchisi «Kimki astoydil eshik qoqsa, kiradi», mazmuniga muvofiq iqbol eshigini ochdi va bu urushni nafsga qarshilik ko'rsatishdan iborat bo'lgan zo'r urush bilan boshlashni buyurdi.

Alqissa, «Ey robbim, nafslarimizga zulm qildik»ni ixlos tiliga keltirib, «Sening oldingda tavba qildim va men musulmonlarning birinchisiman», degan gapni dil lavhasiga naqsh qildik. Ko'ngil xazinasida maxfiy qolgan ichkilikdan qaytish tavbasi istagini yuzaga chiqardik.

Zafar nishonli xodimlar muborak hukm yuzasidan, ko'plik va ziynatda yuksak osmon yulduzidek bo'lgan, go'zal majlisni bezab turgan oltin va kumushdan yasalgan may idish va qadahlari va boshqa asboblarni yerga urub, Xudo xohlasa, yaqinda sindirishga muvaffaq bo'ladiganimiz butlar kabi, pora-pora qilib, har birini miskin va bechoraga berdilar. Qabul qilinishga yaqin bo'lgan bu tavba barakatidan dargoh muqarrablaridan ko'plari «kishilar podshohlari izidan boradilar» taqozosicha, shu majlisning o'zidayoq tavba sharafiga erishdilar va may ichishdan butunlay qaytdilar. Xudoning buyruq va qaytarishlariga bo'ysunib, chekinuvchilar holiga qadar to'da-to'da bo'lib, soat sayin shu

saodat bilan baxtiyor bo'lmog'dalar. Umid shuki, «Yaxshilikka undovchi kishi yaxshilik qilgan kishiday», deganlari kabi bu ishlarning savobi xushbaxt podshohning hayotiga oid bo'lg'ay va bu saodat barakatidan olg'a bosish va g'alaba kundan-kunga orta borgay.

Bu orzu va bu osoyishtalik to'la-to'kis oxiriga yetgandan keyin, olam bo'ysunishi lozim bo'lgan farmon ijro sharafiga erishdiki, tinch saqlangan mamlakatda (Xudo ofat va xavflardan omon qilsin) mutlaqo hech bir kishi ichkilik ichishga urinmasin, uni hosil qilishga tirishmasin, ichkilik yasamasin, sotmasin va olmasin, o'zida sahlamasin, eltmasin va keltirmasin: «Ichkilikdan qochinglar, shoyadki najot topsanglar».

Bu g'alabaning shukronasi va bu chin tavbaning qabul darajasiga erishmog'ining sadaqasi uchun, podshohlikning baxshish daryosi jo'sh urib, olam obodonligi va kishilik obro'yi bo'lgan karam to'lqinlarini paydo qildi: butun mamlakat bo'ylab, o'tgan sultonlardan qolib kelgan va daromadi haddan ortiq ko'p bo'lgan tamg'ani, o'zi ham shariat qoidalaridan tashqari bo'lgani uchun musulmonlar ustidan olib tashlab, farmon sodir bo'ldiki, hech bir shahar, qishloq, yo'l, ko'cha, guzar va bandarlarda tamg'a olmasinlar va undirmasinlar ham bu hukmning qoidalariga o'zgartirish kirgizmasinlar: «Kimki buni eshitgandan keyin o'zgartirsa, gunohi o'zgartiruvchilarga bo'ladi».

Podshohning mehribonchiligiga sig'ingan turk, tojik, arab, ajam, hindi, forsiy fuqaro

va sipoh – butun millatlar, hamma inson toifalari bu mangu baxshishga suyanib, umid tutib, abadiylikka birikkan davlatimiz duosiga mashgʻul boʻlsinlar va bu hukmlar ijrosidan tashqari chiqmasinlar va burilmasinlar, farmonga muvofiq ish olib borsinlar. Bu hukm ulugʻ podshoh imzosi bilan yetishsa, eʼtimod qilsinlar.

Amri oliy bilan 932-yili 24-jumodil-avvalda yozildi.¹

¹ 932-hijriy hozirgi hisobda 1525 boʻladi.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR G'OZIY FARMONI¹

Tangri ne'matlarining ketma-ket kelib turishi unga shukr va sano aytishning ko'payishiga boisdir. Tangriga shukr va sano aytishning ko'payishi tangri ne'matlarining ketma-ket kelib turishining sababidir. Har ne'matga biror shukr lozim va har shukrga uning ketidan biror ne'mat. Shukr lavozimlarini ado qilish inson qudratidan yuqori va iqtidor egalari uning marosimini joyiga qo'yishdan ojizdir. Ayniqsa, shukr shunday bir ne'mat muqobilida bo'lsa-ki, dunyoda hech bir boylik undan buyukroq va oxiratda biror yaxshilik undan go'zalroq bo'lmasa. Bu esa, kuchli kofirlarga g'alaba qozonish va mag'rur fojirlarga ustun kelishdan boshqacha bo'lmaydiki, bularga o'xshashlar to'g'risida «Ular kofirlar va fojirlar», degan oyat ingandir va aql egalarining o'tkir ko'zlariga bu g'alabadan ko'ra yaxshiroq saodat ko'rinmaydi.

Xudoga shukrki, tug'ilgandan to shu damgacha xayrixoh xotir va to'g'rilik istar ko'ngilning asl matlabi va tub maqsadi bo'lib kelgan u buyuk saodat va u ulug' baxshish bu muborak kunlarda buyuk tangrining lutfkaram borgohidan yuz ko'rsatib qoldi. Beminnat va beillat mushkullarni ochuvchi va fayz sochuvchi yangidan zafar kalidi bilan fayz eshiklarini g'alaba qozongan shohimizning umid chehralariga ochdi, sevinchga to'lgan qo'shinlarimizning atoqli nomlari izzatli g'oziylar daftariga yozildi

¹ 290–298-betlardagi forsha matnning tarjimasini.

va islom tugʻi zafaryob lashkarlarimizning madadi bilan koʻtarilish va yuksalish avjiga yetdi.

Bu saodat va davlatning sodir va zohir boʻlishi shunday yuzaga keldi: islom tayanchi boʻlgan askarlarimiz qilichlarining shuʻlasi fath va zafar nurlari bilan hind mamlakatlarini munavvar qilgandan keyin, ilgari «Fathnoma»larda bayon qilinganidek, muvaffaqiyat qoʻllari gʻalaba nishonli bayroqlarimizni Dehli, Ogra, Joʻnpur, Xarid, Bahor va boshqa oʻlkalarda koʻtardi. Xalqlarning koʻpchilik musulmon va kofir toifalari bizning qutlugʻ podshohligimizga boʻysunib, qulliq yoʻliga sadoqat va ixlos qadamini qoʻydilar.

Ammo Rono Sango kofir oʻtgan vaqtlarda qutlugʻ podshohligimizga boʻysunganligini iqror qilib kelgan boʻlsa ham, hozirda «u tortindi va kibrlandi va kofirlar jumlasidan boʻldi», mazmuniga muvofiq shayton sifat bosh tortib, bizdan ajralganlarga boshliq boʻldi va shu bilan bir qancha toifalarning birikishiga sababchi boʻldiki, baʼzilarining gardanida zunnor tavqi va ayrimlari murtadlik tikani mehnatiga giriftor edi. U malʼun kofirning istilosi Hind viloyatida shu martabada ediki, podshohlik davlatining quyoshi porlashdan burun va shahanshohlik xilofati nurining barq urishidan ilgari, shu bilan birga, katta rojlar va roylar bu qirgʻinda uning farmoniga boʻysunganlari holda bu urushda uning jilovida boʻlgan va murtadlik bilan tavsiflangan hokimlar va yoʻlboshchilar oʻz ulugʻliklarini nazarda tutib, hech bir qirgʻinda unga boʻysunmaganlar, balki u bilan birgalashmaganlar. Va hech bir safarda suhbat-

doshlik va rafiqlik yoʻlini tutmaganlar. Bu keng oʻlkaning barcha ulugʻ sultonlari, chunonchi, Dehli sultoni, Gujarat sultoni, Mondu sultoni va boshqalari boshqa kofirlar bilan birgalashmay u buzuqi bila qarshilik koʻrsatishdan oʻjiz boʻlib, hiyla yoʻsunidagi muloyimlik yoʻlini tutib, u bilan kelishuvchilik qilib kelganlar. Kofirlik tugʻini islom mamlakatlarining ikki yuzga yaqin shaharida tikkan edi. Masjid va ibodatxonalarni xarob qilib, u joylardagi moʻminlarning xotin, bola-chaqalarini asir qildi. Uning quvvati voqiiy holatdan oʻtib, shu darajaga bordiki, Hindda qaror topgan qoidaga koʻra, bir laklik viloyatni yuz suvor va bir kururli viloyatni oʻn ming suvor eʻtibor qiladilar, u kofirlar sardori-ning qoʻlga kiritgan mamlakatlari oʻn kurraga yetishdi. Bu (daromad) bir lak suvor oʻrnida boʻladi.

Bu kunlarda mashhur kofirlarning koʻpginasi hech qachon hech bir maʼrakada unga madad bermaganlari holda, islom askarlariga dushmanliklari jihatidan uning buzuq tabiat lashkarlari safni orttirdilar. Chunonchi, xuddi tutunday sarkashlik daʼvosida boʻlgan va turli joylar kofirlarining boshlovchisi hisoblangan oʻnta mustaqil hokim u yaramas kofirga kishan va zanjirday yopishib oldi. U oʻnta bashoratlanganlar qarshisiga chiqib, yamonlik tugʻini yoygan oʻnta kofirning karamlari va qoʻshinlari hamda gʻoyat keng viloyatlari bor edi. Chunonchi, Salohiddin oʻttiz ming suvorali, Roval Udiy Sing Nogariy oʻn ikki ming suvorali va Medni Rov oʻn ikki ming suvorali, Hasanxon Mevotiy oʻn ikki ming suvorali, Bormal Edriy toʻrt ming

suvorali, Narpat Hora yetti ming suvorali, Satrviy Qachi olti ming suvorali, Derim Dev to'rt ming suvorali, Birsing Dev to'rt ming suvorali viloyatga ega edi.

Mahmudxon Iskandarxon o'g'lining viloyat va qishlog'i bo'lmasa ham, sardorlik umidida taxminan o'n ming suvori jam' qilgan edi. Sog'lomlik va omonlik vodisidan uzoqlashganlarning hamma to'plami, Hind qishloq va viloyatida davom etib kelgan qoida bo'yicha, hammasi bo'lib, ikki lak bir ming bo'lgan edi.

Alqissa, u mag'rur ichi qora kofir bag'ri qattiq kofirlarning ko'ngillarini yuzaki biriktirib, musulmonlarga qarshilik ko'rsatish va ular bilan o'rinish hamda payg'ambar alayhissalomi shariatining asoslarini yemirish holatiga o'tdi. Podshohning jangchi askarlari Xudoning balosiday u ko'zsiz dajjollar boshiga yopirilib, «qazo yetishsa, ko'z ko'r bo'ladi», degan hukmni xulq va nomus egalarining o'tkir nazarlariga manzur qildilar va «kimikidin uchun urush qilsa, albat-ta, u o'z nafi uchun urush qilgan bo'ladi», oyatini mulohaza qilib, «kofirlarga va munofiq-larga qarshi urushning», degan bajarilishi lozim bo'lgan hukmni amalga oshirdilar.

933 (hijriy)-yil 13-jumodis-soniy oyining shanba kuni Biyona muzofotining Konvo mavzuyidagi tog' atrofida dushmandan ikki kuruh masofada g'alaba nishonli islom lashkarining chodirlari tiqildi. Islom suvoriylarining hashamat va dabdabalari din dushmanlari va kofir lainlarning quloqlariga yetishi bilan muhammadiyah millat muxoliflari, ahli islom ka'basini buzitga bel bog'lagan «as'hobi fil»dek, tog'

jussa va dev haybat fillarni o'zlariga madadgor va tayanch qilib, hammalari bir jon bir tan bo'lib, o'z buzuqi lashkarlarini tartibga soldilar.

(Nazm:) Zalil hindilar, «as'hobi fil» kabi, o'z pillariga mag'rur bo'ldilar. Hammalari ajal tuniday xunuk va shum, tundan qora va yulduzlardan ko'proq edilar. Hammalari xuddi olovday, lekin tutun kabi kekkayib, ko'm-ko'k osmonga bosh tortgan edilar.

Otliqma-yayov, xuddi chumoliday mingminglab o'ng va so'ldan keldilar.

Urush qasdidagi yengilmas o'rdi tomon yo'naldilar. Shijoat bo'stonining daraxtlariga o'xshagan g'azotchi islom askarlari sanubarday saf tortib sanubar shakli po'lat qalpoqlarining quyoshday porlovchi uchlarini, Xudo yo'lidagi jang qiluvchilarning qalblaridek, yuksaklik avjiga yetkazdilar. Saflar Iskandar saddiday temirga aylangan va tuzilish, payg'ambar shariatining yo'llari kabi, to'g'ri va mustahkam edi. Quvvatining matonati «Go'yoki tubdan bir-biriga chirmashib ketgan»; najot va baxtiyorlik «ular Xudodan bo'lgan to'g'ri yo'ldadirlar va ular najot topgandirlar», degan so'zga muvofiq, ularning xos sifati edi.

(Qit'a) Shahanshohning ra'ykabi va barqaror dinday kishilarda qo'rquv yo'qlikdan saflar raxnasiz. Uning bayroqlari hamma yoqqa yo'yilgan, hammasi «Inna fatahna» (Biz fath qildik), aliflariday.

Hushyorlik va ehtiyotkorlikni ko'zda tutib, qo'shinning old tomoniga qo'yilgan tufekchilar va ra'dandozlarni Rüm jangchilari tariqasi-

da panalash uchun, arobalardan bir saf tartib berib, ular bir-birlariga zanjir bilan tutashtirildi.

Alqissa, islom askarlari shunday intizom va istehkom paydo qildilarki, buyuk aql va yuksak falak uning tadbirchisi va tartib beruvchisiga ofarin o'qidi.

Bu tartib va intizomni, quvvat va istehkomni vujudga chiqarishda hazrat sultonning yaqini hoqoniy davlatining suyanchig'i Nizomiddin Ali Xalifadodning hamma sa'y-harakat va tadbirlari taqdirga muvofiq va barcha sardorlik va ish yuritishlari podshohning porloq ro'yiga maqbul tushdi.

Podshohning g'ulda turishiga qaror berildi.

G'ulning o'n tomonida: Madadga Xudoning lutfiga xos bo'lgan saodatli qutlug' aziz katta birodar Chin Temur sulton va Xudo nazariga manzur bo'lgan katta aziz farzand Sulaymonshoh, to'g'ri yo'l egasi valiy nisbatli janobi Xoja Kamoliddin Do'st Xovand, oliy saltanat tayan-chi, eng yaqin va ixtisos egalarining zubbasi Kamoliddin Yunus Ali, xoslar tayan-chi, komil ixlosi Jaloliddin Shoh Mansur barlos, xoslar tayan-chi, itxos egalarining zubbasi Nizomiddin Darvesh Muhammad sorbon, xoslar tayan-chi, chin ixlosli Shixobiddin Abdullo kitobdor va Nizomiddin Do'st eshikoqo o'z o'rinlarida qaror topdilar.

G'ulning chap tomonida: saltanat egasi, xalifalikka nisbatli Sulton Alouddin Olamxon binni Sulton Bahlul Ludiy, hazriti sultonning yaqini, kengash va maslahatchi sadrlarning buyugi, islomning quvvati Shayx Zayin Xofiy, xoslar tayan-chi, komil ixlosli Kamoliddin Muhib Ali, hazrati sulton yaqini, xoslar tayan-chi Nizo-

midin Turdibek (marhum Quch Ahmadbek birodari) ning o'g'li, asilzoda va a'yonlar buyugi, ulug' xon Oroyishxon mazkur Quchbek marhumning o'g'li, Sherafgan, xalq o'rtasida vazirlarning buyuk vaziri Xoja Kamoliddin Husayn va buyuk devon kishilari guruhidan har birlari muqarrar qilingan o'rinda turdilar.

Burong'orda aziz va ulug' farzand, saodatli va baxtiyor, saltanat va xilofatning e'zozlisi Muhammad Humoyun Bahodir o'rnashib o'ng tomoniga farzandi aziz saltanat egasi Qosim Husayn Sulton va xoslar tayanchi Nizomiddin Ahmad Yusuf o'g'loqchi va mamlakat ishonchi komil ixlosli, Jaloliddin Hindbek qavchin, mamlakat ishonchi, chin ixlosli Jaloliddin Xisrav ko'kaltosh, mamlakat ishonchi Qivombek O'rdushoh, xoslar tayanchi, komil e'tiqod va ixlosli Vali xozin Qoraqo'zi, xoslar tayanchi Nizomiddin Pirquli Siystoniy, el o'rtasida vazirlar tayanchi Xoja Kamoliddin Pahlavon Badaxshiy, xoslar e'timodlisi Nizomiddin Abdushukur va a'yonlar ishonchlisi Iroq elchisi Sulaymon oqo va Siyston elchisi Husayn oqo qaror topdi. Aytib o'tilgan davlatli farzandimizning zo'r g'alabali chap tomonida oliyjanob Murtazoga nisbatli sayid avlodi Mirhama, xoslar tayanchi Shamsiddin Muhammadiy ko'kaltosh va Nizomiddin Xojagiy Asad xondor tayinlandilar. Burong'orda Hind amirlaridan mamlakat tayanchi xonlarxoni Dilovorxon, a'yonlar tayanchi Malikdod Karoniy va a'yonlar tayanchi shayxlar shayxi Shayx Go'ran – har birlari buyurilgan yerlarda turdilar.

Islom shiorli qo'shinning juvong'orida oliy darajali payg'ambarning eng zubda avlodi Sayid

Mahdi Xoja, eng aziz va ulug' birodar Muhammad Sulton mirzo saltanat egasi va xilofat nisbatli Odil Sulton Mahmud Sulton o'g'li, mamlakat ishonchi, komil ixlosli Muizziddin Abdulaziz miroxo'r, mamlakat ishonchi Shamsiddin Muhammad Ali jang-jang, xoslar tayanchi, komil ixtisosli Jaloliddin Qutluqqadam qarovul, xoslar tayanchi, komil ixlosli Jaloliddin Shoh Husayn Borakiy mo'g'ul g'onchi va Nizomiddin Jonbek Muhammadbek atka saf tortdilar.

Bu tarafda Hind amirlaridan sultonlar xulosasi Kamolxon va Jalolxon mazkur Sulton Alovuddin o'g'illari, a'yonlar ishonchlisi Alixon Shayxzoda Farmuliy va a'yonlar ishonchlisi Nizomxonni Biyona tayin bo'lgan edilar.

To'lg'ama uchun xoslar ishonchli komil ixlosli Turdika va Malik Qosim Bobo Qashqaning birodari barcha mo'g'ul to'dalari bilan burong'or tomonida: xoslar tayanchi to'g'ri ixlosli Mo'miy atka, xoslar tayanchi Rustam turkman boshlig' xos askarlardan bir to'dasi bilan juvong'or tomonda nomzod bo'ldilar. Xoslar tayanchi komil ixlosli, ixtisoslilarning zubdasi Nizomiddin Sulton Muhammad baxshi islom g'oziylari a'yon va arkonlarini tayinlangan joylarida saqlab, o'zi bizning hukmlarimizni eshitishga tayyor turardi. Tavochi va yasovullarni tevarak-atrofga yuborib, askar va sipohilarni zabt qilish bobidagi hukmlarimizni buyuk sultonlarga, izzatli amirlarga va hurmatli g'oziylarga yetkazib turardi.

Qo'nish kerak-yarog'i barpo va muhayyo bo'lib, har kishi o'z joyiga borib turganda, so'zsiz bajarilishi lozim bo'lgan sharafli farmon sodir bo'ldiki, hech kim buyruqsiz turgan o'rnidan qi-

mirlamasin va ruxsatsiz urushga kirishmasin.

Mazkur kundan bir qismi o'tgan edi, ikki muqobil tomon bir-biriga yaqin kelib, urush boshlanib ketdi. Ikki tomon g'uli, go'yo nur va zulmat kabi, bir-birlariga qarshi turib, burong'or va juvong'orda shunday zo'r urush bo'ldiki, yer yuziga zilzila va yuksak osmonga g'ulg'ula tushdi. Kofirlarning buzuqi juvong'ori islomning muborak askari burong'ori tomon yo'nalib, Xisrav ko'kaltosh, Bobo Qashqa birodari Malik Qosim ustiga hujum qildilar. Eng aziz va Ulug' birodar Chin Temur sulton buyruq bo'yicha ularning yordamiga borib, mardona urush boshladiki, kofirlarni joyidan uloqtirib, qalblari ketigacha deyarli siljitib yubordi. Juldu (g'alaba in'omi) u aziz birodarning nomiga bo'ldi. Zamona nodiri Mustafu Rumiyl ulug' yaratuvchining inoyat nazariga manzur bo'lgan, qaytaruvchi va buyuruvchi malikning lutf-karamlari bilan ixtisos topgan baxtiyor va eng aziz farzandimiz Muhammad Humoyun Bahodirning g'ulidan arobalarni oldinga keltirib, kofirlarning qo'shinlari saflarini tufak va zarbzhan bilan o'z qalblaridek chilchil qildi. Xuddi urush paytida aziz va ulug' birodar Qosim Husayn Sulton, xoslar tayanchi Nizomiddin Ahmad Yusuf va qivombek farmon olib, ularning yordamiga bordilar. Kofirlarning guruhlari o'qtin-o'qtin o'z kishilari yordamiga yetib turardilar.

Biz ham mamlakat ishonchi Jaloliddin Hindubekni, uning ketidan xoslar tayanchi Muhammadiy ko'kaltosh va Xojagiy Asad jondorni va undan keyin oliy saltanat tayanchi va xos yaqin Jamoliddin Yunus Ali, xoslar tayanchi

komil ixlosli Jaloliddin Shoh Mansur barlos va xoslar tayanchi Shixobiddin Abdullo kitobdorni va ular orqasidan xoslar tayanchi Do'st eshik oqa va Shamsiddin Muhammad Xalil axtabegini ko'makka yubordik.

Kofirlarning burong'ori necha martabadan islom qo'shini juvong'ori tomon hujum qilib, o'zlarini najot egalari g'oziylarga yetkazdilar. Har gal azamat g'oziylar ba'zilarini zafarli o'qlar zaxmi bilan tamug'ga yuborib, bir qismini qaytardilar. Xoslar tayanchi Mo'min atka va Rustam turkman badkirdor kofirlarning zulmat shior qo'shinlarining orqasidan yo'naldilar. Navkarlar boshlig'i xoslar tayanchi to'g'ri ixlosli Xoja Mahmud Ali atka va hazrati sultonning yaqini hoqoniy davlatining ishonchi Nizomiddin Ali Xalifayi o'shalar ko'magiga yubordi. Aziz va ulug' birodar Muhammad Sulton mirzo, salтанat egasi Odil sulton, mamlakat ishonchi Muizziddin Abdulaziz miroxo'r, Jaloliddin Qutluqqadam qarovul va Shamsiddin Muhammad Ali jang-jang va xoslar tayanchi Shoh Husayn Borakiy mug'ul g'onchi mahkam turib, urush qildilar. El aro buyuk vazirlar vaziri Xoja Kamoliddin Husaynni devon kishilari guruhi bilan ularning ko'makiga yubordik. Barcha jangchilar to'liq sa'y va g'ayrat bilan urushga rag'bit ko'rsatib, «Ayt, ikki ezgulikdan boshqa biror narsani bizdan kutadilarmi? – degan oyatni nazari e'tiborga oldilar va jon berish yurishni qilib, jon olish bayrog'ini ko'tardilar.

Urush-o'ldirish uzoqqa cho'zilib, oxiri ko'rinmas bo'lgandan keyin, ijrosi majburiy farmon yetishdiki, zanjirlangan sherday aroba ketida

turgan podshohga xos askarlardan jangovor yigitlar, yakdillik o'rmonida yotgan arslonlar g'ulning o'ng va so'lidan chiqib, tufakchilarning joyini o'rtada qoldirib, ikki tomondan jang qilsinlar. Ular ufq pardasida ko'ringan tong yorug'idek, aroba ketidan chiqib hujum qildilar. Manhus kofirlarning shafaq tusli qonlarini falak gumbaziga o'xshagan ma'raka maydonida to'kib, ko'pchilik sarkashlarning boshlarini tan falagidan yulduzday maxv qildilar.

Zamona nodiri Ustod Aliquli o'z kishilari bilan g'ulning oldida turib, mardonalik ko'rsatib, temir qo'rg'ondek kofirlar safiga shunday katta jussali toshlarni otardiki, agar u toshni amallar tarozisining pallasiga solsalar, egasi «Kimning toshi og'ir kelsa, u yaxshi turmushda yashaydi», degan nom oladi va agar qattiq tog'ga va baland tepaga otsalar «taralgan yungday» tip-pit qilib yuboradi. Mana shunday tosh, tufak va zarbzan otish bilan ko'pchilik kofirlar jismining binolarini qulatdi.

Podshoh g'ulining tufakandozlari, buyruq bo'yicha, arobadan maydon o'rtasiga kelib, har birlari kofirlardan ko'piga o'lim zaharlarini ichirdilar. Piyodalar zo'r xatarli o'ringa kirib, o'z nomlarini o'rmon sherlari va mardlik maydonining borlari o'rtasida mashhur qildilar.

Bu ahvol munosabati bilan hazrati Hoqondan, g'ulning arobalarini ilgari surishga farmon bo'ldi. Shaxsan podshohning o'zi, o'ng tomondan fath va davlat va so'l tomondan iqbol va nusrat bo'lgani holda, kofirlar qo'shini tomon ko'zg'aldi. Tevarak-atrofdan zafar nishonli qo'shin bu holni mushohida qilib, zo'r qo'shin

dengizida dahshatli to'liqin ko'tarildi va bu dengizning barcha nahang baliqlari shujoatini yuzaga chiqardi. G'ubor zulmati butun maydonni qora bulut kabi qoplab, qilichlarning yaraqlashi chaqmoq chaqishdagi yaltirashdan ham o'tib ketdi. Gardning ko'tarilishi kun yuzini oynaning orqa tomonidagi benur qilib qo'ydi, kaltak uruvchi bilan kaltak yeguvchi, g'olib bilan mag'lub aralashib ketib, birini biridan ajratish qiyin bo'ldi. Zamona sehrgari shunday bir kechani nazarga keltirdiki, unda tiyr (o'q) dan boshqa sayyora, yo'lida mahkam turgan suvorilardan tashqari turg'un yulduzlar ko'rinmas edi.

(Nazm:) Urush kuni qonning nami (yer ostidagi) baliqqa, gard esa, (osmondagi) oyga yetdi. Bu keng dashtda otlarning tuyoqlari zarbidan yer oltiga, osmon sakkizga aylandi.

G'oziy jangchilar, ayni jon olib, jon berib turgan paytda g'ayb nidochisidan: «Qayg'irmang, umidsizlanmang, g'amga tushmang – g'ala-ba sizlarda» – degan xushxabar eshitar, aniq xabarlar yetkazuvchidan: «Allohdan yordam va fath yaqindir, mo'minlarga bashorat qil», degan mujdani tinglardilar, shunday shavq bilan urush qilardilarki, yuqori olam farishtalaridan ularga tahsin nidosi yetardi. Muqarrab farishtalar, parvona kabi ularning boshlaridan aylanardilar. Ikki namoz orasida urush olovi shunday gurulladiki, u mash'allardan falaklarga bayroq ko'tarilardi. Islom lashkarlarining burong'or va juvong'orlari kofirlarning burong'or va juvong'orlarini g'ul bilan birlikda bir yerga to'rladi.

Nomdor jangchilarimiz g'alabasi asarlari va islom bayrog'ining yuqori ko'tarilishi zoxir bo'la bergan sari, u mal'un kofirlar va yaramas dinsizlar bir muddat o'z hollariga hayron bo'lib turdilar. Oxirda jonlaridan ko'ngil uzib, g'ulning o'ng va so'lida hujumga o'tdilar. So'l tomonda ko'proq hujum qilib, o'zlarini yaqin yetkazdilar. Ammo shujaotli g'oziylar, savobni ko'zda tutib, o'q ko'chatini har birlarining ko'kraklari zaminiga o'tqazdilar va hammalarini o'zlarining qora baxtlari kabi, orqaga qaytardilar. Bu holat nusrat va iqbol shobodalarini qutluq navvoblik davlatimiz chamaniga estirdi. Va «Haqiqatan biz sanga yorqin g'alaba eshigini ochdik», mujdasini yetkazdi. Fath go'zalining olamga oro beruvchi jamoli «Alloh senga ulug' nusrat bilan ko'mak beradi», kokili bilan bezalib, parda ostida yashirinib turgan iqbol saodati yordam berib, bu holning guvohi bo'ldi.

Buzuq hindlar o'z hollarini mushkul bilib, «tililgan yungdek» sochilib va «to'zigan palosdek» nobud bo'ldilar. Ko'plari o'lib, ma'raka maydonida qoldilar, bir munchalari boshlaridan kechib cho'larda sarsonlikka tushdilar va qarg'a-quzgunlarga yemish bo'ldilar. O'lganlardan tepalar va boshlardan minoralar yuzaga keldi. Hasanson Mevotiy tufak zarbi bilan o'lganlar qatoriga tizildi. Shuningdek xaloyiq sardori bo'lib kelgan, yo'ldan ozgan sarkashlarning ko'plari tiyr va tufak tegib hayotlarini tugatdilar.

Jumladan, Udaypur viloyatining hokimi 12 ming suvorili Roval Udi Sing Bogariy; to'rt ming

suvorili Roy Chandarbon Chuhon; olti ming suvorili Chandiriy o'lkasining hokimi Pupat Rov mazkur Salohiddin o'g'li; to'rt ming suvorili Gang-u va Karm sing va Dangusi va yana har biri bir guruh boshlig'i va shavkat ham shukuh egasi bo'lgan boshqalari tamug'ga yo'llandilar va bu botqoqlik o'tidan eng chuqurlikka ketdilar. Kofirlarning mamlakati majruh va o'lganlardan jahannamdek to'ldi va jahannamning eng tubi do'zox posboniga jon topshirgan munofiqlardan limmo-lim bo'ldi.

Islom askarlaridan har kim bir tomonga borsa, har qadamda bir sarkashning o'ligini topar edi. O'rdu qochuvchilar ketidan yugursa, har bir qadamini yanchilgan bir hashamatli gavadadan xoli topmas edi.

Hamma hindular o'ldirilgan xor-zor,

Tufak toshi bilan «as'hobi fil» day.

Tanlardan tog'lar bo'ldi ayon,

Har bir tog'da u chashmadan oqardi qon.

Zo'r shukuhli saf o'qining qo'rqinchidan

Qochishardi har bir dasht-u tog' tomon.

933 (hijriy)-yil, 25-sha'bon oyida yozildi.

MUNDARIJA

Nashr haqida	3
Sakkiz yuz to'qson to'qqizinchi yil voqealari.....	7
Vaqoyeyi sanayi tis'a mia	44
Vaqoyeyi sanayi ihdo va tis'a mia	59
Vaqoyeyi sanayi isno va tis'a mia	68
Vaqoyeyi sanayi salos va tis'a mia.....	75
Vaqoyeyi sanayi arbaa va tis'a mia.....	101
Vaqoyeyi sanayi xamsa va tis'a mia.....	113
Vaqoyeyi sanayi sitta va tis'a mia.....	132
Vaqoyeyi sanayi sab' va tis'a mia.....	155
Vaqoyeyi sanayi samon va tis'a mia.....	167
Vaqoyeyi sanayi tis'a va tis'a mia	200
Vaqoyeyi sanayi ihdo asharachqa tis'a mia.....	263
Vaqoyeyi sanayi isno ashara va tis'a mia.....	312
Vaqoyeyi sanayi salosa ashara va tis'a mia.....	345
Vaqoyeyi sanayi arbaa ashara va tis'a mia	368
Vaqoyeyi bist-u panchum	370
Vaqoyeyi sanayi sitta va ishrina va tis'a mia.....	428
Vaqoyeyi sanayi isno va salosina va tis'a mia	434
Vaqoyeyi sanayi salosa va salosina va tis'a mia ...	523
«Farmoni Zahiriddin Muhammad Bobur»	542
Farmoni Zahiriddin Muhammad Bobur g'ozy	549
Vaqoyeyi sanayi arbaa va salosina va tis'a mia.....	574
Vaqoyeyi sanayi xamsa va salosina va tis'a mia.....	589
Vaqoyeyi sanayi sitta va salosina va tis'a mia.....	661

TARJIMALAR

Hindustondan g'olib podshohning qo'l ostiga kirgan joylar daromadining taxminiy hisobi	678
Zahiriddin Muhammad Bobur farmoni.....	681
Zahiriddin Muhammad Bobur g'oziy farmoni	685

Adabiy-badiiy nashr

Zahiriddin Muhammad Bobur

BOBURNOMA

Muharrir
Ma'mura QUTLIYEVA

Musahhah
Madina MAHMUDOVA

Badiiy muharrir
Uyg'un SOLIHOV

Kompyuterda sahifalovchi
Sunnat MUSAMEDOV

Texnik muharrir
Surayyo AHMEDOVA

Litsenziya raqami: AI № 252, 2014-yil 2-oktyabrda berilgan.

Bosishga 2015-yil 30-martda ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobog'i 22,0. Shartli bosma tobog'i 36,96.

Garnitura «Bookman Old Style». Ofset qog'ozi.

Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 80.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi va chop etildi.
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – 278-30-52;

Marketing bo'limi – 128-78-43. faks – 273-00-14;

e-mail: yangiasravlodi@mail.ru

«Yangi asr avlodi» NMM
2015-yilda «Kamolot kutubxonasi»
rukniida chop etilgan quyidagi
kitoblarni taqdim etadi:

ZULFIYA

«Bahor keldi seni so'roqlab»

84x108 1/32, 192 bet, yumshoq muqova

XX asr o'zbek she'riyatining zabardast vakillaridan biri, davlat arbobi Zulfiya Isroilova bugungi kun o'quvchilari uchun yaxshi tanish. Maktab darsliklarida shoiraning qator she'rlarini mutolaa qilganmiz. Vatan, muhabbat, vafu, ezgulik tuyg'ulariga yo'g'rilgan she'rlari barchamizning ko'nglimizdan munosib joy olgan.

Mazkur kitob Zulfiya tavalludining 100 yilligiga bag'ishlab nashrga tayyorlandi. Undan shoira ijodidagi eng sara she'rlar o'rin olgan. Aziz o'quvchilari-miz ushbu to'plamni o'qib, mutolaa zavqidan bahramand bo'ladilar, degan umiddamiz.

MUSA TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEK

«Bolalik xotiralarim»

84x108 1/32, 348 bet, qattiq muqova

Atoqli o'zbek yozuvchisi Musa Toshmuhammad o'g'li Oybek turfa voqealarga boy, mashaqqatli va ayni paytda ajoyib hayot yo'lini bosib o'tgan. Qo'lingizdagi «Bolalik xotiralarim» kitobida u ana shu yo'lning 1917–1918-yillarga qadar bo'lgan qismi bilan siz, hurmatli kitobxonlarni tanishtiradi.

Oybek singari ulug' allomalarning bolalik va yoshlik kezlari ularning ko'cha changitib yurgan oddiy boladan xalqning mutafakkir siymolaridan biriga aylanishi, ayniqsa, yosh avlodlar uchun hamisha maroqli va ibratlidir.

TOHIR MALIK

«Alvido, bolalik»

84x108 1/32, 532 bet, qattiq muqova

Bolalik – umrimiz bahori, orzu-umidlarimiz bilan ulg'ayadigan eng jo'shqin va haroratli damlar. Bolalik – umrimiz mazmunini, qo'yingki, butun hayotimizni belgilab beruvchi shunday bir pallaki, bu davrda biz yaqinlarimizning alohida e'tiboriga ehtiyoj sezamiz. Agar bunday fursatlarda ozgina e'tiborsizlik holatlari kuzatilsa-chi?

Taqdim etilayotgan kitobda aynan shu jarayon bilan bog'liq holatlarni yozuvchi hayotiy voqea-hodisalar asosida yoritib bergan.

ODIL YOQUBOV

«Billur qandillar»

84x108 1/32, 322 bet, qattiq muqova

Odil Yoqubov – o'tgan asrning oltmishinchi – yetmishinchi yillari yoshlarining sevimli adiblaridan biri edi. «Billur qandillar», «Muqaddas», «Muhabbat» kabi qissalar o'sha davr o'quvchilarining axloqiy va ma'naviy tarbiyasiga ijobiy ta'sir etgan, desak xato bo'lmaydi.

Asarlarning barchasida yoshlar o'rtasidagi muhabbat mavzusi yetakchilik qiladi. Chin sevgi, poklik va halollik, muhabbatga yetishish yo'lidagi xudbinliklar, xiyonat kabi munosabatlar o'quvchini asar mohiyatini bilishga undaydi.

Xudbinlik va nohalollik hukm surgan joyda muhabbat so'nadi, hatto o'ladi. Mehr va vijdon muhabbatga yetkazadi. Yashashning mazmuni muhabbat bilan sayqal topadi. Shu boisdan Odil Yoqubov asarlari nafaqat bugungi kun uchun, balki kelajak uchun ham ibratli bo'lib qolaveradi.

SHUKUR XOLMIRZAYEV

«O'n sakkizga kirmagan kim bor»

84x108 1/32, 388 bet, qattiq muqova

Mazkur kitobga O'zbekiston xalq yozuvchisi, iqtidorli adib Shukur Xolmirzayevning eng sara qissa va hikoyalari kiritilgan. Ularda sevgi-muhabbatning o'zgacha talqini, oshiqlik va ojizlik, matonat va razolat, inson ma'naviyati bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy va axloqiy masalalar bayon etiladi.

PIRIMQUL QODIROV

«Yulduzli tunlar»

84x108 1/32, 668 bet, qattiq muqova

Mahoratli yozuvchi Pirimqul Qodirovning ushbu asari o'zbek adabiyotining eng sara tarixiy romanlari sirasiga kiradi. Unda Movarounnahrdek ulkan saltanatning parchalanib ketishi, Temuriylar sulolasining inqirozi, hokimiyatga erishish ilinjida taxt talashib, bir-birlariga qilich ko'targan og'a-ini, tog'a-jiyanlarning fojiaiy qismati aks ettirilgan. Roman voqealari orqali o'quvchi tarixda Temuriylar o'rtasidagi nizolar, fitna, fisq-u fasod tufayli yuzaga kelgan qonli urushlar, ayovsiz xunrezliklar oqibatida behad qonxo'r beklar zulmidan sillasi butkul qurigan xalqning g'oyat nochor ahvoli va uyushqoqlikdan bexabar Temuriylarni Shayboniyxon qanchalar oson mahv etgani bilan tanishadi.

Asarning bosh qahramoni mirzo Bobur odamlardagi bemehrlik, bir-birini ko'rolmaslik, xudbinlik, xiyonat singari jirkanch illatlar bilan g'oyat erta, o'n ikki yoshida taxtga o'tirganida ro'baro' bo'ldi. Asar mutolaasi davomida butun umr Vatan ishqida yonib, sog'inch bilan o'rtanib, «Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim...» deya iztirob chekkan bobokalonimiz dardi kitobxon qalbini larzaga soladi.

ABDULLA QAHHOR

«Muhabbat»

84x108 1/32, 248 bet, qattiq muqova

Abdulla Qahhorning ilk hikoyalar to'plami 1932-yilda chop etilgan. Bugungacha bo'lgan davr mobaynida o'zbek adabiyotida, jumladan, hikoyanavislikda juda ko'p asarlar yaratildi. Sara hikoyalar, deya e'tirof etilgan bir qancha ijod namunalari o'quvchilar hukmiga havola etildi. Ammo Abdulla Qahhor hikoyalari yillar chig'irig'ini pisand etmay, hamon sevib o'qiladi.

Adib qahramonlari o'quvchi uchun qadrdon va ardoqli. Mutolaadan keyingi tanaffusda Unsin uchun qayg'uramiz, Turobjonning xotiniga anor ilinamiz, Qobil boboga taskin bergimiz keladi, ming bir jonli Mastura va uning yafodor eri Akromjonga havas qilamiz. Sodda va kamtar insonlar sizni suhbatga chorlaydi. Beixtiyor yana mutolaaga shoshilasiz. Abdulla Qahhor hikoyalari ana shunday ohanrabo bor...

M.BEHBUDIY VA BOSHQALAR

«Odob-axloq kitobi»

84x108 1/32, 192 bet, yumshoq muqova

O'tgan asr boshlarida yangi tuzum maktablarining tashkil etilishi nafaqat davr farzandlarining, balki millat bolalarining ma'naviyatida tub burilish yasadi, desak xato bo'lmaydi. Zamon ma'rifatparvarlari o'quvchilar uchun qator darsliklar yaratishdi, risolalar chop etishdi, gazeta va jurnallar ochishdi.

Bugungi o'quvchilar aynan o'sha maqolalarni, asarlarni, kitoblarni qayta-qayta o'qishi lozim, chunki ustozlarimizni, boringki ustozlarimizning ustozlarini ma'rifatga chorlagan, ilmga oshno qilgan, ziyoli qilgan asarlar bugungi davr uchun ham qadrlil, ham zarur.